


342  
X.68

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI  
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI

# KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

DARSLIK



«Complex Print» nashriyoti  
TOSHKENT  
2019

TDYU Ixtisoslashtirilgan  
filiali Axborot-resurs  
markazi

Inv. No 2019/00009

**UO'K 342(575.1)(075)  
KBK 67.400.1(5O')ya7  
K 68**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutining Kengashi tomonidan ma'qullangan. 2018-yil 30-oktabrdagi 3-somli bayonnomma

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 7-dekabrdagi 1000-buyrug'iaga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

#### **Mualliflar jamoasi:**

Yu.f.d., akademik, A.X.Saidov – I, II, III boblar; yu.f.d., professor M.X.Rustambayev – XX, XVI boblar; yu.f.d., professor O.Xusanov – XXIV bob; yu.f.d., professor X.B.Boboyev – IV bob yu.f.n., dotsent Sh.G.Asadov bilan hammualliflikda; yu.f.d., professor D.Q.Ahmedov – V bob mustaqil izlanuvchi J.D.Axmedov bilan hammualliflikda; yu.f.d. M.M.Mirakulov – VI bob; yu.f.d., professor M.B.Uzmanov – XII bob; yu.f.n. N.M.Qo'shayev VIII bob yu.f.d., professor M.B.Uzmanov bilan hammualliflikda; yu.f.d., professor X.T.Mamatov – XXIX bob dotsent M.I.Maxsarov bilan hammualliflikda; yu.f.d., professor F.X.Raximov – XXVIII bob yu.f.d. N.I.Xayriyev bilan hammualliflikda; yu.f.d. D.M.Mirazov – X bob; yu.f.d. G.R.Malikova – XXV bob; yu.f.n., dotsent A.E.Raxmonov – IX, XXIII bob; yu.f.n., dotsent O.K.Turg'unov – XXVII bob; XI bob yu.f.n., dotsent G.T.Xakimov bilan hammualliflikda; yu.f.n., professor G.Yuldasheva – VII bob; yu.f.n., dotsent Sh.X.Zulfiqorov – XXI bob, XXX bob; yu.f.n., dotsent I.R.Bekov – XVI bob; yu.f.n., dotsent M.M.Nurmatov – XV bob; yu.f.n. M.Sh.Choriyev – XIV bob yu.f.n., dotsent M.M.Nurmatov bilan hammualliflikda; yu.f.n., dotsent A.M.Xoshimxonov – XIII bob; yu.f.n. J.Abdullayev, yu.f.n. U.Sh.Xusainov – XVIII bob; yu.f.n., dotsent A.A.Nuridullayev – XVII bob; yu.f.n. A.E.Yo'ldoshev – XIX bob; E.O.Xomidov – XX bob G.B.Nurmuxammedova bilan hammualliflikda.

Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / A.X.Saidov, M.X.Rustambayev, O.Xusanov va boshqalar. - Toshkent: Complex Print, 2019. - 792 b.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida shakllangan Konstitutsiyaviy huquq tarmog'ini, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ustuvor konstitutsiyaviy institutlarni o'zida qamrab olib, unda kitobxon milliy konstitutsiyaviy huquq tarixini, rivojlanish qonuniyatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, burch va majburiyatlari, ularning huquqiy kafolatlari, davlat hokimiyyati organlari tizimi, tuzilishi va shakllanishi, ma'muriy - hududiy tuzilish masalalarini o'rganadi.

Mazkur darslik yuridik oliy o'quv yurtlari talabalari, tinglovhilarli, yuridik o'quv yurtlari o'qituvchilarli, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va boshqa mutaxassislarining foydalanshlari uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** yu.f.d., professor, O.T.Xusanov.

#### **Taqrizchilar:**

**Muxamedov O'.X.** IIIV Akademiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari, yu.f.d., prof.  
**Tultyev I.T.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi  
Akademiyasi "Fuqarolik jamiyatni institutlari boshqaruvi" kafedrasini  
mudiri, yu.f.d., dotsent

**ISBN 998-6565-394-456-3**

## KIRISH

Har bir xalqning taqdirida muhrlanib qoladigan tarixiy hujjatlar millat ravnaqi, davlatchilik poydevorining mustahkam bo‘lishi uchun xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbek xalqi tarixida ham keskin burlish yasagan, istiqlol uchun kurashlar samarasi bo‘lgan, ahamiyati jihatidan asrlarga tatiflik huquqiy hujjatlar qatorida, Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyamizni alohida ehtirom bilan tilga olamiz. Mustaqil davlatchilikning belgisi hisoblanmish Konstitutsiya, avvalo, millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. Tom ma‘noda yangi demokratik tuzumni barpo etish maqsadida qabul qilingan Konstitutsiyamizning g‘oyasi, asosiy prinsip va qoidalari umume‘tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga, xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima, “Asosiy prinsipler”, “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”, “Jamiyat va shaxs”, “Ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi”, “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi”, “Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi” deb nomlangan 6 ta bo‘lim, 26 ta bob, 128 moddani o‘z ichiga oladi.

Xalqimiz Konstitutsiyamizni qabul qilinishi orqali dunyo hamjamiyatiga o‘zining umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini namoyon qildi. Ushbu umuminsoniy qadriyatlarning diqqat markazida inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini ta‘minlash davlatimiz oldidagi oliy mas‘uliyat ekanligi Konstitutsiyamizning asosiy g‘oyasi sifatida tanlab olindi. Konstitutsiyamizning barcha tamoyillari, avvalo, inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, davlatning majburiyati ushbu huquq va erkinliklarni ta‘minlashda aks etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma‘ruzalarida Konstitutsiyaning mazmun- mohiyatiga to‘xtalar ekan, quyidagi fikrlarga alohida ta‘kidlagan edilar: “Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda

munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarimizning zamirida Asosiy qomusimizning hayotbaxsh qoidalari xizmat qilmoqda desak, hech ham xato qilmagan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmoni bilan qabul qilingan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ham aynan mamlakatimizda istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan konstitutsiyaviy islohotlarni nazarda tutadi.

Konstitutsiya davlat hokimiyatini shakllantirish, faoliyatini tashkil etishda qonunlarga rioya etilishining asosiy qoidalarini ifoda etish bilan birga, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikning ta‘minlanishi, insonlar ongi va tafakkurining ma‘naviy va ma‘rifiy yuksalishi uchun poydevor hisoblanadi.

Asosiy qonunimizning muqaddimasi va boshqa tarkibiy qismlaridan, Konstitutsiyamizning mohiyat va mazmunini bilish mumkin. Unda adolat, ma‘naviyat, haqiqat va odillik, milliy axloqiy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalari kabi mezonlar talabidagi qoidalalar mavjudki, bu holat, Konstitutsiyamizni ulug‘lash, uni birlamchi oliy yuridik kuch manbayi deb hisoblash hamda ustuvorligini tan olishga undaydi.

Prezidentimiz ta‘birlari bilan aytganda, “**Bosh qonunimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so‘zsiz amal qilish – barchamizning sharaflı burchimizdir**”<sup>2</sup>.

Mazkur darslik orqali Konstitutsiyamizning eng ustuvor huquqiy hujjat ekani, unda mohiyatan yangi konstitutsiyaviy tuzum asoslarini mustahkamlangani hamda undagi prinsiplar va qoidalarga ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida amal qilinayotgani aniq misollar orqali e’tirof etiladi.

Konstitutsiyaviy huquq mamlakat huquq tizimining yetakchi sohasi bo‘lib, u hokimiyat bilan shaxsning o‘zaro munosabatlarini, davlat organlari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarołarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari

<sup>1</sup> Халқ сўзи. 2018 йил 8 декабрь.

<sup>2</sup> Уша жойда.

holatini belgilovchi huquqiy normalar yig‘indisidir. Ta‘kidlash lozimki, konstitutsiyaviy huquq fani bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lish nafaqat o‘qituvchi o‘tadigan dars mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishni, balki kursant hamda talabalarning mustaqil shug‘ullanishini, Konstitutsiya va qonunlarni, tavsiya etilgan adabiyotlarni muntazam o‘rganib borishni taqozo qiladi.

Darslikni o‘qib chiqish jarayonida har bir kitobxon yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan huquqiy islohotlarga alohida e‘tibor qaratса, foydadan xoli bo‘lmас edi.

Ushbu darslik kitobxonlarning Konstitutsiyaviy-huquqiy ongi yuksalishi hamda huquqiy madaniyatning shakllanishida bevosita xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘mondoni,  
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,  
general-polkovnik B.X.Tashmatov*

# **BIRINCHI BO'LIM. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ TUSHUNCHASI, PREDMETI, TIZIMI, MUSTAQIL HUQUQ TARMOG'I VA FAN SIFATIDA**

## **I BOB. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ PREDMETI, TUSHUNCHASI VA USLUBLARI**

- 1-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining paydo bo'lishi.
- 2-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi tushunchasi.
- 3-§ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi predmetining o'ziga xos xususiyatlari.
- 4-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi obyekti.
- 5-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi subyektlari.
- 6-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining nomi xususida.
- 7-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy o'quv kursining metodlari.
- 8-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimi.

### **1-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining paydo bo'lishi**

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimining mustaqil sohasi va alohida yuridik fani sifatida XVIII asrning oxirida paydo bo'lib, ushbu fanning asosiy g'oyalari va institutlari o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

«Konstitutsiya» atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “o'rnatish”, “belgilash” degan ma'nolarni anglatadi hamda u o'zining uzoq tarixiga ega. Dastlab “konstitutsiya” iborasi “siyosiy tuzum” ma'nosini anglatib, XVII asrda Fransiyada ushbu atama renta hamda renta Shartnomasiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik “Konstitutsiya” so'zi o'zining asl ma'nosiga qaytib, ushbu atama bilan huquqiy tomondan belgilab qo'yilgan “davlat tuzumi”, deb nomlana boshlagan. Buyuk Fransuz inqilobi arafasida esa “Konstitutsiya” iborasi orqali “davlatning ahvoli” ifodalangan.

O'rta asrlarda Sharqda “Konstitutsiya” iborasining aynan o'zi bevosita ishlatilmagan bo'lsa-da, lekin XV-XVI asrlarda Amir Temur va Temuriylar davlatining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi “Temur tuzuklari” sharqona huquqiy madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjat edi.

Konstitutsiyaviy huquqning paydo bo‘lishiga va taraqqiyotiga bir qator konstitutsiyaviy ahamiyatga molik hujjatlar katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Bunday hujjatlar jumlasiga 1215-yilda Angliyada qabul qilingan “Erkinliklarning buyuk Xartiyasi”, 1697-yilgi “Xabeas korpus akt” (“Habeas Corpus Act”) va boshqa bir qator hujjatlar kiradi. Yuqorida sanab o‘tilgan hujjatlar hozirgi kunda ham Buyuk Britaniyada amaldagi konstitutsiyaviy hujjatlardan bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquq fani o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot davomida vujudga kelgan.

Konstitutsiyaviy huquqning shakllanishida bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatgan. Bunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi.

**Birinchidan**, dastlabki konstitutsiyaviy ahamiyatga molik hujjatlar. Masalan, AQSHning 1776-yilgi “Mustaqillik deklaratsiyasi” va 1789-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklaratsiyasi”ni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Amerikaning “Mustaqillik Deklaratsiyasi”da ilk bor “Xalq davlat hokimiyatning manbayidir” degan konstitutsiyaviy qoida mustahkamlangan edi. Fransuz Deklaratsiyasining 16-moddasida esa “Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipiga ega bo‘lmagan xalq konstitutsiyasiga ega bo‘lmaydi”, deb ta‘kidlangan.

**Ikkinchidan**, insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli va umuminsoniy huquqiy qadriyat hisoblanadigan huquqiy nazariya va ta‘limotlar. Masalan, inson huquqlarining tabiiy ajralmas ekanligi to‘g‘risidagi ta‘limot konstitutsiyaviy huquqning shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Tabiiy huquq konsepsiysi AQSHning Mustaqillik Deklaratsiyasida hamda Inson va fuqaro huquqlari Fransiya Deklaratsiyasida ilk bor mustahkamlangan edi. Hozirgi kunda inson huquqlari konstitutsiyaviy huquqning (predmetini) tashkil etuvchi asosiy masalalardan biridir.

**Uchinchidan**, dunyoda buyuk mutafakkirlarning davlat va huquqqa oid qoldirgan ulkan ilmiy-huquqiy merosi. Bunday olimlardan fransuz mutafakkiri **Sharl Lui Monteskeni** ko‘rsatish mumkin. U o‘zining “**Qonunlar ruhi**” asarida hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqining asosiy tamoyillaridan hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab bergen.

Sharqning buyuk qomusiy allomalari Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiylar tomonidan bildirilgan davlat va

huquqqa oid fikrlar ham Sharqda konstitutsiyaviy ta'limotlarning shakllanishida katta rol o'ynagan.

To'rtinchidan, turli davlatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligi va amaliyoti. XVIII-XIX asrlarda Amerika va Yevropada qabul qilingan konstitutsiyalar konstitutsiyaviy huquqning mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanishida katta rol o'ynagan. Chunki konstitutsiyalar konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda har bir davlatda konstitutsiyaviy huquqning paydo bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Hozirgi zamон konstitutsiyaviy huquqining predmeti esa, XX asrning ikkinchi yarmida o'zining yakuniy shaklini oldi.

## **2-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining o'ziga xos xususiyati Shundan iboratki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi va ta'minlaydi. Bundagi ustuvor yo'nalishlarni va oliy qadriyatlarni aniqlaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy qadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaviy institutlar esa o'z navbatida jamiyat va davlat tuzilishining prinsiplarini, davlat hokimiyati organlari tuzilishi va tizimini, davlat hokimiyati tashkil etilishi va nazorat qilinishini o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, avvalombor, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soladi. Ana shunday munosabatlar inson, jamiyat va davlat o'rtasida kelib chiqadi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari:

birinchidan, qonunchilik doirasida siyosiy munosabatlarning eng muhim qismini tartibga soladi;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni muayyan tomonlarga yo'naltiriladi, ya'ni konstitutsiyaviy huquqning norma va prinsiplari ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotini belgilab beradi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi o'ziga xos predmetga ega. Uning predmetini, asosan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquqiy normalar tizimi (yig'indisi)dir.*

### **3-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi predmetining o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi – mustaqil huquq sohasi bo'lib, u milliy huquqiy tizimning o'zagi, yadrosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi – muayyan konstitutsiyaviy-huquqiy normalar tizimi (yig'indisi) dan iborat.

Huquqshunoslik fanida Konstitutsiyaviy huquqning predmetini aniqlashda uch yondoshuvni ko'rsatish mumkin.

**Birinchi yondoshuv:** konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning predmetini davlat hokimiyatini amalga oshirish tashkil etadi. Bu yondoshuv rossiyalik huquqshunoslarga xosdir. Konstitutsiya tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyatini davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish masalalari tashkil etadi.

**Ikkinci yondoshuv:** konstitutsiyaviy huquqning predmetini, avvalambor, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tashkil etadi. Ya'ni davlat hokimiyati manfaatlari inson manfatlaridan kelib chiqishi kerak.

**Uchinchi yondoshuv:** konstitutsiyaviy huquq predmetini davlat hokimiyati va inson huquqlariga oid munosabatlarni tartibga solish tashkil etadi. Shunday qilib, bu yondoshuv birinchi va ikkinchi yondoshuvlarni o'zida uyg'unlashtiradi. Bu fikrni mahshur fransuz konstitutsiyashunos olimi **Anri Oriu** shunday ifodalagan edi: "*Konstitutsiyaviy huquqning asosiy maqsadi-davlat hokimiyati va inson huquqlari, erkinliklarining muayyan nisbatda yashashini ta'minlashdan iborat*".

Hozirgi zamon konstitutsiyalari esa yana bir yangi, uchinchi guruh, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni ham tartibga soladi. So'z

“Shaxs-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish to‘g‘risida ketmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi *predmeti* uchta katta ijtimoiy munosabatlar guruhidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi:

**birinchidan:** konstitutsiyaviy tizimni tashkil etish, ta‘minlash va himoya qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni;

**ikkinchidan:** insonlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini tartibiga solish, himoya qilish, qo‘riqlash va kafolatlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni;

**uchinchidan:** “Shaxs-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi eng muhim munosabatlarni tartibga soladi.

#### **4-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi obyekti**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining **obyekti** – konstitutsiyaviy huquq normalari tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq obyektiga quyidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalar kiradi:

**birinchidan**, konstitutsiyaviy huquqning asosiy prinsiplari;

**ikkinchidan**, davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish.

**Konstitutsiyaviy huquq obyekti** – ushbu huquq sohasining chegaralarini belgilaydi va boshqa huquq sohalaridan farqlanishini ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaviy huquq obyekti, avvalambor, konstitutsiyaviy huquq tushunchasini berishga imkon yaratadi. Bunda konstitutsiyaviy huquq tushunchasi uning asosiy institutlarini ochib berish yo‘li bilan beriladi.

#### **5-§. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi subyektlari**

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi subyektlari konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan hamda muayyan huquq va majburiyatlarga ega jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq subyektlarini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin:

**birinchi guruh:** jismoniy shaxslar. Har bir davlatda har bir shaxs muayyan huquqiy maqomga ega bo‘ladi va bu maqom, avvalambor, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan belgilanadi. Shaxs o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra, fuqaro, chet ellik yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lishi mumkin. Shaxs o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra, turli hajmdagi siyosiy, shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga ega bo‘ladi. Shaxsiy huquqlar barcha insonlarga tegishlidir.

**ikkinchi guruh:** yuridik shaxslar. Egallagan maqomi konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan yuridik shaxslar konstitutsiyaviy huquqning subyektlari bo‘ladi va ularning huquqiy maqomi turlichadir.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi subyektlari jumlasiga quyidagi yuridik shaxslar kiradi:

- davlat va uning organlari;
- jamoat birlashmalar;
- siyosiy partiyalar;
- fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari.

Konstitutsiyaviy huquqning asosiy subyekti insondir. Inson, uning huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy huquqning mazmun mohiyatini belgilab beradi.

#### **6-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining nomi xususida**

Yuridik adabiyotlarda “*Konstitutsiyaviy huquq*” iborasi uch xil ma‘noda qo‘llanadi:

**birinchidan**, konstitutsiyaviy huquq milliy huquqiy tizimning mustaqil huquq sohasi sifatida;

**ikkinchidan**, konstitutsiyaviy huquq eng muhim yuridik fanlardan biri sifatida;

**uchinchidan**, konstitutsiyaviy huquq yuridik ta‘lim tizimida muhim o‘rin tutgan o‘quv kursi sifatida qo‘llanadi.

Xorijiy mamlakatlarda ushbu o‘quv kursi, odatda, ikki xil nomlanadi.

1. Fransiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda ushbu o‘quv kursi “Konstitutsiyaviy huquq” deb ataladi.

2. Germaniya, Skandinaviya, Shvetsiya kabi davlatlarda “Davlat huquqi” deb yuritiladi.

Ayrim huquqshunos olimlar bu ikki nomni sinonim sifatida bir xilda qo'llash mumkin desalar, boshqa huquqshunoslар ular o'rtasida jiddiy farqlar bor, deb hisoblaydi. Fikrimizcha, bu o'quv kursining nomlanishiga u yoki bu davlatda konstitutsiyaviy huquqning rivojlanishinida o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlari ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Fransiya va Buyuk Britaniyada konstitutsiyaviy huquqning shakllanishida konstitutsiyaviy ahamiyatga molik tarixiy hujjatlar katta rol o'ynagan. Germaniya kabi davlatlarda esa konstitutsiyaviy huquqning rivojlanish jarayonida davlat, uning institutlari masalasiga ko'proq e'tibor berilgan.

Bizning fikrimizcha, bu fanni “Konstitutsiyaviy huquq” deb nomlash to'g'riroqdir. Shuning uchun ham biz “O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi” deb nomlanishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

### **7-§. “O'zbekistong Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi” o'quv kursining metodlari**

Konstitutsiyaviy huquq o'quv kursining o'rghanishda bilish nazariyasining quyidagi metodlari keng qo'llaniladi.

1. tarixiy uslub;
2. qiyosiy uslub;
3. mantiqiy uslub;
4. tizimli uslub;
5. sotsiologik uslub;
6. matematik uslub.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqini o'rghanishda qo'llaniladigan uslublar yig'indisi ushbu o'quv kursining metodologiyasini tashkil etadi.

### **8-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimi**

Har bir davlat o'zining alohida Konstitutsiyasiga ega. Shu bilan birga, barcha mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqiga xos bir qator umumiy jihatlar mavjud.

Konstitutsiyaviy huquq tarkiban uch elementdan tashkil topgan:  
birinchidan, konstitutsiyaviy -huquqiy normalar;  
ikkinchidan, konstitutsiyaviy - huquqiy prinsiplar;  
uchinchidan, konstitutsiyaviy- huquqiy institutlar;

Konstitutsiyaviy huquqiy-normalar konstitutsiyaviy huquqning birlamchi asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy normalarda huquq normasining uch qismi gipoteza, dispozitsiya, sanksiya har doim ham mavjud bo‘lmasi mayda. Ko‘pincha konstitutsiyaviy normalarda sanksiya ko‘rsatilmaydi. Konstitutsiyaviy norma faqat dispozitsiyadan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, “Parlament ikki palatadan iborat”.

Konstitutsiyaviy huquq prinsiplari ichida huquqiy prinsiplar markaziy o‘rinni egallaydi. Ko‘pgina mamlakatlar konstitutsiyalarida qonun ustuvorligi, inson huquqlarining oliy qadriyat ekanligi, hokimiyat vakolatlarini taqsimlash, davlatning dunyoviy sotsial xarakteri kabi prinsiplar mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy normalar muayyan konstitutsiyaviy institutlarni tashkil etadi. Konstitutsiyaviy institutlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

birinchi guruh; inson huquqlari instituti;  
ikkinchi guruh; davlat hokimiyati instituti;

O‘z navbatida bu ikki institut yana o‘zining tarkibiy institutlariga bo‘linadi. Masalan, inson huquqlari instituti, shaxsiy huquqlar instituti, siyosiy huquqlar instituti, iqtisodiy huquqlar instituti, madaniy huquqlar instituti, fuqarolar majburiyatlari institutlariga bo‘linadi.

Davlat hokimiyati instituti esa, davlat boshlig‘i, parlament, sud hokimiyati, saylov huquqi, prezidentlik, konstitutsiyaviy nazorat hamda ombudsman instituti kabilarga bo‘linadi.

Mamlakatda qaysi konstitutsiyaviy institutlarining mavjud bo‘lishi har bir davlatning Konstitutsiyasi bilan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimi mamlakatimizning 1992-yilgi Konstitutsiyasi tuzilishidan kelib chiqadi. Shunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimini ko‘rsatish mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asoslari.

2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari.
3. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari.
4. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari.

### *O'zini-o'zi nazorat qilish savollari*

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining predmeti nimani o'rgatadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining manbalari haqida nimalarни bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining o'rghanish metodlarini sanab bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining vazifasi nimalardan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining subyektlarini sanab bering.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanining tizimi nimalardan iborat?

## II BOB. KONSTITUTSIYA NAZARIYASI

- 1-§. Konstitutsiya tushunchasi.
- 2-§. Konstitutsiyaning mohiyati.
- 3-§. Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo‘lish (klassifikatsiyalash).
- 4-§. Formal va moddiy Konstitutsiya. Yuridik va amaliy Konstitutsiya.
- 5-§. Konstitutsianing yuridik xususiyatlari.
- 6-§. Konstitutsianing yuridik mazmuni.
- 7-§. Konstitutsianing funksiyalari.
- 8-§. Konstitutsianing tuzilishi.
- 9-§. Konstitutsiya loyihalarini tayyorlash.
- 10-§. Konstitutsiyani qabul qilish usullari.
- 11-§. Konstitutsiyani himoya qilish. Konstitutsiyaviy nazorat.

### **1-§. Konstitutsiya tushunchasi**

«Konstitutsiya» tushunchasi qadimda paydo bo‘lgan bo‘lib, turli davrlarda Konstitutsiyaga juda ko‘p ta‘riflar berilgan, ulardan bir necha misołlar keltiramiz.

**Birinchi** ta‘rif: fransuz davlatshunos olimi J.Byurdoning Konstitutsiyaga shunday ta‘rif beradi: “*Konstitutsiya - siyosiy hokimiylatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishga oid qoidalar yig‘indisidir*”.

**Ikkinci** ta‘rifda esa ushbu (yuqoridagi) ta‘rifga amerikalik olim K.Berd “Fuqarolar erkinliklari” tushunchasini qo‘sadi.

**Uchinchi** ta‘rif sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuezening ta‘rifini berashimiz mumkin: “*Konstitutsiya – bu qonun kuchiga ega bo‘lgan formal hujjat bo‘lib, uning yordamida jamiyat o‘z-o‘zini boshqaradi hamda o‘zining turli idoralari bilan shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o‘rnatadi*”.

Ko‘pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi.

Shu ma‘noda, *Konstitutsiya – davlatning Asosiy Qonuni bo‘lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.*

## **2-§. Konstitutsiyaning mohiyati**

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta‘riflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya – xalq (millat) ning umumiy irodasini ifodalovchi o‘ziga xos ijtimoiy shartnomadir deydilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliv huquqiy normaning ifoda bo‘lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha, *Konstitutsiya – umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umumlashgan in’ikosidir.*

## **3-§. Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo‘lish (klassifikatsiyalash)**

Turli mamlakatlardagi konstitutsiyalarni turli mezonlarga (kriteriyalarga) asoslanib, har xil guruhlarga (turlarga) bo‘lish mumkin.

**Birinchidan**, konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- Yuridik Konstitutsiya (formal) – davlatning Asosiy Qonuni.
- Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy) – amaldagi real ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.
- Tirik Konstitutsiya – AQSh Oliy Sudi bu – Konstitutsiyani o‘zgarayotgan ijtimoiy mezonlarga moslab kelmoqda.
- Fiktiv (soxta) Konstitutsiya – SSSRning 1936-yilgi Konstitutsiyasi.
- Moddiy Konstitutsiya – konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.
- Formal Konstitutsiya – Asosiy Qonun bo‘lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliv yuridik kuchga ega.

**Ikkinchidan**, konstitutsiyalarni shakliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- Yozma konstitutsiyalar.

· Og'zaki (yozilmagan) konstitutsiyalar – Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.

· Yaxlit konstitutsiyalar – Konstitutsiya matni yaxlit bo'lib, bir vaqtda qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston, Rossiya, Braziliya Konstitutsiyalari yaxlit Konstitutsiyalarga misol bo'la oladi.

· Yaxlit bo'limgan (noyaxlit) konstitutsiyalar – bunday Konstitutsiyalar turli vaqtida qabul qilingan qonunlardan iborat bo'ladi. Masalan, Shvetsiya, Finlandiya, Isroil konstitutsiyalari.

· Yumshoq konstitutsiyalar – bunday Konstitutsiyalar oddiy qonunlar kabi o'zgartiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya Konstitutsiyasiga 350ga yaqin qonunlar kiradi va oddiy tartibda o'zgartiriladi.

· Qattiq konstitutsiyalar – alohida murakkab tartibda o'zgartiriladi. Masalan, AQSh, Rossiya, O'zbekiston konstitutsiyalari.

· Doimiy konstitutsiyalar. Aksariyat konstitutsiyalar doimiydir.

· Vaqtinchalik (muvaqqat) konstitutsiyalar – Iroqda 1970-yil Birlashgan Arab Amirligida 1971-yildan beri harakatda bo'lган konstitutsiyalar.

**Uchinchidan**, konstitutsiyalarni ularning ijtimoiy mazmuniga qarab ham bir necha turga bo'lish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ortiq Konstitutsiya bor (federativ davlatlar subyektlarining Konstitutsiyalari bilan birga). Bu Konstitutsiyalar turli tarixiy davrda qabul qilingan bo'lib, har xil ijtimoiy mazmunga ega.

· G'arb mamlakatlari Konstitutsiyalari.

· Rivojlanayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari.

· O'tish davri mamlakatlari Konstitutsiyalari.

· Teokratik davlatlar Konstitutsiyalari.

Konstitutsiyalarni quyidagi turlarga ham bo'lish mumkin:


· Demokratik Konstitutsiyalar.

· Avtoritar Konstitutsiyalar.

· Totalitar Konstitutsiyalar.

Konstitutsiyalarni turli guruhlarga bo'lish tabiiydir. Har qanday klassifikatsiya konstitutsiyalarni u yoki bu jihatini qo'shish uchun xizmat qiladi. filiali Axborot-resurs markazi

Inv.No 2019/000095  
17



#### **4-§. Formal va moddiy Konstitutsiya. Yuridik va amaliy Konstitutsiya**

Konstitutsiyaviy huquq fanida Konstitutsiya tushunchasi ikki xil ma'noga ega, deb qaraladi. Shu ma'noda *formal* va *moddiy* Konstitutsiya farqlanadi.

Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquq fanida formal Konstitutsiya deganda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan, qabul qilinishi va o'zgartirilishi alohida tartibda amalga oshiriladigan qonun tushuniladi.

Moddiy Konstitutsiya deganda esa davlat hokimiyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi. Bundagi asosiy narsa tartibga solish predmeti va ijtimoiy munosabatlarning mazmunidir.

Fransuz olimi F.Ardan: "Konstitutsiya – davlat hokimiyatining sinonimidir. Shuning uchun, hatto yozma hujjat bo'lmaganda ham davlat o'z Konstitutsiyasiga ham ega bo'ladi. Agar davlat yozma hujjatga ega bo'lganda ham Konstitutsiyani o'zida aks ettirmaydi", – deb yozgan edi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy huquq fanida moddiy yoki amaliy Konstitutsiya deganda, davlat hokimiyatini hayotdagi amalga oshirilishing tushiniladi.

*Moddiy Konstitutsiya* – real harakatdagi amaliy Konstitutsiyadir.

*Formal yoki yuridik Konstitutsiya* – davlatning asosiy qonunidir. Yuridik Konstitutsiya davlat hokimiyatini tashkil etish va shaxsni huquqiy maqomini belgilash asoslarini mustahkamlaydi.

#### **5-§. Konstitutsianing yuridik xususiyatlari**

Konstitutsiya eng muhim yuridik hujjat, oliy normativ – huquqiy akt sifatida quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

1. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonunidir.
2. Konstitutsiya – oliy yuridik kuchga ega.
3. Konstitutsiya alohida tartibda qabul qilinadi va o'zgartiriladi.
4. Konstitutsiya – eng muhim siyosiy hujjat.
5. Konstitutsiya – eng muhim mafkuraviy hujjat.
6. Konstitutsiya – eng muhim yuridik hujjat.
7. Konstitutsiya milliy huquqiy tizimning o'zagini (yadrosini) tashkil etadi.

## 8. Konstitutsiya – huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning asosi.

### **6-§. Konstitutsyaning yuridik mazmuni**

Konstitutsiyalarning yuridik mazmuni uning tarkibini tashkil etuvchi normalarda ifodalanib, ushbu konstitutsiyaviy normalar shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuridik mazmunini quyidagi konstitutsiyaviy normalar tashkil etadi:

- qonun chiqaruvchi;
- ijroiya;
- sud organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslarini yaratuvchi;
- inson huquqlari va erkinliklarini tartibga soluvchi normalar;
- fuqarolik jamiyatasi asoslarini tashkil etuvchi;
- tashqi siyosat asoslarini tashkil qiluvchi;
- moliya, mudofaa, xavfsizlik masalalarini tashkil etuvchi;

Bugungi kunga kelib, Konstitutsiyalarning konstitutsiyaviy tartibga solish predmeti doirasining kengayib borishi esa, hozirgi zamon Konstitutsiyalariga xos alohida xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

### **7-§. Konstitutsyaning funksiyalari**

Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sohalarga qarab Konstitutsyaning quyidagi turli funksiyalarini ko'rsatish mumkin.

- Yuridik funksiyalari – huquqning asosiy manbayi.
- Siyosiy funksiyalari davlat hokimiyati tashkil etilishining asoslarini o'rnatadi.
- Mafkuraviy funksiyalari jinoyatning eng asosiy ma'nnaviy-g'oyaviy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

### **8-§. Konstitutsyaning tuzilishi**

Ko'pchilik Konstitutsiyalar muqaddima (preamble), asosiy normativ qism va yakunlovchi qismlardan iborat bo'ladi.

Muqaddima qismida jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy bosqichlari hamda rivojlanish istiqbollari ko'rsatib beriladi.

Asosiy qism bo'lim, bob va moddalardan tashkil topadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima, olti bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

Yakunlovchi qism esa davlat hokimiyatining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Ayrim Konstitutsiyalarda ularga kiritilgan qo'shimchalar hajmi juda katta bo'ladi. Ba'zi konstitutsiyalarda esa ilovalar ham bo'ladi.

### **9-§. Konstitutsiya loyihalarini tayyorlash**

Konstitutsiya loyihalari turli davlatlarda turlicha tayyorlanadi. Konstitutsiya loyihalarini tayyorlashning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

- Loyiha maxsus konstitutsiyaviy komissiya tomonidan tayyorlanadi.
- Loyihalar siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari tomonidan taqdim etiladi.
- Loyiha parlament yoki hukumat tomonidan tayyorlanadi. Masalan, Fransyaning sobiq Prezidenti De Goll Fransyaning 1958-yilgi Konstitutsiyani tayyorlashda foyol ishtirok etган.
- Loyihani tayyorlashda sobiq mustamlaka qiluvchi mamlakatlar faol ishtirok etadi. Masalan, Buyuk Britaniya o'zining sobiq mustamlaka davlatlarida ularning Konstitutsiyalarini tayyorlashda qatnashgan.
- Loyiha Konstitutsiyaviy ta'sis majlisi tomonidan tayyorlanadi. Bunga Italiya (1947-yilgi), Braziliya (1988-yilgi), Rossiya (1993-yilgi) Konstitutsiyalari misol bo'la oladi.

### **10-§. Konstitutsiyani qabul qilish usullari**

Konstitutsiyani qabul qilishning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

- Ta'sis (konstitutsiyaviy) majlis tomonidan. Braziliya (1988), Portugaliya (1976), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991) Konstitutsiyalari shu usul bilan qabul qilingan.
- Amaldagi parlament tomonidan – O'zbekiston (1992) Xitoy (1992), Tanzaniya (1977) Konstitutsiyalari misolida.

·Referendum yo‘li bilan – Rossiya (1993), Fransiya (1958), Qozog‘iston (1995), Kuba (1976), Chili (1980) kabi davlat konstitutsiyalari referendum yo‘li bilan qabul qilingan.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda Konstitutsiyalar hadya etish yo‘li bilan ham qabul qilinadi. Hadya etishning 3 yo‘li mavjud:

·Mutlaq monarxiya sharoitida Konstitutsiyani o‘z xalqiga podsho, qirol, sulton, monarx hadya qiladi. Buni Nepal (1962), Saudiya Arabistoni (1992) Konstitutsiyalari misolida ko‘rishimiz mumkin.

·Metropoliya mustamlakachi davlat o‘z mustamlakasiga Konstitutsiya hadya qiladi va uning mustaqil davlatligini tan oladi. Buyuk Britaniya 1979-yil Zimbabvega Konstitutsiya hadya qilgan.

·Harbiy yoki revolyutsion Kengash Konstitutsiyani hadya qiladi. Masalan, Misr, Suriya, Iroq, Afg‘oniston Konstitutsiyalari shu tarzda qabul qilingan.

## **11-§. Konstitutsiyani himoya qilish. Konstitutsiyaviy nazorat**

Konstitutsiyaviy nazorat - davlat hokimiyati organlari faoliyati va normativ-huquqiy hujjatlari Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish iborat faoliyatdir.

Konstitutsiyaviy nazorat obyektlari qatoriga davlatning ichki qonunlari, hali kuchga kirmagan xalqaro shartnomalari, ijroiya hokimiyatning hujjatlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish aktlari, ayrim hollarda jamoat birlashmalarining aktlari kiradi.

Konstitutsiyaviy nazorat obyektlari turli davlatlarda turlichadir.

Konstitutsiyaviy nazorat o‘z mohiyatiga ko‘ra, birinchidan, dastlabki, ya‘ni normativ –huquqiy hujjatning kuchga kirguniga qadar tekshirilishi va ikkinchidan, keyingi, ya‘ni normativ–huquqiy hujjatning kuchga kirganidan so‘ng tekshirilishidan iborat.

Huquqiy oqibatlarga ko‘ra, konstitutsiyaviy nazorat qaror qiluvchi va tavsiyaviy nazoratga bo‘linadi. Qaror qiluvchi konstitutsiyaviy nazoratda konstitutsiyaviy, deb topilgan normativ–huquqiy hujjat o‘zining yuridik kuchini yo‘qotadi. Tavsiyaviy konstitutsiyaviy nazoratda, esa shu me‘yoriy huquqiy hujjatni qabul qilgan organga uni bekor qilish tavsiya etiladi.

Majburiyligi darajasiga ko'ra, konstitutsiyaviy nazorat majburiy va fakultativ turlarga bo'linadi. Majburiy konstitutsiyaviy nazorat qonun talabiga muvofiq amalga oshiriladi. Fakultativ-konstitutsiyaviy nazorat esa, vakolati bo'lmagan subyekt tashabbusi bilan o'tkaziladi.

### *O'zini-o'zi nazorat qilish savollari*

1. "Konstitutsiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nima ?
2. Konstitutsiyaning yuridik belgilarini sanab bering?
3. Konstitutsiyaning shakli, deganda nimani tushunasiz?
4. Konstitutsiya ijtimoiy mazmuniga ko'ra necha turga bo'linadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishini aytинг?
6. Konstitutsiya qanday usullar asosida qabul qilinadi?
7. Konstitutsiyaning bevosita amal qilishida necha xil ko'rinishlari mavjud?
8. Konstitutsiyaning ichki shakli elementlarini sanab bering.
9. Konstitutsiyani qabul qilish jarayoni oddiy qonunlardan nimasi bilan farqlanadi?
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'zgartirish tartibi qanday belgilangan?
11. Konstitutsiyaviy nazoratning qanday turlari mavjud?

### **III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ NORMALARI TUSHUNCHASI, MANBALARI VA TIZIMI**

#### **REJA:**

- 1-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 2-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tuzilishi va turlari.
- 3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, ularning subyektlari, obyektlari va turlari.
- 4-§. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari.
- 5-§. Kontitutsiyaviy huquqning tizimi.

#### **1-§. Konstitutsiyaviy – huquqiy normalar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquqiy tizimning eng muhim sohasi bo'lib hisoblanadi. Bu huquq sohasida umumiy huquqqa tegishli bo'lgan belgilarni bilan bir qatorda, ushbu huquq sohasini boshqa huquq sohalaridan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar** deb, Konstitutsiyaviy huquqning predmetini tashkil qiluvchi muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarga aytildi va ular barcha normalarga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Boshqa huquq normalari singari, ular ham davlat nomidan chiqariladi, umum-majburiy qoidalarni o'rnatadi, davlat tomonidan himoya qilinadi, ularning bajarilishi ta'minlanadi va kafolatlanadi.

Ammo konstitutsiyaviy huquq normalari boshqa huquq sohalarini normalaridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining maqsad va vazifalari bilan ajralib turadi.

**Huquq sohalari bir-biridan o'zining tartibga solish munosabatlari turi bilan farqlanadi.**

**Konstitutsiyaviy huquq** – davlat hokimiyati tashkil etilishini mustahkamlovchi, jamiyatning bugungi kuni va kelajagini belgilovchi, jamiyat va shaxs munosabatlarini tartibga soluvchi inson va fuqarolarning huquqlarini hamda davlatning ma'muriy-hududiy tuzulishini belgilovchi davlat organlari tizimi va ular faoliyatining eng muhim jihatlarini mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Bu ta'rifga muvosiq qaysi huquqiy normalar o'z mazmuniga ko'ra, konstitutsiyaviy huquqqa tegishlimi yoki tegishli emas ekanligini aniqlash mumkin.

Agar huquqiy norma O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy tuzumiga, fuqarolarning huquqiy holatiga aloqador bo'lsa, ularning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilab bersa, demak bunday normalar konstitutsiyaviy huquqiy normalar bo'lib hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Olyi Kengashining 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "**Mustaqillik deklaratsiyasi**" konstitutsiyaviy huquqiy normalar jumlasiga kiradi. Chunki unda O'zbekistonning mustaqil demokratik davlat ekanligi, mamlakat hududining hamma tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligi, davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqining muhokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emasligi, respublikada davlat hokimiyatining uning hududidagi barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududlarda yashaydigan aholiga taalluqli ekanligi mustahkamlangan. Shuningdek, Deklaratsiyada O'zbekiston o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilashi, davlat ramzlari – gerb, bayroq, madhiyasini o'zi ta'sis etishi belgilangan.

Agar huquqiy normada O'zbekistonning davlat tuzilishi mustahkamlansa, O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi belgilansa, bu normalar ham konstitutsiyaviy huquq normasi hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-bobi Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holatini belgilab bergen. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston tarkibiga kirishi, uning suverentligi O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligidan o'zgartirilishi mumkin emasligi, ma'muriy-hududiy masalalarни mustaqil hal qilishi hamda O'zbekiston tarkibidan uning xalqi roziligi bilan ajralib chiqish huquqi referendum asosida amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari Konstitutsiya doirasida tuziladigan shartnomalar va bitimlar orqali tartibga solinishi mustahkamlangan. Mana shunday qoidalarning Konstitutsiyada belgilanishining ilmiy tahlili konstitutsiyaviy norma hisoblanadi va fanda o'rganiladi.

Agar huquqiy norma O'zbekistonning davlat organlari tizimini belgilasa, ularning tashkil etilishi va faoliyat prinsiplarini mustahkamlasa,

davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlarining tizimini, ularning vakolatlarini belgilab bersa, demak bunday normalar ham konstitutsiyaviy huquq normalari bo'lib hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76,77- moddalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

**Konstitutsiyaviy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar, boshqa huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlardan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni tartibga solish qoidalari bilan tubdan farq qiladi.**

**Birinchidan**, Konstitutsiyaviy huquq normalari boshqa huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan barcha huquqiy munosabatlarning o'zagini tashkil qiladi. Chunki aynan o'sha ijtimoiy-huquqiy munoabtlari da davlat va jamiyatning tuzilish asoslari yotadi.

**Ikkinchidan**, bu normalar bilan o'rnatilgan munosabatlarda xalq hokimiyatchiliginini amalga oshirish shakllari, ya'ni O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi hamda umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi.

Masalan, 1991-yilning 29-dekabrdagi referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatimiz davlat mustaqilligining Oliy Kengash tomonidan tasdiqlanganligini bir ovozdan ma'qulladi. 2002-yil 27-yanvardagi referendumda esa, kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamentini ikki palatali qilib saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib, o'zgartirishga oid masalalar umumxalq muhokamasiga taqdim etilib, buni

O'zbekiston xalqi bir ovozdan qo'llab-quvvatladi. Shuningdek, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum mamlakatimizning davlat qurilishida bir palatali parlament tizimidan ikki palatali tizimga o'tish lozimligini belgilab berdi.

O'zbekistonda ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanib bormoqda, bu esa davlat boshqaruvida demokratik umuminsoniy prinsiplarga asoslanganligini bildiradi. Butun dunyo tinchliksevar jamiyatlari tan olgan inson huquqlari prinsiplari mamlakatimiz hayotida mustaqillikka erishgan kunlarimizdan boshlab amalda bo'ldi, unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar<sup>1</sup>.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi mustahkamlangan bo'lib, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Agar bu huquqlar buzilsa, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlarida belgilab qo'yilgan choralar bilan himoya qilinadi.

**Uchinchidan**, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar davlat va jamiyat tuzilishini bir butun organizm sifatida ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

**To'rtinchidan**, Konstitutsiyaviy huquq predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni subyektlari maxsus doiraga ega bo'lib, ular qatoriga O'zbekiston xalqi, O'zbekiston davlati kiradi. Bu munosabatlarning maxsus huquqiy shaklda mustahkamlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tartibga solingan.

Shunday qilib, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, davlat

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Конституцияси Т.: "Узбекистон" 2017, 5-бет

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси Конституцияси Т.: "Узбекистон", 2017, 8-бет

hayotning barcha jabhalarini o‘z ichiga oladi. Ular O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamiyat tuzilish asoslariga, davlat hokimiyatining tashkil etilish prinsiplari va maqsadlariga, shaxs va davlat o‘rtasidagi munosabatlariga, xalq tomonidan davlat va hokimiyatni amalga oshirish mexanizimiga, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga aloqador bo‘ladi.

## **2-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tuzilishi va turlari**

Huquq sohalarini o‘zlarining mazmunan turli-tumanligiga qaramasdan, bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda, huquq sohalarining barchasiga xos umumiy va bir-biridan farq qiluvchi alohida belgilari mavjud.

Huquq sohalarini chegaralashda uning asosiy mezoni bo‘lib, eng avvalo, ularning tartibga solish predmeti yotadi, ya‘ni har bir huquq sohasi mazmunini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlardan iborat bo‘ladi. Shu bois, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar Konstitutsiya asosida davlat organlari va fuqarolar, davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar asosida tashkil topgan jamiyat tuzilishi, davlat tuzilishi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tartibga soladi va mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar ichida davlat suverenitetiga doir munosabatlar muhim (yetakchi) ahamiyatga egadir. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni, konstitutsiyaviy huquq normalari orqali tartibga solinishini ijtimoiy munosabatlarda tadbiq etilishini tushunish uchun konstitutsiyaviy huquq fanining predmetini aniqlash va uni boshqa huquq tarmoqlaridan ajratib olish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni ham tartibga soladi. Bu munosabatlar:

birinchidan, chinakam demokratiya tamoyillarga asoslangan saylov tizimi orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirish jarayonida;

ikkinchidan, davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi, sud va boshqa

organlar faoliyatlari jarayonlarida paydo bo‘ladi.

Davlat organlari va uning tuzilmalari faoliyatlari davomida o‘zaro hamda jamoat birlashmalari va fuqarolar bilan muayyan davlat huquqiy munosabatlarga kirishadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari esa ushbu organlarning tashkil etilishi va faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilaydi va bunday ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq normalarining asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat hayotining tuzilish asoslarini belgilash, xalq hokimiyatchiligi va davlat suverenitetini amalga oshirish mexanizmini mustahkamlashdir. Bunga misol tariqasida 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”**gi konstitutsiyaviy qonunni keltirish kifoyadir.

O‘zbekiston to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruvi idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlar ustundir. Davlat idoralari tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilgan, davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir. Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simgilik va hayvonot dunyosi tabiiy va boshqa resurslar respublikaning moddiy va ma‘naviy boyliklari, milliy boyligi, mulki hisoblanadi. O‘zbekiston o‘z pul birligi—milliy valyutasini joriy etishga va boshqa chiqariladigan qimmatli qog‘ozlarning hajmlarini o‘zi mustaqil belgilashga haqli, u mustaqil moliyaviy va kredit siyosatini amalga oshiradi, chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa munosabatlarni o‘rmata di. Ular bilan muxtor vakillar ayirboshlaydi, xalqaro shartnomalar tuzadi, xalqaro tashkilotlarning a‘zosi bo‘lishi mumkin. Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasiga muvofiq holda uning hududida istiqomat qilayotgan har bir inson, O‘zbekiston Respublikasining himoyasida bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini aniqlaydi, o‘z davlat ramzlarini — gerbi, bayrog‘i, madhiyasini ta‘sis etadi, o‘z davlat tilini belgilaydi, deb mustahkamlangan.

Keltirilgan bu normalar konstitutsiyaviy huquq normalari bo‘lib, mustaqil respublikamizning davlat suverenitetining asosini mustahkamlaydi.

**Qoida bo‘yicha huquqiy norma odatda uch elementdan tashkil topgan bo‘ladi: gipoteza, dispozitsiya, sanksiya.** Bunda huquqiy norma

kimga bag‘ishlangan, kimgalarga qanday huquqlar va majburiyatlar berilganligi saqlanadi, normani tadbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi va ularni buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilanishi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy xos bo‘lgan xususiyatlardan, ya‘ni vakolat beruvchi (dispozitsiya) majburiyat yuklovchi (gipoteza) taqiqlovechi (sanksiya) elementlaridan iborat ekanligini ko‘rish mumkin.** Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi” deyilgan. Bu normada faqat dispozitsiya bor bo‘lib, gipoteza ham sanksiya yo‘q, ya‘ni huquqiy norma bir elementdan tashkil topgan. Boshqa bir misol tariqasida Konstitutsiyaning 89-moddasini keltirish mumkin. Unda “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir”, deyilgan. Bu norma ham faqat dispozitsiyadan iborat.

Bu keltirilgan normalarda gipoteza va sanksiya qismlarining yo‘qligi ularning huquqiy norma ekanligiga shubha tug‘dirmaydi, bunday normalar Oliy Majlis va Prezidentning huquqiy holatini aniqlab beradi.

Ikki qismdan, gipoteza va dispozitsiyadan tashkil topgan konstitutsiyaviy huquqiy normalarga, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qabul qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senating qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a‘zolari umumiyligi sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno”, deyilgan normaning birinchi bandini dispozitsiya elementi, qolgan qismini “Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a‘zolari umumiyligi sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi”, degan qismini gipoteza elementi tashkil qiladi.

Demak, bu norma ikki elementdan tashkil topgan. Konstitutsiyaviy huquq normalarida sanksiya qismining yo‘qligi bilan boshqa huquq normalaridan farq qiladi. Bu uning o‘ziga xos xususiyatidir, shu bilan bir qatorda, zarur hollarda unda javobgarlik haqida ham gapirilishi mumkin. Ayrim huquqshunos olimlarning fikriga ko‘ra, fanda yumshoq sanksiyalangan normalar mavjud ekan. Konstitutsiyaviy huquq fanida bu kabi yumshoq sanksiyalangan normalar ko‘p uchraydi. Masalan, Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik

faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas, deyilgan. Bu normada yumshoq sanksiya elementi mavjud. Agar bu qoida buzilsa, tegishli qonunlarga binoan, qattiq sanksiya normasi kuchga kiradi. Qattiq sanksiyalangan normalar boshqa huquq fanlarining predmetini tashkil etadi.

Bundan tashqari, belgilangan konstitutsiyaviy huquqiy normada yozilgan qoidaning mazmuni xarakteriga qarab, davlat huquqiy normalarini atroflicha quyidagicha ifodalaymiz.

**Birinchidan**, dispozitsiya – vakolat beruvchi normalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasi 4-bandida mustahkamlangan normani keltirish mumkin, “...Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi”, deyilgan, bu norma Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy tamoyillarini mustahkamlaydi.

**Ikkinchidan**, gipoteza – majburiyat yuklovchi normalar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-52 hamda 64-65-moddalarida ko‘zda tutilgan fuqarolarning majburiyatlari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash, O‘zbekiston Respublikasining hududini himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tash, o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilish va hokazolar kiradi.

**Uchinchidan**, sanksiya – ta‘qiqlovchi normalar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasidagi “...diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, degan norma, 57-moddadagi “Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va haxfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi”, degan norma, 91-moddasidagi “Prezident o‘z

vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas,” degan norma va boshqalar kiradi.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar mazmuni, tuziliShi, ya‘ni tartibga solinadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doirasiga qarab quyidagicha bo‘lishi mumkin:**

**Birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini, xalq hokimiyatchiligini, siyosiy tizimi va iqtisodiy negizini, tashqi siyosat asoslarini mustahkamlovchi normalar. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi; “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi; “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqalar.

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy holati asoslari haqida. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqalar.

**Uchinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishiga aloqador normalar. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida” gi qonuni, Konstitutsiyaning normalarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasi to‘g‘risidagi 17-bobi va boshqa qonularda belgilangan.

**To‘rtinchidan**, davlat hokimiyati organlarining tizimiga aloqador normalar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi to‘g‘risidagi; Vazirlar Mahkamasasi to‘g‘risidagi; Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi; prokuratura va mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi, sudlar to‘g‘risidagi qonunlarida berilgan.

**Konstitutsiyaviy huquqiy normalarni yuridik kuchiga ko‘ra quyidagicha bo‘lish mumkin:**

•O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ifodalangan huquqiy normalar.

•O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida ifodalangan huquqiy normalar.

•O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarida ifodalangan huquqiy normalar.

•Vazirlar Mahkamasining ba‘zi bir qarorlarida ifodalangan huquqiy normalar.

• Mahalliy davlat hokimiyati organlarining alohida aktlarida ifodalangan huquqiy normalar.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni hududiy harakati bo'yicha quyidagicha bo'lish mumkin:**

- butun mamlakat hududida kuchga ega ekanligi;
- faqt Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida harakatda bo'ladigan;
- viloyatlar, shaharlar yoki tumanlarning hududlarida harakatda bo'ladigan normalar.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar institutlar bo'yicha ham guruhlanadi. **Konstitutsiyaviy-huquqi instituti deb, ma'lum darajada bir xil bo'lgan yoki o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisiga aytildi.** Konstitutsiyaviy huquqda fuqarolik instituti, saylov tizimi instituti va shu kabi boshqa institutlar mavjud. Masalan, fuqarolik instituti fuqarolik printsiplari, fuqarolikka ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish asoslari ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda bolalarning fuqaroligi masalalariga oid normalar to'plami kiradi.

**3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlari, ularning subyektlari, obyektlari va turlari**

Konstitutsiyaviy huquq normalarini hayotga tadbiq etish jarayonlarida konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlар vujudga keladi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlар deb, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga aytildi. Bunday munosabatlarning ishtirokchilari konstitutsiyaviy huquq normalari tomonidan o'rnatilgan huquq va majburiyatlar bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Uning ishtirokchilari o'zaro yuridik aloqada bo'ladi, chunki ular kishilar ongiga bog'liq bo'lib, davlat organlari tomonidan ta'minlanadi, himoya qilinadi, kafolatlananadi.

Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlар mazmuni masalasida turli xil qarashlar mavjud. Qator huquqshunos olimlarning fikricha *konstitutsiyaviy huquq normalari* muayyan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va davlat tuzilishining siyosiy tashkil etilishining asosiy tomonlarini belgilaydi va tartibga soladi. Boshqa huquqshunos olimlar esa konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlар davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, deb ta'kidlaydilar.

Birinchi nuqtayi nazar mualliflarining qarashlari o'ta mavhum. Chunki ular konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar mazmunini juda keng tushunishlari oqibatida uning haqiqiy mazmunini aniq ochib bera olmaganlar. Ikkinci nuqtayi nazar o'ta aniq bo'lishiga qaramasdan, juda tor dunyoqarash bo'lib, unda konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning ahamiyatlilik darajasi pasaytirib yuborilgan. Bu xildagi dunyoqarash amalda mavjud davlat tuzilishini takomillashtirish yoki rivojlantirishda qarama-qarshilikka olib keladi.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning yuridik mazmunini, munosabat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari tashkil etadi.** Bu munosabatlar asosan davlat va jamiyat tuzilishini mustahkamlash, xalq hokimiyatchiligin amalga oshirish tizimi va shakllari bilan bog'liqdir, shuning uchun ham konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq tizimida hal qiluvchi o'rinda turadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bu munosabatlarda ishtirok etuvchilarning, ya'ni subyektlarning maxsus doirasini guruhlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

**Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari qatoriga quyidagilar kiradi:**

**Birinchidan, O'zbekiston xalqi.** O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida, "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi" ekanligi mustahkamlangan, 9-moddasida esa "jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari umumxalq muhokamasiga, ya'ni ovozga (referendumga) qo'yilishi mustahkamlangan".

"O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi qonuniga binoan, O'zbekiston Respublikasining referendumi – davlat hayoti va ijtimoiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va o'zga qarorlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish kiritishda jamoatchilik fikrini aniqlash uchun, umumxalq ovoziga qo'yilishi, bo'lib, xalq hokimiyatchiligin bevosita amalga oshirish vositasidir.

Referendumda qabul qilingan qarorlar O'zbekiston Respublikasi hududida oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Misol uchun 2002-yil 27-yanvardagi referendumda esa, kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamentini ikki palatali qilib saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib, uzaytirishga oid masalalar yuzasidan o'tkazilgan referendumni keltirish mumkin.

Xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning ikkinchi shakli; davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda xalqning o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqidir. Bu tarzda ishtirok etish o‘zini-o‘zi boshqarish va davlat organlari faoliyatini demokratik printsiplar asosida tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunga misol sifatida 2014-yil dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga hamda xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman kengashlariga o‘tkazilgan saylovlarni keltirish mumkin.

**Ikkinchidan, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari o‘rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari va ularning vakolatlari doirasini belgilash tartibi.** Konstitutsianing XVII bobida va boshqa moddalarda mustahkamlangan prinsiplar asosida qabul qilingan qonunlar, qarorlar, shartnomalar va bitimlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

**Uchinchidan, ma‘muriy-hududiy birliklar:** O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat (Konstitutsianing 68-moddasi). Davlat mazkur ma‘muriy-hududiy subyektlari bilan ham huquqiy munosabatlarga kirishadi. Ular esa, o‘z navbatida, o‘z vakolatlari doirasida huquqiy harakatlarni amalga oshirishi belgilangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish amalga oshiriladi.

**To‘rtinchidan, jamoat birlashmalari:** O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan: siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari. Ular o‘z faoliyatlari davomida deputatlilikka nomzodlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan yoki deputatlarni chaqirib olish tartibini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarda davlat-huquqiy munosabatlarining subyekti bo‘la oladilar.

**Beshinchidan, mehnat jamoalari:** muassasa korxona, tashkilot, shirkat xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, oliy o‘quv yurti talabalari, o‘qituvchilar, kollej va litseylar, harbiy xizmatchilar va boshqalar. Davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilishda davlat-huquqiy munosabatlarining subyekti bo‘la oladilar. Masalan, Konstitutsiya va qonunlarni muhokama qilishda o‘z fikrlarini bayon etish yoki Referendumda ishtirok etish bilan davlat huquqiy munosabatlarining subyekti bo‘ladilar.

**Oltinchidan**, davlat organlari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlari faoliyati va tashkil etilishining assosiy tamoyillari belgilangan. Konstitutsiyaviy normalar asosida davlat organlari davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish jarayonida bir-biri bilan o‘zaro konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishadi:

*Davlat hokimiyati organlari* (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlari);

*Davlat boshqaruvi organlari* (vazirliklar va idoralar, davlat qo‘mitalari, xo‘jaliklar, muassasalar va boshqalar);

*Sud organlari* (Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud);

*Prokuratura organlari*.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardan nafaqat yuqorida ko‘rsatilgan organlar o‘rtasidagi munosabatlarni, balki ikkinchi tomondan bu organlar bilan fuqarolarni, jamoat birlashmalari bilan deputatlarni va saylovchilar o‘rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Davlat organlarining yuqori organlari tomonidan, quyi organlarga rahbarlik qilishi, quyi organlar qarorlarini bekor qilish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlari kelib chiqadi va unda ishtiroy etuvchilar subyekt bo‘la oladilar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarni to‘xtatadi va bekor qiladi.

**Yettinchidan, davlat organlari va jamoat birlashmalarining mansabdar shaxslari.** Ular masalan, deputat so‘rovi, fuqarolarning mansabdar shaxslar harakati ustidan shikoyat qilish bilan bog‘liq davlat-huquqiy munosabatlarda subyekt sifatida ishtiroy etadilar. O‘zbekiston Respublikasida har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalarga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega<sup>3</sup>.

**Sakkizinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari va Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining deputatlari. Deputatlar va Senatorlar o‘z huquqlari va majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarda subyekt sifatida ishtiroy etadilar. Masalan, deputat yoki senator sessiyada muhokama

---

<sup>3</sup> Узбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддаси. Т.:“Ўзбекистон”, 2003, 9-бет

qilinayotgan masala yuzasidan so'zga chiqishi, raislik qiluvchiga savol berishi so'rov bilan murojaat qilishga haqli<sup>4</sup>.

**To'qqizinchidan**, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari. Ular o'z ijtimoiy faoliyklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar<sup>5</sup>. Ularning ishtirok etish jarayonlaridan kelib chiqadigan munosabatlarda subyekt bo'ladilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida alohida konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishishi mumkin. Fuqarolarga muayyan majburiyatlar bilan birga, davlat organlari oldida fuqarolarga ma'lum huquqlar ham berilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasida, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'yi nazar, qonun oldida tengdirlar, deb belgilangan. Ya'ni konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquqiy layoqatlari Konstitutsiyada kafolatlangan. Masalan, fuqaro davlat organlari, xalq deputatlari, jamoat birlashmalari va boshqa uyushma, tashkilotlar bilan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarga kirishi oqibatida ham subyekt bo'la oladi.

**O'ninchidan**, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarni ko'rsatish mumkin.

Konstitutsiyaviy huquq normalari konstitutsiyaviy-huquq munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlarini ma'lum obyektlar bilan, ya'ni narsalar va hodisalar bilan bog'lab belgilaydi.

**Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlar obyektlarini bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:**

**Birinchidan, davlat hududi.** Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, xalqining xohish-irodasi, erki, ya'ni bildirmasdan turib uning o'zgartirilishi mumkin emas", – deyilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida "...Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari dahlsiz

<sup>4</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси 2005 й. №1 8-модда  
Узбекистон Республикаси конституциясининг 33-моддаси, Т. "Узбекистон", 2003, 8-бет

bo‘lib, o‘zgartirilishi va bo‘linishi mumkin emas”, – deb belgilangan. Bu normalar asosida davlat-huquqiy munosabatlari kelib chiqadi. Chunki Qoraqlopg‘iston Respublikasi O‘zbekiston tarkibidagi suveren respublika, uning hududiy o‘zgarishlari xalqining roziligi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

**Ikkinchidan, moddiy boyliklar.** Konstitutsiyaviy huquq normalari davlat mulkini tashkil etuvchi obyektlar doirasini belgilaydi va bu obyektlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan subyektlarni ham belgilaydi. Masalan, yer usti va yer osti boyliklari suv, tabiiy zahiralar, o‘rmon, hayvonot dunyosi umummilliy boylikdir.<sup>6</sup> Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Uchinchidan, kishilarning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonuniy faoliyat yuritishi.** Masalan, deputatning vakillik organiga kiritgan so‘rovi bilan bog‘liq harakati natijasida konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatning obyekti bo‘lishi mumkin yoki vakillik organi tomonidan qonunga zid qabul qilin-gan qarorning yuqori vakillik organi tomonidan bekor qilinishi ham konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu normalarda obyekt, huquqiy harakat nimaga qaratilganligi bilan aniqlanadi.

**To‘rtinchidan, mulkiy xarakterga ega bo‘Imagan shaxsiy manfaatlar, ya‘ni obro‘, sha‘n, qadr-qimmat va hokazo.** Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonuni asosida deputat va senator daxlsizligi mustahkamlangan. Bu qoida asosida deputat va senatorning sha‘ni va qadr-qimmatini muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat-huquqiy munosabatlari kelib chiqishi mumkin, shunday qilib, konstitutsiyaviy huquqning xilma-xilligi o‘z navbatida turli ma‘nolardagi davlat-huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradi. Demak, davlat-huquqiy munosabatlarining obyektiga huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunlarda belgilangan manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

---

<sup>6</sup> Узбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддаси Т.: “Узбекистон” 2003.11-бет

#### **4-§. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari**

Konstitutsiyaviy huquq normalarini o‘zida mujassam etuvchi normativ huquqiy aktlar konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbalarini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbayi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlatning asosiy Qonuni sifatida oliv yuridik kuchga egadir, shuning uchun ham unda ifodalangan tartib-qoidalar konstitutsiyaviy huquq normalari tizimida bosh o‘rinni egallaydi. Boshqa hamma huquq sohalarida o‘rnatilgan normalar ham Konstitutsiya normalariga mos bo‘lishi shart.

**O‘zbekiston Konstitutsiyasi konstitutsiyaviy huquqning predmetiga aloqador bo‘lgan hamma ijtimoiy munosabatlarni umumlashtiruvchi yagona manba bo‘lib hisoblanadi.**

*Konstitutsiya normalari* eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Boshqa huquq manbalarida ifodalangan normalar esa Konstitutsiya normalarini rivojlantirishga va hayotga tatbiq etishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy tuzum asoslari, siyosiy tizimi, iqtisodiy negizi, tashqi siyosatining konstitutsiyaviy prinsiplari o‘z ifodasini topgan. Unda fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilovchi normalar aks ettirilgan.

**Konstitutsiya normalari davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va ularning faoliyat prinsiplarini mustahkamlaydi.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimiga aloqador bo‘lgan asosiy normalar ifodalangan. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati asoslari, sud hokimiyati organlari, prokuratura organlariga aloqador normalar ham aks ettirilgan. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari qatoriga davlat-huquqiy normalari aks ettirilgan qonunlar ham kiradi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlar.

Konstitutsiyaviy huquqning manbalaridan bo‘lib, vakillik organlari tomonidan qabul qilinadigan ish yuritish tartiblari; yo‘riqnomalar, reglamentlar ham manba bo‘lib hisoblanadi. Masalan, 2003-yil 29-agustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risidagi” qonunni ko‘rsatish mumkin.

Vakillik organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ham Konstitutsiyaviy huquq manbayi bo‘ladi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy huquq manbalari qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan davlat-huquqiy xarakteriga ega bo‘lgan farmonlari, qarorlari, farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan va tuziladigan shartnomalari bitimlari ham konstitutsiyaviy huquq manbasini tashkil qiladi.

Va niyoyat, konstitutsiyaviy huquq manbalaridan bo‘lib, mahalliy vakillik organlarining ba‘zi bir normativ aktlari ham hisoblanadi. Masalan, “Xalq deputatlari Kengashlarining doimiy komissiyalari to‘g‘risida” gi Nizomlari, Kengashining “Ish yuritish tartiblari” (reglamentlari), hokimlarning qabul qilgan huquqiy aktlari va ular to‘g‘risidagi qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirish tartib qoidalari va boshqa davlat organlarining faoliyat prinsiplari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq fanining asosiy manbasi sifatida respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning risololari, nutqlarini alohida ta‘kidlash lozim. Uning asarlarida Konstitutsiyaviy huquq fanining predmetiga aloqador bo‘lgan davlat suvereniteti, xalq hokimiyyatchiligi, inson huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiyaning mohiyati va vazifalari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy g‘oyalari muhim o‘rin egallagan.

Biroq, davlat organlari chiqargan har qanday hujjat ham konstitutsiyaviy huquq manbayi hisoblanmaydi. Uning asosiy manbayi bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishini, konstitutsiyaviy hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish jarayonida vujudga keladigan hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy holatini ifoda etadigan hujjatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquq manbalarining tasnifi quyidagilardan iborat:

·O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqning bosh manbayi bo‘lib, uning Konstitutsiyasi hisoblanadi.

·O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqiy normalarini belgilaydigan qonunlari (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Oliy Majlis Senati to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunlar, Vazirlar Mahkamasi

to‘g‘risidagi, fuqarolik to‘g‘risidagi qonun, saylov to‘g‘risidagi qonunlar va shu kabilar).

·O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari va qarorlari.

·O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va boshqa hujjatlari.

·Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolatlari doirasida umumiyligi qoidalarni o‘z ichiga olgan, o‘sha hududda kuchga ega bo‘lgan hujjatlari. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqining asosiy manbayi uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarini o‘zida ifodalaydigan qonunlar (Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Reglamenti, Oliy Majlis Senatining Reglamenti to‘g‘risidagi qonunlar va boshqalar). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan farmon va farmoyishlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolatlari doirasida chiqargan hujjatlari kiradi.

Shuningdek, O‘zbekistondagi huquqshunos olimlarning ilmiy asarlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari fanning manbalarini tashkil etadi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. Qanday normalar konstitutsiyaviy huquq normalari deyiladi?
2. Konstitutsiyaviy huquqiy normalarning xususiyatlarini ayting.
3. Konstitutsiyaviy huquq normalarning tuzilish tarkibi nimalardan iborat?
4. Konstitutsiyaviy huquq normalarning turlarini sanab bering.
5. Qanday munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar deyiladi?
6. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlarini sanab bering.
7. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar obyektlariga nimalar kiradi?
8. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning tasnifiga ko‘ra turlarini ayting.
9. Konstitutsiyaviy huquq manbalarini sanab bering.

## **IKKINCHI BO‘LIM. ASOSIY PRINSIPLAR**

### **IV BOB. O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DAVLAT SUVERENİTETİ**

- 1-§. Suverenitet tushunchasi va belgilari.
- 2-§. Suverenitet turlari.
- 3-§. O‘zbekiston – suveren demokratik respublika.
- 4-§. Suverenitetni ta‘minlashning xalqaro huquqiy asoslari.

#### **1-§. Suverenitet tushunchasi va belgilari**

Har bir davlat boshqa mamlakatlar orasida o‘z mustaqilligini mustahkamlash, hududiy yaxlitligini saqlash, suverenitetini himoya qilish bo‘yicha siyosat olib boradi. Bunday sharoitda, davlat oldida turgan maqsad va vazifalar qanday vositalar yordamida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro hamjamiyat bilan bo‘ladigan munosabatlarda, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikda globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari bo‘lgan ommaviy madaniyatning rivojlanishi, axborot xurujining avj olishi, tabiiy resurslar uchun kurashning keskinlashuvi davlatlarni o‘z suverenitetini himoya qilishga safarbar etadi.

Davlat xalqning rasmiy vakili sifatida o‘z fuqarolarining irodasini ifoda etadi. Faqat suveren davlatgina fuqarolarning huquq va manfaatlarini to‘la va har tomonlama ta‘minlashi mumkin. Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan ham to‘la mustaqilligi tushuniladi. Suverenitet davlat hokimiyatining alohida xususiyati bo‘lish bilan bir paytda, davlatning muhim belgisi ham hisoblanadi. O‘zbekistonda davlat hokimiyatini tashkil etishning eng muhim Konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri – davlat suvereniteti prinsipi hisoblanadi.

“Suvereniteti” iborasi fransuzcha “oliy hokimiyat”, degan ma‘noni anglatadi. Suveren davlat ichki va tashqi siyosiy faoliyatida o‘zining mustaqil va oliy davlat hokimiyatiga ega bo‘ladi.

Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo‘lib, uning to‘la huquqliligin hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

Suveren davlat o‘z ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek, xalqaro huquq prinsiplari va normalarini buzmagan holda, o‘zi xohlagancha hal qiladi.

Suverenitet davlatga xos tushuncha bo‘lib, u bilan birga vujudga keladi. Davlat va uning xususiyati bo‘lgan suverenitet tarixiy hodisadir.

Millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, ya‘ni o‘z taqdirini chet davlatlarning aralashuviz belgilash huquqi davlat suverenitetning asosini tashkil etadi.

Suverenitet, avvalo, davlat tomonidan uning ichki funksiyasini amalga oshirish vaqtida ko‘rinadi. Jamiyatda huquqiy tartibni o‘rnatish, mansabdor shaxslarga, jamoat birlashmalariga va fuqarolarga huquqlar berilishi hamda majburiyatlar yuklatilishi – bularning hammasi davlat ichki sityosatida hokimiyatining ustuvorligini bildiradi.

Hozirgi sharoitda davlat suvereniteti prinsipi xalqaro hamkorlikning eng muhim masalasiidir. Yer yuzidagi barcha mamlakatlar o‘zaro munosabatlari suveren tenglik prinsipiga asoslangan.

1913-yilda yer kurrasida 57 davlat mavjud edi. Hozirga kelib ularning soni ikki yuzga yaqinlashdi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, XX asrning ikkinchi yarmida yer kurrasidagi davlatlarning soni uch baravarga oshdi. Ushbu omilning o‘zi bizning davrimizga kelib, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi, davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va jamiyat hayotining davlat-huquqiy shaklidan foydalanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Biroq, so‘z sanoq, ko‘rsatkichlarida emas, bundan tashqari davlatlarning soni keyinchalik ham sezilarli ko‘payishi ehtimoldan yiroq emas. Yana shunisi muhimki, davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar doirasi kengaydi, jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiy hayotida huquqning roli oshdi. Binobarin, davlat hokimiyatining zaruriy xususiyati sifatida suverenitet rolining o‘sish jarayoni kuzatilmoxda. Bunday jarayon turli shakllarda o‘sadi va turli mamlakatlarda turli xil oqibatlarga olib keladi. Lekin hamma joyda suverenitet muammosi mazkur jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tizimining markazida turadi.

Suverenitet rolining oshib borishi davlatlarning ichki huquqida ham o‘z ifodasini topadi. Avvalgidek, milliy huquqiy tizimni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri sifatida xizmat qiladigan, odad huquqining davri o‘tdi.

Suverenitetni davlatlarning ichki huquqidagi roli xususida yuqorida gapirilganlar suverenitetning xalqaro huquqdagi roli va o‘rniga ham tegishlidir.

Suverenitet yuridik jihatdan umume‘tirol etilgan xalqaro munosabatlар va o‘zaro aloqalar tizimida muhim rol o‘ynaydi. Davlat va uning suvereniteti bilan xalqaro huquqning rivojlanishi ham chambarchas bog‘liqdir, chunki, birinchidan, xalqaro hamjamiyatning asosi avvalgidan ham ko‘proq hozirgi suveren davlatlar hisoblanadi, ikkinchidan, xalqaro tartibot avvalambor davlatlarning kelishuviga asoslanadi.

Albatta xalqaro huquq rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan umumjahon va mintaqaviy — xalqaro tashkilotlarni e‘tiborga olmaslik mumkin emas, lekin ular ham suveren davlatlarning yoki bir guruham davlatlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati natijasidir. XX asrning ikkinchi yarmidagi tarixiy rivojlanish davlat suverenitetini ilmiy (doktrinal) tanqid qilish, “davlatlardan yuqori turuvchi jahon hamjamiyati”ga o‘tish talablarining maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatdi.

Davlat hokimiyatining oliyligi bu hokimiyatning shunday holatiki, bunda boshqa hech bir hokimiyat undan ustun bo‘lmaydi. Biroq, hokimiyatning oliyligi uning cheksizligini bildirmaydi. Huquqiy davlatda u doimo qonun bilan cheklab qo‘yiladi. Davlatning suveren hokimiyati o‘zga barcha hokimiyatlardan ustun turadi. Davlat hokimiyatining oliyligi uni yagona siyosiy hokimiyat sifatida rasmiyolashtiradi, bu davlat hokimiyati bilan muvoziy tarzda boshqa biron-bir siyosiy hokimiyatning mayjud bo‘lishini istisno etadi.

Davlat hokimiyatining oliyligi, uning o‘sha davlatdagи barcha huquqiy munosabatlarni belgilashida, umumiyligi huquqiy tartibotni o‘rnatganligida hamda davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilaganligida namoyon bo‘ladi. Davlatning butun hududida oliy davlat organi tomonidan chiqarilgan Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi davlat hokimiyati oliyligini bildiruvchi asosiy belgisi sifatida tan olinadi.

Davlat hokimiyatining yaxlitligi davlatning oliy hokimiyatini tashkil qiluvchi yagona organ yoki organlar tizimi mayjud bo‘lishida ifodalanadi. Davlat hokimiyati birligining yuridik belgisi davlat hokimiyati oliyligini tashkil qiluvchi organlar tizimining bevosita davlat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan vakolatlarni qamrab olishini anglatadi. Shu tizimga tegishli organlar esa, bir xil subyektlarga, bir xil vaziyatlarda o‘zaro istisno qiluvchi xulq-atvor qoidalarini ifodalay olmaydi. Suveren

davlat hokimiyatining asosiy xususiyati uning mustaqilligi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi, shu davlatning boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita munosabatlarda o‘z ifodasini topadi.

Davlatning suveren tengligi prinsipi xalqaro huquqning umum tan olingen prinsiplaridan biri sifatida Birlashgan Millatlar tashkiloti Ustavida ham mustahkamlangan. Har bir davlat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari suverenitetini, ya‘ni ularning o‘z an‘analari doirasida boshqa davlatlarning har qanday aralashuvidan xoli ravishda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatini amalga oshirish, shuningdek, o‘z tashqi siyosatini mustaqil yuritish huquqini hurmat qilishga majburdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi demokratik davlatdir. Davlatning demokratikligi, avvalo, uning xalqparvarligini ta‘minlanishida, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishida, mafkuraviy va siyosiy hurfikrlilikda, fuqarolarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishida o‘z aksini topadi. Binobarin, O‘zbekistonda davlat hokimiyatining manbayi xalqdir. Bu davlatning xalqchilligini, demokratikligini anglatadi.

## **2-§. Suverenitet turlari**

Fanda hozirgi kunga kelib “suverenitet” kategoriyasining uchta turi alohida ajratiladi:

- 1)Davlat suvereniteti;
- 2)Xalq suvereniteti;
- 3)Millat suvereniteti.

Suverenitet — ko‘p ma‘noli tushuncha. Uning bir necha jihatlari mavjud. Avvalambor, bu — xalq suvereniteti. So‘ng bu — millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqi. Va nihoyat bu — davlat suverenitetidir.

Ko‘rsatib o‘tilgan tushunchalar qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lmashin, ularning har biri mazkur masalaning muayyan jihatlarini ta‘kidlab, birinchi darajaga chiqaradi. Shu bois, suverenitetni davlatga, xalqda va millatga birday taalluqli bo‘lgan yagona tushuncha sifatida asoslab bo‘lmaydi.

Haqiqatan ham xalq suvereniteti, milliy suverenitet va davlat suvereniteti aynan bir tushuncha emas. Ular turli ijgimoiy voqelikning xususiyatlari bo‘lib, shu bilan birga, bu tushunchalar ma‘lum bir umumiylikka ega. Ushbu tushunchalar ichida xalq suvereniteti birlamchi hisoblanadi. Milliy suverenitetga har doim millatga doir xususiyat sifatida yondashib bo‘lmaydi, buni ko‘p millatlarning teng huquqiyligi nuqtayi nazaridan tushunish kerak. Davlat suvereniteti — davlatning emas, balki

davlat hokimiyatining ustuvorligi va mustaqilligidir. “Davlat” va uning “hokimiyati” turli tushuncha va kategoriya hisoblanadi.

**Davlat suvereniteti.** Davlat suvereniteti mamlakat ichkarisida va tashqarisidagi davlatning faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Davlat suverenitetining ushbu ikki jihatni, ya’ni: birinchidan, davlat hokimiyatining mamlakat ichida ustuvorligi, ikkinchidan, boshqa davlatlarning suveren huquqlari va umume’tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillari va me’yorlariga rioya qilgan holda tashqi aloqalarda mustaqilligi — yaxlit va ajralmasdir.

Davlat suvereniteti kengaytirilishi ham, kamaytirilishi ham mumkin emas, chunki unga nisbatan bevosita sanoq, mezonlarini umuman qo’llab bo’lmaydi. Davlat suvereniteti davlatning suveren huquqi bilan bog‘liq bo’lishi mumkin emas, biroq shu bilan birga, aynan suveren huquqlarning to’liqligi bilan ta’minlanadi.

Davlat suvereniteti bilan bog‘liq tarzda “iqtisodiy suverenitet” va “siyosiy suverenitet” tushunchalaridan ham soydalaniladi. Davlatning iqtisodiy suvereniteti deganda xalqning o’z milliy boyliklarini mustaqil tasarruf qilish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlarida o’z tabiiy resurslaridan foydalanish usullarini erkin belgilash anglashiladi. U o’z tabiiy resurslari ustidan mutlaq nazoratni amalga oshirish va iqtisodiyotning barcha sohaalaridagi har qanday korxonalar faoliyati ichki yurisdiksiyasiga olishini bildiradi.

Davlatning siyosiy suvereniteti mamlakat xalqining o’z irodasini erkin ifodalashni aks ettiradi. “Xalq” tushunchasiga albatta, millatidan qat’iy nazar, ushbu mamlakatning barcha fuqarolari kiradi. Tabiiyki, bunday ko’pmillatli oilada davlatga o’z nomini bergen millat belgilovchi ahamiyatga ega. Umuman, aksariyat hollarda “siyosiy” va “davlat suvereniteti” tushunchalari sinonim sifatida qo’llaniladi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, ushbu tushunchalarga bo’lgan munosabat “unisi yoki bunisi” degan tamoyil bo'yicha qaralishi mumkin emas. Ulardan birining ilmiy muomala tilida ishlatilishi ikkinchi tushunchani inkor qilish, deb hisoblanmaydi. Bu o’rinda so’z o’zaro aloqador tushunchalar xususida ketmoqda, ulardan biri ikkinchisiga qaraganda birmuncha tor ma’noda, lekin o’zining mustaqil mazmuniga ega.

Davlat suverenitetini amalga oshirishda huquq yuqori rol o’ynaydi, shuningdek, davlatlarning ichki huquqi va xalqaro huquq uni amalga oshirishning ikki asosiy shakli hisoblanadi.

Milliy davlatlar tomonidan xalqaro huquq tamoyillarini tan olish va shu bilan ularni davlatlarning ichki huquqiga kiritishning turli yuridik shakllari mayjud. Xalqaro huquq me'yorlarini davlatlarning ichki huquqiga implementasiya qilishning uch yo'nalishini ajratish mumkin:

birinchidan, Konstitutsiyada xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyil va me'yorlarini tan olish;

ikkinchidan, davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma va bitimlar me'yorlar;

uchinchidan, mintaqaviy ittifoqdarning huquqlari a'zo davlatlarning huquqiy tizimlariga nisbatan. Biroq ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro-huquqiy me'yorlarning amaliy roli turli davlatlarning ichki davlat huquqi tizimidagi ko'rsatib o'tilgan shakllarida har doim ham unchalik ahamiyatga ega emas.

**Xalq suvereniteti.** Xalq suvereniteti xalqning o'z hokimiyatini o'zi mustaqil, tegishli Konstitutsiyaviy mexanizmlari vositasida o'z manfaatlari yo'lida amalga oshirishini anglatadi. Xalq ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida hokimiyatning to'la sohibi sifatida maydonga chiqadi va u hokimiyatni hech kim bilan bo'lishmaydi. Hokimiyatni Konstitutsiyaning 7-moddasida nazarda tutilmagan tartibda o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, davlat hokimiyatining yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish g'ayrikonstitutsiyaviy hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Hokimiyat kimnidir boshqarishni, uning xohish-irodasini o'ziga qaratishni anglatadi. Hokimiyat – ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyatining yuzaga kelishi bilan paydo bo'ladi va barcha insonlar jamiyatida mavjuddir, chunki barcha insonlardan jamiyatni turli vosita va ehtiyojlar orqali boshqarishni ta'minlash talab qilinadi.

**Millat suvereniteti** – Zamonaliv Konstitutsiyaviy huquqda, davlat va xalq suverenitetidan tashqari, har bir millatning o'z taqdirini belgilash huquqi sifatida tushunilgan milliy suverenlik tushunchasi shakllandi. Milliy suverenitetning mazmuni millatning suvereniteti va uning tashkiliy-huquqiy jihatdan boshqa xalqlar bilan munosabatlarining shaklini tanlashda siyosiy erkinligi nazarda tutiladi.

### **3-§. O‘zbekiston – suveren demokratik respublika**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligi va hududiy yaxlitligini e‘lon qilib, xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini xalqaro huquq normalarini ustuvorligini tan olgan holda mustahkamladi.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat shakllanishi bilan bir qatorda milliy qonunchilikning rivojlanish va amal qilish jarayonlari chuqurlashib bormoqda. O‘zbekistondagi mavjud qonunchilik tizimi umumiyligini qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga muvofiq rivojlanmoqda. U xalqaro huquq bilan davlat ichki huquqining mushtarakligi, umume‘tirof etilgan xalqaro standartlar, shartnomalar va konvensiyalarni mustahkamlash asosida takomillashib borayapti.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” ekanligini e‘lon qiluvchi va qonuniy mustahkamlovchi muhim qoidadan boshlanadi. Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi”, deb belgilangan.

Mustaqil O‘zbekiston davlati barpo qilingan dastlabki kunlardanoq katta va kichik xalqlarning suveren huquqlariga qat‘iy va og‘ishmay rioya qilish uchun harakat qilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi”gi Konstitutsiyaviy qonunda, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash bayonoti”da, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Qarorida hamda biroz oldin 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan “Mustaqillik Deklaratsiyasi”da mamlakatimiz ko‘p millatli aholining xohish-irodasi mustahkamlab qo‘yildi va bu umumxalq referendumi tomonidan tasdiqlandi. Deklaratsiyada O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va suveren demokratik respublika ekanligi rasmiylashtirildi. Deklaratsiyaning qolgan moddalarida O‘zbekistonning davlat hududi va chegarasi daxlsizligi, davlat hokimiyati O‘zbekistonning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqliligi mustahkamlangan (2-4 moddalar).

O'zbekistonning davlat hokimiyati vakolatiga uning ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kirishi, xalqaro huquqning asosiy prinsiplari tan olinishi va ularning hurmat qilinishi harnda o'zining boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilashi va amalga oshirishi, o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini mustaqil belgilashi va davlat belgilarini o'zi ta'sis etishi suverenligi belgilardir.

O'zbekistonda davlatning boshqarish shakli respublikadir. Respublika – xalq hokimiyati demakdir. Respublika – eng asosiy umuminsoniy huquqiy boyliklardan biridir. Boshqaruvning respublika shakli davlat idoralari vakolatlarini aniq belgilab berishni, qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarining saylab qo'yilishini anglatadi.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi).

1989-yilning 21-oktabrida ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi istiqlolimiz sari qo'yilgan eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. 1995-yil "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Endilikda o'zbek tilida idora ishlari, hujjatlar olib borilmoqda. O'zbek tilida qonunlarimiz yozilmoqda, davlat hujjatlari, ilmiy asarlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, ularning avtoreferatlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar paydo bo'ldi. Bu bilan bizga jahon madaniyati va axboroti makoniga to'liq kirish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. O'zbek xalqining, uning milliy madaniyati va o'ziga xosligini

ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilining har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash, mazkur tilning davlat tili maqomidek salohiyatini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish umumxalq vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti o‘zining hududida ichki siyosatini o‘zi olib borishini va xalqaro munosabatlarda to‘la mustaqilligini anglatadi.

Davlatning to‘liq mustaqilligi xalqning va insonlarning huquqi bilan cheklangan bo‘ladi. Ko‘pchilik davlatlarning Konstitutsiyalarida shunday yozilgan: Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir.

Davlat suvereniteti xalq suvereniteti bilan cheklanadi, xolos. Xalq mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tuzumini belgilash huquqiga egadir. Davlat xalqning oliv huquqini hurmat qilishga majburdir.

Konstitutsiyada o‘rnatalganidek, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat ramzlari – davlat bayrog‘i, davlat gerbi va davlat madhiyasiga ega. Davlat ramzlarining mavjudligi O‘zbekistonning suverenligi va mustaqilligining muhim belgilardan biridir. Shuning uchun ushbu modda davlat ramzlarining huquqiy maqomi, ularning tafsifi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi aniq tartibga solindi va rivojlantirildi.

Mustaqillikka erishgunga qadar, 1978-yilgi O‘zbekiston Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun)da gerb, bayroq, madhiya va poytaxtga Konstitutsiyaning oxirgi boblaridan biri, 10 bob bag‘ishlangan edi, bu bilan esa mamlakatimizning rasmiy suverenitetiga bo‘lgan munosabat ko‘rsatilgan. Davlat ramzlari amalda, mohiyatan Sovet Ittifoqining ustuvor mavqesini o‘zida ifodalar edi. Mamlakat mustaqillikka erishgandan so‘ng vaziyat tubdan o‘zgardi.

Davlat bayrog‘i – bu tasviri qonun bilan belgilanadigan, bирор davlatni boshqa davlatdan farqlovchi rasmiy belgisi, nishonidir. U davlat mustaqilligi, suvereniteti ramzi hisoblanadi. Odatta, davlat bayrog‘i, uning rangi, tuzilishi va elementlari ramziy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining sxematik va rangli tasviri 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan qonun bilan tasdiqlangan. Mazkur qonunga 1999, 2004, 2010 va 2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasvirini, uning elementlarini hujjalari va materiallar rekvizitlariga kiritishni, Davlat bayrog‘ini boshqa davlatlar bayroqlari bilan birga ko‘tarilishini, qonun ijrosi bo‘yicha nazoratni amalga oshirish va boshqalarni o‘zida ifodalovchi belgilarni

kiritish tartibini aniqlashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida ko'rsatilganidek, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir".

Qonunning 3-moddasiga binoan, bayrog'imiz xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'ladi, hamda mamlakatimizning ramzi hisoblanadi. Ushbu qonun bilan bayroqni ko'tarish vaqt va joyi aniq mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sudlarning binolarida, diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalarining binolari, hududlari va transport vositalarida hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarida doimo ko'tariladi, doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o'tish punktlarida va boshqalarda turadi.

Qonun O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmasligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzları mamlakatimiz Davlat bayrog'iga o'xshash bo'lishi mumkin emas.

Qonunning 4-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i – bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir.

Bayroqning uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarining kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. Bayroqning o'rtaсидаги oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

Bayroqning yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o'n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i bilan bir vaqtida xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari ko'tarilganda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i xalqaro huquq normalariga va diplomatik protokol qoidalariga muvofiq ko'tariladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xorijiy davlatlar va (yoki) xalqaro tashkilotlar bayroqlari bilan bir xil balandlikda joylashtirilishi hamda bir xil o‘lchamga ega bo‘lishi kerak.

Motam munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i motamga moslab ko‘tariladi. Bunday hollarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i dastasi yoki flagshtokning yuqori uchiga bayroq enining 1/20 qismiga teng bo‘lgan kenglikdagi qora tasma bog‘lanadi, tasmaning ikki uchi bayroqning butun eni uzunligida osilib turadi. Bayroq motam munosabati bilan flagshtokda ko‘tarilgan taqdirda u flagshtok uzunligining 1/3 bo‘lagicha tushirib qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini tayyorlash, saqlash va yo‘q qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan va 1999, 2003, 2004, 2010, 2017 va 2018-yillarda o‘zgartishlar kiritilgan. Ushbu qo‘srimchalar qonunning ijrosini ta‘minlash tartibini takomillashtirish va ijrosini nazorat qilish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish bo‘yicha hujjatlar va materiallar rekvizitlariga kiritishni o‘zida ifodalovchi belgilarni kiritish tartibini aniqlashtirishga qaratildi.

Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasi suverenitetining ramzi hisoblanadi. U suveren O‘zbekistonning boy milliy, tarixiy an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirida tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshoqlaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandida “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar – kumush rangida; quyosh, boshoqlar, paxta chanoqlari va “O‘zbekiston” yozuvi – oltin rangida, g‘o‘za shoxlari va barglari, tog‘lar va vodiy – yashil rangda; chanoqlardagi paxta – oq rangda; lenta – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi

uch xil rangda; sakkizburchak – oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar – oq rangda tasvirlangan.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushiriladigan predmetlar batafsil tartibga solingen.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviridan O'zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlarda, o'quv-tarbiya jarayonida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalanilishi mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzları O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbiga o'xshash bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga nisbatan zo'r ehtirom bilan munosabatda bo'lish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi quyidagi hollarda ijro etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish chog'ida
- u qasamyod qabul qilganidan so'ng;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sessiyalarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarining ochilishi hamda yopilishi chog'ida;

- O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umummilliy bayramlarga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majislarning ochilishi chog'ida;

- davlat televideniye va radioeshittirish kompaniyalari tomonidan har kuni – ko'rsatuv va eshittirishlar boshlanishidan avval va tugaganidan

so‘ng, ko‘rsatuv va eshittirishlar kecha-yu kunduz olib borilganida esa, soat 6 da va soat 24 da, yangi yil kechasida – soat 24 da;

– respublika hayotidagi muhim tarixiy voqealarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat, harbiy arboblar, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san‘at arboblari sharafiga o‘rnatalgan haykallar, shuningdek, monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi chog‘ida;

– davlat organlari, boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan marosimlar va boshqa tantanali tadbirlar vaqtida O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini ko‘tarish chog‘ida;

– rasmiy safar bilan O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish chog‘ida – tegishli xorijiy davlatning davlat madhiyasi ijro qilib bo‘linganidan keyin;

– harbiy marosimlarni o‘tkazish vaqtida – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko‘pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, hozir bo‘lgan kishilar madhiyani tik turib va o‘ng qo‘l kaftini ko‘krakning chap tomoniga qo‘yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagи shaxslar esa qo‘lini bosh kiyimiga qo‘yib tinglaydi.

O‘zbekiston davlat madhiyasining matni O‘zbekiston xalq shoiri, qahramoni Abdulla Oripov tomonidan yozilgan, kuyi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Mutual Burhonov tomonidan bastalangan.

Qonunchilik O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti, mustaqilligini nomoyon etadigan davlat ramzlarini himoya qiladigan aniq mexanizmlarni belgilagan.O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzları to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish ma‘muriy javobgarlikka (O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 203<sup>1</sup>-moddasi) sabab bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi yoxud Davlat madhiyasiga hurmatsizlik qilish jinoiy javobgarlikka olib keladi (O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 215-moddasi).

Xulosa qilib aytish mumkinki, Davlat ramzları davlat suverenitetining muhim atributi sifatida mamlakatimizning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini o‘zida ifodalaydi, ularning timsolida, davlat va o‘zbek xalqining

tinchlikparvar, yaratuvchanlik maqsadlari mujassamlashgan. Ularda O'zbekiston Respublikasining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlari, suveren, tinchlikparvar mamlakat sifatida fuqarolarning vatanparvarlik, chidamlilik, mehnatsevarlik va baxtli kelajakka ishonch, mamlakatimizdagi millatlar vakillarining o'zaro munosabatlari kabi xislatlari o'z aksini topgan. Davlat ramzları Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishda, har bir fuqaroning hayotini mamlakatimiz taqdiri bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qonunning 6-moddasi "Davlat suvereniteti" bobini yakunlab bergen holda, Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxti ekanligini-mustahkamlaydi.

Odatda, davlat hokimiyatni va boshqaruving oliy organlari, markaziy va boshqa muassasalari joylashgan, mamlakat ma'muriy va siyosiy markazi bo'lgan poytaxtning Konstitutsiyaviy ta'rifি – davlat suverenitetining muhim tavsiflaridan biridir.

Toshkent – mamlakatning eng yirik iqtisodiy, tarixiy va madaniy markazi. Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, sud hokimiyatining yuqori organlari, respublika davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ijtimoiy harakatlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlarning markazlari joylashgan. Bu yerda yana chet el elchixonalari, BMT, YUNESKO, YUNISEF va boshqa xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat yuritadi.

Toshkent – iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi yirik sanoat markazlaridan biri. Markaziy Osiyodagi eng yirik transport tuguni bo'lib, Toshkent aeroporti xalqaro va tranzit maqomga ega. Toshkentdan MDH shaharlardan tashqari, yigirmadan oshiq shaharlarga muntazam reyslar amalga oshiriladi. Shahardan xalqaro miqyosdagи bir qator yirik magistral yo'llar boshlanadi. Poytaxtda ko'plab oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va markazlar mavjud. Teatr, kontsert zallari, O'zbekiston davlat konservatoriysi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mavjud. "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi, "Ma'rifat markazi" va boshqa ko'plab zamonaviy binolar shahar chiroyiga chiroy qo'shmoqda.

Toshkent – 2200 yillik tarixga ega bo'lgan dunyodagi eng yirik shaharlardan biri. Toshkent haqidagi ma'lumotlar yunon olimi Ptolemyning "Geografiyaga ko'rsatma" ilmiy asarida saqlanib qolgan. Yo'zma manbalarda zamonaviy Toshkent shahrining nomi Choch, Shosh,

Shoshkent, deb nomlangan. Shaharning zamonaviy nomi – Toshkent birinchi marta Abu Rayhon Beruniyning asarida tilga o'tilgan. Amir Temur hukmronligi davrida Toshkent eng yirik shahar sifatida rivojlanib, mintaqaning yirik hunarmandchilik, madaniy va ilmiy-tijorat markazi bo'lgan.

Toshkent jahon siyosatining muhim markazidir. Uni bejizga tinchlik, do'stlik va birodarlik shahri, deb atashmaydi. Bu yerda jahon, mintaqaviy siyosat, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, ilm-fan va texnika, madaniyat va san'atni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha muntazam ravishda xalqaro miqyosdagi tadbirlar o'tkaziladi. Poytaxtimizda faqat 2011-2016-yillarning o'zida Shanxay hamkorlik tashkilotining 15-Toshkent sammiti, xalqaro investitsiya Forumi, "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli" bo'yicha xalqaro simpozium, Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 43-yig'ilishi, Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-majlisi va boshqalar bo'lib o'tdi.

Jahon sivilizatsiyasi tarixida O'zbekiston, jumladan, poytaxtining rolini alohida ko'rsatgan holda, 2007-yilda Toshkent «islom madaniyat poytaxti», deb e'lon qilindi. Toshkentda Islom universiteti tashkil qilingan.

Bundan tashqari, poytaxtda Rus pravoslav cherkovi, koreys-protestant cherkovi, yahudiylarning diniy hamjamiyati, bittadan katolik va lyuteran cherkovi, shuningdek, bir qancha nasroniy e'tiqodga va Krishna izdoshlariga mansub jamoa va cherkovlar faoliyat olib bormoqdalar. Toshkentda O'zbekistonning 13 ta respublika va 22 ta shahar milliy madaniy markazlari ajdodlarning madaniyati, tili va urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida faoliyat ko'rsatmoqda<sup>1</sup>.

Toshkent xalqaro tinchlik yili tadbirlarida faol ishtirok etganligi munosabati bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining qaroriga binoan, unga «Tinchlik elchisi» faxriy unvoni berilgan.

Toshkent – Respublikaga bo'yisinuvchi shahar hisoblanib, ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta tumanga bo'linadi. Bular: Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Sergeli, Olmazor, Uchtepa, Chilonzor, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Yashnobod tumanlari. Toshkent shahrining umumiy maydoni 334,8 kilometr kvadratni tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Узбекистоннинг Этно-конфессионал атласи / Мас.мухаррир. Хусниддинов З. Ташкент: Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри бўйича дав. қум., 2005.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Toshkent shahri o‘zining zamonaviy qiyofasi, yirik ishlab chiqarish korxonalari, ulug‘vor binolari, salqin bog‘lari va ko‘chalari bilan jahonga mashhur. Toshkent – mamlakatimizning asosiy intellektual markazi, xalqimizning faxri hisoblanadi<sup>3</sup>.

#### **4-§.Suverenitetni ta‘minlashning xalqaro huquqiy asoslari**

Har bir davlat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari suverenitetini, ya‘ni ularning o‘z an‘analari doirasida boshqa davlatlarning har qanday aralashuvidan xoli ravishda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatini amalga oshirish, shuningdek, o‘z tashqi siyosatini mustaqil yuritish huquqini hurmat qilishga majburdir.

BMT Ustavi 2-moddasining 1-bandи shundan dalolat beradiki, «Tashkilot o‘z a‘zolarining suveren tengligi prinsiplariga asoslangan». Ushbu prinsipning rivojlanishi quyidagicha:

- BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli bo‘lgan 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘liq bayon qilingan;
- 1989-yilgi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashiga ishtirokchi davlatlar vakillarining Vena uchrashuvi prinsiplari to‘g‘risidagi deklarasiyada rivojlantirilgan;
- 1990-yilgi Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida tasdiqlangan va h.k.

Suveren tenglik prinsipining asosiy ijtimoiy vazifasi – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yoki boshqa turdagи farqlardan qat‘iy nazar, barcha davlatlarning xalqaro munosabatlarda keng ishtirok etishini yuridik ta‘minlashdan iboratdir. Xalqaro muloqotning teng huquqli ishtirokchilari sifatida davlatlar bir xil huquq va majburiyatlarga egadirlar.

1970-yilgi Deklaratsiyaga binoan, suveren tenglik tushunchasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) davlatlar yuridik jihatdan tengdirlar;
- 2) har bir davlat to‘liq suverenitet huquqidан foydalanadi;
- 3) har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyekti ekanligini hurmat qilishi shart;
- 4) davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir;

---

<sup>3</sup> Шавкат Мирзиёевнинг Тошкент шаҳри сайловчилари билан учрашуви. (2016й 24 11 ) // Ўзбекистон миллый ахборот агентлигининг расмий веб сайтига – [www.uz.uz](http://www.uz.uz).

5) har bir davlat o‘zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlash va rivojlantirish huquqiga egadir;

6) har bir davlat o‘zining xalqaro majburiyatlarini to‘liq va vijdonan bajarishi hamda boshqa davlatlar bilan teng, tinch-totuv yashashi shart;

EXHTning 1975-yilgi Yakunlovchi akti prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada, davlatlar suveren tenglik prinsipiqa faqat u BMT Ustavida va 1970-yilgi Deklaratsiyada bayon qilinganidek rioya qilishnigina emas, balki suverenitetga xos bo‘lgan huquqlarning xurmat qilish majburiyatini ham o‘z zimmalariga oldilar. Bu quyidagilarni anglatadi:

- davlatlar o‘z munosabatlarida tarixiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishlaridagi farqlarni hurmat qilishlari shart;

- yo‘nalishlar va qarashlarning har xilligi, ichki qonunlar hamda ma‘muriy qoidalar suverenitetga rioya qilish yo‘lida g‘ov bo‘lmasligi shart;

- har bir davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatini o‘z xohishicha va Xalqaro huquqqa muvofiq belgilash va amalga oshirish huquqi;

- davlatning xalqaro tashkilotlarga kirish, ittifoqchilik shartnomalarini ham qo‘shtigan holda, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama shartnomalarga a‘zo bo‘lish huquqi hamda neytralitet (betaraflik) huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligi va hududiy yaxlitligini e‘lon qilib, xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini xalqaro huquq normalarini ustuvorligini tan olgan holda mustahkamladi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. Suverenitet tushunchasi va uning belgilariga to‘xtalib o‘ting.

2. Suverenitet turlariga to‘xtalib o‘ting.

3. O‘zbekiston – suveren demokratik respublika deganda nimani tushunasiz?

4. Suverenitetni ta‘minlashning xalqaro huquqiy asoslarini sanab o‘ting.

5. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?

6. Poytaxtning huquqiy maqomiga to‘xtalib o‘ting.

## **V BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ HOKIMIYATCHILIGI**

- 1-§. Xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi.
- 2-§. Konstitutsiya va o'zbekiston xalqi.
- 3-§. Referendum – bevosita demokratiya shakli.
- 4-§. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi.
- 5-§. Siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik – demokratiya sharti.
- 6-§. Xalq hokimiyatchiligi va umuminsoniy qadriyatlar.
- 7-§. Ijtimoiy adolat va qonuniylik – demokratiyaning muhim sharti.

### **1-§. Xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi**

Ma'lumki, har qanday zamonaviy Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzumning asosiy shartlaridan biri bo'lmish xalq hokimiyatchiligi prinsipini mustahkamlab beradi. Ilk bor yunon shahar-davlatida paydo bo'lgan «demokratiya» atamasi butun dunyoga tarqalgan va siyosiy lug'atdan mustahkam o'rin olgan. Jahondagi demokratik davlatlarning Konstitutsiyalari «butun hokimiyat xalqqa tegishli» yoki «butun hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi», degan tushunchani o'zida mujassamlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miriziyyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasida, "O'tgan davrda ijro etuvchi hokimiyatni demokratlashtirish ishlari ham izchil olib borildi. Hukumatning vazifa va vakolatlar doirasi kengaytirilib, parlament oldida hisob berish darajasi va mas'uliyati kuchaytirildi. Bu Konstitutsiyaning 7-moddasida mustahkamlangan "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir", degan ulug'vor g'oyaning amaliy ifodasi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi", degan fikrga alohida to'xtalib o'tgan edilar".

---

<sup>1</sup>Ил.М.Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон хаётимиз, мамлакатимизни янада тараккий эттиришнинг мустахкам пойdevоридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килинганинг 25 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сизи, 2017 йил 9 декабрь

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobida "xalq hokimiyatchiligi" atamasi "hokimiyat manbayi" degan atama bilan uzviy bog'langan.

Demokratiyaning asl mohiyati o'zini o'zi boshqarish, o'z hayotini o'z qobiliyatiga, o'z tafakkuriga va o'z vijdoniga ko'ra qurishdir va buning oqibati uchun ma'suliyatini ham o'ziga olishdir.

Zero, o'z hayotini erkin boshqarishgina insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Qolaversa, demokratiyaning avtoritar tuzum kabi shaxsni boshqarish bahonasida cheklash, bo'ysundirish va ezish mexanizmi ham yo'q. Shaxsning o'ziga ko'proq huquq bergani va mas'uliyat yuklagani sari tuzum demokratlashaveradi, davlatning yuki ham yengillashaveradi.

Insoniyat tajribasi demokratiyaning ikki asosiy shaklini ishlab chiqqan: to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya hamda vakillik demokratiyasi – organlar, avvalo, vakillik va boshqa saylab qo'yiladigan organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya'ni saylov demokratiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-biriga aslo qarshi qo'ymaslik lozim, chunki bu ikkala shakl o'ziga xos ahamiyatga ega va o'zaro uzviy bog'liqdir.

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya – insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish orqali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etishi. Vakillik demokratiyasi, deb insonning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar yoki boshqa saylab qo'yiladigan lavozimlar orqali orqali ishtirok etishiga aytildi.

Bevosita demokratiya (asosiy qarorlar fuqarolar tomonidan referendum, yig'in kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda qabul qilinadi) va bilvosita demokratiya (qarorlar saylab qo'yiladigan muassasalar – parlament yoki boshqa organlar tomonidan qabul qilinadi) farqlanadi. Demokratiya institatlari huquqiy davlatda to'la rivojlanadi.

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to'g'ridan-to'g'ri o'zлari xohlagan nomzodlariga yoki partiyalariga ovoz berishlarida ko'rishimiz mumkin.

2005-yil 27-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: "**Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya bu saylov degani.** Chunki har

qaysi partiya aynan saylov orqali o‘zining tarafdarlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g‘oya va dasturlarini qo‘llab – quvvatlayapti – bularning barchasini amalda ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi”<sup>7</sup>.

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zлari xohlagan va munosib, deb topgan nomzodlariga yoki siyosiy partiyalarga ovoz berishlarida ko‘rishi mumkin.

Eramizdan oldingi V asrda yashagan Perikl ham demokratiyani shunday tavsiflagandi: “Bu tuzum «demokratiyay» deb ataladi. Chunki ozchilikning emas, ko‘pchilikning manfaatlariga asoslanadi. Xususiy manfaatlar uchun esa qonunlarimiz hammaga bir xil huquq beradi”.

Shuningdek, eramizdan oldingi yashagan yunon faylasufi Aflatun (Platon) o‘zining ilk asarlaridan bo‘lmish «Musohabalar» idayoq «yaxshilar hokimiyyati», deya demokratiyaga ta‘rif bergandi: “Birovlar uni demokratiya deyishadi, boshqalar yana nimadir deb atashar – kimning ko‘ngli nimani tusasa, shunday, aslida bu – yaxshilarning xalqning vakolati bilan boshqaruvidir”. Eramizdan oldingi V asrda yashagan yana bir antik davr vakili Perikl ham demokratiyani shunday tavsiflaydi: “Bu tuzum demokratiya deb ataladi. Chunki ozchilikning emas, ko‘pchilikning manfaatlariga asoslanadi. Xususiy manfaatlar uchun esa qonunlarimiz hammaga bir xil huquq beradi”.

Demokratiya o‘zining sof ko‘rinishida fuqarolarga o‘zлари va mamlakatlari taqdiriga doir davlatona qarorlar chiqarish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, masalan, referendumlar orqali ishtirok etish imkonini beradi. Bu bevosita demokratiya demakdir. Bunday imkoniyat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida (davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalarini referendum orqali hal etilishi belgilangan) va 32-moddasi (fuqarolarni davlat va jamiyat hayotini boshqarishda bevosita yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etishlari belgilangan) ham ko‘zda tutilgan.

Fuqarolar o‘z nomlaridan faoliyat yurituvchi va qaror qabul qiluvchi vakillarini saylaydilar. Buni vakillik demokratiyasi yoki, boshqacha

<sup>7</sup> Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш , мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: “Узбекистон”, 2005. – Б.13.

aytganda, bilvosita demokratiya deb ataydilar. Vakillik demokratiyasining asosida doimiy o'tkaziladigan, haqqoniy, halol va muqobil saylovlar yotadi. Bunday saylovlarning izchil o'tkazilishi hokimiyatni xalqqa bog'lab turadi.

Demokratiya sharoitida hukumat hokimiyat boshqaruvini xalq roziligi bilan oladi va mabodo, xalq hukumatga ishonchini yo'qotsa, uni tinch, demokratik yo'l bilan almashtira oladi. Zero, inglez faylasufi Jon Lokk "hokimiyat haqida"da yozganidek, "har bir inson o'z hayotining hakamidir" va u o'ziga bekligidan voz kechib, o'zining ustidan hokimiyat sylar ekan, uning faoliyatidan hisobdar va xabardor bo'lishga haqlidir.

Demokratiya shunday tuzumki, unda insonni imkon qadar kam boshqaradilar, imkon qadar kam chegaralaydilar, imkon qadar kam bezovta qiladilar. Ammo bu degani inson boshboshdoqlik qilaveradi, chegaradan chiqaveradi, degani emas, chunki boshqa insonlar ham uning kabi ozod insonlar, erkinlik istaydilar, halovat xohlaydilar. Bir insonning halovati boshqa insonga behalovatlik keltirsa, bu halovat, bu erk chegaralanadi, faqat boshqaning erkiga xavf solmaydigan darajadagina chegaralanadi.

Ayrim davlatlarning "demokratiya", "demokratiyalashtirish" niqobi ostida boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashishi mutlaqo xalqaro normalarga to'g'ri kelmaydi. Bunga oid normalar Asosiy Qonunimizda o'z yechimini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 17-moddasida shunday deyiladi, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi".

Shundan ham ko'rinish turibdiki, har bir davlat o'zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirar ekan, albatta umum e'tirof qilingan xalqaro normalarga so'zsiz rioya etishlari shart.

Garchand demokratiya azaliy qadriyat bo'lsa-da, faqat XX asr o'rtalariga kelib umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etildi va bugun –

XXI asrda umumjahon maqomiga ega bo'lmoqda. Shu bois ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bunga katta ahamiyat berildi. Xususan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi".

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida, shuningdek, qonun loyihibarini muhokama qilishdagi ishtiroklari normativ-huquqiy hujjatlarda bevosita o'z ifodasini topgan. Jumladan, 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan, "Qonun loyihibarining umumxalq muhokamasini to'g'risida"<sup>1</sup>gi qonunida fuqarolarning qonun loyihibarini muhokama qilishdagi ishtiroklari bevosita ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, "Qonun loyihibarining umumxalq muhokamasida fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriydir hamda fuqarolarni qonun loyihibarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishga majburlash taqiqlanadi. Qonun loyihibarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishda fuqarolar teng huquqdan foydalanadilar.

"2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi"<sup>1</sup>da, davlatimiz taraqqiyotining beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu islohotlarning tub zaminida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganiidek, "...Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e'lon qilingan 2017-yilda "Inson manfaatlari hamma narsadan ulug'", degan g'oya asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси"ни тасдиқлаш тўғрисида"ги фармони //Ўзбекистон Республикаси конун хўжжатлари туплами, 2017, 6-сон, 70-модда

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаронов ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққийеттиришнинг мустаҳкам пойdevoriidir. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килинганинг 25 йиллигига багишиланган тантанали маросимдаги маъруzasи. //Халқ сўзи, 2017 йил 9 декабрь

Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab, qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqlarini cheklash taqiplanadi. Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi jarayonida fuqarolar qonun loyihalari bo'yicha o'z fikrini erkin bildirish huquqiga egadirlar hamda hech kim qonun loyihalari yuzasidan o'z fikrini bildirishga majbur qilinishi mumkin emas”<sup>2</sup>.

Hozirda demokratik tizimlar bir-biridan ancha farq qiladi, ammolarda taraqqiyotning umumiy asoslari mavjud bo'lib, ular quyidagi talab va belgilarda namoyon bo'ladi: inson huquqlarini tan olish va xalqaro andozalar darajasida ro'yobga chiqarish; demokratik huquqiy va dunyoviy davlat prinsiplarini amalga oshirish; Konstitutsianing ustuvorligi; ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm, ekstremizmnинг siyosiy, diniy va boshqa turlariga suyanmaydigan, jamiyatda ijtimoiy, milliy va diniy dushmanlik urug'ini sochmaydigan siyosiy partiylar faoliyatining erkinligi; hokimiyat vakolatlarining taqsimplanishi printsipi davlat hokimiyati faoliyat ko'rsatishning qat'iy chegaralanganligi; fuqaroning davlat oldida, davlatning esa fuqaro oldida majburiyatlarga ega ekanligi; kelishuv, kompromiss va konsensus siyosiy-huquqiy mexanizmining mavjudligi; ijtimoiy nizolarning oldini olishning, barqarorlik va milliy kelishuvni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmning mavjudligi; fuqarolarning siyosiy jarayondagi faol ishtiroklari va davlat hokimiyatining oliv idoralari hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari shakllanishida saylovchilarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi.

Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklari hamda ularning konstitutsiyaviy kafolatlanganligi jamiyatimizning demokratik mohiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, demokratiya shaxsga imkon qadar ko'p erkinlik beradi va shunga yarasha katta mas'uliyat yuklaydi, insonni o'z taqdiriga ega etadi hamda qadr-qimmatini ko'taradi.

Bu jihatdan qaraganda, Konstitutsiyamiz inson va fuqarolarga ancha keng huquq va erkinliklar beradi. Uning VII-XI boblarida fuqarolarning

---

<sup>225</sup> Узбекистон Республикасининг “Қонун лойиҳаларининг умумхалқ муҳокамаси тўғрисида”ги Қонуни. 2000 й., Ўзбекистон Республикаси Олий Маъжлиси Ахборотномаси. 2001 й., № 1-2, 14-модда.

shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari, burchlari va ularning kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar", deb e'lon qilinishi bu borada muhim qadam bo'lib hisoblanadi.

## **2-§. Konstitutsiya va O'zbekiston xalqi**

Har bir xalq, har qanday jamiyat o'z milliy davlatchiligini qurishda o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Shu bois ham, dunyoda taraqqiyot yo'li aynan bir-biriga o'xshash, bir xil davlatlar yo'q. Zero, muayyan davlatning barpo etilishi uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, u bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu – geografik, tarixiy, etnik, demografik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillardan iboratdir.

Ona zaminimiz – O'zbekistonda ham dunyoning eng ilg'or xalqlari o'rgansa arziydigan davlatchilik an'analari borki, o'tgan yillar davomida ularga tayanib, milliy davlatchiligidan barpo etmoqdamiz. Biz uchun ulug' va muqaddas bu mustaqil davlat uchta asosiy tayanch, ya'ni o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi, demokratiya va ijtimoiy adolat, xalqaro huquq qoidalarining ustunligi asosida insonparvar demokratik davlat barpo etish yo'lida yuksalib bormoqda.

Darhaqiqat, bu islohotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-moddasida mustahkamlangan davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyat tarmoqlari o'rtaida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda qonun chiqaruvchi hokimiyat, joylarda vakillik hokimiyati organlari vakolatlarini yanada kengaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat keng qamrovli dolzarb chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Binobarin, mamlakatimizning mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab, bugungi kungacha bosib o'tgan taraqqiyot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizda demokratik andozalarga to'liq javob beradigan zamonaviy siyosiy tizim barpo etish borasida jamiyat hayotining izchillik

bilan, bosqichma-bosqich erkinlashuvini ta'minlovchi mustahkam tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasiga muvofiq, O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Ushbu modda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muhim xususiyatlaridan birini o'zida mujassamlashtirgan. Chunki unda belgilangan me'yor dunyodagi hech bir davlatning Konstitutsiyasida uchramaydi. Ko'rib turibmizki, Konstitutsiyada "O'zbekiston xalqi", "O'zbekiston fuqarolari", degan tushunchalarga ta'rif berilayapti. Bunga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilgan va uning hududida istiqomat qiladigan har bir inson millatidan, irqidan, qaysi denga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi va respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lish huquqiga egadir.

Ma'lumki, Konstitutsiyaning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi belgilab qo'yilgan. Maktab ta'limi o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilayotgani ushbu norma to'liq tatbiq etilayotganining yorqin ifodasidir.

O'zbekiston tarixida qabul qilingan avvalgi Konstitutsiyalardan farqli ravishda mazkur Konstitutsiya O'zbekiston xalqini ishchilar, dehqonlar, ziyorolar, musulmonlar, askarlar va hokazolarga ajratmaydi. Uning «nazarida» kim qanday kasbni egallashidan, qanday mashg'ulot turi bilan shug'ullanishidan, jamiyatda qanday o'rinn tutishidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va boshqa holatlaridan qat'iy nazar inson hisoblanadi. Ya'ni, boshqacha so'z bilan aytganda, O'zbekistonda tug'ilib, shu yerda istiqomat qiladigan har bir kishi, kim bo'lishidan qat'iy nazar insondir va O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir. Vaholanki, inson haqida so'z ketar ekan, uning mohiyatini aniqlab olish zarur. Inson – tabiiy kuch, lekin u mehnat qilish, ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lganligi uchun tabiatdan ustun turadi. Inson – xalqning, jamiyatning bir bo'lagi, u siyosiy ma'noda ko'pincha «shaxs» deb yuritiladi. «Shaxs» iborasi biologik, tabiiy zot ma'nosida emas, ijtimoiy borliq subyekti ma'nosida ishlataladi. Demak, shaxs ham jamlatning, xalqning bir bo'lagi bo'lib, ularning manfaatlari doimo uyg'un bo'lishi lozim. Shunda chinakam ijtimoiy adolat qaror topadi.

O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Yana bir bor ta'kidlash lozimki,

xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekan, nafaqat o'zbeklar, balki O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchilar, ularning dini, tili, irqi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil qiladi. Hech kim, hech qanday hokimiyat ushbu masalada o'zicha turli xil cheklovlarni qo'llashga haqli emas va bu qonun bilan ta'qib qilinadi. O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari dini, tili, irqi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishda teng huquqli ravishda ishtirok etadilar. O'z navbatida o'zbek xalqini tashkil etuvchi barcha millat vakillari davlat, jamiyat oldida turgan mas'uliyatlari vazifalarni bir xilda amalga oshirishlari va o'z navbatida, ta'minlashlari lozim bo'ladi.

«Shaxs» siyosiy-yuridik ma'noda ko'pincha «fuqaro» deb ataladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ilgarig'i Konstitutsiyalarda "fuqaro" atamasi o'rniда "grajdanim" degan atama ishlatalib kelgan. Birinchi marta ushbu Konstitutsiyada "fuqaro" degan atama qo'llanilgan. Lekin "fuqaro" iborasi kelib chiqishining o'ziga xos tarixi bor. Umuman "fuqaro" iborasi insonning mazkur davlatga taalluqligi ma'nosida ishlatalidi. Shu tufayli fuqarolar davlat tomonidan o'rnatilgan burchlarni bajaradi. Konstitutsiyaning eng muhim demokratik jihatlaridan biri shundaki, unda inson huquqlari fuqarolar huquqlariga qarshi qo'yilmagan, balki aksincha, inson va fuqaro huquqlari o'zaro uyg'unlashib ketgan. Konstitutsiyaning II bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari"ga bag'ishlangan bo'lsa, uning III bo'limida «Jamiyat va shaxs» o'rtasidagi munosabatlar batafsil tartibga solingan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaning 8-moddasida belgilangan yana bir muhim demokratik ruhdagi qoida, O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyilining mustahkamlanishidan iborat. Bu esa, inson huquqlari haqidagi xalqaro huquq me'yorlariga to'la mos tushadi. Masalan, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida shunday deyiladi: "Har bir inson, biror-bir ayrimachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar, mazkur deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligi va uning amalga oshirilishi shakllari xususida ham muhim me'yorlar belgilaydi. Jumladan, uning 10-moddasiga muvofiq,

«O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas».

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi va Prezidentidan tashqari, jamiyatdagi hech bir guruh, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin emas. Chunki Konstitutsiya Oliy Majlis va Prezidentdan tashqari hech kimga bunday huquqni bermaydi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish qonunga xilof hisoblanadi va tegishlichcha javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Bunday harakatlar ko'pincha davlatga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida ko'rildi.

Umuman olganda, o'zbek xalqi o'ziga mos bo'lgan demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlab oldiki, bunga hozirgi kunda butun jahon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan turli xil islohotlarni kuzatish orqali tan berib kelmoqda. O'zbek xalqi tanlagan demokratik yo'l juda ham katta va o'z o'rnida turli sohalarda muhim islohotlarni amalga oshirishni talab qildi.

Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart", degan muhim qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lish qoidasi Inson huquqlari Umumjahon deklaratasiysi qoidalariiga to'la-to'kis mos keladi. Shu bilan bir qatorda, barcha fuqarolar bir-birlari bilan do'stona munosabatda bo'lishlari va tinch-totuv yashashlarining zaminida inson huquqlari turishi va bu birinchi navbatda, konstitutsiyaviy huquq bilan himoya qilinishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu moddasida aniq va ravshan qilib inson huquq va erkinliklarining tengligi belgilab qo'yilganki, mamlakatda odamlar o'rtasida biron-bir ayirmachilikka, ya'ni ular o'rtasida irqiy, milliy, jinsiy, diniy nizolarning kelib chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur moddaga binoan, qabul qilingan joriy qonunlarda esa har qanday ko'rinishdagagi irqiy, milliy, diniy nizolar, tenglik prinsipiiga zid keluvchi harakatlar qoralanadi va zarur hollarda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141-moddasida fuqarolarning teng huquqligini buzish, ya'ni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi yoki ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlariga qarshi bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoyat hisoblanib, javobgarlikka tortish uchun sabab bo'lishi ko'rsatilgan.

Demak O'zbekiston xalqini bu yerda istiqomat qiladigan yuzdan ziyod millat va elatlар tashkil qiladi. Ularning barchasi teng huquqli O'zbekiston fuqarolaridir.

### **3-§. Referendum – bevosita demokratiya shakli**

O'zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasida "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi", degan qoida esa fuqarolarimizning jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal etishda bevosita ishtirokini kafolatlaydi. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslanganligini yana bir karra yaqqol ko'rsatadi.

Xalq hokimiyatchiligi – butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqqa tegishli degani. Konstitutsiyaga binoan, xalq hokimiyatni bevosita hamda o'zi saylab qo'yadigan organlari orqali amalga oshiradi. Xalq saylovlari yo'li bilan hokimiyatning vakillik organlarini shakllantiradi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumlar orqali jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal qiladi.

Konstitutsiyaning 9-moddasida o'rnatilganidek, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari umumxalq muhokamasiga olib chiqiladi, shuningdek, umumxalq ovozi—referendum yo'li bilan hal qilinadi. Referendum so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "yetkazilishi, ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa", deganidir, ya'ni davlatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va uning ovoz berishi orqali hal etiladi. Referendum respublikamizda demokratiyaning ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita amaiga oshirish vositasi hisoblanadi.

Xorijiy konstitutsiyashunoslik tajribasiga nazar tashlasak, referendum deganda, qonun chiqaruvchi organ tomonidan Konstitutsiya, qonunlar qabul qilish yoki boshqa ichki va tashqi siyosiy masalalar bo'yicha hal qiluvchi, oxirgi qaror qabul qilinishi nazarda tutiladi. Referendum o'tkazish shartlari va tartibi konstitutsiyaviy tuzumga ega bo'lgan davlatlarning Konstitutsiyasi va qonunlari bilan tartibga solinadi.

Konstitutsiyaviy huquqda umumxalq ovoziga qo'yiladigan masalaning mohiyatiga, uni o'tkazish usuliga va qo'llash doirasiga qarab referendumning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Konstitutsiyaviy referendum. Bunda yo Konstitutsiya loyihasi, yoki Konstitutsiyaga kiritiladigan o'zgartirish (tuzatish, qo'shimcha) haqidagi loyiha umumxalq ovoziga qo'yiladi.

2. Qonun ta'sis etuvchi referendum. Bunda Konstitutsiyadan boshqa biron bir muhim qonun loyihasi umumxalq ovoziga qo'yiladi va qabul qilinadi.

3. Majburiy referendum. Bu umumxalq ovoziga qo'yilishi shart bo'lgan masalalar bo'yicha o'tkaziladi. Masalan, davlat suverenitetiga, demokratik davatlarda oliv hokimiyat organlari vakolatlarining o'zgarishiga va shu kabilarga taalluqli masalalar, albatta, referendum orqali hal etiladi. Majburiy referendumda tegishli qonun loyihasi butun saylovchilar korpusi tomonidan ratifikatsiya qilinishi (rasman tasdiqlanishi) shart. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish haqida loyiha taqdim qilingan bo'lsa, u jami shtatlarning kamida uchdan ikki qismi tomonidan ma'qullangan bo'lishi lozim.

4. Fakultativ (majburiy bo'lmagan) referendum. Bunda oliv qonun chiqaruvchi organ muayyan masalani xohlasa umumxalq ovoziga qo'yish orqali, xohlasa xalq vakillik organlari orqali hal qilishi mumkin. Fakultativ (majburiy bo'lmagan) referendum o'tkazish tashabbusi bilan saylov korpusi (masalan, Italiyada), federativ tuzilishiga ega bo'lgan davatlarda federatsiyaning alohida subyektlari (masalan, Shvetsariyada) yoki markaziy hokimiyat (masalan, Fransiyada) chiqishi mumkin.

Respublikamizda referendum o'tkazish tartibi 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan (2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda) "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi referendumi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarini qabul qilish

maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

Referendum saylovlар bilan bir qatorda, xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risidagi qarorni qabul qilish huquqiga faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи egadir. Agar Oliy Majlis referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilsa, unda uni o'tkazish sanasi aniqlanadi, bunda ovoz berish Oliy Majlis palatalari qarori e'lon qilingan kundan e'tiboran bir yarim oydan, uch oygacha bo'lган davrda istalgan kunga tayinlanishi mumkin.

Referendum o'tkaziladigan kun haqida u tayinlangandan keyin kechi bilan uch kun ichida matbuotda va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Referendum tayinlash to'g'risidagi qaror e'lon qilinganidan keyin kechi bilan o'n kun ichida referendumga qo'yilayotgan qonun yoki o'zga qarorning loyihasi e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish tashabbusi bilan: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin. Bunda ushbu ko'rsatib o'tilgan subyektlar referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni ko'rsatishda, referendumga qo'yiladigan qonun loyihasini yoki o'zga qaror loyihasini ishlab chiqishda, shuningdek, masala ta'rifini (mohiyatining aniq ifodasini) belgilashda teng huquqlarga egadirlar.

Referendumni tashkil etish va o'tkazish quyidagi komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi.
2. Referendum o'tkazuvchi okrug komissiyalari.
3. Referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalari.

Referendum o'tkazuvchi komissiyalarning vakolatlari ular tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va referendum natijalari e'lon qilingan paytdan bir oy o'tgach to'xtatiladi.

Ovoz berish referendum kuni mahalliy vaqt bilan soat 6.00 dan 20.00 ga qadar o'tkaziladi. Ovoz berish vaqtি va joyi haqida uchastka komissiyasi referendum o'tkaziladigan kunga kamida o'n besh kun qolganida fuqarolarni xabardor qiladi.

Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari referendumda qatnashish huquqiga egadirlar. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz, deb topilgan ruhiy kasal fuqarolar, shuningdek, sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, denga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatiga qarab fuqarolarning referendumda qatnashish huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash man etiladi.

Qonunda referendum o'tkazish prinsiplari o'rnatilgan bo'lib, unga binoan fuqarolar referendumda ixtiyoriy tarzda va bevosita ishtirok etadilar. Referendumda ovoz berish yashirin o'tkaziladi, fuqarolarning o'z xohish-irodalarini izhor etishlarini nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolar referendumda teng asoslarda ishtirok etadilar. Har bir fuqaro shaxsan ovoz beradi va bir ovozga ega bo'ladi. Referendumni tayyorlash va o'tkazish davomida keng oshkorralik, jamoatchilikning ishtiroki ta'minlanadi. Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni referendum o'tkazuvchi komissiyalar amalga oshiradilar. Ular fuqarolarni o'z ishlaridan, okruglar, ovoz berish uchastkalari tuzilganligi, komissiyalarning tarkibi, ularning joylashgan manzili va ish vaqtidan voqif etadilar, ovoz beruvchi fuqarolarning ro'yxatlari bilan tanishtiradilar, ovoz berish yakunlaridan xabardor qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari referendumga tayyorgarlikning borishi va u qanday o'tayotganligini yoritib boradilar.

Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda siyosiy partiyalardan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga egadirlar. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Manfaatdor tashkilotlar, fuqarolar tashabbuskor guruhlari o'z kuzatuvchilarini to'g'risida okrug komissiyalariga referendum o'tkazilishiga kechi bilan o'n besh kun qolganida ma'lum qiladilar. Okrug komissiyasi ana shunday ariza oiganidan keyin besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan namunadagi mandatni kuzatuvchi uchun beradi. Boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarning kuzatuvchilariga mandatni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi beradi.

Yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida»gi Qonunning 9-moddasida kuzatuvchilarning huquqlari va qanday faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi ko'rsatilgan. Qonunda referendumga qo'yiladigan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish tartibi ham belgilangan (10-modda). Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari referendum o'tkazilishini yoqlab yoki unga qarshi, referendumga qo'yilayotgan qonun loyihasi, amaldagi qonun yoki boshqa masalani yoqlab yoxud unga qarshi moneliksiz tashviqot olib borishga haqlidirlar. Bunday tashviqot olib borish maqsadida radio, televidenie va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin. Biroq shuni unutmaslik kerakki, tashviqotni fuqarolarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), shuningdek, pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish taqiplanadi.

Referendum o'tkaziladigan kuni tashviqot yuritishga yo'l qo'yilmaydi. Referendumga qo'yiladigan masalalar xalq, jamiyat, davlat manfaatlaridan kelib chiqqanligi uchun unda fuqarolarning aksariyati doimo faol ishtirok etadi. Masalan, mustaqillik sharofati bilan yurtimizda o'tkazilayotgan referendumlarni eslaylik. Chunonchi, 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risidagi masalaga doir referendum o'tkazilib, unda O'zbekiston xalqi Respublika Oliy Kengashi e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qulladi. Ushbu umumxalq referendumida 9 million 898 ming 707 kishi, ya'ni saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi.

2001-yil 12-dekabrda esa, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalaridan biri sifatida ikki palatali parlamentga o'tish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining referendummini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi<sup>8</sup>. Referendum 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazildi hamda referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 93,65 foizi ikki palatali parlamentni yoqlab ovoz berdi<sup>2</sup>.

---

<sup>8</sup>Узбекистон Республикаси конун хужожаглари туплами, 2001 - №8 - 22-24-

<sup>2</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

Referendum haqida so‘z ketar ekan, shu narsani yodda tutish lozimki, referendumga davlat va jamiyat hayotiga taalluqli barcha masalalar qo‘yilavermaydi. Masalan, respublika hududiy butunligini o‘zgartirish to‘g‘risidagi, soliqlar, byudjet, amnistiya (afv etish), jamoat tartibini, aholining sog‘lig‘i va xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan savqulodda va shoshilinch choralar ko‘rish to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi haqidagi, mansabdar shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish bilan bog‘liq masalalar umumxalq ovozi-referendumga qo‘yilmaydi. Bu masalalar Konstitutsiyaga binoan, tegishli davlat hokimiyat organlari, xususan, Oliy Majlis va Prezident tomonidan ko‘rib, hal qilinadi. Zero, Oliy Majlis ham, Prezident ham bevosita xalq tomonidan saylab qo‘yiladi. Bu borada ham Konstitutsiyaning demokratik tomoni ko‘zga yaqqol tashlanadi, umumxalq ovozi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

#### **4-§. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi**

Hozirgi zamonda davlat hokimiyat tizimining bo‘linishi davlat hokimiyatining demokratik sharoitda tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplaridan ekanligiga shubha yo‘q emas. Ammo mazkur nazariyaning mumtoz shakli asoschilari hisoblangan ingliz faylasufi Djon Lokk yoki frantsuz mutaffakiri Sharl Lui Monteskelar bu ta‘limot kelgusi 300 yil davomida bu darajada rivojlanib ketishi va ilg‘or davlatlar hayotiga muqim singib ketishini hatto tasavvur ham qilmaganlar.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab bugungi kungacha bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizda demokratik andozalarga to‘liq javob beradigan zamonaviy siyosiy tizim barpo etish borasida jamiyat hayotining izchillik bilan, bosqichma-bosqich erkinlashuvini ta‘minlovchi mustahkam tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Davlat hokimiyatining taqsimlanishi har qanday davlatning demokratik xususiyatini belgilaydi, uning xalq hokimiyatchiligiga asoslanganligini bildiradi. Bu prinsip huquqiy davlat barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiiga asoslanadi.

“Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi” g‘oyasi qadimiy bo‘lib, qadimgi yunon faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. O‘rta asrlarda M.Paduanskiy va boshqalar ham bunday g‘oyani yoqlab chiqqan edilar. XVIII asrning o‘rtalariga kelib, bu g‘oya mustaqil ta‘limotga aylangan. Mashhur fransuz ma‘rifatparvari, huquqshunos, faylasuf va yozuvchi Monteske (1689-1755-yillar) o‘zining “Qonunlar ruhi” kitobida hokimiyatning bo‘linishi prinsipini ilgari surgan. Monteske fikricha, siyosiy xiyonatlarning bo‘lmasligini ta‘minlaydigan narsa uch hokimiyatning: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining to‘la bo‘linishi va bir-birini cheklashidir.

Monteske ta‘limotida alohida o‘rin tutadigan g‘oya – bu hokimiyatlarning muvozanati, tengligi hamda ularning “o‘zaro bir-birini tiyib turish va qarama-qarshi ta‘sir etish tizimi” haqidagi g‘oyadir. Yuqorida qayd etilgan hokimiyatlar o‘rtasida shunday munosabat o‘rnatilmog‘i lozimki, bunda ularning har biri davlat vazifalarini mustaqil o‘tash bilan birqalikda o‘z huquqiy vositalari yordamida bir-birlarini muvozanatga chorlab turadilar, hokimiyat vakolatlarining bирgina muassasa tomonidan qonunsiz ravishda tortib olinishi (uzurpatsiya qilinishi)ni bartaraf etadilar. Masalan, qonun doirasida ishlashi lozim bo‘lgan ijro etuvchi hokimiyat ayni paytda, qonun chiqaruvchi kengashning faoliyatini chegaralab turishi talab etiladi, aks holda parlament o‘zining mutlaq hokimligini o‘rnatishi mumkin. Shu sababli ham ijro hokimiyatining boshlig‘i qonunlarni imzolashda “veto” (ya‘ni imzolashni vaqtincha rad etish) huquqidan foydalanadi, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘ladi.

O‘z navbatida qonun chiqaruvchi organ ijro etuvchi idora tomonidan qonunlar qanday bajarilayotganligi ustidan nazorat qilish vakolatiga ega, hukumat esa parlamentga hisob berishga majbur.

Umuman “hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi” nazariyasiga ko‘ra, davlat hokimiyati yagona, yaxlit, bir butun, deb emas, balki turli hokimiyat (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlarini amalga oshiruvchi hokimiyatlar) funksiyalarining yig‘indisi sifatida tushuniladi. Bunday turli funksiyalarni amalga oshiruvchi hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil ravishda harakat qilishlari lozim. Lekin bu uchala hokimiyat idoralari bir-biriga bog‘liq emas, degan

ma'noni bildirmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi va nazorat qilib boradi.

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi mamlakatning konkret tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joryy etilsagina, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini ta'minlash mumkin. Mazkur prinsip hokimiyat egasi bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartib (muayyan qolip, andoza)ga solish imkoniyatini beradi. Zero, ularning har biri o'z sohasi doirasida mustaqil, boshqa hokimiyatga itoat etmaydi, so'zsiz ijro etilishga mo'ljallangan qarorlar (aktlar) qabul qiladi.

Hokimiyatning uchala tarmog'i, faqat ular, va albatta, ularning uchalasi birgalikda yagona davlat hokimiyatini tashkil etadi. Ulardan boshqa hech bir davlat organi hokimiyatga da'vogarlik qilolmaydi. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipining muhim jihatlaridan biri shuki, unda hokimiyatning har bir shaxobchasi qolgan ikki hokimiyat subyektining har birini nazorat qilish huquqi va imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi adolatli, demokratik, huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday prinsip muayyan davlatda biror organning yoki alohida davlat rahbarining kuchli diktaturasi o'rnatilishining oldini oladi. Shuningdek, tegishli davlat organlarining vakolatlari, vazifalari aniq bo'lishini ta'minlaydi, bir organning ikkinchi organ ishlariga aralashuviga barham beradi, boshqarish sohasida chalkashliklar kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi va hokazo.

Mazkur prinsip hokimiyat organlarining o'zaro kelishib, bir-birini nazorat qilib, uyg'unlashib ishlashlariga ham imkoniyat yaratadi. Bular esa adolatli, demokratik davlatga xos jihatdir.

Rivojlangan demokratik davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali (yuqori – Senat, quyi – Qonunchilik palatasi) Oliy Majlis tomonidan, ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan, sud hokimiyati esa faoliyat yo'nalishiga qarab, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud tomonidan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi barcha idoralar o'z faoliyatini faqat qonun tomonidan berilgan vakolat doirasidagina yuritadilar. Har bir hokimiyat o'z faoliyatini o'ziga tegishli bo'lgan vakolatlarni amalga oshirish orqali o'z hokimiyatiga mustaqil sanaladi.

Konstitutsiyaning “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan bo‘limida ana shu uchala hokimiyat organlarining tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, ularning o‘zaro faoliyati va o‘zaro munosabatlari haqida qoidalar ham o‘rnataligan.

2003-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi tugatildi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan 2007-yilda mamlakat Prezidenti bir vaqtning o‘zida ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i ekanini belgilovchi norma chiqarildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga davlat boshlig‘ining huquqiy maqomini belgilovchi “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi” degan norma kiritildi. Bu norma davlat hokimiyatining tizimi va tuzilishi hokimiyat bo‘linishi printsipining yanada rivojlanishini, uchala hokimiyat tuzilmalarining biri-biridan xoli, mustaqil, ayni paytning o‘zida hamjihat faoliyat yuritishini ta‘minlab kelmoqda.

Shu munosabat bilan Prezidentning ayrim vakolatlari Oliy Majlis yuqori palatasi Senatga va Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasi vakolatlarining kengaytirilishi barobarida mas‘uliyatini ham oshirilishi natijasida uning faoliyati yanada takomillashtirildi. Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Davlat boshqaruvini amalga oshirishda siyosiy partiyalarning ishtiroki yanada kengaytirildi. Bularning hammasi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealar bo‘ldi va O‘zbekiston taraqqiyotida o‘zining samarali natijasini bermoqda. Bu qoida Prezidentning Hukumat bilan, umuman olganda, butun ijroiya hokimiyati tizimi bilan bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirdi. Bosh vazirga hukumatga rahbarlik qilishning o‘tishi, uning huquqi kengaytirilganligi, shu jumladan, hukumat a‘zolarining uning tavsiyasi bilan shakllantirilishi uning Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etishdagi va unga rahbarlik qilishdagi mas‘uliyatini va javobgarligini oshirdi. Bu islohotlar hukumatning mamlakat iqtisodiyotiga, ijtimoiy va ma‘naviy sohadagi faoliyatiga samarali rahbarlikni amalga oshirishiga imkoniyat yaratdi va hukumatning tom ma‘noda amalda mustaqil bo‘lishini ta‘minladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik tashabbusi asosida 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi

Konstitutsiyaviy qonun davlat boshqaruvini mazmunan yangilash, bunda mavjud demokratik prinsiplarni kengroq joriy etish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Bu islohotlar natijasida parlamentning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, palatalar o'rtasida xalq irodasiga tayangan holda har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi va mexanizmini vujudga keltirish, deputatlarning demokratik tartib taomillar va siyosiy raqobat sharoitida doimiy asosda professional tarzda ish olib borishlari, qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatida umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish, fuqarolarning mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratildi.

2011-yil 18-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi Qonunning qabul qilinishi ham juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, mazkur qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishda amalga oshirib kelingan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, uning yangi bosqichini boshlab berdi va davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu hujjat Bosh vazirni lavozimga tayinlash hamda lavozimidan ozod etishning, parlament va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi demokratik tartibini belgilashi bilan birga, jamiyat hayotini demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishini ta'minlashga hamda yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishiga ham keng sharoitlar yaratadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga “O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinnarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi”, degan mazmundagi qoidalarning kiritilishi O'zbekistonda demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirish masalasiga har qachongidan ham katta ahamiyat berilayotganligidan dalolatdir. Ma'lumki, amaldagi qonunchilik normalariga ko'ra, Bosh vazir nomzodini ko'rsatish uchun siyosiy

partiyalarning Qonunchilik palatasidagi barcha fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilar edi. Bundan tashqari, parlament saylovlarining natijasi orqali qo'lga kiritilgan deputatlik o'rnlari har bir siyosiy partianing jamiyat va siyosiy sahnadagi real o'rnini belgilab berishini hisobga olsak, o'zining saylovoldi dasturi va unda belgilangan maqsad va vazifalarning saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, parlament quyi palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya hukumat rahbari nomzodini taklif etish orqali ushbu dasturlarning ijrosini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 15-bandiga kiritilayotgan normalarga binoan, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati birqalikda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish vakolatlariga ega bo'lmoqda. Bu qoida parlament va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yangilik bo'lib, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan kuchli parlament nazoratini amalga oshirish mexanizmini yaratadi. E'tiborli jihat shundaki, agar parlament palatalari qaysidir masalani jamiyat hayoti uchun dolzarb deb hisoblasa, hukumat rahbarining ana shu masala yuzasidan hisobotini har qanday vaqtda eshitishi mumkin. Bu qoida, bir tomonidan parlamentning ijroiya hokimiyatga ta'sirini yanada oshirib, hukumat faoliyatining shaffofligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, hukumat faoliyatining samaradorligini yanada oshirib, uning parlament oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda Konstitutsiyamizning 93-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchaga binoan, Bosh vazirga viloyatlar hokimligi va Toshkent shahar hokimligiga nomzodni tavsija qilish huquqi berilganini alohida ta'kidlash joiz. Sababi, bu qoidalar ham davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi islohotlariga hamohangdir. Zero, viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi o'z lavozimlari bo'yicha joylarda, avvalo, ijroiya hokimiyatni boshqaradi. Ayni paytda ular hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishga mas'uldirlar. Shu bilan bir qatorda, ijroiya hokimiyatning umumiy faoliyati uchun Bosh vazirning javobgar bo'lishi sababli bunday huquqning Bosh vazirga berilishi mantiqan to'g'ri jarayon bo'lib, hokimiyat bo'linishi prinsipiiga to'la mos keladi.

Shu o'rinda mamlakatimizda parlamentga birinchi marotaba Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqi ham joriy etilayotganini qayd etish lozim. Parlament amaliyotida hukumat faoliyatini

qo'llab-quvvatlamaslik shu tartibda ifoda etiladi. Hukumat rahbariga ishonchsizlik votumi bildirilishi, butun hukumatning iste'foga chiqishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'ttasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masalaning kiritilishini belgilovchi normaning ahamiyati va salmog'i ham davlat mexanizmida benihoya kattadir. Chunki, bu orqali hukumat va parlament munosabatlarida barqarorlikni ta'minlash nazarda tutildi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, mazkur yangi tartib xalqaro amaliyotga to'liq mos kelishi bilan birga, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Birinchidan, "ishonchsizlik votumi" butun hukumatga emas, balki faqat Bosh vazirga nisbatan bildiriladi. Ikkinchidan, ishonchsizlik votumi istalgan paytda emas, balki ziddiyatlar Qonunchilik palatasi va Bosh vazir o'ttasida doimiy tus olgan taqdirdagina vujudga keladi hamda deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan ko'tarilgandagina Prezidentga ko'rib chiqish uchun taklif etiladi. Uchinchidan, Bosh vazirga ishonchsizlik votumi tegishlichcha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz berganda amalga oshadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaga davlat hokimiyatining uchta subyekti: davlat boshlig'i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'ttasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash maqsadida kiritilayotgan o'zgartirishlar orqali 93-moddaning 8-bandidan ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, degan norma Prezident vakolatlaridan chiqarildi.

2014-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi Qonun<sup>1</sup>, fuqarolarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil

---

<sup>1</sup>2014 йил 16 апрелдаги "Узбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига узгартиш ва кўшимчалар киритиш тўғрисида (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-моддаларига)"ги Конуни Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлар тўплами, 2014 йил, 16 –сон, 176 –модда.

tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlар muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, Vazirlar Mahkamasi vakolatlarini kengaytirish hamda mas'uliyatini oshirish borasidagi doimiy islohotlarni yanada yuqori bosqichga ko'tardi.

Shunday qilib, Prezidentimiz tashabbusi bilan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarning yanada takomillashtirilgan tartibining joriy qilinishi quyidagi xususiyatlarga egadir.

**Birinchidan**, bu o'zgarishlar mamlakatimizda olib borilayotgan barcha sohalardagi tub va izchil islohotlarni yanada chuqurlashtirishning, taraqqiyotning yana bir yangi davriga qadam tashlashning huquqiy zhamini bo'lib xizmat qiladi. Eng asosiysi, O'zbekistonda davlat hokimiyatining tashkil etilishi va boshqaruvining yangi tip va mazmundagi har qanday demokratik talablarga to'liq javob beradigan zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy modelining qonuniy asoslarini yaratadi.

**Ikkinchidan**, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasidagi islohotlar Prezidentning davlat boshlig'i sifatidagi o'rnni yanada mustahkamlab, uning davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini ta'minlashga oid funksiyalari ahamiyatini oshiradi, hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritishi prinsipining hayotga yanada oqilona joriy qilinishiga, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida barqaror muvozanat, "tiyib turish va manfaatlар muvozanatining" yanada barqaror ta'minlanishiga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish borasidagi chora-tadbirlar parlamentning mamlakatda kechayotgan jarayonlarga ta'sirini hamda uning o'rni va nufuzini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Qonunchilik palatasining kundalik faoliyatidagi siyosiy partiylar o'rtasidagi raqobatni, g'oyalar va dasturlar kurashini faollashtirishga imkoniyat yaratadi hamda muayyan ijtimoiy qatlam manfaatlarni ifodalaydigan partiyalarning o'z saylovoldi dasturlarini muvaffaqiyatli amalgalashishning kafolati vazifasini o'taydi.

**To'rtinchidan**, Konstitutsiya va milliy qonunchiligidan negiziga qurilgan milliy davlatchiligidan barqarorligi ta'minlanib, uning xalq

irodasi va manfaatlari asosida qurilgan poydevori yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, davlat boshqaruvining yanada samarali, demokratik konstitutsiyaviy modeli tatbiq etilishiga yangi huquqiy zamin yaratilishi orqali xalq farovonligi yuksaladi va yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzi ortadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyaning mohiyati, xususiyatlari va salohiyatini o'rganish hamisha davom etaveradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hali qanchadan-qancha bunyodkorlik harakatlarining, ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan demokratik islohotlarning, kuchli fuqarolik jamiyat qurilishining huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilishiga ishonchimiz komil.

### **5-§. Siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik – demokratiya sharti**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas”, deb mustahkamlanishi davlatimizning demokratik mohiyatidan kelib chiqadi.

Ma'lumki, har qanday adolatli, demokratik davlatda fuqarolarning erkin fikrlash huquqi kafolatlangan bo'ladi. Insonning erkin fikrlash, o'z aql-idroki, qobiliyati, olgan bilimlardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi davlatda shaxs haqiqiy erkinligining yorqin ifodasıdir. Albatta, erkin fikrlash bor joyda fikrlar xilma-xil bo'ladi va turli mafkuralar, siyosiy institutlar, harakatlar paydo bo'lishi mumkin.

Darvoqe, biz mafkura haqida so'z yuritar ekanmiz, uning mohiyati nima ekanligini ham qisqacha bilib olishimiz zarur. Mafkura – bu ma'lum tizimga solingan g'oyalar, qarashlar, fikrlar majmuidir. Har qanday mafkura muayyan ijtimoiy tabaqa, guruh, millatning o'tmishiga, bugungi kuniga va kelajagiga qaratilgan qarashlari yig'indisidan iborat. Rus tilida mafkurani ideologiya deyishadi. Bu grekcha “idea” va “logiya” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, aslida “g'oya” va “ta'llimot” degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z taraqqiyot va istiqlol yo'lini mustaqil va erkin belgilab oldi. Endilikda mustaqil davlatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy poydevorini yaratish asosiy vazifa bo'lib qolgan. Bunda bizga eski, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan kommunistik mafkura mutlaqo to'g'ri kelmay, millatimizni birlashtiradigan, jipslashtiradigan mafkuraga muhtojlik yaqqol sezilib qoldi. Bir so'z bilan aytganda, milliy mafkuramizni yaratish dolzarb masalaga aylandi.

Shu yo'lda qo'yilgan dadil qadam bu tariximizda birinchi marta Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilangan me'yor bo'ldi. Unda ilk bor O'zbekistonning ijtimoiy hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi belgilandi. Demak, bu bilan bitta mafkuraning, bitta dunyoqarashning yakkahokimligidan qat'iyan voz kechildi.

Konstitutsiyamizning aynan shu moddasi jamiyatimizda turli sinf, toifa, millat va elatlarning manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalar, uyushmalar va ularning mafkuralari bo'lishi mumkinligini qonuniy mustahkamlaydi.

Mamlakatda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida tan olinmaydi va hatto o'rnatalishi ham mumkin emas. Respublikamizda ijtimoiy hayotni rivojlantirishning muhim yo'li bu demokratiyaga asoslangan turli siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanar ekan turli mafkuralar va fikrlar davlat va jamiyat xavfsizligiga tajovuz etmasligi, o'z navbatida jamiyatni iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan rivojlantirishga hissa qo'shmag'i lozimdir. Har qanday jamiyatning ijtimoiy hayotini turli fikrlar, g'oyalar, siyosiy institutlar orqali rivojlantirish, shakllantirish mumkin ekan, respublikamizda ham o'z navbatida ijtimoiy hayot shu yo'sinda shakllanib boradi. Insonning erkin fikrash, o'z aql idroki, qobiliyati, olgan bilimlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi davlatda shaxs haqiqiy erkinligining yorqin ifodasıdir. Har qanday mafkura muayyan ijtimoiy tabaqa, guruh, millatning o'tmishiga, bugungi kuniga va kelajagiga qaratilgan qarashlari yig'indisidan iborat. Har qanday davlatning demokratik, huquqiyligi yoki zulmkor, zo'ravonligini baholashda ko'pincha unda shaxsiy daxlsizlik kafolatlanganligiga, mustaqil sud mavjudligiga, sud hokimiyatining mamlakatdagi o'rni va obro'siga e'tibor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 12-iyuldagagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvda quyidagi fikrlarga to'xtalib o'tgan edilar: "Bugun zamonning o'zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o'zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Endi "mudrab yotgan" siyosiy partiyalar uyg'onishi lozim. Ular balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq

amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonishi, ularning qalbidan joy olishi kerak”<sup>9</sup>.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgan to‘rtta siyosiy partiya mavjud. Bular: O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi hamda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyalaridir. Ushbu siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrdagi qonuni bilan belgilanadi<sup>1</sup>. Unga ko‘ra, siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir.

Qolaversa, 2018-yil 14-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan ekologik partiya tashkil etish yuzasidan mamlakat fuqarolaridan iborat tashabbuskorlar guruhi shakllantirildi.

2007-yil 11-aprelda qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi<sup>2</sup> Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi siyosiy partiya fraksiyalariga ijro hokimiyyati faoliyati ustidan parlament nazoratini o‘rnatishda muhim huquqiy asos bo‘ldi desak, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodni ko‘rib chiqishda, yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li va dasturiga yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalarini o‘zlarini muxolifat deb e‘lon qilishi, siyosiy partiyalar fraksiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish masalasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqishi uchun taqdim etishi kabi huquqlarini e‘tirof etib o‘tish lozim.

<sup>9</sup>Халқ сўзи. 2017 йил 13 июль

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги Конуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 2, 36-модда.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш, хамда мamlakatni modernizatsiya kiliishiда siёsий partiyalarning rolini kuchaytiriш tўғrisida”gi Конституциявий конуни// Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари тўплами, 2007.- №15.- 151-модда

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoraliq asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqilanganadi:

– konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;

– O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

– urushni, ijtimoiy, miliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;

– xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;

– milliy va diniy ruhdagi partiyalar.

Davlatimiz mavjud barcha siyosiy partiyalarning, jamoat birlashmalarining huquqiy manfaatlarini muhofaza qiladi, ularning ijtimoiy turmushda ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Lekin hech qaysi partiyaga alohida imtiyoz bermaydi. Siyosiy partiyalarning barcha sohada teng huquqliligi kafolatlanadi. Konstitutsianing 12-moddasida yana shu alohida qayd etilganki, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Binobarin, bu haqida yurtboshimiz bunday deb ta'kidlagan edi: "Ayni vaqtida yakka hokimlikka intilishlarga va bir mafkura imtiyozli bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Zero, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga va xavfsizligiga raxna soladigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, urush va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, Konstitutsiyaviy tuzumga, xalqning demokratik erkinliklariga va ma'naviyatiga tajovuz qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo'lishi lozim".

O'zbekiston Konstitutsiyasining 12-moddasida o'rnatilgan norma oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning qadimiy an'analariga, urf-odatlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-muhabbat, insof, sabr-toqat,adolat, muruvvat, ma'rifat tuyg'ularini targ'ib qilishi lozim. Unda jamiyatimizdagи barcha kuchlar, harakatlar, jamoat birlashmalar, aholi turli tabaqalarining o'y-fikrlari, orzu umidlari o'z ifodasini topmog'i lozim. Shu bilan birga, bu mafkura xalqimizda,

o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy etgan davlatlar orasida teng huquqli munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari uning ma'naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariaga mos kelmasa, bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy. Shuning uchun ham u jamiki insoniy fazilatlarni takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu bir tomondan mustaqillik sharoitida endigina shakllanayotgan davlat siyosatining nechog'lik insonparvarligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan davlat rahbarining siyosiy-madaniy salohiyatining nechog'lik yuksakligini, xalq ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini naqadar chuqr o'rganganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, esa, bu xalq va hokimiyat intilishlarining mushtarakligidan dalolat beradi.

#### **6-§. Xalq hokimiyatchiligi va umuminsoniy qadriyatlar**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, inson huquqlariga oid masalalarning xalqaro jihatlariga yangicha yondashuvga alohida e'tiborni qaratish bilan birga, bu borada sho'rolar tuzumi davrida saqlanib qolgan bir yoqlamalik g'oyalariga chek qo'yildi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Inson huquq va erkinliklari eng oliv darajada faqatgina Konstitutsiya bilangina qo'riqlanib, kafolatlanib qolmasdan, balki ular jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan xalqaro huquqning normalari va prinsiplari bilan ham qo'riqlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyası 1948-yil 10-dekabrda "barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida" Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qiladi. "Bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti hamisha ana shu deklaratsiyani nazarda tutib, ma'rifat va ilm yo'li bilan ushbu huquqlar va erkinliklarning hurmat qilinishiga yordam berishga intilishlari hamda milliy va xalqaro taraqqiy parvar tadbirlar yo'li bilan ham, ushbu huquqlar va erkinliklarning Tashkilotga a'zo bo'lgan

davlatlar xalqlari o'rtasida va mazkur davlatlarning yuridiktsiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari kerak”<sup>1</sup>.

Mazkur Deklaratsiya qabul qilinishini o'sha paytda dunyoning qirq sakkiz davlati qo'llab-quvvatladi, sakkizta davlat betaraf bo'lган bo'lsada, biron-bir davlat unga qarshi bo'lган emas.

Avvalo, shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqini tartibga soluvchi normalariga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy qoida va tamoyillari to'la singdirilgan. Ma'lumki, 2018-yilda ushbu Deklaratsiyaning 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-mayda e'lon qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida”<sup>1</sup> gi farmoni qabul qilinib, shu farmon asosida mamlakatimizda ushbu xalqaro hujjatning mazmun-mohiyatini keng targ'ib etish maqsadida maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi. Davlat dasturining ijrosini ta'sinlash maqsadida joriy yilning noyabr oyida Samarqandda Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi tashkil etildi.

Ushbu farmon va Davlat dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda inson huquqiga nisbatan yuksak e'tiborning yaqqol na'munasidir.

Umuminsoniy qadriyat deganda barcha millat va elatlarning moddiy va ma'naviy manfaatlariga xizmat qiladigan tushunchalarni anglaymiz. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan.

Konstitutsiyamiz O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda jami dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i “inson” ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan.

Konstitutsiyamiz Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro-huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki, uni yanada

---

<sup>1</sup>Инсон хукуклари. Ҳ.Б.Бобоев, А.Х.Саидов, Ш.Ш Шораҳметов ва бошқалар – Т: “Ўзбекистон” 1997 – Б 72.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 майдаги “Инсон хукуклари умумжахон декларацияси кабул қилинганинг 70 йиллигига бағишиланган тадбирлар дастури тўғрисида”ги фармони. //Халқ сўзи, 2018 йил 9 май.

to‘ldirgan. Masalan, Konstitutsiyaning 13-moddasi fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin. Ushbu moddada “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”da e‘lon qilingan umuminsoniy huquqlar oliv qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Ma‘lumki, “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi” insonlarning ajralmas va daxlsiz huquqlarini e‘lon qilib, quyidagilarni belgilaydi: “Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo‘lib tug‘ilganlar”(1-modda); “Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir”(3-modda); “Hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va qul savdosining barcha turlari ta‘qiqlanadi” (4-modda) va hokazo. Konstitutsiyamizning 13-moddasida esa inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi, degan norma mustahkamlangan. Bu O‘zbekistonning umumbashariy insonparvarlik qoidalariga asoslangan davlat ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda insonlarning millatiga, diniga, ijtimoiy ahvoliga, siyosiy va boshqa e‘tiqodiga qarab, cheklashlar yo‘q. Chunonchi, Konstitutsiyaning eng muhim qismlaridan bo‘lgan ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. Konstitutsiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqat fuqarolarni, ya‘ni davlatimizga mansub kishilarnigina emas, balki O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning muqaddas va daxlsiz huquqlarini mustahkamlaydi. Chunki bizda inson hamma narsadan muqaddas va daxlsizdir. Qonundan tashqari hech kim uni bu huquqdan mahrum etishi mumkin emas.

Insonning erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati – uning oliv qadriyat ekanligi O‘zbekiston Respublikasi va qonunlari bilan kafolatlanadi. Hech kim qullikka yoki asoratga solinishi, sudning hukmisiz yoki prokuror ruxsatisiz o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi mumkin emas. Har bir inson erkin bo‘lib tug‘iladi. Xohlagan joyida istiqomat qilish huquqiga ega. Lekin qayerda yashasa, o‘sha yerga mansub bo‘lgan davlatning qonunlariga itoat etishga majbur.

Insonning sha‘ni va or-nomusi ham daxlsiz hisoblanadi. Hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, oilaviy sir-asrorlarini oshkor qilishi, insonning uy-joy daxlsizligiga tajovuz qilishi mumkin emas. Insonni kamsitish, obro‘sizlantirish, haqorat qilish, tahqirlash qonunga xilof xatti-harakat hisoblanadi va bunday

harakatlar uchun qonun bo'yicha tegishli javobgarliklar mavjud. Inson hayotiga tajovuz qilish esa eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 13-moddasi alohida ravishda yana shuni e'tirof etadiki, O'zbekistonda barcha fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida "... davlat organlarining kundalik faoliyatida inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy tamoyil so'zsiz ta'minlanishi shart" ligiga alohida to'xtalib o'tdilar<sup>1</sup>.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida har qanday davlat organining faoliyati inson va jamiyat farovonligiga xizmat qilishga, uni yuksaltirishga qaratilgan. Davlat o'z vazifasini tegishli organlari orqali amalga oshirar ekan, ijtimoiyadolat va qonuniylikka amal qilishi lozim bo'ladi. Demokratik huquqiy davlatning eng muhim shartlaridan biri inson va shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunlidir. Qonuniylik prinsipi deganda, avvalo, qonunlarni va uning asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarni davlat organlari mansabdor shaxslar, fuqarolar tomonidan aniq va og'ishmay bajarilishi lozimligi tushuniladi. Qonuniylik prinsipi qonunlarni yuridik hujjatlar tizimida oliv kuchga ega ekanligini, barcha uchun barobarligini, jamiyat a'zolarining barchasi uchun majburiyligini anglatadi.

Inson huquqlarining himoyasi doimo muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun ham istiqlolga erishgan O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining ilk qadamlarida qabul qilingan qonun va huquqiy normalarini, asosan, inson huquqlarini himoya qilishga, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama muhofaza qilishga qaratib keldi va bu yo'lida ish olib bormoqda.

Inson huquqlariga doir davlat siyosatida insonning huquq va erkinliklari jamiyatda qonunchilik asosida mustahkamlanib, iqtisodiy,

---

<sup>1</sup> Конституция – эркин ва фаровон хаётимиз, мамлакатимизни янада тараккӣ эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. //Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килинганинг 25 йиллигига багишиланган тантанали маросимдаги маъруzasи Халқ сўзи, 2017 йил 9 декабрь.

siyosiy, yuridik, tashkiliy kafolatlar tizimi bilan ta'minlangandan keyingina amalga oshishi mumkinligi masalasi muhim o'rinn egallaydi.

O'zbekistonda inson huquqlari va ularni amalda qo'llash-jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi, xalq hokimiyatchiligi, madaniy qadriyatlar, davlatning jamoat tashkilotlari va partiyalarining butun tashkiliy faoliyati bilan, shuningdek, turli xil yuridik qoida va me'yorlar tizimi bilan ta'minlangan.

Davlatning demokratik, huquqiyligi yoki zulmkor, zo'ravonligini baholashda ko'pincha unda shaxsiy daxlsizlik kafolatlanganligiga, mustaqil sud mavjudligiga, sud hokimiyatining mamlakatdagi o'rni va obro'siga e'tibor qilinadi.

Insonning ozodligi va shaxsiy daxlsizligi, shuningdek, o'zboshimchilik bilan hibsga olinishi yoxud qamoqda saqlanishi, bu biron-bir shaxsning qonunga asoslanmagan holda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emasligini anglatadi. Shu ma'noda aybsizlik prezumptsiyasi shaxsning sud muhokamasida adolatli himoya huquqi bilan ta'minlanishi mazkur qoidaga amal qilinishining muhim kafolati hisoblanadi. Shuningdek, basharti shaxs noqonuniy, asossiz hibsga olinsa, qamoqda saqlansa, davlat uni tegishli tovon bilan ta'minlashga majbur.

Shaxsning sha'ni va qadr-qimmati uning hayoti va sog'lig'i yoki shaxsiy erkinligi singari takrorlanmaydigan boylikdir. Inson huquqlari va erkinligining kim tomonidan bo'lsa-da, buzilishidan himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kafolat ramzi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson sha'ni va qadr-qimmatini qo'riqlar ekan, ularni, birinchi navbatda, fuqaroyiv, ma'muriy, jinoiy-huquqiy vositalar bilan qo'riqlashga kafolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi I-bo'limida "Shaxsga qarshi jinoyatlar" uchun javobgarlik belgilanadi. Bunda shaxsning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiyligiga, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun nisbatan qattiq jazo choralarini nazarda tutilgan.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekistonning mustaqil siyosati dunyo yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari tomonidan e'tirof etilayotganligi, dunyodagi boshqa davlatlar ayrim tashkilotlarining

O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini orttirmoqda. Ular ham O'zbekiston bilan o'zaro hamkorlik va sherikchilik munosabatlarini, manfaatlarini ko'rishmoqda. Ayni paytda dunyo hamjamiyati va xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekistoning obro'si, nufuzi yanada salmoqli bo'lib borayotganligi, har bir kishida g'urur tuyg'usini uyg'otmasdan qo'ymaydi. O'tgan yillar xalqaro hayotda davlatlar rahbarlari, mamlakatlarning, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning, insoniyatni tashvishga solib kelayotgan xavf-xatarlardan xalos qilish, tinch, osoyishta hayotni ta'minlash borasida muhim qadamlar qo'yilgan davr bo'lib qoldi. Bunda O'zbekistonning ham o'z o'rni va hissasi borligi, nufuzining esa oshib borayotganligi e'tiborlidir.

### **7-§. Ijtimoiyadolat va qonuniylik – demokratiyaning muhim sharti**

O'zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi yana bir qoida Konstitutsianing 14-moddasida belgilangan. Unga muvofiq, "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi".

O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan mazkur qoida davlatimiz faoliyatining eng asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Bu juda muhimdir. Chunki davlat o'z faoliyati bilan inson va jamiyat taqdirini belgilishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtida jamiyat davlatsiz yashay olmasligi hammaga ayon bo'lib qoldi.

Davlatimizning jamiyat hayotida tutgan o'rnini belgilashda uning vazifalariga, funksiyalariga alohida e'tibor berish kerak. Davlatning qanday vazifalarni, funksiyalarni amalga oshirishiga, boshqacha qilib aytganda, davlat faoliyatiga qarab uning mohiyatiga baho beriladi. Agar davlat o'z faoliyatini, avvalo, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qaratgan bo'lsa, uni ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirib borsa, unday davlatni adolatli, demokratik deyish mumkin. Shu bois Konstitutsianing 14-moddasida o'rnatilgan me'yor O'zbekiston Respublikasi ijtimoiyadolat tantana qilgan jamiyat, xalq hokimiyatchiligi qaror topgan davlat ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi desak, aslo yanglishmaymiz. Chunki mazkur modda alohida ravishda inson va jamiyat farovonligini, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplarini davlat faoliyatining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi.

Zero, demokratik huquqiy davlatning eng muhim shartlaridan biri inson va shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligidir. Inson va jamiyat farovonligi esa aynan shaxs manfaatlariiga mos tushadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miriziyyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma‘ruzasida, “davlat organlarining kundalik faoliyatida inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy tamoyil so‘zsiz ta‘minlanishi shart. “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”,<sup>1</sup> degan masalaga alohida to‘xtalib o‘tdilar. Konstitutsiyadagi ushbu moddaning kafolatlari O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtarda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar, islohotlar bilan belgilanadi. Bunday islohotlardan ko‘zda tutilgan eng asosiy maqsad inson va jamiyat farovonligi ekanligi hech kimga sir emas, albatta.

Umuman, O‘zbekistondagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi o‘zgarishlar, islohotlar faqat inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab amalga oshirilmoqda. Bunda davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqmoqda. Davlatimiz rahbarining asarlarida ham inson uchun munosib tur mush va ish sharoitlarini yaratish barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadi ekanligi alohida uqtiriladi. Shu sababli O‘zbekiston davlati ishga layoqatsiz kishilarni, nogironlarni, ko‘p bolali oilalarni, qarovsiz qolgan go‘daklarni moddiy va ijtimoiy jihatdan har taraflama qo‘llab-quvvatlamoqda. Davlatimizning ijtimoiy adolat prinsipi asosida faoliyat yuritishi xuddi shunda yorqin ko‘rinadi.

Konstitutsiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan me‘yorning yana bir muhim tomoni shundaki, unga ko‘ra, davlat o‘z faoliyatini qonuniylik prinsipi asosida amalga oshiradi. Bu huquqiy demokratik davlatning eng asosiy belgilaridan biridir.

Qonuniylik prinsipi deganda, avvalo, qonunlarni va uning asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarni davlat organlari mansabdon

---

<sup>1</sup>Ш.М.Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон хаётимиз, мамлакатимизни янада тараккий эттиришининг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул килинганинг 25 йиллигига бағишиланган танганали маросимдаги маърузаси. //Халқ сузи, 2017 йил 9 декабрь

shaxslar, fuqarolar tomonidan aniq va og'ishmay bajarilishi lozimligi tushuniladi. Bu davlat tuzumidagi demokratizmning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hammaning qonun oldida tengligini o'rnatadi. Qonuniylik prinsipi qonunlarni yuridik hujjatlar tizimida oliv kuchga egaligini, barcha uchun barobarligini, jamiyat a'zolarining barchasi uchun majburiyligini anglatadi. Shu bilan birga, bu prinsip fuqarolarning huquq va erkinliklari og'ishmay ta'minlanishi, fuqarolarga nisbatan davlat organlari va mansabdar shaxslarning qandaydir o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymasligi, fuqarolarning jamiyat, davlat oldidagi majburiyatları qat'iy bajarilishi lozimligini ham nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, qonuniylik prinsipi o'z maqsad va mohiyati bilan xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

Qonuniylikning asosiy vazifasi – mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquq, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir.

Jamiyatda qonuniylik ikki xil ma'noda keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda bajarilishi talab qilinadigan barcha qonun-qoidalar tushuniladi. Bularga davlat tomonidan chiqarilgan konstitutsiyaviy va boshqa amaldagi qonunlar, barcha normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Tor ma'noda olganda qonuniylik davlat organlarining faoliyatida qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilishini ko'zda tutadi. Chunki, O'zbekistonda barcha davlat organlari, mansabdar hamda yuridik shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga asosan ish ko'rishi lozimligi Asosiy qonunimizda belgilangan.

Qonuniylik huquqiy tartibot bilan uzviy bog'liq bo'lib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'lib, insonlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibot orqali paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlardan kengroq bo'lib, ularga axloq, urf-odatlar va boshqa turmush qoidalarining amalga oshirilishi natijasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar kiradi. Kishilar o'rtasidagi yoki fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar huquqiy tartibot, ya'ni huquqiy normalar orqali amalga oshirilib,

qonuniylik mustahkamlanadi. Qonuniylikning o‘ziga xos xususiyatlari uning quyidagi tamoyillarida ifodalanadi:

**1. Qonunlar ustunligi va uning barcha uchun majburiyligi.** Bu tamoyilga asosan O‘zbekistonning barcha qonunlari va boshqa huquqiy normalari muqaddas bo‘lib, ularga huquq subyektlari amal qilishi.

**2. Qonuniylikning yagonaligi tamoyili.** Bu esa O‘zbekiston hududida qonunlar bir xilda qo‘llanishini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini.

**3. Qonuniylikni maqsadga muvofiqlik asosida buzilmasligi tamoyili.** Respublikamiz hududida amaldagi qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni aniq bajarish har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxs va fuqarolar uchun shartdir. Ammo hayotda shunday kishilar va rahbarlar borki, ular o‘zlarining qonunga xilof xatti-harakatlarini, go‘yo qonunning eskirib qolganligi bilan va bugungi kun talablariga javob bera olmasligi bilan yoxud qonunda mahalliy sharoit hisobga olinmagan, degan bahonalar bilan oqlaydilar.

Basharti, amaldagi qonunlar eskirib qolgan bo‘lsa, u belgilangan tartibda davlat hokimiyatining oliy vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan o‘zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Mamlakatimizda qonunlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi xalqning teng ishtirokida demokratik asosida o‘tadi. Qonun loyihasi ustida olib boriladigan ishlarda shu qonun loyihasiga bevosita taalluqli bo‘lgan shaxslar, davlat organlari va jamoat birlashmalari ishtirok etadilar.

**4. Qonuniylikning aholi madaniy darajasi bilan bog‘liqligi.** Qonuniylik aholining madaniy darajasi bilan, davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Kishilarning huquqiy ongi qancha yuqori bo‘lsa qonunni buzish hollari shunchalik kam bo‘ladi.

**5. Qonuniylikni ta‘minlashda xalqning ishtiroki.** O‘zbekistonda fuqarolar qonuniylikni ta‘minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda faol ishtirok etadi.

**6. Qonuniylikning demokratiya bilan uzviy bog‘liqligi.** Qonuniylik demokratiya bilan uzviy bog‘liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o‘zi ishonch bildirib, saylagan deputatlari, Prezident, hokimiyat va boshqaruva organlari orqali boshqaradi. Qonuniylik demokratik tartiblarga bo‘ysunishni talab

qiladi, demokratik tartiblar, o‘z navbatida, qonuniylikni mustahkamlash va rivojlantirishda asosiy shartdir.

Jamiyatda qonunlar bilan kishilar o‘rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinar ekan, ularni hayotda to‘g‘ri qo‘llash davlat tomonidan belgilangan bo‘lib, u qonuniylikning kafolati, deb ataladi.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot fuqarolarning qonuniy xatti-harakatlari bilan, barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining qonunlarga rioya qilishlari, ulardan to‘g‘ri foydalanishlari bilan o‘rnataladi. Huquqiy tartibot qonunlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun huquqiy tartibot jamiyat normal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyaga muvofiq davlat o‘z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida yuritadi. Bu esa uning demokratik mohiyatini namoyon qiladi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. “Demokratiya” so‘zi qayerdan kelib chiqqan va u nimani anglatadi?
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya‘ni hevosita demokratiya tushunchasini bilasizmi?
3. Vakillik demokratiyasi nima?
4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va vakillik demokratiyasi shakllari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida o‘z aksini topgan?
5. “Referendum” so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?
6. O‘zbekiston Respublikasida qaysi yillardareferendum o‘tkazilgan?
7. O‘zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi belgilarini aniqlang.
8. “Hokimiyatning bo‘linish” nazariyasi nechanchi asrdan boshlab mustaqil siyosiy-huquqiy ta‘limotga aylangan?
9. Jahon tajribasida “Demokratiya va inson huquqlari” qanday asoslarda himoya qilinadi?
10. O‘zbekistonda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik qanday rivoj topmoqda?
11. Ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida o‘z aksini topgan?

## **VI BOB.KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI**

1-§. O‘zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishi zarurligi.

2-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash mexanizmi.

3-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash borasida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tajribasi.

### **1-§. O‘zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishi zarurligi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O‘zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi bo‘lib, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hisoblanadi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalar 2017-yil 7-fevraldagи O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham alohida yo‘nalish sifatida o‘z ifodasini topdi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash – amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta‘minlashning asosiy kafolatidir<sup>1</sup>.

Bu sohada mavjud asoslarni tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi «Konstitutsiya va qonunning ustunligi», deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo‘limida joylashgan. Nazariyadan ma‘lumki, prinsip deganda, rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo‘limlari o‘rtasida qandaydir tushunmovchilik, ziddiyat kelib chiqadigan bo‘lsa, masala nazariyaga ko‘ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma’noda Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipining Asosiy prinsiplar bo‘limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga ulkan ahamiyat berilayotganidan dalolatdir.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев ПМ. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017 – Б.48

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarni tahlil qilish quyidagi fikrlarni chiqarishga olib keladi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi.

Ikkinchidan, davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qon unlarga muvofiq ish ko'rishlari.

Uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariiga zid kelishi mumkin emasligi.

To'rtinchidan, qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ularning qo'llanilishida majburiy shart bo'lib hisoblanishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi III bobidagi qoidalarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizda har qanday qonunosti hujjati, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) Konstitutsiya va qon unlarga muvofiq bo'lishi zarur. Bu fikr Asosiy qonunimizning 7,8,9,10,11,32,76,77-moddalari bilan ham uzviy bog'liqidir. Ya'ni xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir. Xalqni esa millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari esa jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtiroy etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtiroy etishning yo'llaridan biri esa, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi hamda uning quyi palatasi xalq tomonidan bevosita, yuqori palatasi esa bilvosita shakllantiriladi.

Qonunlarni qabul qiladigan Oliy Majlis esa ana shunday xalq irodasini ifoda etadigan, O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga vakolatli bo'lган organlardan biri hisoblanadi. Ya'ni Konstitutsiyamizning 11-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiiga asoslansa, Oliy Majlis boshqa ijro etuvchi, sud organlaridan farqli o'laroq, barcha uchun umummajburiy hujjatlarni – qonunlarni qabul qiladigan hokimiyat tarmog'i hisoblanadi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipidan ko'zlangan asosiy maqsad – inson huquq va erkinliklarini samarali ta'minlash hisoblanadi, shuning

uchun ham umummajburiy hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish g'oyasi xalqdan (yoki uni saylab qo'ygan vakillaridan) chiqishi yoki xalq (yoki uni saylab qo'ygan vakillari) ishtirokida muhokama qilinishi, xalq tomonidan (bevosita, bilvosita) va uning manfaatlarida amalga oshirilishi lozim.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalariga oid qonunlar esa bevosita xalq irodasi bo'lgan referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi. Qissadan hissa shuki, qonun qabul qilinishida har qanday holda ham xalq bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi lozim.

BMT Bosh kotibining ta'rifiga ko'ra, qonun ustuvorligi barcha shaxslar, muassasalar va davlat hamda xususiy tuzilmalar, shu jumladan, davlatning o'zi, ommaviy ravishda qabul qilingan va barcha tomonidan teng ravishda ijro qilinadigan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar va standartlarga muvofiq bo'lgan qonunlar asosida faoliyat ko'rsatib, qonun normalari sud organlari tomonidan mustaqil tatbiq etiladigan boshqaruv printsipidir.

Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasiga ko'ra, qonun ustuvorligi deganda, har bir fuqaroning qonunga muvofiq hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan har qanday shaxs tomonidan o'ziga nisbatan munosib, teng va oqilona munosabatda bo'linishga, shuningdek, ularning qarorlarini mustaqil va xolis sudlarda, odil sud muhokamasida e'tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini nazarda tutadigan aniq va barqaror huquqiy tizim tushuniladi.

Qonun ustuvorligi prinsipiiga formal va mazmuniy yondoshuvlar mayjud bo'lib, formal yondoshuvchilar faqatgina masalalarni qonun asosida hal qilish, qonun asosida boshqarish, qonun bo'yicha odil sudlov – deb tor ta'rif beradilar, mazmuniy yondoshuv tarafdarlari esa har qanday qonun emas, balki huquqning mohiyatini tashkil qiluvchiadolat, tenglik, erkinlik prinsiplariga mos keluvchi qonungina ustuvor bo'lishi lozim, deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham Yevropa Kengashi Parliament Assambleyası qonun ustuvorligining mazmuniy yondoshuviga nisbatan "huquq ustuvorligi" tushunchasini qo'llashni tavsiya qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligini asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqliq; o'zboshimchalikni taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudloving ochiqligi; shuningdek, ma'muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o'rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

World Justice Project loyihasi qonun ustuvorligining har yilgi dunyo bo'yicha indeksini davlat hokimiyati vakolatlarining chegaralanganligi, korrupsiyaning mayjud emasligi, huquq-tartibot va xavfsizlik holati, fundamental huquqlarga rioya qilinishi, hukumatning ochiqligi, huquqni qo'llash, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov ko'rsatkichlaridan kelib chiqib belgilaydi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlovchi huquqiy vositalar sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliv yuridik kuchga egaligi, qonunosti hujjatlar qonun asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinishi, normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shartligi, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llanilishi kabilar belgilab qo'yilgan.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solidi, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ayrim munosabatlar aniq qonun shaklida qabul qilinishi belgilangan bo'lsa, ayrimlari esa agar u yoki bu jihatni o'z ichida qamrab oladigan bo'lsa, qonun bilan tartibga solinishiga nisbatan bilvosita talablar mavjud. Masalan, Konstitutsiyaning 29 ta moddasida qonun bilan tartibga solinadigan (tasdiqlanadigan, kafolatlanadigan, himoya qilinadigan, muhofaza etiladigan, belgilanadigan, ko'rsatiladigan, nazarda tutiladigan, qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladigan) masalalar aniq belgilab qo'yilgan. Ularga 5, 18, 21, 25, 32, 35, 36, 37, 38, 39, 51, 52, 53, 56, 77, 78 (7, 9, 10, 12, 20-bandlar), 90, 91, 93 (19-band), 103, 105, 107, 109, 112, 116, 117, 120, 125-moddalari mansubdir.

Bularga davlat ramzları, referendum o'tkazish tartibi, imtiyozlar belgilash, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi, arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqishning tartibi va muddatlari, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi, ishsizlikdan himoyalanish huquqi, majburiy mehnat asoslari, ish vaqtisi

va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati, ijtimoiy ta'minot olish asoslari, soliqlar va mahalliy yig'imlar, harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash tartibi, mulkdan mahrum etilishning asoslari va tartibi, jamoat

birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, davlat hokimiyati organlari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga saylov o‘tkazish tartibi, ovoz berish huquqi, o‘z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi, deputatlilikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, Prezidentning shaxsi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining tizimi hamda vakolatlari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi, sudlarni, Konstitutsiyaviy sudni, Sudyalar oliv kengashini tashkil etish va ularning faoliyat tartibi, sudyalarning daxlsizligi, advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi, prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlar, boj, valyuta va kredit ishlarini tartibga solish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini belgilash, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish, Davlat byudjetini qabul qilish, davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish, favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi kiradi. Konstitutsiyada qonun bilan tasdiqlanishi, kafolatlanishi, himoya qilinishi, muhofaza etilishi, belgilanishi, ko‘rsatilishi nazarda tutilgan masalalarni qonun osti hujjat bilan hal qilish mumkin emas.

Qonun ustuvorligi shaxsga, jamiyatga, davlatga nima beradi? Nega butun dunyoda mazkur prinsipga juda katta e‘tibor beriladi?

Qonun ustuvorligi shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini mone‘liksiz amalga oshirish, o‘z hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari qonunan kafolatlanganligi tufayli tinch, osoyishta, xotir-jam, hech qanday tashqi ta‘sirlardan, zo‘ravonlik va o‘zboshimchalikdan qo‘rqmay yashash imkoniyatini beradi.

Qonun ustuvorligi, shuningdek, shaxsga uning uchun majburiy bo‘lgan mazkur hujjatlarni qabul qilish jarayonida uning o‘zi yoki saylab qo‘ygan vakillari orqali ishtirok etish, davlat boshqaruviga ta‘sir o‘tkazish, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta‘minlaydi.

Agar jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanmasa, odamlarda nafaqat bugungi, balki ertangi kuniga ham ishonch yo'qoladi,adolat, tenglik, erkinlikka rioya qilinmaydi, kim zo'r bo'lsa, shuning gapi majburiy bo'lib, inson huquq va erkinliklari buziladi, bunday jamiyatni har qanday ongli odam tark etish choralarini qidiradi, bunday makonda qabohat va zalolat hukm suradi. Qonun ustuvorligi ta'minlanmagan jamiyatda iqtisod ham rivojlanmaydi, iqtisodiy islohotlar ham samara bermaydi. Chunki hech kim qonun ishlamagan joyga o'z mulkini, samoyasini kiritishni xohlamaydi.

Qonun ustuvor bo'lган davlatda erkinlik, adolat, tenglik kafolatlanadi, hokimiyatning shaxsga ta'siri chegaralanadi, inson huquqlari himoyalanadi, mulk huquqiga rioya qilinadi, odil sudlov mustaqil bo'lib, samarali amalga oshiriladi.

Mamlakat iqtisodi barqaror o'sishi uchun tadbirkorlarda, chet ellik investorlarda mulk huquqi qonun bilan kafolatlangan bo'lishi lozim. Nobel mukofoti sohibi Amartiya Sen insonning asosiy huquqlari kafolatlanganligi insonlarni haqiqatdan ozod qiladi, ularning imkoniyatlarini kengaytiradi va bu mamlakat farovonligining oshishiga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Shuning uchun ham turli xalqaro tashkilotlar, tadqiqot markazlari tomonidan tuziladigan reytinglarda qonun ustuvorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, The World Justice Project xalqaro nohukumat tashkiloti dunyo bo'yicha har yili maxsus "Qonun ustuvorligi indeksi yuritadi. "Transformatsiya indeksi", "Bertelsman xalqaro fondi", Jahon banki tomonidan yuritiladigan "Davlat boshqaruvi sifati indekslarida qonun ustuvorligi farovonlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda qonun ustuvorligi ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ham shunga mutanosib ravishda yuqori bo'lmoqda. Qonun ustuvorligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga samarali ta'sir o'tkazmoqda.

Ayni vaqtda qayd etish joizki qonun qachon ustuvor bo'ladi, qachonki odamlarda va davlat xizmatchilarida shunday ong shakllansaki, u yoki bu holatga duch kelsalar, bu masalada qonunda nima belgilangan – degan qarash, agar qonun bo'lmasa, uni yaratish va tashabbus qilish choralarini ko'rilsa, qonun ustuvorligi bo'ladi. Agar fuqarolar ham davlat xizmatchilarini ham faoliyatlarida qonunga ehtiyoj sezmasalar, qonunning ijrosini ta'minlashning soatdek mexanizmi, tizimi shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini tasavvur qilish qiyin.

Qonun ustuvor bo‘lishi uchun qonun normalarini nafaqat davlat xizmatchilari, balki fuqarolar ham yaxshi bilishlari lozim bo‘ladi. Qonunga tayanishni o‘ziga maqsad qilib olgan fuqarolar soni qancha oshsa, qonun ustuvorligini ta‘minlash darajasi shuncha oshadi. Fuqarolar nafaqat o‘zlar, balki boshqalarni ham qonunga rioya etishlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirsalar, bu yo‘nalishda ixtisoslashgan fuqarolik jamiyatni institutlari ko‘paysa, qonun ustuvorligi muhiti shakllanadi. Xalqimizda mavjud “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, degan maqol aynan qonun ustuvorligi uchun ham mos keladi. Buning uchun huquqiy tarbiya, huquqiy ta‘lim to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lishi lozim.

Qonun ustuvorligini ta‘minlashda tashkil etilgan ma‘muriy sudlar, qabul qilingan “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya va qonun ustunligi jamiyatda erkinlik, adolat, tenglik kafolatlanishini, inson huquqlari himoyalanishini, mamlakat iqtisodi barqaror o‘sishi uchun tadbirkorlarda, chet ellik investorlarda mustahkam ishonchni shakllanishining mustahkam garovidir.

## **2-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash mexanizmi**

Mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan.

Avvalambor bu O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o‘rnatilganligi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘rishi, sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta‘minlashga qaratilganligi, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokurorlik nazorati mustahkamlanganligi, tashkilotlarda yuridik xizmatlar faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi kabilarda bevosita namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlash mexanizmida Konstitutsiyaviy sud alohida o‘rin egallaydi. Konstitutsiyaviy sud insoniyat tarixida insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro

tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda uni maxsus muhofaza qilish maqsadida yaratilgan.

Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi sifatida Konstitutsiyaviy sud o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligini, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga doir konstitutsiyaviy prinsipning va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga da'vat etilganligi qonunan belgilab qo'yilgan.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra, Asosiy qomusimizning 109-moddasiga Konstitutsiyaviy sudning Prezident qarorlari va farmoyishlarini (avval faqat farmon nazarda tutilgan edi) Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash, konstitutsiyaviy qonunlarni, xalqaro shartnomalarни ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlarning imzolanganiga qadar Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash, Oliy sudning muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatlarini ko'rib chiqish, shuningdek, har yili Oliy Majlis palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylilikning holati to'g'risida axborot taqdim etish kabi yangi vakolatlari kiritildi.

Qaror va farmoyishlarning konstitutsiyaviy nazorat obyektiga kirishiga 2012-yil yangi tahrirda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda farmonlar qatorida qaror va farmoyishlar ham normativ-huquqiy hujjat hisoblanishi belgilanganligi sabab bo'ldi.

Jahon konstitutsiyaviy sndlari o'z amaliyotlarida "ex-ante", ya'ni hujjat imzolanmasidan avvalgi dastlabki va "ex-post", ya'ni hujjat kuchga kirganidan keyingi nazoratni amalga oshiradilar. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud "ex-post", ya'ni hujjat kuchga kirganidan keyingi nazoratni amalga oshirib kelayotgan edi.

Shu ma'noda Qonun bilan kirgan juda katta qo'shimcha bu - mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudi endilikda konstitutsiyaviy qonunlarning, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlarning imzolanmasidan avval dastlabki nazorat o'rnatish vakolatiga ega bo'lgani hisoblanadi. Bu jahondagi juda ko'plab konstitutsiyaviy sndlар tajribasida (Fransiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Xorvatiya, Belarus) hali imzolanmagan, kuchga kirmagan hujjatlar ustidan

qo'llaniladigan "ex-ante", ya'ni dastlabki nazoratni mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudi amaliyotiga tatbiq etilganligidan dalolatdir. Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi davlatlarga bunday amaliyotni tavsiya qilib, u Konstitutsiyaga nomuvofiqlikning oldini olish imkonini berishini qayd etadi.

Konstitutsiyaviy sud 108-moddaga asosan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi. Ayrim davlatlarda (Rossiya, Belarus) Konstitutsiyaviy sud tomonidan har yili "mamlakatdag'i konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida" axborot tayyorlash va uni parlament va Prezidentga taqdim etish qonunan belgilab qo'yilgan. Bunday axborotlarda mamlakatdag'i konstitutsiyavilylikning holati, muammolar hamda sud ularning yechimini topish uchun taklif qilgan yo'llar o'z ilofasini topib, xorijiy mamlakatlarda bunday axborot parlament va davlat boshlig'i tomonidan tegishli qarorlarni qabul qilishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda Konstitutsiyaviy sudga har yili Oliy Majlis palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdag'i konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etish vakolatining kiritilishi har tomonlama to'g'ri bo'ldi.

Mazkur axborot Oliy Majlisga qonunlarni sifatini oshirishda hamda ularning bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda, davlat boshlig'iga esa kafillik funksiyasini bajarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qonunchiligimizda huquqiy ekspertiza, qonun hujjatlarining ta'sirini baholash tizimi, monitoring, idoraviy hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish kabi huquqiy vositalar ham belgilangan bo'lib, bular ham Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashning muhim elementlarini tashkil etadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasiga ko'ra vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etishi belgilab qo'yilgan.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi Nizom 7-bandiga ko'ra, idoraviy hujjatda mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qaysi qarorini, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining qaysi farmonini, qarorini yoki farmoyishini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarorini (ularning moddalari yoki bandlarini) bajarish yuzasidan yoki ular asosida chiqarilayotganligi majburiy tartibda ko'rsatilishi lozim. Mazkur qoida ham Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur Nizom 13-15-bandlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi taqdim etilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatni olingen kundan boshlab 30 kun ichida huquqiy ekspertizadan o'tkazadi. Agar taqdim etilgan me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lgan va ko'rsatilgan talablarga javob bergen taqdirda, Adliya vazirligi uni davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Agar me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lsa, belgilangan talablarga javob bermasa, me'yoriy hujjatni ro'yxatdan o'tkazish rad etilishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas va huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mansabdar shaxslari davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlarni amalga kiritganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 198<sup>3</sup>-moddasida javobgarlik belgilangan.

Ko'plab qonun hujjatlarida qonun ustuvorligi, qonuniylikni ta'minlash bir qator davlat organlarining faoliyatning asosiy prinsiplari, vazifalari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Masalan, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun 2-moddasida ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash keltirilgan. Mazkur Qonunning 6-moddasida ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariiga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shart. Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra, yuz berganidan qat'iy nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarish chog'idagi o'zining qonunga xilof xatti-harakatlarini (harakatsizligini) oqlash uchun xizmat manfaatlarini, iqtisodiy jihatdan

maqsadga muvofiqlikni, yuqori turuvchi mansabdar shaxslarning qonunga xiлоf talablari, buyruqlari va farmoyishlarini yoki qonunga muvofiq bo‘lмаган boshqa biror-bir holatni ro‘kach qilishi mumkin emas. Ichki ishlar organlarining xodimlariga kimnidir g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga bevosita yoki bilvosita qiziqтирish, ko‘ndirish, undash taqilanganadi, deb belgilangan.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash belgilab o‘tilgan. Mazkur qonunning 5-moddasida qonunlarni aniq bajarish va ularga rioxha etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko‘ra qilinishidan qat‘iy nazar, qonuniylikni buzish, deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi, deb qayd etilgan.

Prokuratura organlarining mamlakatda qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta‘minlash bo‘yicha ishining samaradorligini oshirish maqsadida Oliy Majlis palatalari tomonidan Senatning prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonun 19-moddasida mustahkamlangan.

Mazkur qonunning 14-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida muntazam ravishda axborot taqdim etishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarini ijro etish maqsadida o‘tkazilgan tekshiruvlar davomida davlat boshqaruvi organlari va hokimlarning qonun hujjatlari normalariga nomuvofiq bo‘lgan hujjatlari aniqlangan taqdirda, Bosh prokuror bu hujjatlarni to‘xtatib turish yoki bekor qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi.

Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomning 10-bandida normativ-huquqiy hujjatlar loyiҳalarining qonunchilikka muvofiqligini aniqlashi nuqtayi nazaridan huquqiy ekspertizadan o‘tkazish vazirlikning funksiyalaridan biri sifatida belgilab berilgan.

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorining 1-bandida davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib davlat organlari va tashkilotlarining

huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarorida davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlariga har yili ko'rsatib o'tilgan organlar va tashkilotlar faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash bo'yicha ishlar to'g'risida yuridik xizmatning hisobotini eshitish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklangan.

### **3-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash borasida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tajribasi**

Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash borasida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tajribasini o'rghanish quyidagilarni ko'rsatmoqda:

bir qator davlatlar konstitutsiyaviy qonunchilikida ommaviy hokimiyyat organlari qonunlar asosida va chegarasida harakat qilishlari mumkinligi (Polsha);

qonun faqat jamiyat uchun zararli harakatlarnigina taqiqlashi mumkinligi, nimaiki qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa, u ruxsat etilgan, deb hisoblanishi hamda hech kim qonunda yozilmagan harakatni qilishga majbur qilinishi mumkin emasligi (Fransiya);

agar Konstitutsiyada boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, uning qoidalari to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi (Polsha);

hech kimni qonun bilan unga buyurilmagan ishni qilishga majbur qilib bo'lmasligi (Polsha);

konstitutsiyaviy erkinliklar va huquqlardan foydalanish faqat qonun bilangina chegaralanishi mumkinligi (Polsha);

qonun hech kimga o'zining buzilgan erkinliklari va huquqlarini sud tartibida himoyalash yo'llini taqiqlashi mumkin emasligi (Polsha);

qonunosti hujjati bo'lgan farmoyishlarni faqat Konstitutsiyada ko'rsatib o'tilgan organlar qonunda alohida vakolat berilgani asosida va mazkur qonunning ijrosini ta'minlash maqsadidagina chiqarishlari mumkinligi, qonunda vakolat berilganda albatta qonunosti hujjatini chiqarish uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ va u tomonidan tartibga solinishi mumkin bo'lgan masalalar doirasi hamda ushbu qonunosti

hujjati mazmuniga qo'yilgan talablar, maqsadi, taqdim etilayotgan vakolatlar ko'lami belgilanishi zarurligi (Germaniya, Polsha);

qonunosti hujjatida uning huquqiy asoslari ko'rsatilishi zarurligi (Germaniya);

qonunosti hujjatlar yuqori palata tomonidan ma'qullanish uchun taqdim etilishi (Germaniya);

Vazirlar Kengashining qarorlari, shuningdek, uni raisining, vazirlarning buyruqlari normativ ahamiyat kasb etmay, faqat uni chiqargan idoraga bo'ysunuvchi tashkiliy birliklarga qaror hisoblanishi, buyruqlar faqat qonunga asosan chiqarilib, fuqaroga, yuridik shaxslarga, shuningdek, boshqa subyektlarga nisbatan qaror chiqarish uchun asos bo'lmasligi, qarorlar va buyruqlar umummajburiy huquqqa muvofiqligi nuqtayi nazaridan nazorat qilishini (Polsha);

agar o'z mohiyatiga ko'ra, ularga ham tatbiq etilishi mumkin bo'lsa, asosiy huquqlarga Germaniya hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar ham ega bo'lishlari (Germaniya);

qonun chiqaruvchi hokimiyat konstitutsiyaviy tuzum bilan, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari esa qonun va huquq bilan bog'liqligi (Germaniya);

davlat Konstitutsiyada belgilangan huquqlarni bekor qiluvchi yoki chegaralovchi qonunlarni qabul qilmasligi, har qanday qonun mazkur qoidani buzib qabul qilingan bo'lsa, haqiqiy emas, deb topilishi (Hindiston);

parlament qonun qabul qilganidan so'ng 10 kun muddat ichida ijro hokimiysi qonunosti hujjatlarini tayyorlab, parlamentning tegishli qo'mitasiga qonunga muvofiqligi yuzasidan tekshirish uchun taqdim etishi (Koreya) kabilar belgilangan.

### ***O'zini-o'zi nazorat qilish savollari***

1. O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi nimalarda namoyon bo'ladi?

2. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi zarurligi deganda nimani tushunasiz?

3. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash mexanizmini amaliy misollar bilan yoritib bering?

4. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash borasida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tajribasiga to'xtaling?

## VII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

- 1-§. O'zbekiston – xalqaro huquq subyekti.
- 2-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
- 3-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari.
- 4-§. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi.

### 1-§. O'zbekiston – xalqaro huquq subyekti

O'zbekiston 1990-yil 20-iyundagi Mustaqillik deklaratsiyasida “xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplariga sodiqligini” e'lon qilgan edi. Deklaratsiyada suverenitet va inson huquqlari munosabatlарining quyidagi muhim jihatni aks ettirilgan: davlat oliv maqsad – inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'lida xizmat qiladi. Shuningdek, 1992-yilgi Konstitutsiya Muqaddimasiда O'zbekiston xalqi: “xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda” mazkur Konstitutsiyani qabul qilishi qayd etilgan. Konstitutsiyaning 17-moddasi quyidagicha bayon qilingan:

“O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.”

Ushbu normalarda mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlab qo'yilgan.

Xalqaro huquq subyekti – o'zining imkoniyatlari va yuridik xususiyatlari evaziga xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga, ushbu normalarni yaratish va amalga oshirish jarayonida ishtirok etishga qodir mustaqil tuzilma. Davlatlar xalqaro huquqning birlamchi subyektlaridir. Ularning xalqaro-huquqiy layoqati tashkil topganlik fakti bilan birga paydo bo'ladi. Xalqaro huquqning boshqa subyektlari esa, bunday maqomga davlatlar tufayligina erishadilar. Davlatlar xalqaro huquqning universal subyektlari hisoblanadi. Ular har qanday xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarda to'la huquqli subektligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- xalqaro huquqning boshqa subyektlari (chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, davlatga o'xshash tuzilmalar) bilan bevosita aloqa o'rnatish va hamkorlik qilish;
- xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish va ularning faoliyatida ishtirok etish;

- xalqaro konferensiyalarda faol qatnashish;
- chet davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish va diplomatik vakolatxonalar ochish;
- boshqa davlatlar bilan turli sohalarda xalqaro shartnomalar tuzish;
- xalqaro huquqiy majburiyatlarni vijdonan bajarish;
- xalqaro huquqda ruxsat etilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Konstitutsiyaning 78-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdag'i vakolatlari qatoriga xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish kiradi. Konstitutsiyaning 93-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'rishi, muzokaralar olib borishi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnomaga va bitimlarini imzolashi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlashi lozimligi keltirilgan.

O'zbekiston Respublika xalqaro huquqning subyekti ekanligi xalqaro shartnomalarni tuzishda ham namoyon bo'ladi. 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi hamda 1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq, xalqaro shartnomaga – xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi bitimdir.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnomaga xalqaro huquqning asosiy va muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bu BMT Ustavida hamda BMT Xalqaro sudi statutida ham o'z aksini topgan.

Xalqaro shartnomaga xalqaro huquq subyektlari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan bitimdir. Xalqaro huquq normalarining ko'pchiligi shartnomaviy xususiyatga egadir.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga xos eng muhim jihat ikki va ko'p tomonlama shartnomalar soni va mavqeining ortib borayotganidir. Bu jarayon istiqbolda yanada rivojlanib borishini taxmin etish uchun asoslar yetarlidir.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar bilan bog'liq amaliyoti yildan-yildan kengaymoqda va O'zbekiston ishtirot etayotgan universal, mintavay va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar soni ortib bormoqda. Masalan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi inson

huuqqlari bo'yicha 70 ta asosiy hujjatga qo'shildi, BMT tomonidan ushbu sohada qabul qilingan 10 ta asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylandi<sup>10</sup>.

Shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan shartnomalar soni ham ko'paymoqda. Davlatimiz rahbarining horijiy davlatlardagi har bir rasmiy tashrifi davomida bir qator ikki tomonlama shartnomalar tuzilmoqda. Masalan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-9-oktabr kunlari Fransiya Respublikasiga rasmiy tashrifi mobaynida ikki mamlakat uchun manfaatli va uzoq muddatli kelishuvlarga erishildi, hukumatlararo va idoralararo 10 ta hujjat imzolandi<sup>11</sup>.

## **2-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari**

Xalqaro huuqning asosiy prinsiplari deganda, xalqaro munosabatlар subyektlarining xalqaro hayotdagi to'plangan eng muhim masalalarga oid ifodalangan hamda umumlashtirilgan, umume'tirof etilgan yurish-turish normalaridir.

Xalqaro huuqning asosiy prinsiplari ilk bor BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan. Ularning mazmuni 1970-yili Bosh Assambleyada qabul qilingan BMT Ustaviga muvofiq, do'stona munosabatlар va hamkorlikka taalluqli muhim hujjat – Xalqaro huuq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada, shuningdek, 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining yakunlovchi aktida belgilangan.

Xalqaro huuqning asosiy prinsiplari jus cogens (qat'iy) normalari hisoblanadi, ularga rioya qilish majburiydir va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Ular xalqaro munobatlarning barcha sohalarida xalqaro huuq subektlarining xatti-harakatlarini tartibga soladi, xalqaro huuqning mazmunini belgilab beradi.

1970-yilgi Xalqaro huuq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya quyidagi yettita asosiy prinsipni qamrab olgan: 1) kuch ishlatmaslik;

<sup>10</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 майдаги "Инсон хукуклари умумжаҳон декларацияси" кабул килинганинг 70 йилингига бағишиланган тадбирлар дастури тўғрисида"ги ПФ-5434-сон Фармони. <http://uz.a.uz/oz/documents/inson-u-u-lari-umumzha-on-deklaratsiyasi-abulilinganining-7-08-05-2018>

<sup>11</sup> <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-prezidentining-fransiyaga-rasmij-tashrifi-yakunlandi>.

2) nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; 3) aralashmaslik; 4) hamkorlik; 5) xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi; 6) suveren tenglik; 7) xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish. 1975-yildagi EXHT Yakunlovchi akti bular qatoriga yana uchta 1) chegaralarning buzilmasligi; 2) hududiy yaxlitlik; 3) inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplarini qo‘shti, ular endilikda universal tus olgan. Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi hujatlarda ta‘kidlanganidek, ular o‘zaro uzviy bog‘liq, birining mazmun-mohiyati boshqasining mazmuni bilan uyg‘unlashib ketaveradi. Shu bois, xalqaro huquq prinsiplarining mazmunini boshqalari bilan bog‘lab o‘rganish lozim.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan va uning milliy qonun hujatlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasingning muqaddima qismida belgilanganidek, O‘zbekiston xalqixalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va qoidalari ustunligini tan olgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 17-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakatimiz o‘zini jahon hamjamiyati oldida xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada e‘lon qilganligini anglatadi.

O‘zbekistonning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga to‘laqonli a‘zo sifatida kirishiga, suveren davlatimizning dunyo miqyosida umumiyligi diplomatik tan olinishiga, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama siyosiyi, iqtisodiy, madaniy va huquqiy aloqalar o‘rnatishiga hamda mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirishiga imkon berdi.

Har bir davlat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari suverenitetini, ya‘ni ularning o‘z an‘analari doirasida boshqa davlatlarning har qanday aralashuvidan xoli ravishda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatini amalga oshirish, shuningdek, o‘z tashqi siyosatini mustaqil yuritish huquqini hurmat qilishga majburdir.

Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi bilan quyidagi harakatlar man qilinadi:

- boshqa davlat hududini xalqaro huquqqa xilof ravishda bosib olish;
- kuch ishlatish bilan bog‘liq repressaliya aktini sodir etish;

- fuqarolik urushini tashkil etish, bunday urushlarga yordam berish yoki ishtirok etish;
- shaharlarni yoki davlatlarning qirg‘oqlarini qamal qilish;
- boshqa davlat hududiga bostirib kirish uchun qurolli bandalarga yordam berish, yollanma kuchlarni tashkillashtirishni rag‘batlantirish;
- bir davlatga qarshi agressiya sodir etish uchun uchinchi davlatga o‘z hududan joy berish.

BMT Ustavida ikkita holatdagina kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishga ruxsat etilgan. Bular: o‘zini-o‘zi mudofaa qilish va BMT Xavfsizlik Kengashi qaroriga asosan tinchlikka tahdid solingan, tinchlik buzilgan yoki agressiya akti sodir etilganda.

Davlatlar bir-birlarining chegaralarini daxlsiz deb bilishi va chegaralarga nisbatan har qanday tajovuzlardan o‘zlarini tiyishlari lozim.

Har bir davlat o‘zining boshqa davlatlar bilan munosabatda yuzaga kelgan xalqaro nizolarini tinch yo‘l bilan shunday tartibda hal etsinki, toki xalqaro tinchlik va xavfsizlik hamdaadolat xayf-hatar ostida qolmasligi lozim (1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya). Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashda, xalqaro hamjamiyatda barqarorlik hukm surishida, davlatlararo hamkorlik rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

Har bir davlat o‘z hududida xalqi maqsad-muddaolari, sharoiti, an’ana, urf-odatlaridan kelib chiqib, o‘z rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Davlatlar xalqaro munosabatlarda teng huquqliligi sababli bir-birining ishiga aralashishi, tashqi siyosatiga to‘sqinlik qilishi mumkin emas. Ichki ishlarga aralashmaslik prinsipi nafaqat davlat ichida bo‘layotgan voqeа-hodisalarga, davlatning tashqi faoliyati (xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlar ishida qatnashish)ga aralashmaslikni ham nazarda tutadi.

Konstitutsiyamizning 17-moddasidagi “O‘zbekistonning ... tashqi siyosati ... xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”, degan jumlaning tarkibida xalqaro huquqning boshqa prinsiplari (xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash, xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish, hududiylar yaxlitlik, inson huquqlarini hurmat qilish) mavjudligini ta‘kidlab o‘tishimiz o‘rnlidir. Inson huquqlarini hurmat qilish prinsipining mazmuni Konstitutsiyamizning ikkinchi bo‘limida keng yoritilgan bo‘lib, insонning barcha huquqlari, ya‘ni, shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy huquqlari to‘g‘risidagi qoidalar batafsил keltirib o‘tilgan.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari Konstitutsiyamizdan tashqari, boshqa qonunlarimizda ham mustahkamlangan. Shu kungacha O‘zbekiston tomonidan bu prinsiplar xalqaro konferensiyalarda, xalqaro tashkilotlarning yig‘ilishlarida, chet davlatlar bilan diplomatik munosabatlarda va boshqa xalqaro aloqalarda keng tadbiq qilinib kelinmoqda.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati jahon hamjamiyati teng huquqli a‘zosining, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda XXI asr huquqiy tartibotini yaratayotgan suveren davlatning mustaqil siyosatidir. O‘zbekiston umumbashariy, Yevropa va Markaziy Osyo miqyosidagi yangi xalqaro-huquqiy tartibotni qurishda faol ishtirok etmoqda.

### **3-§. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda jamiat va davlatni rivojlantirishning o‘ziga xos modeli hamda xalqaro huquqning umum’tirof etilgan prinsiplarini inobatga olgan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Tashqi siyosi va tashqi ijtisodiy aloqalar bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari shakllantirildi. Bugungi kunga kelib, har tomonlama puxta o‘ylangan, milliy manfaatlarga mos va xalqaro munosabatlarda mamlakatning obro‘-e\*tiborini mustahkmlagan tashqi siyosat yo‘li vujudga keldi. 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, 2012-yil 10-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, o‘rtा va uzoq istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayoni kuchaymoqda hamda mintaqaviy va global miqyosda davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda. Konsepsiya qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonunga hamda davlatning boshqa normativ-huquqiy hujjalariiga, shuningdek,

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantrishi konsepsiyasiga asoslanadi hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplariga, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyaga, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining Xelsinki Yakunlovchi aktiga va boshqa hujjatlarga mosdir, deyiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi xalqaro huquqning eng asosiy manbalari hisoblansa, Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining Xelsinki Yakunlovchi akti xalqaro huquqning imperativ normalari hisobalanadigan eng asosiy prinsiplarni o'z ichiga olgan. Bu yerda xalqaro va milliy huquqiy normalarni bir-biriga bog'lab, uyg'unlashtirib tushuntirish imkoniyati mavjud, shuningdek, Konsepsiya qoidalarini amalga tadbiq qilishda aynan qaysi xalqaro va milliy hujjatlardan foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

Konsepsiada bevosita keltirilgan shartnomalar sifatida, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtaisdagi Strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnoma (2004), Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma (2005), Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya (2012), O'zbekiston Respublikasi bilan AQSH O'rtasida strategik sherikchilik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiya (2002), O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida strategik hamkorlik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani (2012) ta'kidlashimiz mumkin. Bundan tashqari, Yevropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, MDHga a'zo davlatlar, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib dengizi davlatlari bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar mazmun-mohiyatini O'rganish hamkorlikning yo'nalishlarini bilishga xizmat qiladi.

Konsepsiada keltirilgan O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi masalasiga e'tibor qaratilsa, talabalarda xalqaro tashkilotlar to'g'risidagi bilimlar yanada mustahkamlanadi. O'zbekiston barqaror rivojlanish, Ming yillik taraqqiyot maqsadlariga erishish, Markaziy Osiyo Mintaqasida ekologik muammolarni hal etish sohalarda BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan hamkorlik qiladi. Hozirda O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan turli sohalarda

va mintaqalarda hamkorlik qiladi. O'zbekiston mintaqaviy tashkilotlar doirasida qarorlar qabul qilinayotganda konsensus prinsiplari va qoidalariga qat'iy rioya etilishiga alohida ahamiyat beradi. Konsepsiya davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalişlarini belgilab beradi.

O'zbekiston o'zining 33 millionlik aholisi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynab kelmoqda. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo'li bilan aholi, ayniqsa yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha masalalarni hal etishda O'zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

#### **4-§. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi**

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashiq siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Tashqi siyosatimizning prinsipial pozitsiyasi hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obektlarining O'zbekiston hududida joylashishiga yo'l qo'ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqaridagi tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etmasligi, barcha ziddiyat va mojarolarni faqat siyosiy yo'l bilan hal qilishga sodiq qolish bilan izohlanadi. O'zbekiston hech qanday bloklarga a'zo bo'lmasdan turib, muloqot uchun ochiq va barcha sheriklari bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosatni amalga oshiruvchi organlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;
- jahoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirish;
- O‘zbekistonning mintaqasi va jahon siyosatidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko‘maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishda faol ko‘mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko‘rsatish;
- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko‘maklashish;
- xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlарining har tomonlama himoya qilinishini ta‘minlash;
- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg‘onistonning vaziyatni hal qilishga ko‘maklashishga qaratilgan. O‘zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks

foydalananish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaqasi davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtaсидagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotining qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH malakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrdagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtaсиda Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirish ikki mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 4-5-aprelida Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va 2013-yil 9-sentabrdagi ikki tomonlama strategik

hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asoslangan. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 11–13-may kunlari Pekingda davlat tashrifi, shuningdek, 2017-yil 14–15-may oyida «Bir makon, bir yo‘l» xalqaro forumida ishtirot etish asnosida erishilgan qarorlar va kelishuvlarni amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to‘g‘risidagi deklaratsiyasi asnosida o‘zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O‘zbekiston AQSh bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitiaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo‘nalishlari Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko‘maklashishdan iboratdir.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdo-sotiqlari rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaliv texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta‘lim, ekologiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilalar hisoblanadi. O‘zbekiston asosiy e‘tiborini Yevropaning ilg‘or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e‘tibor beradi.

Respublikamiz ko‘p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiyligi qadriyatlar va o‘xshash urf-odatlarga ega bo‘lgan Turkiya davlati bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan, savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarda rivojlantiradi.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. O‘zbekiston ushbu davlatlar bilan investitsiya, savdo-sotiq, yuqori texnologiyalar,

madaniy-gumanitar sohalaridagi keng qamrovli hamkorlikni davom ettiradi.

O'zbekiston Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar – Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vietnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarda har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

O'zbekiston musulmon dunyosi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik sohalarida, shu jumladan, Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor.

O'zbekiston BMT ishida faol ishtirok etishni davom ettiradi hamda uni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, tezkor globallashuv jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishida ko'maklashishga mas'ul bo'lgan yagona universal tashkilot sifatida ko'radi.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonloma hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 45 ta chet el elchixonalari, 8 ta faxriy konsullar, 19 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 18 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud.

O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a‘zosi bo‘lib, mamłakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi<sup>12</sup>.

### ***O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari***

1. *O‘zbekistonning xalqaro huquq subyektliligi nimalarda namoyon bo‘ladi?*  
2. *Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari nechta va qaysi xalqaro hujjatlarda bayon qilingan?*  
3. *O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni ko‘rsating.*  
4. *O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi to‘g‘risida o‘z fikringizni bildiring.*

---

<sup>12</sup> <https://mfa.uz/uz/cooperation/>

# **UCHINCHI BO'LIM. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKHLARI VA BURCHLARI**

## **VIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARIGA XOS UMUMIY QOIDALAR**

### **REJA:**

1-§. Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tushunchasi.

2-§. Fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy tamoyilining mohiyati.

3-§. Fuqaro va davlatning o'zaro mas'ulligi.

4-§. Huquqlar daxlsizligi va sud himoyasi.

5-§. O'zgalarning huquq va manfaatlariga daxl qilmaslik.

### **1-§. Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining tushunchasi**

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida inson huquqi muhim ahamiyat kasb etib, uning ta'minlanganlik holati jamiyatning demokratik taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezon, davlatning insoniyligini belgilovchi barometr bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan, har bir davlatda inson huquqi va unga bog'liq munosabatlar barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy voqeqliklarning markazida turuvchi asosiy masala hisoblanadi. Yangidan barpo etilayotgan har qanday jamiyat o'zining rivojini dastlab inson huquqini ta'minlashga nisbatan munosabatni o'rnatishdan boshlaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Inson huquqi – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqini qonunda va amalda ta'minlay olmagan jamiyat demokratik davlat hisoblanmaydi. Inson huquqining milliy yurisdiksiya ta'siriga olinganligi unga nisbatan huquqiy munosabatlar vujudga kelganligini bildiradi. Inson huquqi bilan bog'liq vujudga kelgan va vujudga kelishi mumkin bo'lgan munosabatlarning aksariyat qismini inson huquqi qonunchilik tarmog'i tartibga soladi.

Inson huquqi – butun insoniyatning orzu-umidlarini o'zida jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Inson huquqi to'g'risidagi qonunchilik – inson va fuqarolarning huquqlari, manfaatlari, erkinliklari va majburiyatlari haqidagi normalar majmuyidir. Bu normalar majmuyi

inson huquqi bo'yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlarda o'z ifodasini topadi.

Insonning huquq va burchlari o'zi yashaydigan davlatdag'i butun ijtimoiy normalar (masalan, urf-odat, odob, an'analar, jamoat normalari, huquqiy normalar va boshqalar) bilan belgilanadi. Insonning huquq va erkinliklari bitta huquq sohasining emas, balki barcha huquq sohalarining normalari bilan tartibga solinadi. Bu jarayonda Konstitutsiya asosiy o'rinni egallaydi.

Demak inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan bo'lib, ular joriy qonunchilik normalarida, ya'ni konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqaroviy, mehnat va boshqa huquqiy normalarda rivojlantirilgan, aniqlashtirilgan, to'ldirilgan bo'ladi. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari biror bir shaxs yoki tashkilot tomonidan buzilishi, cheklab qo'yilishi mumkin emas. Ushbu huquq va erkinliklarning daxlsizligi qonun bilan qo'riqlanadi.

Insonning huquqlari, erkinliklari va burchlari uning xulq-atvorini tartibga solish vositasi bo'lib, ular jamiyat, davlat yoki muayyan ijtimoiy guruhlar tomonidan o'rnatiladi. Davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy normalar insonning xatti-harakatlarini belgilab, ularga huquq va erkinliklar beradi va burchlar yuklaydi.

Insonning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari asosiy, deb ataladi. Chunki, birinchidan, ular insonning eng muhim hayotiy manfaatlarini ifodalaydi, ikkinchidan, insonning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari oddiy, joriy qonunlarda emas, balki Konstitutsiya normalarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi va insonning boshqa huquqlari esa shu asosiy huquq va erkinliklarga mos tarzda yaratiladi.

inson huquqi tushunchasi xususida gapirganda, «inson huquqi», «sshaxs huquqi» va «fuqaro huquqi» kabi iboralarning mazmuniga to'xtalib o'tish lozim. «Inson huquqi» va «fuqaro huquqi» iboralarini qo'llash nisbatan to'g'ri yondashuvdir, chunki «inson huquqi» deganda, qonun normalarida o'rnatilgan odamlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlarini qondirishni belgilaydigan, o'rnatadigan va ta'minlaydigan axloqiy yurish-turish qoidalari yig'indisi nazarda tutiladi.

«Fuqaro huquqi» deganda esa, shu davlatning a'zosi bo'lgan insonlarga davlat tomonidan taqdim etilgan va normativ-huquqiy

hujjatlarda belgilab qo'yilgan yurish-turish qoidalari yig'indisi tushuniladi.

Inson huquqi – bu jamiyatning muhim ijtimoiy hodisasi hisoblanib, shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga solib turuvchi normativ me'yorlar yig'indisidir. Inson huquqini davlat tomonidan o'rnatilgan, qonun asosida mustahkamlangan, jamiyatning har bir a'zosiga taalluqli bo'lган, yashash, turmush tarzini belgilash, o'z xatti-harakatlarni to'g'ri amalga oshirish, unga berilgan imtiyozlardan foydalanish va jamoatchilik faoliyatini samarali olib borish imkoniyati, deb tushunish mumkin.

Inson huquqi har bir odamga mamlakatning ijtimoiy tuzumi, davlatning ichki huquq-tartiboti, o'zining ijtimoiy mavqeyidan, jinsidan qat'iy nazar, tug'ilishi bilan tegishli bo'ladi. Inson huquqisiz fuqarolarning shaxsiy hayotini, faoliyatini to'laqonli tasavvur etib bo'lmaydi.

Insonning tabiiy huquqini tan olmaslik, ularni davlat tomonidan huquq normalarida o'rnatmaslik inson huquqini cheklab qo'yishga yoxud ularni amalga oshirishga to'sqinlik qilishga sabab bo'ladi.

Inson huquqini himoya qilish maqsadida davlat tomonidan ma'lum yuridik mexanizm aniq belgilab qo'yiladi. Qonunda belgilab qo'yilgan yuridik mexanizmlar amalda himoya vositasi sifatida inson huquqiga tajovuz qilganlik yoki unga ziyan yetkazganlik uchun huquqiy javobgarlik choralarini qo'llashga olib keladi.

Davlat tomonidan inson huquqi qonun hujjatlari orqali o'zgartirilishi, cheklab qo'yilishi yoki bekor qilinishi, yoxud boshqa huquqlari vujudga keltirilishi mumkin. Odatda, davlat inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta'minlashning kafolati bo'lishi kerak.

Inson huquqi davlatning siyosiy tizimi, iqtisodiy ahvoli, ma'naviy-madaniy taraqqiyot darajasi, shu davlatda yashayotgan insonning davlat bilan o'zaro munosabati doirasi, jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyiga, ushbu huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanganligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, insonning yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, mulkiy huquqi va boshqalar shu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumi bilan chambarchas bog'liq holda belgilanadi. Inson huquqini ta'minlash va kafolatlashda har bir davlatning asosiy qonuni, ya'ni konstitutsiyasi muhim manbayi bo'lib hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari va kafolatlariga alohida e'tibor berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini o‘rnatishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda insonning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlari umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalari asosida belgilangan.

Konstitutsiyaning muqaddimasidayoq O‘zbekiston xalqi inson huquqlariga sodiqligini tantanali ravishda e‘lon qiladi, deb belgilangan. Bundan tashqari, uning 43-moddasida davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini ta‘minlanishi nazarda tutilgan. Inson huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oliy qadriyat sifatida tan olingan<sup>13</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi va qonunlari insonni ijtimoiy muhofaza qilish kafolatini belgilaydi, insonning erkin kamol topishi uchun munosib hayot tarzini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy qoidalarni o‘zida ifoda etadi. Milliy qonunlarimizda belgilanishicha, hech kim qynoqqa solinishi, g‘ayriinsoniy, qadr-qimmatini xo‘rlaydigan muomalaga duchor qilinishi, rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalarga jalg etilishi mumkin emas. Har bir fuqaro mehnat qilish, haq to‘lanadigan ta‘til va dam olish kunlaridan foydalanish, bilim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish, ijtimoiy ta‘minot olish va ko‘plab boshqa huquqlarga egadir. Insonning huquq va erkinliklarini himoyalash tizimi sud himoyasini, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa inson huquqini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oлади.

Inson huquq va erkinliklarini amalda ta‘minlash vositalaridan biri – bu fuqarolarning o‘z huquqini himoya qilish mexanizmining qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilganligidadir. Inson huquqi buzilgan taqdirda protsessual qonunchilik qoidalariiga ko‘ra, ularga nisbatan qilingan g‘ayriqonuniy harakatlar ustidan ma‘muriy yoki sud tartibida shikoyat qilinishi va buzilgan huquqlar tiklanishi mumkin.

Inson huquqi milliy huquq tizimimizdagi har bir huquq sohasining asosiy, eng ustuvor va markaziy masalalaridan birini tashkil etadi. U konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, ekologiya huquqi va boshqa huquq sohalarining normalari bilan tartibga solinadigan asosiy ijtimoiy munosabatlar sirasiga tegishlidir.

---

<sup>13</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т. Узбекистон, 2018

Inson huquqini munosib ta'minlash davlatning va boshqa ijtimoiy munosabat subyektlarining huquq va erkinliklariga ta'sir etmasligi kerak. Chunki, barcha insonlar tug'ilishidan erkin va tengdirlar. Inson huquqi tabiiy va ajralmas xususiyatga ega bo'lib, har bir demokratik davlatning asosiy vazifasi uni to'la ta'minlashdan iboratdir.

## **2-§. Fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy tamoyilining mohiyati**

Kishilik jamiyatni vujudga kelgan vaqtidan boshlab, insonlar tenglik haqida, davlatchilik munosabatlari kelib chiqqan vaqtidan boshlab esa, hurnlik va ozodlik haqida fikrlay boshlaganlar. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, insonlar o'rtasida lozim bo'lgan tenglik gohida to'liq, gohida faqat rasman, gohida ayrim tabaqa vakillari o'rtasida, gohida barcha insonlarga tegishli bo'lishi g'oyalari ilgari surilgan. O'rta Osiyoga islam dini kirib kelguniga qadar asosiy ko'pchilik insonlar e'tiqodiga aylangan zardushtiylik, manixeizm va mazdakiylik kabi din va g'oyaviy oqimlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, qadimgi mutafakkirlar: yunon faylasuflari Protagor va Alkidamant barcha insonlarning teng bo'lib tug'ilganligi haqida fikr bildirgan.

Bundan farqli ravishda ma'lum bir aholi qatlaming boshqalardan ustun bo'lishi lozimligi va boshqalarning ularga xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi turli qoidalarni asoslashga urinishlar ham bo'lgan. Hattoki, diniy g'oyalalar va qarashlarda ham buni asoslashga harakatlar qilingan. Xususan, Cherkov inkvizitsiyasi g'oyalalarida, Avreliy Avgustin ta'limotida, nemis huquqshunosi Eyke fon Repkov qarashlarida ham odamlarni ijtimoiy jihatdan keskin farqlanadigan tabaqalashishning qonuniyligini isbotlab berishga harakat qilingan. «Falsafa otasi», deb e'tirof etilgan Aflatun ham insonlar o'rtasida notenglik ularning tabiatini bilan bog'liqligini, ya'ni qul va varvarlarning kuchli jismoniy holati va kuchsiz aqli ularning boshqalar bilan teng emasligini ta'kidlagan.

Ijtimoiy tenglik, jamiyatda insonlar imkoniyatlarining tengligini ta'minlash maqsadida qo'zg'olonlar va boshqa faol harakatlar amalga oshirilgan. Masalan, bunga Qadimgi Rimdag'i Spartak qo'zg'oloni, Muqanna qo'zg'oloni, Angliyadagi 1381-yilgi Uot Tayler qo'zg'oloni, Chehiyadagi Yan Gus harakati va boshqa ko'plab misollarni keltirish mumkin.

XVII asrda G'arbiy Yevropadagi inqilobiy harakatlar tenglik g'oyasini yoqlovchilarining chinakam g'alabasi, deyish mumkin. Shu paytdan boshlab, siyosiy huquqiy ta'limotlar sohasidagi g'oyalalar

dastlabki demokratiya qonunchiligining shakllantirishga asos bo‘ladigan individualizm va tenglikning aniq ideologiyasi vujudga kelishiga olib kelgan. Bu jarayonda albatta asosiy rolni huquq o‘ynagan.

Shundan keyingi yirik nazariyotchilar Gugo Grotsiy tabiiy huquq tushunchasi orqali tenglikni ta‘minlash haqida fikrlar bildirgan bo‘lsa, Tomas Gobbs huquqiy tenglik atamasini keng qo‘llagan. Fransuz mutafakkiri Monteske erkinlik barchaga beriladigan huquq, degan g‘oyani ilgari surgan va boshqa ko‘plab o‘sha zamon olimlari tomonidan insonlar o‘rtasida tenglik, birodarlik va erkinlik g‘oyalarining nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan.

Nihoyat, fransuzlarning 1789-yil 26-avgustdagisi “Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratasiysi”da “insonlar huquqda teng va erkin bo‘lib tug‘iladilar va shunday bo‘lib qoladilar”, – degan qoida o‘z ifodasini topishi tufayli tenglik g‘oyasi yozma qonunchilik shakliga ko‘chgan.

Huquq manbalari tarixidagi keyingi hujjatlarda ham tenglik qoidalari bayon qilina boshlangan. Biroq insoniyat tenglikni ta‘minlash asnosida ko‘plab inqirozlarni ham boshdan kechirgan. Barcha odamlarning bir-biridan farqli ravishda dunyoga kelishi va rivojlanishi, aql va tafakkurda, iste‘dodda ham teng emasligini inobatga olish taqozo etilgan. XVIII asr Fransiya inqilobidan keyin vujudga kelgan Babuvistlar va sotsializm utopiyasi tarafдорлари yo‘qlikka olib borsa-da, tenglikka erishmoq kerak, insonlar mulkida ham teng bo‘lishlari lozimligini, hattoki ularning aqliy darajasini ham tenglashtirishga erishish maqsadga muvofiqligini anglatadigan mafkurani shakllantirishga harakat qilganlar.

Keyinchalik birin-ketin o‘z siyosatini o‘zgartirib, sotsializm mafkurasidan voz kechib borayotgan davlatlar va xalqlar tajribasi insonlarni moddiyatda va o‘y-fikrda teng qilib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Insonlarning tengligi ularga bir xil huquqiy sharoit va imkoniyat, bir xil majburiyatning rasman belgilanganligini anglatishi umume‘tirof etildi. Shuning uchun Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining 7-moddasida: “Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo‘lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir”, – deyilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham “...qonun oldida tengdirlar” degan mantiqan to‘g‘ri qoida mustahkamlangan. Ushbu hujjatlardagi

umumiylar qoidalarni barcha shaxslarga birdek qo'llashni talab etadi.

Tarixda insonlarning fuqaroyiy mansubligi jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyi ularni tabaqalashtirishga, birining ikkinchisidan ustun qilib ko'rsatishga asos qilinganlik hollari yuz berganligi uchun Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeiyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar", mazmunidagi qoida o'rnatilib, u insonlarning tengligini e'tirof etishda bu va shunga o'xshash holatlarga e'tibor berilmasligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qonun oldida tengligi qoidasi odatda, quyidagilarni qamrab oladi:

1) u nafaqat fuqarolarning, balki ular faoliyati natijasi bo'lgan huquq subyektlari – yuridik shaxslarning (jamiyatlar, xo'jalik shirkatlari, unitar korxonalar va b.) huquq oldida tengligi;

2) qonun oldida tenglik garchand konstitutsiyaviy g'oya bo'lsa-da, fuqarolarning nafaqat konstitutsiyaviy huquq va majburiyatda tenglikni, balki boshqa subyektiv huquqlarda ham tengligini anglatadi;

3) qonun oldidagi tenglik mas'uliyat va huquq buzilganda bir xil javobgarlikni nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasi boshqa huquq sohalarida tamoyil darajasida e'tirof etiladi va ushbu qoidani turli huquq sohalarida yanada takomillashtirilgan holda bayon qilinganligini kuzatish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 272-moddasida "Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish barcha fuqarolarning jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, irqi, millati, tili, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar, qonun oldida va shu ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) oldida tengligi asosida ko'rib chiqiladi", deb belgilangan. Bu bilan qonun ishlarni ko'ruchchi mansabdar shaxslarga hammaga bir xilda munosabatda bo'lish, noxolislikka yoki bir shaxs manfaati yo'lida og'ish holatlariga yo'l qo'ymaslikka chaqiradi. Yoki shunday holatni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ham kuzatish mumkin. Mazkur kodeksning 16-moddasida ko'rsatilishicha, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy

kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

Bu kabi qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksining 8-moddasida, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 9-moddasida, Iqtisodiy protsessual kodeksining 7-moddasida ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 5-moddasida ham fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligi, fuqarolik va tadbirkorlik sohasi qonunchiligida ham insonlarga teng huquq va erkinliklar berilganligi xususida qoidalar belgilangan.

Qonun huquqlardan foydalanish imkoniyatini to'liq yaratish maqsadida, turli sabablarga ko'ra, o'z manfaati va huquqlarini lozim darajada himoya qila olmaydigan ba'zi shaxslarga yoki xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq ba'zi kasb egalariga qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Buni huquqning ko'plab sohalarida uchratish mumkin. Misol uchun, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayollarga, voyaga etmaganlarga va oltmis yoshdan oshgan insonlarga nisbatan tayinlanmaydi. Ishga qabul qilinayotganda homilador ayollarga nisbatan dastlabki sinov belgilanmaydi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va xalqaro hujjatlarda belgilangan fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasini buzish huquqiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi, hattoki fuqarolarning qonun oldida tengligiga daxl qilish jinoyat sifatida ta'qib qilinadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141-moddasi «Fuqarolarning teng huquqlilagini buzish» deb nomlangan bo'lib, unga ko'ra, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi belgilangan.

### **3-§. Fuqaro va davlatning o'zaro mas'ulligi**

Kishilik jamiyati tarixida davlatning paydo bo'lishi uning mavjudligini ta'minlaydigan fuqarolar bilan o'zaro munosabatini

vujudga kelishini taqozo etadi. Davlat o‘z fuqarosi bilan davlatdir. Davlatning o‘z fuqarolari oldidagi mas‘ulligini va fuqarolarning davlat oldidagi mas‘ulligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar”, degan qoida o‘rnatilgan. Bu qoida fuqaroning faqat davlatga qarashli obyekt emas, davlat bilan munosabatlar kirishadigan huquq va majburiyat subyekti ekanligini e‘tirof etib, uning mavqeyini namoyon qiladi. Umuman, hozirgi zamon demokratik davlatlarda fuqaro va davlat o‘rtasidagi munosabat o‘zaro huquq va majburiyatlar orqali bog‘liqlikka asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat va fuqaro o‘rtasida o‘zaro mas‘ullik tamoyili barcha demokratik davlatlarda e‘tirof etilgan.

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni to‘g‘risidagi g‘oyalarda davlat va fuqaroning o‘zaro mas‘ulligi tamoyili muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, huquqiy davlatning asosiy belgilardan biri – davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatning huquqiy shakli mavjudligi, ya‘ni davlat va fuqaroning o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda o‘zaro javobgarlikka asoslangan munosabatining mavjudligi hisoblanadi.

Davlat huquq ijodkorligi faoliyati bilan o‘z fuqarolariga qator huquqlar va majburiyatlarni belgilab beradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarga tegishli huquqlar shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga tarzida belgilangan.

Shaxsiy huquqlar deyilganda, insonning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, sudning qarori kuchga kirkunga qadar aybsiz hisoblanishi huquqi, shaxsiy va turar joy dalxsizligi huquqi, harakatlaniib, ko‘chib yurish huquqi, fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqi, davlat organlari tomonidan ularga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqlari tushuniladi.

Siyosiy huquqlar sirasiga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, ijtimoiy faollikni amalga oshirish huquqi, kasaba

uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi, murojaat qilish huquqi kiradi.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlariga mulkdor bo‘lish huquqi, mehnat qilish huquqlari, dam olish huquqi, ijtimoiy ta‘minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, bilim olish huquqi, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari mansubdir.

Konstitutsiya mazmuniga ko‘ra, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishi, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrashi, atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishi, qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashi, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishi kabi burchlari mavjud.

O‘z navbatida, davlat ham Konstitutsiya muqaddimasida bayon qilinganidek, Konstitutsiya qabul qilinishini taqazo etadigan omillardan biri sifatida fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida faoliyat yuritadi. Tinchlik va milliy totuvlikni ta‘minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanib, bu yo‘lda bor kuch va vositalarini safarbar qiladi. Davlat majburlov mexanizmining mavjudligi, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyat yuritishi va huquqbazarliklar uchun javobgarlikning belgilanishi tinchlik va milliy totuvlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Hattoki, Konstitutsiyaning 125-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tuzishdan maqsad aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish, deb belgilanganligi bejiz emas.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘uldirlar”, deb belgilangan. Bu qoida davlatning o‘z fuqarolaringa xizmat qiladigan, ularning tinchligi va xavfsizligini ta‘minlaydigan, huquqlarini ro‘yobga chiqarishni kafolatlaydigan tashkilot ekanligini anglatadi.

Mamlakatimizda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida davlat boshqaruvi va jamoatchilik bilan ishlash tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ham aynan davlatning jamiyat va fuqarolar

oldidagi mas'uliyatini oshirishga qaratilmoqda. Birgina o'tgan 2017-yilni O'zbekistonda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", deb e'lon qilinishi bunga yaqqol misoldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun", degan oljanob g'oyani o'zida mujassam etgan Davlat dasturini amalga oshirish va bu g'oyani izchillik bilan hayotga tadbiq etishdan iborat.

Ushbu g'oyani amalga oshirish maqsadida Harakatlar strategiyasining "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladigan 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

Davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshirib borish natijasida insonlar roziligiga erishish davlat siyosatining asosiy yo'naliishiga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar Konsepsiyasining ishlab chiqilishi, xalq qabulxonalarining tashkil etilishi, jamoatchilik nazoratining huquqiy tartibga solinishi, davlat organlarining xalq vakillik organlariga hisobdorligining takomillashtirilayotganligi, davlat xizmatlari markazlari faoliyatining yo'nga qo'yilganligi aynan davlatning o'z fuqarolari oldidagi mas'uliyatini bajarishning namunasidir.

Davlat jamiyatda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan birga, o'zi ham teng huquqli ishtirokchidir. Jamiyatda yuz beradigan normal munosabatlarni taribga soluvchi huquqiy hujjatlarning eng yiriklaridan biri – O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilar bo'lishi mumkinligi belgilangan. Bu bilan davlatning fuqarolar bilan davlat va fuqaro o'rtasidagi konstitutsiyaviy va fuqaroviy-huquqiy manosabatlardan tashqari mulkiy va nomulkiy munosabatlarda ham ishtirok etishi mumkinligi huquqiy tartibga solingan.

Davlat o‘z fuqarolari tomonidan fuqarolik burchlarini bajarishni har tomonlama muhofaza qilish, ularning taqdirini boshqa davlat va xorijiy tashkilotlar tomonidan hal qilinishida bevosita ishtirok etadi.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 603-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining boshqa davlat tomonidan ushlab berilishi (ekstraditsiya qilinishi) so‘ralgan hech bir vaziyatda uni ushlab bermasligi belgilangan. Aksincha, jinoyat uchun javobgarlikning maqarrarligi jinoyat ishini O‘zbekiston hududida ko‘rib chiqish va javobgarlikni belgilash orqali ta‘minlanadi.

#### **4-§. Huquqlar daxlsizligi va sud himoyasi**

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sudning qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Mazkur konstitutsiyaviy normaning tarixiy ildizi huquqlar daxlsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etgan hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi va o‘zaro tiyib turish prinsipiga hamda 1679-yil 26-may kuni ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun - «Xabeas Korpus Akt»ga borib taqaladi.

Davlat hokimiyatining qonunchilik, ijro qilish va sud hokimiyatiga bo‘linishi haqidagi g‘oyalar XVII asrda ingliz inqilobi faollaridan biri bo‘lgan Jon Lilbern, ingliz olimi Jon Lokk, fransuz mutafakkiri Sharl de Monteskelar tomonidan ilgari surilgan va mustaqil doktrina sifatida shakllantirilgan. Sud hokimiyatining esa, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidan mustaqil faoliyat yuritishi lozimligi asoslاب berildi.

Zamonaviy huquq ilmida ham hokimiyat vakolatlarining bo‘linishida sudning nizolar vujudga kelganda hakamlik vazifasini bajarishi lozimligi e‘tirof etiladi. Qonun chiqaruvchi sud hokimiyatining faoliyatini tartibga salsa, qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida insonlar o‘rtasidagi nizolarni ham hal qilish vazifasini bajaradi.

Sud jamiyatning ayrim a‘zolari orasida, ular bilan davlat o‘rtasida nizo, insonning huquq bilan tartibga solingan hayot va faoliyatining har

qanday sohasida yuzaga keluvchi nizo mavjud bo‘lgan taqdirda ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi davlatning tashkiloti hisoblanadi. Odatda, nizolarni hal qilishda davlatning aralashuvi va huquqbuzarlarga nisbatan majburlov ta’sir choralarini qo‘llash taqozo etiladigan hollarda odil sudlovga ehtiyoj tug‘iladi.

Hokimiyatlar tizimida insonlarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud yo‘li bilan muhofaza qilish himoya qilishning eng samarali usuli, deb hisoblash imkonini beruvchi o‘ziga xos belgilar majmuiga egadir.

Qonun va adolatni kafolatlaydigan mustaqil, erkin sudning jamiyatimizdagи ahamiyati yuqori. Bunday sud tizimi hozirgi jadal islohotlar jarayonida mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga, demokratik qadriyatlarni himoya qilishga ko‘maklashadi.

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquq va erkinliklari daxlsiz bo‘lib, ularni cheklashga yoki mahrum qilishga hech kim haqli emas, qonunda nazarda tutilgan hollarda sudlar bundan mustasno. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipida sudlarning nizolarni hal qilish funksiyasi mavjud ekan, huquq yoki erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklash nizolarga sabab bo‘ladigan holat hisoblanadi. Shuning uchun odatda, huquqlardan mahrum qilish yoki uni cheklash masalasini hal qilish sudlarning vakolatiga berilgan.

1679-yil 26-mayda qabul qilingan «Xabeas Korpus Akt» deb nomlanadigan hujjat sudlarning inson huquqlarini muhofaza qilishdagи rolini ko‘rsatgan dastlabki huquqiy manbalardan hisoblanadi. Boisi, inson tanasini sudga olib borish, degan ma‘noni beradigan ushbu hujjatning qabul qilinishi bilan insонning ozodligi, ozod bo‘lish huquqini cheklash haqida qaror qabul qilish vakolati sudlarga berilgan. Unga qadar ushbu huquq o‘sha zamon politsiya organlari va ular tepasidagi qirollik kuchlariga tegishli edi. Bu bir tomondan chinakamiga inson huquqlarining tantanasi bo‘lgan bo‘lsa, boshqa tomondan hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi prinsipiiga muvofiq sudlarning yuridik tabiatiga mos keladigan vakolatga ega bo‘lganligini anglatlar edi.

Huquqning hozirgi zamon rivojlanish holati shu darajaga yetdiki, har qanday vaziyatda shaxsnинг qonunlarda nazarda tutilgan huquqlaridan mahrum qilish yoki ularni cheklash sndlarga tegishlidir. Hatto, fuqarolarga davlat organi yoki mansabdar shaxslar tomonidan qabul qilingan qarorlar uning manfaatiga zid bo'lsa, sndlarga murojaat qilish huquqi ham kafolatlangan.

Shaxsnинг huquqidan mahrum qilishning yaqqol namunasi – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan "Muayyan huquqdan mahrum qilish" jazosi hisoblanadi. Ushbu kodeksning 45-moddasida ko'rsatilishicha, muayyan huquqdan mahrum qilish "sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxona, muassasa yoki tashkilotda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini ta'qiqlashdan iboratdir". Yoki bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 28-moddasida belgilanishicha, "Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi tuman (shahar) ma'muriy sudi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Bu holatda ham sndlarninggina shaxsni o'z huquqidan mahrum qilish vakolati mavjudligi e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'rnatilgan fuqarolarning huquq va erkinliklaridan sudning qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi ijtimoiy hayotimizning turli sohalariga kirib bormoqda. Jinoyat ishlarini yuritish sohasida shaxsnинг huquqlariga bevosita ta'sir etadigan protsessual harakatlarni o'tkazish vakolati sndlarga o'tkazilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, 2008-yil yanvardan boshlab, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasini qo'llash va uning muddatini uzaytirish, 2008-yil dekabr oyidan boshlab, amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish, 2012-yil sentabr oyidan boshlab ayblanuvchini lavozimidan chetlatish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish (uning muddatini uzaytirish), 2014-yil sentabr oyida yangidan joriy qilingan uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo'llash va uning muddatini uzaytirish, 2017-yil martdan boshlab,

murdani eksgumatsiya qilish va pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash kabi protsessual harakatlar sudning qarori bilan amalga oshiriladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «Xabeas korpus» institutini qo‘llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish vazifalarining belgilanganligi kelajakda shaxsni huquqidan mahrum qilish yoki ularni cheklab qo‘yish kabi boshqa protsessual harakatlarni sudning qarori bilan o‘tkazish tartibi joriy qilinishi kutilmoqda.

### **5-§. O‘zgalarining huquq va manfaatlariiga daxl qilmaslik**

Ma‘lumki, jamiyat a‘zosi sifatida shaxs huquq va erkinliklar sohibi bo‘lishi bilan birga, jamiyatda o‘rnatalgan qonun-qoidalarga bo‘ysunishi, jamiyatning boshqa a‘zolari huquq va erkinliklarini hurmat qilishi va tan olishi hamda ularga daxl qilmasligi kabi majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

Shaxs mutloq erkin bo‘lishi mumkin emas, shaxs insonlar orasida, davlat va jamiyatda yashashi uchun uning mutloq erkinligi boshqalarining huquq va manfaatlari bilan to‘qnash kelishi tabiiydir. Shu sababdan, insonning erkinlik kategoriyasi nisbiy hisoblanadi, uning erkinlik chegarasi boshqalarining erkinligi boshlangan joyda o‘z nihoyasiga yetadi.

Insonlar o‘rtasida tinchlik va osoyishtalik, tenglik va erkinlik, ijtimoiyadolat va xavfsizlikni ta‘minlashda fuqarolarning o‘z huquqlarini qonunda belgilangan tartibda amalga oshirish hamda o‘z burchlarini to‘la bajarishlari muhim o‘rin tutadi. Demokratik huquqiy davlatda qonun bilan o‘ziga berilgan huquqdan foydalangan va o‘z majburiyatlarini bajargan shaxsga hech qanday ta‘sir yoki uning javobgarligi xususida masala ko‘tarilmasligi kerak. Bu toifa insonlar qonunlarga itoatkor insonlar hisoblanadi. Qonunga itoatkor insonlar fuqarolik jamiyatini tom ma‘noda shakllantirish va haqiqiy demokratik huquqiy davlatning barqaror faoliyatini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Insonning qonunga itoatkor bo‘lishi ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyatga ega

bo‘lish mezonlarini sanab ko‘rsatish mumkin. Qonunga itoat etmagan va natijada boshqa fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatiga putur yetkazgan fuqarolar javobgarlikka tortiladi. Masalan, qonunda belgilangan tartib va asoslarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirib kelayotgan, davlat va jamiyat oldidagi majburiyati va burchlarini to‘liq bajarib kelayotgan fuqaro erkendir. Jamiyatdagi mavjud tartibotlarni tan olmaydigan, yashash qoidalarini buzadigan shaxs erkin emas, zero, u o‘z qilmishlari uchun javob berishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida belgilangan “Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart”, – degan umumiy qoida Asosiy qonunimizning 48-moddasida “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”, mazmunidagi qoidaning belgilanishi uchun normativ rahbariy asos hisoblanadi.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi – fundamental asosga ega. Boisi, har bir davlatda qonuniylik va uning asosida shakllanadigan huquqiy tartibot darajasi oxir-oqibatda har bir fuqaroning qanchalik qonunga itoatkor shaxs ekanligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

O‘zga shaxslarning qonunlarda belgilangan huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazish yetkazilgan zararning usuli va hajmiga bog‘liq ravishda turli holatlarga va javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bunday harakatlar (harakatsizliklar) ijtimoiy xavfliligi bilan jinoyat darajasida sodir etilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan ta‘qib qilinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar va ularni sodir etganlik uchun jinoiy jazo choralar mustahkamlangan. Xususan, fuqarolarning teng huquqlilagini buzish (141-modda); shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (141<sup>1</sup>-modda); fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (142-modda); xatyozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish (143-modda); jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish

(144-modda); vijdon erkinligini buzish (145-modda); saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (146-modda); saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiiga to'sqinlik qilish (147-modda) jinoyatlari aynan fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarini buzish natijasida sodir etiladigan jinoyatlar hisoblanadi.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda o'zgalar huquqiga va manfaatiga putur yetkazmasliklari nafaqat ommaviy munosabatlar, balki fuqarolar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarda ham qo'ilanilishi qonunlarda belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-moddasida "Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart", deb belgilangan. Bajarmaslik holatlari zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni (delikt majburiyatlarni) yoki shartnomadan kelib chiqadigan zararni bartaraf etish majburiyatini keltirib chiqaradi – javobgarlikka sabab bo'ladi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. Fuqarolarning qonun oldida tengligining mazmun - mohiyati.
2. Fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy tamoyilining tarixiy ildizlari.
3. Fuqaroning davlat oldidagi huquq va majburiyatlari.
4. Davlatning o‘z fuqarosi oldidagi huquq va majburiyatlari.
5. Davlat hokimiyatining qonunchilik, ijro qilish va sud hokimiyatiga bo‘linishi haqidagi g‘oyalar.
6. «Xabeas Korpus Akt» va uning ahamiyati.
7. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda o‘zgalar huquqiga va manfaatiga putur yetkazmasligi.

L  
ঃ

## **IX BOB. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK VA UNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

1-§. Fuqarolik tushunchasi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.

3-§. Fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish va yo'qotishning umumiy qoidalari.

4-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish asoslari.

5-§. O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni to'xtatilishi.

6-§. Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari.

7-§. Fuqarolikka oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi.

### **1-§. Fuqarolik tushunchasi**

O'zbekiston Respublikasi demokratik qadriyatlar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplariga sodiqligini namoyon etib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi g'oyalari asnosida har bir insонning fuqarolikka bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Zero, mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, avvalo, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson manfaatlarining to'laqonli himoyasi hamda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan.

*Fuqarolik* – ma'lum bir jismoniy shaxsning muayyan davlat bilan mustahkam, barqaror va uzviy huquqiy munosabatlari mohiyatini anglatuvchi tushunchadir. Ushbu bog'lanish Konstitutsiya va qonunlar asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra davlat va shaxs o'zaro ma'lum miqdordagi huquq hamda majburiyatlarni o'z zimmalariga oladi. Bunda fuqaroning tegishlidavlatga nisbatan barcha huquq va burchlari hamda uning suveren davlat tomonidan himoya qilinishida ifodalanadi. Davlat va shaxsning o'zaro manfaatlaridan kelib chiquvchi ushbu munosabat bir tomonidan kelishuv asosida tuzilgano'ziga xos ittifoq xarakteriga ega, ikkinchidan obyektiv zaruratshaklidagi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, har ikki tomonning ham manfaatlarini qamrab oladi.

Fuqarolik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi yuqorida ta'kidlanganidek, shaxs huquqiy maqomi asosini belgilovchi konstitutsiyaviy-huquqiy institutning muhim tarkibiy

qismi hisoblanadi. Fuqarolikning mayjud bo‘lishi qonun bilan tan olingan barcha huquq va erkinliklarning ushbu shaxsga nisbatan to‘liq tatbiq etilishi hamda shaxsning nafaqat mamlakat ichkarisida, balki tashqarisida ham davlat himoyasida bo‘lishining omilidir.

Mazkur siyosiy-huquqiy aloqa insonning tug‘ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi. Ushbu bog‘liqlik insonning tug‘ilgan va yashayotgan hudud bilan cheklanmay, davlat tashqarisida ham o‘z kuchini yo‘qotmaydi. Fuqarolarning huquq va burchlarini davlatning o‘zi belgilab beradi. Barcha mamlakatlarda fuqarolarning huquq va burchlari ko‘lami bir xil emas. Ular miqyosi ko‘p jihatdan ushbu mamlakatning siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy darajasiga bog‘liqdir.

Davlat va jismoniy shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda eng ko‘p namoyon bo‘ladigan holat fuqarolik maqomi bilan izohlanadi. Muayyan davlatning o‘z fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan bo‘lgan munosabati, o‘zga davlat fuqarosi yoki umuman fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan bo‘lgan munosabatlardan tubdan farq qiladi. Ya‘ni har bir davlat faqat o‘z fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarida muayyan huquq va erkinliklarning mavjudligini e‘tirof etadi. Shu bilan birga, davlat o‘zining shakllanishi va faoliyatini amalga oshirish borasidagi barcha harakatlarida o‘z fuqarolarini bevosita yoki bilvosita ishtirok etishini yoqlab chiqadi. Bu holatda chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ishtiroki maqsadga muvofiq, deb topilmaydi. Ya‘ni davlat hokimiyati faqat o‘z fuqaroligiga tegishli shaxslardan iborat tarzda tashkil topadi.

Odatda, davlatning yurisdiksiyasi<sup>14</sup> faqat o‘z fuqaroligiga mansub shaxslarga nisbatangina to‘liq joriy etiladi. Bir tomondan, fuqarolarning huquq va erkinliklari ushbu davlat tomonidan kafolatlanadi, ya‘ni davlat o‘z fuqaroligiga mansub shaxslarning homysi sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchi tomondan esa, fuqarolar ham o‘z navbatida ushbu mamlakatning davlat hokimiyati tomonidan belgilangan tartib-qoidalarga bo‘ysunadi, uning faoliyatida faol ishtirok etishga, shu davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi hamda milliy manfaatlarini himoya qilish, konstitutsiyaviy tuzumni hurmat qilishga, uning qonuniy talablarini bajarishga mas‘uldir.

---

<sup>14</sup> Лотинча *jurisdiction* – суд мухкамаси; суд округи маъноларини англатади. Одатда, кенг маънода давлат-хукукий фаолиятнинг доираси ёки бошқача килиб айтганда ушбу фаолиятнинг соҳаси ва предмети (худудий доираси) хам айнан юрисдикция деб аталади.

Fuqarolik tushunchasi orqali davlat tushunchasiga ham oydintlik kiritiladi. Zero, davlatning davlat deb tan olinishida *fugarolik instituti* muhim rol o‘ynaydi, ya‘ni davlatning eng muhim belgilaridan biri, unga mansub bo‘lgan shaxslar ya‘ni fuqarolik maqomiga ega insonlarning mavjudligidir. Davlat hokimiyatining asosiy maqsadi va faoliyatining mazmuni jamiyat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lib, davlat ular oldida mas‘uldir.

Davlat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, kishilik jamiyatining rivojlanishi zaminida, insonlarning o‘z huquq va erkinliklari borasidagi kurashlari natijasida fuqarolik g‘oyasi paydo bo‘ldi. Hozir ham fuqarolikka oid maqom bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar dolzarb hisoblanib, davlat va jamiyat darajasida har tomonlama o‘rganib kelinadi.

Jumladan, dunyoda ushbu munosabatlar tobora murakkab tus olmoqdaki, bunga misol qilib, mamlakat tashqarisida ham davlat tomonidan o‘z fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarni keltirish mumkin. Shunday ekan, fuqarolik institutini o‘rganish va takomillashtirish masalalari o‘zining dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmagan.

Fuqarolik maqomi asosida davlat va shaxs munosabatlarining mohiyati ochib beriladi. Fuqarolik maqomiga ega bo‘lgan shaxslar davlat bilan muayyan huquq va burchlar ila uzviy, mustahkam munosabat o‘rnatar ekan, ushbu munosabatlarda har ikki tomon uchun manfaatlar uyg‘unligi tan olinadi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, insonlar kishilik jamiyatining ilk damlaridanoq jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga, ushbu jamiyat a‘zosi sifatida ijtimoiy munosabatlardagi o‘z mavqeyi va huquqiy maqomini anglashga ham intilib kelgan. Siyosiy-huquqiy ongning yuksalishi oqibatida, o‘z huquq va erkinliklarini tiklash borasidagi kurashlari natijasi o‘laroq, ozod va erkin shaxsga aylangan jamiyat a‘zolari mavjud davlat hokimiyatiga ham ta‘sir o‘tkazib bordi.

Kishilik jamiyatining rivojlangan davrida boshlang‘ich bosqich bo‘lib, xalqaro umume‘tirof etilgan normalar ustuvorligining tan olinishi bilan bog‘liq davr tilga olinadi. Bu davrga kelib, fuqarolik tushunchasi keng mohiyat kasb etib, aksariyat davlatlarda fuqarolikka oid normalar xalqaro huquq talablariga mos ravishda rivojlantirildi. Xalqaro huquq ta‘sirida fuqarolik tushunchasi, deyarli barcha davlatlar tomonidan bir xil mazmunda tavsiflandi. Fuqarolik, insonning huquqiy maqomini anglatuvchi tushuncha, huquqiy atama sifatida Yevropadagi burjuva inqiloblari davrida vujudga keldi. Ushbu davrdan boshlab “*fugaro*”

tushunchasi ozod va erkin shaxs ma'nosida qo'llanilib, xalqaro huquq normalarida ko'pincha "*citizen, grajdanin*" terminlari bilan yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasingning ikkinchi bo'limida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari huquqiy jihatdan mustahkamlanib quyilgan. Unda bevosita faqat fuqarolarga tegishli qoidalar aniq ko'rsatib qo'yilgan. Bir vaqtning o'zida ham fuqarolarga, ham fuqaroligidan qat'iy nazar, barcha shaxslarga nisbatan e'tirof etilgan huquq va erkinliklarni mustahkamlashda "har kim", "hech kim", "inson", "har bir shaxs", "hamma", "har bir inson" kabi tushunchalardan foydalanilgan.

Bundan anglash mumkinki, insonlarning tabiiy huquq va erkinliklari turkumiga taaluqli huquqiy maqomdan, respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha insonlar, fuqarolik holatidan qat'iy nazar foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lган shaxslarga insonlarning tabiiy huquq va erkinliklari bilan birga, siyosiy huquq va erkinliklar ham tegishli ekanligi e'tirof etilgan.

"*Fuqaro*" tushunchasiga insonning huquqiy holatini belgilovchi yuridik atama sifatida qaraladi. Insonlarning huquqiy holatidagi farqlar uning fuqarolikka ega yoki fuqarolikka ega emasligi, chet el fuqarosi ekanligi, ko'p fuqarolikka egalik kabi holatlar bilan izohlanadi. Bu holat har bir davlatning milliy qonunchiligidagi, ya'ni ularning tarixiy rivojlanish xususiyatlari, milliy an'analari, urf-odatlari va boshqa omillardan kelib chiqib, o'ziga xos tarzda ifoda etilgan.

O'zbekiston Respublikasi umume'tirof etilgan xalqaro huquq qoidalariga sodiqligini namoyon etib, o'z xalqining azaliy orzu-maqсадларини ro'yobga chiqarish barobarida yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning huquqiy holatini, ularning huquq va erkinliklari hamda majburiyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlanishiga katta e'tibor bermoqda.

Jumladan, Konstitutsiyadagi quyidagi asosiy prinsiplar "...davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-modda)", "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi (4-modda)", "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiysi xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi (7-modda)", "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston

Respublikasining fuqarolari tashkil etadi (8-modda)", "Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda)", "Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas (16-modda)", "... Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin (17-modda)" fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat barpo etish, har bir fuqaroning munosib turmush kechirishiga keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi<sup>15</sup>.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquq fanida fuqarolik bilan bog'liq munosabatlar alohida konstitutsiyaviy-huquqiy institutni tashkil etadi. *Fuqarolik* – jismoniy shaxs va davlatning o'zaro doimiy mustahkam va barqaror siyosiy-huquqiy aloqasini anglatib, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari prinsiplarini tan olish va hurmat qilishga asoslangan muayyan shaxs va davlatning o'rtaсидagi o'zaro huquq, majburiyat va javobgarliklari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

## **2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining konstitutsiyaviy-huquqi asoslari**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilganidan so'ng fuqarolik institutining demokratik talablarga javob bera oladigan qonunchilik bazasi yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (VI bob. Fuqarolik: 21, 22, 23-moddalar) alohida bobda fuqarolik masalalari tartibga solindi, uning asosiy prinsiplari belgilab berildi, 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi 632-XII-sonmaxsus qonuni qabul qilindi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldaggi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-noyabrdagi PF-500-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizom"va boshqa normativ hujjatlar qabul qilindi hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitim va shartnomalari tuzildi.

---

<sup>15</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – 76.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 21-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnataladi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat‘iy nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi”, degan normalar mustahkamlangan.

*Birinchidan*, Konstitutsiyaning ushbu moddasi orqali O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida o‘rnatalgan – yagona fuqarolik prinsipining mazmuni shundaki, O‘zbekiston fuqaroligiga ega shaxslarning boshqa davlatlar fuqaroligiga egaligi yoki ularning ikki fuqaroligi yoki ko‘p fuqaroligi davlatimiz hokimiyati tamonidan tan olinmaydi va shu ma‘nodagi huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi. O‘zbekiston fuqaroligiga ega shaxs, faqat O‘zbekiston fuqarosi, deb hisoblanadi, uning mabodo boshqa davlat fuqaroligini olganligi ma‘lum bo‘lib qolsa, bu holat unga nisbatan O‘zbekiston fuqaroligining to‘xtatilishiga asos bo‘lishi mumkin.

Yagona fuqarolik prinsipining o‘rnatalishi milliy davlatchilikni mustahkamlashga xizmat qilib, O‘zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan harakat, deb tan olinadi. Chunki ikki fuqarolik hamda ko‘p fuqarolikka oid munosabatlар davlatlararo munosabatlarga salbiy ta‘sir etishi mumkin, bundan tashqari, davlat va jamiyat oldidagi mas‘ullik, majburiyat masalalari, masalan, soliq masalasi, harbiy majburiyat, vatanga sodiqlik kabi ko‘plab holatlar bo‘yicha tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

*Ikkinchidan*, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi unga qanday asoslarda ega bo‘lganligidan qat‘iy nazar, hamma fuqarolar uchun tengligi prinsipi dunyo hamjamiyati tamonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan g‘oya asosida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e‘tirof etilgan. Demak, O‘zbekiston fuqaroligini olgan har bir fuqaro, fuqarolarga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquq va erkinlikdan foydalanishda teng huquqlidir. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida “har bir inson o‘z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ”mazmunidagi qoida mustahkamlangan. Ammo eng demokratik mamlakatlardan biri hisoblangan Amerika Qo‘shma Shtatlarida mamlakat prezidentligiga nomzodlik huquqi, faqat tug‘ilishiga

ko‘ra, Amerika Qo‘shma Shtatlari fuqaroligiga ega shaxslarga berilishi, AQSh Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan<sup>16</sup>.

Ushbu prinsipning milliy huquqimizdan o‘rin olishi, Konstitutsiyamizda xalqaro huquq normalarining to‘liq aks etishidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish asoslari qonunda mustahkamlanib, ushbu asoslarning qaysi biridan qat‘iy nazar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan shaxs Konstitutsiya va qonunda e‘tirop etilgan barcha huquq va erkinliklardan foydalanishda hamda majburiyatlarni bajarishda teng huquqlidir. Ushbu qoida Konstitutsiyamizning 18-moddasida belgilangan asosiy prinsipning uzviy davomi hisoblanadi<sup>17</sup>.

*Uchinchidan*, fuqarolik institutiga tegishli yana bir asosiy qoidalardan sanalgan “Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi” mazmunidagi prinsip konstitutsiyaviy tuzumni va millatlararo do‘stlikni mustahkamlashda katta ma‘noga ega.

Uning mazmunidan, birinchedan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat suvereniteti, ikkinchedan, Qoraqalpog‘iston fuqaroligi maqomi e‘tirop etilganligini ko‘ramiz.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari, erkinligi hamda majburiyatlariga tegishli barcha normalar Qorqalpog‘iston Respublikasi fuqarosi huquqiy maqomini ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mustaqillik deklaratsiyasi” va “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi ilk hujjatlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirop etilib, Konstitutsiyamizdagи alohida normalar asosida mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu normalarning uzviy davomi Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqaroligiga tegishli qonunlarda o‘z aksini topgan.

Konstitutsianing 22-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi”. Konstitutsiyamizning mazkur moddasida belgilangan ushbu prinsip davlat hokimiyatining har bir fuqaro oldida mas‘ulligini hamda majburiyat

---

<sup>16</sup>Қаранг АҚШ Конституцияси // Конституции зарубежных государств: Учебное пособие /Сост. проф. В. В. Маклаков. – 2-е изд., испр. И доп. –М.: Издательство БЕК. 1999. 554 б.

<sup>17</sup>Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т. “Узбекистон”, 2017. – 76 б.

olganligini bildiradi<sup>18</sup>. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi bosh g'oyalardan biri davlat organlari va mansabdar shaxslarning har bir fuqaro oldidagi mas'ulligi hisoblanadi. Ushbu g'oyaning uzviy davomi fuqarolarning har doim va qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, uning huquqlari va manfaatlari davlatimiz himoyasida ekanligini belgilovchi prinsipdir. O'zbekiston fuqarosi qayerda bo'lmasin, o'z fuqaroligini saqlab qolish huquqiga ega. O'zbekiston fuqarolari qonunda belgilangan tartibda chet elda vaqtincha yoki doimiy yashayotganligidan qat'iy nazar, o'z fuqarolik huquqiy maqomini saqlab qoladi hamda O'zbekiston Respublikasi himoyasida bo'ladi. Ushbu qoida 1966-yil 19-dekabrdagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda aks etgan prinsiplarga to'la mos keladi. Jumladan, "ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z hududidagi va o'z yurisdiksiyasida bo'lgan shaxslarni mazkur paktda e'tirof etilgan huquqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumladan, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki o'zga holatidan qat'iy nazar, hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladi", deb ko'rsatilgan<sup>19</sup>.

Yana bir muhim konstitutsiyaviy prinsip Asosiy qonunimizning 23-moddasida "*O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lмаган шахсларнинг хукуқи ва еркинліктери xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Улар O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar*", degan konstitutsiyaviy norma shaklida mustahkamlab berilgan. Mazkur konstitutsiyaviy normada fuqarolik instituti bilan bog'liq huquqiy maqomga ega bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган шахсларнинг мақомига oid qoidalar asosi o'rnatilgan<sup>20</sup>.

Unga ko'ra, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган шахсларнинг хукуқи ва еркинліктери xalqaro huquq normalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, idoralari hamda mansabdar shaxslari tomonidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi barcha demokratik davlatlar qatori o'z hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi

<sup>18</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – 76 б.

<sup>19</sup>Международный пакт о гражданских и политических правах // Узбекистан и международные договоры по правам человека (Сборник международных договоров по правам человека, к которым присоединилась Республика Узбекистан), Т.: «Адолат», 1998, 440-бет.

<sup>20</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – 76 .

bo‘limgan shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Ularga tegishli shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarini noqonuniy cheklashga hech kimning haqqi yo‘q. Shu bilan birqalikda, ular ham o‘z navbatida O‘zbekiston xalqi, uning milliy qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalarda belgilangan burchlari oldida mas‘uldir. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari talablarini to‘liq bajarishi, olinadigan daromadalaridan soliq to‘lashi, jamiyat va davlat manfaatlariga zid xatti-harakatlarni amalga oshirmsasligi, atrof-muhitni asrab avaylashi, xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini hurmat qilishlari lozim bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo‘limgan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga mo‘ljallangan istiqomat guvohnomasini beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari qonun yo‘li bilan mustahkamlangan. Unda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligining quyidagi asosiy prinsiplari aks etgan:

- shaxs bilan davlat o‘rtasidagi siyosiy-huquqiy aloqasining doimiyligi;
- har bir kishining fuqaro bo‘lish huquqiga egaligi;
- hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emasligi;
- davlatning (o‘z idoralari va mansabdor shaxslari orqali) va fuqaroning o‘zaro mas‘ulligi;
- fuqarolarning huquq, erkinlik va manfaatlari O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida ham himoya qilinishi;
- fuqarolikni qo‘lga kiritish asoslaridan qat‘iy nazar, barcha uchun tengligi;
- fuqarolar kelib chiqishlaridan, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma‘lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e‘tiqodlaridan, mashg‘ulotining turi va sajiyasi hamda boshqa holatlardan qat‘iy nazar, qonun oldida tengligi;
- fuqarolarning teng huquqliligining barcha sohalarda ta‘minlanishi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasining ham fuqarosi ekanligi;
- nikohdan o‘tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolishi;

- chet elda yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi;
- fuqaroni chet davlatga topshirishga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ikki fuqarolikka yo‘l qo‘yilmasligi – O‘zbekiston fuqarosining chet davlat fuqaroligiga mansubligini tan olmaslik;
- onasi yoki otasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolalarning fuqaroligi;
- fuqaroligi bo‘limgan shaxslar bolalarining O‘zbekiston fuqaroligini olishi;
- fuqarolikdan chiqish erkinligi;
- fuqarolikning to‘xtatilish asoslarini qonunda aniq belgilanganligi;
- fuqarolikni tiklash mumkinligi;
- fuqarolik to‘g‘risidagi ishlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mutlaq vakolatlari;
- xalqaro shartnomalarda milliy qonunchilikda bayon etilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalarining qo‘llanilishi va boshqalar<sup>21</sup>.

Yuqorida fuqarolikka oid eng asosiy prinsiplar sanab o‘tildi. Har bir insonning uzviy huquqlaridan biri “fuqarolik” maqomini olishga bo‘lgan huquqi hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha demokratik davlatlarda insonlarning fuqarolik maqomiga ega bo‘lish asoslari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasiga binoan har bir kishiga O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish huquqi e’tirof etilgan, ya‘ni “hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas” degan printsip mustahkamlangan<sup>22</sup>. Ushbu prinsip halqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidasi asosida fuqarolik institutining ahamiyatini oshirish barobarida bejiz mustahkamlanib qo‘yilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari har bir inson uchun tenglik asosida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar o‘z huquqiy holatiga ko‘ra qonun oldida tengligi prinsipi konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganligini alohida ta‘kidlash lozim. Ya‘ni har bir

<sup>21</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 338-модда; Ўзбекистон Республикаси конуни хужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2015 й., 32-сон, 425-модда, 2016 й., 39-сон, 457-модда.

<sup>22</sup>Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

fuqaro ijtimoiy mavqeい va boshqa holatlardan qat'iy nazar qonun oldida barobar ko'rildi. Ba'zi fuqarolarga beriladigan imtiyozlar faqat ijtimoiy adolat yuzasidan bo'lishi lozim.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan muhofaza qilinib, ularning daxlsizligi prinsipi amalda bo'lismash davlat oldidagi mas'uliyatdir. Shuning uchun ham davlat va fuqaro munosabatlarida huquq va burchlar bilan o'zaro bog'liqlik e'tirof etilgan. Sud hokimiyatining qabul qilgan qaroriga asoslangan hollardagina vakolatli idoralar fuqaroning huquq va erkinligini cheklashi mumkin. Ushbu prinsip "Inson huquqlari Umumjahon deklaratasiyasi"ning bosh qoidalarida bayon qilinib, unga ko'ra insonlarning konstitutsiya va qonun orqali e'tirof etilgan huquqlari buzilgan hollarda, nufuzli milliy sudlar tamonidan bu huquqlarning samarali tiklanishiga bo'lgan huquqi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi unga qanday asoslarda ega bo'lganligidan qat'iy nazar, hamma fuqarolar uchun tengligi prinsipi dunyo hamjamiyati tamonidan qo'llab quvvatlanayotgan g'oya asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'tirof etilgan. Demakki, ushbu prinsipning milliy huquqimizdan o'rinn olishi, Konstitutsiyamizda xalqaro huquq normalarining to'liq aks etishidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish asoslari qonunda mustahkamlanib, ushbu asoslarning qaysi biridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan shaxs Konstitutsiya va qonunda e'tirof etilgan barcha huquq va erkinliklardan foydalanishda hamda majburiyatlarni bajarishda teng huquqlidir. Ushbu qoida Konstitutsiyamizning 18-moddasida belgilangan asosiy prinsipning uzviy davomi hisoblanadi<sup>23</sup>.

Yuqorida aytiganidek, mamlakatimizda fuqarolik shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lismash huquqiga egadir. Qonunga muvofiq, hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi fuqarolikni olish asoslaridan qat'iy nazar barcha uchun tengdir. O'zbekiston

<sup>23</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2017. – 76.

Respublikasining fuqarolari kelib chiqishlaridan, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan, mashg'ulotining turi va sajiyasi hamda boshqa holatlardan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ham ta'minlanadi.

Qoraqpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtida O'zbekiston Respublikasining ham fuqarosidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik masalasi mustaqillik va davlat suvereniteti e'lon qilinishi bilan, suveren davlat belgilaridan biri sifatida fuqarolik institutini huquqiy asoslarini zudlik bilan mustahkamlash zaruratini o'zida ifodalagan edi. O'zbekiston fuqaroligi huquqiy maqomiga kimlar ega ekanligini alohida tamoyil asosida belgilab qo'yish lozimligi tufayli Qonunning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik" tamoyili o'z aksini topdi. Xususan, unda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik masalasi mazkur hujjatning qabul qilinayotgan vaziyat hamda keyingi davr xususiyati har tomonlama e'tiborga olinib, hal etilgan. Shunga ko'ra, quyidagi shaxslar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar:

1) kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi va sajiyasidan qat'iy nazar, ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

2) davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'limasalar va ushbu Qonun kuchga kirganidan (ma'lumot uchun ushbu Qonun 1992-yil 28-iyuldan e'tiboran kuchga kirgan) keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar;

3) qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar. Bugungi kunda mazkur qonunning 4-moddasidagi oxirgi band amal qilib, unga asosan O'zbekiston fuqaroligiga mansublik aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, pasport olingunga qadar esa – tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki shaxsnинг fuqaroligiga doir ma'lumotlar bo'lgan boshqa hujjat – O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining va tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasining namunalari, ularni berish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bu borada 2011-yil 5-yanvardagi PF-4262-sonli “O'zbekiston Respublikasida passport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Prezident Farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasida passport tizimi to'g'risidagi Nizom” tasdiqlanib<sup>24</sup>, Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari” qabul qilingan.

Nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda fuqarolikning saqlanib qolinishi fuqarolik instituti tamoyili sifatida “O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasida o'z aksini topgan, ma'lumki, oila qurish va nikohdan o'tish masalalariga oid xalqaro umume'tirof etilgan qoidalar shaxslarning bu sohadagi huquq va erkinliklarini kafolatlaydi hamda rag'batlantiradi. 1966-yil 19-dekabrdagi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt”ning 23-moddasi oila, erkak va ayol nikohi va uni tuzishda hamda bekor qilinayotgan vaqtida er-xotin huquqi va majburiyati to'g'risidagi qoidalarni o'zida ifodalaydi<sup>25</sup>. Madomiki, nikohdan o'tishda fuqarolik huquqiy holati muammo keltirib chiqarmas ekan, nikoh tuzish va uni bekor qilish holatlari fuqarolikni o'zgarishiga olib kelmaydi. O'zbekiston qonunchiligi er-xotindan birining fuqaroligini o'zgarishi ikkinchisining fuqaroligi o'zgarishiga olib kelmasligini mustahkamlaydi. Buning mazmuni shundaki, mabodo er-xotindan biri o'z fuqaroligini o'zgartirsa, ikkinchisi o'zining hohishiga ko'ra o'z fuqaroligini tanlash huquqini saqlab qoladi.

Chet elda yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolish tamoyilining mazmunidan shuni anglash lozimki, O'zbekiston fuqarosi xorijiy davlatlarda qancha muddat doimiy yashashidan qat'iy nazar, fuqarolik huquqiy maqomidan, qonunda

<sup>24</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2011 йил, 1-2-сон, 2-модда.

<sup>25</sup> Международный пакт о гражданских и политических правах // Узбекистан и международные договоры по правам человека (Сборник международных договоров по правам человека, к которым присоединилась Республика Узбекистан), Т. «Адолат», 1998, 440-бет.

belgilangan tartib va talab bundan mustasno, ajratilishi mumkin emas. Xorijiy mamlakatda doimiy istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarosi uch yil davomida, uzrli sabablarsiz davlatimiz konsulligi hisobida turmasa, buning oqibatida o'z fuqaroligini yo'qotishi mumkin.

Aslida O'zbekiston fuqarosining chet elda yashashi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishiga olib kelmaydi. Zero, chet elda ham O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekiston Respublikasining himoyasi va homiyligidan foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasi, uning diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalari, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari O'zbekiston fuqarolari o'zlariborgan mamlakat qonunlari bilan, O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarosi borgan davlat qatnashayotgan shartnomalar hamda xalqaro odatlar bilan berib qo'yilgan hamma huquqlardan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun choralar ko'rishlari, ularning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini qonunlarda belgilangan tartibda himoya qilishlari, zarur hollarda esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko'rishlari shart.

O'zbekiston "Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga" qo'shilgan, unga asosan respublikaning konsullik tashkilotlari chet davlatlarda O'zbekiston fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosini chet davlatga topshirishga yo'l qo'ymaslik tamoyili ushbu qonunning 8-moddasida mustahkamlab qo'yilgan<sup>26</sup>. Milliy qonunchiligidan ko'ra, basharti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'limsa, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi chet davlatga topshirilishi mumkin emas. O'zbekiston fuqarolarini chet davlatga topshirishga (ekstraditsiya qilishga) yo'l qo'ymaslik tamoyili, mazmunan o'zga davlatlarning hududida, ularning qonunlarida belgilangan jinoyatlarni sodir etgan respublikamiz fuqarolariga nisbatan bildirgan talabi asosida vujudga kelgan faoliyatiga berilgan rad javobini anglatadi. Faqat O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan davlatlararo shartnomalarda boshqacha tartib belgilanmagan holatlar bo'yicha ushbu tamoyil amalda bo'ladi. O'zbekiston fuqarosining chet davlatda amalga

<sup>26</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тұғрисидағы Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахбортономаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

oshirgan jinoiy harakatiga O‘zbekiston hukumati befarq qaramaydi, albatta. Chet elda jinoyat sodir qilgan fuqaro o‘z qilmishiga yarasha jazo olishi muqarrar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlat fuqaroligiga mansubligini tan olmaslik tamoyili ushbu qonunning 10-moddasida e’tirof etilgan<sup>27</sup>. Bundan shuni anglash mumkinki, O‘zbekiston fuqaroligiga ega shaxslarning boshqa davlatlarning fuqaroligiga ham ega bo‘lish holatlari amaliyotda uchrab turadi. Ikki fuqarolik yoki ko‘p fuqarolik bilan bog‘liq masalalarning oqibatida muammolar yuzaga kelmasligini oldini olib, hamda yagona fuqarolik tamoyilining amalda bo‘lishini ta‘minlash maqsadida ushbu tamoyil o‘rnatilgan hamda amal qilib kelmoqda.

Fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning huquqiy holatiga aniqlik kiritish maqsadida, kimlar bunday shaxslar ekanligini ushbu Qonunning 11-moddasidagi tamoyil belgilab bergen<sup>28</sup>. Ushbu tamoyil O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘limgan va o‘zining chet el fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillarga ega bo‘limgan shaxslar fuqaroligi bo‘limgan shaxslar, deb hisoblanishini bildiradi.

### **3-§. Fuqarolikni qabul qilish, o‘zgartirish va yo‘qotishning umumiyligi qoidalari**

Fuqarolikni qabul qilish tartibi, o‘zgartirish va uni yo‘qotish asoslari har bir davlatning ichki qonunchiligi – Konstitutsiyalari, fuqarolikka oid qonunlari va boshqa qonunosti hujjalarda mustahkamlab qo‘yiladi.

Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) *naturalizatsiya* (inglizcha *naturalization*) yo‘li bilan, xalqaro shartnoma asosida va ayrim hollarda – reintegratsiya (qayta tiklanish) orqali va xadya etish yo‘llari bilan amalgalashiriladi.

Fuqarolikni qabul qilishning asosiy yo‘li *tug‘ilish orqali* (lotincha *filialis*) kelib chiqadi, qolgan barcha usullari kam uchraydi. Sababi aksariyat hollarda kishilar tug‘ilishi bilan fuqarolikni qabul qilib, o‘z umri davomida uni o‘zgartirmaydi.

---

<sup>27</sup>“Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

<sup>28</sup>“Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

Tug‘ilish bo‘yicha fuqarolikka ega bo‘lishning ikkita asosiy shakli mavjud:

“*Qondoshlik huquqi*” (lotincha “*jus sanguinis*” – inglizcha “*right of blood*”) asosida farzandning fuqaroligi uning ota-onasining fuqaroligi, ya‘ni majoziy ma‘noda uning tomirida qaysi fuqaroning qoni oqayotgani, kimning avlodи ekanligi bilan belgilanib, bunda fuqarolikni belgilash u tug‘ilgan hududga bog‘lanmaydi. Bu usul Yevropaning ko‘p mamlakatlari, shu jumladan – Avstriya, Norvegiya, Finlandiya, Italiya va boshqalarda amal qilinadi.

“*Yurtdoshlik huquqi*” (lotincha “*jus soli*” – inglizcha “*right of the soil*”) asosiga ko‘ra, fuqarolikni belgilashda urg‘u bolaning tug‘ilgan joyini qaysi davlatga tegishlidan kelib chiqib belgilanadi, bunda tanlov uning ota-onasini fuqaroligi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan, Braziliya qonunchiligidagi belgilanishicha, ushbu davlat hududida tug‘ilgan har bir shaxs Braziliya fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikni qabul qilishning usullaridan biri naturalizatsiya (fuqarolikni qabul qilish) bo‘lib, bu umuman fuqaroligi bo‘lмаган yoki boshqa davlat fuqarosi bo‘lgan shaxs tomonidan fuqarolik olinishi bo‘yicha yuridik jarayondir. Naturalizatsiya tartibda fuqarolik quyidagi hollarda qabul qilinadi: a) fuqaroligi bo‘lмаган yoki fuqaroligini o‘zgartirmoqchi bo‘lgan shaxs so‘rovnomasiga asosan; b) bir davlat fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikohdan o‘tishi asosida; c) fuqaroligi bo‘lмаган yoki boshqa davlat fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda.

Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yoki rad etish davlat tomonidan o‘rnatilgan qoidalar bilan belgilanadi. Naturalizatsiya asosida fuqarolikni berish yakka tartibda yoki manfaatdor shaxs (farzandlikka olishda) roziligi bilan amalga oshadi.

Barcha mamlakatlarning qonunchiligi bir qator cheklanishlarga ega bo‘lib, ular asosida shaxslarga siyosiy, ijtimoiy, diniy, milliy va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda naturalizatsiyada rad etiladi.

*Reintegratsiya* usuli (dastlabki fuqarolikni qayta tiklash) kam uchraydi. Qoida bo‘yicha reintegratsiya jarayonida soddalashtirilgan tartibdagi fuqarolikni qabul qilish tartibi qo‘llaniladi. Bu usulga ko‘pincha naturalizatsiyaning bir shakli sifatida qraladi.

Xalqaro shartnomalar asosida fuqarolik qabul qilish va o‘zgartirish ko‘pincha bunday holatlar tinchlik haqidagi shartnomalar, repatriatsiya (lotincha *repatriate*, aynan vatanga qaytish degan ma‘noni anglatadi) haqida kelishuvlar, hududiy masalalardagi kelishuvlar vaqtida bo‘ladi. Bu

usul bir necha davlatlarning birlashishi bilan bog'liq holda yangi davlat tarkib topishi yoki bir davlat bo'linishi natijasida bir necha davlatlar tuzilishida, bir qism hududning bir davlatda boshqa davlat tasarrufiga o'tishi (sessiya), shuningdek, qo'shni davlatlar o'rtasida alohida hududlarning almashuvi chog'ida amalga oshiriladi.

Hududiy o'zgarishlar vaqtida ko'ngilli ravishda fuqarolik tanlash (optatsiya), o'zgartirish (ko'chirish vaqtida), avtomatik tarzda fuqarolikning o'zgarishi (transfert) bo'lishi mumkin. Transfert vaqtida bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud aholisining, xohishidan qat'iy nazar, bir davlatdan ikkinchisiga o'tar edi. Transfert kam uchraydi.

Fuqaroligi bo'limgan shaxslarga alohida hollarda yuksak xizmatlari uchun davlat boshlig'i tomonidan beriladigan *xadya etilgan fuqarolik* deb ataluvchi institut ham mayjud.

Aksariyat davlatlarning qonunchiligi fuqarolikdan chiqish imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, fuqaroning tashabbusiga ko'ra fuqarolikni tugatilishi – *fuqarolikdan voz kechish*, davlatning tashabbusiga ko'ra fuqarolikni tugatilishi – *fuqarolikdan mahrum etish*, bir fuqarolikdan ikkinchi fuqarolikka o'tishi yoxud davlat hududi chegaralarining o'zgarishi natijasida *fuqarolik almashtirilishi* (*o'zgarishi*) mumkin, *ekspatriatsiya* insonning vaqtinchalik yoki umuman uni fuqarolikdan mahrum qilgan holda mamlakatdan chiqarib yuborilishi shakllari uchraydi.

#### **4-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquqiy maqomiga oid normalar eng markaziy o'rnlarni egallagani mamlakatimizda fuqarolik institutiga davlat tomonidan o'ta jiddiy yondoshilganidan darak beradi. Binobarin, har bir demokratik davlat faoliyatining mazmuni, avvalo, o'z fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Fuqarolik holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi oqibatida fuqarolarning davlat bilan mustahkam huquqiy munosabatiga asos solindi. Konstitutsiyamizda yagona fuqarolik, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, barcha insonlarning teng huquqliligi, davlat o'z fuqarolarning homysi ekanligi kabi tamoyillar o'rnatilganki, bu o'z navbatida fuqarolarning davlat hokimiyati bilan bo'ladigan munosabatlarida o'zaro hurmat va mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantiradi.

Umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida davlat hududidagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni fuqarolikka olishga undovchi qoidalar mavjud. Shuning uchun ham har bir davlatda, albatta huquqiy tartibga solinishi zarur bo'lgan fuqarolik institutining tarkibiy qismi – fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslarining qonun darajasiga ko'tarilishi o'ta muhim hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lishdan har bir inson manfaatdor bo'lganidek, fuqarolik institutini rivojlantirishdan ham har bir davlat manfaat ko'radi. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari qonun bilan belgilanishi tamoyili Konstitutsiyamizda mustahkamlanib qo'yilgan. Milliy qonunchiligidizda fuqarolik holatini tan olish faoliyati bilan shug'llanuvchi davlat hokimiyati organlari va mansabdar shaxslar doirasi, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"<sup>29</sup>gi Qonunida batafsil belgilab qo'yilgan<sup>29</sup>. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish asoslari va tartibi xalqaro huquq normalari talabi darajasida ifoda etilgan.

Qonunda fuqarolikni olish, fuqarolikning to'xtatilish tartibi, otonalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi masalasi, shuningdek, fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi davlat organlari va ularning vakolatlari doirasi, fuqarolik masalalariga oid ariza va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartibi, fuqarolik masalalariga oid qarorlarning ijrosi, mansabdar shaxslarning fuqarolik masalalariga oid noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi, shuningdek, mamlakatimizning fuqarolik masalalari bo'yicha xalqaro va davlatlararo shartnomalarda ko'zda tutilgan munosabatlari tartibga solingan<sup>30</sup>.

O'zbekiston fuqaroligiga shaxsning kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holati, irqi, millati, jinsi, ma'lumoti, tili, denga munosabati hamda siyosiy va boshqa e'tiqodidan qat'iy nazar, "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"<sup>29</sup>gi Qonun kuchga kirgan vaqtida turli obyektiv va boshqa hayotiy sharoitlarga ko'ra mamlakat tashqarisida bo'lgan mahalliy aholi, shuningdek, boshqa mamlakatlarda tug'ilib-o'sib, O'zbekistonni o'z Vatani sifatida dildan tan olgan, uning taraqqiy etishi va gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo'shganlar qabul qilinishi mumkin.

---

<sup>29</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида"ти Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

<sup>30</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида"ти Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

Milliy qonunchiligidagi muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga quyidagi hollarda olinadi: 1) tug'ilganda; 2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida; 3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha; 4) qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

Jumladan, ota-onasi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lган bolalarning fuqaroligi quyidagicha belgilanadi, ya'ni tug'ilgan paytda ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, bola O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lган quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi: 1) agar u O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa; 2) agar u O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsayu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtida O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lган bo'lsa, agar bu vaqtida ota-ona O'zbekistondan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lган bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bolaning fuqaroligi ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lган, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lган yoxud noma'lum bo'lган taqdirda, bola qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Onasining fuqaroligi bo'lмаган bolaning otasi belgilanib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, 14 yoshga etmagan bola, qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligi fuqaroligi bo'lмаган shaxslar bolalarining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi masalasiga insonparvarlik prinsipidan kelib chiqib, yondashgan. Xususan, fuqaroligi bo'lмаган, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega

bo‘lgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan bolasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi<sup>31</sup>.

Shuningdek, ota-onasi noma‘lum bo‘lgan va O‘zbekiston hududida yashayotgan bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Milliy qonunchiligmizda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning demokratik tartibi belgilangan. Masalan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar o‘z iltimosnomalariga ko‘ra ushbu Qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma‘lumoti, tilidan, dingga munosabatidan, siyosiy va boshqa e‘tiqodlaridan qat‘iy nazar, O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat: 1) chet el fuqaroligidan voz kechish; 2) so‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik.Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu erda tug‘ilgan va hech bo‘lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo‘lmaydi; 3) qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi; 4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Ayni paytda yuqorida 1, 2 va 3-bandlarda qayd etib o‘tilgan talablar alohida hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo‘lgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan olinmasligi mumkin<sup>32</sup>.

Agar shaxs O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik ishlatib o‘zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo‘lsa;faoliyati O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan partiyalar va o‘zga tashkilotlarga a‘zo bo‘lsa; O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlar uchun ozodlikdan mahrum etilgan va jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, uni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosnomasi rad etiladi.

<sup>31</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида “ти Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

<sup>32</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида “ти Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9, 338-модда.

Umum e'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplariga mos ravishda ilgari O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan shaxs o'z iltimosnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi Qonun talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklanishi mumkin.

Fuqarolikni yo'qotish asoslari Qonuning 21-moddasida hamda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida Nizom"<sup>33</sup>da quyidagicha belgilangan, unga ko'ra:

*birinchidan*, shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida vujudga keladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan uning chet el davlati armiyasiga harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmatiga, shuningdek, politsiyasiga, adliya organlariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlariga ishga kirganligini tasdiqlovchi hujjatlar yoxud boshqa ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda. Bu holda, Konsullik muassasalari hujjatlarni TIVga (bundan buyon matnda TIV) yuboradilar, TIV olingen ma'lumotlarni va Ichki ishlar vazirligi (bundan buyon matnda IIV) hamda Davlat xavfsizlik xizmatining (bundan buyon matnda DXX) xulosalarini o'zining hujjatlari va xulosasi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadi;

*ikkinchidan*, agar chet elda doimiy yashovchi shaxs uch yil ichida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa, vujudga keladi. TIV va IIV hamda konsullik muassasalarining hujjatlari asosida hujjatlar va xulosani ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yuboradi. Bunda uch yillik muddat tartibi faqatgina 16 yoshga to'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi, ularning ota-onalari yoki ulardan birining iltimosnomasi berganligi hollari bundan mustasno. Iltimosnomaga 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning notarial tasdiqlangan roziligi ilova qilinadi. Konsullik muassasasi rahbari holatga qarab obyektiv

---

<sup>33</sup>Узбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 20 ноябрдаги ПФ-500-сон Фармони билан тасдиқланган "Узбекистон Республикасининг фуқаролиги билан боғлик масалаларни кўриб чиқиш тартиби тургисида Низом" (VIII-бўлим Узбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 26 февралдаги ПФ-2240-сонли Фармони асосида 5-банд билан тўлдирилган) // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 3-сон, 65-модда.

ma'lumotlarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'z vaqtida konsullik hisobiga turmaganlik sabablarining uzrli ekanligiga mustaqil baho beradi;

*uchinchidan*, agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etish natijasida olingen bo'lса, vujudga keladi. Ichki ishlар organлari yoki konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi oldindan bila turib yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etish natijasida olingenligi haqida ma'lumotlar yoki arizalar kelib tushgan taqdirda, shaxsning haqiqatdan ham O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligini aniqlash uchun zarur tekshiruvlarni olib boradilar. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi oldindan bila turib yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etish natijasida olingenligi holati tasdiqlangan taqdirda, IIV yoki TIV hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadilar<sup>34</sup>;

*to'rtinchidan*, agar shaxs chet davlat foydasini ko'zlab faoliyat yuritish yoki tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etish orqali jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy zarar etkazgan 'bo'lса, vujudga keladi. Shaxsning chet davlat foydasini ko'zlab, faoliyat yuritish yoki O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismi ikkinchi bo'limida nazarda tutilgan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etish natijasida jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon etkazganligini tasdiqlaydigan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan hujjatlar shaxsning fuqaroligini yo'qotish yuzasidan tashabbuskor organning asoslantirilgan taqdimnomasi bilan birga IIVga yuboriladi. O'z navbatida IIV fuqarolikni yo'qotish tashabbusi yuzasidan hujjatlar nusxalarini TIV va DXXga taqdim etadi. Ushbu tashkilotlar kelib tushgan hujjatlar asosida o'zlarining xulosalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadilar. IIV fuqarolikni yo'qotish haqidagi xulosani tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadi;

*beshinchidan*, agar shaxs chet davlatning fuqaroligini olgan bo'lса, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotishga olib keladi<sup>35</sup>. Chet

---

<sup>34</sup> Уша жойда.

<sup>35</sup> Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида"ти Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1992 й., № 9, 338-модда.

davlatning fuqaroligini qabul qilgan shaxs ushbu fakt haqida o'ttiz kun ichida O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar idoralariga yoki chet eldag'i konsullik muassasalariga xabar berishi shart. Bu holda, manfaatdor vazirlik va idoralar chet elda doimiy yashovchi fuqarolarga nisbatan hujjatlarni TIVga yuboradilar. TIV hujjatlarni va IIV hamda DXXning xulosasini qabul qilib, ularni o'zining hujjatlari va xulosasi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadi. Manfaatdor vazirlik va idoralar O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqarolarga nisbatan hujjatlarni IIVga yuboradilar. IIV hujjatlarni va TIV hamda DXXning xulosasini qabul qilib, ularni o'zining hujjatlari va xulosasi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga taqdim etadi.

Yuqoridaqilarga qo'shimcha ravishda manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga ko'rib chiqishga taqdim etiladigan xulosalar asoslantirilgan bo'lishi talab etiladi. Xulosalarda quyidagi ma'lumotlar alohida ko'rsatilishi kerak: shaxsning davlat oldidagi bajarilmagan (ijro etilmagan) majburiyati yoki fuqarolar yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining jiddiy mansaatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy majburiyati mavjudligi; shaxsning ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilganligi; shaxsning qidiruvda ekanligi; shaxsga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro qilinishi lozim bo'lgan sud hukmining mavjudligi; shaxsning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ozodlikdan mahrum qilish joylarida ekanligi; shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligining manfaatlariga nomuvosiq ekanligi<sup>36</sup>.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotishni rasmiylashtirish masalalariga oid hujjatlarni tayyorlashda fuqarolikni yo'qotgan deb topilayotgan shaxsni bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida xabardor qilish choralar ko'rildi. Xabardor qilish o'rnatilgan tartibda shaxsning yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi. Shaxsning turar joyi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, uning oxirgi yashash

<sup>36</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 20 ноябрдаги ПФ-500-сон Фармони билан тасдиқланган “Узбекистон Республикасининг фуқаролиги билан боғлик масалаларни кўриб чиқиши тартиби тўғрисида Низом” (VIII-бўлим Узбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 26 февралдаги ПФ-2240-сонни Фармони асосида 5-банд билан тўйдирилган) // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 3-сон, 65-модда

joyi bo'yicha fuqarolarning o'zinio'zi boshqarish organlarini yoki yaqin qarindoshlarini xabardor qilish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqqan kundan boshlab yo'qotiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining yo'qotilganligi fakti "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 31 va 32-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida shaxsning doimiy yashash joyi bo'yicha ichki ishlar organlari tomonidan, chet elda doimiy yashovchi shaxslar uchun esa, konsullik muassasalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

### **5-§. O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni to'xtatilishi**

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida. *Fuqarolikdan chiqish* – shaxsning o'z irodasiga ko'ra fuqarolikning bekor bo'lishini anglatadi. Odatda, fuqarolikdan chiqish fuqaroning iltimosi bo'yicha amalga oshiriladi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida. Mohiyatan bu prinsipning mazmuni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotish – bu manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan rasmiylashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining tugatilishidir. Bu holat asosiy bosh tushunchada keltirilgan shaxsning davlat bilan doimiy siyosiy-huquqiy aloqada bo'lish prinsipini bir tomonlama buzilishiga javob tariqasida qo'llaniladigan choradir. O'zbekiston Respublikasi IIV hamda TIVning 2017-yil 7-iyuldagи 28 va 21-son qarorlari bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligidan 2017-yil 1-avgustda 2909-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotishni rasmiylashtirish masalalariga oid hujjatlarni tayyorlash tartibi to'g'risida"gi Yo'rinqoma asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish masalaiari yuqoridaq paragrafda batafsil bayon etilgan;

3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;

4) Ushbu Qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishi Qoraqpog'iston Respublikasi fuqaroligining to'xtalishiga sabab bo'ladi.

Ushbu Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog'liq mulkiy majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lган sud hukmi bo'lsa yoki shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariga zid bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko'rib chiqish tartiblarini keyingi paragraflarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Shu bilan birga mamlakatimiz qonunchiligidagi ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi qanday bo'lishi masalalasi ham tartibga solingenan.

Jumladan, Qonunning 22-moddasida ota-onalarining fuqaroligi o'zgargan taqdirda bolalar fuqaroligining o'zgarishi quyidagicha: ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganligi natijasida ularning har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o'tganida yoki har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqanida, o'z navbatida ularning 14 yoshga to'imagan bolalarining fuqaroligi ham o'zgaradi.

Agar bolaning ota-onasidan biri ma'lum bo'lsa, ana shu ota yoki onanining fuqaroligi o'zgarganida 14 yoshga to'imagan bolaning fuqaroligi ham tegishli suratda o'zgaradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bolaning ota-onasi yoki yolg'iz otasi yo bo'limasa onasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsalar va ayni vaqtida ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vasiylikka yoki homiylikka olgan bolaning tarbiyasida ishtirok etmasalar, ota-onasi, vasiy yoki homiyning iltimosiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa chet el fuqarosi bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onanining iltimosnomasiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo'Imagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston hududida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo'Imagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Qonunning 25-moddasida ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqan taqdirda bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi belgilangan. Jumladan, agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra, bunday bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga ruxsat etilishi mumkin.

Chet el fuqarosi yoxud fuqaroligi bo'Imagan shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi. Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi bo'Imagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola ham O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Shuningdek, fuqaroligi bo'Imagan, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi. Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola esa farzandlikka oluvchilarining kelishuviga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Bundan tashqari, chet el fuqarosi bo'lgan, ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan farzandlikka olinayotgan bola boshqa davlat fuqaroligidan chiqqan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Qonunda yana bir muhim masala, ya'ni O'zbekiston fuqarosi bo'lgan, chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olingan yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olingan bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qolishi belgilangan. Farzandlikka oluvchilarining

iltimosnomasiga ko'ra bunday bolaning O'zbekiston fuqaroligidan chiqishiga ruxsat berilishi mumkin.

O'zbekiston fuqarosi bo'lgan, bolani fuqaroligi bo'Imagan shaxslar tomonidan farzandlikka olingen yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi fuqaroligi bo'Imagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olingen bola O'zbekiston fuqaroligini saqlab qoladi. Ota-onalarining fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek, bolalar farzandlikka olingen taqdirda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasida ko'zda tutilgan tartibda faqat bolalarning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkinligi belgilangan.

#### **6-§. Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari**

"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari tizimi belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Prezidenti; O'zbekiston Respublikasi IIV; O'zbekiston Respublikasi TIV, O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fuqarolik masalalarini hal etishda davlat boshlig'ining o'rni beqiyos. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolik masalalari bo'yicha qarorlar chiqaradi va farmon qabul qiladi.

#### ***O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik to'g'risidagi ishlar bo'yicha vakolatlari:***

- 1) O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;
- 2) chet elda yashayotgan ajnabiylar fuqarolar va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli iltimosnomasi bilan murojaat etgan taqdirda ularni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;
- 3) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to'g'risida;
- 4) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida;
- 5) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bundan tashqari, alohida hollarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi oldida juda katta xizmatlari bo'lgan yoki fan, texnika va madaniyat sohasida yuksak yutuqlarga erishgan, shuningdek, respublika uchun qiziqarli kasb va malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslar "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan talablar hisobga olinmay, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilinishlari mumkin.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi oldidagi juda katta xizmatlar deyilganda quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining Oliy organlari bergen ordenlar, medallar, faxriy unvonlar, hukumat faxriy yorliqlari va ularga teng keladigan rag'batlantiruvchi hujjatlarning borligi tushuniladi.

Fan, texnika va madaniyat sohasidagi yuksak natijalarga erishganlik deyilganda shaxs milliy, xalqaro mukofotlarga, rag'batlantirishning boshqa turlariga yoki o'z ixtisosи bo'yicha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishga, o'z tarmog'i bo'yicha xalqaro tadbirdorda jyuri a'zosи sifatida ishtirok etishga erishganligini, turli xalqaro tashkilotlarda haqiqiy va faxriy unvonlari borligini tushuniladi.

Ushbu toifadagi shaxslar arizada o'z ixtisosи bo'yicha faoliyatini davom ettirish muddaosini, bu faoliyatni respublika uchun muhimligi va ahamiyatliligin ko'rsatishlari talab etiladi. Shuningdek, respublika uchun qiziqarli bo'lgan kasb yoki malakaga ega bo'lgan shaxslar tegishli diplom yoki guvohnoma, shuningdek, o'z faoliyati sohasida u eng yuqori natijalarga erishganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari lozim. O'zbekiston Respublikasi uchun qiziqarli bo'lgan kasblar va malakalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### ***IIV va uning tegishli vakolatli idoralari vakolatlar:***

1) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi. Doimiy yashash holati pasportda doimiy ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi belgi borligi bilan tasdiqlanadi. Qayd etish tartibini O'zbekiston Respublikasining IIIV belgilaydi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizani zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yo'llaydi;

4) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan hollarni qayd etadi.

**TIV, diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalari vakolatlari:**

1) chet ellarda doimiy yashab turgan shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizalarni zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yo'llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligini qayd etadi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi<sup>37</sup>.

Fuqarolik to'g'risidagi Qonunni 41-moddasida fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etuvchi idoralar aniqlashtirilgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan fuqarolik masalalariga oid qarolarning ijrosi IIV va uning tegishli idoralari, fuqarolik holatini qayd etish bo'limlari, chet elda yashovchi shaxslarga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasining TIV zimmasiga, O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalari zimmasiga yuklatiladi.

Bundan tashqari, pasportlar va istiqomat uchun guvohnomalar berish masalasi qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar idoralari, yoki diplomatiya vakolatxonalarini yoxud konsullik muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasporti topshiriladi. 16 yoshga etmagan bolalarning hujjatlariga ularning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi yozib qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida yashab turgan lekin O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi

---

<sup>37</sup>Узбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси 1992 й. №9. 338-модда.

bo'Imagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlar ijrosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasi tomonidan, shuningdek, boshqa vakolatli idoralar tomonidan o'z huquqlari doirasida nazorat etiladi.

### **7-§. Fuqarolikka oid arizalar va taqdimnomalarini ko'rib chiqish tartibi**

Yurtimizda fuqarolikka oid murojaatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beruvchilarning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari orqali, chet elda doimiy yashovchi shaxslar tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatiya vakolatxonalar yoki konsullik muassasalari orqali topshiriladi.

Chet davlat fuqarosi bo'lgan shaxs o'z fuqaroligini o'zgartirish niyatiga mazkur davlatning munosabatini ko'rsatuvchi hujjatni taqdim etishi shart.

*Fuqarolik masalalariga oid arizalarning shakli.* O'zbekiston fuqaroligiga olish, fuqarolikka tiklash yoki undan chiqish to'g'risidagi iltimosnomalar arizachining yozma iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

Bunda, 18 yoshga to'Imagan shaxslar xususidagi iltimosnomalar ular vakillarining notarial idoralari tomonidan, chet elda esa O'zbekistonning tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan qonuniy vakillarining iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli ariza topshirish chog'ida ularning roziligi bo'lishi talab etiladi. Bunday rozilik yozma bayon etilishi va notarial idoralari tomonidan, chet elda esa O'zbekistonning tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Voyaga etmagan bolaning O'zbekiston fuqaroligidan chiqishi to'g'risida iltimosnoma topshirganda, basharti uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib, qoladigan bo'lsa, uning o'z bolasining O'zbekiston fuqaroligidan chiqishiga munosabati bildirilgan arizasi ham taqdim etilishi kerak. Bunday ariza notarius tomonidan, chet elda esa O'zbekiston diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Basharti ariza beruvchi savodsizligi yoki jismoniy kamchiliklari sababli arizani imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan boshqa kishi arizani imzolaydi, bu haqda ichki ishlar idorasi, chet elda esa O'zbekiston

Respublikasi tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi tomonidan arizaga yozib qo'yiladi.

*O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni aniqlash tartibi.* Shaxsning fuqarolikka mansubligi to'g'risidagi ariza uning doimiy istiqomat joyida ichki ishlar idorasiga, chet elda doimiy yashaydigan shaxs tomonidan esa O'zbekistonning tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoki konsullik muassasasiga beriladi.

Mansublikni aniqlashda, shaxsning O'zbekiston fuqaroligiga mansubligi bilan bog'lanayotgan vaziyat boshlangan paytda amal qilib turgan qonun hujjatlari hamda O'zbekiston tuzgan xalqaro shartnomalarning qoidalari qo'llaniladi.

*Fuqarolik masalalariga oid arizalarni rasmiylashtirish tartibi.* O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalar ariza beruvchi shaxsan murojaat etgan taqdirda uning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari, chet elda doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan esa O'zbekistonning tegishli diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Uzrli sabablar bo'lgan taqdirda tegishli idora va muassasalar hujjatlarni boshqa shaxslar yoki pochta orqali yuborilgan arizalarga muvofiq rasmiylashtirishlari shart.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar berilganda davlat boji to'lanadi, uning miqdori O'zbekiston qonunlari bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sон qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boji stavkalari"ga muvofiq, fuqarolika qabul qilish yoki fuqarolikdan chiqarish to'g'risidagi arizalardan eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida davlat boji olinadi.

*Fuqarolik masalalariga oid arizalar yuzasidan xulosalar.* Fuqarolik masalalariga oid arizani rasmiylashtirayotgan ichki ishlar idorasi yoki tegishli diplomatiya vakolatxonasi yoxud konsullik muassasasi mazkur ariza yuzasidan asoslangan xulosasini chiqaradi.

O'z navbatida IIV va TIV fuqarolik masalalariga oid arizalar yoki taqdimnomalar yuzasidan o'z xulosalarini hamda boshqa zarur hujjatlarni Prezident huzuridagi fuqarolik masalalari komissiyasi nomiga yuboradi. Fuqarolikdan chiqish to'g'risidagi arizalarga oid xulosalarda arizachining davlat oldida bajarilmay qolgan majburiyatlar yoki uning fuqarolar yoxud davlat, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlari muhim manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkiy majburiyatlar xususidagi, uni ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi, yoxud unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan, ijro etilishi lozim bo'lgan hukmi mavjudligi

haqidagi yo bo‘lmasa mazkur shaxsning O‘zbekiston fuqaroligidan chiqishi respublika davlat xavfsizligi manfaatlariga zidligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham xabar qilinadi.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasi.* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolikka oid masalalarini dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun Fuqarolik masalalari Komissiyasini tuzadi. Komissiyani O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat muassasalarining ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning, ilmiy-ijodiy jamiyatlar hamda jamoatchilikning vakillaridan iborat tarkibda 5 yil muddatga tashkil etadi<sup>38</sup>. Komissiya jamoatchilik asosida ishlaydi. Komissiya a‘zolariga o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘lik xarajatlar qoplanadi. Komissiyaning majlisi materiallar tayyorlanishiga qarab chaqiriladi, uning majlisini Komissiya raisi yoki uning topshirig‘iga binoan rais o‘rinbosari o‘tkazadi. Komissiya o‘z a‘zolarining uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda u huquqiy vakolatga ega deb hisoblanadi va qaror hozir bo‘lgan komissiya a‘zolarining ko‘pchilik qovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lib qolganida ariza rad qiliňgan hisoblanadi. Komissiya qarorlari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi hamda komissiyaning majlisida qatnashgan barcha a‘zolari tomonidan imzolanadi. So‘ng Komissiya o‘rganilgan materiallar asosida Prezident qaror qabul qilishi uchun takliflar kiritadi.

*Ariza va taqdimnomalarining Fuqarolik masalalari Komissiyasida dastlabki tarzda ko‘rib chiqilishi.* Fuqarolik masalalariga oid arizalar va taqdimnomalarni ko‘rib chiqish paytida Komissiya ariza beruvchining dalillarini, taqdimnomaning mazmunini, davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining xulosalarini, boshqa hujjatlarni hamda tegishli tarzda rasmiylashtirilgan guvohlar ko‘rsatmalarini atroflicha baholaydi.

Basharti, shaxs Qoraqalpog‘iston Respublikasiga borib yashamoqchi bo‘lsa, Komissiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining uni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul etish yoki uning fuqaroligini tiklash maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi, shu jumladan respublikada unga ish, turar-joy va boshqa quylayliklar berish imkoniyati bor-yo‘qligi haqidagi fikrini e‘tiborga oladi.

---

<sup>38</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 20 ноябрдаги ПФ-500-сон фармони билан тасдиқланган “Узбекистон Республикасининг фуқаролиги билан боғлиқ масалаларни кўриб чиқиши тартиби тўғрисида”ги Низом.

Komissiya o‘z ixtiyoridagi ish yuzasidan materiallar va hujjatlarni tegishli davlat idoralari va jamoat tashkilotlaridan talab qilib olishga haqlidir, bu davlat idoralari va jamoat tashkilotlari esa komissiya belgilagan muddatda zarur ma‘lumotni taqdim etadilar.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar yoki taqdimnomalarni ko‘rib chiqish muddati bir yildan oshmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining IIV va TIV O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalariga oid farmonlari qanday bajarilayotganligi to‘g‘risida yiliga ikki marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari Komissiyasiga axborot berib turadilar.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fuqarolik masalalariga oid qarorlarning qabul etilishi.* Fuqarolik masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlar chiqaradi. Agar farmonda boshqa muddat belgilangan bo‘lmassa, fuqarolikdagi o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqarilgan kundan boshlanadi.

Mamlakatimizda fuqarolikka oid ishlarni ko‘rib chiqilishi amaliyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lidan – ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillariga asoslangan, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan qat‘iyat bilan borayotganini e‘tirof etish lozim. O‘zbekiston ratifikatsiya qilgan ilk xalqaro-huquqiy hujjat – Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasida har bir inson fuqarolik huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyamizda fuqarolika qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat‘iy nazar, respublikaning butun hududida hamma uchun teng bo‘lgan yagona fuqarolik belgilab berilgan. O‘zbekiston hududi va uning tashqarisida davlat o‘z fuqarolarining huquqiy himoyasi va muhofazasini ta‘minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda fuqarolik berish to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqish va bunday yuksak unvonga munosib shaxslarni, eng avvalo “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirgan vaqtida turli obyektiv va boshqa hayotiy vaziyatlarga ko‘ra chet elda bo‘lgan respublikaning mahalliy aholisi orasidan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida asosli qarorlar qabul qilish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur chorralarning amalga oshirilishi xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan printsiplariga to‘la mos keladi va o‘zbek zaminida

tug‘ilib, o‘sib-ulg‘aygan hamda Vatanimizning taraqqiyoti va ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan shaxslarning manfaatlarini nazarda tutadi.

Birgina, 2016-yil dekabr oyidan 2018-yilning sentabriga qadar bo‘lgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 22-bandи, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17- ва 30-moddalariga muvofiq imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida”gi farmonlar asosida 2100 dan ortiq shaxsning arizalari qanoatlantirilib, ular O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan. Ularning aksariyatini fuqaroligi bo‘limgan shaxslar tashkil etadi. Ma‘lumot uchun 1992-yildan to 2016-yilga qadar tushgan murojaatlarning 500 ga yaqini qanoatlantirilgan xolos.

Fuqarolik masalasiga oid takroriy ariza, qoida tariqasida, shu masalaga oid avvalgi qarordan keyin bir yil o‘tgach ko‘rib chiqiladi. Ish uchun muhim bo‘lgan hamda ariza beruvchiga ma‘lum bo‘limgan va ma‘lum bo‘lishi mumkin bo‘limgan vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda takroriy ariza ilgariroq ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Fuqarolik masalalariga oid arizalarni qabul qilishdan asossiz bosh tortganlik, arizani ko‘rib chiqish muddatlari buzilganlik, shuningdek, mansabdor shaxslarning fuqarolik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish tartibini va fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etish tartibini buzadigan boshqa nohaq xatti-harakatiari xususida ular bo‘ysunadigan yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. “Fuqarolik” tushunchasi nimani anglatadi?
2. Qanday shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘la oladilar?
3. Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) qanday usul va asoslarda amalga oshiriladi?
4. “Filiatsiya”, “naturalizatsiya”, “reintegratsiya” atamalari ma‘nolari nimalarni anglatadi?
5. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi masalalar qaysi hujjatlar bilan tartibga solingan?
6. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari bilan qaysi davlat organlari shug‘ullanadi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari Komissiyasi faoliyati to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

## X BOB. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLER

- 1-§. Shaxsiy huquq va erkinliklarning mohiyati va turlari.
- 2-§. Yashash huquqi va uning kafolatlanishi.
- 3-§. Shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi.
- 4-§. Aybsizlik prezumpsiyasi huquqi.
- 5-§. Himoyalanish, inson huquqlarini muhofazalanishi va qadr-qimmatining hurmat qilinishi huquqi.
- 6-§. Erkin ko'chib yurish huquqi.
- 7-§. Fuqaroning so'z va fikrlash erkinligi huquqi.
- 8-§. Fuqarolarning huquq va manfaatlariiga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi.
- 9-§. Vijdon erkinligi huquqi.

### **1-§. Shaxsiy huquq va erkinliklarning mohiyati va turlari**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida inson huquq va erkinliklarni ta'minlashning samarali mexanizmini yanada takomillashtirilishini taqozo etmoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur islohotlarning mazmun va mohiyatini belgilashda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliv yuridik kuchga ega bo'lgan, mamlakat xalqining erkirodasini o'zida ifodalagan, demokratik tamoyillarni o'ziga singdirgan, inson huquq va erkinliklarni ta'minlanishini kafolatlagan, qolaversa davlat organlari faoliyatining asosiy yo'nalish va faoliyatini belgilab bergen Asoziy qonundir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik mahsuli bo'lib, umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan va xalq manfaatlari negizida yaratilganligi bois, u demokratik andozalarga to'liq mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi" deya mustahkamlab qo'yilgan. Darhaqiqat, Konstitutsiyaning butun mazmun-mohiyatida ustuvorlik qiladigan o'zak masala – bu insonning oliv qadriyati, bebaaho boylik bilib, uning haq – huquqlari, erki, qadr – qimmatini ustuvor o'ringa qo'yishdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har

bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va faroven hayot kechirishini, o‘z taqdirining egasi bo‘lishini huquqiy ta‘minlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, ular turli sohalarda o‘z ifodasini topib kelmoqda. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat organlari va uning mansabdor shaxslarining eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohotlarining eng muhim vazifasi ham qonuniylikni ta‘minlash, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta‘qib va xususiy hayotga aralashishdan himoyalanish, shaxsiy daxlsizlik huquqlari samarali muhofaza etilishini ta‘minlash hisoblanadi.

Konstitutsiyani barcha bilishi, uning normalariga rioya etishi va hurmat qilishi lozim. Shundagina demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun mustahkam zamin yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhim va birlamchi huquq va erkinliklar, bu so‘zsiz shaxsiy huquq va erkinliklardir. Zero, kishilarning shaxsiy huquq va erkinliklari ta‘minlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta‘minlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzviy davomi sifatida qarash lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini “shaxs-jamiyat-davlat” tizimi aks ettiradi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir”<sup>39</sup> deb ta‘kidlaganligi shaxsiy huquq va erkinliklarni amalga oshirishga tegishli.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va farovon hayot kechirishini, o'z taqdirining egasi bo'lishini huquqiy ta'minlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib, ular turli sohalarda o'z ifodasini topib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining negizi hisoblangan shaxsiy huquq va erkinliklar to'g'risidagi normalar mustahkamlangan. Ta'kidlash joizki, shaxsiy huquq va erkinliklar turkumi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarining bosh o'rnini egallaydi.

Zero, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ta'minlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlariada mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy soh'alardagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzviy davomi sifatida qarash lozim.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash fuqarolik jamiyatni qurish yo'lini tanlagan har qanday davlatning ajralmas belgisidir. Uning amalga oshirilishi, shaxsning, davlat va uning organlari bilan huquq-tartibot hamda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi munosabatlarini, insonning hayotiy faoliyati uchun juda muhim bo'lgan sohalariga aralashuvlardan xoli bo'lishining ta'minlashini kafolatlashga qaratilgan. Bundan tashqari, davlat va xususan, uning huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga ularning o'zidagi mavjud vosita va usullar orqali inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash vazifasini yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va farovon hayot kechirishini, o'z taqdirining egasi bo'lishini huquqiy ta'minlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib, ular turli sohalarda o'z ifodasini topib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatning eng muhim vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkam-

langan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilin-gan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining negizi hisoblangan shaxsiy huquq va erkinliklar to'g'risidagi normalar mustahkamlangan. Ta'kidlash joizki, shaxsiy huquq va erkinliklar turkumi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarining bosh o'rnnini egallaydi.

Zero, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ta'minlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzvii davomi sifatida qarash lozim.

Shaxsiy huquq va erkinliklarning aksariyati insoniyat paydo bo'lgandan beri amalda bo'lib kelayotgan tabiiy huquqlardir. Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda shaxslarning saqat o'zigagina tegishli bo'lgan va hayoti davomida ajralmas bo'lib hisoblangan huquq va erkinliklar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan tartibga solingen. Konstitutsiyada shaxsiy huquq va erkinliklar alohida tizimni tashkil etadi va quyidagilar kiradi:

1. Yashash huquqi (24-modda);
2. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (25-modda);
3. Aybsizlik prezumpsiyasi (26-modda);
4. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi (27-modda);
5. Turar joy daxlsizligi huquqi (27-modda);
6. Shaxslarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi (28-modda);
7. Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi (29-modda);
8. Fuqarolarni huquq va manfaatlari daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi (30-modda);
9. Vijdon erkinligi (31-modda).

Ta'kidlash joizki, mazkur masalalar qator xalqaro hujjatlarda mus-tahkamlangan. Xususan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umunjahon deklaratsiyasida va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda qayd etilgan inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va

erkinliklariga oid xalqaro andozalar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘zining to‘la aksini topgan.

## **2-§. Yashash huquqi va uning kafolatlashni**

Insonga tug‘ilganidan xos va daxlsiz bo‘lgan asosiy huquq va erkinliklarning himoya qilinishini ta‘minlash fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini tanlagan har qanday davlatning ajralmas belgisidir. Uning amalga oshirilishi, shaxsnинг, davlat va uning organlari bilan huquq-tartibot hamda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi munosabatlarini, insonning hayotiy faoliyati uchun juda muhim bo‘lgan sohalariga aralashuvlardan xoli bo‘lishining ta‘minlashini kafolatlashga qaratilgan. Bundan tashqari, davlat va xususan, uning huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga ularning o‘zidagi mavjud vosita va usullar orqali inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash vazifasini yuklaydi.

Ta‘kidlash joizki, mazkur masalalar qator xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi mustahkamlangan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 6-moddasida esa, “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanadi. Hech kim o‘zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi” deyilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham inson va fuqarolarning yashash huquqlariga oid ushbu xalqaro andozalar o‘zining to‘la aksini topgan.

Inson – biologik va ijtimoiy tushunchadir. Zero, inson o‘zining biologik mohiyatiga ega ravishda tug‘iladi, keyinchalik u hayoti va faoliyati davomida shaxs sifatida shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Shaxsiy huquq va erkinliklar» nomli bo‘limida shaxsnинг huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asosi o‘z aksini topgan. «Yashash huquqi, – deb ta‘kidlanadi Konstitutsiyaning 24-modda, – har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir»<sup>40</sup>.

O‘zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini o‘zida mustahkamlangan yetmishdan ortiq xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan. Bu hujjatlar O‘zbekiston

---

<sup>40</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси: – Т.: “Узбекистон”, 2018. –16 б.

qonunchiligining shakllanishi, jumladan, jinoyat hamda inson huquq va erkinliklari borasidagi qonunlarning yaratilishi uchun ham asos bo'lib xizmat qilgan.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»<sup>41</sup> ning 3, 4, 5-moddasida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida<sup>42</sup> insonning yashash huquqi, qadr-qimmati, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan.

Shaxsning yashash huquqi – bu insonning tug'ilishi bilan vujudga keladigan, faqat o'zining biologik mavjudligini ta'minlovchi hamda davlat tomonidan muhofaza etiladigan huquqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida yashash huquqining mustahkamlanishi davlat tomonidan uni qo'riqlash va himoya qilishning kuchli mexanizmini yaratishni talab qiladi. Bu boradagi tadbirlar nafaqat jinoyatchilikni oldini olish yoki jinoyatga qarshi kurashish natijasidagi huquqni himoya qilish faoliyatini, balki ijtimoiy sohada ham inson hayotining ta'milanishini o'z ichiga oladi.

Insonning tabiiy huquqi, yashash huquqini himoya qilish davlat hamda barcha jamoat tuzilmalari faol harakatlarining keng doirasini, har bir inson turmushining xavfsiz ijtimoiy va tabiiy muhitini, turmush sharoitini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyada mustahkamlanib, kafolatlangan inson va fuqarolarning yashash huquqi joriy qonunlarda rivojlantiriladi va amaliyotda davlat organlarining tashkiliy faoliyati orqali ta'milanadi.

Har bir inson va uning hayoti jamiyatning ajralmas elementi sifatida ijtimoiy qadriyatdir. Shuning uchun inson o'limiga sabab bo'ladigan har qanday qilmish qonunda ijtimoiy xavfli jinoyatlar qatoriga kiritilgan.

Jinoyatlar ichida eng xavflisi insonni yashash huquqidан mahrum etadigan odam o'ldirish jinoyati hisoblanib, bu qilmish g'ayriqonuniy tarzda bir kishini ikkinchi kishi tomonidan qasddan hayotdan mahrum qilish, deb tushuniladi.

<sup>41</sup>Инсон хукуклари умумжахон декларацияси (1948 йил 10 декабрда БМТ Бош Ассамблеясининг 217 А (III) Резолюциясида кабул килинган ва эълон қилинган; Узбекистон Республикаси мазкур декларацияга 1991 йил 30 сентябрдаги Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг № 336-XII карори асосида кўшилган).

<sup>42</sup>1996 йил 16 декабрдаги Фукаролик ва сиёсий хукуклар тўгрисидаги халқaro пакт (БМТ Бош Ассамблеяси 2200 А (XXI) Резолюциясида кабул килинган ва имзолашга, ратификация килишга ва кушилишга очик, 1976 23 марта кучга кирган, Узбекистон Республикаси Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг № 127-1 карори асосида кўшилган, Узбекистон Республикаси учун 1995 йил 28 декабрдан кучга кирган).

Alovida ta'kidlash lozimki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Insonlarning yashash huquqini ta'minlash va muhofaza qilishda jinoyat huquqi qonunchiligi ham muhim o'rin egallaydi. Jinoyat qonunchiligi inson hayotini muhofaza qilishga doir mukammal jinoiy huquqiy choralar tizimiga ega. Xususan, Jinoyat kodeksi maxsus qismining 1/4 ga yaqin normalari bevosita fuqarolarning hayotiga ziyon yetkazganlik uchun u yoki bu darajada javobgarlikni ko'zda tutadi.

Konstitutsiya asosida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi insonlarning ijtimoiy sifatlari yoki har qanday biologik xususiyatlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular sog'lig'ini saqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Har bir inson, u yosh go'dakmi yoki qariyami, jismonan sog'lom yoki nogironmi, aqli raso yo noraso bo'lishidan qat'iy nazar, uning hayoti va sog'lig'i eng oliv qadriyat ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Jinoyat kodeksining 97-moddasida qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, u jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirishini anglatadi. Dar-haqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i bebaho ne'mat hisoblanadi va uning bu ne'matlardan maxrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib, yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'lig'iga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi.

Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklari buzilishining shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmanan xavfni tug'diradi.

Zero Jinoyat kodeksining normalariga asosan qasddan boshqa kishini hayotdan mahrum qilish odam o'ldirish, deb e'tirof etiladi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining obyekti o'zga shaxsning hayoti hisoblanadi. Jinoyat qonuni barcha odamlarning hayotini bir xilda himoya qiladi. Shuning uchun yoshni ham, keksani ham, sog'lom odamni ham, bemorni ham hayotdan huquqqa xi洛f ravishda mahrum etish odam o'ldirish, deb e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasida evtanaziya taqiqilanadi.

Odam o'ldirish faol harakatlar bilan ham, harakatsizlik orqali ham sodir etilishi mumkin. Odam o'ldirish usuli jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi. Odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. U miyaning tuzalmas halokati, ya'ni jismoniy o'limning yuzaga kelishi bilan ifodalanuvchi biologik o'lim boshlangan paytdan e'tiboran tugallangan hisoblanadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyati haqidagi ishlar bo'yicha jinoyat qonunining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash juda muhim, chunki ushbu jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun qonunda favqulodda jazo chorasi – umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksida hayotga tajovuz qilish natijasida o'limga sabab bo'lgan jinoyatlar qilmishning huquqiy mohiyati, ijtimoiy xavflik darajasi va xarakteridan kelib chiqib, sodir etilgan har bir jinoyatga alohida javobgarlik belgilanishi ko'zda tutiladi.

"Jinoi jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini rivojlantirish sohasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'lim jazosini qo'llash sohasining bosqichma-bosqich kamayib borib, O'zbekiston Respublikasida sud huquq tizimini, jinoi jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshirilgan jarayonning muhim yo'nalishi bo'ldi. 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan Jinoyat kodeksida dastlab 13ta moddada o'lim jazosi nazarda tutilgan edi. 1998-yil 29-avgustda, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 12-sessiyasida o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar soni JKda 8 tagacha qisqartirildi, ya'ni o'lim jazosi tariqasidagi jazo Jinoyat kodeksining yana 5 moddasidan chiqarib tashlandi. 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Jinoi jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unga muvofiq jazo sifatida o'lim jazosi nazarda tutilgan moddalar ro'yxati 4taga qisqartirildi. Xususan, o'lim jazosi JKning 118-moddasi to'rtinchi qismidan, 157-modda birinchi

qismidan, 242-modda birinchi qismidan, 272-modda ikkinchi qismidan chiqarib tashlandi. 2003-yil 12-dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n uchinchi sessiyasida o'lim tariqasidagi jazo yana ikki turdag'i jinoyatdan (JK 151-moddasi ikkinchi qismi, 153-moddasidan) chiqarib tashlandi.

Insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1-yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etildi. Mazkur holat 2007-yil 11-iyulda qabul qilingan "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shiinchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mustahkamlab qo'yildi.

Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5ta, Belgiya va Rossiyada 6ta, Daniyada 9ta, SHvetsiyada 13ta, Fransiyada 18ta, Gollandiyada 19ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo turi bo'lib, u faqat ikki turdag'i jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Umrabod ozodlikdan mahrum qilish jazoning favqulodda chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etuvchi koloniyaga joylashtirish orqali uni jamiyatdan muddatsiz ajratishdan iborat.

Qonundagi ta'rifda umrbod ozodlikdan mahrum qilishga xos bir qator belgilar mavjud: 1) u tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning

alohida toifasi; 2) muddatsiz davom etishi; 3) ushbu jazoning alohida xususiyati.

JK 15-moddasining 5-qismiga muvofiq, umrbod ozodlikdan mahrum qilish faqat o‘ta og‘ir jinoyatlarni qasddan sodir etganlik uchun tayinlanishi mumkin. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishni qo‘llash masalasining har bir aniq vaziyatda ishning barcha holatlarini inobatga olgan holda hal etilishi, bunda jazoning ushbu maxsus chorasi qo‘llanishi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi alohida vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitdagina qo‘llanilishi mumkinligini, shuningdek, bu jinoyatni sodir etgan shaxsning o‘ta xavfliligidan kelib chiqish lozim.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish muddatsiz davom etadi. Unga jazoni o‘tashning eng kam muddati ham, eng ko‘p muddati ham belgilanmagan. Umrbod degani jazo mahkum vafot etgunicha ijro etilishini bildiradi. Jazoning ushbu turi muddatsiz ekanligi JK 73-moddasining 4-qismida keltirilgan qoida, ya‘ni shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilish umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga qo‘llanilmasligi bilan ham tasdiqlanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning alohida xususiyati uning quyidagilar uchun belgilanishida namoyon bo‘ladi: a) og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-m. 2-q.); va b) terrorizm (155-m. 3-q.). Jazoning alohida xususiyati Qonun bir umrbod ozodlikdan mahrum etishni tayinlashga yo‘l qo‘yadigan jinoyatlar soni amalda nihoyatda cheklangani bilan bog‘liq. O‘zbekistonda bunday jinoyatlardan faqat yuqorida keltirilgan ikkitasi nazarda tutilgan.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning alohida xususiyati ushbu jazo qo‘llanilishi mumkin bo‘laman shaxslar toifasi (jinsi, yoshi) bo‘yicha chekllovarda namoyon bo‘ladi. Bular: a) ayollar; b) 18 yoshga to‘lqunicha jinoyat sodir etgan shaxslar; c) 60 yoshdan katta erkaklar. Shunday qilib, O‘zbekistonda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan faqat bir toifa shaxslar, ya‘ni 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar belgilangan.

Ushbu masalaning xorijiy mamlakatlarda qonun bilan tartibga solinishini qiyoslaganda shuni bilish muhimki, Yaponiya, Koreya, XXR, Fransiya, GFR, Avstriya, Polsha, Shveytsariya, Gollandiya, Daniya, AQSh singari mamlakatlarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni qo‘llashda shaxslarni toifalar bo‘yicha cheklash qonun hujjalarda nazarda tutilmagan. Boshqa davlatlarda (Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog‘istonda) ham bu turdagи jazoni faqat erkaklarga nisbatan qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi, ammo yosh doirasi 18 yoshdan 60 yoshgacha tarzida

kengaytirilgan. Ukrainada bir umrga ozodlikdan mahrum qilishni 18 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan erkak va ayollarga qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi, ammo jinoyat sodir etish paytda yoki hukm chiqarilayotgan vaqtida homilador bo‘lgan ayollarga istisno qilinadi. Moldovada bu jazo voyaga etmaganlar va ayollarga qo‘llanilmaydi. Gruziyada 18 yoshdan katta, ammo 60 yoshdan oshmagan ayollar va erkaklarga qo‘llanishi mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning alohida xususiyati jazoning ushbu turi tugallanmagan jinoyat uchun tayinlanishi mumkin emasligida ham namoyon bo‘ladi (JK 58-m. 2-q).

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning alohida xususiyati uning JK 97-moddasi 2-qismi va + 155-moddasi 3-qismidagi sanksiyalarida muqobil tarzda nazarda tutilganida namoyon bo‘ladi. Ularda belgilanishicha, ushbu jinoyatlar uchun shaxs 15 yildan 25 yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi mumkin. Shunday qilib, mazkur moddalarning sanksiyalarida uchta jazo chorasi nazarda tutilgan: 1) 15 yildan 20 yilgacha bo‘lgan muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish; 2) 20 yildan ortiq, ammo 25 yildan ko‘p bo‘limgan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish; 3) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Jazo choralarining qonunda belgilangan doirasi sudga hukm chiqarayotgan paytda tanlashi uchun unga taqdim etiladi. Bunday tanlov ishning barcha (aybni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi) holatlarini, aybdorlarning shaxsini, qilmishning motivlarini, jinoyat sodir etish usullarini hamda hisobga olinishi umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzdagи jazoning asossiz tayinlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan boshqa omillarni xolisona tekshirishga asoslanishi kerak. Moddalarning sanksiyalarida muddatli va muddatsiz ozodlikdan mahrum qilishning muqobil tarzda ayni vaqtning o‘zida nazarda tutilishi umrbod ozodlikdan mahrum qilish alohida hollardagina qo‘llanishi kerakligini bildiradi.

### **3-§. Shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining daxlsizligi kafolatlanadi. Shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklashga faqat O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan asoslar va tartibdagina yo‘l qo‘yiladi.

Sud-huquq islohatlarini yanada chuqurlashtirish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik o‘zgarishlarning asosiy

yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, hisoblanadi. Ushbu islohatlarning asosiy maqsadi barcha uchun teng, adolat hukmron bo‘lgan, shaxs, uning huquq va erkinliklarini himoyasida turadigan sud-huquq tizimini yaratishdan iborat.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi – bu har bir inson tug‘ilishi bilan qo‘lga kiritadigan, har kim erkin, o‘z ixtiyori bo‘yicha harakat qilishi, o‘zganing shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon etmaydigan tarzda yurish-turishni tanlash imkonini beruvchi huquqdir. Shaxsning erkinligi jamiyatdagi axloq me‘yorlari doirasidan chiqmasligi va qonun asosida bo‘lishi kerak, ya‘ni shaxs har qanday harakatni qonun va qonun hujjatlarida man etilmagan va huquqiy ko‘rsatmalarga zid kelmagan taqdirda, amalga oshirish mumkin.

Har bir inson shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga ega bo‘lib, ushbu huquq Konstitutsianing bir qator normalari bilan, shu jumladan, shaxsiy daxlsizlik, telefon so‘zlashuvlari, xat va xabarlar, yozishmalar daxlsizligi huquqlarining huquqiy tartibga solinganligi bilan himoyalananadi.

Har bir insonga shaxsiy va ijtimoiy hayot xosdir. Insonning shaxsiy hayotini biz uning yakka o‘ziga tegishli huquqlari, fikrlari, ishlari, yakka tartibda o‘zi uchun muhim qarorlarni qabul qila olishi sifatida ta‘riflashimiz mumkin. Ijtimoiy hayot esa – shaxsning jamiyatdagи mavqeи va o‘rnini belgilash bilan bog‘liq bo‘lib, unda shaxs boshqalar bilan muloqatga kirishishi, fikr almashishi, hissiy tuyg‘ularni boshidan o‘tkazishi tushuniladi.

Fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy hayotini ba‘zan bir-biriga qaramaqarshi qo‘yishadi. Amalda esa inson hayotining har ikki sohasi ham uyg‘unlik bilan o‘zaro aloqaga kirishib muayyan yaxlitlikni tashkil etadi. Insonga yakka qolish, o‘z yaqinlari bilan muloqotga kirishish imkoniyati yaratilmasdan, uning faol va samarali ijtimoiy faoliyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shaxsiy hayotni ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysundirish, hamda shaxsiy hayotni individualizm sarqiti sifatida tushunish totalitar tizimning o‘ziga xos xususiyat sifatida namoyon bo‘lgan va aynan shu negizda davlat va jamiyatning shaxs bilan munosabatlari qurilgan. Hozirgi paytda esa insonlarga turli tumanlik xos bo‘lib, ularning har biri o‘z dunyoqarashi va huquqiy onggi, ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ega.

Shaxsiy hayotning sir saqlanish huquqi – insonni kuzatishga, ta‘qib qilishga, uning shaxsiy hayotiga aralashishga, uning telefon va boshqa so‘zlashuvlarini eshitib turilishiga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi konstitutsiyaviy

qidalardan kelib chiqadi va uni cheklashga qaratilgan harakatlar faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkinligi tushuniladi.

Shaxsiy daxlsizlik huquqining barcha tarkibiy qismlari huquqning turli sohalarini o'zida mujassamlashtirgan yagona kompleks huquqiy institutni tashkil etadi. Shaxsiy hayot daxlsizligi institutining asosiy qismlari 1948-yil 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasida qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»da ham o'zining aksini topgan, uning 12-moddasida «Hech kim uning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga aralashishga, uning turar-joyi, yozishmalari daxlsizligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan tajovuzlarga duchor qilinishi mumkin emas. Har kim bunday tajovuz yoki aralashishlardan qonuniy himoya qilinish huquqiga ega»<sup>43</sup> – deyilgan. Aynan shunday qoidalar fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda (BMT., 1966-y. 8-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasida (Rim, 1950-y.) va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'zining aksini topgan<sup>44</sup>.

Fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi printsipini ro'yobga chiqarilishiда bir necha istisno holatlар, ya'ni qonunda belgilangan hollarda va chegaralarda davlatning inson hayotiga kirib borishiga yo'l qo'yadi. Bunday zaruriyat, quyidagi sohalarda: 1) jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarga qarshi kуrash sohasida; 2) epidemiya yoki tabiiy ofat sharoitlarida; 3) harbiy yoki favqulotda holatlarda yuzaga keladi.

Inson huquqlari ustuvorligi va davlatning jinoyatlarni ochish bo'yicha faoliyati manfaatlarining o'zaro munosabatiga qarashlar ilgaridan yuristlarning fikrini o'ziga jaib qilib kelgan muammo hisoblanadi, hamda jinoyatga oid davlat siyosatida, qonunlardagi o'zgarishlarda, olimlar va insonlarning fikr-mulohazalarida o'zining aksini topadi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasiga muvofiq odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi va hech bir shaxs sud hukmisiz aybdor deb topilishi mumkin emas.

Sud vakolatlari ta'sir doirasini kengaytirish lozimligini, sud prokurorga nisbatan shaxs huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning ishonchli kafolati ekanligidadir. Chunki sud hokimiyatning mustaqil tarmog'i sifatida idoraviy manfaatlar bilan cheklanmagan, jinoyatlarni ochilishi darjasini uchun javobgar

<sup>43</sup> Каранг: Инсон хукуклари бўйича халкаро шартномалар. тўплам. – Т., 2004. – Б. 33.

<sup>44</sup> Каранг: Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. – Т., 1995. – С. 41.; Сборник документов Совета Европы в области защиты прав человека и борьбы с преступностью. – М., 1998. – С. 37.; Узбекистон Республикасининг Конституцияси – Т., 2018. – Б. 7-8

emas, hamda faqat qonunga bo‘ysunadi va sud muhokamasining tartib-qoidalari doirasidagina ish tutadi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, mamlakatimizda shaxs manfaatlari ustunligi tan olingen sharoitlarda, shaxsning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari faqat sud tomonidan chekhanishi mumkinligini huquqiy tartibga solinishi inson va uning erkinliklari oliy qadriyat degan prinsipning amalda ro‘yobga chiqarilishiga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Shaxsiy erkinlik daxlsizdir. Shaxs daxlsizligini davlat va uning hokimiyat tuzilmalari tomonidan ta‘minlanadigan shaxs erkinligining kafolati sifatida tushunish lozim.

Hozirgi zamon rivojlangan demokratik davlatlarida hech bir inson sudning maxsus qarorisiz yoki prokurorning ruxsatsiz hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emas. Jinoyat qilganlikda ayblanib, ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslar ayrim davlatlarda garov evaziga, sud hukmiga qadar ozodlikda yurishi mumkin. Bu holat ham insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizligini ta‘minlashga qaratilgan choraldardan biri hisoblanadi.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizliklar qonun bilan kafolatalanadi va faqatgina qonunda belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan chekhanishi mumkin. Bunday organlar qonunga asosan shaxsni hibsga olishi, qamoqda ushlab turishi va ozodlikdan mahrum etishi vakolatiga ega. Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha Xalqaro paktning 9-moddasida ushbu huquq kafolati quyidagicha belgilab berilgan: “Jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo‘yicha sud hukmronligini amalga oshirish huquqi bo‘lgan boshqa mansabdar shaxs huzuriga keltiriladi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddatda ishi sudda ko‘rilishi yoki ozod qilib yuborilishi huquqiga ega”<sup>45</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq shubha qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsni qamoqqa olish xaqidagi sanksiya sudlar tomonidan beriladi. Ushlab turish, qamoqda saqlash, ozodlikdan mahrum qilish, ma‘muriy, jinoiy-prosessual, jinoiy huquqlarda aniq belgilab qo‘yiladi. Qonunchilikda ozodlikni noqonuniy cheklashga qarshi bir qator choralar qo‘llaniladi.

---

<sup>45</sup> Ўзбекистон Республикаси ва инсон хукуклари буйича халқаро шартномалар/ Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. –Тошкент: “Адолат”, 2002. –Б.69.

Shaxsiy daxlsizlik, shaxs erkinligi huquqi faqat tegishli instantsiya sudining, ya'ni birinchi, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instantsiyalaridagi sudning qarori asosidagina cheklanishi mumkin.

Huquqlari muhofaza qilinayotgan subyektlarga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, xorijiy fuqarolar va mamlakatimiz hududida doimiy yoki vaqtinchalik yashayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslarni kiritish lozim.

Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi rivojlantiriladi va to'ldiriladi. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasi 2-qismida: "Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas"<sup>46</sup>, deb belgilangan. Uning 3-qismida esa sud va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsda ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan har qanday shaxsni darhol ozod qilishi shartligi qat'iy belgilangan. Ushbu moddaning 4-qismida fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo'riqlanishi haqidagi norma mustahkamlab qo'yilgan.

Noqonuniy ushlab turish nima ekanligini aniqlash uchun, eng avvalo, qanday ushlab turish qonuniy hisoblanadi, ana shuni aniqlab olish kerak. Jinoyat-protsessual kodeksining 220-moddasiga binoan ushlab turish, jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir. Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ish qo'zg'atilganidan keyin ushlab turishga faqat surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.

Jinoyat-protsessual ushlab turishning asosiy maqsadi va uning mohiyati – erkinlikni cheklashning vaqtinchaligidir. Qonunga muvofiq inson erkinligini qisqa vaqtga cheklash, faqat ushlangan shaxsning jinoyatga haqiqatan ham aloqadorligi yoki aloqador emasligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

---

<sup>46</sup> Узбекистон Республикасиниг Жиноят процессуал кодекси. - Т., 2018.

Ushlab turish asoslarining qat'iy tartibda belgilab qo'yilishi hozirgi zamon qonunchiligidagi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, u shaxsnинг huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarining yana bir kafolatlanishi shakli hisoblanadi.

Shaxsni qonunga xilof ravishda ushlab turish va hibsga olish qonuniy yoki qonunga xilof ekanligini aniqlash uchun JK 234-moddasining 1-qismiga ko'ra shaxs erkinligini qisqa muddatga cheklash uchun asos bo'lgan holatlarni har tomonlama tahlil qilish talab qilinadi<sup>47</sup>.

Shunday qilib, ushlab turish asoslarining qonunda aniq belgilanishi yagona maqsadni, ya'ni shaxsning noqonuniy ravishda ushlanishining oldini olishni ko'zlaydi. Shu maqsadda JPKning 220-235-moddalarida<sup>48</sup> hamda O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonunida<sup>49</sup> ushlab turishning jinoiy-protsessual tartibi belgilangan.

JPK 226-moddasi 1-qismida ushlab turish ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtidan boshlab qirq sakkiz soatdan ortiq davom etishi mumkin emasligi belgilangan. JPK 237-moddasi mazmuniga ko'ra jinoyatni sodir qilishda guman qilingan va ushlab turilgan shaxsni hech qanday shartlarsiz qo'yib yuborish uchun uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asos bo'ladi.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish uchun asoslar qatoriga jinoyat sodir qilishda gumanning tasdiqlanmaganligi ham kiradi. Jinoyat kodeksining 234-moddasi 1-qismida shaxsning aybsizligini oldindan bila turib, noqonuniy ushslash uchun javobgarlik subyektlari sifatida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror belgilangan.

Sudyaning oldindan bila turib, adolatsiz hukm, hal qiluv qarori yoki ajrim chiqarishi ham uning tegishli javobgarlikka tortilishi uchun sabab bo'ladi. Qamoqqa olish jinoiy jazo hisoblanmay, balki odil sudlovniga ta'minlash uchun ko'maklashuvchi protsessual majburlov chorasi bo'lib, u eng oxirgi zaruriyatda qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Qamoqqa olish ehtiyyot chorasi sifatida ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tov lashining hamda uning bundan keyingi jinoiy faoliyatini oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal

<sup>47</sup> Ўзбекистон Республикасиниг Жиноят кодекси. – Т., 2018.

<sup>48</sup> Ўзбекистон Республикасиниг Жиноят процессуал кодекси. – Т., 2018.

<sup>49</sup> Ўзбекистон Республикасиниг "Жиноят ишини юритиш чогида камоқда саклаш тўғрисида"ги конуни // Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами. 2011. – №40. – 409-модда.

beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq protsessual majburlov choralarini qo'llashga sanksiya berish huquqi sndlarga bosqichma-bosqich va izchil o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarni sud orqali himoya qilish huquqini belgilovchi 19, 25 va 44-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdag'i "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sndlarga o'tkazish to'g'risida"<sup>50</sup>gi Farmoni<sup>51</sup> asosida jinoyat sodir etishda guman qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran sudlar vakolatiga o'tkazildi.

Qamoqqa olishning yangi tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida nazarda tutilgan jinoyat protsessining sudga qadar bo'lgan bosqichlarida fuqarolarning uzviy huquq va erkinliklarini cheklashning qonuniyligi va asoslanganligi ustidan sud kontrolini amalga oshirishning haqiqiy kafolati bo'lib, jinoyat protsessida shaxs maqomining yanada mustahkamlanishiha xizmat qildi va dastlabki tergov organlarining huquqni qo'llash faoliyatida qonuniylikni qaror topishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"<sup>52</sup>gi Qonuni<sup>53</sup> bilan shaxsnинг erkinligini cheklashning tartibi yanada rivojlantirilib, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish protsesual majbulov choralarini qo'llash sudning ruxsati asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Bundan tashqari ushbu institut O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"<sup>54</sup>gi Qonuni<sup>55</sup> bilan JPKda yangi uy qamog'i ehtiyoj chorasingning joriy etilishi va u sudning ruxsati bilan qo'llanilishi tartibining o'rnatilganligi bilan o'zining rivojlanishini davom ettirdi.

<sup>50</sup>Узбекистон Республикаси Президентининг "Қамоққа олишига санкция бериш ҳуқукини судларга утказиш тұгрыс�다" ги Фармони // Халқ сүзи газетасы, 2005 йил 9 август

<sup>51</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тұплами, 2012 й., 38-сон, 433-модда

<sup>52</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тұплами, 2014 й., 41-сон 507-модда

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘sishmcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishmchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni<sup>53</sup> ga asosan murdani eksgumatsiya qilish va pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat berish huquqi ham sudlarga o‘tkazilgan.

Yuqorida keltirilgan qonun hujjatlari bilan mamlakatimizda shaxs huquqlarining faqat sud tomonidan cheklanishining ishchan mexanizmini shakllantirilgan deb e‘tirop etishga asos bor.

Bugungi kunda «habeas corpus act» instituti sudga qadar ish yuritish bosqichlarida gumon qilinuvchining ushlab turilishi qonuniyligini tekshirish, lozim hollarda uning muddatini uzaytirish, ushlangan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki uni qo‘llashni rad etish, bu ehtiyot chorasingning muddatini uzaytirish, shuningdek, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlov choralarini qo‘llash, murdani eksgumatsiya qilish va pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish tergov harakatlarini o‘tkazishmasalalarini sud majlisida ko‘rib chiqib hal etish vakolatlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Qayd etish kerakki, yuqorida nomlari zikr etilgan protsessual majburlov yoki ehtiyot choralarini qo‘llash, tergov harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnama va unga ilova qilingan materiallar sudga kelib tushgan paytdan e‘tiboran 24 soatdan kechiktirmasdan suda tomonidan ko‘rib chiqilishi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu choralaridan birini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnama va materiallarni jinoyat protsessining asosiy prinsiplariga mos ravishda suda tomonidan yakka tartibda va yopiq sud majlislarida ko‘rib chiqilishi, iltimosnama ko‘rib chiqilayotganda ayblov tomonidan prokuror va himoya tomonidan himoyachi, shuningdek, ayblanuvchi ishtirok etishi, sud majlisi protsessual majburlov yoki ehtiyot chorasini qo‘llash imkoniyatlari to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish va ayblanuvchiga nisbatan bunday chorani qo‘llash zaruratini asoslab beradigan prokurorning axboroti bilan boshlanishi, so‘ngra esa, ayblanuvchi yoxud himoyachi buning aksini asoslab berishi, bulardan tashqari boshqa shaxslar ham tinglanishi, shuningdek, sudga taqdim etilgan materiallar tadqiq etilishi tartibi joriy

<sup>53</sup>Узбекистон Республикаси қонун хўжатлари тўплами, 2017 й., 13-сон. 194-модда

etilganligi va amalda ishlayotganligi O'zbekistonning jinoyat protsessida tomonlar tengligi va tortishuvchanligiga asoslangan sudga qadar ish yuritishning yangi instituti «habeas corpus act» samarali qo'llanilayotganligi va insomning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qilayotganligini yaqqol namoyon qiladi.

Inson erkinligi va shaxsiy daxlsizligining buzilishi har bir shaxsning sudga shikoyat bilan murojaat qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash va uning talablarini qondirish huquqini keltirib chiqaradi. Ushbu huquqni amalga oshirish tartiblari O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi<sup>54</sup> bilan tartibga solinadi. Madomiki, jamiyatimizda inson manfaatlari ustuvor ekan, fuqarolar o'zligini anglash, haq-huquqini tanish uchun murojaat etish huquqlaridan foydalanishlari lozim.

#### **4-§. Aybsizlik prezumpsiysi huquqi**

Aybsizlik prezumpsiysi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida mustahkamlangan. Aybsizlik prezumpsiysi (lotincha *prae*s*umptio – taxmin so'zidan) jinoyat protsessining muhim demokratik prinsiplaridan biri bo'lib, u shaxs huquqlarining himoyalanishini ta'minlaydi, asossiz ayblash va hukm qilishni istisno etadi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi” - deb belgilangan.

Bundan tashqari, aybsizlik prezumpsiysi JPKning 23-moddasida qayd qilingan bo'lib, unda “gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi”- deyilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasining mazmuni quyidagilarda ko'rindi:  
a) shaxsning aybi isbot qilinmagunga qadar u aybsiz deb hisoblanadi;

---

<sup>54</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, 1-сонга 3-илова

b) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi aybini isbot qilish faqat vakolatga ega tegishli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi, ya'ni shaxs o'z aybsizligini isbotlab berishga majbur emas;

c) agar baracha gumonlar isbotlanmasa, bunda bu gumonlar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi foydasiga hal etiladi;

d) shaxs faqat sudning hukmi, qaroriga binoan aybdor deb topiladi va shundan keyingina u qonunda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Aybsizlik prezumpsiysi prinsipi inson huquqlari sohasidagi nufuzli xalqaro hujjatlarga asoslanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 14-moddasida ham jinoiy ishlarda har qanday ayblanuvchi uning aybi qonunda ko'zda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha aybsiz, deb hisoblanishi belgilangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasidagi "Hech kim azob-uqubatga yoki vahshiyarcha, insonlikka isnod keltiradigan yoki qadr-qimmatini xo'rlaydigan muomala va jazoga mustahiq bo'imasligi kerak"<sup>55</sup>. Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakti 14-moddasining 2-qismida "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonunga muvofiq aybdorligi isbotlangunga qadar aybsiz hisoblanadi" deb belgilangan<sup>1</sup>.

Aybsizlik prezumptsiyasining jinoyat-protsessual mohiyati JPKning 23-moddasida mustahkamlangan. Unga asosan shaxsning aybi qonunga muvofiq isbotlangunga qadar aybsiz hisoblanishi bilan birga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Aybdorlikka oid barcha shuhbalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shuhbalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

JPKning 85-moddasiga muvofiq shaxsning aybdorligini isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashni o'z ichiga oladi.

Shaxsning aybdorligini isbotlash surishtiruv va tergov organlariga yuklatilgan bo'lib, ushbu vazifa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va

---

<sup>55</sup> Узбекистон Республикаси ва инсон хукуқлари бўйича халқаро шартномалар/ Масъул мухаррир А.Х.Сайдов. –Тошкент. “Адолат”, 2002. –Б.49.

sudlanuvchiga tegishli emas. Xususan, JPKning 23-moddasi, 2-qismida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas, deb belgilanadi. Bu ularning huquqi, undan o‘zi mustaqil ravishda yoki himoyachisi orqali foydalanishi mumkin. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining o‘z aybsizligi haqida dalil keltira olmasligi uni aybdor deb topish uchun asos bo‘la olmaydi.

Agar huquqni muhofaza qiluvchi organlar ayblov uchun yetarli dalillarni to‘play olmasalar, u holda shaxs aybsiz deb topilishi lozim. Isbotlanmagan aybdorlik – shaxsning aybsizligidir. Yana shuni ta‘kidlash kerakki, aybsizlik prezumpsiysi uchun JPKning 23-moddasi 3-qismida mustahkamlangan holatlar ham ahamiyatga molikdir, ya‘ni aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Ushbu qoida ham jinoiy, ham jinoiy–protsessual qonunlarni qo‘llashda tatbiq etiladi.

Aybsizlik prezumpsiysi prinsipining mohiyati sudga qadar ish yurituvini va sud muhokamasini olib boradigan barcha shaxslar uchun, shuningdek, sudlanuvchi bilan aybdordek ish ko‘rish huquqiga ega bo‘laman boshqa barcha muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo‘lgan xolisona huquqiy holat sifatida ana shundan iboratdir.

Ayblanuvchining aybi sudda isbotlanganda u aybdor deb topilishi mumkin. Bu majburiyat ish yuritishni olib boradigan ayblov vazifasini amalga oshiradigan mansabdar shaxslar: surishtiruvchi, tergovchi va prokuror zimmasiga yuklatilgan.

Aybsizlik prezumptsiyasi mazmunidan shu narsa kelib chiqadiki, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas (JPKning 23-m. 2-q.).

Shaxsning jinoyat sodir etganlikda aybdorligi haqidagi xulosa taxminlarga asoslanishi mumkin emas va shubhasiz yetarli dalillar bilan isbotlanishi lozim. Ayblovni ishonchli tasdiqlaydigan dalillar bo‘laman va yangi dalillar olish mumkin bo‘laman taqdirda ish yuritish tugatiladi yoki oglov hukmi chiqariladi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va

sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Shuningdek, qonunni qo'llashda kelib chiqadigan shubhalar ham guman qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Ayblovni (gumonni) isbotlashga doir barcha shubhalarni bartaraf etish mumkin bo'lmasa, ish ayblanuvchining (guman qilinuvchining) foydasiga hal qilinishi lozim. Bu holat ish tugatilishiga, ayblov hajmi o'zgarishiga, sodir etilgan jinoyat tasnifining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Davlat ayblanuvchini sud hukmi chiqarilib, qonuniy kuchga kirguniga qadar aybsiz deb hisoblaydi. Aybsizlik prezumpsiyasiidan kelib chiqqan holda, qonun chiqaruvchi ayblanuvchining aybdorligi haqida asosli, ishonchli xulosa chiqarilishini ta'minlash uchun jinoyat ishi bo'yicha nimalarni amalga oshirish lozimligini belgilab qo'yadi. Xulosa chiqarishdan oldin surishtiruv va dastlabki tergovda, so'ngra sudda dalillarni toplash, tekshirish va baholash, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi va protsess boshqa ishtirokchilarining protsessual huquqlarini amalga oshirish, ish yuzasidan to'plangan dalillar yordanida protsessual hujjatlarni asoslash, sud majlisida ish holatlarini sinchkovlik bilan tadqiq etish va hokazolar amalga oshiriladi.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritishning asosini tashkil etadigan ushbu kafolatlarning barchasi sud hukmida ayblanuvchining aybdorligi haqida ishonchli xulosa chiqarish uchun zarurdir. Aynan shu sababli qonun chiqaruvchi ko'rsatib o'tilgan kafolatlarga amal qilingan taqdirda qonuniy kuchga kirgan sud hukmi hujjat hisoblanib, unda umumiyligini qoidaga ko'ra, xususan, isbotlanayotgan asosiy masala bo'yicha ayblanuvchining aybdorligi to'g'risidagi masalada haqiqatga olib kelishi mumkinligini belgilab qo'yilgan. Qonun bilan belgilangan protsessual kafolatlar majmuiga riosa qilishdan keyin qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yuridik fakt hisoblanib, u jinoiy jazolash huquqiga ega bo'ladigan davlat bilan jazolanishi lozim bo'lgan hukm etilgan shaxs o'rtasida jinoyat-huquqiy munosabatlarni tug'diradi.

Aybsizlik prezumpsiyasi ayblanuvchi uchun nafaqat asossiz ayblanishdan, balki hukm qilinishdan himoyalovchi kafolat bo'lib, xizmat qiladi. Uning aybi so'zsiz isbotlanishi va bartaraf etilishi mumkin bo'limgan shubhalarni ayblanuvchining foydasiga hal qilinishi haqidagi

talab davlat organlarini ish holatlarini xolisona, haqqoniy aniqlashga undaydi, busiz ish sudda asosli vaadolatli hal etilishi mumkin emas. Aybsizlik prezumpsiyasidan ozgina bo'lsa ham chetga chiqish odil sudlovda qonuniylikning buzilishiga hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari kansitilishiga olib keladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 7-moddasida insonning qadr-qimmatini kansitish, qiyash va boshqa shafqatsiz usulda inson bilan muomalada bo'lishga ta'qiq tartibga solingan<sup>56</sup>.

### **5-§. Himoyalanish va shaxs qadr-qimmatining hurmat qilinishi huquqi**

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxsan o'zi yoki himoyachi (advokat) yordamida himoyalanish huquqiga ega. Yuridik yordam ko'rsatish, jumladan, jinoyat ishlarida himoyani amalga oshirish uchun davlatimizda advokatlik instituti faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq advokatlarning huquq va burchlari hamda ularning o'z faoliyatlarini tashkil etish tartiblari belgilangan<sup>57</sup>.

Malakali huquqiy yordamdan foydalanish huquqi shaxs huquqiy maqomining ajralmas qismi hisoblanib, nafaqat milliy qonunchilik, balki halqaro huquq normalari tomonidan ham kafolatlanadi. Ushbu huquqdan foydalanish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan va ayblanayotgan shaxslarga zarur ekantigini alohida e'tirof etish kerak.

"Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasiga muvofiq jinoiy qilmish sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxsga o'zini shaxsan yoki himoyachi yordamida himoya qilish huquqiga egaligini belgilaydi<sup>58</sup>. Ushbu qoida Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 11-moddasida, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 2-moddasida ham qayd etilgan<sup>59</sup>.

<sup>56</sup> Уша манба. –Б. 72.

<sup>57</sup> Узбекистон Республикасининг "Адвокатура тұгрысида"ги конуни // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисисининг Ахборотномаси. 1997. –№2. –50-модда.

<sup>58</sup> Карапт: Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью Сборник международных договоров. – Т., 1995. – С. 234.

<sup>59</sup> Карапт: Узбекистан и международные договора по правам человека. – Т. 1998 –С 9-16; –С 440-465.

Mamlakatimizda mazkur huquqiy qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida – sud ishlarini yuritishda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi lozimligi<sup>60</sup> sifatida, jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvni tartibga soluvchi amaldagi jinoyat protsessual kodesida esa – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarni himoyalanish huquqi bilan ta'minlash prinsipi tariqasida mustahkamlangan. Jumladan, jinoyat sodir etgan shaxslarga barcha huquqlari tushuntirilib berilishi va zimmasiga qo'yilayotgan ayblovdan himoyalanishi uchun qonunda ko'rsatilgan barcha vosita va usullardan foydalanishga haqiqiy imkoniyatlarning ta'minlanishi shartligi qonunan tartibga solingan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan halqaro-huquqiy hujjatlarga ko'ra, *ayblov* – bu muayyan shaxsni jinoyat sodir etishda ayblanayotganligi yoki gumon qilinayotganligi haqida vakolatli organ tomonidan uni ogohlantirilishdir, shuningdek, bunday ogohlantirish gumon qilinuvchining maqomiga ta'sir etuvchi boshqa choralar shakliga ham ega bo'lishi mumkin. Demak halqaro huquqiy hujjatlar jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan har qanday shaxsga, shuningdek, protsessual majburlov choralar qo'llanilgan har bir gumon qilinuvchiga ximoyachi xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlanishini milliy qonunchilikda aks ettirilishini talab qiladi.

Umuman olganda shaxsning o'z huquqlarini shaxsan himoya qilish yoki ximoyachining xizmatidan foydalanish huquqining qachon yuzaga kelishini belgilab olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda qonun hujjatlarida qo'llaniladigan advokat va himoyachi terminlarining o'zaro nisbati va farqlarini aniqlab olishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga asosan, advokatura – huquqiy tizim bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiylar, fuqarolar, fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi

---

<sup>60</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т. 2018. – Б. 10-11.

O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin<sup>61</sup>. Himoyachi esa – jinoyat protsessining ishtirokchisi hisoblanadi. Amaldagi jinoyat protsessual qonunchilikka asosan himoyachi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirishga hamda ularga kerakli yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir<sup>62</sup>. Jinoyat ishi bo‘yicha himoyachi sifatida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslardan tashqari maxsus ruxsatnomaga ega shaxslar, jamoat birlashmalarining a‘zolari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarining yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar ham ishtirok etishi mumkin. Demak ximoyachi jinoyat protsessining ishtirokchisi bo‘lganligi bilan advokatdan farqlanadi va o‘zining protsessual maqomiga, ya‘ni huquq va majburiyatlariga ega, bu xolat protsessual qonunchilikda ham aniq belgilangan.

Milliy protsessual qonunchiligidan qo‘ra, himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPKning 49-m., 3-q.).

Shunday qilib, milliy protsessual qonunchiligidan jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni himoyalanish huquqi bilan ta‘minlashi jihatidan halqaro huquqiy standartlarga mos kelishini qayd etish joiz.

Shaxsiy daxlsizlik deganda uy-joy, ish joyining daxlsizligi ham tushuniladi (Konstitutsiyaning 27-moddasi). Uy-joyga faqat unda yashovchi shaxslarning aniq roziliği bo‘lgan hollarda yo‘l qo‘yiladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda insonning shaxsiy yozishuvlari, kundaliklari, rasmlari hamda ularning matni ham shaxsiy daxlsizlik huquqi bilan qamrab olinadi.

Insonning shaxsiy hayotining sohalari qatorida uning boshqalar bilan pochta va telegraf orqali aloqaga kirishishini ham sanab o‘tishimiz mumkin. Shaxsiy hayot tushunchasiga farzandlar tug‘ilishini, nikoh qurilishini, farzandlikka olishni, ajrashishni, mulkni bo‘linishini, oila surf-harajatlarini, mulk va pul mablag‘larini tasarruf etilishini kiritishimiz mumkin. Insonning bank muassasalaridagi pul va boshqa qimmatbaho jamg‘armalari ham qonun tomonidan muhofaza qilinadi. Inson o‘z hayoti davomida tibbiyot xodimlariga murojaat qilib, o‘zining shaxsiy va oilaviy sirlarini aytadi, insonlarning sa-

<sup>61</sup> Қаранг: Рустамбаев М.Х Суд ва ҳукуқни муҳофаза қиувлечи органлар –Т , 2011. –Б 294.

<sup>62</sup> Ўзбекистон Республикасининг жиноят процессынада кодекси. – Т., 2018. –Б 25.

lomatligining holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham shifokorlik siri sifatida muhofaza qilinadi. Fuqaro advokatura idoralariga murojaat qilib, o‘zining shaxsiy va xususiy hayotining muayyan jihatlarini oshkor qiladi.

Notarial idoralari xodimlari ham o‘z xizmat vazifalarini o‘tash davomida fuqarolar shaxsiy hayotining muayyan jihatlari (meros, vasiyat, xadya qilish shartnomalarining mazmunini va h.k.) haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risida»gi qonunining 6, 19-moddalari tartibida sir saqlanishi lozim. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari ham oshkor qilinishi mumkin emas. Shaxsiy hayot huquqi doirasiga farzandlikka olish siri<sup>63</sup>, o‘z asarlarini chop etish yoki e‘lon qilish huquqini, o‘zining ko‘rinishi yoki ovozini yozish huquqlarini muhofaza qilinishini ham kiritish mumkin<sup>64</sup>.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimiz qonunchiligidagi himoyachiga ma‘lum bo‘lgan barcha holatlarning sir saqlanishi huquqiy jihatdan tartibga solingenan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarga istagan dingga e‘tiqod qilish yoki umuman e‘tiqod qilmaslik huquqlarini, shuningdek, jamoat tashkilotlariga, partiyalarga a‘zo bo‘lish kabi huquqlarni ham huquqiy jihatdan kafolatlab qo‘ygan.

Konstitutsiya qiyash, zo‘ravonlik, shafqatsizlik yoki inson qadriyatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa solishni man etadi. Ushbu qoida jinoyat qonunchiligidagi o‘z rivojini topgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 7-moddasi jinoyat huquqining insonparvarlik tamoyilini ta‘kidlab, jazo va boshqa huquqiy choralarini jismoniy azob berish yoki kishi qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi, deb e‘tirop etadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Qiynoq hamda muomala va jazo-lashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya”ga qo‘shilgan . Ushbu Konvensiyada alohida ta‘kidlanadiki, yuqorida bayon etilgan ta‘rif qonuniy choralar qo‘llash natijsida paydo bo‘ladigan og‘riq va azoblarga taalluqli emas. Qiynoqlarga solish, shafqatsiz yoki insonning qadr-qimmatini tahqirlaydigan har qanday harakat jinoyat qonunchiligi bo‘yicha jinoyat sifatida talqin etiladi. Bunday harakatlar qatoriga hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JKning 206–moddasi), qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash

<sup>63</sup> Каранг. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Т., 2018. 153-модда.

<sup>64</sup> Каранг. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси – Т., 2018. 1041-модда.

(JK 235-moddasi) uchun javobgarlik belgilanganligi kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi shaxsning roziligidisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazishni ham shaxsning qadr-qimmatiga bo'lgan tajovuz deb baholaydi. SHu bois hech kimning ustida, uning kimligidan qat'i nazar biron bir ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yoki boshqa maqsadlarda tajribalar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida ettanaziyaga (o'lishga bo'lgan huquq) yo'l qo'yilmaydi, ya'ni og'ir ahvoldagi kasal kishilarning o'z hayotini o'zi hal etishi taqiqlanadi (Masalan, Niderlandiyada bunga taqiq yo'q).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas degan normalar shaxsiy huquq va erkinliklarni to'liq ta'minlashga qaratilgan qoidalar bo'lib hisoblanadi.

Shaxs sha'ni deganda shaxs yurish turishiga nisbatan o'zga shaxslarni bergen ma'naviy-axloqiy bahosi tushuniladi.

Qadr-qimmat shaxsning jamiyatdagi o'rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, dunyoqarashiga qarab o'z-o'zini ichki baholashidir.

Konstitutsiyaviy qoidalar shaxsning sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy nomulkiy huquqlarini qo'riqlash va hurmat qilish, shaxsiy hayot va uy-joy daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sha'n va qadr-qimmat faqat insonga xos sifat bo'lib, u insonga tug'ilganidan qo'lga kiritadigan ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquq bo'lib hisoblanadi, ya'ni u shaxsning ma'naviy dunyosini tavsiflaydigan nomoddiy boyliklardan biridir.

Mamlakatimizda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqining e'lon qilinganligi O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni e'tirof etganligini bildiradi. Zero, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida shaxs nomusi va sha'ni daxlsizligi belgilangan, shuningdek, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt (1966-yil 19-dekabr)ning 17-moddasi 1-qismida "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joyi daxlsizligiga yoki yozishmalar sirulari daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha'niga tajovuz qilishi mumkin emas" deb, mustahkamlangan. Demak, bu boradagi konstitutsiyaviy qoidalar xalqaro meyorlarning uzviy davomi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zining sifatlariga ma'naviy-axloqiy baho berish doim shaxsiy bo'lib, u subyektiv xarakterga ega. Shu bois mazkur baho ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Shunga qaramasdan, shaxsning qadr-qimmati, shaxsni ichki o'zini-o'zi baholashi mezoni va jamiyatning unga bergen bahosi o'zaro bog'langan mezonlardir. Shuning uchun ham insonning sha'n va qadr-qimmati muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, u qonun tomonidan himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga binoan, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'lli bilan raddiya talab qilishga haqlidir.

Shundan kelib chiqib, fuqaro o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish talabini qondirishi uchun o'z sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazilgan ma'lumotlarda quyidagi holatlar mavjud bo'lishi kerak:

birinchidan, haqiqatan obro'siga putur yetkazilgan bo'lsa;  
ikkinchidan, ma'lumotlarning yolg'onligi aniqlansa;  
uchinchidan, ma'lumot haqiqatan tarqatilgan bo'lsa.

Sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazilgan fuqaro ushbu ma'lumotlarni raddiya qilish bilan bir qatorda, uning tarqatilishi natijasida o'ziga yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni qoplash talabini qo'yishi mumkin. Qonun fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan tahqirlash harakatlarini ma'muriy huquqbazarlik yoki jinoyat sifatida baholaydi. Bunday hollarda aybdor tuhmat yoki haqorat qilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim.

Tuhmat deganda boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni bila turib, yolg'ondan tarqatish tushuniladi. Tuhmat tushunchasi Ma'muriy-javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasi va Jinoyat kodeksining 139-moddasida bayon etilgan.

Shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini qasddan behayo tarzda tahqirlash harakatlari ma'muriy chora qo'llanilgandan keyin ham takrorlansa, jinoiy jazo ushbu harakat uchun qo'llanilishiga asos bo'ladi, ushbu modda har kimning shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish huquqini mustahkamlaydi, shaxsiy hayotni qo'riqlashni huquqiy mustahkamlaydi. Shaxsiy hayotni qo'riqlash huquqi fuqaroning subyektiv shaxsiy nomulkiy huquqi hisoblanadi. Bunday huquqiy me'yorlar qonunda ko'zda tutilgan hollardan boshqacha tarzda jamiyat a'zolarining shaxsiy hayotiga aralashishning oldini olishni belgilab beradi.

1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro paktida: “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik va noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joyi daxlsizligi yoki yozishmalardagi sirlariga o‘zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha‘niga tajovuz qilish mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya qilinishi huquqiga ega”, deyiladi.

Shaxsiy hayotni muhofaza qilish, qo‘riqlash huquqi inson huquqlari sohasidagi xalqaro talablardan biri hisoblanadi. Shaxsiy hayot doirasini yuridik o‘lchovlar orqali aniqlash va belgilab berish-mushkul ish. Chunki unda paydo bo‘ladigan munosabatlar, asosan, axloq meyorlari yoki umume tirof qilingan xulq-atvor qoidalari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu munosabatlarning ayrimlarini huquqiy qo‘riqlash va tartibga solish talab qilinadi. Chunki bu ayrim fuqarolarning, qolaversa, butun bir jamiyatning manfaatlariga mos keladi.

## **6-§. Erkin ko‘chib yurish huquqi**

O‘zbekistonda fuqarolarning erkin ko‘chib yurish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarning mamlakatimiz hududida, shuningdek, kelish va chiqib ketishdagi ko‘chib yurish erkinligi - kishilarining shaxsiy nomulkiy huquqlaridan hisoblanib, ushbu huquq mutlaq konstitutsiyaviy xususiyatga ega. Shaxs ushbu huquqqa muvofiq o‘z xohishiga ko‘ra, O‘zbekiston hududi doirasida bir joydan ikkinchi joyga erkin ko‘chib o‘tishi, undan chiqib ketishi va qaytib kelishi mumkin. Shuningdek, erkin ko‘chib yurish - yashash joyini o‘zi erkin tanlash huquqini ham o‘z ichiga oladi. Qonunda belgilangan cheklash hollari bundan mustasnodir. O‘zbekiston Respublikasining “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi Qonuni ham bu boradagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan asosiy hujjatlar jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibini va O‘zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori bilan Respublika hududidan chiqish va unga kirish tartibi belgilangan. Chiqib ketish hujjatlari fuqarolarning yashash joyidagi ichki ishlari idoralari tomonidan rasmiylashtiriladi.

Fuqaro ko‘chib yurish huquqining rad etilgani haqida yuqori idoralarga shikoyat qilishi mumkin. Bunday shikoyatga bir oy mobaynida javob berilishi

qonunchilikda o‘z aksini topgan. Agarda fuqaro mazkur idoralar qarorlaridan ham norozi bo‘lsa, sudga murojaat qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati o‘rnataladi va u tarbiyaviy oldini olish ta‘sir choralarining majmuini ifodalab, nazorat ostidagilarga nisbatan ushbu qonunda ko‘zda tutilgan cheklashlarni qo‘llashdan iborat bo‘ladi.

Jazoni ijro etish muassasasidan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralari tomonidan ma‘muriy nazoratning o‘rnatalishidan asosiy maqsad, ilgari sudlanganlar tomonidan takror jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularda ijobiy ijtimoiy yo‘lga kirib olishini shakllantirishdan iboratdir.

“Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga binoan ma‘muriy nazorat voyaga etgan quyidagi shaxslarga nisbatan o‘rnatalidi:

a) og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o‘tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo‘liga o‘tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa;

b) og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o‘tab bo‘lganlaridan so‘ng ichki ishlar idoralarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to‘xtatish to‘g‘risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur etkazayotgan bo‘lsalar;

c) o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan.

Ma‘muriy nazoratga olish tartibi tuman (shaxar) ma‘muriy sudlari tomonidan amalga oshiriladi, hamda sudlar tomonidan ma‘muriy nazoratga olingan shaxslarga nisbatan quyidagi ma‘muriy cheklovlar qo‘yiladi.

a) kunning ichki ishlar idoralari belgilab qo‘ygan vaqtida uy (kvartira)dan chiqib ketishini ta‘qiqlash;

- b) tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo‘lishini taqiqlash (jumladan ko‘ngil ochish joylarida, spirtli ichimliklar sotiladigan joylarda);
- c) ichki ishlar idoralarining ruxsatisiz tuman (shahar)dan tashqariga chiqib ketishni taqiqlash;
- d) ro‘yxatdan o‘tish uchun har oyda bir martadan to‘rt martagacha militsiyaga kelib uchrashish kabilar shular jumlasidadir.

Ma‘muriy nazoratning o‘ziga hos jihatni ma‘muriy nazorat eng avvolo ma‘muriy cheklov choralarining bir turi hisoblanadi shuningdek, ma‘muriy nazorat faqat ma‘muriy sudlar tomonidan tomonidan ma‘muriy nazoratni amalga oshirish nazorat ostidagi kishining istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralariga yuklatilishida namoyon bo‘lish bilan birga ma‘muriy sudlarning qarorlari ma‘muriy nazoratni o‘rnatishga to‘liq asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **7-§. Fuqaroning so‘z va fikrlash erkinligi huquqi**

Har kimning o‘z fikrini erkin ifoda qilish huquqi o‘z ichiga izlanish erkinligi, har qanday axborotni olish, tarqatish, yozma yoki nashr shaklida yoxud badiiy shaklda ifodalash erkinligini amalga oshirish imkonini beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining 19-moddasida “Har bir inson e‘tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e‘tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat‘i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi”, deyiladi . Ushbu moddada muayyan huquqlar bilan birga, unda ma‘lum burch va javobgarlik ham mavjud. Xususan, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, boshqa shaxslar huquqi va obro‘sini hurmat qilish;  
ikkinchidan, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi sog‘lig‘i va qadriyatlarini himoya qilish.

Ta‘kidlash joizki, shaxsiy huquqga tegishli qabul qilingan konstitutsiyaviy me‘yorlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy andozalarga to‘la mos keladi.

Fikrlash erkinligi deganda so‘z erkinligi orqali amalga oshiriladigan, fikrini ochiq so‘zlash va boshqa shaxslarning e‘tiboriga yetkazish tushuniladi.

Ko‘p holatlarda so‘z erkinligi har bir fuqaroning so‘z erkinligini, ommaviy axborot vositalarida chiqish huquqini, o‘z fikr va e‘tirozlarini ochiq so‘zlashni kafolatlaydigan O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari

va kafolatlari to‘g‘risida»gi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlari asosida faoliyat ko‘rsatadilar.

Ma‘lumot uchun manbalarni olish, ularni tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha tarqatish va erkin izlanish bo‘yicha berilgan erkinlikning konstitutsiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi inobatga olin-gan. Jumladan, gazetalar, jurnallar, televideenie va radio dasturlari va om-maviy axborot vositalari orqali ma‘lumotlarni tarqatish va qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarning ma‘lum qismi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Axborotlarni yig‘ish, to‘plash, qayta ishslash, uzatish va ruxsat etilmagan tanishuvdan himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda axborot tizimlarining ma‘lumotlar bazalari va banklarini tashkil qilish, axborotlarni qayta ishslash va uzatishning boshqa tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar 1993-yilning 7-mayida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Har turdagи ma‘lumotlarni yig‘ish va tarqatishga bo‘lgan huquq konstitutsiyaviy tizimga qarshi yo‘naltirilgan, insoniyatning tinchligi va himoyasiga zid ravishda, jamiyat manfaatlariga qarama-qarshi maqsadda yoki boshqa insonlarning huquq va erkiga zid holatlarda qonun tomonidan cheklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bir qator cheklashlar mavjud bo‘lib, ular mazmunan aholining manfaatlarini himoya qilish bilan shartlanadi va pornografik mazmundagi materiallarni tarqatish uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlikni belgilaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XXI bobi “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” deb nomlanib, uning qator muddalarida, xususan, “Axborotlashtirish qoidalarini buzish” deb nomlangan 278<sup>1</sup>-moddasida, “Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish” deb nomlangan 278<sup>2</sup>-moddasida, “Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab tayyorlash yoxud o‘tkazish va tarqatish” deb nomlangan 278<sup>3</sup>-moddasida, “Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish” deb nomlangan 278<sup>4</sup>-moddasida, “Kompyuter sabotaji” deb nomlangan 278<sup>5</sup>-moddasida hamda “Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish” deb nomlangan 278<sup>6</sup>-moddasida tegishli javobgarlik choralari belgilab qo‘yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 155-moddasida "Axborotdan foydalanish qoidalari" buzish ma'muriy huququzarlik sifatida tan olingen bo'lib, unga ko'ra axborot tizimidan foydalanish maqsadida unga ruxsatsiz kirib olishda ifodalangan axborot va axborot tizimlaridan foydalanish qoidalari buzish (1-qism); axborot tizimlarining ishini buzishga olib kelgan xuddi shunday huququzarlik, xuddi shuningdek, kirish cheklangan axborot tizimlarini axborot-hisoblash tarmoqlariga ulash chog'ida tegishli himoya choralarini ko'rmasdan (2-qism); yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qonunga xilof ravishda ulash, bu tarmoqlarga tegishli himoya choralarini ko'rmasdan ulanish, xuddi shuningdek, ulardan ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda olish (3-qism); o'zganing elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi yoki ma'lumotlar bazasini o'z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda undan nusxa olish yoki bunday asarlarni tarqatish (4-qism) muayyan javobgarliklar keltirib chiqishiga asos bo'ldi, deb belgilangan.

Shu bilan birga, yuqoridagi kodeksning 166-moddasi 3-qismida ishlab chiqarish markasida yoki tovar belgisida ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan yeri to'g'risida axborot bo'limgan tovarlarni realizatsiya qilish uchun ham tegishli sanktsiyalar o'rnatilgan.

Fikrlash va so'zlash erkinligi qonun tomonidan davlat yoki boshqa ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish nuqtai nazaridan cheklanishi mumkin. Bunday cheklashlar quyidagilar bilan izohlanadi: davlat sirlarini ovoza qilish davlatning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga, mudofaa qudratiga va davlat hamda jamiyatning boshqa manfaatlariiga putur yetkazishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi Qonunida davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxat bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatlari mutlaqo maxfiy va maxfiy-harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar Respublikaning davlat sirlari deb ko'rsatilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotlar to'plash va tarqatish cheklanadi. Davlat, harbiy va xizmat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar davlat sirlari qatoriga kiradi.

Davlat sirlari bilan ishslash huquqi bo'lgan barcha davlat organlari, tashkilotlar, korxonalar, birlashmalar, shuningdek, vakolatli shaxslar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ularni saqlash va himoya qilish majburiyatini bajarishlari shart. Shundan kelib chiqqan holda, har bir fuqaro ma'lumotni izlash va tarqatish huquqini amalga oshirishda ulardan butun jamiyatning va boshqa fuqarolarning manfaatiga zid ravishda foydalanmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat sirlari haqida ma'lumotlarni to'plab, boshqa xorijiy davlatga topshirsa, uning bu harakatlaridagi holat jinoyat tarkibini keltirib chiqarib, davlatga xoinlik deb nomlanadi.

Bir so'z bilan aytganda fikrlash, so'zlash erkinligi, axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqi fuqarolarga davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Shu o'rinda mustaqillik yillarda mamlakatimizda fuqarolarning so'zlash erkinligi, axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqlarini ta'minlash borasida chuqur demokratik islohotlar amalga oshirilib kelinayotganligini qayd etib o'tish joiz.

### **8-§. Fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi**

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslar zimmasiga fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkonini yaratib berish vazifasi yukланади.

Bunday qoida fuqarolarga sudda o'ziga nisbatan har qanday ish ko'rileyotganda o'z huquq va manfatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqini amalga oshirishda ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga asosan hamma sndlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasi sndlarda jinoiy ishlarining ochiq tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining sud jarayonining hamma ishtirokchilariga o'zlarining huquq va manfaatlariga tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

Konstitutsiya va tegishli qonunlarga binoan ayrim shaxslarning tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish huquqi ba'zi bir holatlarda cheklanadi, jumladan, bu kabi hujjat va materiallar kimning huquqi va manfaatiga tegishli bo'lsa, faqat shu shaxslar tegishli hujjat va materiallar bilan tanishish huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning hujjatlar bilan tanishish huquqi, shuningdek, fuqarolik, mehnat va xo'jalik huquqi qonunchiligidagi ko'rsatilgan.

Agar fuqarolarning yuqorida ko'rsatilgan huquqlari buzilgan taqdirda, ular o'z shikoyatlari bilan suda murojaat etish huquqiga egadirlar. Bu kabi shikoyatlar qonunda ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

"Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" Qonunida fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu qonun davlat hokimiysi organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berish, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiysi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini ta'minlashga qaratilgan.

### **9-§. Vijdon erkinligi huquqi**

Vijdon erkinligi – bu har bir inson o'zi hohlagan diniga e'tiqod qiliishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi va dinga nisbatan betaraf bo'lishi, shuningdek,, dinga qarshi bo'lishlighi bilan ifodalanadi.

O'zbekistonda diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. O'z navbatida har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Ko'rinish turibdiki, Konstitutsiyamizda fuqarolar uchun bu borada ham juda keng erkinliklar yaratilgan.

Vijdon erkinligini tartibga soluvchi normalar muhim ahamiyatga ega. Vijdon erkinligi insonning dinga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Vijdon erkinligining mazmuni insonning dinga e'tiqodi bor yoki yo'qligi, betaraf bo'lishi yoki ateist tushunchasiga ega bo'lishi huquqidan iborat. Shu bilan bir qatorda insonlarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarda tengligi vijdon erkinligining asosiy yuridik kafolatlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi bunday huquqni har bir fuqaro uchun kafolatlaydi. O'zbekistonda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy andozalarga to'liq javob beradi.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) o'z xohishiga ko'ra maslakka yoki dinga ega bo'lish;

b) o'z maslagi va dinini o'zgartirish;

c) dinga va maslakka bir o'zi, birgalikda e'tiqod qilish, ommaviy yoki shaxsiy tartibda dinni o'rganish va sig'inish;

d) diniy rasm-rusum va toat-ibodat marosimlarini o'tkazish.

Shu kabi holatlар boshqa xalqaro huquqiy aktlarda ham fikr, vijdон va din erkinligi mazmunida aks etadi. BMTning din to'g'risidagi va har xil ta'limotlarga asoslangan barcha turdagи kansitishlarni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasida vijdон erkinligining muhim tomonlari ko'rsatilgan (6-modda).

Demak, har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik e'tiqod erkinligi mazmunini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi mazmunining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining "Vijdон erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunida aks etadi. Ushbu hujjat tegishli soha bo'yicha O'zbekiston tarixidagi birinchi qonun akti bo'lib, u vijdон erkinligi borasida vujudga keladigan munosabatlarning yangicha tartibini belgilab berdi.

Mazkur qonun vijdон erkinligi bilan bog'liq bo'lган Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro pakt va shartnomalar qoidalariga amal qilgan holda, xalqaro aktlarning asosiy me'yor va talablarini inobatga olib, vijdон erkinligini konstitutsiyaviy shaklda amalga oshirilishining tartib va tamoyillarini belgilaydi.

Ushbu qonunning 3-moddasida fuqarolarning vijdон erkinligi huquqi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra vijdон erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi,

axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Vijdon va e'tiqod erkinligi huquqining amalga oshirilishiga qarshilik ko'rsatish (masalan, diniy marosimlarni o'tkazishga noqonuniy qarshilklar ko'rsatish) jinoiy-huquqiy tartibda jazolanadi.

Vijdon erkinligining cheklanishiga yo'l qo'yimaslik, uning ta'minlanishiga muhim kafolat hisoblanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktda ushbu huquqlarni cheklashning ikkita asosi belgilangan bo'lib, uning birinchisi, qonun asosida, ikkinchisi esa jamiyat himoyasi, huquq-tartibot, sog'liqni saqlash, boshqa shaxslarning asosiy huquq va erkinligini ta'minlash maqsadidagina amalga oshirilishi belgilangan. Boshqa holatlarda va shakllarda bu boradagi huquqlarning cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fuqarolarning diniy e'tiqodga bo'lgan erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy normalar ijtimoiy voqelikda o'zining ifodasini topib kelmoqda.

Mustaqillik yillarda o'zining ilmiy jasorati, buyuk kashfiyotlari bilan islom dunyosida ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturudiy, Maxmud Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoni, Burxoniddin Marg'ioniy, Baxovuddin Naqshbandiy, Xoja Axror Valiy kabi siymolarning nomlari qayta tiklandi hamda Shohi Zinda, Registon, Bibixonim mashhur majmualar qayta ta'mirlanib har tomonlama obod etildi. Bundan tashqari, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi kabi qadimiy shaharlarimizda joylashgan me'moriy obidalarimiz qayta tiklandi. Shu bilan birga, asrlar davomida muqaddas diniy qadriyatlarimiz sifatida nishonlanib kelinadigan Amazon va Qurbon Hayitining birinchi kunlari bayram deb e'lon qilindi. Fuqarolarimiz xaj ziyoratlariga emin-erkin borishlari uchun davlatimiz tomonidan har tomonlama shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda har yili o'n mingga yaqin fuqarolarimiz muqaddas xaj ziyoratiga safar qilmoqdalar.

## *O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari*

1. O‘zbekiston Respubliksi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Bu qaysi qonunlar asosida kafolatlanishi ta‘minlanadi?
2. O‘zbekistonda har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Bu so‘zning ma‘nosini ochib bering.
3. Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi O‘zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddasida mustahkamlangan va qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishi belgilangan?
4. O‘zbekistonda fuqarolarning konstitutsiyaviy sha‘ni va qadr-qimmati tavsifini ifodalab bering.
5. O‘zbekiston fuqarolarining ko‘chib yurish huquqi qaysi konstitutsiyaviy huquq turiga kiradi?
6. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish va kirish huquqlari qaysi hujjatda belgilangan?
7. O‘zbekiston fuqarolarining chet elga chiqishi to‘g‘risidagi qoidalarda alohida toifadagi fuqarolarga chet elga chiqishga asoslangan cheklashlar o‘rnataligan. Ichki ishlar organlari qaysi toifadagi shaxslarning chet elga chiqish huquqini rad etish mumkin?
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida fuqarolarning fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi mustahkamlangan. Bu huquqlarning amal qilish tartibi qaysi qonunlarda o‘z aksini topgan?
9. O‘zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy-huquqiy vijdon erkinligini tartibga soluvchi me‘yorlarni ta‘riflab bering.

## **XI BOB. SIYOSIY HUQUQLAR**

- 1-§. Fuqarolarning siyosiy huquqlari.
- 2-§. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki.
- 3-§. Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi.
- 4 -§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi.
- 5 -§. Fuqarolarning murojaat qilish huquqi.

### **1-§. Fuqarolarning siyosiy huquqlari**

Fuqarolarning siyosiy huquqlari deyilganda, insonlarning bevosita siyosiy manfaatlari tegishli huquqlari tushuniladi. Fuqarolarning siyosiy huquqlari shaxsning fuqarolik holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tegishli davlatning o'z fuqarolariga jamiyat va davlat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo'lishi mumkin. Bu farqlarni konstitutsiyalar shaxsiy huquqlarni barchaga (har kim, hamma uchun), siyosiy huquqlarni esa fuqarolarga tegishli etib ko'rsatish orqali aniq namoyon qiladi.

Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar, tegishli davlat organlarini vujudga keltirish, tuzish, shakllantirish, ularning ishida ishtirok etish, davlat organlari va mansabдорлар faoliyatini nazorat qilish, qonunlar yaratilishida ishtirok etish, siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyatlari shaklida namoyon bo'ladi.

«Tabiiy huquq» nazariyasiga muvofiq, shaxsiy huquqlar insonning ajralmas huquqi bo'lib, undan shaxsning fuqaroligidan qat'iy nazar, barcha insonlar foydalansa va davlat har qanday hollarda ularni ta'minlashga majbur bo'lsa, siyosiy huquqlar mazmuni va doirasini muayyan davlatning xususiyatlaridan kelib chiqib, faqat o'z fuqarolari uchun o'rnatiladi. Davlatning siyosiy rejimi qanchalik demokratik bo'lsa, siyosiy huquqlar shunchalik ko'proq bo'ladi va ulardan foydalanish kengroq bo'ladi. Aksincha, davlat rejimi nodemokratik bo'lsa, fuqarolarning siyosiy huquqlari doirasi torroq bo'ladi va mavjud siyosiy huquqlarni ham turli vositalar bilan cheklash hollari uchrab turadi.

Demokratik davlatlarda siyosiy huquqlarga har bir fuqaroning

zaruriy huquq va erkinliklari sifatida qaraladi. Ana shu xususiyati bois uni davlat tomonidan belgilanadigan huquq va erkinliklar sifatida ko'rish mumkin. Davlat xududida tabiiy huquq va erkinliklar singari siyosiy huquqlar ham to'liq e'tirof etiladi, rioxva himoya qilinadi. Bu hol O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida belgilangan.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari, eng avvalo, davlatni boshqarishda ishtirok etish, davlat faoliyatiga ta'sir etish imkoniyatini yaratuvchi huquqlar va burchlar yig'indisi bo'lgani uchun, ularning miqdori, amalga oshirish chora-tadbirlar doirasi qanday bo'lishi xalqaro huquq normalari asosida davlat tomonidan belgilanganadi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq, fuqaroning muomala layoqati, u voyaga etgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach, to'la hajmda vujudga keladi. Shu bois shaxsiy huquqlardan farqli tarzda, fuqarolarning siyosiy huquqlarga ma'lum yoshga yetgandagina ega bo'lishi tabiiydir.

Shuningdek, siyosiy huquqlardan foydalanishda, ayrim hollarda, chegaralar o'rnatilishi mumkin. Masalan, saylash huquqi 18 yosh qilib belgilangan bo'lsa, yana saylovlardan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar, degan qoida Konstitutsiya (117-modda)da ko'rsatilgan. Saylanish huquqidan foydalanish uchun ham ma'lum yoshga yetgan bo'lish kerak. Masalan, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga 21 yosh, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 25 yosh, Prezidentlikka saylanish uchun 35 yosh. Bundan tashqari, saylov qonunlarida harbiy xizmatchilar, professional diniy arboblar uchun ham qonun doirasida cheklashlar o'rnatilgan. Siyosiy huquqlarni amalga oshirishda o'rnatiladigan bu kabi ayrim huquqiy cheklashlar, boshqa xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi ham mavjud.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari fuqarolar tomonidan yakka tartibda va uyushgan shakllarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, siyosiy huquqlar fuqarolar tomonidan bevosita va bilvosita shakllarda amalga oshiriladi.

## **2-§. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki**

Konstitutsiyada mustahkamlangan jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda O'zbekiston fuqarolarining ishtirok etish huquqi xalqaro

standartlarga to‘la mos keladi, ushbu standartlar 1948-yil 10-dekabrdagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida, har bir shaxs o‘zining davlat boshqaruvida bevosita yoki erkin saylangan o‘z vakillari orqali ishtirok etish; 1966-yil 16-dekabrdagi BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 25-moddasida, har bir fuqaro hech bir kamsitilishlarsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquq va imkoniyatlariiga ega bo‘lishi o‘z aksini topgan.

Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi bir qator xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Masalan, 1958-yilgi (2008-yil 23-iyulda o‘zgartirishlar kiritilgan) Fransiya Konstitutsiyasi<sup>65</sup>ning 3-moddasida: «O‘z vakillari orqali va referendum yo‘li bilan amalga oshiriladigan, milliy suverenitet – xalqqa tegishli», deb yozib qo‘yilgan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi<sup>66</sup>ning 32-moddasida: «Rossiya Federatsiyasi fuqarolari davlat boshqaruvi ishlarida bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Rossiya Federatsiyasi fuqarolari davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylash va saylanish hamda referendumlarda qatnashish huquqiga egalar», deya qayd etilgan.

Xalq hokimiyatchiligi, boshqa demokratik davlatlardagi singari bizning mamlakatda ham fuqarolar tomonidan bevosita hamda o‘z vakillari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va turli darajadagi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish, davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati orqali amalga oshiriladi.

O‘zini o‘zi boshqarish, mahalla orqali amalga oshiriladi. Mahalla va uning organlari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi va «Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylovi to‘g‘risida»gi qonunlari hamda boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

---

<sup>63</sup> [www.conseil-constitutionnel.fr](http://www.conseil-constitutionnel.fr)

<sup>65</sup> [www.constitution.ru](http://www.constitution.ru)

Mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida davlat va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari bilan hamkorlikda quyidagilarda ishtirok etadi:

- aholiga manzilli ijtimoiy himoya choralarini amalga oshirish (aholiga turli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish va voyaga etmagan bolalari bo‘lgan muhtoj oilalarga, ikki yoshta to‘limgan bolalari bor ishlaydigan onalarga, shuningdek, byudjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga nafaqalar tayinlash to‘g‘risidagi masalalarni hal etadi, ishsizlarni ishga joylashtirish);
- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirish;
- o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksa fuqarolarga patronaj xizmati ko‘rsatish;
- tegishli hududda yashovchi fuqarolar bandligini ta‘minlashga, shu jumladan kasanachilikni tashkil etishga ko‘maklashish;
- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, communal xizmatlar ko‘rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- atrof muhitni muhofaza qilish, yerdan foydalanish va muhofaza qilish hamda yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiqish;
- tegishli hududda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta‘minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik hamda huquqburzaliklar profilaktikasiga doir ishlarda va ularning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashish;
- communal to‘lovlar undirilishini ta‘minlash, issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazishda, tegishli hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, uylar va hovlilarni namunali saqlashga doir ishlarni ixtiyoriylik asosida tashkil etishda shartnoma asosida ko‘maklashish.

Referendum – bu bevosita demokratiyaning shakllaridan biridir. Davlat ishlarini boshqarishda umumxalq ovoz berish yo‘li bilan fuqarolarning bevosita ishtirok etish shakli. O‘zbekiston Respublikasining referendumi Konstitutsiya va “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi 1991-yil 18-noyabrdagi Qonuniga muvofiq o‘tkaziladi. Referendum saylovlar bilan bir qatorda, xalq irodasining bevosita ifodasidir. Saylovlardan farqli o‘laroq, referendum obyekti ma‘lum bir lavozim uchun nomzod emas, balki qonun, qonun loyihasi, Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish, davlat ichki yoki tashqi siyosati masalalari bo‘ladi.

Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin (Konstitutsiyaning 9-moddasi sharhiga qarang).

Davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish – fuqarolarning davlat ishlarida ishtirok etish shakli sifatida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat oliy mansabdor shaxslarini va turli darajadagi deputatlarni bevosita saylashini anglatadi.

Shunday tarzda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat boshlig‘ini, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari – qonunchilik (vakillik) hokimiyatining yuqori organ vakillarini va mahalliy Kengashlar xalq deputatlarini – joylardagi vakillik hokimiyati organlarining vakillarini saylaydilar.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati – fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirookino shaklidir. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi norma asosiy Qonunga 2014-yilda kiritilgan.

Jamoatchilik nazorati – bu shaxs, jamiyat va davlat munosabatida, bu sohada ijtimoiy adolat prinsipiiga rioya etish, o‘zaro javobgarlik, tenglik, manfaatlar balansini ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim omildir. Ushbu institut inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishning, ularni davlat organlari faoliyatida ustuvorligini ta‘minlashning yana bir muhim kafolatlaridan hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratining u yoki bu jihatlari, uning shakli va usullari 40 dan ortiq qonun hujjatlarida mayjudligini ta‘kidlab o‘tish zarur. Shuningdek, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunda jamoatchilik ekologik nazoratining turli shakllari belgilangan, chunonchi: atrof-muhit holatini va uning xo‘jalik faoliyati hamda boshqa faoliyat ta‘siri ostidagi o‘zgarishlarini, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan

oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishini, davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishini kuzatib borish; davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish; tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitini muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, obodonlashtirilishi hamda ko‘kalamzorlashtirilishi masalalariga doir axboroti hamda hisobotlarini eshitish; jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazish.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunga 2014-yilda kiritilgan o‘zgartirishlar bilan jamoatchilik nazorati institutiga – davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokiga konstitutsiyaviy vosita maqomi berildi. Shunday qilib, jamoatchilik nazorati institutining Konstitutsiyaga asosan mustahkamlanishi kelgusida islohotlarning chuqurlashuviga, xalq hokimiyati tamoyili tasdiqlanishiga, davlat organlarining ishslash samaradorligini oshirishga, ularning mas‘uliyatini kuchaytirishga, “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari” prinsipining bosqichma-bosqich amalga oshirishiga imkon tug‘diradi.

Ta‘kidlash joizki, jamoatchilik nazorati barcha rivojlangan davlatlarda keng foydalaniladi va jamoatchilikning, shuningdek, fuqarolar va ularning birlashmalarining davlat organlari faoliyati, birinchi o‘rinda ijroiya hokimiyati organlari ustidan nazoratini anglatadi.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirokini ta‘minlash, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan **jamoatchilik nazoratini** amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish, jamoatchilik nazorati funksiyalarini yanada kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali mexanizmlari shakllantirildi.

Demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni ta‘minlash masalasi konstitutsiyaviy tuzumning negizini tashkil etuvchi «shaxs-jamiyat-davlat» munosabatlarining mutanosibligiga crishish va manfaatlar muvozanatini ta‘minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Sababi, aynan jamoatchilik nazorati, bir tomonidan, fuqarolar

va jamoat birlashmalarining davlat organlarining qonuniy faoliyatidan doimiy ravishda xabardor bo‘lish, ochiqligini ta‘minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, davlat hokimiyyati organlari va mansabdor shaxslarning ular manfaatlariiga daxldor qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etishlari, jamoatchilik ta‘sirini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi bosqichda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta‘minlashning yaxlit tizimini shakllantirish, uning normativ-huquqiy asosini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli Konstitutsiyada jamoatchilik nazorati instituti mustahkamlandi. Jumladan, 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida” (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan Konstitutsiyaga davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining yaxlit tizimini shakllantirishni nazarda tutadigan o‘zgartishlar kiritildi. Jumladan, Konstitutsiyaning 32-moddasiga jamoatchilik nazoratiga oid quyidagi konstitutsiyaviy normalar kiritildi: “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

Mazkur yangi konstitutsiyaviy normalar o‘z mazmuniga ko‘ra, hokimiyyat tarmoqlari bo‘linishining konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishga, ular o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya etishhlarini, ular o‘z oldida turgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, gumanitar hamda boshqa sohalardagi vazifa va vakolatlarni samarali amalga oshirishlarini ta‘minlaydi.

Aynan shuning uchun ham, o‘z oldiga adolatli fuqarolik jamiyatini

shakllantirish maqsadini qo‘yan mamlakatimizda bosqichma-bosqich, izchillik bilan jamoatchilik nazorati, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish va rivojlanterish borasidagi islohotlar amalga oshirib kelinayotganligini isbotlamoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki yillardayeoq Konstitutsiyamizda davlat hokimiyatining jamiyat oldida mas‘ul ekanini belgilovchi qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Asosiy qonunimizning 2-moddasida davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘ul ekanligi belgilangan. 19-moddada O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqligi mustahkamlab qo‘yilgan. Asosiy qonunda bu va boshqa bir qator qoidalarning mustahkamlanganligi aholi keng qatlamlari qo‘llab-quvvatlaydigan boshqa vazifalar bilan bir qatorda, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga qodir bo‘lgan fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining jadal shakllanishi va rivojlanishini ta‘minlovchi qonunchilik tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida va fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini sezilar darajada kuchaytirishga, ularning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolatlarini mustahkamlashga qaratilgan boshqa bir qator qonun hujjalarda o‘z rivojini topdi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “... biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan uning kuch ishlaturvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga e‘tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q” deb ta‘kidlagan edilar<sup>67</sup>.

O‘tgan yillarda mamlakatimizda jamoatchilik nazorati institutining izchil rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan qator qonunlar qabul qilindi. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va

<sup>67</sup>Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараккиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йули. Т11. – Т.,2003. – Б. 28-29.

boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g’risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Mazkur qonunlarning qabul qilinishi davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlashga, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirishga, jamoatchilikni davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida xabardor qilishga, mamlakatimizni demokratik yangilash hamda modernizatsiya qilishga doir vazifalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli hamda ahamiyatini oshirishga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar, bitimlar hamda shartnomalar, shuningdek, boshqa hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatalishiga xizmat qildi.

**Jamoatchilik nazorati quyidagi jihatlari bilan boshqa nazorat turlaridan ajralib turadi:**

*birinchidan*, mazkur nazorat turi fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladi;

*ikkinchidan*, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va boshqa qonuniy mansaatlari muhofazasini ta‘minlaydi;

*uchinchidan*, ushbu nazoratning asosiy obyekti davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati hisoblanadi;

*to‘rtinchidan*, o‘zida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari manfaatlarini uyg‘unlashtiradi, jamoatchilik fikri va kuchiga tayanadi<sup>68</sup>.

Bugungi kunda milliy davlatchilik hamda jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi samarasi o‘laroq fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib bormoqda.

Agar xorijiy tajribaga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, jamoatchilik nazorati AQSh, G‘arbiy Yevropa davlatlari va ayrim skandinaviya mamlakatlarida uni amalga oshirishning ko‘plab usullari va shakllarini o‘zida ifodalovchi yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat asosan, davlat hokimiyati faoliyatining shaffofligi, unda jamiyatning, jamoatchilik institutlarining faol ishtiroti misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yana shuni ham ta‘kidlash kerakki, G‘arbda “jamoatchilik nazorati” tushunchasi amalda deyarli qo‘llanilmaydi,

<sup>68</sup> Ш.Хабилжонов, “Жамоатчилик назорати – изчил тараккиётнинг муҳим омили” [www.adolat.uz/2015/05/jamoatchilik-nazorati-taraqqiyot-omili/](http://www.adolat.uz/2015/05/jamoatchilik-nazorati-taraqqiyot-omili/)

ko‘proq mazkur tushuncha, masalan, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya kabi skandinaviya mamlakatlarida “parlament nazorati” tushunchasi bilan ifodalanadi<sup>69</sup>. Mazkur davlatlarda 1880-1930-yillarda siyosat asosan jamiyatning manfaatlariga xizmat qiladigan islohotlarga yo‘naltirildi. Masalan, Shvetsiyada, ijro hokimiyatining faoliyatini nazorat qilish maqsadida prokuratorlar saylanadigan bo‘ldi. Ularning asosiy vazifasi ijro hokimiyati organlari xatti-harakatlari ustidan berilgan fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish va taftish qilish hisoblangan. Norvegiya, Daniya kabi davlatlarda esa parlament nomidan harakat qiluvchi va asosiy vazifasi qonunlarning ijrosini nazorat qilish hisoblangan maxsus komissarlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

1995-yildan Shvetsiyada ijtimoiy audit keng tarqala boshladi. Uning mohiyati asosan turli xil ijtimoiy so‘rovlar, tadqiqotlar o‘tkazish orqali keng jamotchilikka davlat hokimiyati faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berish bilan ifodalanadi<sup>70</sup>.

Mazkur davlatlarda yuzaga kelgan jamoatchilik nazoratining yana bir timsoli bu – ombudsmen institutidir. Mazkur institut bugungi kunga kelib, dunyoning boshqa juda ko‘plab davlatlari tajribasida foydalaniylmoqda.

Bugungi kunga kelib, jamoatchilik nazoratining o‘ziga xos jihatlari va amalga oshirish mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va bir qator qonun hujjalariда o‘z aksini topdi. 2018-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “**Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni**<sup>71</sup> qabul qilindi. Ushbu qonun mazkur yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonun 21 moddadan iborat bo‘lib, uning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Referendumlarga, saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish, shuningdek, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot, tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, sud ishlarini

<sup>69</sup> Степанова Т.В. Европейский опыт организации общественного контроля за работой органов государственной власти-пример Скандинавских стран.<http://c.a2g-secure.com/?E=WK4I4g%2bscJFC%2fH6IRkKa%2bA%3d%3d-l1gGst5pXBU%3d&s1=RU&>

<sup>70</sup> Мировой опыт общественного контроля над деятельностью власти: уроки для России // Информационно-аналитический журнал «Политическое образование» <http://www.lawinrussia.ru/mirovoi-opyt-obshchestvennogo-kontroluya-nad-deyatelnostyu-vlasti-uroki-dlya-rossii-0>

<sup>71</sup> Конун хужжатлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон.

yuritish, jazolarni ijro etish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari **jamoatchilik nazorati subyektlaridir**.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Davlat organlarining va ular mansabдор shaxslarining:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olishga;

fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining ijro etilishini ta'minlashga;

o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga;

davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati **jamoatchilik nazoratining obyekti**dir.

**Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:**

- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;
- jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi;
- jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;
- jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabдор shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

**Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:**

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;

- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdar shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoat birlashmalariga uyushish huquqi fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlari hisoblanadi. Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarida turli vositalar orqali ishtirok etadi. SHulardan biri fuqarolarning turli jamoat birlashmalari, harakatlarini tashkil qilish, ularga a'zo bo'lib kirish huquqlaridir.

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish davlat va jamiyat qurilishining eng muhim ustuvorligi sifatida belgilangan.

### **3-§.Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi**

Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar orqali fuqarolar o'zlarining fikrlarini erkin shakllantiradilar va ifoda etadilar, shuningdek, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotining turli masalalari, tashqi siyosat masalalari bo'yicha talablarini ilgari suradilar.

Milliy, xorijiy yuridik adabiyotlarda mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar quyidagicha ko'rinishda belgilanadi:

Miting – asosan ijtimoiy-siyosiy xarakterda bo'lган dolzARB muammollar bo'yicha ijtimoiy fikrni ommaviy bildirish uchun belgilangan joyda fuqarolarning hozir bo'lishidir.

Yig'ilish – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lган biror-bir masalani jamoaviy muhokama qilish uchun fuqarolarning maxsus ajratilgan yoki shuning uchun moslashtirilgan joyda birgalikda hozir bo'lishi.

Namoyish – fuqarolar guruhining uyuşdırılmış harekatlanishi, shu jumladan transport vositalaridan, plakat, transparant va boshqa ko'rgazmali tashviqot vositalaridan foydalanish asosida jamoaviy kayfiyatini bildirishi.<sup>72</sup>

Davlat hokimiyyati organlari fuqarolarga namoyishlar o'tkazish orqali siyosiy huquqlarini amalga oshirishlari uchun maydon va ko'chalar, shuningdek, radio, televideenie va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatini berishi lozim.

Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqini amalga oshirish bir qator vakolatlarni – shaxsiy ijobjiy harakatlar huquqi (ommaviy tadbirni o'tkazish to'g'risida ariza berish, tadbirni tashkil etish, tadbirda ishtirok etish va h.k.); talab qilish huquqi (zarur moddiy-texnika zaxiralarini, shuningdek, maydon, ko'cha, bino berish to'g'risida); tartibga solish huquqi (zarur hollarda davlat ta'sir chorasi qo'llashning yuridik imkoniyati)ni o'z ichiga oladi.

Fuqarolar o'zlarining mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish shaklidagi ijtimoiy faoliy huquqini faqat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida amalga oshirishlari shart. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldaggi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni yana takomillashtirish, ularni o'tkazishda fuqarolarning xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasini Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlagan.

Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish konstitutsiyaviy huquqining aniq huquqiy tartibga solinishi zaruriyati quyidagi sabablarga asoslanadi.

Birinchidan, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi umum tan olingan demokratik talab bo'lganligi uchun ham alohida himoyaga muhtoj bo'ladi, chunki uning yordamida turli xil siyosiy kuchlar fikrlari va talablari shakllanadi va ifodalanadi va shu boisdan

<sup>72</sup> Конституциявий ҳукук. Энциклопедик луғат. Масъул мухаррир ва муаллифлик гурухи раҳбари Б. Мустафоев - Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 584 б.; Полянская И.С. Конституционно-правовое регулирование права граждан Российской Федерации на проведение собраний, митингов и демонстраций, шествий и пикетирования: Дисс. канд. юрид. наук. – М., 2005 – 185 с.; Костеников М.В. Куракин А В., Тргубова Е.В. Конституционное право на проведение мирных собраний, митингов, демонстраций, шествий и пикетирования и административная ответственность как средство его обеспечения // Административное право и практика администрирования. – 2013. – №8. – С. 82-105.

fuqarolar (ular birlashmalar)ning ommaviy hokimiyat institutlari bilan o'zaro aloqasi ta'minlanishi uchun zarur omillar yaratiladi.

Ikkinchidan, tinch ommaviy tadbirlarning mohiyatan jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzishga xavf solish darajasi borligini inkor etmaslik kerak. Keyingi yillardagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, avvaliga tinch bo'lgan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar jamoat tartibini guruh bo'lib buzishga aylanib ketgan, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, shuningdek, mol-mulkka xavf tug'dirgan.

Uchinchidan, mazkur moddada ko'rsatilgan fuqarolarning ijtimoiy faolligi va boshqa ko'plab odamlar yig'ilgan har qanday ommaviy tadbirlar, ayrim davlatlarda yuz bergen voqealarga tayanib aytish mumkinki, terroristik aktsiyalar obyektiga aylanib qolmoqda. Bularning hammasi 33-moddada ko'zda tutilgan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarni tayyorlash va o'tkazish tadbirlarini yuqori ustalik darajasida amalga oshirishni talab etadi. Bunday tadbirlarning maqsadi mitinglar va yig'ilishlarda ishtirot etayotgan fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ular tomonidan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarida jamoat tartibini saqlash.

Shu munosabat bilan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish chog'ida xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash maqsadida oldindan ushbu tadbirlar to'g'risida mahalliy davlat hokimiyyati organlari ogohlantirilishi va ular esa, o'z navbatida, har xil huquqbazarliklar sodir bo'lmasligining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni ko'rishlari shart. Xususan, amaldagi qonunchilikka ko'ra O'zbekiston Respublikasida miting, yig'ilish, ko'cha yurishi va namoyish o'tkazish mo'ljallanayotganda tashkilotchilar ularning boshlanishidan 10 kun avval tegishli hokimiyatga tadbirni o'tkazishga ruxsat berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi shart. Bunda ariza bilan mehnat kollektivlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining 18 yoshga to'lgan vakolatlari vakili, fuqarolarning alohida guruhlari murojaat qilishlari mumkin. Arizani qabul qilgan hokimiyat tadbir o'tkazilishidan 5 kun oldin tashkilotchilarga qabul qilingan qarori haqida xabar beradi. Hokimiyyat organlari mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkaziladigan joyni belgilaydi, uning boshlanishi va tugashini kelishadi.

O'zining jamoaviy faolligini miting, yig'ilish va namoyishlar shaklida amalga oshirish konstitutsiyaviy huquqi xalqaro-huquqiy standartlarga mos keladi. Chunonchi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) har bir insonning erkin tinch yig'ilishlar va uyushmalarga birlashish huquqini belgilaydi, 1966-yil 16-dekabrdagi

Fugarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt tinch yig‘ilishlar qilish huquqini tan oladi. Shu bilan birga, ushbu Paktga ko‘ra mazkur huquqdan foydalanishda hech qanday cheklovlар bo‘lishi mumkin emas, faqat qonunga binoan hamda demokratik jamiyat uchun xos bo‘lgan davlat va jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholining sog‘lig‘i va axloqi yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish zaruriyati yuzasidan ular cheklanishi mumkin (32-modda).

Konstitutsianing 33-moddasida faqat asoslangan xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash yuzasidan hokimiyat organlarining huquqi aks ettirilgan. Bu norma dunyo tajribasiga to‘liq mos keladi.

Mahalliy hokimiyatga bunday tadbirlarni o‘tkazish davomidagi huquqburzaliklarni bartaraf etish bo‘yicha harakatlarining qattiqlik darajasi hamda bu kabi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish imkoniyatini belgilashda har tomonlama mustaqillik berilishi g‘arb demokratiyasiga xos umumiy jihat hisoblanadi.

Xususan, AQSh Oliy sudi mamlakat Konstitutsiyasida belgilangan huquqni tushuntirish bo‘yicha qaror qabul qilgan: “Bizning demokratik jamiyatimiz uchun fundamental bo‘lgan so‘z va yig‘ilishlar erkinligi huquqi har kimning har qanday jamoat joyida yoki xohlagan vaqtida o‘zining fikri yoki g‘oyasini bildirish mumkinligini anglatmaydi”. Bunda munisipal hokimiyatlar, agar bunday tadbirlar transport harakatlanishiga yoki boshqa ehtiyojlar uchun zarur, deb hisoblasalar, shahar hududidan foydalanishi “to‘xtatib” turish huquqiga ega bo‘ladi. Ruxsat bo‘limgan yoki tadbirni o‘tkazish qoidalari buzilgan taqdirda mahalliy hokimiyat organlari tadbirni to‘xtatishi, uni to‘xtatish uchun maxsus vositalardan foydalanishi hamda uning ishtirokchilarini qo‘lga olishi mumkin. Agar tadbir noqonuniy bo‘lsa, jarimalar minglab dollarni, qamoqqa olishlar oylarni tashkil etishi mumkin.

Barcha rivojlangan demokratik davlatlarning qonunchiligi yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligi huquqidan foydalanishi suiiste‘mol qilganlar uchun jarimalar va qamoq jazosi belgilangan jinoiy javobgarlikka tortishni ko‘zda tutadi.

Masalan, GFRda bunday aktsiyalarni o‘tkazish uchun ruxsat olishi rasman taqiqlangan tashkilotlarning ro‘yxati mavjud. Noqonuniy aktsiyalarni o‘tkazish (ishtirok etish) hamma holatlarda ham qattiq jazolanadi. Bundan tashqari, mitinglar va yig‘ilishlar o‘tkazish erkinligini cheklash yoki shartlarini belgilash AQSh, GFR (“Yig‘ilishlar

va namoyishlar to‘g‘risida”gi Federal Qonun, 1953-yil) davlatlari qonun-chiligida ham mavjud.

Bu yerda ta‘kidlash kerakki, yig‘ilishlar (mitinglar va h.k.) huquqini cheklash yoki taqiqlash hollari mazkur huquqlar belgilangan konstitutsiyalarning o‘zida ko‘rsatilgan (GFR, Belgiya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Turkiya, Shvetsiya).

O‘zbekistonda ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini muhofaza qilish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bu ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda har xil huquqbuzarliklarni to‘xtatish va oldini olishning samarali vositalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan ushbu masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini qo‘llash g‘oyat muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga javobgarlik huquqiy talablarni bajarmaganda jazo belgilash uchun emas, balki, avvalo, namunaviy xulqni rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi. Jumladan, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 201-moddasi yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlarni tashkil etish, o‘tkazish tartibini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlikni ko‘zda tutadi.

Hozirgi paytda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202-moddasida yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari va namoyishlar ishtirokchilariga binolar yoki boshqa mulk (aloqa vositalari, ko‘paytiradigan va boshqa xil texnik uskunalar, transport)ni berish yoki shunday tadbirlarni o‘tkazish uchun boshqa sharoitlarni yaratganlik uchun ma‘muriy javobgarlik nazarda tutilgan.

Shu bilan birga ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan harakatlар uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 217-moddasiga binoan yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari va namoyishlarni tashkil etish yoki o‘tkazish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-moddasida kafolatlangan huquqning tabiatini fuqarolar qarashlarini ifoda etishi va ularni tegishli manzilga etkazishni taqozo etadi. Ushbu hollarda ommaviy tadbirlar tashkilotchilari, ishtirokchilari o‘zlarini ochiq-oydin nosog‘lom tutsalar, ya‘ni jamoat tartibiga yoki jamoat xavfsizligiga qarshi aniq xavf soladigan yoki solishni qasd qilgan qandaydir harakatlarni amalga oshirsalar, davlat o‘zining inson va fuqaro huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir konstitutsiyaviy majburiyatini bajarib, yig‘ilishlar va mitinglar mohiyatiga zid bo‘lgan voqealar yuz bermasligi hamda ularning oldini olish uchun barcha qonuniy vositalarni qo‘llaydi.

Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mazkur demokratik jarayonning bosh maqsadi har kimning siyosiy o'zligini namoyon qilishda emas, balki ijtimoiy murosasozlikka erishishdadir.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishidan biri xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'lib, u davlat mustaqilligi va suverenitetini, xavfsizligini, farovonligini mustahkamlashga qaratilgandir. Ushbu omillarning ahamiyatini "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi o'tkazgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi, unga ko'ra, birlik va murosasozlik, demokratik rivojlanishning muhim asoslari bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatini yanada mustahkamlashi qayd etildi. Hozirda O'zbekiston fuqarolarining 88 foizi bizning davlatimizda hamma fuqarolar uchun millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqlar konstitutsiyaviy kafolatlanganligini ta'kidlaydilar.<sup>73</sup>

Shunday qilib, Konstitutsiyaning ushbu 33-moddasi huquqiy tartibga solishning yagona tizimini shakllantiradi, unga ko'ra, bir tomonidan, mamlakat fuqarolariga o'zlarining siyosiy va fuqarolik huquqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, ikkinchi tomonidan, ijtimoiy faollikni mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan sharoitlarni – jamoat tartibi va xavfsizlikni, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini, amaldagi qonunlar so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlaydi.

#### **4-§.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri – kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqini mustahkamlaydi.

Fuqarolarning uyushishga oid konstitutsiyaviy huquqi fuqarolarni o'zlarining umumiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid yuridik kafolatlar bilan ta'minlaydi, uyushish huquqisiz, shunchaki, deklarativ norma bo'lib qoladigan boshqa konstitutsiyaviy huquqlarga (masalan, mitinglar

<sup>73</sup> Национальное самосознание: динамика роста // Народное слово. 2017. 9 июня

va yig'ilishlar o'tkazish huquqi, so'z erkinligi huquqi va boshqalar) ma'no-mazmun beradi.

Asosiy qonunimizning 34-moddasida mustahkamlangan (jamoat birlashmalariga) uyushish huquqi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim va hal qiluvchi shartlaridan biridir. Zero, fuqarolar uyushmalari – aholining mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashning eng muhim shaklidir.

Konstitutsiya normalari mazmunidan kelib chiqadiki, uyushish huquqi faqatgina siyosiy-huquqiy emas, balki fuqarolar o'zlarining shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa huquq va manfaatlarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'kidlash joizki, 1978-yilda qabul qilingan avvalgi Konstitutsiyaning 49-moddasida fuqarolarning faqatgina jamoat tashkilotlariga birlashish huquqi belgilangan edi. Bu esa o'sha davrda hukmronlik qilgan kommunistik maqsadlarga to'liq muvofiq bo'lishi kerak edi. Shu sababdan, mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining sharhanayotgan moddasi butkul o'zgacha demokratik ko'rinishga ega bo'ldi, mazkur modda endilikda fuqarolarning jamoat birlashmalariga birlashish huquqidan tashqari, ommaviy shu jumladan, siyosiy harakatlarda ishtirok etish huquqi, ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatining kafolatini ham o'z ichiga oladi.

Fuqarolarning uyushishga oid huquqlarini kafolatlovchi konstitutsiyaviy normalarni rivojlantirishda bir qator qonunlar qabul qilingan va amal qilmoqda: "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiylar to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalar to'g'risida"gi, Qonunning muqaddimasisida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib, ushbu Qonunda fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'yiladi" deb ta'kidlangan.

Ushbu Qonunning 1-moddasiga muvofiq o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya

va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlari deganda jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydan) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti tushuniladi.

Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos.

Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017-yilda "Nuroniy" jamg'armasi, Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi.

2018-yil 4-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmon o'z mohiyatiga ko'ra, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining mazmun jihatidan yangi bosqichiga mustahkam huquqiy asos bo'ladi. Chunki, unda davlat tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatini yanada kuchaytirishning eng muhim yo'nalishlari belgilangan.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy normada o'z aksini topgan fuqarolarning uyushish huquqiga oid qoidalar sohaviy qonunlarda rivojlantirilgan bo'lib, ularda mazkur konstitutsiyaviy normani amalga oshirishning aniq shakl va usullari belgilangan. 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va

(yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti tuzilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan (21-modda). 1992-yil 9-dekabrdagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi aholisining tabiatni muhofaza bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish huquqi mustahkamlab qo'yilgan (12-modda). 1993-yil 6-maydag'i "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda suv iste'molchilarining suvgaga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashish huquqlari mustahkamlab qo'yilgan (32-modda).

Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi – bu kasaba uyushmalaridir. Ular ixtiyoriy jamoat tashkilotlari sifatida ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalarida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida kasaba uyushmalariga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, kasaba uyushmasi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga ko'ra o'z a'zolarining mehnat huquqlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan fuqarolarning jamoat birlashmasidir.

Kasaba uyushmali o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qiladi. Kasaba uyushmalariga a'zolik – ixtiyoriydir. Kasaba uyushmalari fuqarolarning mehnatga oid huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, fuqarolarning dam olishi, sog'liqlari, uy-joylari va hayot darajalarini ko'tarish haqida g'amxo'rlik qilishni o'z ichiga oladi.

Amaldagi qonunchilikda fuqarolar birlashmalari uchun ijtimoiy faollikning turli shakllari yetarlicha belgilangan. Ularning orasidan O'zbekiston fuqarolarining siyosiy partiyalardagi ishtirokiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir. Siyosiy institutlar Prezident va deputatlar saylovlarda, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini (markazda va joylarda) shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish orqali fuqarolarning xohish-

irodalarini davlat-huquqiy va boshqa sohalarda shakllanishi va ifoda etilishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, siyosiy partiyalar jamiyat va davlat o'rtasida bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda beshta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiyasi. Mustaqil O'zbekistonning shakllanishi va rivojlanishi davomida ushbu partiyalar, umuman ko'ppartiyaviylik tizimi O'zbekiston siyosiy tizimining ajralmas bo'lagiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari siyosiy partiyaga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'ladilar va o'z xohishlariga ko'ra undagi a'zolikni to'xtatishlari mumkin. Fuqarolar dasturi va maqsad-vazifalari o'z siyosiy qarashlari bilan bir xil bo'lgan siyosiy partiyalarni erkin tanlaydilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kasaba uyushmalari, siyosiy tashkilotlar bilan bir qatorda, O'zbekistonda turli ijtimoiy guruhlar va mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar talablari asosida tashkil etiladigan va rivojlanadigan boshqa jamoat tashkilotlari: yoshlar, ayollar uyushmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadi. "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ommaviy jamoat harakatlari siyosiy yoki o'zga maqsadlarni ko'zlaydi, lekin siyosiy partiyalardan farqli ravishda, ularning ro'yxatga olingan a'zolari bo'lmaydi.

2017-yil 30-iyunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2001-yilda tashkil etilgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni bilan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Fuqarolarning uyushmalarga (ittifoqlarga) birlashishga oid huquqlari xalqaro darajada birinchi marta Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 20-moddasida rasman mustahkamlandi. Mazkur

moddaga ko'ra, har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 22-moddasiga ko'ra, har bir inson boshqalar bilan uyushish erkinligi huquqiga ega, shu jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega. Ushbu moddada, shuningdek - mazkur huquq jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlash, aholi sog'lig'i va axloqini, shuningdek, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida, qabul qilingan qonun hujjatlari doirasida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

Fuqarolarning uyushmalarga birlashish huquqi ko'plab demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida ham mustahkamlab qo'yilgan. Germaniya, Daniya, Italiya, Ispaniya, Gretsya, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir.

Masalan, Daniya Konstitutsiyasining 78-moddasida fuqarolarning har qanday qonuniy maqsadda jamoat birlashmalari tuzish huquqi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlovchi huquqiy normalar belgilangan.

Birinchi marta 2007-yil 11-apreldagi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda siyosiy partiya fraksiyalarini va deputatlar guruhlarining o'zlarini muxolifat deb e'lon qilish huquqi belgilab berildi. Mazkur Konstitutsiyaviy qonunga ko'ra, parlamentdagagi muxolifatga fraktsiyalar uchun nazarda tutilgan vakolatlar bilan bir qatorda qo'shimcha huquqlar beriladi, xususan, qonun loyihasining muqobil tahririni kiritish, muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini yalpi majlis bayonnomasiga kiritish, Senat tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha kelishuv komissiyasida o'z vakillarining kafolatli ishtirot etishi va boshqalar.

Shuningdek, parlamentdagagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagagi ko'pchilik tomonidan kansitilishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

O'zini muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasi va deputatlar guruhlari uchun ayni shu kafolatlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 25<sup>1</sup>-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi Qonunning

9<sup>1</sup>-moddasida va “Siyosiy partiylar to‘g‘risida”gi Qonunning 13<sup>1</sup>-moddasida ham nazarda tutilgan.

Ta‘kidlash joizki, Asosiy qonunimizning sharhanayotgan moddasi normalari xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan normalariga muvofiqdir. Parlamentning ta‘siri kuchayib borishi va hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining izchil amalga oshirilishi jarayonida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini himoya qilishning muhimligi Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining bir qator rezolyutsiyalarida ifodalangan. Assambleyaning 2008-yil 23-yanvardagi “Demokratik parlamentda muxolifatning huquq va majburiyatlariga oid proseduraviy tavsiyalar” 1601-tonli Rezolyutsiyasiga ko‘ra, “parlamentning qay darajada demokratik ekanligi muxolifat yoki parlamentdagi ozchilikka o‘z vazifalarini amalga oshirishlari uchun ajratilgan vositalar miqdoriga qarab belgilanadi”. Rezolyutsiyada ta‘kidlanishicha, “parlamentdagi va undan tashqaridagi siyosiy muxolifat – haqiqiy demokratiyaning muhim tarkibiy elementi. Muxolifatning asosiy funksiyalaridan biri siyosiy qarorlarning boshqa variantlarini jamoat e‘tiboriga havola etish orqali hokimiyat tepasidagi ko‘pchilikning siyosiy muqobilini taklif etishdir. Hukumat ishini nazorat qilib, doimiy ravishda uning faoliyatini baholab va undan hisobot talab qilib, muxolifat davlat qarorlarining shaffofligini, davlat ishlarini boshqarishning samaradorligini ta‘minlaydi va shu yo‘l bilan u suiiste‘mol qilish va to‘xtalishlarga yo‘l qo‘ymasdan jamiyat manfaatlarini himoya qiladi”.

Muxolifatning rasmiy maqomi faqat bir nechta davlatlardagina konstitutsiyaviy darajada tan olingan. Misol uchun, Portugaliya Konstitutsiyasining “Siyosiy partiylar va muxoliflik huquqi” deb nomlangan 114-moddasiga ko‘ra, “ozchilikka Konstitutsiya va qonunlarga asoslangan demokratik muxoliflik huquqi kafolatlanadi”. Fransiya Konstitutsiyasiga faqatgina 2008-yilda muxolifat faoliyati kafolatlarini ta‘minlashga oid tuzatishlar kiritildi (eslatib o‘tamiz, O‘zbekistonda bunga oid qonun 2007-yilda qabul qilingan edi). Fransiya parlamentining har bir palatasi reglamentida muxolifatning va ozchilikni tashkil etuvchi guruhning maxsus huquqi tan olinadi (51-1-modda), bir oyda bir kun majlislar muxolif guruhlari tomonidan tuzilgan kun tartibi asosida o‘tadi (48-modda). Bundan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasining bir qator o‘lkalari Konstitutsiyalarida siyosiy muxolifat parlament demokratiyasining ajralmas qismi deb e‘lon qilingan (Gamburg Konstitutsiyasining 23<sup>a</sup>-moddasi, Shlezvig-Golshteyn Konstitutsiyasining

12-moddasi). Shuningdek, bir qator konstitutsiyalarda muxolifat huquqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rnatilmagan.

Shu sababdan ta‘kidlash joizki, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini kafolatlovchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasi normalari xorijiy ekspertlar tomonidan yuksak baholandi<sup>74</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida Prezident Sh.Mirziyoyev vatandoshlarimizning e‘tiborini jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratib shunday degan edi: “Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir. Konstitutsiyamizda oliv qadriyat sifatida belgilab qo‘yilgan inson huquqlarini ta‘minlash masalasi bundan buyon ham e‘tiborimiz markazida bo‘ladi”<sup>75</sup>. Davlatimiz rahbari tomonidan ta‘kidlangan davlat-huquqiy siyosatining bu ustuvor yo‘nalishini amalga oshirishning mustahkam huquqiy asosini o‘rnatishda Konstitutsiyamizning 34-moddasi normalarining beqiyos o‘rni bor.

### **5-§.Fuqarolarning murojaat qilish huquqi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart.

Asosiy qonunda mustahkamlangan fuqarolarning murojaat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunida batafsil yoritib berilgan. Qonunda quyidagilar mustahkamlab qo‘yilgan:

- murojaatlar sohasidagi umumiy qoidalar va asosiy tushunchalar;

<sup>74</sup> Алебастрова И.А. Большинство и меньшинство в демократической политической системе: к вопросу о гарантиях статуса оппозиции // Конституционное и муниципальное право – 2015. – №1. – С. 17-23.

<sup>75</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни қатъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз Т.1. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 106, 108-б.

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish huquqlarining kafolatlari;
- murojaatlarni topshirish va ularni ko'rib chiqish tartibi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, davlat organlarining murojaatlarni ko'rib chiqish vaqtidagi majburiyatlari;
- murojaatlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralarini va boshqa masalalar.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonunda ko'zda tutilgan umumiy qoidalardan tashqari, qonun hujjatlari bilan ijtimoiy munosabatlarning alohida sohalaridagi maxsus qoidalari tartibga solinishi mumkin.

Masalan, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasiga muvofiq axborotdan foydalanuvchi bevosita o'zi yoki o'zining vakillari orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish uchun so'rov bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaatlarni qonunda belgilangan tartibda va muddatda ko'rib chiqishning hamda ularni qonuniy ravishda, asosli tarzda va adolat bilan hal qilishning majburiyligi konstitutsiyaviy talabdir.

Shunga muvofiq, murojaatlarni ko'rib chiqishda byurokratizmga (sansalorlikka) yo'l qo'yish, murojaatlarni ko'rib chiqishni asossiz rad etish, ular bo'yicha asoslanmagan, qonunga xilof bo'lgan xulosalar chiqarish, murojaat qilganlik uchun yoki murojaatda bayon qilingan tanqid uchun ta'qib qilish, fuqarolar murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikning boshqa qoidalari fuqarolarning huquqlari, manfaatlariga yoki jamiyatning va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga jiddiy zarar etkazgan holda buzish ma'muriy yoki jinoi javobgarlikka olib keladi. Shu bilan birga, qonun hujjatlari uchun haqoratni o'z ichiga olgan murojaatlarni taqdim etganlik uchun ma'muriy va jinoi javobgarlik belgilab qo'yilgan.

2. Qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaat qilish huquqi ixtiyoriy amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, murojaat qilish huquqini amalga oshirish boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va davlatning manfaatlarini buzmasligi lozim.

“Murojaat” tushunchasi og'zaki, yozma yoki elektron shaklda berilgan ariza, taklif yoki shikoyatlarni o'z ichiga oladi.

Ariza – huquq, erkinlik yoki qonuniy manfaatlarni amalga oshirishga yordam berish haqidagi iltimos bilan murojaat qilishdir.

Taklif – davlat faoliyatini va ijtimoiy faoliyatni takomillashtirish borasidagi tavsiyalar bilan murojaat qilishdir.

Shikoyat – buzilgan huquq, erkinliklarni qayta tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bilan murojaat qilishdir (“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi).

Qoida tariqasida, takliflar va arizalar normal kechayotgan ijtimoiy munosabatlarning ko‘rsatkichlari deb hisoblanadi. Ulardan farqli o‘laroq, shikoyatlar davlat organlarining harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari natijasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligidan darak beradi. U yoki bu sohada, davlat organining faoliyatida shikoyatlarning ko‘payib ketishi katta e‘tiborni, shuningdek, darhol tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar ko‘rilishini talab etadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib davlat organlariga murojaat qilish huquqi kafolatlangan.

Murojaatlar turi va shaklidan qat‘iy nazar teng huquqiy ahamiyatga ega.

Davlat organlari murojaatlarni ko‘rib chiqayotganida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga rioxalishi lozim. Ular zimmasiga murojaatlarni to‘liq, obyektiv va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun kechiktirmay choralar ko‘rish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash inajburiyati yuklatilgan.

Jismoniy shaxsni, uning vakilini, uning oila a‘zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a‘zolarini ular o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish yoki himoya qilish, shuningdek, o‘z fikrlarini bildirish va tanqid qilish maqsadida davlat organlariga murojaat qilganliklari uchun ta‘qib etish man etiladi.

Davlat organiga kelib tushgan murojaatlar shu organ tomonidan yoki murojaatlarni ko‘rib chiqish vazifasi yuklatilgan mansabdon shaxs tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Davlat organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tashkil etiladi va buni davlat organining rahbari yoki boshqa vakolatli shaxs amalga oshiradi. Buning uchun davlat

organlarida maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishi, qabul uchun mas'ul bo'lgan mansabдор shaxslari belgilanishi mumkin.

Davlat organlarining rahbarlari va boshqa vakolatli shaxslari tomonidan joylarga borib, shaxsiy sayyor qabullar tashkil etilishi mumkin.

Murojaat turiga qarab, maxsus tartib-taomillar va alohida ko'rib chiqish muddatlari joriy etilgan.

Masalan, ariza yoki shikoyat 15 kun ichida, qo'shimcha o'rganish (tekshirish) yoki qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilgandaesa bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda ushbu muddat tegishli davlat organining rahbari tomonidan uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi. («Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasi).

Taklif bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar istisno qilinadi, bu haqda taklif kiritgan shaxsga o'n kunlik muddatda xabar qilinadi.

Qo'yilgan masalalarni hal qilish vakolatiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kundan oshmagan muddatda tegishli organlarga jo'natiladi va bu haqda murojaat qiluvchiga xabar beriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning g'oyat muhim unsurlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga binoan tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalaridir.

Xususan, Davlat rahbarining ushbu Farmoni bilan quyidagilar amalga oshirildi:

– Prezident devonida (hozirda Prezident Administratsiyasi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida, respublikaning har bir tumani va shaharida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tashkil etildi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi tashkil etildi.

Ushbu tuzilmalar bir-biri bilan uzviy hamkorlikda harakat qiladi, yagona rejimda ishlaydi, maqomi bo'yicha teng, ularning joylardagi

xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining xodimlaridir.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonasining asosiy vazifalari etib belgilangan:

– aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, murojaatlar bilan ishlashning jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to‘la-to‘kis himoyalashga qaratilgan sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash;

– fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sudga, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarga, joylardagi davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini so‘zsiz amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

– O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga qat‘iy muvofiq holda Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

– Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishli davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga jo‘natilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan muntazam monitoringni, nazoratni amalga oshirish;

– davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdar shaxslari ishtirokida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini o‘tkazish, shu jumladan videokonferentsiya yordamida o‘tkazish;

– Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlar kiritilishini, umumlashtirilishini, muntazam holga keltirilishini va ko‘rib chiqilishini nazorat qilish bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy qilish va yuritish orqali murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

Ma‘lumki, davlat boshqaruvining ta‘sir doirasi juda keng bo‘lib, u jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. Davlat o‘z boshqaruvini davlat organlari yoki mansabdar shaxslar orqali amalga oshiradi. Tabiiyki, davlat boshqaruvi jarayonida o‘z huquqlari, erkinliklari hamda faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bilan davlat organlari va mansabdar shaxslar o‘rtasida doimiy munosabat yuzaga keladi.

Demokratik davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi huquqiy-demokratik rivojining bugungi kundagi asosiy yo'nalishi va tamoyillari negizida avvalo, inson huquqlari va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlari hamda xalqning farovonligi yotadi. Mana shu konseptual g'oyadan kelib chiqib, davlat boshqaruvida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning mustahkam tizimini yaratishga ma'muriy huquq fani nuqtai-nazaridan baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini nafaqat sud orqali himoya qilish, balki o'z huquqlarini tiklash huquqiga ham ega. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining 8-moddasida har bir inson nufuzli milliy sudlar orqali o'z huquqlarini samarali tarzda tiklash huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda fuqarolarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) natijasida buzilgan huquq va erkinliklarini ma'muriy tartibda hamda ma'muriy sudlov yo'li bilan himoya qilinadi.

Ta'kidlash kerakki, sud tizimining bosqichma-bosqich demokratlashtirilishi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyilga qat'iy rioya etilishi mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosini tashkil etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" nomli ma'rzasida "Konstitutsiyamizda oliv qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan inson huquqlarini ta'minlash masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Buning uchun sud hokimiyatining chinakam mustaqilligiga erishish naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini albatta barchamiz yaxshi tushunamiz" deb ta'kidlagan edilar<sup>76</sup>.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, ularning odil sudlovgaga erishish darajasini, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish, nomzodlarni tanlash va sudyalik

---

<sup>76</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манбаатларини таъминлаш юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – 47 б.

lavozimiga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Inson oliy qadriyat bo'lib hisoblanar ekan, har bir shaxs o'z huquq va erkinliklarini turli to'sqinliklardan, huquqbuzarliklardan qonunlarda belgilangan turli usullar bilan o'zlarini himoya qilishlari lozim. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida sudga shikoyat qilish tartibining belgilanishi inson huquqlari himoyasining eng muhim vositasi hisoblanadi.

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudlari birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yuritushi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi, joylarda ma'muriy sudlar faoliyat boshladi.

2018-yilning birinchi choragida ma'muriy sudlar tomonidan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolati bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish, notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yohud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish va davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yohud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tov lash ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq 4 783 ta ish ko'rib chiqildi. Buning natijasida 3 416 fuqaroning huquqi tiklandi.

Shuningdek, hisobot davrida ma'muriy sudlar tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ko'zda tutilgan huquqbuzarliklar bo'yicha 102 481 nafar shaxsga nisbatan 84 141 ta ish ko'rib chiqildi.

Tahillarga ko'ra, ma'muriy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlarning aksariyatini transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi, transport vositalarini mast holda boshqarishi, transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar

etkazilishiga olib kelishi, tegishli hujjatlari bo‘limgan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi, noqonuniy tadbirkorlik faoliyat, avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish bilan litsenziyasiz shug‘ullanish, mayda bezorilik, militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, pasport tizimi qoidalarini buzish va O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar tashkil etadi.

Shu bilan birga 73 394 nafar shaxsga nisbatan jarima, maxsus huquqdan mahrum etish, ma‘muriy qamoq va O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish kabi ma‘muriy jazolar qo‘llanildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda ma‘muriy sudlarning tashkil etilishi hamda ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning qabul qilinishi, aytish mumkinki, mamlakatimizda sudlarning ixtisoslashuvi borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lishi bilan bir qatorda ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni odil sudlov yo‘li bilan hal etish imkoniyatini kengaytirib, jismoniy va yuridik shaxslarni davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari)dan himoya qilishda mustahkam protsessual-huquqiy asos bo‘ldi.

### *O‘zini o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *Fuqarolarning siyosiy huquqlariga qaysi huquqlar kiradi?*
2. *Fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday usullardan foydalanishadilar?*
3. *Fuqarolar murojaatlarining qanday shakllari mayjud?*
4. *Qanday tartibda siyosiy partiyalar tuziladi?*
5. *Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish tartibi qaysi qonun bilan tartibga solinadi?*
6. *Fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati qancha?*
7. *Fuqarolar necha yoshdan aktiv saylov huquqiga ega bo‘ladi?*

## **XII BOB. INSONNING IJTIMOIY-IQTISODIY HUQUQLARI**

1-§.Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqi tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari.

2-§.Insonning mulkdor bo‘lish huquqi.

3-§.Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash, ishsizlikdan himoyalanish huquqi.

4-§.Dam olish huquqi.

5-§.Qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda iqtisodiy ta‘minot olish huquqi.

6-§.Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi.

7-§.Bilim olish huquqi.

8-§.Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

### **1-§.Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqi tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari**

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqi deganda, uning ma‘naviy-madaniy, ilmiy-ijodi, lozim darajada turmush kechirishini ta‘minlashga xizmat qiladigan moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirishni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi tushuniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, insonning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy boylikka nisbatan huquqqa ega bo‘lishini nazarda tutadi. Bu kabi ijtimoiy-iqtisodiy boyliklar turli-tuman bo‘lib, ular fuqarolarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobida (36-42-moddalari)da o‘rnatiigan bo‘lib, ularga mulkdor bo‘lish huquqi (36-modda); mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi (37-modda); adolatli mehnat sharoitlarida ishslash, ishsizlikdan himoyalanish huquqi (37-modda); dam olish huquqi (38-modda); qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda iqtisodiy ta‘minot olish huquqi (39-modda); malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (40-modda); bilim olish huquqi (41-modda); ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi (42-modda)<sup>77</sup> kiradi.

Insonning yashashi, turmushi, jamiyatda umrguzaronlik qilishini bir qator moddiy va ma‘naviy boyliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu

---

<sup>77</sup>Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т. Ўзбекистон, 2018

hayotiy ehtiyojlarni inson mehnat qilishi, o‘z mehnati natijasida ma‘lum mulkka ega bo‘lishi, tibbiy xizmatdan foydalanishi, bilim olishi va ilm bilan shug‘ullanishi, ilmiy faoliyat, madaniyat va san‘at yutuqlaridan bahramand bo‘lish huquqlari orqali qondiradi hamda ta‘minlaydi.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqining o‘ziga xos xususiyati, shundaki, ushbu huquq shaxsiy va siyosiy huquqlardan farqli o‘laroq, asosan insonning ma‘naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, ijtimoiy ta‘minotdan foydalanish huquqlari insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lsa, uning bilim olish, dam olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari ma‘naviy dunyosini, ijtimoiy ongini yuksaltirishga va qondirishga xizmat qiladi.

## **2-§.Insonning mulkdor bo‘lish huquqi**

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tizimida insonning mulkdor bo‘lish huquqi muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga ko‘ra, “har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi”<sup>78</sup>.

Insonning mulkdor bo‘lish huquqi bilan bog‘liq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa tadbirkorlik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan milliy qonunlar bilan tartibga solinadi. Insonning mulkdorlik huquqi uning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish, shuningdek, mulkiga nisbatan har qanday qonun buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat bo‘ladi.

Mamlakatimizda mulknning hamma shakllari bab-baravar himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning teng rivojlanishiga sharoit yaratib berilgan. Mulkning daxlsizligi shuni anglatadiki, mulkdorning mulkiy huquqlari qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mahrum etilishi mumkin.

Mulk huquqi muddatsizdir. Ya‘ni, mulk egasi o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkdan abadiy foydalanishi, o‘zining mulk huquqini hohlagan vaqtida tasarruf qilishi mumkin. Chunki, mulk huquqi faqat mulkdorga tegishli bo‘ladi.

---

<sup>78</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018

Mulk huquqining obyektlari: yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot do'nyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyo'lар, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek, intellektual mulk obyektlari bo'ladi.

Mulk huquqining vujudga kelish asoslari jamiyatning iqtisodiy tizimida o'z ifodasini topadi. Mulk huquqining vujudga kelishi dastlabki va hosila asoslarga bo'linadi.

Mulk huquqining vujudga kelishini bildiradigan dastlabki asoslar bo'yicha mulkka nisbatan egalik huquqi ilgari hech kimga tegishli bo'Imagan mulkka nisbatan yoki avvalgi mulk egasining huquqi bilan bog'liq bo'Imagan holda vujudga keladi. Bunda: tabiat ne'matlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida yangi ashyo'larni vujudga keltirish, xususiy lashtirish, natsionalizatsiya (milliyashtirish) qilish, musodara qilish, egasiz mulkning sud qarori bilan davlat ixtiyoriga olinishi, egasi bo'Imagan mulkka yoki egasi bo'lsa ham xo'jasizlik bilan saqlanayotgan mulkka, egalari tomonidan belgilangan muddatlarda talab qilib olinmagan mulklarga, shu jumladan topilgan ashyo'larni, xazinalarga nisbatan mulk huquqini olish (boshqa usulda yashirilgan narsalar) asosida vujudga keladi. Shu singari mulk huquqi bitim va shartnomalar tuzish, meros olish natijasida hosil qilish yo'li bilan ham vujudga keladi.

Mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy sur'atda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo'yish (sotib olish) yo'li bilan, shuningdek, mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan bekor bo'ladi. (FK 197-modda)

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik davlat va xususiy shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin, deb belgilangan. Xususiy mulkning Asosiy qonunda mustahkamlanishi, uning bozor munosabatlarda huquqiy tartibga solinishini belgilaydi, hamda uni boshqa mulk shakllari bilan teng sharoitda himoya qilinishini kafolatlaydi.

Xususiy mulkning mazmunini tashkil etuvchi norma "Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir", degan qoida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining

207-moddasida belgilangan<sup>79</sup>. Xususiy mulk huquqining obyektlari doirasi juda keng bo'lib, ular: uy-joylar, xonadonlar, dala hovlilar, ekinlar, hayvon va parrandalar, uy-ro'zg'or buyumlari; aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar; ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskuna, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalari; ixtiolar, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalari va intellektual faoliyatning (mulkning) boshqa natijalari; iste'mol qilishga va ishlab chiqarishga mo'ljallangan har qanday mol-mulk qonunlarga muvofiq, xususiy mulk bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FKning XIX bobi "Mulk huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish"ga bag'ishlanib, unga ko'ra mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish (vindikatsiya) hamda mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan huquqbazarliklardan himoya qilish (negator da'vo) usullari belgilangan.

Mulkdor o'zga shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda egallab olingen mol-mulkini O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunlariga muvofiq talab qilib, qaytarib olish huquqiga egadir. Mulkdor o'z huquqini har qanday buzishlarni, garchi bunday buzishlar uni mulkka egalik qilish huquqidan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa-da, bartaraf etishni talab qilishi mumkin.

### **3-§. Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash, ishsizlikdan himoyalanish huquqi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tizimida mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqi alohida o'rinni egallaydi. Ushbu konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"<sup>80</sup>gi va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"<sup>80</sup>gi qonunlarida rivojlantirilgan.

<sup>79</sup> Узбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.-Т: Адолат, 2017

<sup>80</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998, 5-сон, 97-модда; 1999, 1-сон, 20-модда; 5-сон, 124-модда; 9-сон, 229-модда, 2000, 5-сон, 153-модда; 2001, 5-сон, 89-модда; Узбекистон Республикаси конун хужожатлари туплами, 2006, 25-26-сон, 225-модда

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 6-moddasiga ko‘ra, barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo‘lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, denga bo‘lgan munosabati, e‘tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek, xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo‘Imagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilishicha, ish bilan ta‘minlanish - fuqarołarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Majburiy mehnat, ya‘ni biron-bir jazoni qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash ta‘qilanganadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo‘imasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi.

Ushbu qonunga ko‘ra, quyidagilar ish bilan ta‘minlangan deb hisoblanadi: yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to‘liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan, shuningdek, haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar; betobligi, mehnat ta‘tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to‘xtatib qo‘yilganligi munosabati bilan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo‘Imagan xodimning ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo‘Imagan fuqarolar; o‘zini ish bilan mustaqil ta‘minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a‘zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a‘zolari; Qurolli Kuchlarda, Davlat xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo‘sishinlarida xizmatni o‘tayotgan, shuningdek, muqobil xizmatni o‘tayotgan fuqarolar; ta‘lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olayotgan

fuqarolar; qonun hujjatlariga muvosiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.

O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida belgilanishicha, o'n olti yoshdan boshlab, to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'limgan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar ishsiz deb e'tirof etiladi. Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror mahalliy mehnat organi tomonidan ular ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n birinchi kundan kechiktirmay qabul qilinadi.

Quyidagilar ishsiz deb e'tirof etilmaydi: mehnat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab, o'n kun ichida taklif etilgan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan shaxslar; ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida maqbul keladigan ishni qidirish maqsadida uzsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan shaxslar. Taklif etilgan ishdan bosh tortgan kundan yoki maqbui keladigan ishni qidirish maqsadida uzsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan kundan boshlab o'ttiz kalender kun o'tganidan keyingina shaxs ish qidirayotgan sifatida qayta ro'yxatdan o'tishga haqli bo'ladi.

Ish o'rinalari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash masalalari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Bunda yurtimizda yaratilayotgan ish o'riniarining saqlab qolinishini va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ishsiz va band bo'limgan aholini, kasb-xunar kollejlari bitiruvchilarini, shuningdek, qaytib kelgan mehnat migrantlarini, xotin-qizlar, nogironlar va ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholining boshqa toifalarini ishga joylashtirish muhim masalalardan biri bo'lib xisoblanadi.

Respublikamizda xar yili aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilayotgan Dasturlarda nazarda tutilgan choralar "Aholini ish

bilan ta'minlash to'g'risida”<sup>81</sup>gi qonun talablariga, aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi maqsadli dasturlarni amalga oshirish davlat siyosatining tamoyillariga (5, 16-18-moddalar) va xalqaro talablarga (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan XMTning 122-son “Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risida”<sup>82</sup>gi konvensiyaga) muvofiq ishlab chiqilgan. Mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda amaldagi qonunchiligidan avvalom bor milliy qadriyatlarimizni xisobga olgan xolda xalqaro standartlariga mos kelishi ta'minlanadi.

Fuqarolarning mehnat huquqini tartibga solishda XMTning konvensiyalari muhim rol o'yynaydi. Shuni aytish kerakki, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki XMTning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasida xodimlar uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning qoidalari qo'llaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining yoki XMTning O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasining qoidalari mehnatga oid munosabatlar bevosita qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ham qo'llaniladi.

XMTning Bosh Konferensiysi 58-sessiyasida 1973-yil 26-iyunda “Eng kichik yosh to'g'risida”<sup>83</sup>gi 138-Konvensiyasi qabul qilingan. Ushbu konvensiya O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 4-apreldagi URK – 140-son qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan. Ushbu konvensiyaning 3-moddasiga ko'ra, o'z xususiyati yoki amalga oshiriladigan sharoitiga ko'ra o'smir sog'lig'iga, xavfsizligi yoki ma'naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ish turiga yoki yollanma ish turiga qabul qilish uchun eng kichik yosh o'n sakkiz yoshdan kam bo'lmasligi kerak. Ushbu moddaning 1-bandi qoidalardan qat'iy nazar, milliy qonun hujjatlari yoki vakolatli hokimiyat organi ish beruvchilar va mexnatkashlarning tegishli tashkilotlari bilan, agar bunday tashkilotlar mavjud bo'lsa, maslahatlashilgandan so'ng o'n olti yoshdan

<sup>81</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998, 5-6-сон, 97-модда; 1999, 1-сон, 20-модда; 5-сон, 124-модда; 9-сон, 229-модда; 2000, 5-6-сон, 153-модда; 2001, 5-сон, 89-модда; Узбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2006, 25-26-сон, 225-модда

<sup>82</sup> XMTning Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация килинган конвенциялари туплами. Г. "Адолат" 2014, 79-85-бетлар

<sup>83</sup> XMTning Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация килинган конвенциялари туплами. Г. "Адолат" 2014, 3-22-бетлар

kichik bo‘limgan yoshlarga ishlashga yoki yollanib ishslashga, ularning sog‘lig‘i, xavfsizligiga va ma‘naviyati to‘la muhofaza etilishi va ular yetarlicha maxsus ta‘lim hamda faoliyatining tegishli sohasi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik olishlari sharti bilan ruxsat berishlari mumkin.

Ushbu konvensiyaning 7-moddasida milliy qonun hujjatlari o‘n uch yoshdan o‘n besh yoshgacha bo‘lgan shaxslarga yengil ishlarda ishslashga yoki yollanib ishslashga ruxsat etish mumkin, agar bu: ularning sog‘lig‘iga va rivojlanishi uchun zararli bo‘lmasa, ularning mакtabga qatnashiga, ularning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan kasbga yo‘naltirish yoki kasbiy tayyorgarlik dasturlarida ishtirok etishlariga, yoki ularning olgan o‘quvlaridan foydalanish layoqatiga zarar yetkazmaydigan bo‘lsa, deb o‘rnatilgan. XMTning “Qirq soatlik ish haftasi to‘g‘risida”<sup>84</sup>gi 47-konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 6-mayda qo‘shilgan. Ushbu konvensiyani ratifikatsiya qiladigan XMTning har bir a‘zosi qirq soatlik ish xafasini shunday qo‘llashi kerakki, buning natijasida mexnatkashlar turmush darajasining pasayishiga olib kelmasligi lozim.

XMTning “Ishchilarning vakillari to‘g‘risida”<sup>85</sup>gi 135-Konvensiyasini O‘zbekiston Respublikasi 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilgan. Ushbu konvensiyaning 3-moddasiga asosan “ishchilar vakillari” atamasi milliy qonun hujjatlari yoki amaliyotga muvofiq shunday shaxslarni anglatadi, xususan a)kasaba uyushmalari vakillari, ya‘ni kasaba uyushmalari yoki ushbu kasaba uyushmalari a‘zolari tomonidan tayinlangan yoki saylangan vakillar; b)saylangan vakillar, ya‘ni milliy qonun hujjatlari yoki jamoa shartnomalari qoidalariga muvofiq korxona ishchilar tamonidan erkin saylanadigan vakillar va ushbu vakillarning funksiyalari tegishli mamlakatdagi kasaba uyushmalarining mutloq vakolatlari deb e‘tirof etiladigan faoliyat turini o‘z ichiga olmaydi.

XMTning “Majburiy mehnat to‘g‘risida”<sup>86</sup>gi 29-Konvensiyasi 1930-yil 28-iyunda qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilgan. Ushbu konvensiyaning 1-moddasiga binoan uni ratifikatsiya qilgan har bir

---

<sup>84</sup>ХМТнинг Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган конвенциялари тўплами  
—Т.: “Адолат” 2014, 23-27-бетлар

<sup>85</sup>ХМТнинг Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация қилинган конвенциялари тўплами.  
—Т.: “Адолат” 2014, 86-92-бетлар

<sup>86</sup>Уша жойда. 3-22-бетлар

a'zo davlat zo'raki va majburiy mehnatni qo'llashning barcha shakllarini bekor qilish majburiyatini o'z zimmasiga olishi lozim.

XMTning "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risida"<sup>87</sup>gi 182-Konvensiyasi 1999-yil 17-iyunda qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2008-yil 8-aprelda ratifikatsiya qilingan. Ushbu konvensianing 1-moddasiga ko'ra, uni ratifikatsiya qilgan har bir a'zo bolalar mehnatini ta'qiqlash va uning eng yomon shakllariga barham berishni ta'minlash maqsadida samarali chora-tadbirlar ko'rishi lozim.

Aytiganlardan tashqari, insonning mehnat huquqini tartibga soluvchi yana bir qator xalqaro hujjatlar borki, ularga XMTning "Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risida"<sup>88</sup>gi 1936-yil 24-iyundagi 52-Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1995-yil 6-mayda ratifikatsiya qilingan), "Teng haq to'lash to'g'risida"<sup>89</sup>gi 1951-yil 29-iyundagi 100-Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan), "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"<sup>90</sup>gi 1957-yil 25-iyundagi 105-Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan), "Mehnat va bandlik sohasida kamsitish to'g'risida"<sup>91</sup>gi 1958-yil 25-iyundagi 111-Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan), "Ish bilan ta'minlash sohasidagi siyosat to'g'risida"<sup>92</sup>gi 1964-yil 9-iyuldagagi 122-Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1995-yil 6-mayda ratifikatsiya qilingan)larni<sup>93</sup> ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalda taminlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydag'i PF-5052-sonli "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>94</sup>gi farmoni, 2018-yil 14-iyuldagagi PQ-3856-sonli "Aholi bandligini taminlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>95</sup>gi qarorida aholini ish bilan taminlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor berildi.

<sup>87</sup> Уша жоида

<sup>88</sup> XMTning Ўзбекистон Республикаси томонидан ратификация килинган конвенциялари туплами. -Т.: "Адолат" 2014, 256 бет

<sup>89</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2017 й., 21-сон, 379-модда

<sup>90</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17/07/2018 й., 07/18/3856/1515-сон

#### **4-§.Dam olish huquqi**

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tizimida dam olish huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Dam olish vaqt – xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo‘lgan va bundan u o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqtdir.

Xodimga ish kuni (smena) davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus ish vaqtiga kiritilmaydi. Tanaffus berish vaqt va uning aniq muddati ichki mehnat tartibi qoidalarida, smena grafiklarida yoki xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilab qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish sharoitiga ko‘ra dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berish mumkin bo‘lмаган ishlarda ish beruvchi xodimga ish vaqtida ovqatlanib olish imkoniyatini та‘minlashi shart. Bunday ishlarning ro‘yxati, ovqatlanish tartibi va joyi ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilab qo‘yiladi.

Ishning tugashi bilan keyingi kuni (smenada) ish boshlanishi o‘rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati o‘n ikki soatdan kam bo‘lishi mumkin emas.

Barcha xodimlarga dam olish kunlari (har haftalik uzlucksiz dam olish) beriladi. Besh kunlik ish haftasida xodimlarga haftada ikki dam olish kuni, olti kunlik ish haftasida esa, bir dam olish kuni beriladi. Umumiy dam olish kuni yakshanbadir.

Barcha xodimlarga, shu jumladan o‘rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o‘rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta‘tillari beriladi.

Xodimlarga o‘n besh ish kunidan kam bo‘lмаган muddat bilan yillik asosiy ta‘til beriladi. Quyidagilarga ularning yoshi va sog‘lig‘i holatini hisobga olib, yillik uzaytirilgan asosiy ta‘til beriladi: o‘n sakkiz yoshga то‘лмаган shaxslarga - o‘ttiz kalendar kun; ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - o‘ttiz kalendar kun.

Yillik asosiy ta‘til birinchi ish yili uchun olti oy ishlangandan keyin beriladi. Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e‘tiboran hisoblanadi. Ta‘til quyidagi xodimlarga ularning xohishi bo‘yicha olti oy o‘tmasdan oldin beriladi: ayollarga - homiladorlik va tug‘ish ta‘tili oldidan yoki undan keyin; I va II guruh nogironlariga; o‘n sakkiz yoshga то‘лмаган shaxslarga; muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo‘shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga; o‘rindoshlik asosida ishlayotganlarga - asosiy ish joyidagi ta‘til bilan bir

vaqtida, o'rindoshlik asosida ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda umumiyligi ta'lim maktabalarida, hunar-texnika bilim yurtlarida, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kadrlarning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarida o'qiyotganlarga, agar ular o'zlarining yillik ta'tillarini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, diplom, kurs, laboratoriya va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'rilab olishni xohlasalar; texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ishlar xususiyati o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan xodimlarga(100-modda ikkinchi qismining 1-bandi)<sup>91</sup>.

Maktablar, hunar-texnika bilim yurtlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, kadrlarning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarining muallimlar tarkibiga birinchi ish yilida yillik ta'til ularning mazkur o'quv yurtiga ishga kirgan vaqtidan qat'iy nazar haqiqiy ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda yozgi ta'til davrida to'liq beriladi.

Xodimlar quyidagi ijtimoiy ta'tillar olish huquqididan foydalanadilar: homiladorlik va tug'ish ta'tillari (233-modda); bolalarni parvarishlash ta'tillari (232, 234, 235-moddalar); o'qish bilan bog'liq ta'tillar (252, 253, 254 va 256-moddalar); ijodiy ta'tillar (258-modda)<sup>92</sup>.

Xodimning arizasiga binoan unga ish haqi saqlanmagan holda ta'til berilishi mumkin, uning muddati xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Quyidagi xodimlarga ularning xohishiga ko'ra, ish haqi saqlanmagan holda muqarrar tartibda ta'til beriladi: 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlari jihatidan ularga tenglashtirilgan shaxslarga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar; ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar; ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolani parvarish qilayotgan ayollarga (234-modda); o'n ikki yoshga to'lмаган ikki va undan ortiq bolani tarbiyalayotgan ayollarga - har yili o'n to'rt kalendar kunga qadar(232-modda)<sup>93</sup>.

---

<sup>91</sup>Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодекси. –Т.: Адолат, 2017

<sup>92</sup>Уша жойда

<sup>93</sup>Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодекси. –Т.: Адолат, 2017

Bugungi kun yangi islohotlar bosqichida fuqarolarning dam olish huquqini takomillashtirishga bag‘ishlangan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdagi PF-5290-sonli “2018-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘srimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”<sup>94</sup>gi, 2018-yil 12-noyabrdagi PF-5574-sonli “2019-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘srimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”<sup>95</sup>gi farmonlari qabul qilinib, ularda fuqarolarga dam olish uchun qulaylik yaratish maqsadida ba‘zi ish kunlarini boshqa sanalarga ko‘chirish tartibi belgilandi.

### **5-§.Qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda iqtisodiy ta‘minot olish huquqi**

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tizimida inson qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda ijtimoiy ta‘minotdan foydalanish huquqi muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida o‘rnatalishicha, har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek - boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqlar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas.

Ushbu konstitutsiyaviy norma O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida batafsil tartibga solingan. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 284-moddasiga ko‘ra, davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan beriladigan ta‘minot turlari belgilangan bo‘lib, ular vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqlarini, ayollar esa, bundan tashqari homiladorlik va tug‘ish nafaqlarini; bola tug‘ilganda beriladigan nafaqlarini; davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari bilan ta‘minlanadi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha beriladigan nafaqlarning birinchi turi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 285-moddasiga ko‘ra, vaqtincha

<sup>94</sup> Конун хужожатлари маълумотлари миллий базаси, 13.11.2018 й., 06/18/5574/2177-сон

<sup>95</sup> Конун хужожатлари маълумотлари миллий базаси, 13.11.2018 й., 06/18/5574/2177-сон

mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi kasal bo'lingada, mehnatda mayib bo'lgan yoki boshqacha tarzda shikastlanganda, shu jumladan tur mushda jarohatlanganda, oilaning betob a'zosini parvarish qilganda, karantin e'lon qilinganda, sanatoriy-kurortda davolanganda va protez qilinganda to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatga mayib bo'lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to'liq miqdorida, boshqa hollarda esa, xodimning davlat ijtimoiy sug'urtasi badallarini to'lagan muddatiga (umumiy ish stajiga), qaramog'i idagi voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab, ish haqining oltmis foizidan yuz foizigacha miqdorda to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonun hujjatlarda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan oz bo'Imasligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi lozim.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan nafaqlarning ikkinchi turi homiladorlik va tug'ish nafaqasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 286-moddasiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish nafaqasi homiladorlik va tug'ish ta'tilining butun davrida to'liq ish haqi miqdorida to'lanadi. Bola tug'ilganda bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi. Har bir tug'ilgan bola uchun beriladigan nafaqaning miqdori va uni to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan nafaqlarning uchinchi turi dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 288-moddasiga ko'ra, sug'urta qilingan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etganda qonun hujjatlarda belgilab qo'yiladigan miqdor va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to'lanadi.

Insonning ijtimoiy ta'minot huquqi tizimida pensiya olish huquqi alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra, ular yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qtganlik pensiyasi turlariga bo'linadi.

Yoshga doir pensiyani tayinlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 289-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, yoshga doir pensiya sug'urta qilingan xodimlarga umumiy asoslarda: erkaklar - oltmis yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat stoji yigirma besh yildan kam bo'lmagan taqdirda, ayollar - elliq besh yoshga to'lgan bo'lib, umumiy mehnat stoji yigirma yildan kam bo'lmagan taqdirda tayinlanadi. Pensiya sug'urta qilingan xodimlarning ayrim toifalariga pensiya yoshi kam

bo‘lganda, tegishli hollarda esa, - mehnat staji kam bo‘lganda ham tayinlanadi.

Nogironlik pensiyasini tayinlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 290-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, nogironlik pensiyasi sug‘urta qilingan xodimlarga – nogironlik mehnatda mayib bo‘lish yoki kasb kasalligiga chalinganligi tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, mehnat faoliyatining muddatidan qat‘i nazar, nogironlik boshqa sabablar tufayli kelib chiqqanda esa, - tegishli umumiyl mehnat stajiga ega bo‘lganda tayinlanadi, bunday mehnat stajining muddati sug‘urta qilingan xodimning nogironlik ro‘y bergen vaqtdagi yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 24-fevraldagi PQ-2499-sonli, “Ahолининг hojatmand qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>96</sup>gi qarori, 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>97</sup>gi, 2017-yil 1-avgustdagi PF-5060-sonli “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>98</sup>gi farmonlari nogironlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 291-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi mehnatda mayib bo‘lish yoki kasb kasalligi tufayli vafot etgan boquvchining mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zolariga, uning mehnat faoliyatining muddatidan qat‘iy nazar tayinlanadi, agar u boshqa sabablar natijasida vafot etgan bo‘lsa, shunga muvosif keladigan umumiyl mehnat stajiga qarab tayinlanadi, bunday mehnat stajining muddati sug‘urta qilingan xodimning vafot etgan kuniga qadar bo‘lgan yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Turli xildagi davlat pensiyalarini olish huquqiga ega bo‘lgan sug‘urta qilingan xodimlarga (boquvchisini yo‘qotgan hollarda esa - ularning oila a‘zolariga) ularning o‘zlari tanlagan pensiyaning bitta turi tayinlanadi.

---

<sup>96</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2016 й., 9-сон, 86-модда. 2017 йил 11-сон, 152-модда

<sup>97</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2017 й., 06/17/5270/0348-сон  
<sup>98</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 31-сон, 774-модда

Mehnat kodeksida belgilangan insonning pensiya ta'minoti bilan bog'liq huquqi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"<sup>99</sup>gi qonunida bat afsil tartibga solingan.

2016-yil 6-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"<sup>99</sup>gi qonuni aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid davlat siyosati, eksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari turmushi sifatini oshirish, ularga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo'lgan imkoniyatlarini yaratish, huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid, tibbiy, reabilitatsiya va boshqa ijtimoiy yordamlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ushbu qonunga ko'ra, ijtimoiy xizmatlar o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz eksalar va yolg'iz yashovchi eksalar, I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar, yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ko'rsatiladi. Ijtimoiy xizmatlar davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari orqali amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy ta'minotning shakllaridan biri – fuqarolarga tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar bo'lib, ular o'zining miqyosi va keng qamrovliligi jihatdan pensiyalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi va aholining muayyan nochor tabaqalariga aniq yo'naltirilganligi, odatda ehtiyojmandlarga tayinlanishi bilan ajralib turadi. Bu nafaqalar bolali oilalarga, ikki yoshgacha bolasi bor onalarga, mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga tayinlanadi. Bularning barchasi aniq yo'naltirilgan manzilli ijtimoiy himoya tamoyili orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolarga to'lanadigan nafaqalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-fevraldagi PF-4782-sonli "Aholining hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini

<sup>99</sup> Узбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2016, 52-сон, 596-модда

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>100</sup>gi, 2016-yil 28-dekabrdagi PF-4906-sonli “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>101</sup>gi, farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-dekabrdagi 350-sonli “Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>102</sup>gi, 2013-yil 15-fevraldagli 44-sonli “Kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”<sup>103</sup>gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 24-fevraldagli PQ-2499-sonli “Ahолining hojatmand qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>104</sup>gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>105</sup>gi, 2017-yil 1-avgustdagli PF-5060-sonli “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>106</sup>gi farmonlari aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagli PQ-2753-sonli “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>107</sup>gi, 2017-yil 13-martdagli PQ-2826-sonli “Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>108</sup>gi qarorlari pensiyalar va nafaqalar to‘lash tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

<sup>100</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси. 13.09.2018. 09/18/725/1874-сон

<sup>101</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017, 1-сон, 6-модда

<sup>102</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллний базаси. 14.09.2018. 09/18/731/1876-сон

<sup>103</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллний базаси. 14.09.2018. 09/18/731/1876-сон

<sup>104</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2016 й., 9-сон. 86-модда. 2017 йил 11-сон, 152-модда

<sup>105</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллний базаси, 04.12.2017 й., 06/17/5270/0348-сон

<sup>106</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2017 й., 31-сон, 774-модда

<sup>107</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017, 6-сон, 73-модда

<sup>108</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2017, 11-сон, 154-модда

## **6-§. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida o'rnatilishicha, har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Ushbu konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"<sup>109</sup>gi qonunida rivojlantirilib, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqi atroflicha tartibga solingan.

Ushbu qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dingga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi.

Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'iy nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"<sup>110</sup>gi qonunida ko'rsatilishicha, fuqarolar sog'liqqa ta'sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to'g'risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavsizligi, sanitariya normalari va qoidalariга muvofiqligi to'g'risida o'z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga egadirlar.

Shuningdek, fuqarolar kasal bo'lib qolganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo'yish, davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek, bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to'lashni o'z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga egalar.

Qonunga ko'ra, fuqarolarning ayrim toifalari protezlar, ortopedik va moslama buyumlar, eshitish apparatlari, harakatlanish vositalari va boshqa maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta'minlanish, ixtisoslashgan

---

<sup>109</sup><sup>+</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996, 9-сон, 128-модда

<sup>110</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996, 9-сон, 128-модда

sog'lijni saqlash, ijtimoiy ta'minot muassasalarida tibbiy ekspertizadan o'tish huquqiga egadirlar.

Qonunda ayrim turdag'i kasb-kor bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, yuqumli va kasb kasalliklarining oldini olish maqsadida ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash vazirligi tasdiqlaydigan ishlab chiqarishlar hamda ayrim kasblarning xodimlari ishga kirish vaqtida dastlabki majburiy tibbiy ko'rikdan hamda keyinchalik vaqt-i-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tib turadilar.

Ish beruvchilar o'z xodimlarining majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi uchun va majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslarni ishga qo'yish natijasida fuqarolarning sog'lig'iga yetkazilgan zararli oqibatlar uchun javobgar bo'ladilar.

Har bir fuqaro davlat sog'lijni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taalluqli masalalar, o'zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar bor-yo'qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiy-ruhiy jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek, tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o'tish huquqiga ega.

Bolali oilalar fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasida qonun hujjatlarda belgilagan imtiyozlardan foydalanadilar. Uch yoshga to'limgan bolalar, shuningdek, shifokorlarning xulosasiga ko'ra qo'shimcha qarovga muhtoj bo'lgan katta yoshdagi kasali og'ir bolalar statsionar shifoxonada davolayotganida ularning otasi yoki onasiga yoxud oilaning bolani bevosita parvarishlayotgan boshqa a'zosiga davolash muassasasida uning yonida birga bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi va mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Davlat voyaga etmaganlarning sog'lijni saqlash huquqlarini ularning jismoniy, ma'naviy rivojlanishi uchun, kasalliklarning oldini olish uchun eng qulay sharoit yaratish, shuningdek, mакtabgacha tarbiya muassasalarini, maktablar va boshqa muassasalarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish orqali ta'minlaydi.

Voyaga etmaganlar quyidagi huquqlarga ega: sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda dispanser nazoratida bo'lish hamda bolalar va o'smirlarning davolash-profilaktika muassasalarida davolanish; sanitariya-gigiena ta'limi olish, o'qish hamda o'zlarining fiziologik xususiyatlari va sog'lig'iga mos sharoitlarda mehnat qilish; kasbga yaroqliliginini aniqlash chog'ida byudjet mablag'lari hisobidan

bepul tibbiy maslahatlar olish; sog'liqlari to'g'risida o'zлari uchun qulay tarzda zarur axborot olish.

O'n to'rt yoshdan oshgan voyaga etmaganlar ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor voyaga yetmaganlar ota-onalarining yoki ular o'rnni bosuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra byudjet mablag'lari, xayriya jamg'armalari va boshqa fondlarning mablag'lari, shuningdek, ota-onalar yoki ularning o'rnni bosuvchi shaxslarning mablag'lari hisobidan ijtimoiy himoya tizimi muassasalarida yashashlari mumkin.

Qonunda harbiy xizmatchilar, harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan hamda harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan fuqarolarning huquqlari alohida tartibga solingen. Harbiy xizmatchilar harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsiz ekanliklarini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o'tish hamda harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi asosida harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo'shatilish huquqiga ega.

Harbiy va muqobil xizmatga chaqiriladigan yoki harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kiradigan fuqarolar tibbiy tekshiruvdan o'tadi hamda sog'lig'iga ko'ra harbiy xizmatga chaqiruvni kechiktirish yoki chaqirvdan ozod etilish huquqini beradigan tibbiy ma'lumotlar to'g'risida to'liq axborot olish huquqiga ega.

Pensiya bilan ta'minlanish huquqini beradigan yoshga yetgan fuqarolarga davlat sog'liqi saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimi muassasalarida tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatiladi. Tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish o'z ichiga statsionar-ambulatoriya yo'li bilan davolashni, sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirishni, yolg'iz keksalarga ularing o'z uyida hamda internat-uylarda xizmat ko'rsatishni qamrab oladi.

Pensiya yoshidagi fuqarolar tibbiy xulosa asosida qonun hujjalariiga muvofiq ijtimoiy sug'urta mablag'lari, aholini ijtimoiy himoya qilish or-ganlarining mablag'lari hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan kuch-quvvatni tiklash huquqiga ega.

Nogironlar sog'lig'ini saqlashga qonunda alohida e'tibor berilgan. Nogironlar, shu jumladan nogiron bolalar va bolalikdan nogironlar tibbiy-ijtimoiy yordam olish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalaniш, dori-darmonlar, protez-ortopediya moslamalari, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanish, shuningdek, kasb-kor egallash va qayta tayyorgarlikdan o'tish, davlat sog'liqi saqlash tizimi

va ijtimoiy ta'minot muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish, o'z uylarida parvarish qilinish, o'zganing parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz nogironlar va surunkali ruhiy xastaliklarga chalingan nogironlar esa ijtimoiy ta'minot muassasalarida yashash huquqiga ega.

Favqulodda vaziyat tufayli jabr ko'rgan fuqarolar bepul tibbiy yordam olish va sog'liqni tiklash tarzida davolanish, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish hamda hayoti va sog'liqlariga tahdid solayotgan xavfni kamaytirishga qaratilgan gigiena chora-tadbirlari va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish huquqiga ega.

Favqulodda vaziyat sharoitida odamlarni qutqarish va tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida jabr ko'rgan fuqarolarga bepul davolanish, shu jumladan sanatoriy va kurortlarda davolanish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy kompensatsiya olish kafolatlanadi.

Qonunda bemorning huquqlari alohida tartibda belgilangan. Bemor tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan va tibbiy yordam olayotgan paytda quyidagi huquqlarga ega: tibbiyot xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hurmat va mehr-muruvvat ko'rsatishlari; shifokorni va davolash-profilaktika muassasasini tanlash; sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan sharoitda tekshiruvdan o'tish, davolanish va parvarish qilinish; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilab qo'ygan tartibda o'z iltimosiga ko'ra boshqa mutaxassislarining konsilium qilishi va ulardan maslahatlar olish; tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi, sog'lig'ining holati, qo'yilgan tashxis to'g'risidagi ma'lumotlar hamda uni tekshirish va davolash chog'ida olingan boshqa ma'lumotlar sir saqlanishi; tibbiy aralashuvga o'z ixtiyorli bilan rozilik berish yoki uni rad etish; o'z huquq va burchlari xususida hamda sog'lig'ining holati haqida ma'lumot olish, shuningdek, sog'lig'ining holatiga doir ma'lumotlarni uning manfaatini ko'zlagan holda bersa bo'ladigan shaxslarni tanlash; ixtiyorli tibbiy sug'urta doirasida tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish; tibbiy yordam ko'rsatish vaqtida sog'lig'iga zarar etkazilgan taqdirda ko'rilgan zararning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi; huquqini himoya qilishi uchun huzuriga advokat yoki boshqa qonuniy vakil qo'yilishi.

Huquqlari buzilgan taqdirda bemor yoki uning qonuniy vakili bevosita davolash-profilaktika muassasasining rahbari yoki boshqa mansabдор shaxsiga, yuqori boshqaruv organiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin.

Har bir fuqaro o‘z sog‘lig‘ining holati to‘g‘risida ma‘lumot, shu jumladan tekshirish natijalari, qanday kasali borligi, qanday tashxis qo‘yilganligi, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va bu usullar bilan bog‘liq xavf-xatar, tibbiy aralashvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlari, amalga oshirilgan davolashning natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagি PF-4985-sonli “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>111</sup>gi farmoni, 2018-yil 16-oktabrdagi PQ-3973-sonli “O‘zbekiston Respublikasida tez yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>112</sup>gi, 2017-yil 1-apreldagi PQ-2863-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>113</sup>gi, 2016-yil 31-oktabrdagi PQ-2647-sonli “Aholini dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlari bilan ta‘minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>114</sup>gi va 2018-yil 2-avgustdagи PQ-3894-sonli “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>115</sup>gi qarorlari hozirgi vaqtدا aholining sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## 7-§. Bilim olish huquqi

Bilim olish huquqi insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tarkibida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga ko‘ra, “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”<sup>116</sup>, deb belgilangan.

Ma‘lumki, kishilik jamiyat taraqqiyotini ta‘lim tizimini to‘g‘ri tashkil etmasdan, ilm-fanning rivojlanishini samarali yo‘lga qo‘ymasdan turib tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababdan, mustaqil davlatimizning birinchi Konstitutsiyasida bilim olish, ta‘lim-tarbiya masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, uning muhim jihatlarini o‘zidagi asosiy qoidalar sifatida o‘rnatib, unga konstitutsiyaviy maqom berildi.

<sup>111</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 11-сон, 152-модда

<sup>112</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллый базаси, 17.10.2018 й., 07/18/3973/2064-сон

<sup>113</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 217-модда

<sup>114</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллый базаси, 30.10.2017 й. 06/17/5216/0187-сон

<sup>115</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллый базаси, 3.08.2018 й., 07/18/3894/1615-сон

<sup>116</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т. Узбекистон, 2018

O‘zbekistonda ta‘lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda va bu tizimning Davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Dunyoning boshqa davlatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 10-12 foizini tashkil etadigan bunday ko‘rsatkichni kamdan-kam uchratish mumkin.

Ta‘lim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari to‘g‘risida gapirganda yana bir muhim jihatga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi<sup>117</sup>, deb belgilangan.

Baynalminal ahamiyat kasb etuvchi ushbu ustuvor qoidadan kelib chiqib, mamlakatimizda maktab ta‘limi 7 ta tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Shu bilan birga ta‘lim tizimida o‘quvchilar jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Bilim olish huquqining konstitutsiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”<sup>118</sup>gi qonunida rivojlantirildi. Yoxud, ushbu qonunning 1-moddasida uning maqsadi fuqarolarga ta‘lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta‘minlashga qaratilganligi o‘rnataligan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida ta‘lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi. Unga ko‘ra, ta‘lim O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e‘lon qilinib, ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta‘limning uzlusizligi va izchilligi; umumiyo‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining majburiyligi; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi; ta‘lim

---

<sup>117</sup> Ўша жойда

<sup>118</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, 9-сон, 225-модда, 2013, 41-сон, 543-модда

tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"<sup>119</sup>gi qonunining asosiy xususiyatlardan biri har kimga jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, bilim olishda teng huquqlar kafolatlanganligidadir. Shuningdek, boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga egaligi, Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'limgan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga egaligi ham diqqatga sazovor holatdir.

Qonunda ta'lim turlari sifatida maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; mактабдан ташқари та'lim amalda bo'lishi belgilangan.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlanтиради, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lim olish huquqini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"<sup>119</sup>gi, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan

---

<sup>119</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.10.2017 й.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida<sup>120</sup>gi, 2017-yil 16-fevraldag'i PF-4958-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida<sup>121</sup>gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida<sup>122</sup>gi farmonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida ta‘lim tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari belgilab berilgan.

### **8-§. Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yantuqlaridan foydalanish huquqi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida milliy qadriyatimiz, madaniyatimiz va ma‘naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan ilm-fan, san‘at va adabiyot bilan bog‘liq huquqlar alohida o‘rinni egallaydi. Unda belgilanishicha, har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yantuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi<sup>123</sup>.

Ushbu konstitutsiyaviy norma asosida bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarni ilm-fan va madaniyat yantuqlaridan bahramand etishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos tizim yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘rnatilgan qoidalar asosida mamlakatimizda ta‘lim olish, ilm bilan shug‘ullanish, ijod qilish yo‘nalishlarida muhim yantuqlarga erishildi.

Eng avvalo, fuqarolar gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, internet saytlari orqali fan, adabiyot, san‘at asarlardan bahramand bo‘lmoqdalar. Mamlakatimiz va xorijlik mualliflarning asarlari tinimsiz nashr etilmooqda. Nafaqat poytaxtimizda, balki chekka mintaqalarda ham teatrlar, muzeylar, kutubxonalar ishlab turganligini alohida ta‘kidlash lozim. Konstitutsiyamiz mamlakatimizda ta‘lim, ijod qilish erkinligi, ma‘naviyat asoslarini takomillashtirishni ta‘minlashda yo‘lchi yulduz vazifasini bajarmoqda.

Ushbu konstitutsiyaviy norma mazmunida, eng avvalo, har bir shaxsning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi o‘z mujassamini topgan.

<sup>120</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.01.2018 й., 06/18/5313/06-18-сон 1.0.2018/06/18/5496/ 1603-сон

<sup>121</sup> Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2017 й., 8-сон, 106-модда

<sup>122</sup> Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.09.2018 й., 06/18/5538/1840-сон

<sup>123</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т. Ўзбекистон, 2018

Kishilar ilm-fan, san'at, badiiy adabiyot va ijodning boshqa sohalarida erkin faoliyat yuritish huquqiga ega. Ijodkor shaxslar qonunga ko'ra mafkuraviy yoki siyosiy chegaralar bilan cheklab qo'yilmagan, ya'ni konstitutsiyada mafkuralashtirishdan voz kechilgan bo'lib, ijod ahliga so'z, fikr, vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlangan.

Ushbu normada mustahkamlangan "har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi" qoidasi shaxsnинг ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi huquqini kafolatlaydi. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi kafolatlanishi fuqaroning o'z istak va xohishidan kelib chiqib, ilmiy faoliyat turini erkin tanlashi, texnikaviy ijodkorlikni amalga oshirishda va ilmiy-texnik mahsulotni yaratishda boshqa shaxslarning tayziqidan holi bo'lishni ta'minlaydi.

Har bir kishiga ilmiy va texnikaviy ijod qilish erkinligining ta'minlanganligi shaxs intellektual faoliyatining kafolati bo'lib, fuqaro mazkur faoliyat turini o'z hayotining hohlagan davrida amalga oshirishi mumkinligini bildiradi. Xoxud boshqacha aytganda, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga nisbatan qonunda muayyan yosh tsenzi belgilanmaydi.

Har bir ijodkor dunyoning istalgan nuqtasidan ilmiy yoki boshqacha xarakterdagи ma'lumotlarni olish va ular asosida o'z ijodiy faoliyatini amalga oshirish, ijod natijasida vujudga kelgan g'oyalar va asarlarini mamlakatimizda yoki xorijda bayon qilish, bosib chiqarib, tarqatish imkoniyatlariga ega.

Ushbu normadagi "har kim" iborasi har bir jismoniy shaxsni nazarda tutadi va bunda jismoniy shaxsnинг aqli rasoligi, o'z harakatining oqibatini tushuna olish yoki olmasligi, yoshi, muomala layoqatiga egaligi ahamiyat kasb etmaydi. Shu bilan birga, jismoniy shaxs har qanday sharoitda ham ijod qilish huquqiga ega hisoblanadi. Masalan, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tash davomida shaxs she'r, hikoya, roman yozishi mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy normadagi ba'zi terminlarga izoh berish maqsadga muvofiq. Xususan, ushbu moddada qo'llanilgan ijod tushunchasi insonning sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan ruhiy va amaliy faoliyatini anglatadi. Inson o'z ijodi bilan mehnat qurollarini, mehnat vositalarini, mehnat predmetlarini, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini, o'simlik va hayvonlarning yangi turlarini, transport, aloqa, axborot vositalarini va boshqalarni yaratadi. Inson o'z ongli ijodiy faoliyati bilan badiiy asarlar, san'at asarlari, qadriyatlar, din va fanni ham yaratgan.

Ijodiy faoliyatning ilmiy, ishlab chiqarish, texnik, ixtirochilik, badiiy, diniy va boshqa turlari mavjud. Ilmiy ijod insonning tabiat, jamiyat va o‘z tafakkurida amal qiladigan qonun va qonuniyatlarni kashf qilish, bilib olish bilan bog‘liq bo‘lgan yaratuvchilik faoliyatidir. Ishlab chiqarish ijodi yangi moddiy boyliklarni yaratishga qaratilgan.

Ixtirochilik ijodi – bu insonning tabiat va jamiyat qonunlarini ochish, bilish va o‘rganish asosida mashina, asbob-uskunalar, moslamalar, qurilmalar, inshootlar yaratishidir. Badiiy ijod insonning san‘at va madaniyat sohalarida tabiat va jamiyat hodisalarini, insonning o‘zini nafosat qonunlari va tamoyillari asosida badiiy ifodalash faoliyatidir.

Ilmiy va texnikaviy ijod faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarda ilm-fan alohida ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan bizni o‘rab turgan dunyo to‘g‘risida obyektiv aniq bilimlarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. U inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanib, ilmiy ijodiy va texnikaviy faoliyat rivojini ta‘minlovchi, muntazam rivojlanib boruvchi bilimlar tizimini vujudga keltiruvchi, insonlar va muassasalarining ilmiy ijodiy yutuqlarini o‘z ichiga oladi.

Fan va texnikaning bir-biriga bog‘liq rivojlanish jarayoni insonga moddiy va ma‘naviy boyliklarni o‘zlashtirish, ilmiy ijod natijalarini ishlab chiqarishga tadbiq etish esa mehnat samaradorligini oshirishga, mahsulot tannarxining arzonlashishiga, uning sifati va raqobatbardoshligini o‘sishiga olib keladi.

Shuningdek, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligiga nisbatan qonun hujjalarda muayyan istisnoli holatlar belgilangan va birinchi navbatda bu holatlar xalq farovonligini va tinchligini ta‘minlash, davlatning konstitutsiyaviy tuzumiga zid bo‘lmaslik, doimo taraqqiyotga xizmat qilish bilan belgilanadi.

Yaratilish holatida va yaratilganlik faktiga ko‘ra ilmiy va texnikaviy ijod mahsuli g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilmasligi lozim. Ayni vaqtda ijodiy faoliyatni mutloq o‘zboshimchalik bilan o‘zi xohlagan tarzda amalga oshirish, g‘ayriqonuniy natijalarga erishishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ijod erkinligini suiste‘mol qilib sharm-hayosiz asarlar yaratish, fikrlash, so‘z va matbuot erkinligidan konstitutsiyaviy tuzumga qarshi maqsadda, boshqalarni badnom qilishni ko‘zlab, axborotlar izlash, olish va tarqatish huquqidан boshqalarni shaxsiy hayot sirlari yoki davlat, xizmat yoki tijorat sirlarini oshkor etish uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi.

Amaldagi qonunchilikda mualliflik huquqining buzilishi uchun aniq javobgarlik choralari nazarda tutilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 149-moddasiga ko‘ra, tafakkur mulki obyektiqa nisbatan mualliflik huquqini o‘zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ular rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgunga yoki e‘lon qilingunga qadar muallifning rozilgisiz oshkor qilish – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi<sup>124</sup>.

Fuqarolik qonunchiligidagi esa plagiatsi sodir etganga nisbatan ikkita chora qo‘llaniladi. Birinchisi bu “huquqni tan olish va huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash”, ya‘ni aslida asarning haqiqiy muallifi kim ekanligini e‘tirof etish, zarur hollarda esa tegishlich ra’smiylashtirish, ikkinchisi asar muallifiga etkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni qoplash (bu choralar FKning 1040-moddasi va “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 65-moddasi qoidalardan kelib chiqadi).

Insонning madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Madaniyat yutuqlari iborasi odatda kishiga madaniy zavq olish va hordiq chiqarishga mo‘ljallangan madaniy oqartuv faoliyati natijalarini anglatadi. Bular jumlasiga kino, teatr, muzeylar, musiqa asarlari, xalq og‘zaki ijodiyoti (folklor) va shu kabi madaniy meros obyektlarini kiritish mumkin. Madaniyat yutuqlaridan foydalanish qonunda belgilangan shartlar va talablar asosida barcha uchun ochiq hisoblanadi hamda har kimning undan foydalanishiga to‘sqinlik qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat tomonidan jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilinishiga alohida e‘tibor beriladi. Avvalo, mamlakatimizda ushbu konstitutsiyaviy norma asosida ilmiy va texnikaviy ijod qilish huquqini himoya qilish kafolatlarini belgilashga qaratilgan qonunchilik tizimi yaratilgan. Hozirda mamlakatimizda ilmiy va texnikaviy ijod faoliyati bilan bog‘liq munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

---

<sup>124</sup> Узбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. –Т. Адолат, 2017

Davlat tomonidan jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasi sifatida mamlakatimizda ilm-fan va san‘at sohasining namoyondalariga berilayotgan e‘tiborni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning akademiklar bilan uchrashuvi va akademiklarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>125</sup>gi PQ-2789-sonli qarorining qabul qilinishi, ushbu qarorda akademiklarning faoliyatini qadrlash va munosib taqdirlash, ular faoliyatini yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash nazarda tutildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”<sup>126</sup>gi PF-4958-sonli farmoni, Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 22-maydagagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>127</sup>gi 304-sonli qarori ilmiy va texnikaviy ijod bilan shug‘ullanuvchi ilm namoyondalariga keng imkoniyatlar eshigini ochib bergenligini ta‘kidlash lozim.

Qolaversa, ilmiy va texnikaviy ijodning rivojlanishiga davlat g‘amxo‘rligi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi PF-5068-sonli “Toshkent shahrining Yashnobod tumanida innovatsiya texnoparkini tashkil qilish to‘g‘risida”<sup>128</sup>gi farmonini ko‘rsatish mumkin.

Davlat tomonidan jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlikning yaqqol na‘munasi sifatida yana O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagи madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini

---

<sup>125</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 8-сон, 117-модда, 447-модда, 36-сон, 950-модда

<sup>126</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 8-сон, 106-модда

<sup>127</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 21-сон, 396-модда; Конун ҳужжатлари маълумотлари мишлий базаси, 09.11.2017й., 09/17/898/0234-сон

<sup>128</sup>Узбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 23-сон, 446-модда

tashkil etish to‘g‘risida”<sup>129</sup>gi qarori qabul qilinganligi va shu qaror asosida chet ellarda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarni aniqlash, ularning to‘liq ma‘lumot bazasini yaratish, ana shu tarixiy eksponotlarning asl yoki ko‘chirma nusxalarini yurtimizga olib kelish vazifasining qo‘ylganligini e‘tirof etish o‘rinlidir.

Mamlakatimizda ilm-fan va san‘at namoyondalariga ijodlarining natijalariga ko‘ra ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga sazovor bo‘layotganliklari. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston xalq baxshisi, O‘zbekiston xalq xofizi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi kabi qator unvonlarning berilishi hamda ushbu unvonlar asosida tegishli imtiyozlarning mavjudligi davlat g‘amxo‘rligining yaqqol na‘munasidir.

Mamlakatimizda ijodkor shaxslar mafkuraviy yoki siyosiy chegaralar bilan cheklab qo‘yilmagan, ya‘ni konstitutsiyada mafkuralashtirishdan voz kechilgan bo‘lib, ijod ahliga so‘z, fikr, vijdon va e‘tiqod erkinligi kafolatlangan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 67-moddasida ommaviy axborot vositalari faoliyatida senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi<sup>130</sup>, deb belgilangan bo‘lib, bu ham ijod erkinligining konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi.

### *O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari*

1. Inson va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar turlarini sanab bering.
3. Insonning mulkdor bo‘lish huquqi qanday ta‘minlanadi?
4. Insonning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalanish huquqini sharhlab bering.
5. Dam olish huquqi turlarini bilasizmi?
6. Insonning pensiya olish huquqi qanday amalga oshiriladi?
7. Insonning bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini sharhlab bering?

<sup>129</sup>Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 июнодаги ПК-3074-сонли “Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Узбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқик этиш марказини ташкил этиш тўғрисида”ти карори //Халқ сўзи, 2017 йил 21 июн

<sup>130</sup>Узбекистон Республикасининг Конституцияси –Т. Узбекистон, 2018

### **XIII BOB. O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKALARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI**

- 1-§. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi.
- 2-§. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning kafolatlanganligi.
- 3-§. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqlarining davlat himoyasida ekanligi.
- 4-§. Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi.

#### **1-§. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi**

Fuqarolarning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga doir huquq va erkinliklari qonun va qonunosti hujjatlarida bevosita belgilangan bo'lib, ushbu huquq va erkinliklarning eng muhimlari albatta mamlakat konstitutsiyasi normalarida aks etadi. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari konstitutsiyada belgilanishi esa o'z navbatida ushbu huquqlarning konstitutsiyaviy ahamiyatga ega ekanligidan va ularning bosh ustuvor o'rinda turishini ham belgilaydi.

Insonning davlatning bosh qomusida belgilangan huquqlari bu ularning konstitutsiyaviy huquqlari bo'lib, ushbu huquqlar nafaqat mamlakat qonunlari balki, xalqaro huquq normalarining ham umuminsoniy tamoyillariga mos tushishi barobarida oliv qadriyat sifatida baholanadi. Konstitutsiyaviy huquqlar asosiy qonunda belgilanib, milliy qonunchilik hujjatlarida ular yanada takomillashtiriladi va ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilanadi.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga qaratilgan vosita, usul va shart-sharoitlar majmui kafolat bo'lib hisoblanadi.

Huquq va erkinliklarni kafolatlashning bosh maqsadi esa, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish va ularni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishini va barcha holatda ham bir xilda bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Huquq va erkinliklarni real amalga oshirilishi ta'minlanmas ekan, ular dekorativ ahamiyatga ega bo'lib, ularning jamiyat hayotida hech bir ma'no va mazmun kasb etmasligi muqarrardir.

Mamlakatimizda bugungi demokratik islohotlar va jadal sur'atlar bilan ildamlayotgan taraqqiyot sharoitida inson manfaatlarini himoya qilish va ularning barcha huquqlarini davlat va jamiyat hayotida to'la ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlar huquq va erkinliklarni yanada samaraliroq amalga oshirilishi belgilovchi qonun hujjatlarini qabul qilish va amalga kiritish bilan bir qatorda avvalo hamma narsa inson uchun tamoyilidan kelib chiqib, belgilanayotgan chora-tadbirlar, amaliy faoliyatlardir.

Huquqiy fan nuqtaiyi-nazaridan kafolatlarni mazmunan quyidagi turkumlarga bo'lish mumkin:

- 1. Yuridik kafolatlar;*
- 2. Ijtimoiy-siyosiy (g'oyaviy-mafkuraviy) kafolatlar;*
- 3. Ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar.*

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda **yuridik** kafolatlar boshqa kafolatlarga nisbatan alohida ahamiyat kasb etib, ularning belgilanishi bevosita boshqa turdag'i kafolatlarning ham amalga oshirilishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Yuridik kafolat fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonunlar va qonunosti hujjatlarida belgilash orqali huquqiy jihatdan kafolatlanishidir. Yuridik kafolatlarni amalga oshishi saqat demokratik tartib amalda bo'lgan davlatlardagina kuzatiladi.

Yuridik kafolat mazmun-mohiyati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirilish tartibi va qoidalarini mustahkamlash;
- fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishlarida davlat idoralari va mansabdar shaxslar mas'ulligini belgilash;
- huquqqa salbiy daxl qiluvchi yoki qilishi mumkin bo'lgan xattiharakatlar yuzasidan davlat-huquqiy himoyani ta'minlovchi maxsus me'yorlar (ariza, taklif va shikoyat qilish huquqi, yuqori turuvchi organiga va sudga murojaat qilish huquqi) belgilanishi;
- huquqni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning belgilanganligi (mulkiy, fuqaroviy, iqtisodiy, intizomiy, ma'muriy, jinoiy).

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini maxsus kafolatlash Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlar orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu qonunlarga: "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa ko'plab qonunlarni misol sifatida keltirish mumkin.

**Ijtimoiy-siyosiy (g'oyaviy-mafkuraviy) kafolatlar** – har bir davlatda amal qilib turgan siyosiy tuzum orqali namoyon bo'ladi. Ushbu tuzum demokratik yoki byurokratik bo'lishi mumkin (tarixda despotik, totalitar tuzumlar ham amal qilgan). Fuqarolar huquq va erkinliklarining ijtimoiy-siyosiy kafolatlanishi quyidagilarga bevosita bog'liq:

- mamlakat miqyosida olib borilayotgan davlat siyosatining tub maqsadiga;
- siyosiy plyuralizm ya'ni siyosiy fikrlar xilma-xilligining darajasiga;
- jamiyatdagi mavjud siyosiy mafkuralarning mazmun-mohiyatiga;
- nafaqat siyosiy balki barcha jabhalardagi hurfikrlilikning mavjudligiga;
- diniy erkinlik va bag'rikenglik (tolerantlik)ning ta'minlanganligiga;
- ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinlik darajasiga;
- fuqarolarning davlat organlariga bevosita murojaatlarining to'siqlarsiz amalga oshirilishining ta'minlanganligiga.

**Ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar** jamiyatda mavjud bozor munosabatlari mazmuni hamda iqtisodiy rivojlanishning ahvoliga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari jadal sur'atlar bilan harakatlanib O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotga tayanadigan huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimi – bu davlat iqtisodiy hayotining asosini qamrab olib, mavjud bo'lgan mulk shakllarining xususiyatini, ijtimoiy yo'nalishga qaratilgan ishlab chiqarish maqsadini, ijtimoiy mahsulotning adolatli taqsimoti tamoyilini va xalq xo'jaligini boshqarish asoslarini belgilab beradigan mulkiy munosabatlardan iborat. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini iqtisodiy

kafolatlash davlatda amal qilib turgan iqtisodiy tizim orqali namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy kafolatlarga:

- adolatli iste‘mol savatini davlat tomonidan rasmiy ravishda mustahkamlanishi;
- oylik ish haqining eng kam miqdorini belgilanishi;
- davlat tomonidan aholining kam ta‘minlangan qatlamini, voyaga yetmaganlar va nogironlarni ijtimoiy himoyalanishi;
- barcha mulk shakllarining tengligi hamda fuqarolarning mulkiy huquqlarini ta‘minlanishi kiradi.

## **2-§. Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning kafolatlanganligi**

Ushbu konstitutsiyaviy huquqiy me‘yor O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonunda to‘la rivojlantirilgan.

Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yoki mansabdar shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o‘z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi “Sudlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuniga ko‘ra, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish sud organlarining vazifasi qilib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunining 4-moddasiga ko‘ra, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish, deb mustahkamlab qo‘yilgan.

**G‘ayriqonuniy xatti-harakatlar** deyilganda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazadigan xatti-harakatlar tushuniladi.

2017-yil 11-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasiga binoan **shikoyat**-buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat tushuniladi.

Shuningdek, ushbu qonunning 3-moddasida murojaat turlari bayon etilib, unda ariza, taklif, shikoyat, elektron murojaat, takroriy murojaat, anonim murojaat, murojaatning dublikati kabi tushuncha va qonunchilik tizimidagi yangi qoidalar o‘z ifodasini topdi.

Ushbu qonunning 32-moddasida esa murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini bayon etib, murojaatni qabul qilishni yoki ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etganlik ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga shikoyat qilish huquqi mustahkamlandi.

*Sudga shikoyat qilish huquqi* – fuqarolar tomonidan ularning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida tiklashni talab etadigan huquqidir.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonunga binoan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va mansabdar shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlari (qarorlar) jumlasiga:

- a) fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzgan;
- b) fuqaroning huquq va erkinliklari ro‘yobga chiqishiga monelik tug‘dirgan;
- c) fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo‘lgan xatti-harakatlar (qarorlar) kiradi.

Fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo‘ysinuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdar shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Berilgan shikoyatni tegishli davlat organi, mansabdar shaxs bir oylik muddatda ko‘rib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatini qanoatlan Tirish rad qilingan bo‘lsa yoki u shikoyat bergen kundan boshlab bir oy mobaynida javob olmagan bo‘lsa, sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

Shikoyatni huquq yoki erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga ko‘ra jamoat birlashmasining, mehnat jamoasining vakolat berilgan vakili berishi mumkin. Shikoyat fuqaroning xohishiga qarab yo u yashaydigan joydagি sudga yoki organ joylashgan yerdagи, yoxud xatti-harakatlari (qarorlar) ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdar shaxsning ish joyidagi sudga beriladi.

Mazkur qonunga binoan sudga shikoyat bilan murojaat qilish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

- fuqaro o'z huquqlari va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan kundan boshlab uch oy;

- fuqaro yuqori turuvchi organ, mansabdar shaxsning shikoyatni qanoatlantirishni rad etish haqidagi yozma bildirishini olgan kundan boshlab bir oy;

- agar fuqaro o'z shikoyatiga yozma javob olmagan bo'sha, shikoyat bergenidan keyin bir oy muddat o'tgan kundan boshlab bir oy.

Shikoyat berishning uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati sud tomonidan tiklanishi mumkin.

Fuqaroning davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdar shaxslar xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyati sud tomonidan fuqaroviy sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud qaror chiqaradi. Sud shikoyatning asosliligini aniqlagach, ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) qonunga xilof deb topadi, fuqaroning talablarini qanoatlantirish majburiyatini yuklaydi yoki uning buzilgan huquq va erkinliklarini o'zgacha yo'l bilan tiklaydi.

Agar ustidan shikoyat berilgan xatti-harakatni (qarorni) sud fuqaroning huquqlari va erkinliklarini buzmaydigan qonuniy xatti-harakat (qaror) deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi. Sudning qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sudga shikoyat berilishi mumkin.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarori barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdar shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiy va uni bajarish shart.

Sudning qarori xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat berilgan organ yoki mansabdar shaxsga, shuningdek, fuqaroga qaror qonuniy kuchga kirgach kechi bilan o'n kun ichida yuboriladi. Qaror bajarilganligi haqida sudga va fuqaroga sud qarori olingan kundan boshlab kechi bilan bir oy ichida xabar qilinishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF – 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash yuzasidan sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va

erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimida ma'muriy sudlar tashkil etildi. Shu paytga qadar fuqarolik ishlari bo'yicha va iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib kelinayotgan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish ma'muriy sudlar zimmasiga yuklatildi. Ma'muriy sudlar faoliyatini protsessual tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qabul qilindi. Ushbu islohotlar fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlashga oid yuridik kafolatlar tizimini yanada takomillashtirdi.

### **3-§. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqlarining davlat himoyasida ekanligi**

O'zbekiston Respublikasida aholining kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj alohida qismini davlat o'z himoyasiga olgan. Bu esa ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda ijtimoiy jihatdan kafolatlangan davlat barpo etish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishning salmoqli asosi bo'lib hisoblanadi.

*Voyaga yetmaganlar* – bu O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi o'n sakkiz yoshga to'limgan jismoniy shaxslar bo'lib, ular yoshiga ko'ra, muomalaga layoqatsiz yoki qisman layoqatli bo'lishi mumkin.

*Mehnatga layoqatsizlarga* – jismoniy nuqsonlari mavjudligi tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotgan jismoniy shaxslar kiradi.

*Yolg'iz keksalar* – deganda o'zgalar parvarishiga muhtoj, mehnat layoqatini to'la yoki qisman yo'qotgan holda o'z boquvchisiga ega bo'limgan shaxslar tushuniladi.

Voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat hokimiyyati organlari tizimida maxsus tuzilmalar tashkil etilgan.

Mahalliy xalq deputatlari Kengashlari tarkibida "Yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha doimiy komissiya"lari tashkil etilgan. Ularning faoliyat yo'nalishlari sifatida yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash sohasidagi dasturlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va ishlab chiqishda qatnashadi;

- yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni ishga joylashtirish, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha muammolarni tahlil qiladi va bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;
- yoshlarni estetik tarbiyalashdagi rolini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi;
- yoshlar bilan ishslashning shakl va usullarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni xalq deputatlari Kengashi tomonidan tayyorlashda va ko'rib chiqishda takliflar kiritadi;
- bola huquqlarini himoya qilish, voyaga yetmaganlar ustidan vasiylilik va homiylik, yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni nazorat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni 2010-yil 29-sentabrda qabul qilindi.

Qonunga binoan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;
- voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

Bundan tashqari, mahalliy ijro hokimiyati organlari tizimida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyat yuritadi. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya mas'ul kotibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14- martdagি PQ-2833-son qarori bilan tasdiqlangan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi nizom talablari asosida faoliyat yuritadi. Mazkur komissiyalar tizimi Respublika komissiyasi, shuningdek, mintaqaviy

komissiyalar, tuman (shahar) komissiyalaridan iborat bo'lib, o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi organlar hisoblanib hamda ular:

- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.

Hududiy komissiya majlisida bayonnomma tuziladi, unda majlis bo'lgan sana va joy, ko'rib chiqilayotgan ishning mazmuni, ishni ko'rishda qatnashayotgan shaxslarning majlisga kelgan-kelmaganligi to'g'risidagi ma'lumo'llar, ular bergen izohlarining qisqacha mazmuni, ishga oid boshqa ma'lumotlar, shuningdek, qabul qilingan qarorni o'qib eshittirish va uning yuzasidan shikoyat berish tartibi va muddatlarini tushuntirish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bayonnomma raislik qiluvchi va hududiy komissiyaning mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Ijtimoiy yordam va ko'makka muhtoj aholi qatlamini ayniqsa, keksalar va nogironlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining va ko'p yillik taraqqiyot yo'li mobaynida amalga oshiriladigan ishlar qatoriga kiritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i PF - 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda pensionerlar, nogiron, yolg'iz kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish belgilab qo'yildi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2016-yil 26-dekabrdagi

O'zbekiston Respublikasining "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar tarkibini bunday shaxslarning turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo'lgan imkoniyatlarini yaratishga va (yoki) o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xizmatlarga muhtoj shaxsga yordam ko'rsatish bo'yicha huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta'limga oid, tibbiy, reabilitatsiya chora-tadbirlari va boshqa chora-tadbirlar majmui tashkil etadi.

Shuningdek, ushbu qonunga ko'ra aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga quyidagilar kiritilgan:

-qonun hujjatlariда belgilangan tartibda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj deb topilgan shaxslar, shu jumladan:

-o'zgalarining parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashovchi keksalar;

-I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;

-muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar;

-ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar;

-yetim bolalar va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Jamg'arma nomini O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi «Nuroniy» jamg'armasi etib o'zgartirildi va jamg'armaning markaziy apparati va hududiy bo'limlarining yangi tuzilmalari tasdiqlandi. Shuningdek, quyidagilar jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- faxriylarning O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oqsoqollar, keksa yoshdagilar va nogironlarni yoshlarni Vatanga muhabbat, keksa avlod kishilarini hurmat qilish, ezzulik va rahmdillik singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatga jalg etish;

- keksalarning hayoti darajasini oshirish sohasida davlat siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda davlatga

ko'maklashish, pensiyaga chiqqandan keyin ularning yuqori ijtimoiy faolligini, shu jumladan ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini va davlat organlari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash;

-keksalar uchun nazarda tutilgan pensiyalar va imtiyozlar bo'yicha qonuri hujjatlari qoidalari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash, ushbu masalada davlat boshqaruvi organlariga va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'maklashish, ehtiyojmand keksalarni va aholining boshqa qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tibbiy yordam bilan ta'minlash, ushbu maqsadlarda ishlab chiqarish, tijorat, noshirlik, xayriya tadbirdarini va boshqa tadbirdarini amalga oshirish;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda oilalarda tinchlik va xotirjamlikni ta'minlash, yolg'iz kishilar va ehtiyojmand keksalarni ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning birinchi navbatdagi ehtiyojlari qondirilishida har tomonlama yordam berish;

-keksalar uchun ularning yoshini hisobga olgan holda har xil ijtimoiy-madaniy tadbirdar, telemarafonlar, maxsus sport musobaqalari, keksa yozuvchilar, artistlar, xonandalar, rassomlarni va ijodiy ziyolilarning boshqa vakillarini taklif etgan holda ijodiy kechalar tashkil etish.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 3-iyuldagи «Muruvvat» va «Saxovat» internat uylarida yashaydigan nogironlar va keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 455-son qarori bilan «Muruvvat» va «Saxovat» internat uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash Respublika vasiylik kengashi to'g'risidagi nizom, «Muruvvat» va «Saxovat» internat uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hududiy vasiylik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom, O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi huzuridagi «Muruvvat» va «Saxovat» internat uylari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalananish to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-martdagи "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-son qarorida keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlarini hisobga olishning idoralararo axborot tizimini yaratish, shuningdek,, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida interaktiv davlat

xizmatlari («Ijtimoiy himoya» IAT) ko'rsatilishini tashkil qilish belgilangan. Shuningdek, Qaror bilan keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlamlarini tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

#### **4-§. Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi**

Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – ularning teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Xotin-qizlar va erkaklar tengligi – demokratiyaning muhim elementidir. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan huquqiy tengligi bo'lib, u har bir fuqaroning qaysi jinsga mansubligidan qat'iy nazar teng huquq va erkinlikka ega ekanligini anglatadi.

“Ayollar bilan erkaklarning teng huquqligini ta'minlash uchun davlat keng miqyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog'lig'ini mustahkamlashda yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi ham zarurdir. Chunki, teng imkoniyat va qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi ta'minlanishi mumkin. Bundan tashqari, oiladagi ishlarning asosiy qismi ayollar zimmasiga tushadi, buning natijasida ayollar o'zlarining to'la huquqliligi imkoniyatidan foydalana olmaydilar. Shuning uchun davlat ayollar bilan erkaklarning tengligini e'lon qilar ekan, buni ta'minlash uchun ayollarni qo'shimcha ravishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarini ko'rmoqda”<sup>131</sup>.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga beriladigan e'tibor milliy qonunchiligidan ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi (yangi tahrirda) 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan qonunda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka qo'yiladigan nomzodlarning 30 foizi xotin-qizlardan bo'lishligi mustahkamlandi.

---

<sup>131</sup> Каюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий хукуқи. Г.: “Адолат”, 1998. 181-б.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi qonuni 1999-yil 14-aprelda qabul qilindi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga qo'shimcha 228-l-modda kiritilib, uch yoshga to'limgan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilandi hamda kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ldilar.

Bugungi kunda ham ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyatda tutgan o'rni yanada mustahkamlash borasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi:

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF - 4947-soni Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnni kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirdorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash vazifasi belgilab qo'yildi.

Bu borada qabul qilingan asosiy qonun hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2 fevraldag'i PF - 5325-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bo'lib, mazkur Farmonga muvofiq O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati yanada takomillashtirilib, faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- birinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish;

- ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli

ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

– uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

– to'rtinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi, qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, tumanlar (shaharlar) xotin-qizlar qo'mitalari ijro apparatlarining namunaviy tuzilmalari, Xotin-qizlar qo'mitalari ijro apparatlari xodimlarining cheklangan soniga nisbatan toifalangan viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, tumanlar (shaharlar) ro'yxati tasdiqlandi.

*Xotin-qizlar qo'mitasi* – xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, hudud xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining xotin-qizlarning sotsial, ijtimoiy-siyosiy va mehnat faolligini oshirish, ularning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash va extiyojlarini to'laroq qondirish bo'yicha puxta va samarali faoliyatini ta'minlash, ularning oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi rolini kuchaytirish, xotin-qizlarning diniy ta'limiga ko'maklashish, ularning ma'naviy, intellektual va kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra Xotin-qizlar va oila masalalari bo'yicha FHDYO organi, «Oila» markazining tuman (shahar) bo'limi hamda boshqa tuzilmalar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish tuman (shahar) hokimi o'rinosi — xotin-qizlar qo'mitasi raisi zimmasiga yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmonda o'smir qizlar va fertil yoshidagi ayollar uchun «ayollar maslahatxonalari»ni tashkil etish va ular quyidagi vazifalarni bajaralishi belgilab berildi:

– oilani rejalashtirish, kontratsepsiya usullari, homilani sun’iy ravishda tushirish va jinsiy yo’llar orqali yuqadigan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha, shu jumladan anonim tarzda, maslahatlar berish;

– onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq akusher-ginekologik va ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish;

– reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish, onalik va perinatal kasalliklarining va o‘lim holatlarining oldini olish sohasida aholining bilimi va sanitariya madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish.

Shu bilan birga, ushbu Farmon bilan «Mo‘tabar ayol» ko‘krak nishoni ta’sis etilganligi munosabati bilan jamiyat va davlat hayotida fayllik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shtigan, shuningdek, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, ularni vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ‘ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-apreldagi 257-son qarori bilan «Mo‘tabar ayol» ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda mazkur konstitutsiyaviy normaning amaliy hayotga tatbiq etilishida yuqoridaagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar misolida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shularga asosan xotin-qizlar haq-huquqlarni himoya qilish, ularga qulayliklar yaratish davlat siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### *O‘zini -o‘zi nazorat qilish savollari*

1. “Kafolat” deganda nima tushuniladi?
2. Inson huquq va erkinliklarining yuridik kafolatlariga nimalar kiradi?
3. Inson huquq va erkinliklarining ijtimoiy kafolatlariga nimalar kiradi?
4. Davlat inson huquq va erkinliklarining kafolati sifatidagi vazifalari nimalardan iborat?
5. Sud hokimiyatining inson va fuqaro huquq va erkinliklari ta‘minlashda o‘rnini aytin?

## XIV BOB. O'ZBEKISTONDA FUQAROLAR BURCHLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

- 1-\$. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.
- 2-\$. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi.
- 3-\$. Fuqarolarning tarixiy, ma'nnaviy va madaniy merosni asrash majburiyati.
- 4-\$. Fuqarolarning atrof tabiiy muhitga bo'lgan munosabati.
- 5-\$. Fuqarolarning soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga doir burchlari.
- 6-\$. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish.

### 1-\$. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari bilan birgalikda asosiy burchlari ham mustahkamlangan bo'lib, uni bajarish fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasiga ko'ra, «Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar».

Ma'lumki, **huquq** shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o'z harakatining turi va me'yorini tanlab olish imkoniyati bo'lsa, **burch** jamiyat va davlat tomonidan belgilangan va huquqiy normalarda o'z aksini topgan tajablarni bajarish zaruriyatidir. Bundan tashqari, burchning o'ziga xos jihatlari bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi. Burch asosan qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqadi, **majburiyat** esa, aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi; burch shaxs tug'ilgandan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa shartnomaning amal qilish davrigacha bo'ladi; shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishi talab etiladi. Burch va majburiyat bajarilmagan taqdirda ko'rildigan choratadbirlar turlichadir. Burch bajarilmaganda huquqiy ta'sir choralar qo'llaniladi.<sup>132</sup>

Burch – shaxs huquqiy maqomining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u

---

<sup>132</sup> Конституциявий хукук. Дарслик / X.T. Одилкориев, У.Х. Мухаммадов, Б.А. Саидов ва бошқалар, Масъул мухаррир Ш.Т. Икрамов. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. 250-бет

inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari bilan chambarchas bog'liqidir. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limida inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklari bilan birga ularning asosiy burchlarining ham belgilanishi bilan izohlash mumkin. Inson faqatgina burchga ega bo'lishi mumkin emas, xuddi shuningdek, inson burchsiz huquqqa ham ega bo'lmaydi. Erkinlik huquqqa asoslangan tartib doirasida amalga oshirilsa hayotiy ahamiyat kasb etadi. Tartib esa bu huquq va burchning uyg'unligidir.

Demak, burch bu – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalanadi. Ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mayjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch iymon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Burch qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi (milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch va boshqalar). Ijtimoiy va shaxsiy burch, oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi va boshqa burchlar bor. Burch – nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o'zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etib bormoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldidagi turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Bizda ona -Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharafli burch hisoblanadi<sup>133</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada ilgarigi sobiq Ittifoq davridagi konstitutsiyalardan farqli ravishda nisbatan kamroq burchlar belgilangan bo'lib, ko'proq inson huquq va erkinliklariga e'tibor qaratilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, asosiy qonunda insonlarning burchlarini belgilamaslik ham mumkin emas, chunki ularning amalga oshirilishi davlatning normal faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Konstitutsiyada belgilangan insonlarning asosiy burchlarida eng muhim talablar qo'yilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi insonning jamiyat oldidagi, fuqaroning davlat oldidagi ma'suliyatini ta'minlaydi.

Burch O'zbekiston davlati tomonidan belgilanib, Konstitutsiyada

---

<sup>133</sup> Қаранг! Ўксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, эл-юртга садокат, адолат, ҳалоллик ва жасорат фазилатларини камол тоғтириш. – Г. 2013. – Б. 37–38.

mustahkamlangan har bir fuqaro bajarishi shart bo‘lgan, bajarmaslik esa javobgarlikka olib keladigan xatti-harakatlar va yashash tarzi qoidalaridan iborat. Burch ijtimoiy zaruriyat bo‘lib, ularning bajarilishi butun jamiyat manfaatlari uchun zardonir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Konstitutsiyaga asosan demokratiya O‘zbekiston Respublikasida umuminsoniy prinsiplarga, ya‘ni inson eng oliv qadriyat degan g‘oya asosiga quriladi. Har bir fuqaro qonun oldida tengdir va boshqa fuqarolarning millati, tili, dini va e‘tiqodini hurmat qilishi shart.

Fuqaro o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanganida, uning harakatlari boshqa shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim. Shu bois, shaxs o‘z huquq va erkinliklaridan qonun doirasidan chiqmagan holda foydalanishi lozim. Agarda qonundan tashqari xatti-harakat sodir etilsa, u holda, qonun tomonidan jazolanadi. Bu esa konstitutsiyaviy burchlarni bajarmasligidan kelib chiqadi.

Konstitutsiyon burchlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularni bajarmaganlik uchun javobgarlik Konstitutsianing o‘zida emas, balki turli qonunchilik tarmoqlarida (ma‘muriy, soliq, jinoyat va h.k.) belgilanadi.

Fuqarolarning asosiy burchlari Konstitutsiya va boshqa qonunlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularda fuqarolar Konstitutsiyaga rioya qilish bilan birga, undagi har qanday qoidalar buzilishining oldini olishi, boshqa shaxslarning qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligi o‘z ifodasini topgan.

Inson va fuqarolarning asosiy konstitutsion burchlari quyidagilardan iborat:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab-asrash;
- atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish;
- qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash;
- Vatanni himoya qilish.

## **2-§. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko‘ra,

«Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar».

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish asosiy konstitutsion burch sifatida e'tirof etilar ekan, bu nafaqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun, balki mamlakatimiz hududida bo'lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uchun ham bajarilishi majburiydir.

Ushbu konstitutsion burch O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilik aktlari bilan cheklanib qolmaydi. U juda ham keng mazmun-mohiyat kasb etib, qonunlarga so'zsiz itoat etish sifatida e'tirof etish mumkin. Bu esa o'z navbatida inson va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlar, qonunosti me'yoriy hujjatlar hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlarining aktlariga amal qilish shartligini anglatadi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchidan tashqari, fuqarolar muayyan konstitutsion taqiqlarga ham amal qilishi lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi, 57-moddasasiga ko'ra, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va havfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi. Ushbu normalar fuqarolarni taqiqlangan xatti-harakatlardan o'zini tiyish bilan ogohlantirib, konstitutsiyaviy burchlarni aniqlashtirib beradi.

Konstitutsiyaviy burchlarni bajarishga qo'yiladigan talablar zamirida mamlakatda qonuniylikni ta'minlash yotadi.

Qonuniylik muhiti – davlat va jamiyatdagi mustahkam tartib va

barqarorlikning asosi, har bir fuqaro hayotida tinchlik va osoyishtalik bo‘lishining garovidir<sup>134</sup>.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish majburiyati huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari uchun umumiy, universal talabdir. Buning ma‘nosi shundaki, har bir inson, har bir fuqaroda hayot va faoliyatining barcha jabhalarida huquqqa muvofiq xatti-harakat qilishdek ichki ruhiy hissiyot, e‘tiqod mavjud bo‘lishi nazarda tutiladi.<sup>135</sup>

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish – nafaqat ularning qoidalarni buzmaslik, balki fuqarolarning o‘z faoliyati, hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy prinsip va asoslarni, qonunchilik normalarini real voqelikka aylantirishga ko‘maklashishlari demakdir<sup>136</sup>.

Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari. mamlakatda o‘rnatalgan huquqiy tartibot, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi lo‘nda qilib ifoda etiladi. Shu sababli ularga har bir fuqaro qat‘iy rioya etishi shart<sup>137</sup>.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilmaslik davlat tomonidan belgilangan qoidalar huquqiy me‘yorlarining buzilishiga olib keladi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan inson huquqlari sohasidagi ichki va tashqi siyosat, o‘z navbatida, aholimizning inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish, yangi ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirish hamda inson huquqlariga hurmat-ehtirom va uning umummillat darajasida rivojlantirilishiga olib kelmoqda.

Boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish erkinlikning muhim sharti bo‘lib, uni chegaralab turadi va huquqiy tartibga solishning fundamental tamoyili hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

<sup>134</sup> Одилкориев Х.Т. Конституция ва баркамол жамият орзуси. – Т., 2012. – Б. 107.

<sup>135</sup> Конституциявий хукуқ. Дарслик / Х.Т. Одилкориев, У.Х. Мухаммедов, Б.А. Саидов ва бошқалар; Масъул мухаррир Ш.Т. Икрамов. – Т.: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. 252-бет.

<sup>136</sup> Одилкориев Х.Т. Конституция ва баркамол жамият орзуси. – Т., 2012. – Б. 107.

<sup>137</sup> Одилкориев Х.Т. Конституция ва баркамол жамият орзуси. – Т., 2012. – Б. 107–108.

Har qanday rivojlangan demokratik fuqarolik jamiyatining muhim shartlaridan biri jamiyatda inson huquq va erkinliklari kafolatlanganligi hisoblanadi.

Har bir inson o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga egaki, ularga qilingan tajovuz bevosita insonning jamiyatda tutgan o‘rniga, uning ruhiyatiga, xullas, uning tur mush tarziga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «Har kim o‘z sha‘ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega»ligi mustahkamlab qo‘yilgan.

*Sha‘n* – jamiyatning shaxsga bergen bahosi bo‘lib, jamiyat a‘zosi sifatida shaxs ijtimoiy-ma‘naviy jihatlarining o‘lchovidir. Jamiyatning shaxsga bahosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqaroning o‘ziga bog‘liqdir, chunki uning shaxsi davlatga va jamiyatga, o‘zini o‘rab turgan insonlarga munosabati hamda ba‘zi bir harakatlari va umumiy faoliyati asosida shakllanadi. Bu inson faoliyatining ijtimoiy hayotdag‘i o‘rni va samarali faoliyatining foydaliligiga bog‘liq, chunki mazkur sifat uning barcha xususiyatlarini aks ettiradi.

*Qadr-qimmat* – shaxsnинг jamoadagi o‘rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatiga, dunyoqarashiga qarab o‘zini o‘zi ichki baholashdir. Har bir inson o‘zining jamiyatdag‘i tutgan o‘rnini anglab yetadi.

Qadr-qimmat deganda, odatda, inson va uning ma‘naviy hamda aqliy xislatlari, uning obyektiv va subyektiv jihatlari, jamiyatdag‘i obro‘sisi, nufuzi, donishmandligi, ma‘naviyati, fe‘l-atvori, bilim darajasi kabilar tushuniladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, “qadr-qimmat” tushunchasida obyektiv va subyektiv jihatlar mavjud bo‘lib, ularning yig‘indisi bo‘yicha yagona yaxlitlikni tashkil etadigan quyidagi xususiyatlarga ajratish mumkin:

1) insonning qadr-qimmati (shaxsnинг xislatlari qandayligidan qat‘iy nazar, uning ma‘lum qadrga egaligi);

2) shaxsiy qadr-qimmat (muayyan shaxsnинг ijobiy, ruhiy va jismoniy xislatlarga egaligi bilan bog‘liq qadr-qimmat);

3) ma‘lum ijtimoiy jamoaga mansublik bilan bog‘liq qadr-qimmat (olimlarning qadr-qimmati, milliy qadr-qimmat, ayolning qadr-qimmati,

mansabdor shaxsnинг qadr-qimmati va hokazo)<sup>138</sup>.

Boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish yuksak huquqiy ong va ma'naviy-axloqiy tarbiyani talab qiladi. Ayniqsa bu bir shaxsnинг huquqlari ikkinchi bir shaxsnинг qonuniy xohish-irodasini amalga oshirishiga to'sqinlik qilganda yaqqol nomoyon bo'ladi. Insonning o'z huquqlarini egoizmlik bilan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari hisobiga amalga oshirishi nafaqat huquq normalarining, shuningdek, odob-axloq normalarining ham buzilishiga olib keladi. Bu esa insonlar o'rtasida nizo kelib chiqishiga hamda kuchlilar huquqining ustunlik qilishiga olib keladi. Konstitutsiya bunday oqibatlarning oldini olish maqsadida inson va fuqarolarning xohish-istiklarini chegaralab turuvchi asosiy burchlarini belgilab beradi va bu o'z navbatida shaxslarning huquq va erkinliklari muovazanatini ta'minlaydi.

### **3-§. Fuqarolarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrash majburiyati**

Insoniyat tarixidan ma'lumki, aksariyat xalqlar, davlat va sultanatlar o'z boyliklarining ma'lum bir qismini hashamatli va ulkan darajadagi me'morchilik obidalarini buniyod etishga va kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishga harakat qilganlar. Biroq turli tabiiy ofatlar, bemis'l urushlar va to'qnashuvlar jarayonida ko'plab tarixiy obidalar vayronaga aylanib, yo'q bo'lib ketgan yoki ba'zilarining nomlarigina tarix zarvaraqlarida muhrlanib qolgan.

Tarixiy obidalarni, me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularni muhofaza qilish bugungi kunda har bir millat, davlat va xalqaro tashkilotlarning ustuvor vazifasiga aylandi. 1983-yil ta'lim, ilm-fan va madaniy masalalar bo'yicha xalqaro tashkilot bo'lgan YUNESKO huzuridagi yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni asrash bo'yicha xalqaro Kengash tomonidan 18-aprel - Xalqaro yodgorliklar va tarixiy joylar umumjahon meros kuni etib e'lon qilinishi bu boradagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan xayrli ishlarning poydevori bo'lib xizmat qildi.

---

<sup>138</sup> Каранг: Саидов Б. А. Дастлабки терговда шахснинг шаъни ва кадр-қимматини ҳурмат қилиш. – Т., 2004. – Б. 7.

O‘zbekiston Respublikasida ham mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq muqaddas qadamjolar va moddiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash, ta‘mirlash borasida amaliy harakatlar boshlab yuborildi. O‘lkamizning deyarli barcha shaharlarida bunyod etilgan tarixiy-moddiy me‘morchilik obidalari, ko‘hna osori-atiqalar ko‘pligi tufayli jahon jamoatchiligi tomonidan mamlakatimizni “ochiq osmon ostidagi muzey” deya e‘tirof etilganligining o‘ziyoq, o‘zbek xalqi uchun yuksak iftixordir. Masalan, 2002-yil 24-yanvar YUNESKOning Finlyandiyada o‘tkazilgan 25-sessiyasida Samarqand tarixiy markazining me‘moriy-tarixiy yodgorliklari YUNESKOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Mamlakatimizning 5 ta shahri YUNESKOning tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ulardagi 2500 ta tarixiy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 ta monumental san’at asarlari davlatimiz muhofazasiga olindi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash bo‘yicha huquqiy zamin yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XII bob, 49-moddasida “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniy yodgorliklar davlat muhofazasidadir” deb belgilab qo‘yilishi ushbu sohadagi munosabatlarning huquqiy poydevori sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda xalqimizning beباho tarixiy, madaniy, ma‘naviy va moddiy merosini asrab-avaylash, o‘rganish hamda targ‘ib qilish masalasiga eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2001-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”, 2009-yil 13-oktabrda “Arxeoliyoga merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi

O‘zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma‘naviy boyliklarini, madaniy yodgorliklarini ehtiyoj qilish va saqlash har bir fuqaroning burchidir. Tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosimiz obyektlari sirasiga muzeylar va muzey boyliklari, boshqa badiiy qadriyatlar (tarix va

madaniyat yodgorliklari, davlat fondlari, shu jumladan, kitob, kino, foto va fonohujjalarning davlat fondlari), arxivlar va ilmiy tаддиqot muassasalarining fondlari kiradi.

Yurtimiz zaminidagi me'moriy yodgorliklar, tarixiy-madaniy hudud va obyektlar, badiiy va musiqiy asarlar, xalq og'zaki ijodiyoti o'zbek xalqining o'zligini anglashiga, dunyoga tanilishiga xizmat qiladi. Ota-bobolarimizdan qolgan bunday buyuk merosni avaylab-asrab, kelgusi avlodlarga etkazish uchun har birimiz mas'ul dirmiz.

**Madaniy meros** – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmuidir.<sup>139</sup>

O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, madaniy meros obyektining mulkdori o'ziga qarashli bo'lgan madaniy meros obyektining tarixiy, madaniy yoki ilmiy ahamiyatini hisobga olgan holda, uni saqlab turish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Madaniy meros obyekti hisoblangan mol-mulkdan foydalanishda cheklashlarga, uning saqlanishi, asralishi, yanada targ'ib qilinishi va foydalanimishi uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada yo'l qo'yiladi.

**Mazkur qonunning 3-moddasida** madaniy meros obyektlariga quyidagicha ta'rif beriladi:

➢ ansamblar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turar joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birligida turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek, tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohatbog'lar, xiyobonlar, sayilgohlar);

➢ diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek, tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik

---

<sup>139</sup> Конституциявий хукуқ: Дарслик / Х.Т.Одилкориев, У.Х.Мухаммедов, Б.А.Сайдов ва бошкалар; Масъул мухаррир Ш.Т.Икрамов. –Т.: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. 253-бет.

yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

➢ yodgorliklar - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adapbiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingen tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.

**Madaniy meros obyektlari-** moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlaridir.

**Moddiy madaniy meros obyektlari-** tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklardir.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, madaniy makonlardir.

Madaniy meros obyektining mulkdori o'ziga qarashli tarix va madaniyat yodgorligiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, yodgorlikni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organi bu haqda ogohlantirish va sud orqali mazkur obyektni himoya qilishga haqlidir.

Madaniy boyliklar - moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik

ko‘char ashyolardir.

Fuqarolar tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosni asrash majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda hamda jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo choralar qo‘llaniladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining «Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish» deb nomlangan 64-moddasiga binoan, mazkur qoidalarni buzish, shuningdek, jinoyat kodeksining 32-moddasiga ko‘ra, davlat muhofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyundagi «Arxiv ishi to‘g‘risida»gi qonuni arxiv hujjatlarini shakllantirish, saqlash, arxivlardan foydalanish ishlarini va arxiv muassasalarining faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Mamlakatimizda bu boradagi ishlar davom ettirilib, buyuk ajodolarimiz va kelajak avlod oldidagi burchlar sidqidildan bajarilishini ta‘minlovchi normalar takomillashtirilib borilmoqda.

#### **4-§. Fuqarolarning atrof tabiiy muhitga bo‘lgan munosabati**

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi ko‘p jihatdan uning tabiatga nisbatan munosabati bilanbo‘liq. Chunki ming yillar davomida insoniyat tabiat qonuniyatlari asosida yashab, unga moslashib, uning ne‘matlaridan bahramand bo‘lib kelmoqda.

Tabiatdan foydalanish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiy etishining muhim shartidir, ta‘bir joiz bo‘lsa, davlat iqtisodiy qudrati va salohiyatining moddiy asosidir. Kishilik jamiyat tabiiy resurslardan foydalanmagan holda mavjud bo‘la olmaydi va bunday sharoitda barqaror rivojlanish to‘g‘risida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. Shunday ekan, tabiatdan foydalanish bu muqarrar voqeilikdir. O‘z navbatida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘un muvozanatda rivojlanishi lozim bo‘ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillardanoq mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda ekologik omillarning ustuvorligi va

bozor iqtisodiyotining tamoyillari, ma'muriy va iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi asosida bosqichma-bosqich ekologik siyosat olib borilmoqda.

Shuning uchun ham atrof tabiiy muhitga bo'lgan munosabatda fuqarolarning ehtiyyotkor bo'lishga majburligi, uning eng muhim burchlari qatorida tabiatning inson oldida emas, balki insonning tabiat oldida ma'sulligi va uning bir bo'lagi sifatida uni asrab-avaylashi haqidagi tabiiy qonuniyat yotadi.

Konstitutsiyaning 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deb belgilangan qoida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlар uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologik tizimlar va tabiat obyektlarining muhofaza qilinishini, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Garchand, konstitutsiyada inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari tizimida sof ekologik huquqlari belgilangan bo'lmasada, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi, burchi orqali barqaror ekologik muvozanat va xavfsizlikni saqlab qolishga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni 3-moddasida inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish; ekoliya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish; ekoliya xavfsizligini ta'minlash; tabiat obyektlari bilan bog'liq moddiy madaniy meros obyektlarini asrab qolish kabi chora-tadbirlar tabiatni muhofaza qilish belgilangan.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

- insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekoliya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish;

- fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo‘lishi huquqini ta‘minlash, barcha turdag'i ta‘lim muassasalarida ekologiya o‘quv fanining majburiyligi;
  - jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlari ilmiy asoslangan holda uyg‘unlashtirish;
  - tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to‘lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to‘lamaslik;
  - ekologiya ekspertizasi o‘tkazishning majburiyligi;
  - tabiatdan oqilona foydalananishni va tabiatni muhofaza qilishni rag‘batlantirish;
  - tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo‘lmas oqibatlargacha yo‘l qo‘ymaslik;
  - tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoraliq;
  - tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg‘unlashtirish;
  - tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo‘lish.
- “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 47-moddasida tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi hollarda:
- tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruktsiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog‘ida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo‘yilgan ekologiya sig‘imini, ekologiya normalari, qoidalarni buzishda;
  - tabiiy boyliklardan o‘zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;
  - tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to‘lovni, shuningdek, atrof muhitni iflosantirganlik va unga zararli ta‘sir ko‘rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to‘lovlarini to‘lashdan bosh tortganlikda;
  - tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslikda;
  - atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo‘ladigan zararli ta‘sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko‘rmaganlikda;

- tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaganlikda;
- tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy rejimini buzganlikda;
- atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzganlikda;
- chiqindilarni, kimyolashtirish vositalarini, shuningdek, radioaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdar shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilganlikda;
- atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60 (Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish), 65-96-moddalarida (VIII BOB. Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik), Jinoyat kodeksining 193-204 (To'rtinch bo'lim. Ekoliya sohasidagi jinoyatlar) va 229<sup>1</sup>-moddalarida (Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish) nazarda tutilgan huquqbazarlik hamda jinoyatlar uchun javobgarlik choralar belgilangan.

### **5-§. Fuqarolarning soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga doir burchlari**

Fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy burchlaridan biri ularning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majbur ekanliklaridir.

O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi 12-moddasiga muvofiq, soliqlar deganda, soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Majburiy to'lovlar deganda esa soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovları, bojxona to'lovları, shuningdek, vakolatlı organlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq kodeksi 23-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining turlari belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faqatgina soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kirdi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar:
  - yagona ijtimoiy to'lov;
  - byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga fuqarolarning sug'urta badallari;
  - davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- 2) davlat boji;
- 3) bojxona to'lovları;
- 4) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Shuningdek, belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;

- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Ushbu nazarda tutilgan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarzida undiriladi.

Bundan tashqari, davlat umummiliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi.

O'z navbatida soliq kodeksi 32-moddasida soliq to'lovchilarning majburiyatlarini belgilanib, unga ko'ra soliq to'lovchilar:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;

- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtida davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabдор shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabдор shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

## **6-§. O'zbekiston Respublikasini himoya qilish**

O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining Vatani oldidagi muqaddas va sharafli burchidir.

Avvalambor, "Burch – kishining biror shaxs, oila, jamaoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda obyektiv munosabatlar ifodalananadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mayjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch imon-e'tiqod,

onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq”,<sup>140</sup> degan entsiklopedik tushunchasini e‘tirof etib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi XI bobi “Fuqarolarning burchlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda fuqarolarning oltita eng muhim konstitutsiyaviy burchlari belgilangan. Ammo O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish burchi barcha fuqarolarga emas, balki faqatgina O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi ekanligi ahamiyatlidir.

Albatta vatanparvarlik, yurtga sadoqat, ona-Vatanga, prezidentga sodiqlik, xalqqa xizmat qilish eng ulug‘, eng sharaflı burch ekanligidan dalolatdir.

“Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z vataniga muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalqlar, millatlar uchun umumiyligini bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma‘naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdirlari bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan histuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladii”,<sup>141</sup>

Darhaqiqat, sharaflı va olivjanob, aziz va tabarruk bo‘lgan burchni bajarish kindik qoni tomgan har bir insонning yurtni asrab-avaylash, e‘zozlash, uning kelajagi uchun qayg‘urishga, xalqiga, prezidentiga sodiq xizmat qilishga undaydi.

Demak, ushbu muqaddas burch O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 52-moddasida “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deb belgilandi.

“Vatanparvarlik tuyg‘usi O‘zbekiston fuqarolariga xos xislat. O‘z davlatining obro‘-e‘tiborini mustahkamlash, qadr-qimmatini saqlash uchun ular halol va vijdongan mehnat qiladilar, uning iqtisodini yanada rivojlantirish uchun jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun harakat qiladilar.

<sup>140</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-жилд. Бешик-Гидрофизика. Тахрир хайъати: М Аминов, Б Ахмедов, Х Бобоев ва б. Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашияти, 2001. – 261 б.

<sup>141</sup>Уша асар. – 395 б.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi qayerda va qanday lavozimda ishlamasin, qanday vazifani bajarmasin, vaqtinchalik qaysi xorijiy davlatda yashab, unga topshirilgan vazifani bajarishda davom etib turmasin, o‘zining tutgan o‘rnini, xatti-harakatlari bilan o‘z Vatanining obro‘sini baland ko‘tarishga, uning sha‘niga dog‘ tushirmaslikka, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi degan nomga munosib bo‘lishga harakat qiladi”<sup>142</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega” bo‘ldi hamda O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratasiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmas deb qayd etildi.

Konstitutsiyaga muvofiq mamlakatni mudofaa qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi hamda O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish va uning Qurolli Kuchlari safini to‘ldirishni va ularning zahirasini tayyorlashni ta‘minlash maqsadida 1992-yil 3-iyuldagagi “Mudofaa to‘g‘risida”gi (yangi tahriri – 2001-yil 11-may), “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi (yangi tahriri – 2002-yil 12-dekabr) Qonunlariga muvofiq umumiy harbiy majburiyat joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasiga asosan “Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat o‘tashni, rezervdagagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro‘yxatdan o‘tish qoidalariiga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo‘lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi”.

---

<sup>142</sup>Рахмоқулов, Ҳожиакбар. Инсонпарвар давлат Конституцияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – 234 б.

Albatta umumiylar harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Darhaqiat, harbiy xizmat - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiylar harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi bo'lib, harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etilgan:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi zahirasidagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma etti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

"Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar oddiy askarlar, serjantlar va zabitlar tarkibiga bo'linadi. Zabitlar tarkibi kichik zabitlar, katta zabitlar va generallar tarkibiga bo'linadi. Har bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburga tegishli harbiy unvon beriladi. Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo'linadi.

Qurolli Kuchlarda quyidagi harbiy unvonlar joriy etiladi:

| Qo'shin unvonlari                | Kema tarkibidagi unvonlar |
|----------------------------------|---------------------------|
| <b>I. ODDIY ASKARLAR TARKIBI</b> |                           |
| oddiy askar                      | matros                    |
| <b>II. SERJANTLAR TARKIBI</b>    |                           |
| kichik serjant                   | 2-darajadagi starshina    |
| serjant                          | 1-darajadagi starshina    |
| katta serjant                    | bosh starshina            |
| <b>III. ZOBITLAR TARKIBI</b>     |                           |
| <b>KICHIK ZOBITLAR TARKIBI</b>   |                           |
| leytenant                        | leytenant                 |
| katta leytenant                  | katta leytenant           |
| kapitan                          | kapitan-leytenant         |

### KATTA ZOBITLAR TARKIBI

|                           |                      |
|---------------------------|----------------------|
| mayor                     | 3-darajadagi kapitan |
| podpolkovnik              | 2-darajadagi kapitan |
| polkovnik                 | 1-darajadagi kapitan |
| <b>GENERALLAR TARKIBI</b> |                      |
| general-mayor             |                      |
| general-leytenant         |                      |
| general-polkovnik         |                      |
| armiya generali           |                      |

Qurolli Kuchlardagi oliy harbiy unvon armiya generali bo‘lib, bu unvon (urush davrida) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoniga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziriga beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo‘nalishdagi harbiy hisobdagisi ixtisoslikka ega bo‘lgan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majbur shahsning harbiy unvoniga tegishli “adliya” yoki “tibbiy xizmat” so‘zлari qo‘shiladi.

Zaxiradagi yoki iste‘fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishli “zaxiradagi” yoki “iste‘fodagi” degan so‘zлari qo‘shiladi.

Harbiy burchni jiddiy tarzda buzganlik, hokimiyatni suiiste‘mol qilganlik, zimmasiga qonunlar va harbiy nizomlar bilan yuklatilgan talablар va majburiyatlarni favqulodda vaziyatlarda bajarmaganlik uchun katta zabitlar va generallar tarkibidagi shaxslarning harbiy unvonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondonining qarori bilan pasaytirilishi mumkin.

Zabitlar tarkibiga kiruvchilarni harbiy unvondan ular og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm etilganlarida faqat sudning qarori bilan mahrum qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni 51-moddasida mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari harbiy xizmatdan bo‘yin tovlagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 235-moddasida harbiy hisobdan o‘tish qoidalarini buzganlik uchun ya‘ni fuqarolarning mudofaa ishlari organlariga chaqiruv uchastkasi qayd hisobidan o‘tish uchun chaqiruv bo‘yicha uzrli sabablarsiz

kelmaganligi hamda chaqiriluvchilar va harbiy xizmatga majburlarning harbiy ro'yxatdan o'tish qoidalarini buzishi, shuningdek, chaqiruv bo'yicha mudofaa ishlari organlariga uzsiz sabablarga ko'ra kelmasligi yoki turar joyi, o'qish joyi, ish joyi va lavozimidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayerda harbiy hisobda turgan bo'lsa, shu organga o'z vaqtida ma'lum qilmasligi ma'muriy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 237-moddasiga asosan harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlaganlik uchun, ya'ni muddatli harbiy xizmat yoki muqobil xizmatga chaqiruvdan, safarbarlik chaqiruvi zahirasi xizmati safiga olinishdan yoki xizmatni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zahirasida o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun ham ma'muriy javobgarlik choralar qo'llanilishiga olib keladi.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'lagan, uning mustaqilligi yo'lida o'zini fido etadigan, unga sadoqatini ifodalaydigan har bir O'zbekiston fuqarosining insoniy tuyg'usidir.

### *O'zini - o'zi nazorat qilish savollari*

1. Inson va fuqarolarning asosiy konstitutsion burchlari nimalardan iborat?

2. "Burch" va "majburiyat" tushunchalarining farqi nimada?

3. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi nimalarda ifodalanadi?

4. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlatning o'zaro bog'liqligi nimaga asoslanadi?

5. Tarixiy, ma'naviy va madaniy meros deganda nimalarni tushunasiz?

6. Ma'naviy boyliklar deganda nimani tushunasiz?

7. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qaysi davlat organlarini bilasiz?

8. Soliq to'lash majburiyatini amalga oshirmagan shaxslarga qanday choralar belgilangan?

9. Vatanparvarlik tuyg'usi deganda nimani tushunasiz?

## TO‘RTINCHI BO‘LIM. JAMIYAT VA SHAXS

### XV BOB. JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI

1-§. O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk shakllari va ularning huquqiy kafolatlari.

2-§. Xususiy mulkning daxlsizligi.

3-§. Mulk huquqi va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari.

4-§. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi xususiyatlari.

#### **1-§. O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk shakllari va ularning huquqiy kafolatlari**

Mustaqillik yillarda yurtimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Respublikamizning istiqlolga erishishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, madaniy va ma‘naviy yangilashning yorqin istiqbollarini ochib berdi. Albatta, istiqlolga erishgan davlat shubhasiz, o‘z taraqqiyot yo‘lini izlaydi, yangi jamiyat qurishga, huquqiy tizimini yaratishga kirishadi.

Ushbu islohotlarning huquqiy kafolati sifatida, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilgan asrlarga tatigulik islohotlar, avvalo, Konstitutsiyamizda belgilangan pirovard maqsadlar bilan uzviy bog‘liqidir.

O‘zida yuksak insonparvarlik g‘oyalarini mujassamlashtirgan O‘zbekiston Konstitutsiyasini hayotimiz dasturulamaliga aylandi. Konstitutsiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiyadagi prinsip va boshlang‘ich asoslar demokratik huquqiy davlat talablariga to‘la mos kelib, ular o‘zbek milliy davlatchiligining tarixiy rivojlanish tajribasiga tayanadi.

Konstitutsiya davlatning qiyofasi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimining demokratik tabiatni, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, fuqarolarining huquq va erkinliklari qay darajada yuridik jihatdan himoyalanganligini aks ettiruvchi ko‘zgudir. O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida ham iqtisodiy hayotning eng muhim jihatlari, jumladan, jamiyatning iqtisodiy negizining huquqiy asoslari tartibga solingan bo'lib, ushbu huquqiy normalar mamlakatimiz taraqqiyotida va iqtisodiy hayotida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'yamoqda.

"Xalqimizning faravon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish – Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir. Konstitutsiyamizda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligi, barcha mulk shakllarining tengligu va davlat tomonidan birdek muhofaza etilishi kafolatlangan".<sup>143</sup>

Konstitutsiyamizda iqtisodiy sohada taraqqiy etgan mamlakatlarning asosiy qonunlarida mustahkamlangan mulk shakllarining xilma-xilligi, mulk huquqi kafolatlari, mulk huquqini amalga oshirish talablari, xususiy mulk daxlsizligi, mulk huquqining davlat tomonidan himoya qilinishi, tabiiy resurslardan jamiyat manfaatlarini ko'zlab oqilona foydalanish lozimligi kabi qoidalar sifatida davlatning ijtimoiy xarakteri o'z ifodasini topgan.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik erkinligi va xususiy mulkdorlar qatlamini shakllantirishda va shu orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mamlakatimizda fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan iqtisodiy huquqlarini, avvalambor, mulk huquqini kafolatlash bilan bog'liq islohotlar samarasi o'laroq, iqtisodiy o'sish sur'atlari muntazam oshib bormoqda.

Hech bir davlat yoki jamiyatni iqtisodiy munosabatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatning iqtisodiy negizlari esa turli ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirib, tartibga solib, o'zgartirib, takomillashtirib boradi. Demak, insoniyatning hayoti va faoliyati hamda jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy negizlar eng asosiy zaruratdir.

O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bozor iqtisodiyoti – tovar-pul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat vositasida boshqarilib turuvchi demokratik iqtisodiyot. Dunyo tajribasida bozor iqtisodiyotining quyidagi uch modeli farqlanadi: aralash iqtisodiyot

---

<sup>143</sup> Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – faravon hayotning, do'stona hainkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'refa. // <https://president.uz/uz/lists/view/2180>.

(AQSH, Angliya, Fransiya), ijtimoiy bozor xo'jaligi (Germaniya, Shvetsiya), korporativ iqtisodiyot (Yaponiya)<sup>144</sup>.

O'zbekistonda shakllangan bozor iqtisodiyoti mazmunan ijtimoiy bozor xo'jaligi modeliga (bozordagi faoliyat tartib-qoidalarini qonunlar belgilaydi, iqtisodiyot bozor mexanizmiga bo'yusunadi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal darajada saqlanib qolinadi, iqtisodiyot erkinlashgan bo'ladi, xususiy sektor qo'llab-quvvatlanadi) yaqin bo'lsada, bir qator o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Shunday ekan, jamiyatimizning iqtisodiy negizlari hayotimizning asosiy hodisalaridan hisoblanib, mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat beriladi. Aynan bozor iqtisodiyoti tizimida mulkning xilma-xil shakllarda bo'lishiga imkoniyatlar yaratiladi.

Darhaqiqat, jamiyatning iqtisodiy negizi – mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli, mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Iqtisodiy ma'noda mulk insonlarning erki-irodasidan tashqarida vujudga keladi. Yuridik munosabatlarda mulk qabul qilingan normalar orqali tartibga solinadi va ular mulk huquqi sifatida namoyon bo'ladi. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda «taqdim etilgan» boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan<sup>145</sup>. Mulk bирinchidan, kishining ashlyoga nisbatan egalik his-tuyg'usi bilan bog'liq, ikkinchidan, ushbu ashyo xususida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatdir. Demak, bir so'z bilan aytganda, mulk ashyo va unga nisbatan egalik hissi bilan bog'liq munosabatdir<sup>146</sup>.

Qoida tariqasida mulk iqtisodiy va yuridik ma'nolardagi shakllarga bo'linadi: Iqtisodiy ma'nodagi mulk shakllari deyilganda, moddiy ne'matlarni o'zlashtirish usullarining yig'indisi tushuniladi. Bunday usullar yakka tartibda yoki jamoat bo'lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

<sup>144</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 107-108.

<sup>145</sup> Зокиров И.Б. Фукаролик хукуки. Дарслик I кисм. Масъул мухаррир: Ҳ.Рахмонкулов. Қайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б. 352.

<sup>146</sup> Баратов М.Х. Мулк хукуки. Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б. 6.

Yuridik ma‘nodagi mulk shakli – moddiy ne‘matlarni muayyan subyektlarga tegishli bo‘lishini (biriktirib qo‘yishlikni) mustahkamlovchi va tegishli mulkning huquqiy rejimini belgilovchi huquqiy me‘yorlar yig‘indisidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga asosan, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

Ushbu Konstitutsiyaviy norma mamlakatimizda mulk shakllarining turli xil bo‘lishi mumkinligini o‘zida ifodalab, uni miqdoriy chegaralamaydi. Lekin O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi mulkning ikki shaklini huquqiy tartibga soladi. Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasida mulkchilikning quyidagi shakllari mavjud:

1. Xususiy mulk.
2. Ommaviy mulk.

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta‘minlaydi va uning himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumlash uchun mulk subyekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon hisoblanadi. O‘z navbatida, xususiy mulk shakli quyidagi ko‘rinishlarda (turlarda) namoyon bo‘ladi:

- a) yakka shaxsga (individga) tegishli mulk (fuqarolar mulki);
- b) nodavlat yuridik shaxslar mulki.

Ommaviy mulk tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) O‘zbekiston Respublikasi mulki;
- b) ma‘muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk)<sup>147</sup>.

Garchand, Fuqarolik kodeksida mulkning ikki shakli mustahkamlangan bo‘lsada, Konstitutsiyaning 53-moddasi mulkning boshqa shakllarda bo‘lishi mumkinligini ham e’tirof etadi. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida mulkning fuqarolik kodeksidagi singari an‘anaviy ikki shaklidan tashqari jamoa mulki, aralash mulk hamda boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki kabi shakllarda bo‘lishi ham ko‘zda tutilgan.

Bozor munosabatlarining asosini tashkil etuvchi mulk shakllaridan biri bo‘lgan xususiy mulk qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga

---

<sup>147</sup> Зокиров И.Б. Фуқаролик хуқуқи: Дарслик. I кисм. Масъул мухаррир: Ҳ.Рахмонкулов: Қайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. – Тошкент: ТДЮИ нашириёти, 2009. – Б. 388.

kiritgan har qanday narsalar bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 207-moddasiga ko‘ra, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatları, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘limgan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanib, qonun bilan man etilgan ayrim ashayolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida davlat tasarrufidan chiqarilmaydi va xususiy lashtirilmaydi davlat mulki obyektlarining 18ta toifasi belgilab berilgan. Ular sirasiga quyidagilar kiradi, jumladan:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yer (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), yer osti boyliklari, ichki suvlari, havo havzası, o‘simlik va hayvonot dunyosi;

2) moddiy madaniy meros obyektlari, shu jumladan davlat fondlarida, milliy fondlarda, axborot-kutubxona fondlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarining fondlarida saqlanayotgan moddiy madaniy meros obyektlari, shuningdek, arxivlar, muzeylar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining, valyuta zaxirasingin, davlat maqsadli jamg‘armalarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mablag‘lari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining oltin zaxirasi;

4) pul muomalasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi davlat tashkilotlari, qimmatli qog‘ozlarni, ordenlarni, medallarni va pochta to‘lovi belgilarini ishlab chiqarishni ta‘minlovchi korxonalar va tashkilotlar;

5) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining. Davlat xavfsizlik xizmatining va Ichki ishlar vazirligining korxonalari, muassasalari va harbiy-texnikaviy mol-mulki (sanoatda qayta ishlov berilguniga qadar, shuningdek, sanoatda qayta ishlov berilishi mumkin bo‘limgan mol-mulk);

6) ionlovchi nurlanish manbalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlarini olib boruvchi, rentgen uskunalar, asbob-uskunalar va jihozlarni ishlab chiqish, tayyorlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va obyektlar;

7) radioaktiv moddalarni kavlab olish, ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlashni, radioaktiv chiqindilarni ko'mish, uran va boshqa bo'linuvchi materiallarni, shuningdek, ulardan yasalgan buyumlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va obyektlar;

8) quroq-yarog' va o'q-dorilar, himoya vositalari, harbiy texnika, ehtiyyot qismlar, butlovchi qismlar va ular uchun asbob-uskunalar, portlovchi moddalar, pirotexnika mahsulotlari, shuningdek, ularni ishlab chiqarish uchun maxsus materiallar va uskunalar ishlab chiqish, tayyorlash, ta'mirlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar;

9) ovchilik va sport sohasida foydalaniadigan o'qtar qurollar va o'q-dorilar, shuningdek, tig' quroq (sovg'a tarzidagi milliy pichoqlar bundan mustasno) ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;

10) kuchli ta'sir etadigan zaharlar, giyohvandlik moddalarini va zaharli moddalar ishlab chiqaruvchi, shuningdek, tarkibida giyohvandlik moddalarini va zaharli moddalar bo'lgan ekinlar ekuvchi, yetishtiruvchi va ularga qayta ishlov beruvchi korxonalar;

11) O'zbekiston Respublikasining davlat zaxiralari. Fuqaro muhofazasi va safarbarlik maqsadidagi obyektlar hamda mol-mulk;

12) atom energetikasi obyektlarini (uskunalari, tizimlari va apparatlarini o'rnatish) va strategik ahamiyatdagi obyektlarni qurish va montaj qilish ishlarini olib borish, ulardan foydalanish hamda ularni ta'mirlashni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalar va tashkilotlar;

13) portlash xavfi bo'lgan va zaharli moddalarni tashishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalar;

14) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;

15) sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari. Sud-tibbiy ekspertizasi byurolari. Atrof-muhit holatini nazorat qiluvchi hamda tabiatni muhofaza qiluvchi xizmatlar;

16) davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari, jazoni ijro etish muassasalarining korxonalar;

17) maxsus vazifalarni bajaradigan korxonalar (Respublika maxsus aloqa uzeli, 15361 raqamli Harbiy qism, Elektromagnit moslik markazi);

18) qabristonlar.

Davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiy lashtirilmaydigan davlat mulki obyektlari jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq boshqa obyektlar ham kiritilishi mumkin.

Ommaviy mulk esa Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 214-moddasiga asosan, Respublika mulki – yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi Respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari, Respublika budjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari Respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular byudjet yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingen bo'lsa, boshqa mol-mulk bo'lishi mumkin.

Respublika mulki Respublika budjetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi. Respublika mulki bo'lgan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar tasarruf qilish huquqiga egadir.

Munitsipal mulk esa – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budget mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulklardan iborat bo'ladi. Ushbu mulk turi mahalliy byudjetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi. Munitsipal mulk bo'lgan mol-mulkni davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar. Shuningdek, munitsipal mulk bo'lgan mol-mulk yuridik shaxslarga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo'yilishi mumkin hamda munitsipal mulk obyektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

O'z navbatida davlat mulkining mavjud bo'lish zaruriyati obyektiv sabablarga ko'ra quyidagilarda ko'rindi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etish;
- huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini tashkil etish;
- davlat havfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;
- ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;

- kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;
- tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlarga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish;
- ba‘zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg‘i energiyasi kabi)<sup>148</sup>.

Davlat jamiyatimiz iqtisodiy negizini tashkil etishda mulk shakllarini erkin sharoitini va mulkdorlar huquqlarini ta‘minlash maqsadidda bozor munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi. Bu xususiyatlar quyidagilarda o‘z ifodasini topdi:

- birinchidan, iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati erkinligi;
- uchinchidan, mehnat qilish erkinligi;
- to‘rtinchidan, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi;
- beshinchidan, mulk shakllarining huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog‘liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar yaxlit qilib, bir so‘z bilan iqtisodiy faoliyat deb ataladi<sup>149</sup>. Ushbu faoliyat esa bozor munosabatlar sharoitida erkin harakatda bo‘ladi.

Bozor munosabatlarida iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olinishi lozim. Aynan bozor munosabatlari sharoitida iste‘molchilarning talab va takliflari yuqoridaq faoliyatlarini harakatga keltiruvchi, tartibga solib turuvchi jarayon bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni 1-moddasiga muvofiq, iste‘molchi deganda, foya chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lмаган holda shaxsiy iste‘mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro, ya’ni jismoniy shaxs tushuniladi.

<sup>148</sup> Зокиров И.Б. Фукаролик хуқуки Дарслик. I кисм. Масъул мухаррир: Ҳ.Рахмонкулов: Кайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. – Тошкент: ТДЮИ наприёти, 2009. – Б. 416.

<sup>149</sup> Ш.Ш.Шодмонов, У.В.Фафуров. Иқтисодиет назарияси – Тошкент: “Фан ва технология” наприёти, 2005. – Б. 11.

Ushbu Qonunning 4-moddasida “Iste‘molchilar ning asosiy huquqlari” belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra iste‘molchilar quyidagi huquqlarga ega:

- tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek,, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to‘g‘ri va to‘liq ma‘lumot olish;
- tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo‘lishi;
- tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo‘lishi;
- hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma‘naviy zararning to‘liq hajmda qoplanishi;
- buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;
- iste‘molchilar ning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste‘molchilar ning ijtimoiy himoyaga muhokimiyat toifasiga kiritilgan ayrim guruhlari uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari bo‘yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Shuningdek, ushbu qonunning 23-moddasida iste‘molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlash mexanizmlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra davlat iste‘molchilar ning tovar (ish, xizmat) sotib olishi va undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Iste‘molchilar ning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, sudlar ta‘minlaydilar.

Iste‘molchilar ning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlari sifatida O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi; O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, ya‘ni “O‘zstandart” agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi; iste‘molchilar ning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o‘z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyat yuritadi.

Iste'molchilar huquqining ustunligi uning ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, sotuvchidan farqli ravishda foyda olish maqsadini ko'zlamasligi, asosan shaxsiy iste'mol yoki boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar sotib olishi, ish, xizmatga buyurtma berishida hamda ularning sifat va xavfsizligini kafolatlanganligini, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarini qo'yishda ifodalananadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bosh islohotchi sifatida iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligini kafolatlaydi. Ushbu kafolatlar bevosita O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydag'i "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) 3-bobida tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari belgilab qo'yilgan. Uning 18-moddasi tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari qatori daxlsizdir va davlat tomonidan himoya qilinadi. Tadbirkorlik subyekti mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, boshqa tashkilotlarning qonunga xilof qarorlari, ular mansabdon shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bundan tashqari, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) 3-bobida tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun noqulay bo'lgan qonun hujjatlaridagi o'zgartishlardan kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining qonun hujjatlarida man etilmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish erkinligi kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining o'z tovarlari (ishlari, xizmatlari) va daromadlarini (foydasini) tasarruf etish erkinligi kafolatlari, pul mablag'larini tasarruf etish kafolatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligi kafolatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlari kafolatlari, fermer xo'jaliklari tomonidan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi kafolatlari, dehqon xo'jaliklari tomonidan yer uchastkalaridan foydalanish huquqi kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining qimmatli qog'ozlar bozoriga, xom ashyo, tovarlar va xizmatlar bozorlariga erkin kirish kafolatlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnika resurslaridan, urug'lik materiallardan,

ko'chatlardan va zotdor chorvadan erkin foydalanish kafolatlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining suv iste'molini amalga oshirish kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish kafolatlari, tadbirkorlik subyektlarining axborotdan foydalanish kafolatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashning kafolatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining murojaatlarini ko'rib chiqish kafolatlari, tadbirkorlik faoliyati subyektlari mol-mulki natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinmasligining kafolatlari, firma nomidan, tovar belgisidan (xizmat ko'rsatish belgisidan) foydalanish kafolatlari, tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaslik kafolatlari ham ta'minlanishi belgilangan.

Shuningdek, davlat mehnat qilish erkinligini ham kafolatlaydi. Mehnat qilish erkinligining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shartlari hamda mehnat qilish huquqini amalga oshirishning kafolatlari Konstitutsiyaning 37-moddasi, Mehnat kodeksining 58-moddasi, 1998-yil 1-maydag'i "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun (yangi tahrirda) va boshqa bir qator qonun hujjatlari bilan ta'minlanadi. Jumladan, mehnat kodeksining 58-moddasiga muvofiq, davlat ish bilan ta'minlash turini, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini; ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanishni; maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berishni; har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart-sharoitlarida, mehnatga haq olishda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni; yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitishni, mahalliy mehnat organlarida yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab malakasini oshirishni; boshqa joydagi ishga qabul qilinganda moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to'lashni; haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

## **2-§.Xususiy mulkning daxlsizligi**

Biz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshib mamlakatimizning kelajagini, davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy-ijtimoiy qurilishini belgilashda, birinchi navbatda, Konstitutsiyamizni ishlab chiqish va tasdiqlashda mulk va mulkiy munosabatlar haqidagi prinsipial masala doim e'tiborimiz markazida bo'lganini ta'kidlash lozim.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimizning ko‘p ukladli iqtisodiyoti tarkibida davlat mulki, korparativ va xususiy mulkning tengligini e’tirof etgan holda, Konstitutsiyamiz va qonunchiligidizda xususiy mulk ustuvorligi mustahkamlab qo‘yildi va uning ishonchli konstitutsiyaviy kafolatlari ta‘minlandi<sup>150</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsianing 53-moddasida xususiy mulk boshqa mulk shakkiali kabi daxlsiz va davlat himoyasida hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi belgilangan.

Xususiy mulkka nisbatan belgilangan “daxlsizlik” va davlat himoyasida bo‘lishlilik” xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Birinchi navbatda “daxlsizlik” deganda, shaxsning o‘ziga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo‘lgan xatti-harakatlar bilan u yoki bu darajada ta‘sir o‘tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi. Ikkinchidan, “daxlsizlik” – huquq subyektiga tegishli va uning vakolatlari ostida hamda xo‘jalik hukmronligidagi obyektning har qanday huquqbazarliklardan xoli bo‘lishini qonun bilan ta‘minlanganligini ham anglatadi. Konstitutsianing 53-moddasida belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog‘liq manfaatlarga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo‘lishidan qat‘i nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagi bekor qiliishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulkning daxlsizligining mazmunini ifodalaydi<sup>151</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-sentabrdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasiga muvofiq, xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi hamda xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasidadir. Davlat xususiy mulkning but saqlanishini ta‘minlash va uning ko‘paytirilishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratadi.

---

<sup>150</sup> Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини шакллантириш – мamlakatimiz taarakkiётининг асосий мезонидир. – Тошкент: Узбекистон, 2011. Т. 19 – Б. 138-139.

<sup>151</sup> Д.М. Каракоджаева, М.Х.Баратов, Н.Ф.Имомов. Хусусий мулк – ижтимоий-иктисодий тараккиётни харакатлантирувчи кучи. – Тошкент: Узбекистон, 2011. – Б.20.

Bozor munosabatlarining taraqqiy etishi va tadbirkorlik sohasini yanada rivojlanishi, xususan, kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantirishda va mamlakatning taraqqiy etishida alohida o‘rin tutadi.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini saqlashlaridan iboratdir (FK 166-moddasi).

Mulk davlat himoyasida bo‘lib, Fuqarolik kodeksi 164-moddasiga ko‘ra, mulkdor o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasisin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqiga egadir.

Muldorni mulkdan mahrum etish Fuqarolik kodeksi 199-moddasiga muvofiq, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek, natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo‘l qo‘yilishi belgilangan.

Natsionalizatsiya – fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to‘lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o‘tkazish (FK 202-modda).

Rekvizitsiya – tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tusdagи boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq, mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to‘lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo‘yish (FK 203-modda).

Musodara – qonunda nazarda tutilgan hollarda esa mol-mulk sudning qaroriga muvofiq, jinoyat yoki o‘zga huquqbazarlik qilganlik uchun haq to‘lamasdan mulkdordan olib qo‘yish (FK 204-modda).

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 27-moddasida “Musodara qilish” belgilangan bo‘lib, ma‘muriy huquqbazarlikni sodir etish quroli bo‘lgan ashyoni yoki ma‘muriy huquqbazarlikning bevosita ashynosini musodara qilish mazkur ashyoni haq to‘lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o‘tkazishdan iborat bo‘lib, ushbu chora tuman (shahar) ma‘muriy sudi tomonidan qo‘llaniladi.

Ta‘kidlash lozimki, huquqbuzarning shaxsiy mulki bo‘lmagan ashyo musodara qilinishi mumkin emas, muomaladan chiqarilgan ashyolar bundan mustasno. Shuningdek, o‘qotar qurollar va o‘q-dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchilik manbayi ovchilik bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

Shuningdek, yuqoridagi kodeksning 7-bobida “Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik” belgilangan,

masalan, 60-moddada “Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish”, ya’ni yerdan, yer osti boyliklaridan, suvdan, o’simlik yoki hayvonot dunyosidan o’zboshimchalik bilan foydalanish yoxud yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik huquqini bevosita yoki yashirin shaklda buzuvchi bitimlar tuzish yoki boshqa harakatlar sodir etish, tabiatdan maxsus foydalanish huquqini boshqalarga berish, xuddi shuningdek, yer uchastkalarini o’zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun, 61-moddada mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o’g’irlash, o’zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilganlik uchun hamda 61-moddada oz miqdorda, ya’ni eng kam ish haqining o’ttiz baravarigacha bo‘lgan doiradagi miqdorda va ko‘p bo‘lman miqdorda, ya’ni eng kam ish haqining o’ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan doiradagi miqdorda o’zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazganlik uchun ma’muriy javobgarlik o’rnatilgan.

Jinoyat ishlari bo‘yicha mulkdorning mulkidan mahrum etilishi mumkinligi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 211-moddasiga asosan, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, mahkumga tegishli bo‘lgan jinoyat qurollari musodara qilinishi kerak va ular tegishli muassasalarga topshiriladi yoki yo‘q qilib yuboriladi. Gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, mahkumga tegishli bo‘lman miqdorda mol-mulk qonuniy egalariga, mulkdorlariga yoki ularning huquqiy vorislari, shuningdek, merosxo‘rlariga qaytarib beriladi. Gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, mahkumga tegishli bo‘lman mol-mulkning qonuniy egalari, mulkdorlari yoki ularning huquqiy vorislari, xuddi shuningdek, merosxo‘rlari aniqlanmagan taqdirda, ushbu mol-mulk davlat daromadiga o’tkaziladi.

Shuningdek, JPKning 289-moddasiga asosan, xususiy egalikda bo‘lishi man qilingan mol-mulk ish bo‘yicha ashyoviy dalil deb e’tirof etilgan bo‘lsa, mulkdor to‘g’ri yoki g‘ayrihuquqiy ravishda qo‘lga kiritganiga qarab, u rekvizitsiya qilinadi yoki musodara etiladi, ya’ni mol-mulk haqini to‘lash yoki to‘lamaslik sharti bilan sud tomonidan bunday mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan tegishli davlat organiga yoki yuridik shaxsga beriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 2-moddasida mulknini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash ushbu kodeksining

vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, uning maxsus qismi 10-bobida “O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish” (164–169-moddalar), 11-bobida “O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘limgan jinoyatlar” (170–173-moddalar) uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, ushbu normalar mulk daxlsizligini, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi qonun yo‘li bilan muhofaza etilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlar O‘zbekiston tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘lining iqtisodiy negizini hamda “o‘zbek modeli”ning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini belgilab berdi, shuningdek, bozor munosabatining asosini tashkil qiluvchi xususiy mulkni va uning daxlsizligini kafolatladi.

### **3-§. Mulk huquqi va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari**

Mulk huquqi ikki ma‘nodagi: obyektiv va subyektiv ma‘nodagi mulk huquqiga bo‘linadi. Obyektiv ma‘nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o‘zlashtirishning mayjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko‘zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig‘indisi nazarda tutiladi. Chunonchi, mulk to‘g‘risidagi umumiylar qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi. Obyektiv ma‘nodagi mulk huquqi mutlaq huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Bunga misol sifatida mulk huquqini tartibga soluvchi qonun hujjalarni keltirish mumkin.

Subyektiv ma‘nodagi mulk huquqi deb, ayrim shaxslar, ya‘ni huquq subyektlarining (davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallah, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytildi. Subyektiv ma‘nodagi mulk huquqi nisbiy-huquqiy normalar asosida tartibga solinadi. Subyektiv ma‘nodagi mulk huquqi mulk sohibining o‘ziga mulk yoki ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan mol-mulklarni qonunda taqiqlanmagan asoslarda, vakolat doirasida, o‘zga shaxslarning manfaatlariga putur yetkazmagan holda egallah, undan foydalanish va uni tasarruf qilish maqsadida turli bitimlar tuzishida namoyon bo‘ladi. Masalan, turli shartnomalar tuzish, o‘z mulkini meros qilib qoldirish va boshqa bitimlar orqali mulkka bo‘lgan huquqni

vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish subyektiv ma‘nodagi mulk huquqining mazmunini bildiradi<sup>152</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni va Fuqarolik kodeksi 164-moddasiga ko‘ra, mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulkdorning o‘z xohishi deganda, uning erkin, ixtiyoriy, tazyiqlarsiz, ongli ravishda hamda qonun doirasidagi harakatini tushunishimiz mumkin.

Mulk huquqining mazmuni mulk sohibining vakolatlar doirasi bilan belgilanadi. Mulkni o‘z xohishiga ko‘ra va o‘z manfaatini ko‘zlab egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, mulk huquqini har qanday buzilishlardan bartaraf etishni talab qilish huquqi tushunchalari mulk huquqining mazmunini tashkil etadi. Subyektiv mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan bu elementlar mulk egasiga qonun bilan belgilangan doiralarda beriladi.

Shu ma‘noda mulkdor o‘z mulkiga bo‘lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshiradi. Mulkdorning o‘z xohishi deganda, uning o‘z erki, irodasi bilan o‘z manfaatlarini ko‘zlab, birovning (uchinch shaxslarning) tazyiqisiz, g‘ayrihuquqiy ta‘sirsiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Agar mulkdorga nisbatan bunday holatda zo‘rlik, tazyiq ko‘rsatilgan bo‘lsa, qonun mulkdorning xohish-irodasi erkin amalga oshirilishini kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Ayni vaqtida mulkdorning o‘z xohishiga ko‘ra ish tutishi qonun, insof va adolat doirasida amalga oshirilishi lozim.

Muldorning mulkiy huquqni o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshirishda uning manfaati yotadi. Bu manfaat bevosita uning o‘ziga, yaqinlariga yoki boshqalarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, ota-onaya voyaga yetmagan farzandi nomiga bankka omonat pul mablag‘i qo‘yganda ham, garchi bunda uchinchi shaxsning manfaati ko‘zlaganday bo‘lsa ham, aslida mulkdorning harakati zamirida ota-onaya sifatidagi burchi yotadi. Mulkdorni o‘z xohishiga ko‘ra yoki manfaatiga zid ravishda mulkiy bitimlar tuzishga

---

<sup>152</sup> Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. Масъул мұхаррір: Ҳ.Рахмонкулов: Қайта ишланған ва түлдірілған бешинчи нашр. – Тошкент. ТДЮИ нашриети, 2009. – Б. 356-357

majbur qilish, umumiy qoida bo'yicha bunday bitimlar haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi<sup>153</sup>.

Mulk huquqi uch element – mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan iborat.

Mulkka egalik qilish huquqi – uni qonunda belgilangan tartibda qo'lga kiritish orqali o'z ixtiyorida yoki o'z erki-irodasi ta'siri ostida bo'lishi, saqlanishi yoki boshqa shaxslarga topshirilishida ifodalanadi. Mulkka egalik qilish huquqi yuridik va faktik asoslarda bo'lishi mumkin. Masalan, qonunda belgilangan tartibda davlat mol-mulkini xususiylashtirish yoki meros qilib olish natijasida egalik qilsa mulkning haqiqiy egasi sifatida yuridik egalik hisoblanadi, agar mol-mulkdan foydalanish jarayonda ham uni vaqtincha egalikda saqlab turilsa, ushbu holatda faktik egalikda bo'ladi, mulkka egalik qilish huquqi esa yuridik egaligida bo'lgan shaxsda saqlanib qoladi.

Mulkka egalik qilish huquqi mulk huquqi va o'zga ashayoviy huquqlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Mol-mulkka xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqi, servitutlar asosida egalik qilinsa ashayoviy huquqlar asosida mulkka egalik qilish hisoblanadi. Mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, agar qonun hujjatlarda o'zga tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashayoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi.

Mol-mulkka mulk huquqi asosida egalik qilishda ashayoviy huquqdan farqli ravishda egalik shaxsnинг o'z ixtiyori va erki-irodasida bo'ladi. Egalik qilish huquqi muddatli va muddatsiz tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Mulkdan foydalanish huquqi – mulkni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish natijasida ma'naviy yoki moddiy foyda olishda ifodalanadi. Mulkdan foydalanish mol-mulkka egalik qilish huquqi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun topshiradi.

---

<sup>153</sup> Зокиров И.Б. Фукаролик хукуки: Дарслик. I кисм. Масъул мухаррир: Х.Рахмонкулов: Кайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2009 – Б. 357.

Mulkni tasarruf etish – mulkning yuridik taqdirini belgilash, ya’ni mulkdorning molk-mulkka tegishli huquqlarini o’zgartirishi, bekor qilishi yoki ixtiyoriy voz kechishi mumkin. Masalan, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi mulk huquqining bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasida mulkdan foydalanish jarayonida mulkdorga nisbatan bir qator majburiyatlar ham yuklangan bo‘lib, ularga ko‘ra ekologik muhitga zarar etkazmaslik, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmaslik shart.

Ekologik muhit – bu insonni o‘rab turgan tabiiy kelib chiqishga ega bo‘lgan atrof tabiiy muhit. Ekologik muhitga zarar etkazish hozirgi va kelajak avlod manfaatlariga daxl qilishi, salbiy ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik oqibatlarga sabab bo‘lishi va mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga to‘sinqilik qilishi tufayli konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Mulkdan foydalanish jarayonida ekologik muhitga zarar yetkazmaslik atrof tabiiy muhofaza qilish, tabiiy resurlardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash chora-tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

Atrof tabiiy muhofaza qilish – yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi hamda boshqa tabiiy zaxiralarning ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo‘lishdan, yo‘q bo‘lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan, ularni zararli antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Tabiiy resurlardan foydalanish – yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi hamda boshqa tabiiy zaxiralarni oqilona va samarali asosda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan (umumiy va maxsus tarzda) o‘zlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash esa tabiat va jamiyat tizimidagi o‘zaro munosabatlarni barqaror holatda ta‘minlash, turli ekologik tahdid va zararli ta‘sirlarning oldini olish, cheklash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 172-moddasiga asosan, mulkdorning o‘z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yishga majbur. Masalan, Fuqarolik kodeksining 173-moddasi hamda Yer kodeksining 30-moddasida o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) belgilangan.

Mulkdor o'zining ustunlik mavqeini suiste'mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o'zga harakatlarni qilishga haqli emas. Mulkdor o'z huquqini amalga oshirganida fuqarolarning sog'lig'i va atrof muhitga zarar yetkazishining oldini olish choralarini ko'rishga majbur.

O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulknim himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida asosan mulkdor o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra hamda o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o'z mol-mulkidan xo'jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun tekinga yoxud haq evaziga berishi mumkin. Mol-mulordan foydalanish fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi, atrof-muhitga zarar etkazmasligi kerak.

Demak, mulk huquqi va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari ko'p ukladli iqtisodiyotimiz asoslarini mustahkamlaydi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishda huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### **4-§. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi xususiyatlari**

Mulk huquqi tabiiy resurslar kimga tegishliligini va mulkdorlarning ularga nisbatan vakolatlarini anglatadi. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi unga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Asosiy qonunimizda tabiiy resurslar umummilliyligi boylik sifatida e'tirof etilgan. Tabiiy resurslar – yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari va shu kabilar mol-mulk obyektlari tizimida alohida o'rin egallaydi. Birinchidan, ular ko'p hollarda inson mehnatining mahsuli emas, foydalaniib bo'lgandan keyin qayta tiklanmaslik xususiyatiga ega yoxud qayta tiklash uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Ikkinchidan, tabiiy

resurslar jonli va jonsiz tabiatning tarkibiy qismi, inson yashash muhiti bilan uzviy bog'liq. Binobarin, tabiiy resurslardan har qanday foydalanish va unga ta'sir qilish bevosita boshqa shaxslarga va jamiyatga muayyan darajada ta'sir etmasdan iloji yo'q. Uchinchidan, tabiiy resurslardan foydalanmasdan turib har qanday ishlab chiqarish jarayonini tashkil etib bo'lmaydi. Iqtisodiy tizimda tabiiy resurslar ishlab chiqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi<sup>154</sup>.

Tabiiy resurslarni umummiliy boylik sifatida e'tirof etuvchi Konstitutsiyamizning 55-moddasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, Yer kodeksida, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va har bir tabiiy resurslar to'g'risidagi qonunlarda yanada rivojlantirilgan va kengroq tartibga solingan.

Xususan, Fuqarolik kodeksida tabiiy resurslar Respublika mulki, Yer kodeksi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunda – *davlat mulki (umummiliy boylik)*, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlarda – *umummiliy boylik*. "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonunda (yangi tahriri) *O'zbekiston Respublikasining mulki* sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talabi mustahkamlangan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish deganda, ulardan ilmiy asoslangan, har bir tabiat obyektining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan, ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg'unlashgan holda, tejamli, ularni qayta tiklash, holatini yaxshilash va keskin o'zgartirmaslikni ko'zda tutadigan holda foydalanish tushuniladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talabi buzilganda, qo'llaniladigan huquqiy ta'sir chorasi sifatida tabiiy resurslarga bo'lган huquqlarning bekor bo'lishi (Yer kodeksining 36-moddasi), keltirib chiqargan oqibatiga qarab ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka

---

<sup>154</sup> Оқюлов О. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида табий ресурсларга нисбатан мулкчilik масалалари. Табий ресурсларга нисбатан мулк ҳукуки. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2007 йил. – Б. 32.

(MJTK 60, 65, 70, 74, 85, 90-moddalar, JK 197, 202–203-moddalar va boshqalar) sabab bo‘lishi mumkinligi ko‘zda tutiladi.

Mulk sifatida tabiiy resurslarning kelib chiqishi inson faoliyatini natijasida emasligi, balki tabiiy mayjudligi yoki tabiat tomonidan in’om etilganligi, tabiiy holatda inson mehnatisiz mayjud bo‘lishi ham tabiiy rusurslarga nisbatan mulk huquqining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri bo‘lib, tabiiy resurslarning umummilliy boylik sifatidagi maqomi ham uning ushbu xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi-tabiat obyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirilishini belgilashni, tabiiy resurslar kimga tegishliligini, mulkdorlarning ularga nisbatan bo‘lgan vakolatlarini hamda huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquq normalari yig‘indisini ifodalaydi.

Bu o‘rinda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning 5-moddasi tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 16-moddasida O‘zbekiston Respublikasida yerga bo‘lgan mulkchilik qonuniy ravishda mustahkamlangan, ya‘ni yer davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo‘yilmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar mustasno sifatida o‘rnatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida»gi qonuni 10-moddasiga asosan quyidagi yer uchastkalari xususiylashtirish ob’ektlari bo‘lishi mumkin:

1) yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan xususiylashtirilayotgan binolar va inshootlar, ishlab chiqarish infratuzilmasi ob’ektlari joylashgan yer uchastkalari, shuningdek ularga tutash bo‘lgan, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur o‘lchamlardagi yer uchastkalari;

2) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalari;

3) bo‘sh turgan yer uchastkalari;

4) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Urbanizatsiyani rivojlantirish jamg'armasiga berilgan yer uchastkalari.

Ushbu qonunning 11-moddasiga muvofiq esa quyidagi yer uchastkalari xususiylashtirilmaydi:

1) tasdiqlangan va e'lon qilingan rejalashtirish sxemalari bo'limgan hududlarda joylashgan yer uchastkalari;

2) ro'yxati qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, xususiylashtirilmaydigan foydali qazilmalar konlari, davlat mulkidagi strategik ob'ektlar joylashgan yer uchastkalari;

3) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlari va tarixiy-madaniy maqsadlar uchun mo'ljallangan yerlar tarkibiga kiruvchi yer uchastkalari, shuningdek o'rmon va suv fondlarining, shaharlar va shaharchalarning umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'yлari, skverlar, xiyobonlar);

4) xavfli moddalar bilan zararlangan va biogen zaharlanishga duchor bo'lgan yer uchastkalari;

5) erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga berilgan yer uchastkalari.

Shunindek, qonunning 12-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar va O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar yer uchastkalarini xususiylashtirish sub'ektlaridir.

Chet ellik fuqarolar va O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek fuqaroligi bo'limgan shaxslar yer uchastkalarini xususiylashtirish sub'ektlari bo'lmaydi.

Yer uchastkalarini xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- doimiy foydalanish (egalik qilish) yoxud meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqlari asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sotib olish;

- yer uchastkalarini elektron onlayn-aukszion orqali sotish.

Yerga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos xususiyati shundaki, u Yer kodeksining 18-moddasiga muvofiq, ayrim hollarda mulk huquqining obyekti bo'lishi mumkin hisoblanadi. Jumladan, quyidagi uch holatda yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi vujudga keladi:

1) Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiyashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

2) Diplomiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga o‘zлari vakolatxona binosi sifatida foydalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan, vakolatxona boshlig‘ining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek, mazkur vakolatxonalarining imoratlarini qurish uchun yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

3) Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning --- diplomatiya korpusi xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalari xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek, Respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi bo‘lgan shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi ularga uyjoy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-apreldagi 126-sonli “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarini ular joylashgan yer maydonlari bilan birgalikda hamda yer maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to‘g‘risida”gi qarorining 4-ilovasiga muvofiq, “Fuqarolarga xususiy mulk sifatida berilmaydigan va kimoshdi savdolarida meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun sotilmaydigan yerlar ro‘xati” belgilangan bo‘lib, ushbu yerlar ro‘yxati quyidagilardan iborat:

- shahar va shaharchalardagi umumiyl foydalanishdagi yerlar (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, sohil bo‘ylari, istirohat bog‘lari, skverlar, xiyobonlar, svn muhofaza qilish zonalari, cho‘milish joylari va boshqalar);
- tabiat yodgorliklari, botanika bog‘larining yerlari;
- sog‘lomlashtirish va tarixiy-madaniy maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
- yerosti boyliklaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash uchun berilgan yerlar;

- xavfli moddalar bilan zararlangan va biogen zaharlanishga uchragan yerlar;
- shaharlarni rivojlantirish bosh rejalarida, mukammal rejalashtirish loyihalarida va obyektlarni (savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlaridan tashqari) joylashtirish sxemalarida nazarda tutilgan yerlar.
- bosh yo'llarga tutash yerlar;
- elektr quvvati uzatish liniyalari, kabel liniyalari va podstantsiyalar, issiqlik, suv va kanalizatsiya trassalari hamda gaz quvurlari, umum davlat aloqa liniyalari uchun ajratilgan yerlar va ulardagi inshootlar, suv xo'jaligi inshootlari xususiy mulk sifatida berilmaydi va kimoshdi savdolarida meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun sotilmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-iyuldag'i 3780-sonli "Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi Farmonida ham belgilab qo'yilgan.

Amaldagi qonun hujjatlari muvofiq, faqat yer uchastkasiga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqi vujudga kelishi mumkin. Boshqa tabiiy resurslar esa faqat davlat mulkidir.

O'zbekiston Respublikasining "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida yerosti boyliklariga egalik qilish, ya'ni yerosti boyliklari O'zbekiston Respublikasining mulki bo'lib, ulardan oqilonan foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir deb belgilangan. Shu bilan birgalikda, yer qa'rining foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan uchastkalari, shuningdek, texnogen mineral hosilalar yerosti boyliklari davlat fondini tashkil etadi.

Ta'kidlash lozimki, qonun hujjatlarda belgilangan tartibda kavlab olingan foydali qazilmalar davlat mulki, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lishi mumkin. Foydali qazilmalarini kavlab olish va mineral xom ashyoni qayta ishlash jarayonida yuzaga kelgan texnogen mineral hosilalarga bo'lgan mulk huquqi yer qa'ridan foydalanuvchida yer qa'ri uchastkasidan foydalanish muddatiga saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasining "Konsessiyalar to'g'risida" qonuni 1-moddasiga asosan, konsessiya chet ellik investorga xo'jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug'ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnomasi bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investorga konsessiya shartnomasi tuzish asosida mol-mulk, yer va yerosti uchastkalarini topshiradi. Ushbu qonunning 6-moddasida

konsessiyachilik faoliyatida mulkchilik munosabatlari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra davlat konsessiyachiga konsessiyachilik faoliyati bilan bog‘liq mol-mulkka, yer va yerosti uchastkalariga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqini berib, ularni tasarruf etishdan iborat alohida huquqni o‘zida saqlab qoladi.

Konsessiyachining konsessiyachilik faoliyati natijasida olgan mahsuloti va daromadlari konsessiya shartnomasida belgilab qo‘yilgan hajmda uning mulkidir. O‘zbekiston Respublikasi konsessiyachidan mahsulot olishda ustun huquqqa ega.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasiga muvofiq, mahsulot taqsimoti shartlari asosida foydalanish huquqi beriladigan yer qa‘ri uchastkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mahsulot taqsimoti shartlari asosida foydalanishga hali isbotlangan foydali qazilma zahiralari yo‘q, geologiya-qidiruv ishlari o‘tkazish uchun katta moliyaviy resurslar, ilg‘or texnologiyalar va texnika jalb etilishini talab qiladigan yer qa‘rining istiqbolli uchastkalari beriladi.

Qidirib topilgan foydali qazilma konlarining yer qa‘ri uchastkalari quyidagi hollarda bitimlarga kiritiladi, ya‘ni:

- qidirib topilgan yirik foydali qazilma konlarining o‘zlashtirilishi uchun, shuningdek, foydali qazilmalarni tashish obyektlarining qurilishi uchun moliyaviy va texnik imkoniyatlar bo‘limgan, konlarning o‘zlashtirilishi hisobiga esa foydali qazilmalarni kavlab olishni mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi uchun zarur bo‘lgan darajada saqlab turilishi ta‘minlanadigan hollarda;

- olinishi qiyin, ammo hajmi jihatidan ancha ko‘p bo‘lgan, murakkab kon-geologiya sharoitlarida joylashgan va qazish ishlari ketayotgan konlar uchun qoldiq hisoblanadigan foydali qazilmalarning zaxiralarini qazib olishning maxsus ilg‘or texnologiyalarini jalb etish zarur bo‘lganda;

- foydali qazilmalarning texnologik yo‘qotilish darajasini kamaytirish, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ijtimoiy-ekologik oqibatlarni bartaraf etish zarur bo‘lganda.

O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasida “Suvga davlat egaligi”, ya‘ni suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi, deb belgilab quyilgan. Bu erda suv deganda – yagona davlat suv fondi tushuniladi. Unga jilg‘alar, soylar, daryolar, suv omborlari,

ko'llar, dengizlar, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yerusti suvlari, yerosti suvlari, qor zahiralari va muzliklarni tashkil etuvchi suvlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) 4-moddasida o'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik qoidalari o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra o'simlik dunyosi ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy muhitda o'sadigan yoki sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan barcha turdag'i yovvoyi o'simliklar majmui umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Tabiiy muhitda yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar davlat mulkidir. Shuningdek, Sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo'lishi mumkin.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar ya'ni madaniylashtirilmagan daraxtlar, butalar, o'tsimonlar, qirqulloqsimonlar, yo'sinsimonlar, suvo'tlar, lishayniklar va zamburug'lar, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari ya'ni yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati natijasida hosil bo'lgan ildizlar, piyozboshlar, tanalar, poyalar, novdalar, po'stloq, barglar, g'unchalar, gullar, urug'lar, mevalar, sharbat (yelim) va boshqa mahsulotlar va botanika kolleksiyalari ya'ni ilmiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yashash faoliyati mahsulotlarining tizimlashtirilgan to'plami (gerbariyalar, urug'lar) hamda sun'iy yaratilgan sharoitlarda (botanika bog'larida, dendrologiya bog'larida, pitomniklarda, plantatsiyalarda va boshqalarda) yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar o'simlik dunyosi obyektlarini tashkil qiladi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-apreldagi "O'rmon to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) 5-moddasida o'rmonlarga bo'lgan mulkchilik belgilangan, ya'ni o'rmonlar davlat mulki – umummilliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bunda **o'rmon deganda** – o'rmon fondi yerlaridagi o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega daraxtlar, butalar va boshqa tabiiy obyektlar (yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) majmui tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri) 4-moddasida hayvonot dunyosiga nisbatan mulkchilik o‘rnatilgan, ya‘ni hayvonot dunyosi umummilliy boylik bo‘lib, undan oqilonqa foydalanish lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Bunda tabiiy erkinlik holatida yashayotgan, shuningdek, tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan yovvoyi hayvonlar davlat mulki hamda yarim erkin sharoitda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanayotgan va (yoki) yetishtirilgan yovvoyi hayvonlar yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo‘lishi mumkin.

Hayvonot dunyosi obyektlarini yovvoyi hayvonlar, yovvoyi hayvonlarning yashash faoliyati mahsulotlari va zoologiya kolleksiyalari tashkil etib, yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respblikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasiga ko‘ra, atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo‘lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonuning 6-moddasida “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga bo‘lgan mulk huquqi”, ya‘ni Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va uning muhofazasida ekanligi belgilangan. Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo‘riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi ommaviy mulki obyektlari to‘liq ravishda yoki qisman davlat tasarrufidan chiqariladi va xususiylashtiriladi. Ammo O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yer (qonun hujjatlarida nazarda tilgan hollardan tashqari), yerosti boyliklari, ichki suvlari, havo havzasi, o‘simgilik va hayvonot dunyosi davlat mulki obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilmaydi va xususiylashtirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 182-moddasida “Mulk huquqining vujudga kelish asoslari” belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati, shu jumladan, mol-mulkni yaratish, ko‘paytirish, bitimlar asosida qo‘lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik

qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonun hujjatlariga zid bo‘lмаган бoshqa asoslarda vujudga keladi.

Jumladan, hayvonot dunyosi obyektlaridan belgilangan tartibda ruxsatnoma olib, foydalanish turlaridan qat‘iy nazar tabiiy muhitdan ajratib olingandan so‘ng foydalanuvchi ushbu obyektga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘ladi. Ammo tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi har bir tabiiy obyektning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, havo bo‘shlig‘iga nisbatan mulk huquqi har doim davlatga tegishli.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi unga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo‘ladi.

Tabiat obyektlari inson faoliyati natijasida yaratilmasligi, ularning cheklangan miqdorda mavjudligini tabiiy resurslarning bebaholigi yoki bahosini mayjud emasligini anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy asoslariga e‘tibor kuchayadi. Tabiiy resurslarning haqiqiy bahosini aniqlash murakkab, ammo bu uni iqtisodiy baholanishi va undan foydalanganlik uchun haq to‘lash lozimligini inkor etmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi davlat mulk huquqi ustuvorligi e‘tirof etilishi, belgilangan tartibda qo‘lga kiritilgandan so‘ng xususiy mulkka aylanishi, davlat tasarruf etish huquqini davlat organlari faoliyati orqali amalga oshirishi, tabiiy resursdan maqsadli foydalanish talabi belgilanganligi, hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ta‘minlagan holda amalga oshirilishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. Jamiatning iqtisodiy negizlari deganda nimani tushunasiz?
2. Mulk shakllarining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni qanday?
3. Mulkning qanday shakllari mavjud?
4. Qanday ob‘ektlar xususiy mulk bo‘lishi mumkin?
5. Yer uchastkalarini xususiylashtirish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
6. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik sohasidagi islohotlarga to‘xtalib o‘tsangiz?
7. Ekologiya sohasidagi qaysi qonunlarni bilasiz?

## **XVI BOB. O'ZBEKISTONDA JAMOAT BIRLASHMALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

- 1-\$. Jamoat birlashmalarining jamiyatda tutgan o'rni.
- 2-\$. Jamoat birlashmalari tizimi.
- 3-\$. Jamoat birlashmalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi.
- 4-\$. Jamoat birlashmalarining turlari.
- 5 \$. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi.

### **1-\$. Jamoat birlashmalarining jamiyatda tutgan o'rni**

Jamoat birlashmasi – bu o'z manfaatlarini turli xil shakllarda, shu jumladan, muayyan me'yor va qoidalar asosidagi dasturlar shaklida birgalikda amalga oshiruvchi shaxslarning birlashmasi hisoblanadi.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki ayrim guruhlarning shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g'oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi jamiyatni takomillashtirish. Ular o'z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo'ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo'nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o'zlariga o'zlarini yordam berishlari, o'z hayotlarini, jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilash imkonini beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 20-moddasiga ko'ra “Har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega”, 23-modda 4-qismiga ko'ra “Har bir inson kasaba uyushmalarini tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega”. 1966-yil 19-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 22-moddasiga ko'ra “Har bir inson boshqalar bilan assotsiatsiyalar tuzish, jumladan, kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega”.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatları, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlар tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmaları jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonini

kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan 9200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan. Konstitutsiyaning bir qator normalarida fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro‘yxatga olinishi kabi normalar o‘z ifodasini topgan.

O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari o‘z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga ko‘ra, “Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma‘rifiy, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘slikni mustahkamlash; qonunda taqilganmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi”.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsiyon tuzumni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zgartirish yoki

O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolarining ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoraliq asosida tuziladi va harakat qiladi.

Davlat o'zining Konstitutsiya va boshqa qonunlarida jamoat birlashmalarining qonuniy huquq va manfaatlariiga shart-sharoitlar yaratish uchun va asosiy vazifasini amalga oshirish uchun kafolatlar beradi.

Yoshlar va bolalar tashkilotlariga davlat moliyaviy va mol-mulk tomonidan yordam beradi, soliq siyosatida imtiyozli munosabatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Binolardan foydalanishda imtiyozlar va boshqa sharoitlar yaratadi. Davlat organlarining, mansabdar shaxslarning ular faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Albatta tegishli qonunlarda ko'rsatilgan nazorat vazifalari bundan mustasnodir.

## **2-§. Jamoat birlashmalari tizimi**

Jamoat birlashmalari faoliyat maqsadlari tasnifiga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin. Jamoat birlashmalarining har biri o'z maqsadlariga erishish uchun muayyan vazifalarni ilgari suradi va bu orqali fuqarolarning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydi. Fuqarolar jamoat birlashmalarining ustavlarida belgilangan faoliyat yo'nalishlari va sohalaridan (hayriya, ekologiya, yoshlar, madaniyat, ta'lim, ayollar, qariyalar, jismoniy madaniyat va sport va h.k.) kelib chiqib manfaatlar mushtarakligi asosida birlashadilar.

Jamoat birlashmalari turli mezonlaridan kelib chiqib quyidagicha tasniflanadi:

1) tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra – tashkilotlar, harakatlar, jamg'armalar, jamoat muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari;

2) a'zolik xususiyatiga ko'ra – qat'iy a'zolik va qat'iy bo'limgan a'zolik;

3) ustavda belgilangan faoliyat yo'nalishlari sohasidan kelib chiqib – hayriya, ekologiya, yoshlar, madaniyat, ta'lim, ayollar, qariyalar, jismoniy madaniyat va sport va h.k.;

4) jamoat birlashmasi faoliyatida siyosiy belgilarning aks etganligiga ko'ra – siyosiy; nosiyosiy tashkilotlar;

- 5) faoliyatining hududiy sohasiga ko‘ra – umumrespublika, mintaqalararo, mintaqaviy, mahalliy va xalqaro;
- 6) a‘zolarining soniga ko‘ra – ommaviy, individual a‘zolik;
- 7) tashkilot faoliyatini tashkil etish tuzilishiga ko‘ra – markazlashgan va nomarkazlashgan;
- 8) ijtimoiy-huquqiy maqomiga ko‘ra – tegishli organlarida ro‘yxatga olingan, ro‘yxatga olinmagan, noqonuniy (davlat tomonidan taqiqlangan, yashirin, mahfiy)<sup>155</sup>.

Jamoat birlashmalari tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1) siyosiy partiyalar;
- 2) ommaviy harakatlar;
- 3) kasaba uyushmalari;
- 4) xotin-qizlar jamiyatlari;
- 5) yoshlar va bolalar tashkilotlari;
- 6) veteranlar va nogironlar tashkilotlari;
- 7) ilmiy-texnikaviy;
- 8) madaniy-ma‘rifiy;
- 9) jismoniy tarbiya-sport;
- 10) ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar;
- 11) yurtdoshlar uyushmalari;
- 12) assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari.<sup>156</sup>

Jamoat birlashmalari aholining ma‘lum qismini o‘zida birlashtirgan bo‘lib, ularning ma‘lum bir sohadagi manfaatlarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Masalan, Kasaba uyushmalari o‘z a‘zolarining ijtimoiy, iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar.

Siyosiy partiyalar esa turli tabaqa va guruahlarning siyosiy qiziqishini ifodalaydi va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘ygan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Boshqa jamoat birlashmalari ham o‘z nizomlarida belgilangan vazifalarni bajaradilar.

Demak, jamoat birlashmalarining davlat va jamiyat hayotidagi faoliyati yanada ortib boradi. Tijorat maqsadlarini ko‘zlaydigan yoki boshqa korxonalar va tashkilotlar foyda (daromad) undirib olishiga ko‘maklashadigan kooperativ, diniy tashkilotlar, hududiy jamoat o‘zini

<sup>155</sup>Лысенко В.В. Право на объединение и виды общественных объединений // Конституционное и муниципальное право. 2001. № 3. С. 12.

<sup>156</sup>Узбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўгрисида»ги Узбекистон Республикасининг қонуни, 1-моддаси

o‘zi boshqarish idoralari va boshqalar jamoat birlashmali hisoblanmaydi. Ularning tuzilishi va faoliyat tartibi boshqa qonunlarda belgilab berilgan.

### **3-§. Jamoat birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi**

Jamoat birlashmasi birlashma sifatida tan olinishi uchun albatta O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinishi shart.

Jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta’sis s‘ezdini (konferensiyasini) yoki umumiyligini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o‘zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro, jamoat tashkilotlarining respublika, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatga olish tartibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq tuman, shahar, shaharcha, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Jamoat birlamasi ustavini ro‘yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbari va idora a‘zolari tomonidan imzolangan va shu a‘zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, istiqomat joyi ko‘rsatilgan ariza topshiriladi. Arizaga ustav, ustavni qabul qilgan ta’sis s‘ezdi (konferensiysi) yoki umumiyligini chaqiradilar, qonun talablari bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar ilova qilinadi.

Ustavni ro‘yxatga olish xaqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab ikki oy muddatda ko‘rib chiqiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o‘zgarishlar, qo‘sishimchalar ham ustavlarni ro‘yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro‘yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalarini ustavlarini ro‘yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro‘yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasining ustavida quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

- 1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;

2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o‘z faoliyatini amalga oshiradigan xudud;

3) jamoat birlashmasi a‘zoligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro‘yxatda qayd etiladigan a‘zolarga ega bo‘lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi;

4) jamoat birlashmasi a‘zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari;

5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, vakolat muddati;

6) jamoat birlashmasi hamda tashkilotlarining mablag‘lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan ta‘minlanish manbalari;

7) jamoat birlashmasining rahbar idorasini qayerda joylashganligi;

8) jamoat birlashmasi ustaviga o‘zgartishlar, qo‘srimchalar kiritish tartibi;

9) jamoat birlashmasi faoliyatini to‘xtatish tartibi.

Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko‘zda tutilishi mumkin. Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo‘lmasligi kerak.

Agar jamoat birlashmasining ustavi qonun talablariga zid bo‘lsa, yoxud ilgari xuddi shu nomdagisi jamoat birlashmasi ro‘yxatga olingan bo‘lsa, jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olishni rad etish mumkin.

Ustavni ro‘yxatga olish rad etilgan taqdirda bu xaqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko‘rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatdan o‘tkazining rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin va bu ish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik-protsessual qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro, Respublika va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishning rad etilishi ustidan - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, mahalliy jamoat birlashmalari ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishning rad etilishi ustidan esa - tegishli viloyat, Toshkent shahar sudiga shikoyat qilish mumkin.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o‘z timsoliga, bayrog‘iga va vimpeliga ega bo‘lishi mumkin.

Jamoat birlashmalarining timsollarini ustavga muvofiq, ularning rahbar idoralarini tomonidan tasdiqlanadi. Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

#### **4-§. Jamoat birlashmalarining turlari**

O'zbekistonda jamoat birlashmalarining quyidagi turlari mavjud:

- 1) xalqaro jamoat birlashmalari;
- 2) respublika jamoat birlashmalari;
- 3) mahalliy jamoat birlashmalari;

Agar O'zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati, o'z nizomiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ortiq xorijiy davlatlar hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi.

Ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq faoliyati butun Respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari Respublika jamoat birlashmalariga kiradi.

Viloyat, shahar, tuman, shaharcha va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi.

Nizomda belgilangan vazifalariga qarab qaysi hududda faoliyat yuritsa, o'sha hudud, ya'ni viloyat, shahar, tuman, shaharcha va qishloq jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Zarurat bo'lganda, viloyatlararo va tumanlararo jamoat birlashmalari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari qonun oldida teng huquqlarga ega bo'lib, ularning huquqlari nizomlarida belgilab qo'yiladi:

- 1) o'z faoliyati va maqsadlari to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi;

2) qonunchilikka muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

3) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

4) davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari nomidan ish yuritadi va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Biz adolatli fuqarolik jamiyatni shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, turli fondlarning oilani muhofaza qilishdagi ahamiyati oshib boraveradi.

Mamlakatimizda jamoat birlashmalari turli jamg'armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish uchun turli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Jamoat tashkilotlari o'z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda respublikada o'tkazilayotgan keng ko'lamli islohotlarga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Masalan, "Mahalla", "Nuroniy" "Sog'lim avlod

uchun” kabi jamg‘armalar faxriyalarimizni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda ta‘lim-tarbiya hamda obodonchilikni amalga oshirish, bolalar va onalar sog‘lig‘ini ta‘minlash borasida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘n mingga yaqin mahalla va qishloq fuqarolari yig‘inlari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va oilaviy ishlarni olib bormoqdalar, oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga o‘z hissalarini qo‘sib kelmoqdalar.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo‘yiladigan tartibda ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadilar hamda faqat ustavdagи vazifalarni bajarish maqsadida huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va xo‘jalik hisobidagi tashkilotlarni barpo etadilar.

Jamoat birlashmalari, ularning tashkilotlari binolar, inshootlar, uyjoy fondi, uskunalar, asboblar, madaniy-ma‘rifiy va sog‘lomlashtirish maqsadlari uchun mo‘ljallangan mulklarga, pul mablag‘iga, aksiyalarga, boshqa qimmatli qog‘ozlarga hamda ularning ustavlarida ko‘zda tutilgan faoliyatni moddiy ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan o‘zga mol-mulkka, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga egalik qilishlari mumkin. Birlashmalarning ustavlarida ko‘rsatilgan maqsadlarga muvofiq ularning mablag‘i hisobidan barpo etilgan nashriyotlar, boshqa korxonalar, xayriya muassasalari jamoat birlashmalarining mulki bo‘lishi mumkin.

Jamoat birlashmalarining pul mablag‘lari, agar ustavda ko‘zda tutilgan bo‘lsa, birlashmaga kirish va a‘zolik badallarini to‘lashdan; ixtiyoriy ravishda o‘tkazilgan pul va xayriyalardan; ustavga muvofiq o‘tkazilgan ma‘ruzalar, ko‘rgazmalar, sport hamda boshqa tadbirlar, lotereyalar tushumlardan, ishlab chiqarish, xo‘jalik va noshirlik faoliyatidan olinadigan daromadlardan; qonun bilan taqiqilanmagan boshqa tushumlardan tashkil topadi.

Jamoat birlashmasi nizomini ro‘yxatga olgan Adliya vazirligi va joylardagi adliya boshqarmalari jamoat birlashmalari faoliyatining maqsadlariga taalluqli nizom qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladilar.

Jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qoidalarni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma‘muriy-moddiy yoki o‘zga javobgarliklarga sabab bo‘ladi.

## 5 §. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi

Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy-siyosiy tusdagi munosabatlarda qatnashuvchi tashkilotlardan iborat. Siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi va uning asosiy bo‘g‘inlaridan biri esa siyosiy partiyalardir.

**Partiya** - (lot. Partio – bo‘laman, ajrataman) g‘oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo‘lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi.<sup>157</sup>

Siyosiy partiya jamiyatda kishilarni birlashtiradi va ularning maqsad-muddaolarining birligini ta‘minlaydi, vakillik organlari uchun kurashib, o‘z siyosiy guruhrarining manfaatlarini himoya qiladilar. Oliy Majlis, xalq deputatlari kengashlarini shakllantirishda ular ham eng asosiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqadilar hamda o‘z nomzodlarining saylanishi bilan hokimiyatni tuzish va davlat boshqaruvida ishtirok etadilar.

Partiyalarning vujudga kelish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning ko‘rinishi qadimgi davrlardayoq mayjud bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, miloddan avvalgi V asrda Afina (Yunoniston)da aristokratik va demokratik guruhrar (bular o‘ziga xos dastlabki partiyalar edi) o‘rtasida siyosiy kurash boshlangan edi. Siyosiy partiyalar o‘rta asrlarda ham mayjud bo‘lgan. Shuni nazarda tutish kerakki, qadimgi davrda ham, o‘rta asrlarda ham partiyalar faqat davlatni boshqarish rejimi (tartibi) ma‘lum darajada demokratiya alomatlariga ega bo‘lgan joylardagina tashkil topgan.

Faqat shunday sharoitlarda partiyalar qandaydir ijtimoiy manfaatlarni ifoda eta olishgan. Partiyalar, qachonki ularni turli ijtimoiy manfaatlarni tahlil qilish, bunday manfaatlarni ta‘riflash va himoya qilishga majbur qiluvchi boshqa partiyalar, ya‘ni raqiblar bo‘lgandagina, o‘z majburiyatlarini saqlab qoladilar, ularni amalga oshirishga harakat qiladilar va faoliyat ko‘rsata oladilar. Partiyalar shu tarzda jamiyatning turli qatlamlari (tabaqalari) orasida o‘z tarafdoरlariga ega bo‘ladilar.

Siyosiy partiyalar zamонавиي ма‘нода дастлаб Yevropadagi (burjua) inqiloblar munosabati bilan yuzaga keldi. O‘sha inqiloblar chog‘ida xalq

<sup>157</sup> Узбекистон миллий энциклопедияси. 6-том. Т.: 2003. 698-бет.

vakillari tuzildi, ya'ni saylanadigan vakillar vositasida amalga oshiriladigan xalq hokimiyati tizimi barpo qilindi. Dastlab partiyalar safiga, bir tomondan monarx (yakka hokim) va feodallar, ikkinchi tomondan esa, teng huquqlilik va siyosiy erkinlik himoyachilar birlashdilar. Natijada, turli partiyalar yuzaga kela boshladi, ular jamiyatning ayrim ijtimoiy va mintaqaviy guruhlari manfaatlarini himoya qilishga kirishdilar. Sinfiy guruhlarga bo'linishning kuchayishi, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashishi munosabati bilan siyosatga jamiyatning keng tabaqalari jalb qilinishi natijasida, partiyalarning roli yanada kuchaydi va ular siyosatning asosiy subyekti hamda demokratik davlatchilikning zarur elementi bo'lib qoldi.<sup>158</sup>

Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalarning roli shundaki, demokratiya faol siyosiy partiyalarning bo'lishini taqozo etadi. Siyosiy partiya – bu mukammal tashkilot bo'lib, demokratik boshqaruv jarayonida muhim bo'lgan bir qator o'zaro bog'langan vazifalarni amalga oshiradi. Shulardan eng asosiysi davlat muassasalari va organlari ustidan ma'lum bir darajadagi nazoratni qo'lga kiritish maqsadida saylovlarda qatnashish va g'alaba qozonish hisoblanadi.

Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilanlanganidek, mamlakatda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bu esa o'z o'zidan jamiyatda siyosiy plyuralizmning vujudga kelishini kafolatlaydi.

Demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri bu – hokimiyat vakillik organlarining ko'ppartiyaviyilik asosida shakllanishidir. Respublikamizda siyosiy hayotni demokratlashtirish borasida konstitutsiyaviy huquqiy asos yaratildi. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunlarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamizda O'zbekiston Xalq demokratik, "Adolat" sotsial-demokratik, "Milliy tiklanish" demokratik va Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati, O'zbekiston Liberal-demokratik, O'zbekiston Ekologik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini Konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiradilar.

---

<sup>158</sup>Д.К Аҳмедов. Хорижий мамлакатларда сиесий партиялар ва партийий тизим. Т.: 2004. 4-бет.

Konstitutsiyamizning 60-moddasida belgilanganidek, “Siyosiy partiylar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtirok etadilar”.

1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiylar to‘g‘risida” gi Qonunning 1-moddasiga ko‘ra, siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yogba chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir.

“Siyosiy partiylar to‘g‘risida” gi qonunning 6-moddasiga muvofiq siyosiy partiyanı tuzish uchun kamida sakizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo‘lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo‘lishi talab etiladi. Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo‘lishi, ular partiya ta‘sis hujjatlarini tayyorlash, a‘zolar tarkibini shakllantirish hamda ta‘sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo‘mita o‘zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o‘z tashabbusi, qo‘mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta‘sis syezdi yoki konferensiysi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim. Tashkiliy qo‘mita tuzilgan kundan boshlab uzog‘i bitan uch oy faoliyat ko‘rsatish huquqiga egadir. Siyosiy partiya ta‘sis syezdida yoki konferensiyasida tuziladi. Ta‘sis syezdi yoki konferensiysi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo‘yiladigan organlarini tuzadi.

Siyosiy partiylar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Siyosiy partiyanı ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib chiqish natijalariga binoan siyosiy partiyanı ro‘yxatga olish yoki ro‘yxatga olishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Qaror qabul qilingach, uzog‘i bilan uch kun muddat ichida u siyosiy partiya rahbar organiga beriladi yoki pochta orqali jo‘natiladi. Siyosiy partiya ro‘yxatdan o‘tgan kundan e’tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o‘z faoliyatini amalga

oshirishi mumkin. Siyosiy partiyalar nizomlariga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar ularning nizomlarini ro'yxatga olish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Siyosiy partiya ro'yxatga olingenligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, agar siyosiy partiyaning nizomi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" Qonunga hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingen bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi. Siyosiy partiyani ro'yxatga olishni rad etish ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunida shuningdek, partiyalarning tashkil topishi, faoliyatining kafolatlari, ular faoliyatini to'xtatib turish va faoliyatini tugatish bilan bog'liq qoidalar o'z aksini topgan.

Respublikamizda siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolariing teng huquqligi, o'zini o'zi boshqarish va oshkoraliq asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi ta'qilanganadi:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;
- O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;
- urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi ;
- xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;
- milliy va diniy ruhdagi partiyalar.

Respublikamiz fuqarolari o'zлari xohlagan bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishlari mumkin.

Fuqarolarning partiyaga mansubligiga ko'ra huquqlarini har qanday cheklash, shuningdek, unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish ta'qilanganadi.

Siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etilib, quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar: sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik

xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar.

“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasiga ko‘ra, davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ular mansabdar shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralashishlari yohud, agar faoliyat qonunga hamda o‘z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo‘lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to‘sinqinlik qilishlari man etiladi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega;

– o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatish, o‘z g‘oyalari va qarorlarini targ‘ib qilish;

– saylab qo‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarini tayyorlashda ishtirok etish;

– qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyyati organlari saylovlarda ishtirok etish;

– partiya faoliyati bilan bog‘liq yig‘ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirdarni o‘tkazish;

– qonun hujjalardan nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta‘sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalarini bilan shartnoma munosabatlari o‘rnatish.

Har bir partiyaning o‘z dasturi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ular siyosat maydonida ushbu dasturlarida nazarda tutilgan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun faoliyat olib boradilar. Masalan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat qurish, mamlakatning har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitlari va uning farovonligini ta‘minlay oladigan siyosatni olib borishni o‘z faoliyatining bosh vazifalari, deb hisoblaydi. “Adolat” partiyasida – barqarorlikning va O‘zbekiston bozor islohotlari modelini ro‘yobga chiqarishning kafolati sifatida fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, “Milliy tiklanish” partiyasida – xalq ma‘naviyatini, tarixiy xotirasi va madaniyatini tiklash, Liberal-demokratik partiyasida-tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat

olib borishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning ertangi kunini ta'minlash, O'zbekiston Ekologik partiyasida mamlakatimiz ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni birlashtirish, atrof-muhit va fuqarolar salomatligi muhofazasi, tabiiy resurslardan unumli foydalanish va ularni asrash partiyaviy dastur sifatida ilgari suriladi.

Siyosiy partiya o'z oldidagi maqsadga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajaradilar. Bularning orasida davlatni boshqarishda ishtirot etish, milliy integratsiya, maskuraviy kabi vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Har qanday siyosiy partiya o'z faoliyatini jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal etishga yo'naltirilgan siyosiy kursni ishlab chiqishdan boshlaydi. Ushbu maqsadda partiya faollari va jalb qilingan mutaxassislardan iborat tashabbuskor guruhlar, komissiyalar, jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Siyosiy partiya o'zining dasturiy hujjatlarida o'ziga xos strategiya va usul tanlab, u orqali saylovchilarga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Bu tashkiliy bosqichda partiyaga yangi a'zolarni qabul qilish, faollarni tarbiyalash saylovchilarni partiya nomzodlarini qo'llab quvvatlashga safarbar qilish, yo'lboshchilarni tanlab olish va ularni davlat va ommaviy jamoat tashkilotlari organlarida yuqori lavozimlarga ilgari surish vazifalari yuzaga chiqadi.

Partiyaning eng muhim vazifasi hokimiyat organlarini shakllantirish va ular faoliyati ustidan nazorat olib borishda ishtirot etishdir.

Siyosiy partiyalarning bo'lishi, ularning davlat organlariga saylovlarda ishtirok etishlari ijtimoiy ixtiloflarning tinch yo'l bilan hal etilishiga yo'l ochib beradi. Bu zarur hollarda hukumatning almashtirilishi uchun, siyosiy arboblarning professional qobiliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ijobjiy shart-sharoitlar yaratadi va bu bilan jamiyatning davlat tomonidan boshqarilishining samaradorligi ta'minlanadi.

Rivojlangan demokratik davlatlarda demokratiyaning bevosita shakli bilan birga vakillik demokratiyasini amaliyotda o'z samarasini berib kelmoqda. Vakillik demokratiyasining eng muhim xususiyati bu xalqning vakillari deputatlarning oliv va mahalliy vakillik organlarida faoliyat yuritishi hisoblanadi. Vakillik organlarini shakllantirishda bevosita fuqarolar bilan birgalikda siyosiy partiyalarning ishtirok etishi ularning siyosiy tizimda qanchalik mavqega egaligidan dalolat beradi .

Konstitutsiyamizda o'rnatilgan normalar va "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun parlamentda va xalq deputatlari mahalliy

kengashlarida faoliyat yuritishi uchun siyosiy partiyalarga keng imkoniyatlar beradi.

2004-yil 30-aprelda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi siyosiy partiyalar huquqiy maqomida tub burilish yasashi shubhasiz.

Siyosiy partiyalarning ishtiroki ayniqsa parlamentimizning qonunchilik palatasini shakllantirishda yaqqol ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuning 12-moddasiga muvofiq siyosiy partiyalar qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish huquqiga ega.

Siyosiy partiyalar odatda butun faoliyatlar davomida saylovlarda ishtirok etish va ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun tayyorganlik ko‘rib yuradilar, ammo rasmiy ravishda saylov kampaniyasi boshlanganligi e‘lon qilingandan so‘ng ular asosiy e‘tiborni faqat saylovchilar o‘rtasida olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot ishlariga bag‘ishlashlari lozim. Saylov jarayoni boshlanganligini e‘lon qilish Markaziy saylov komissiyasi vakolatiga kirib, avvalgi chaqiriq Qonunchilik palatasi deputatlarining vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinadi.

Nomzodlar ko‘rsatish uchun siyosiy partiyalar ma‘lum bir qonuniy talablarga javob berishlari shart, ya‘ni, siyosiy partiya saylov jarayoni boshlanganligi e‘lon qilingan kundan kamida to‘rt oy oldin O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlovchi kamida qirq ming saylovchining imzosini to‘plagan taqdirdagina deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishi mumkin.

Belgilangan namunadagi imzo varaqalari saylov kampaniyasi boshlanganligi e‘lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan beriladi.

Ma‘muriy-hududiy tuzilmalardan birida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahri) siyosiy partiya qirq ming saylovchining ko‘pi bilan sakkiz foizi imzosini to‘plashi mumkin. Imzo varaqalarida imzolar soxtalashtirilgan taqdirda Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyaning saylovda qatnashish huquqini rad etadi. Yuqoridagi talablar faqat saylov paytidagina siyosiy maydonda paydo bo‘lib qoladigan va faoliyati shundan nariga o‘tmaydigan, sonda bor,

sanoqda yo‘q qabilidagi partiyalarning sun’iy tarzda tashkil bo‘lishidan saqlanish istagi taqozosidir. Bundan tashqari, saylovlarda qatnashish uchun saylovchilarning qirq ming imzosi zarurligi siyosiy partiyaning siyosiy hokimiyat uchun munosib kurash olib borish imkoniyatidan hamda bunday hokimiyatni qo‘lga kiritgan taqdirda uni xalq muayyan darajada qo‘llab-quvvatlashidan dalolat beradi. Qo‘llab quvvatlovchi imzoning mavjudligi:

- birinchidan, siyosiy partiyalarning hayotdagi o‘rnini ortishi va ularning mavqeining saylovlarda yanada oshishiga olib kelsa;
- ikkinchidan, partiyalarning siyosiy saviyasini hamda ular adolatli raqobatning kuchayishiga olib keladi.

Respublikamizda siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish uchun kamida yetmis kun qolganida Markaziy saylov komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- partiya rahbari tomonidan imzolangan saylovda qatnashish to‘g‘risidagi ariza;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e‘lon qilingan kundan kamida to‘rt oy oldin ro‘yxatga olinganligini tasdiqlovchi ma‘lumotnoma;
- imzo varaqalari;

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilgach, Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlar asosida besh kunlik muddat ichida siyosiy partiyaning saylovda qatnashishiga ijozat berish to‘g‘risida uzil-kesil qaror qabul qiladi. Saylovda ishtirok etuvchi siyosiy partiyalarning ro‘yxati arizalar kelib tushish tartibiga qarab markaziy matbuotda e‘lon qilinadi.

Siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish saylovga oltmis besh kun qolganida boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganida tugaydi.

Deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari (Masalan, qurultoy, syezd va h.k.) tomonidan ko‘rsatiladi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka har bir saylov okrugidan bittadan deputatlikka nomzod ko‘rsatishga vakolatlidir. Bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko‘rsatilishi mumkin. Deputatlikka nomzod tanlash tartibini siyosiy partiyalarning o‘zlarini hal etadilar.

Siyosiy partiyalar faqat o‘z partiyasi a‘zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatishga vakolatlidir. Deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish to‘g‘risida bayonnomma tuziladi.

Siyosiy partiyalar nomzodlar tanlayotgan paytda ularni har tomonlama qobiliyatlarini o'rganib chiqishlari lozim. Chunki, xuddi mana shu nomzodlar saylov jarayonida o'zlarining tashviqotlari orqali saylovchilarni o'zlariga qaratib bilishi va yetarli ovozlarni toplashlari lozim bo'ladi.

Saylov jarayonida siyosiy partiyalarning rahbari amaldagi qonunchilikka ko'ra deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olishni iltimos qilib, Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- siyosiy partiya yuqori organining deputatlikka nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi qarori;

- siyosiy partiya yuqori organi majlisining deputatlikka nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi bayonnomasi, unda deputatlikka nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, kasbi, lavozimi (mashg'ulotining turi), ish va yashash joyi, partiyaga mansubligi, shuningdek, saylov okrugining nomi va tartib raqami ko'rsatiladi;

- deputatlikka nomzodning o'z nomzodi tegishli saylov okrugidan ovozga qo'yilishiga rozi ekanligi to'g'risidagi arizasi;

- deputatlikka nomzodning, basharti u Qonunchilik palatasi deputati etib saylangudek bo'lsa, bajarib turgan ishidan (xizmatidan) bo'shash to'g'risidagi arizasi.

Hujjatlarni taqdim etgan shaxsga Markaziy saylov komissiyasi hujjatlar qabul qilib olingan sana va vaqt ko'rsatilgan ma'lumotnomasi beradi.

Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni yetti kunlik muddat ichida tekshirib chiqadi va ularning ushbu qonun talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonun talablaridan chetga chiqish hollari to'g'risida tegishli siyosiy partiyalarning rahbarlariga belgilangan tartibda ma'lum qiladi.

Siyosiy partiyalar tomonidan qonunchilik palatasi deputatligi uchun ko'rsatiladigan nomzodlarga qonun tomonidan ma'lum bir talablar o'rnatilgan. Unga ko'ra quyidagilar deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydi:

- sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar,

- saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilar, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilar.

Deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin besh kunlik muddat ichida tegishli okrug saylov komissiyasi ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi xabarni deputatlikka nomzodning familiyasini, ismi va otasining ismini, tug'ilgan yilini, partiyaga mansubligini, egallab turgan lavozimini, ish va yashash joyini, shuningdek, uni deputatlikka nomzod etib ko'rsatgan siyosiy partiyani ko'rsatgan holda mahalliy matbuotda e'lon qiladi.

Siyosiy partiyalarning saylovdagi g'alabasi ularning qanchalik saylovoldi tashviqoti olib borishiga bevosita bog'liq. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 27-moddasiga ko'ra saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanadi.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq beriladi. Saylovchilarning yig'ilishlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan barcha nomzodlar uchun mutlaq teng sharoitlarga rioya etilgan holda tashkil qilinadi. Mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deputatlikka nomzodlarga yig'ilishlar o'tkazish uchun jihozlangan binolar ajratishlari, deputatlikka nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda yordam ko'rsatishlari shart. Yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkaziladigan vaqt hamda joy saylovchilarga barvaqt xabar qilinadi.

Siyosiy partiyalarga o'zining kelgusi faoliyat dasturi bilan chiqish huquqi beriladi. Partiyalar va deputatlikka nomzodlarning dasturlari davlatning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan bo'imasligi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilmasligi, ularda urush, milliy, irqiy va diniy adovat targ'iboti, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsituvchi xatti-harakatlarga da'vat bo'imasligi kerak.

Tashviqotning saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), shuningdek, pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borilishi taqiqlanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonunning 65-moddasida ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik masalasi belgilangan bo'lib unga ko'ra, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylash va saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish huquqlarini amalga oshirishlariga zo'ravonlik, aldash, tahdid qilish yoki boshqa yo'l bilan qarshilik ko'rsatuvchi shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto'g'ri sanab chiqqan, ovoz berish yashirinligini buzgan yoki ushbu qonun boshqacha tarzda buzilishiga yo'l qo'ygan saylov komissiyalarining a'zolari, boshqa mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalarning vakillari qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod yoki Senat a'zoligiga nomzod to'g'risida soxta ma'lumotlarni e'lon qilgan yoki o'zgacha tarzda tarqatgan shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 147-moddasiga muvofiq saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladı.

Bundan tashqari, siyosiy partiyalar o'z partiyalaridan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladigan fraktsiyalarni tashkil etadilar.

Siyosiy partiyalarning moliyaviy jihat bilan bog'liq muammolari nafaqat saylovlar paytida, balki, butun faoliyatları davomida asosiy masala bo'lib kelgan. Agar dastlab siyosiy partiyalarning moliyalashtirilishi faqat ularning xususiy faoliyatiga oid bo'lsa, yillar o'tishi bilan esa ularning saylov korpusi va ommaviy hokimiyat orasidagi zarur va muqarrar vositachilarga aylanish, siyosiy faoliyatlarga juda katta miqdordagi sarf-xarajatlarning o'sishi, ayniqsa, saylov xarajatlari ushbu faoliyatning moliyalashtirilishining huquqiy tartibga solinishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Qonunchilik palatasi deputatligiga va Senat a'zoligiga nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va moddiy jihatdan o'zga tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar saylov o'tkazish uchun o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda berishlari mumkin. Bu mablag'larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi vaqtida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

Ushbu huquqiy tartibga solish hozirgi vaqtga kelib bir qator yangi qonunlarni yaratilishiga olib keldi. Jumladan, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning qabul qilinishidir. Ushbu qonun qabul qilinganiga qadar siyosiy partiyalarning moliyaviy ta'minotiga oid masalalar "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 15-16-moddalarida belgilangan normalar orqali tartibga solinar edi.

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Siyosiy partiyaning tadbirkorlik faoliyatini natijalari uning moliyaviy hisobotida aks ettirilishi kerak.

Siyosiy partiyalarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari partiya a'zolari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas va ulardan faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun foydalaniлади. Siyosiy partiyalar har yili barchaning e'tibori uchun o'z byudjetlarini e'lon qilib boradi va o'z faoliyatini moliyalashtirish manbalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergen organga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi. Siyosiy partiyalarning mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning mazkur partiyalar a'zolari va jamoatchilik uchun ochiqligi siyosiy partiyalarning o'zi tomonidan ta'minlanadi. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi hajmi va manbalari haqida axborot e'lon qilib turishi kerak.

"Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasiga muvofiq siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraktsiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinalarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun

davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu norma siyosiy partiyalarni Qonunchilik palatasida ko'proq o'rinni olishga undaydi.

Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining yillik hajmi shu mablag'larni ajratish mo'ljallanayotgan yildan oldingi yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining ikki foizini Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan oxirgi saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar soniga ko'paytmasi miqdorida shakllantiriladi.

Davlat mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Qonunchilik palatasiga oxirgi saylovnning O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan aniqlangan natijalari asosida bu mablag'larni olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiylar o'rtasida ularning Qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinni miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi.

Siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to'g'ri keladigan miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Siyosiy partyaning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari shu partiyadan Qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatga olingandan keyin ro'yxatga olingen nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partyaning hisob-kitob varag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari siyosiy partiya tomonidan:

- saylovoldi ko'rgazmali tashviqot vositalarini nashr qilishga;
- Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning televideonie, radio orqali va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etishga;
- Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga;

- Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari va bevosita saylov okrugida saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun jalg qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga;
- saylov jarayonini o'tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak.

Agar Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha siyosiy partiya fraksiya tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinalarini ololmagan bo'lsa, siyosiy partianing Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari mazkur partianing boshqa manbalardan olgan mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga qaytarilishi kerak. Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyalarining faoliyatini tashkiliy, texnikaviy jihatdan va boshqa tarzda ta'minlash uchun ajratiladigan davlat mablag'lari Qonunchilik palatasining xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno) va fuqarolaridan pul shaklida hamda mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida xayriya yordamini olish huquqiga ega.

Siyosiy partiya xayriya yordamini qabul qilishni rad etishga haqli.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasining bir yuridik shaxsidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1 yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravaridan O'zbekiston Respublikasining bir fuqarosidan esa besh yuz baravaridan oshmasligi lozim.

Siyosiy partiyalarga xayriya yordami berishdagi cheklashlar "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida sanab o'tilgan. Unga ko'ra siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan grantlar ajratish, texnik yordam ko'rsatish, safarlar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o'tkaziladigan treninglar, seminarlar, konferensiylar bilan bog'liq xarajatlarga haq to'lash orqali) xayriya yordami quyidagilar tomonidan berilishiga yo'l qo'yilmaydi: chet davlatlar; chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallari; xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonalari va filiallari; chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar; chet el fuqarolari; fuqaroligi bo'Imagan shaxslar;

fujarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar va nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko‘rsatilgan shaxslar.

Siyosiy partiya har yili qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda hamda tartibda moliya organlariga, davlat soliq xizmati organlariga, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Adliya vazirligiga hisobot davrida olingan hamda sarflangan moliyaviy va boshqa mablag‘lar to‘g‘risida moliyaviy hisobot taqdim etishi shart. Siyosiy partiyaning moliyaviy hisobotida davlat mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi alohida qismda nazarda tutiladi. Bunda siyosiy partiya tomonidan Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etish uchun sarflangan mablag‘lar alohida hisobga olinadi.

Moliyaviy va boshqa mablag‘larning kelib tushishi hamda siyosiy partiyalarning ulardan belgilangan maqsadda foydalanishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi amalga oshiradi.

Moliyaviy va boshqa mablag‘larning kelib tushishini hamda siyosiy partiyalarning ulardan belgilangan maqsadda foydalanishini tekshirish Qonunchilik palatasi deputatlari umumiyligi sonining kamida o‘ndan bir qismidan iborat deputatlar guruhining murojaatiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Siyosiy partiya o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi masalalari yuzasidan tegishli davlat organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilishi mumkin.

### *O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *Jamoat birlashmalari qanday prinsiplar asosida faoliyat yuritadi?*
2. *O‘zbekistonda qanday jamoat birlashmalari tizimi mavjud?*
3. *Jamoat tashkilotlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi qanday?*
4. *O‘zbekistonda qanday jamoat birlashmalari mavjud?*
5. *“Siyosiy partiya” deganda nima tushuniladi?*
6. *Siyosiy partiya qanday tartibda tuziladi?*
7. *Siyosiy partiyaning faoliyati qaysi hollarda to‘xtatiladi?*
8. *O‘zbekistonda siyosiy partiyalar qanday moliyalashtiriladi?*

## XVII BOB. OILA

- 1-§. Oila jamiyat va davlat muhofazasida.
- 2-§. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari.
- 3-§. Ota-onalar va bolalarning shaxsiy huquq va majburiyatlari.

### 1-§. Oila jamiyat va davlat muhofazasida

Davlatimiz o‘z mustaqil taraqqiyotining ilk kunlaridanoq bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida oilalar haqida g‘amxo‘rlik qilish, ularni ijtimoiy himoya qilish bosh tamoyillardan ekanini e‘lon qildi va bu sohada keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-axloqiy tadbirlarni amalga oshirdi.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, davlatimiz va jamiyatimiz rivoji, avvalambor, oilalarimizda tinchlik-osoyishtalikning bardavom bo‘lishi, oiladagi farovonlik va uning ishonchli ijtimoiy himoya kafolatlari tizimi orqali ta‘minlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘лади.

Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o‘taydi, ya‘ni oilada odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida oilaga jamiyat va davlat g‘amxo‘rligi kun sayin oshib bormoqda. Jamiyatni rivojlantirish uchun barcha diqqat-e‘tibor, eng avvalo, oilaga qaratilmog‘i lozim. Har bir oila a‘zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir.

Davlatning oila to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi katta hajmda uy-joy qurilishi, bolalar muassasalarining keng shahobchalarini barpo etish va rivojlantirish, maishiy xizmat, bola tug‘ilganda nafaqa to‘lash, ko‘p bolali oilalarga nafaqalar va imtiyozlar berish, shuningdek, oilaga nafaqa va yordam berishning boshqa turlarini rivojlantirish orqali namoyon bo‘lmoqda.

Oila huquqining asosiy manbayi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyaning III bo‘lim, XIV bobi “Oila” deb nomlanib, 63-66-moddalar oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalardir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, asosiy qonunda oilaga maxsus bob ajratilgan. Bu bob "Jamiyat va shaxs" bo'limida berilishi ham ayni muddao, chunki oila jamiyatning bir bo'lagi, uning asosiy bo'g'inidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta'kidlangan quyidagi so'zlar nihoyatda ramziy va teran ma'nodadir: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega".

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustaham bo'ladi. Biz qurayotgan fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalangan.

Mamlakatda har bir oila va har insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan ijtimoiy-siyosiy sohadagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlar, xalqaro huquqiy standartlarga to'la-to'kis mos bo'lib, ular ruhini hayotimizga singdirish ishiga xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan oilaga kun sayin g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

O'tgan vaqt davomida respublikamizda ayollar va o'sib kelayotgan yosh avlod sog'lig'ini mustahkamlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sog'lom oilani shakllantirish, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish ishlari o'zining ijobiy samarasini berdi.

Mamlakatimizda oilaviy-huquqiy munosabatlар O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomasi, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida Nizom, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalariga qaratilgan dasturiy ko'rgazmalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldag'i "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF–5325-son Farmoni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni belgilab berdi. Xususan, ushbu Farmon asosida fuqarolar yig‘inlarining diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi o‘rniga tegishli shtat birliklarini tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitalari tuzilmasiga o‘tkazgan hamda mahalliy budget mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda **xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis** lavozimi joriy etildi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagи 200-son qarori bilan “Xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi qoshidagi Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi** tashkil etilib, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-martdagи 226-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tashkiliy tuzilmasi, ustavi tasdiqlandi, shuningdek, boshqa tashkiliy-huquqiy masalalar hal etildi.

**FHDYO organlarini** ularning nikoh munosabatlariga oid aktlarni rasmiylashtirish, oila institutini mustahkamlash, oilaviy ajrashishlarning oldini olish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tuman (shahar) hokimliklariga bo‘ysundirildi. Xotin-qizlar va oila masalalari bo‘yicha FHDYO organi, “Oila” markazining tuman (shahar) bo‘limi hamda boshqa tuzilmalar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish tuman (shahar) hokimi o‘rinbosari – xotin-qizlar qo‘mitasi raisi zimmasiga yuklatildi.

**Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi** tashkil etilib, uning asosiy vazifalari etib xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish; xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan

kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish belgilansin. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagи 201-sон "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan Jamoat fondi faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy masalalar o'z yechimini topdi.

O'ilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari tuzilmalarida o'smir qizlar va fertil yoshidagi ayollar uchun "**ayollar maslahatxonaları**" tashkil etildi.

Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan «**Mo'tabar ayol**» ko'krak nishoni ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "**Har bir oila – tadbirkor**" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori bilan har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbayiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish, joylarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rinalarini yaratish, bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lган fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilandi.

"Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lган aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash; tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko'rsatish; tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo'shimcha ish o'rinalari yaratish; kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarda ish olib borilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sон "**O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida**"gi qarori bilan

O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konseptsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

**O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konseptsiyasi** 5 ustuvor yo'nalishdan iborat: oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish; zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish; demografik rivojlanishni rag'batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish; oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash; oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" esa, mazkur yo'nalishlarda 2018-2019-yillarda bajarilishi rejalashtirilgan **30 ta** chora-tadbirni nazarda tutadi.

Oila huquqining asosiy tamoyillari Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan. Ular jumlasiga oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi, oilada erkak va ayolni teng huquqliligi, nikohning ixtiyoriy va teng bo'lishi, ota-onalar va bolalarning asosiy huquq va majburiyatlaridir.

Oila huquqining asosiy manbayi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. Oila kodeksi 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan bo'lib, 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari unga huquqiy asos qilib olindi. Chunki, ushbu huquqiy qoidalarda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy hujayrasi hisoblangan oilani mustahkamlash, nikohning barqaror bo'lishi, otalik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida va moddiy ta'minotida ota-onaning huquq va majburiyatlar kabi muhim qoidalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasing 46,63,66-moddalarida, shuningdek, maxsus qonunlarda, me'yoriy hujjatlarda oilaviy munosabatlar alohida o'z aksini ifodalagan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46-moddasida belgilangan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi to'g'risida davlat g'amxo'rliги Respublikaning Fuqarolik, Oila, Mehnat va Jinoyat kodekslarida, Sog'liqni saqlash, Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunlarda

mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xotin-qizlarning mehnat qilish, uning uchun haq olish, dam olish kabi huquqiy munosabatlarini amalga oshirishdagi keng imtiyozlari berilishi bilan birga ularni hayotga tatbiq qilinishi ham kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni, 2014-yil 2-yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonuni, 2016-yil 14-sentabr yangi tahrirdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlarida voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid maxsus normalar o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari va Hukumat tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrdagi PF-1657-sonli “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrdagi 437-sonli “Bolali oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2004-yil 7-sentabrdagi 419-sonli “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida” qarori, 2008-yil 12-sentabrdagi 207-sonli “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi Konvensiyani amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori, 2010-yil 2-avgustdagи 164-sonli “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2012-yil 28-iyundagi 185-sonli “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 2013-yil 15-fevraldagи 44-sonli “Kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismida “Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi” deyilgan. Zero, nikoh oila poydevoridir. Oila kodeksining II bo‘limi “Nikoh” (13-56-moddalar) masalasiga bag‘ishlangan.

Oila kodeksining 13-moddasiga binoan nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Ushbu organda qayd etilgan nikohgina huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Nikohning

tegishli davlat organida qayd etilishi uning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Nikohni tuzish nikohlanuvchilarining fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy muddat o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Bunday muddatni belgilashdan maqsad bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'limgan shaxslarning yengiltaklik qilib, shoshmashosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Nikoh davlat va jamoat manfaatlarni ko'zlab, shuningdek, er bilan xotinning va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarni muhofaza etish maqsadida qayd etiladi.

Nikohni uning ijtimoiy mohiyati va maqsadiga ko'ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning ahloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilandi. Bu talablar nikohdan o'tish shartlari deb yuritiladi. Ular quyidagilardan iborat: nikoh tuzish ixtiyoriydir; nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak; nikoh tuzishga majbur qilish ta'qiqlanadi (Oila kodeksining 14-moddasi).

Navbatdagi belgilangan talab nikoh yoshiga tegishlidir. Nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh qilib belgilangan.

Uzrli sabablar bo'lganida alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomilaga layoqatlari deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarining iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagisi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin (Oila kodeksining 15-moddasi).

Qonunda nikoh tuzishga monelik qiladigan quyidagi holatlar ko'rsatilgan:

1) loaqla littasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Respublikada har bir fuqaro faqat yakka nikohda bo'lishi mumkin;

2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

3) loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi (Oila kodeksining 16-moddasi).

Qonunga binoan nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bepul bo'lib, shuningdek, tibbiy irsiy hamda oilani rejalarshirish masalaari bo'yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini tomonidan amalga oshiriladi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin. Basharti nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat qilishga haqlidir. Oila kodeksida belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan ushbu nikohni haqiqiy emas deb topishuchun asos bo'lishi mumkin.

## **2-§. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning bolalar haqidagi g'amxo'rliги alohida mustahkamlangan.

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi)

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi (Konstitutsiyaning 64-moddasi).

Bolalarning huquq va manfaatlari, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, ta'minoti har doim davlatimiz himoyasida va e'tiborida bo'lib kelgan.

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga ko'ra, "bola (bolalar) deganda 18 yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar) tushuniлади".

Odatda bolalarning huquq va manfaatlarni himoya qilish bolaning qonuniy vakillari – ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiyilar zimmasiga yuklatiladi.

"Bola huquqlari to'g'risidagi"gi BMT Konvensiyasining (1989-y.) 18-moddasi 1-bandida ko'rsatilganidek, bolaning manfaatlari ota-ona

ko'rsatadigan asosiy g'amxo'rlikning predmeti hisoblanadi. Ushbu g'amxo'rlik esa huquq normalari hamda urf-odat, an'analar asosida amalga oshiriladi. Ishtirokchi davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topish uchun hisoblangan turmush darajasiga ega bo'lish huquqini e'tirof etilishi Konventsiyada alohida ko'rsatib o'tilgan. Ota-onai yoki bolani tarbiyalayotgan boshqa shaxslar o'z qobiliyatlari va moliyaviy imkoniyatlari doirasida bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitini ta'minlashga asosiy javobgardirlar (27-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazkur normalari asosida bir qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va boshqa qonun va qonun osti hujjatlari shular jumlasidandir.

Qayd etish joizki, ota-onaning bolani tarbiyalash va ta'minlash bo'yicha majburiyatlar bevosita xalqaro huquqiy hujjatlar va Konstitutsiyaning 64-moddasidan kelib chiqadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasiga binoan, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariiga zid bo'lgan holatlari bundan mustasnodir. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Bolaning tarbiyasini ko'rish, ta'minot va ta'lim orqali amalga oshiriladi. Oila qonunchiligi bolaning ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan ko'rishish huquqini ham nazarda tutadi.

Bolalar manfaatlарини та'minlash davlat, jamiyat, ota-onai g'amxo'rligining asosini tashkil etadi. Har bir ota-onai bolaning tarbiysi va ta'minotida mas'uldir hamda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-modda va 71-moddalariga binoan er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar.

Odatda ota-onalar farzandlariga ko'maklashishga doimo tayyor, ammo bolalarning voyaga yetguniga qadar ota-onalarning qaramog'ida bo'lish huquqi Konstitutsiya darajasiga ko'tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 90-moddasida voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta‘minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta‘minoti uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa, uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta‘minoti, tarbiyasi va ta‘lim olishi uchun sarflanishi kerakligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksining normalariga ko‘ra, voyaga yetmagan va voyaga etgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalar ta‘minoti uchun aliment undirish haqida sudga bolaning ota yoki onasi, vasiylik va homiylik organlari, vasiy yoki homiy shaxs hamda prokuror murojaat qilishi mumkin.

Voyaga yetmagan yoki voyaga etgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to‘lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarga nisbatan tegishli talablar, Oila kodeksining 79-moddasiga binoan tartibga solingen, ya‘ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki Jinoyat kodeksining 122-moddasiga ko‘ra jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin.

Bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning konstitutsiyaviy javobgarligi har bir bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqidan kelib chiqadi (Oila kodeksining 65-moddasi). Ushbu sharhlanayotgan normaning davomiy rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida o‘z aksini topdi. Ushbu qonunchilikda mustahkamlanganidek, ota-onal o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Shuningdek, ota-onal o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma‘naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Ota-onal o‘z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-onal bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta‘lim olishini ta‘minlashi shart (Oila kodeksining 73-moddasi).

Bolalarning ilk tarbiyasi oiladan boshlanadi. Shaxs sifatida kamol topishiga ota-onasining o‘zaro va unga nisbatan bo‘lgan munosabatining ahamiyati katta. Har bir ota-onal farzandlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga, ma‘naviy qadriyatlarni rivojlanishini muhofaza qilish, qonunlarga og‘ishmay rioya qilish ruhida tarbiyalashga majburdirlar.

Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta‘sir qilmaydi (Oila kodeksining 66-moddasi).

Bolalar manfaatlarini ta'minlash ota-onalik g'amxo'rligining asosini tashkil qilishi lozim. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-onalikning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan holi bo'lishi kerak. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-onalik tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi (Oila kodeksining 75-moddasi).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi voyaga yetmagan bolalarning o'qib-o'rganishi va tarbiyalanishi uchun mas'ul bo'lgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar majburiyatni bajarmaganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasiga binoan, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan bolalarning majburiy umumiyligi o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalar va yetim bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'qitish, tarbiyalash, ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga, shuningdek, oila qonunchiligi normalariga muvofiq, ota-onasi vafot etgan, ota-onalik huquqi cheklangan yoki mahrum etilgan hollarda, ularni muomalaga layoqatsiz deb topilgan hollarda, uzoq vaqt bo'lmasligi, kasalligi, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan hamda ota-onalarning tarbiyaviy, ijtimoiy, davolanish maskanlari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan farzandlarini olishdan bo'yin tovlaganida, shuningdek, bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidani mahrum qilinganda va bola ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi (Oila kodeksining 65-moddasi).

Ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi,

bunday imkoniyat bo‘limganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim (Oila kodeksining 150-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasiga ko‘ra, yetim bola deganda otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga ko‘ra vafot etgan deb e‘lon qilingan bola tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuning 30-moddasiga ko‘ra, voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi olishlari uchun javobgardirlar. Ushbu moddanning 22-moddasida esa yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta‘minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi ko‘rsatib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 106-moddasida ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta‘minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish davlat tomonidan to‘liq amalga oshiriladi.

2017-yil 13-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar asosida O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni 271-moddasi “To‘liq davlat ta‘minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarining kafolatlari” bilan to‘ldirilgan. Ushbu moddaga ko‘ra, yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalariga tarbiyaga berilgan kundan e‘tiboran to‘liq davlat ta‘minotida bo‘ladi.

To‘liq davlat ta‘minotida bo‘lgan yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ta‘lim berish, ularni uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy buyumlar bilan ta‘minlash, ular ta‘lim muassasalarini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy buyumlar sotib olish uchun nafaqa to‘lash

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Konstitutsianing 64-moddasi yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning tarbiyalanishi, ta‘minoti, ta‘lim olishini ta‘minlash uchun jamiyatga javobgarlik yuklaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va himoya qilishda ko‘maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko‘rsatadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishi, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin (“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasi).

Bundan tashqari, fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) ushbu maqsad yo‘lida:

- ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida yoki vasiylik va homiylikda turgan, oilaga tarbiyaga topshirilgan yetim bolalarning, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning mol-mulkini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi;

- yetim bolalarning, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

- voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, yetim bolalar, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi ma‘lumotlarni vasiylik va homiylik organlariga taqdim etadi, shuningdek, bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko‘maklashadi (“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasi).

Asosiy qonunning 64-moddasidagi qoidalarini izchil amalga oshirilishi Respublikada jismoniy va ruhan sog‘lom har taraflama rivojlangan yosh avlodni tarbiyalashda ulkan natijalarga erishishga yordam berdi. O‘zbekistonning bu sohadagi yuqori natijalari xalqaro ekspertlar tomonidan bir necha bor e‘tirof etildi. Masalan, 2013-yilda BMTning

Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi O'zbekistonning bola huquqlari bo'yicha BMT konvensiyasini bajarish yuzasidan ma'rzasini ko'rib chiqish jarayonida mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha erishilgan yutuqlar va choralarini yuqori baholadi. Xususan, Qo'mita va uning a'zolari tomonidan bola huquqlarining huquqiy asoslari mavjudligi e'tirof etildi, hamda sohadagi xalqaro hujjatlarni O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishiga yuqori baho berildi.

Asosiy Qonunning 64-moddasidagi qoidalarni izchil amalga oshirish maqsadida mamlakatimizdagi bola huquqlarini va qonuniy manfaatlarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat va jamoat birlashmalarining javobgarligini kuchaytirish sog'lom ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash uchun muhim omil hisoblanadi.

Qonunlarimizda davlatimizning bolalar va farzandlar to'g'risidagi g'amxo'rlik siyosati aks etar ekan, o'z navbatida farzandlarning teng huquqli ekanligi ham o'rnatilgan.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

### **3-§. Ota-onalar va bolalarning shaxsiy huquq va majburiyatları**

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Voyaga yetganlik amaldagi fuqarolik va oila qonunchiligiga ko'ra shaxs 18 yoshga to'lgach to'liq hajmda vujudga keladi. 18 yoshga to'lgan, mehnatga layoqatli har bir fuqaro o'z ota-onasi haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir.

Ota-onalarga g'amxo'rlik qilish o'zbek xalqining eng qadimiy insoniy hislatlardan biri bo'lib, farzandlarning muqaddas burchidir. Farzandlarning o'z ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishi ularning ahloqiy majburiyati hisoblangan. Bu majburiyatni farzandlar o'z xohishlari bilan bajarib kelganlar. O'zbek xalqiga azaldan xos yuksak fazilatlar asrlar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan bunday munosabat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylandi.

Xususan, 2002-yil mamlakatimizda "Qariyalarni qadrlash yili", 2015-yil "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilindi hamda bu borada qilinishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 24-yanvardagi 30-sonli qarori bilan "Qariyalarni qadrlash yili", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagagi PQ-2302-sonli qarori bilan "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturlari tasdiqlandi.

Keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish masalasi Davlat dasturlarining asosiy ustuvor yo'naliшlaridan biri etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasidagi asosiy qoidalar, Oila kodeksining 109-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onasiga ta'minot berishi, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishga majburdir.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarni o'z ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onaga beriladigan ta'minot Oila kodeksining 110-moddasida nazarda tutilgan. Ta'minot berishning ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi qonunchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va bunda ta'minot beruvchi va ta'minot oluvchining o'zaro kelishuvga erishishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biroq voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovlagan taqdirda ularning konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga qaratilgan sud qarori asos bo'ladi. Bunda sud ta'minot miqdorini farzandlarning oilaviy va moddiy ahvoldidan kelib chiqib belgilaydi. Ota-onaliment undirish haqidagi talabni bir vaqtning o'zida farzandlaridan biriga yoki barchasiga nisbatan qo'yishi mumkin. Shuningdek, sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning barchasini hisobga olib aliment miqdorini belgilaydi.

Aliment undirish nizosi hal bo'lguniga qadar voyaga etgan mehnatga layoqatli farzandlardan ota-onaga vaqtincha lozim bo'lgan summani to'lab turish masalasida sud vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib ajrim chiqaradi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlardan undirilayotgan alimentning miqdori eng kam ish haqi miqdorining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak (Oila kodeksining 110 va 112-moddalari).

Oila Kodeksining 111-moddasida ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar belgilangan. Shu sababli voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlarni, ya'ni ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha xarajatlarni qoplashda ishtirok etishi shart. Davolanish, dori-darmon sotib olish, alohida shaxs (tibbiyot xodimi) parvarishida bo'lish, shifoxona yoki boshqa davolash-profilaktikasida bo'lish xarajatlari, sanatoriya va kurotlarda davolanish kabi qo'shimcha xarajatlarda ham ishtirok etishlari shart hisoblanadi.

Agar voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar qo'shimcha xarajatlarni ixtiyoriy ravishda qoplashdan bosh tortsa, bu holat sud tartibida uning zimmasiga yuklanadi.

Oila kodeksining 113-moddasiga asosan agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlaganligini aniqlasa, farzandlarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin.

Aliment undirish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i Oila kodeksining 114-moddasiga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro etiladi.

Mazkur modda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga to'liq mos keladi. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi onalik va bolalikka alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi.

Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'iy nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak, deb belgilab qo'yilgan (27- modda).

Keksalar va yoshi ulug' kishilar haqida g'amxo'rlik qilish davlat va jamiyatning doimo diqqat markazida bo'lgan. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan keksa avlod turmush darajasini ko'tarish, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ular ishtirokini qo'llab-quvvatlash kabi xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi PF-4906-sonli "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ushbu yo'naliishda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami va miqyosi yanada kengayib borishiga xizmat qilmoqda.

### *O‘zini o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *Oilani davlat va jamiyat himoyasida bo‘lish huquqi qanday?*
2. *Mamlakatimizda oila institutini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?*
3. *Nikoh tushunchasi, tuzish tartibi va shartlari qanday?*
4. *Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy-nomulkiy huquqlariga qanday huquqlar kiradi?*
5. *Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini himoya qilish usullariga nimalar kiradi?*
6. *Voyaga yetmagan boldalarning javobgarligi qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?*
7. *Ota-onha huquq va majburiyatlarining tengligi deganda nimani tushunasiz?*
8. *Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning o‘z ota-onasiga ta‘minot berish majburiyati qaysi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan va u qay tartibda ta‘minlanadi?*
8. *Aliment majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?*

## **XVIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

1-§. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.

2-§. Ommaviy axborot vositalarining huquq va majburiyatlari.

### **1-§. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari**

Bugungi zamon fanida va huquqni qo'llash amaliyotida OAV qonunchilik, ijro va sud hokimiyati tarmoqlari bilan birga hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i sifatida tasniflanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, OAV huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat shakllanishida, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining totuvligi va o'zaro tushunishini mustahkamlashda salmoqli o'r'in egallaydi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatimiz huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi va fuqarolarda qonunga, inson huquqlari va erkinliklariga, demokratik qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Konstitutsiyamizning 67-moddasi OAVning maqomini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilab, OAVning erkinligi; ularning qonunga muvofiq faoliyat yuritishi; axborotning to'g'riligi uchun javobgarlik; senzuraga yo'l qo'yilmasligi uning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shuningdek, Konstitutsianing 12-moddasida "hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'matilishi mumkin emas", deb belgilab qo'yildi. Asosiy qonunning 29-moddasida esa har kimga so'z va fikrlash erkinliklari kafolatlangan. Konstitutsianing ushbu va boshqa o'zaro bog'langan moddalarining qoidalari ommaviy axborot vositalari instituti izchil demokratik rivojlanishining asosi va rag'batli bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkin va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur huquqiy asoslar va kafolatlar, keng imkoniyatlar yaratilgan.

Mazkur sohada o'ndan ziyod qonunlar, qariyb 30 qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida 1994-yildan e'tiboran har yili 27-iyun kuni O'zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

nishonlanib kelmoqda. Bu ommaviy axborot vositalarining davlat suvereniteti g'oyalarini targ'ib qilish, yangi demokratik jamiyat qurish, fuqarolarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi roliga davlat tomonidan katta ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi.

Ommaviy axborot vositalari kelgusida mustaqil rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida"gi qarori muhim dasturiy hujjatga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq ommaviy axborot vositalari, poligrafiya korxonalari va nashriyotlarining faoliyatini tashkil qilish uchun ruxsat va litsenziya olish davlat boji stavkalari ikki marotaba qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ushbu va boshqa qator tizimli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida "Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqtiga 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam bor-yo'g'i 48 soatga teng edi, xolos"<sup>159</sup>. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining tarkibi tubdan o'zgarayotganiga alohida e'tibor qaratdi. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi. Eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayapti. Global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatyapti<sup>160</sup>. Ta'kidlash joizki, internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borishi va jahon internet makonida milliy segmentning ko'payishi jahon maydonida Vatanimiz, mamlakatimiz obro'si oshib borishiga xizmat qiladi.

<sup>159</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари кунига бағишлиланган маъruzasi (2017 йил 27 июнь).

<sup>160</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари кунига бағишлиланган маъruzasi (2017 йил 27 июнь).

Ushbu sohada qabul qilinayotgan barcha choralar OAVning yanada erkin rivojlanishi, ularning faoliyati takomillashuvining muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarda OAV soni 3,6 marotaba ko‘paydi.

O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy Uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi va boshqa OAVning o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tashkil qilish tuzilmalari tuzilishi OAV faoliyati sohasida demokratik islohotlarning muhim omili va ayni vaqtida natijasi bo‘ldi.

Natijada, mustaqillik yillarda OAVning normativ huquqiy negizini yaratish bo‘yicha ancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu ularning huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash, mamlakatimizda so‘z erkinligini ta‘minlash muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda), “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Shu ma‘noda alohida ta‘kidlash joizki, 1997-yildagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bu boradagi birinchi tizimli qonun hujjati bo‘ldi. Shu bilan birga mustaqil OAV shakllangan sari jamiyatning izchil demokratlashuvi va mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida ular faoliyatining yangi mezonlari, vazifalari vujudga keldi.

Shu munosabat bilan 2007-yil 15-yanvarda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda OAV faoliyatining turli jihatlarini yanada liberallashtirishni ta‘minlovchi, OAV faoliyatining huquqiy kafolatlarini kuchaytiruvchi qator normalar mustahkamlandi. Xususan, yangi tahrirdagi qonundan basharti ariza sudning ommaviy axborot vositasi faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar bir yil o‘tmasdan berilgan bo‘lsa yoki ommaviy axborot vositasining muassisasi yo muassisalaridan biri yo noshirning joylashgan manzili O‘zbekiston Respublikasining tashqarisida bo‘lsa, ommaviy axborot vositasini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish huquqini belgilovchi normalar chiqarib tashlandi. Shuningdek, ommaviy axborot vositasini ro‘yxatdan o‘tkazishda “Ommaviy axborot

vositalari to‘g‘risida”gi qonunda ko‘rsatilgan talablardan tashqari boshqa talablar qo‘yish taqiqlanishi belgilandi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi soddalashtirildi, ularning ro‘yxatdan o‘tmaydigan doirasi kengaytirildi.

Ta‘kidlash lozimki, OAV faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi normalar huquqning moliyaviy, iqtisodiy, mehnatga oid, ma‘muriy, fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi turli tarmoqlari qonun hujjatlarida ham o‘z aksini topdi. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida OAV faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy kafolatlash to‘g‘risida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq OAVga soliq afzalliklari va turli iqtisodiy yordam berilyapti. Ushbu va boshqa qator choralar OAVning bozor sharoitida erkin mustaqil rivojlanishining muhim omiliga aylandi.

Parlamentimiz tomonidan 2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi OAVning huquqiy demokratik asoslarini izchil chuqurlashtirish ishida muhim bosqich bo‘ldi. So‘z va axborot erkinligini ta‘minlashni davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarida belgilagan ushbu dasturiy hujjatga muvofiq fuqarolik jamiyati institutlari tizimida OAVning rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan qator muhim qonun hujjatlari qabul qilindi.

Xususan, 2014-yil 5-maydagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan ommaviy axborot vositalarining teng va erkin foydalana olishi samarali huquqiy kafolatlar yaratildi.

Sharhanayotgan modda qoidalari xalqaro huquq normalariga, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda belgilangan qoidalariiga to‘la mos keladi: “Har bir inson o‘z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qat‘iy nazar har qanday usulda turli axborot va g‘oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi”.

K. Adenauer nomidagi fondning Markaziy Osiyodagi vakili Tomas Kuntse shu munosabat bilan ta‘kidlaydiki, “O‘zbekiston o‘zining taraqqiyot yo‘lini belgiladi, o‘z oldiga kuchli fuqarolik jamiyati qurish maqsadini qo‘ydi, axborot sohasini isloq qilishga, nodavlat OAVni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratdi. Bugun shubhalanmasdan ta‘kidlash

mumkinki, boshqa davlatlar O'zbekiston bu borada to'plagan tajribani o'zlashtirishi mumkin".

## 2-§. Ommaviy axborot vositalarining huquq va majburiyatları

Konstitutsiyamizning 67-moddasida belgilanganidek, O'zbekistonda senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Senzura tushunchasi (lot. "censura" – "jiddiy mulohaza, o'tkir muhokama, talabchan tanqid") odatda ommaviy axborot vositalariga nisbatan mansabdar shaxslar, davlat idoralari, tashkilotlar, muassasalar yoki jamoat birlashmalari tomonidan xabar va materiallarni oldindan kelishi talabi, shuningdek,, xabarlar va materiallar, ularning ayrim qismlarini tarqatishga taqiq sifatida ta'riflandi<sup>161</sup>.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga va "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq ("Senzura yo'l qo'yilmasligi") O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonunlarning normalariga binoan e'lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqi yo'q. "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ("Senzuraga yo'l qo'yilmasligi") belgilanganidek, nashrga tayyorlangan qo'lyozmalar va materiallarni senzuradan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mansabdar shaxslarining senzura qilganlik uchun javobgarligi nazarda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 11-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston matbuot va axborot agentligi to'g'risidagi nizomga binoan O'zbekiston matbuot va axborot agentligining ommaviy axborot vositalarini senzura qilishi, materiallarni tahrir qilishi va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga boshqa har qanday shaklda noqonuniy aralashishi qat'iyan taqiqlanadi (12-band).

---

<sup>161</sup> Википедия. Свободная энциклопедия – ru.wikipedia.org.

Konstitutsiyaning 67-moddasida xalqaro huquqning asosiy tamoyillari aks etadi. Masalan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 10-moddasi 1-bandiga muvofiq har kim o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga ega. Bu huquq o‘z fikriga ega bo‘lishdan va rasmiy hokimiyat tomonidan qandaydir aralashuvsiz va davlat chegarasidan qat‘iy nazar axborot va g‘oyalarni olish va tarqatish erkinligidan iboratdir. Bundan tashqari, Matbuot erkinligi xartiyasi (London, 1987-yil) birinchi qismida aytilganidek, “har qanday senzura, bevosita yoki bilvosita, nomaqbuldir. Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarining ma‘lumotlarni erkin to‘plash va tarqatish huquqini cheklaydigan qonunlar va amaliyot bekor qilinishi, mahalliy va markaziy hokimiyat organlari esa e‘lon qilinayotgan yoki uzatilayotgan xabarlarning mazmuniga aralashmasliklari, shuningdek, axborot manbalaridan foydalanishni cheklamasliklari shart”.

Shu bilan birga senzuraga yo‘l qo‘ymaslik hamma narsa mumkin, degani emas. Qonunchilikda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda muayyan cheklovlar nazarda tutilgan bo‘lib, ular jamiyat va davlat xavfsizligini, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash bilan izohlanadi. Masalan, ommaviy axborot vositalaridan O‘zbekiston Respublikasining mayjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da‘vat qilish; urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalarni targ‘ib qilish; davlat siri bo‘lgan ma‘lumotlarni yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish; milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi axborot tarqatish; giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish; pornografiyani targ‘ib etish; qonunga muvofiq jinoiy va o‘zga javobgarlikka sabab bo‘ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadida foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi).

Shu o‘rinda ko‘rsatilgan huquqiy ko‘rsatmalar, taqiqlar, aslida, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, milliy davlatchilik asoslarini, mamlakatimizda qonuniylikni himoya qilishning siyosiy-huquqiy mexanizmlarini yaratadi.

Yuqoridaq qoidalar demokratik tamoyillarga, rivojlangan mamlakatlarning konstitutsiyaviy tajribasiga to‘la muvofiqli. Masalan, Germaniya Asosiy qonunining 5-moddasi matbuot, radio va televiedenie xabarlarining erkinligini kafolatlaydi, shuningdek, senzurani taqiqlaydi. Italiyada OAV faoliyati Konstitutsiyaning matbuot erkinligini kafolatlovchi 21-moddasiga asoslanadi.

Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalari bizning Konstitutsiyamiz singari nafaqat OAVning erkinligini kafolatlaydi, balki ularning zimmasiga axborot ishonchliligi uchun mas'uliyat yuklaydi. Masalan, Gretsya Konstitutsiyasi jamiyat ma'naviyatiga tajovuz qiladigan, uyatsiz tusdagi nashr materiallari mazmuni uchun javobgarlik belgilaydi (14-modda). Shuningdek, OAV mamlakat va millatga tuhmat uyuştirish, tarqatishga haqli emas, agressiya urushi, milliy, irqiy, sinfiy, diniy adovat, kamsitish, hududiy separatizm qo'zg'atish, ommaviy zo'ravonlik targ'ib qilish, jamiyat hayotiga, yaxshi axloq-odob qoidalariga zid uyatsiz xatti harakatlar taqiqlanadi (Ruminiya Konstitutsiyasining 30-moddasи, Italiya Konstituiyasi 21-moddasи, Gretsya Konstitutsiyasi 14-moddasи).

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanтиrish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va uning asosida tasdiqlangan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturi ommaviy axborot vositalarining hozirgi zamон rivojlanishi bosqichida muhim turki bo'ldi. Davlat dasturida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi va "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga OAVni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash aniq mexanizmlarini, shuningdek, OAVning jamoat nazoratini amalga oshirishda faol ishtirok etishi qo'shimcha kafolatlarni, pirovard maqsadida "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari" tamoyilini ro'yobga chiqarishga qaratilgan boshqa choralarни mustahkamlashga qaratilgan tuzatishlar kiritish nazarda tutilgan.

Ommaviy axborot vositalari axborotning to'g'riliги uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Ta'kidlash joizki, OAVning axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabatiga mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, xavfsizligi, demokratik o'zgarishlar yo'lidagi mustahkam rivoji bog'liqdir. Bularning barchasi, o'z navbatida, OAVga muayyan javobgarlik yuklaydi. Chunki OAVning erkinligi - bu nafaqat huquq, balki ayni vaqtida muayyan javobgarlik hamdir.

"Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida belgilanganidek, o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida journalist o'zi tayyorlayotgan materiallарining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi shart. U o'zi tayyorlayotgan va tarqatayotgan xabarlar hamda materiallarning haqqoniy bo'lishi uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda javobgardir ("Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 15-moddasи).

Bundan tashqari, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida belgilanganidek, ommaviy axborot vositalari e‘lon qilinayotgan axborotning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rishlari shart va ular axborot beruvchi bilan birligida uning to‘g‘riliqi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilikida nazarda tutilganidek, OAVda haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yoki fuqarolarning sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga putur etkazadigan axborot tarqatish muayyan yuridik oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Ushbu normalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolarning sha‘ni va qadr qimmatini muhofaza qiluvchi, ularni huquqiy vositalar bilan himoya qilishni kafolatlovchi boshqa moddalariga, milliy qonunchilikning normalariga to‘la mosdir. Misol uchun, Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga binoan fuqaro o‘zining sha‘ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma‘lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma‘lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo‘li bilan raddiya talab qilishga haqli. Shu kabi norma “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 34-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, yuridik yoki jismoni shaxs ommaviy axborot vositasida e‘lon qilingan, haqiqatga mos kelmaydigan hamda o‘zining sha‘ni va qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘sini tahqirlovchi ma‘lumotlar uchun raddiya berishni tahririyatdan talab qilishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida fuqarolarning huquq va erkinliklariga, xususan sha‘ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar – tuhmat (40-modda) va haqorat qilish (41-modda) uchun ma‘muriy javobgarlik belgilangan. Shu kabi huquqbazarliklar uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida (VI bob) ham nazarda tutilgan.

OAVning qonunda belgilangan o‘z vazifalariga mas‘uliyatlil munosabat nafaqat huquqiy vositalar, balki jurnalistlar hamjamiyati tomonidan qabul qilingan axloq qoidalari bilan ham ta‘minlanadi. 2006-yil 23-martda Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan tashkil etilgan “Ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish – jamiyatning demokratlashtirishning eng muhim omili” BOBsidagi konferensiya ishtiroychilari tomonidan “Bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklari xartiyasi” qabul qilindi. Ushbu hujjatga

binoan OAV vakillari o‘z zimmalari qator majburiyatlarni oldilar, chunonchi: biron ma‘lumotdan foydalanayotganda uning aniqligi va to‘g‘riligiga ishonch hosil qilish; barcha axborotlarning aniqligi va haqqoniyligini belgilashning yuqori me‘yorlariga amal qilish; axborot mazmunini tashqi ta‘sir emas, balki dalil va voqealar asosida belgilash; o‘quvchi hukmiga kimningdir shaxsiy ehtiroslariga emas, mutaxassis mulohazalariga asoslangan tahliliy materiallar havola qilish; jurnalistika janrlaridan oqilona va mahorat bilan foydalanish, dalillar va voqelikni buzib ko‘rsatuvchi usullardan qochish va b.

Mazkur Konferensiyada “Bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklari jurnalistlarining axloq-odob kodeksi” ham qabul qilingan bo‘lib, unga binoan, jurnalistlar o‘z vazifalarini ado etishda obyektiv voqelikni rost aks ettirish orqali odamlarning haqqoniyligi va ishonchli axborot olishini kafolatlashi shart<sup>162</sup>.

### *O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *Oilani himoya qilishning konstitutsiyaviy qoidalari deganda nimani tushunasiz?*
2. *«Nikoh» tushunchasiga ta‘rif bering?*
3. *Oila kodeksida nikoh yoshi necha yosh qilib belgilangan?*
4. *Senzura nima?*
5. *Jurnalistning huquqlari qaysi qonun bilan tartibga solinadi?*

---

<sup>162</sup> Ўзбекистон журналистлари ижодий ўюшмасининг расмий веб-сайти – [www.journalist.uz](http://www.journalist.uz)

## **XIX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT VA MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI**

- 1-\$. Davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari.
- 2-\$. O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi.
- 3-\$. Ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, o'zgartirish va tugatish tartibi.

### **1-\$. Davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi**

Davlat mayjud bo'lishi va rivojlanishi ommaviy boshqaruvning turli kesimlarda, jumladan, hududlarda samarali tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. S.A.Avakyan davlat hududiy-siyosiy tashkil etilishini statikada – konstitutsiyaviy-huquqiy maqom sifatida hamda dinamikada – davlat qurilishi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi. U "davlatning siyosiy-hududiy tashkil etilishi" yoki "davlatning hududiy-siyosiy tashkil etilishi" tushunchasi ma'qulroq degan fikrni bildiradi<sup>1</sup>.

Federatsiyalarga tarixan shakllangan milliy, madaniy, diniy va boshqa xususiyatlarga ega avtonom subyektlardan tashkil etilganligi tufayli – "davlat-milliy tuzilishi"<sup>4</sup>, unitar davlatlarga markazlashgan davlat sifatida "ma'muriy-hududiy tuzilish" tushunchalari qo'llaniladi<sup>1</sup>. Xorijiy davlatlarda "davlatning tashkil etilishi", "davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi", "davlat tuzilishi" yoki "ommaviy hokimiyatning hududiy tashkil etilishi" va boshqa tushunchalar ham ishlataladi.

Bugungi kunda davlatlarni keng avtonomiya ega federativ, va markazlashgan boshqaruvga asoslangan unitar davlatlarga ajratish to'g'ri bo'lmaydi<sup>5</sup>. Vaholanki, unitar davlatlardagi nomarkazlashtirish (O'zbekiston, Qirg'iziston, Fransiya va boshq.), avtonomiyalar (Angliyada milliy asosda shakllangan Shotlandiya va Uels, Ispaniya va boshq.) yoki, aksincha, markazlashgan federatsiyalarning (Hindiston, Pokiston) mavjudligi davlatning hududiy-siyosiy tashkil etish mezonlari qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi<sup>163</sup>.

<sup>1</sup>Авакьян С.А Конституционное право России: - 2-е изд., перераб и доп - В 2 т Т 2 - М: Юрист, 2007 С. 22.

<sup>2</sup>Златопольский Д.Л. Государственное право зарубежных стран: Восточной Европы и Азии. Учебник для вузов. - М.: Издательство «Зерцало», 2000. С. 179.

<sup>3</sup>Карапг: Венгеров А.Б. Теория государства и права: 3-е изд. - М.: Юриспруденция, 2000. С. 110

<sup>4</sup>Пугачев В.П., Соловьев А И Введение в политологию: 3-е изд., перераб и доп - М: Аспект Пресс, 2000. С. 269.

<sup>163</sup>Каранг Ким Ю В В чем смысл российского федерализма // Право и политика, 7/2008 С 1559

Hududiy-siyosiy tashkil etishda davlatning barcha hududlari emas, balki uning eng yirik hududi bo‘lgan mintaqalar va markaz o‘rtasidagi hokimiyat munosabatlарining tartibga solinishi ham e‘tirozlidir. Chunki har bir hudud aholining uyushish shakli bo‘lib, uning manfaatlarini ifoda etadi. Shu tufayli, o‘zini o‘zi boshqarishni kengaytirish unitar va federativ davlatlar uchun bir xilda dolzarb masala hisoblanadi. Boshqaruvni optimallashtirish jarayonlari barcha hududlarga o‘z ehtiyojlarini qondirishga doir masalalarni hal qilish vakolatlarini berish, ularni amalga oshirishda mustaqiligini ta‘minlash, ya‘ni ularga avtonomiya berishni taqozo qiladi.

Avtonomiya rasman Finlyandiyada Alland orollariga, Ukrainada Qrimga, Nikaraguada hindular istiqomat qiladigan ikki okrugga, Ispaniya mintaqalariga, shuningdek, Yaponiyada barcha ma‘muriy-hududiy birliklariga berilgan. Avtonomiya – yunoncha *autonomia*, ya‘ni *autos-o‘zi* va *nomos-qonun*, o‘zini o‘zi boshqarish, qaysidir davlat tarkibida ichki masalalarni mustaqil hal qilish huquqi degan ma‘noni bildiradi<sup>1</sup>.

Odatda, avtonomianing quyidagi uch tavsifi beriladi: personal, korporativ va hududiy. Personal avtonomiya tarqoq yashaydigan, til, madaniyat, turmush tarzi masalalari bilan shug‘ullanish uchun biror-bir millat, etnik guruh uyushmalarining (maslahat ovozi huquqida) markaziy hokimiyat organlaridagi vakilligi orqali siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladilar (misol uchun, Avstriya, Vengriya). Ko‘pchilik adabiyotlarda bunday avtonomiya “hududiy” emas, “milliy-madaniy” deb ataladi.

Korporativ avtonomiya lingvistik hamjamiyatlar mavjudligi bilan bog‘lanadi. Bunday hamjamiyatlar uchun davlat apparatida joylar ajratiladi, uning hududida ishlaydigan boshqa etnik guruh vakillari esa, mahalliy aholi tili va turmush tarzini yaxshi bilishi lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, sud jarayoni, mакtab ta‘limi mahalliy tilda olib borilishi mumkin. Misol uchun, Hindistonda bunday avtonomiyaga ro‘yxatga olingan qabila va kastalar ega.

Hududiy avtonomiya ommaviy hokimiyatning hududiy tashkil etilishini anglatadi. U etnik yoki boshqa xususiyatga ega bo‘lgan guruqlar

---

<sup>1</sup> Словарь иностранных слов. М : «Русский язык» 1987. С 13

kompakt joylashgan hollarda tuziladi<sup>164</sup>. Ayrim xorijiy davlatlar amaliyotida yirik (yuqori) hududiy birliklar, ya'ni mintaqalar avtonomiysi davlatning hududiy-siyosiy tashkil etilishi, quyi hududiy birliklar avtonomiysi o'z-o'zini boshqarish sifatida belgilanmoqda. Masalan, unitar davlat bo'lgan Ispaniyada avtonomiya rasman mintaqalarga berilganligi hududiy-siyosiy tashkil etishda mintaqaviy davlat shaklining ajratilishiga asos bo'lmoqda. Yaponiya va mintaqaviy deb e'tirof etilgan Italiyada avtonomiya barcha ma'muriy-hududiy birliklariga berilgan.

Ma'lumki, har qanday davlat muayyan hududda joylashgan bo'ladi. Uning fuqarolari ham xuddi shu hududda istiqomat qilishadi. Davlat o'z oldida turgan asosiy vazifalarni, masalan, aholining iqtisodiy turmushini tashkil etish, aholining xavfsizligini ta'minlash va boshqa vazifalarni amalga oshirish maqsadida turli xil faoliyatni yuritadi. Agar davlatda aholining soni ko'p bo'lsa, hududiy jihatdan ancha katta bo'lsa, bu sharoitlarda markazdan turib bu faoliyatni amalga oshirish mushkuldir.

Hududi katta, aholisi zinch va milliy-etnik tarkibi turli-tuman bo'lgan davlatlarda ma'muriy boshqaruva samaradorligini oshirish va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda huquqiy demokratik prinsiplarni tabaqaqlashgan tarzda shakllantirish kabi bir qancha masalalami xal qilish uchun yagona davlat yer kengliklari ma'lum bir qism (bo'linma)larga ajratiladi.

Davlat tuzilishi shakli – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar va ushbu qismlar hamda markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardir<sup>165</sup>. Demak, davlat tuzilishida davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etilishi eng birlamchi ko'rsatkich va asosiy elementlaridan biridir.

Davlat tuzilishiga ko'ra davlatlar oddiy – unitar (*lotincha so'zdan olingan bo'lib, «yagona» degan ma'noni anglatadi*) hamda murakkab – federativ yoki konfederativ davlatlarga bo'linadi. Davlatning tuzilish shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir muhim

<sup>164</sup> Большой юридический словарь. / Под ред. А. Я. Сухарева, В. Е. Крутских – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2002. С. 125.

<sup>165</sup> Давлаг ва хукук назарияси / Ҳ. Б.Бобоев ва Ҳ.Т.Одилкориевлар умумий таҳрири остида. – Т.: Иктисодиёт ва хукук дунёси, 2000. 141-бет.

xususiyati – aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Unitar davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularda markazlashtirish turli shakllarda va turli darajada bo‘ladi. Ba‘zi unitar davlatlarda maxalliy organlar bo‘lmaydi va ma‘muriy-hududiy bo‘linmalar markaziy hokimiyat vakillari tomonidan boshqariladi. Mahalliy organlar tashkil etilgan unitar davlatlarda esa, ular markaziy hokimiyat nazorati ostida bo‘ladi. Markaziy hokimiyat mahalliy organlar ustidan nazoratning qanday turini amalga oshirishiga qarab, markazlashgan va markazlashmagan unitar davlatlarga bo‘linadi.

Bundan tashqari ba‘zi unitar davlatlarda ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarning ayrimlariga boshqalarga qaraganda imtiyozliroq huquqiy maqom berilishi mumkin. Bunday unitar davlat nisbiy ma‘muriy mustaqil muxtoriyat (avtonomiya)ga ega bo‘ladi. Muxtoriyatlar mustaqilligi markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina bo‘ladi.

Unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo‘lmaydi. Unitar davlatdagi ma‘muriy-hududiy bo‘linmalar faqat mahalliy masalalarni hal qilish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyati kuchi davlatning barcha hududiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Unitar davlatlarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masałan, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston unitar davlat hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida davlatlarning rivojlanishi “sof holda”gi unitar va federativ davlatlarning kam uchrashiga olib kelmoqda. Unitar davlatlar ayrim huquqlarini ma‘muriy-hududiy bo‘linmalariga bermoqda, federativ shakldagi davlatlarda esa ularning markaziy organlari hokimiyatlarini butun federatsiya hududida mustahkamlashga harakat qilmoqdalar. Demak “sof holda”gi unitar va federativ davlat shakllari kam uchraydi.

## **2-§. O‘zbekiston respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning o‘rtta va shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, shimoli-sharqda Qirg‘iziston, shimol va shimoliy-g‘arbda Qozog‘iston respublikalari, janubiy-g‘arbda Turkmaniston, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan, janubda qisman Afg‘oniston bilan chegaradosh.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tuzilishiga ko‘ra unitar davlat hisoblansa ham, unda federativ davlat tuzilishining ko‘rinishi ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining kirishi Asosiy Qonunimizning 70-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.

Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra nafaqat ma'muriy-hududiy, balki iqtisodiy-hududiy, harbiy-hududiy, siyosiy-hududiy va ekologik-hududiy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birini huquqiy holatiga doir masalalarni qamrab oladi. Shuning uchun ham rivojlanishning qanday bosqichida turmasin yoki davlat tuzilishining qanday shakllaridan iborat bo'lmasin har bir suveren davlatning yer kengliklarini ma'muriy-hududiy jihatdan ma'lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hamda huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlatning maydoni, aholisining soni, milliy-etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko'ra uning yer kengliklari ma'lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma'muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkonini bo'limagan tarzda amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mexanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko'zlab va ma'lum bir prinsiplarga asoslangan holda bo'linadi.

Davlat tuzilishi va boshqaruvida markazdan quyi bo'linmalarga tomon harakat yo'nalishi, ya'ni: birinchisi – markaziy boshqaruv organlari vakolatlarining anchagina qismini mahalliy hokimiyatlarga; ikkinchisi – mahalliy boshqaruv organlaridan qator vakolatlarni fuqarolarning joylardagi jamoat birlashmalariga va o'zini o'zi boshqaruv organlariga berish kerakligi ta'kidlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududining ma'lum ma'muriy bo'laklarga bo'linishi, davlatning asosiy vazifalarini amalga oshirishda zarur tadbir bo'lib hisoblanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ma'muriy-hududiy bo'lakda o'z vazifalarini shu davlat hududiy bo'laklari orqali amalga oshiradilar. Ma'muriy-hududiy bo'laklarga mos ravishda davlat apparatining tegishli bo'g'lnlari ham takomillashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

– *birinchidan*, iqtisodiy tamoyil – davlatning ma‘muriy-hududiy tuzilishi shu davlatning iqtisodiy sohadagi vazifalarini samaradorlik bilan amalga oshirishni ta‘minlashga qaratilishi lozim. Shuning uchun ham davlat apparatining mahalliy organlari uning iqtisodiy-xo‘jalik yuritish vazifasini muvaffaqiyatli ta‘minlab beradigan darajada hududiy joylashtirilgan bo‘lishi kerak;

– *ikkinchidan*, siyosiy tamoyil – davlatning hududiy tuzilishini shu davlatning siyosiy maqsadlari, davlat hokimiyatini amalga oshirishga mos ravishda tashkil etishdan iborat. Bu tamoyil, birinchidan, har bir ma‘muriy-hududiy bo‘linma davlatning, hokimiyat organlari vazifalarini bajaruvchi mustaqil qismi deb tushunilishi; ikkinchidan, har bir hududiy qism o‘z vazifasini bajarishda Yuqori davlat hokimiyyati organlariga bo‘ysunishi;

– *uchinchidan*, milliy-maishiy tamoyil – ma‘muriy-hududiy bo‘linish jarayonida aholini milliy tarkibi, o‘ziga xos milliy-maishiy xususiyatlari e‘tiborga olinadi. Mazkur tamoyilda O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy bo‘lagidagi aholining milliy tarkibiga e‘tibor beriladi, ularning milliy o‘zini o‘zi boshqarishlariga ma‘lum darajada sharoit yaratib beriladi. Bunday tadbirlar milliy qadriyatlarimizning o‘ziga xos tomonlarini inobatga olishni, madaniy, tarixiy, diniy, estetik tomonlarga e‘tibor berishni ta‘minlaydi;

– *to‘rtinchidan*, davlat apparatini aholiga yaqinlashtirish tamoyili – ma‘muriy-hududiy tuzilishda davlat ishlarini boshqarishda xalqning ishtirokini ta‘minlash va davlat apparatini aholiga yaqinlashtirishdan iborat. Bunday tadbir davlat apparatini aholiga aloqador va qulay sharoitda xizmat qildiradi. Aholining ehtiyoji va talablarini bevosita davlat apparatiga yaqinlashtiradi. Ularga konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda, davlat organlarini saylashda, o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tuzishda yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining har bir ma‘muriy-hududiy birligida davlatning mahalliy vakillik organi, hokimiyyati yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi ma‘muriy-hududiy bo‘linishi respublikaning ishlab chiqarish kuchlari ahvolini, ularning joylashish xususiyatini, transport va aloqa

vostalarining rivojlanishini, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

**Viloyat** - O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklar tizimida eng yuqori bo'g'in bo'lib, alohida o'rin tutadi. Viloyat o'z tarkibiga boshqa ma'muriy-hududiy bo'laklarning hammasini oladi va shu tariqa muhim tashkiliy vazifani bajaradi. Bu hududiy bo'linma joylarni markaz bilan bog'lab turadigan aloqachi tuzilmadir. Respublika miqyosidagi davlat organlari o'z vazifalarini, joylardagi organlar bilan aloqalarini faqat viloyat va uning davlat boshqaruv organlari - viloyat hokimiyyati orqali amalga oshiradilar. Shu bilan birga viloyat o'z tarkibiga kiruvchi quyi hokimiyat vakillik va ijroiya organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda ularni umum davlat va mahalliy manfaatlardan kelib chiqib birlashtiradi.

Viloyat hududlari o'z navbatida tumanlarga va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarga bo'linadi. Har bir viloyatda tumanlarning soni turlicha bo'ladi.

Viloyat yirik ma'muriy-hududiy bo'linma sifatida barqaror bo'lishi lozim. Uning tuzilishi, mustahkamlanishi, yiriklashishi yoki bo'linishi iqtisodiy jihatdan asoslantirilishi lozim. Mazkur ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotning barcha sohalarini kompleks rivojlanishiga olib kelishi lozim.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishida o'n ikkita viloyat va **Toshkent shahri** mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining poytaxti - Toshkent shahri.

Poytaxt shahar o'ziga munosib bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda davlat va jamoat tashkilotlarining markaziy idoralari, davlat boshlig'ining qarorgohi, chet el diplomatik vakolatxonalarini joylashadi, davlatning asosiy siyosiy va iqtisodiy tadbirlari amalga oshiriladi.

**Tuman** – O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi pog'onalari ichida o'rta bo'g'in bo'lib, qishloq joylaridagi iqtisodiy, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy hayotga bevosita rahbarlik qiladi.

O'zbekiston ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, yangi tabiiy resurslarni o'zlashtirish hamda aholi sonining o'sishi bilan ma'muriy-hududiy bo'linmalar chegarasidagi o'zgarishlar, avvalo, qishloqdagi tuman bo'g'inlari hisobiga ro'y beradi.

Ma'muriy-hududiy bo'linishning yana bir bo'g'ini bo'lib - **shaharlar** hisoblanadi. Madaniy va ilmiy markaz bo'lib hisoblangan shaharlar aholisining soni, iqtisodi va sanoatining rivojlanganligi, madaniy, ilmiy va o'quv maskanlarining mavjudligiga qarab farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida respublika, viloyat va tumanga bo'y sunuvchi shaharlar tizimi mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonuni<sup>166</sup>ga binoan Respublika (Qoraqalpog'iston Respublikasida), viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida o'ttiz ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin.

Shaharlarni viloyat bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarni respublika (Qoraqalpog'iston Respublikasida) bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida etti ming aholisi bo'lgan, sanoat korxonalari va rivojlangan infrastrukturasi mavjud shaharchalar, aholi punktlari kiritilishi mumkin.

Shaharchalarni, aholi punktlarini tuman bo'y sunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa - tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

**Shaharchalar** ham ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, uning turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stantsiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda kamida ikki ming aholisi bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin.

---

<sup>166</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1996 йил, N 9, 139 модда

Aholi punktlarini shaharchalar turkumiga kiritish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Qishloqlar** – ma'muriy-hududiy bo'linishning quyii bo'g'inlaridan biridir. Shahar hududlariga kirmaydigan, ma'lum aholi soniga ega bo'lgan qishloq markazlari va ma'lum sanoat obyektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash joylari qishloqlar bo'lishi mumkin.

**Ovullar** esa qishloqlarga qaraganda kichikroq hajmdagi yashash va turar joylardan iborat aholi punktlaridir. Ovullarda ko'p hollarda chorvador oilalar istiqomat qilib, ular asosan ko'chib yuruvchi bir necha cho'ponlar oilalaridan tashkil topadi.

### **3-§. Ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, o'zgartirish va tugatish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Mazkur konstitutsiyaviy normani amalda ro'yobga chiqarish tartibi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonuni<sup>167</sup> da mustahkamlangan. Ushbu qonun viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o'zgartirish, ma'muriy markazlarni ko'chirish hamda aholi punktlarini shahar, shaharchalari turkumiga o'tkazish tartibini belgilaydi.

Konstitutsiyaga binoan viloyatlarni tuzish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlarni tuzish va tugatish tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

---

<sup>167</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 9-сон, 139-модда; Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари туплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2011 й., 41-сон, 449-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining chegarasi faqat uning roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges qaroriga asosan Oliy Majlis tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Viloyatlar va tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli viloyatlar, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar va ovullar chegarasini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko'chirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyatlarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar, qishloqlar, ovullarning ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Jo'qorg'i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Mavjud aholi punktlari hisobining Yuritilishini hamda yangi paydo bo'lganlari ro'yxatdan o'tkazilishini tegishli ravishda Jo'qorg'i Kenges, viloyat hokimliklari ta'minlaydilar.

Demak, ma'muriy-hududiy birliklar — bu qonun asosida tuzilgan, ma'lum nomga, tegishli davlat-huquqiy maqomga ega bo'lgan va boshqa ma'muriy-hududiy birliklar bilan munosabatda bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi hududining tarkibiy qismlaridir. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklariga viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar kiradi.

### *O'zini - o'zi nazorat qilish savollari*

1. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
2. Viloyatlarni tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. Tuman va shaharlarni tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Qishloq tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman tuzish tartibi qanday?
6. Ovullar odatda qaerda tuziladi?

## **XX BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**

1-§. Qoraqalpog'istonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi.

2-§. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi.

3-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari.

4-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining konstitutsiyaviy maqomi.

5-§. Qoraqalpog'iston Respublikasida sud hokimiyati tizimi.

6-§. Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari.

### **1-§. Qoraqalpog'istonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi**

Qoraqalpoq'lar - O'rta Osiyodagi qadimgi xalqlardan biri bo'lib, O'zbekistonning Farg'ona, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlarida hamda qo'shni Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, Afg'oniston, Eronda bir necha ming kishidan iborat qoraqalpoq'lar yashab kelmoqdalar. Ushbu xalq Qoraqalpoq tilida so'zlashib, dindorlari – sunniy musulmonlar-ya'ni Islom dini.

Milodiy II asr oxiri - 4-asrlarda Orol bo'yli cho'llariga sharqdan hunlar, 6-8 asrlarda esa turkiylar kelib mahalliy qabilalar bilan qisman aralashib ketgan. Mana shu etnik negizda Orol bo'yli ilk o'rta asr xalqlari-bijanaqlar va o'g'izlarning shakllanish jarayoni kechgan, ularning muhitida 8-10 asrlarda qoraqalpoqlarning ham shakllanishi boshlangan. 10-asr boshida bijanaqlarning bir qismi G'arbg'a, Janubiy rus cho'llariga ketgan; Kiyev Rusi hududiga kelib joylashgan qabilalar rus yilnomalarida "chyornye klobuki" ("qora qalpoqlar") deb nom olgan. Volga-Ural oralig'ida qolgan bijanaklarning sharqi qismi Irtish havzasidan kelgan qipchoqlar bilan asta-sekin aralashib ketgan, ularning tilini qabul qilgan<sup>168</sup>.

Manbalarda qipchoq urug'-qabila ittifoqida "Qoraqalpoq" atamasiga mos keluvchi "qora bo'rkli" etnonimi uchraydi.

Mo'g'ullar istilosи davrida Rashididdin asarida "qavmi kulahi siyah" nomi bilan qayd etilgan. Chingizxon bosqini oqibatida Qoraqalpoqlar G'arbg'a - Volga bo'ylariga, Sariqamish, O'zbo'y va Amudaryoning quyi

---

<sup>168</sup> «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриети www.ziyouz.com кутубхонаси.

oqimi bo‘ylariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Qoraqalpoqlar yarim o‘troq hayot kechirib, sug‘orma dehqonchilikni chorvachilik (ayniqsa, qoramol) va baliq ovlash bilan qo‘sib olib borganlar. Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi 16-18-asrlar o‘rtalarida Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi bo‘ylari (Turkiston, Jankent, Chirikrabot) hamda bir qismi Orol mintaqasida (Qo‘ng‘iroq, Shohtemir sh.) yashashgan. Biroq yoyiq va Emba daryolari bo‘ylarida ham Qoraqalpoqlar istiqomat qilganliklari haqida ma‘lumotlar bor. 1743-yil qozoq xoni Abulxayrxon Qoraqalpoqlarga hujum qilgan, natijada Sirdaryolik Qoraqalpoqlarning asosiy qismi 18-asrning 2-yarmida Sirdaryodan uning g‘arbiy irmog‘i - Janadaryoga ko‘chgan 18-asr oxirida Xiva xonlari Qoraqalpoqlarni tobe etishga faol harakat qilishgan va oqibatda 1811-yil ular bo‘ysundirilib, Qoraqalpoqlarning asosiy qismi Amudaryo havzasiga ko‘chirilgan. 1873-yil. Chor Rossiyasi istilosini natijasida o‘ng qirg‘oq Amudaryodagi Qoraqalpoqlar Rossiyaga qo‘sib olingan. Bu yerda Amudaryo bo‘limi tuzilgan, Turkiston general gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. So‘l qirg‘oqda yashovchi Qoraqalpoqlar Xiva xonligi tasarrufida qolgan. O‘rta Osiyoda sho‘rolar hokimiyati o‘rnatalgach, so‘l qirg‘oq va o‘ng qirg‘oq qoraqalpoqlari Qoraqalpog‘iston Avtonom oblastini tuzgan<sup>169</sup>.

1918-1921- yillarda Turkiston avtonom respublikasining, 1920-yilda Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining tashkil topishi O‘rta Osiyo xalqlari tarixida muhim davr bo‘lib hisoblanadi.

1920-yil 28-aprelda O‘rta Osiyo KP Markaziy qo‘mitasida Muvaqqat Komissiya tuzilib, uning tarkibidagi kichik komissiyalar o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq xalqlarining davlatchilik tuzumi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha ish olib bordi. 1924-yil 10-mayda ushbu komissiya O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishini o‘tkazish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Jumladan, qoraqalpoq tumanlarini Xorazmdan ajratib chiqarish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Milliy davlat chegaralanishi natijasida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

**Birinchidan**, avvalgi Amudaryo viloyati hududlari;

---

<sup>169</sup>Уша манба

**Ikkinchidan**, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasining Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot tumanlari. Hududiy jihatdan viloyat 4 okrugga bo‘lingan: To‘rtko‘l, Chimboy, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot.

Qoraqalpoq avtonom viloyatining tuzilishi bilan qoraqalpoq xalqi markazlashgan hokimiyatga ega bo‘lgan o‘z davlatchiligini tuzdi. Shu jihatdan olganda, avtonom viloyat shakli qoraqalpoq xalqi milliy davlatchiligi rivojlanishining keyingi ko‘rinishi hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1924-yil 14-oktabrda Turkiston ASSR tarkibida Muxtor viloyat sifatida tashkil etilgan.

1925-yil 12-19-fevralda To‘rtko‘l shahrida bo‘lib o‘tgani Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi syezdi “Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Qozog‘iston ASSR tarkibida tashkil topganligi to‘g‘risida Deklaratsiya”sini qabul qildi va “qoraqalpoq xalqining milliy davlatchiligi” tashkil etilganligini qonuniy rasmiylashtirdi<sup>170</sup>.

1932-yil 5-martda Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Ijroiya qo‘mitasining Plenumida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatini bevosita RSFSR tarkibiga kiradigan avtonom respublika sifatida tashkil etish to‘g‘risidagi taklif qabul qilingan. Mazkur taklif asosida VTSIK Prezidiumi Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatini Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan.

Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati Qoraqalpog‘iston ASSR bo‘lib mustahkamlangandan keyin uning birinchi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. 1932-yilgi Asosiy qonun 6 bo‘lim, 7 bob va 100 moddadan iborat edi. Unda QQASSR oliy organlari bilan Sobiq Ittifoq va RSFSR oliy organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlangan. QQASSRning 1932-yilgi Konstitutsiyasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ish faoliyati prinsiplari va uning huquqiy maqomi ilk bor belgilandi<sup>171</sup>.

---

<sup>170</sup> Ахунджанов Л.М. Становление и развитие национальной государственности Республики Каракалпакстан. – Ташкент: “Узбекистан”, 1992. – С.55.

<sup>171</sup> Ўша асар. - Б.22.

1936-yilgi Sobiq Ittifoq Konstitutsiyasiga muvofiq Qoraqalpog'iston ASSR RSFSR tarkibidan chiqarilib, O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiritildi. Bunga asosiy sabab qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– **Birinchidan**, ushbu masala 1924-yilda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi vaqtida ham ko'rilgan bo'lib, unda O'zbekiston SSR hukumati Qoraqalpog'iston viloyatini o'z tarkibida qoldirish to'g'risida taklif kiritgan edi.

– **Ikkinchidan**, O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy qishloq xo'jalik mahsuloti paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha katta industrial baza bo'lib, bu holat paxtachilik sanoatini bir markazdan boshqarishni yengillashtirar edi.

– **Uchinchidan**, orollik o'zbeklar qadim zamonlardan buyon Amudaryoning ikki sohilida yashovchi qoraqalpoqlar bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda o'zaro yaqin munosabatlarda bo'lib kelganlar.

To'rtko'l shahrida 1936-yil 23-iyun kuni bo'lib o'tgan faollar yig'ilishida QQASSRning O'zbekistonga qo'shilishini butun xalq bir ovozdan ma'qulladi. 1937-yil 20-martida QQASSR Sovetlarining III maxsus qurultoyida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. U 1937-yilning sentabrida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya qo'mitasining Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi.

1937-yildagi Konstitutsiyaga muvofiq, qonun chiqaruvchi organ sifatida QQASSR Jo'qorg'i Soveti belgilandi. Jo'qorg'i Sovet avtonom Respublikanining hukumatini-Xalq Komissarlari Sovetini tuzishga haqli bo'ldi. Xalq Komissarlar Soveti Jo'qorg'i Sovet, sessiyalar davri oralig'ida esa uning Prezidiumi oldida hisobot bergen. Shuningdek, u Xalq Komissarlarining ish faoliyatini boshqargan va nazorat qilgan.

Qoraqalpog'iston ASSRning keyingi Konstitutsiyasi Jo'qorg'i Sovetning 1978-yili 29-mayda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari IX chaqiriq 8-sessiyasida qabul qilindi. Asosiy qonunda Qoraqalpog'iston davlat hokimiyat organlarining funksiyalari biroz kengaytirildi. Ta'kidlash joizki, bundan oldingi Konstitutsiyalar singari 1978-yilgi Konstitutsiya ham o'sha davrdagi ma'muriy buyruqbozlik va totalitar tuzumning yorqin timsoli bo'ldi.

Markazdan turib bir yoqlama rejalashtirish va kam sonli xalqlarga bo'lgan e'tiborning sustligi tufayli Qoraqalpog'iston Sobiq Ittifoq tarkibidagi taraqqiyot darajasi eng past bo'lgan o'lkalardan biriga aylandi. Ittifoq hukumatining aybi bilan qiyinchiliklar chuqurlashdi, muammolar

ustiga muammolar tug'ildi. Ekologik halokat yuzaga keldi. Yerlearning sho'rlanishi va Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar yuzaga kela boshladi.

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, Qoraqalpog'iston ASSR mustaqil O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki, asrlar mobaynida qoraqalpoq va o'zbek xalqi o'rtasida do'stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan. Orolbo'yи kengliklarida o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining ajoddlari birgalikda yashab mehnat qilgan va o'zlarining taraqqiyot yo'llarini bosib o'tganlar.

1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining VI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risida" deklaratsiya qabul qilindi. Har ikki respublika o'rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Qoraqalpoq xalqi o'z davlatchiligi taraqqiyoti tarixida ana shunday adolatli demokratik imtiyozlarga, suveren respublikaning davlat ramzlariga ega bo'ldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'istonning Davlat bayrog'i, 1993-yil 9-aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat madhiysi tasdiqlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, 1994-yil 25-dekabrda Oliy Kengash o'rniiga muqobillik asosida respublika parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tashkil etildi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ga muvofiq boshqa mintaqalarimiz qatori Qoraqalpog'istonning rivojlanishiga ham ulkan e'tibor berilmoqda. Aynan ana shunday e'tibor tufayli birgina 2018-yilning o'zida respublika poytaxti – Nukus shahrining "Qumbuz ovul" mahalla fuqarolar yig'ini Abdambetov ko'chasida 5 qavatli 10 ta arzon uy-joylar qurilishi tumanlar markazlari, shahar va qishloqlar, hatto chekka ovullargcha har tomonlama o'zgarib, rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Bunda, ayniqsa, davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan Qoraqlog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bergen

ko'rsatmaları, chiqargan farmon va qarorları muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aytish kerakki, ushbu chiqarilayotgan qaror va farmonları respublikani bir necha yillardan buyon qiyinab kelayotgan og'ir ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldan chiqarib zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy - iqtisodiy infratuzilmalar, transport kommunikatsiya tarmoqlari, yuksak malakali kadrlarga ega bo'lgan qudratli mintaqaga aylantirishni nazarda tutadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida qoraqalpoq zamini bundan 25-30 yil oldingi ekologik halokat domidagi qoloq hududdan bugungi kunda tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib, yildan yilga chiroy ochib barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotgan diyorga aylantiradi. Qoraqalpog'istonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi uikan o'zgarishlarni O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining Konstitutsiyalarida hamda qonunlarida belgilab qo'yilgan qoidalarning bevosita amaliy ifodasi sifatida e'tirof etish mumkin. Ushbu o'rinda alohida qayd etish lozimki, mustaqillik yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining rivojlanish jarayonida uning ijtimoiy hayotiga oid bo'lgan barcha masalalar qoraqalpoq xalqining manfaatlarini to'la e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi doirasida hal etib ke'inmoqda.

Mamlakatimiz xududlarini ijtimoiy infrotuzilmasini rivojlantirish, shahar va qishloqlarda zamonaviy akademik litseylar va yangi maktablar, mahalla guzarlari, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalar, qishloq joylarida namunaviy loyihibar asosida ko'rkam turar joylar barpo etish borasidagi ishlar Qoraqalpog'istonda ham izchil davom ettirilmoqda. Buning natijasida nafaqat shahar va qishloqlar, balki olis ovullarning qiyofasi ham tubdan o'zgarmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar, qurilish va obodonchilik ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ijobiy natijalarga olib keldiki. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil yanvar oyidagi tashrifi chog'ida berilgan topshiriqlari ijrosi doirasida Nukus xalqaro aeroportida 80 milliard so'mlik rekonstruksiya ishlari olib borilgan. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 28-fevraldagagi "2017-2018-yillar davrida Mo'ynoq tumanini iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, to'qimachilik, farmatseftika va elektrotexnika mahsulotlari, tomchilab sug'orish uskunalari, plastmassa quvurlar ishlab chiqarish

yo‘lga qo‘yildi, turizm va baliqchilikni rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar ishga solindi.

Ko‘p o‘tmay 2018-yil 16-oktabr kuni islom taraqqiyot banki va sho‘rlanish sharoitida biodehqonchilik xalqaro markazining ilmiy texnik ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil etildi. Prezidentimizning 2017-yil yanvar oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida Qonliko‘l tumanida yirik to‘qimachilik korxonasi tashkil etish loyihasi taqdim etilgan edi. Korxonani barpo etish yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda tajribali bo‘lgan “Kantex invest” MCHJ tomonidan amalga oshirilib, to‘qimachilik korxonasi qad rostladi.

Orolbo‘yi aholisiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, mazkur dastur asosida 36 ta obyektda 48 milliard so‘mlikdan ziyod ish bajarilgan, 2.8 million dollarlik zamonaviy tibbiy asbob uskunalar, 72 ta zamonaviy tibbiyot avtotransport vositalari keltirilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2018-yil 15-16-noyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida “Xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lidagi islohotlar izchil davom ettiriladi” deb nomlangan nutqida “Mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishni o‘z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo‘yan ekanmiz, buni amalga oshirish uchun bizga, eng avvalo, yangi avlod kadrlari kerak. Ana shunday yuksak salohiyatlari kadrlarni tarbiyalash maqsadida yurtimizning har bir hududida bittadan yangi tipdagisi maktablarni tashkil etishni rejalashtirganimiz”<sup>172</sup>, deb alohida ta‘kidlab o‘tdi.

Davlatimiz rahbari bu ishni Qoraqalpog‘istondan, Nukus shahridan boshlashni taklif qildi.

Kelasi yili Qoraqalpog‘istonda 2 ming 400 o‘rinli 7 ta mакtab qurilishi, maktabgacha ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlaridagi ishlar izchil davom ettirilishi qayd etildi<sup>173</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan amalga oshirilgan ishlar bиргина 2017-2018-yillardagi davlat dasturiga muvofiq bajarilgan. Vaholanki

<sup>172</sup> Президентимиз III.Мирзиёевнинг 2018 йил 15-16 ноябрь кунлари Коракалпогистон Республикасига ташрифи чоғидаги нутки “Халқимиз фаровонлигини юксалтириш йўлидаги ислоҳотлар изчил давом эттирилади”. Халқ сўзи газетаси 17.11.2018 йил № 238 (7196)

<sup>173</sup> Уша маъна.

mustaqillikka erishganimizdan buyon hozirgi kungacha qilingan ijobiy ishlarni sanab adog‘iga yetmaydi kishi.

Bugungi kunda respublikaning ma‘muriy - hududiy tuzilmasi 15 ta tuman va 2 ta shahardan iborat. Bular Amudaryo, Beruniy, Bo‘zatov, Qorao‘zak, Kegeyli, Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Mo‘ynoq, Nukus, Taxtako‘pir, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a tumanlari va Nukus hamda Taxiatosh shaharlaridir. Mazkur hududlarda qoraqalpoqlar bilan birga o‘zbek, rus, qozoq, turkman, tatar, koreys, ukrain, ozarbayjon kabi 10dan ortiq millat vakillari bir oiladek istiqomat qilmoqdalar. Ularning barchasini vatanga sadoqat, aziz tuproqqa muhabbat, ezgu qadriyatlarimizga hurmat, birgalikda yorqin kelajakni barpo qilishga bo‘lgan ishtiyoiq va ishonch birlashtirib turadi.

Eng muhimi, qoraqalpoq xalqi asrlar davomida orzu qilib, intilib kelgan ezgu maqsadiga yetdi - ozod va erkin, tinch-osuda hayotga erishdi, o‘z tarixi, madaniy merosi, milliy an‘ana va qadriyatlarni tiklash, rivojlantirish, o‘zligini anglash imkoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekistonning istiqboli – Qoraqalpog‘istonning istiqboli, Qoraqalpog‘istonning istiqboli O‘zbekistonning istiqboli desak xato bo‘lmaydi”<sup>174</sup>, degan so‘zlari Qoraqalpog‘iston xalqini mustaqillikni mustahkamlash hamda tabiiy qiyinchiliklarga qaramasdan rivojlanish yo‘lidan yanada ildam harakat qilishga, buyuk kelajak yo‘lida hormaytolmay mehnat qilishga undaydi.

## 2-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi

Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston munosabatlarining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 70-moddasiga ko‘ra: Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi<sup>175</sup>.

Qoraqalpog‘iston suverenitetining poydevorini yaratish borasidagi dastlabki huquqiy asos sifatida 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ni

<sup>174</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаронон ҳаёт – пировард максадимиз. Т.8 – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. – Б.103.

<sup>175</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. –75 б.

ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur Deklaratsiyada Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika ekanligi mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi”da ham uning suveren respublika sifatidagi maqomi o‘z ifodasini topdi. Mazkur Deklaratsiyaning 9-bandida Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti uning Konstitutsiyasi bilan ta‘minlanadi, O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi manfaatlarini uning Asosiy Qonuniga ko‘ra va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq himoya qiladi, deb qayd etildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi huquqiy maqomini mustahkamlashda 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy Qonuni muhim o‘rin tutadi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududiy yaxlitligi va suvereniteti yana bir bor tan olindi. Uning 17-moddasida: O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e‘tirop etadi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlар teng huquqlilik asosida, ular o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi, deb belgilab qo‘yildi<sup>176</sup>.

Ma‘lumki, davlatlarning tuzilish shakliga ko‘ra: oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ) ko‘rinishlari mavjud. Unitar tuzilishdagi davlat yagona bo‘lib, uning tarkibiy qismlari suverenitet belgilariga ega bo‘lmagan ma‘muriy-hududiy birliklardan iborat bo‘ladi. O‘z navbatida, unitar davlatga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- **birinchidan**, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati organlari yagona tizimining mavjudligi;
- **ikkinchidan**, yagona konstitutsiya, qonunchilik, soliq, moliya tizimlarining mavjudligi;
- **uchinchidan**, yagona fuqarolikning joriy etilganligi;

---

<sup>176</sup>Каранг Ўзбекистон Республикаси Олий Конгасининг Ахборотномаси. 1991 – №11 246-модда.

– **to‘rtinchidan**, tashqi xalqaro munosabatlarning (xususan, siyosiy munosabatlar) markaziy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining Qoraqalpog‘iston Respublikasini o‘z tarkibiga olgan unitar davlat sifatidagi mohiyatini e‘tirof etish bilan birga, mamlakatimiz davlat tuzilishida federalizmning ba‘zi bir xususiyatlari ham mavjud ekanligini ta‘kidlash joiz. Mazkur xususiyatlardan qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– **birinchidan**, boshqa ma‘muriy-hududiy birliklardan farqli o‘laroq, O‘zbekiston tarkibida Qoraqalpog‘istonning suveren respublika sifatidagi maqomini mustahkamlab qo‘yilganligi;

– **ikkinchidan**, O‘zbekiston qonunchiligi tizimida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunchilik tizimi, xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining mavjudligi;

– **uchinchidan**, Qoraqalpog‘istonda oliv davlat vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Jo‘qorg‘i Kenges, Qoraqalpog‘iston Respublikasining oliv ijro etuvchi boshqaruvchi organi Vazirlar Kengashi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi sud hokimiyatining faoliyat ko‘rsatishi;

– **to‘rtinchidan**, Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralari uning rozilgisiz o‘zgartirilishi mumkin emasligi hamda o‘z ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal etishi;

– **beshinchidan**, Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega ekanligi;

– **oltinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuziladigan shartnoma hamda bitimlar bilan tartibga solinishi hamda O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etilishi;

– **yettinchidan**, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzları – Bayrog‘i, Gerbi va Madhiyasiga ega ekanligi;

– **sakkizinchidan**, Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘zbek tili bilan bir qatorda qoraqalpoq tilining davlat tili sifatida e‘tirof etilganligi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyäsining 71-moddasiga muvofiq, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo‘lishi mumkin emas”<sup>177</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992-yil 8-dekabrda mustaqil davlatning Konstitutsiyasini qabul qildi. Ana shunday muhim ijtimoiy, siyosiy va buyuk tarixiy voqeadan so‘ng Qoraqalpog‘istonda ham tamomila yangi mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan hamda u O‘zbekiston tarkibida suveren respublika sifatidagi maqomini belgilab berishga qaratilgan yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishga kirishildi.

Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 1993-yilning fevral oyida bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisida Asosiy Qonunning loyihasi ko‘rib chiqildi va uning qarori bilan loyiha Oliy Kengashning Prezidiumi muhokamasiga havola etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining Prezidiumi Asosiy Qonun loyihasini ko‘rib chiqib, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi to‘g‘risida” Qaror qabul qildi.

Konstitutsiya loyihasi 1993-yil 7-martda respublika gazetalarida chop etildi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasida fuqarolar, turli jamoat birlashmalari hamda davlat tashkilotlari faol qatnashdilar. Jamoatchilik tomonidan kelib tushgan taklif va tavsiyalar asosida Konstitutsiya loyihasi yanada takomillashtirilib, u 1993-yili 7-aprelda o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida chop etiladigan bosma matbuot nashrlarida ikkinchi marotaba umumxalq muhokamasiga quyildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 9-aprelda bo‘lib o‘tgan XII chaqiriq 12 sessiyasida deputatlar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiya loyihasining har bir moddasi birma-bir chuqur muhokama qilinib, qabul qilindi. Amaldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob va 120 moddadan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, ya‘ni 9-aprelni umumxalq bayrami – Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e‘lon qildi.

<sup>177</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: “Узбекистон”, 2018. –75 б.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat tuzilishining asosiy prinsiplari, davlat hokimiyatining tizimi va davlat, jamiyat, shaxs munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur Konstitutsiya o'zida jahon konstitutsiyaviy tajribasini, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va tartibga solishning ilg'or amaliyotini, jamiyatning demokratik asoslarini mujassamlashtirdi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy tamoyil belgilab qo'yildi<sup>178</sup>. Ushbu tamoyil Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, 15-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining butun hududida (Qoraqalpog'iston esa uning tarkibiy qismidir) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi belgilab qo'yilgan. Mazkur moddadagi normalar shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasasi qoidalari bilan hamohangdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligidisiz o'zgartirilishi mumkin emas<sup>179</sup>. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

---

<sup>178</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018 –75 б.

<sup>179</sup> Уша манба

Davlat hokimiyatining ta'siri ma'lum hududga va tegishlicha ushbu hududda yashovchi aholiga joriy qilinishi har qanday davlatning muhim belgisidir. Davlatning o'z hududida Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi suverenitet belgilardan biri hisoblanadi. Qoraqalpog'istonning o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal etishi bilan bog'liq suveren huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida ham Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qilish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimini belgilashi bilan bog'liq norma o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari daxlsiz ekanligi hamda uning o'zgartirilishi va bo'linishi mumkin emasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobi Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, uning 67-moddasida "Tumanlar, shaharlar tashkil qilish va ularni tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilgan<sup>180</sup>. Agar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hududlarini ajratib turadigan chegaralarni o'zgartirish zaruriyatni tug'ilsa, bunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligini olish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiylar referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Mazkur tamoyil Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1- va 9-moddalarida hamda referendumga oid O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlarida rivojlantirilgan.

Referendum o'tkazish haqidagi qarorni Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi qabul qiladi, ovoz berish sanasini ham uning o'zi belgilaydi. Referendumda qabul qilingan qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida oliv yuridik kuchga ega va faqat referendum yo'li bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Mazkur konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog'iston xalqining o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining

<sup>180</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: “Узбекистон”, 2018. –75 б.

suverenitetini O‘zbekiston tan olganligini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu qoida xalqaro huquq normalariiga ham mos keladi. Xususan, 1966-yil 16-dekabrdagi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro pakt”da barcha xalqlar o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga egadirlar, deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston tarkibidan chiqish huquqini amalga oshirish mexanizmi mustahkamlangan bo‘lib, bunda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berishi (umumxalq referendumi) bilan hal etilishi lozimligi to‘g‘risidagi demokratik talab o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi<sup>181</sup>.

Ushbu moddada Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi huquqiy maqomi ikki tomon o‘rtasidagi munosabatlarda davlat suverenitetini o‘zaro hurmat qilish va tan olish zamirida, qonunlar ustuvorligiga tayanib va unga rioya etib ish yuritish asosida amalga oshirilishi huquqiy jihatdan mustaqamlangan.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi munosabatlarni shartnomalar va bitimlar ko‘rinishida huquqiy mustahkamlab qo‘yish, o‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining, boshqa ma‘muriy-hududiylardan farqli o‘larоq, alohida suveren respublika maqomiga ega ekanligini anglatadi.

Ta‘kidlash joizki, har qanday huquq subyektlarining o‘zaro munosabatlarida muayyan masalalar yuzasidan nizolar kelib chiqishi mumkin. Bunday holatlarda yuzaga keladigan nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida, ya‘ni nizoli masalaning mohiyatini jiddiy va chuqur o‘rganish hamda buning natijasida har ikkala tomonning manfaatini e‘tiborga olgan holda murosali qarorga kelinadi. O‘zbekiston bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni

---

<sup>181</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси –Тошкент: “Узбекистон”, 2018. –75 б.

tashkiliy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy Vakolatxonasi faoliyat yuritadi. Ushbu vakolatxona Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari va boshqa tashkilotlari bilan xo'jalik hamda madaniy qurilish masalalari bo'yicha kundalik aloqalarini amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

### **3-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari**

Ma'lumki, vakillik organlari faoliyatining qonuniyligi ularning o'z vakolatlarini bevosita xalqdan olganligi bilan belgilanadi. Bu davlat hokimiyati boshqa tarmoqlarini vakillik organlari tomonidan tashkil qilishning qonuniyligi uchun zamin yaratadi.

1993-yil 9-aprelda qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi huquqiy davlat tavsifiga mos keladigan va hokimiyatning taqsimlanish prinsipi talablariga javob beradigan davlat hokimiyati vakillik organlarining yangi tizimini belgiladi<sup>182</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy hokimiyat organlarining avvalgi uch pog'onali tizimi o'rniga (qishloq, ovul, posyolka, tuman, shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Soveti) ikki pog'onali vakillik organlari tizimi (tuman-shahar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi)ni o'rnatdi. Shuningdek, ba'zi shaharlarda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda) vakillik organlari tuzilishi nazarda tutilmadi. Vakillik organlarini tashkil etish va ularning faoliyatida fuqarolarining keng ishtiroki, qonuniylik, millatlarining tengligi, kollegiallik, oshkorlik ko'pchilik e'tirof etgan umumiy prinsiplarga tayanilgan.

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlash prinsipi Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu prinsip mamlakatning muayyan tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joriy etilsagina, hokimiyat organlarining tengligini va muvozanatini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, ushbu tamoyil

---

<sup>182</sup>Каранг. Коракалпог'истон Республикаси Конституцияси –Нукус: “Коракалпог'истон”, 2006. – 124 б.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunda ham o‘z ifodasini topgan<sup>183</sup>.

Hokimiyatning taqsimlanish prinsipi faqat turli hokimiyat organlari vakolatlarining aniq bo‘linishigina emas, hatto bir turdag'i hokimiyat organlarining turli pog‘onalari vakolatlarining ham aniq chegaralanishini maqsad qilib qo‘yadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi - Oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Jo‘qorg‘i Kenges Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarini qabul qiluvchi, unga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega bo‘lgan yagona davlat organidir.

Jo‘qorg‘i Kenges tub mohiyati bilan parlament organidir. U vakillik tavsifiga ega. Bu avvalo uning tashkil topishida va bunda Qoraqalpog‘iston fuqarolarining bevosita ishtirok etishida yaqqol ko‘rinadi. U o‘zida vakillik va bevosita demokratiya xususiyatlarini mujassamlashtirgan. Uning tarkibida ish olib boruvchi deputatlar fuqarolarning vakilidir, ular o‘z vakolatini saylovchilardan oladi, ular nomidan ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida Jo‘qorg‘i Kenges orqali xalq hokimiyatchiliqi mustahkamlab qo‘yilgan. Respublika parlamenti - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deb ataladi. Jo‘qorg‘i Kenges respublikadagi butun davlat apparatining yagona va doimiy asosi bo‘lib, u davlatni boshqa organlarini saylaydi yoki tuzishda ishtirok etadi, ular faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi davlat hokimiyatining oliy organi sifatida Qoraqalpog‘iston ixtiyoriga berilgan barcha masalalarni hal etish huquqiga ega. Jo‘qorg‘i Kenges vakolat doirasiga respublika Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartishlar, qo‘srimchalar kiritish; qonunlar qabul qilish, unga qo‘srimchalar, o‘zgartishlar kiritish; ma‘muriy-hududi tuzilish masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish; iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik dasturlarini qabul qilish; davlat hokimiyati organlariga saylovlarni tashkil etish; davlat mukofotlarini belgilash va Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

---

<sup>183</sup>Коракалпог'истон Республикасининг “Махаллий давлат хокимияти тұғрисида”ги Конуни. – Нукус: “Коракалпог'истон”, 2011. – 44 б.

Jo‘qorg‘i Kengesning faoliyati masalalarini jamoa bo‘lib, erkin, amaliy muhokama qilish va hal etish, oshkoraliq, uning tomonidan tuzilgan davlat organlarini hisob berib turishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning keng ko‘lamda faol qatnashishi, jamoatchilik fikrini hisobga olib borish asosida amalga oshiradi.

Jo‘qorg‘i Kengesning huquqiy maqomi respublika Konstitutsiyasi, Jo‘qorg‘i Kengesning ish tartibi to‘g‘risidagi qonun, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risidagi qonunlarda belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi ishining tashkiliy shakli uning sessiyasi hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi ishi faoliyatining bu shakliga oid masalalar “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risida”gi Qonunida mustahkamlangan. Shuningdek, Qoraqapog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasida Jo‘qorg‘i Kenges yig‘ilishi, jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanishi haqidagi qoida mavjud. Konstitutsiyada Jo‘qorg‘i Kenges yig‘ilishlarida kimlar ishtirok eta olishi (73-modda), birinchi yig‘ilishning qachon, kim tomonidan chaqirilishi (74-modda), yig‘ilishga kim raislik qilishi (81-modda) masalalari belgilab qo‘ylgan.

Jo‘qorg‘i Kengesning faoliyati faqatgina deputatlarning umumi yig‘ilishi, yalpi majlisidan iborat bo‘lmay, u o‘z ichiga boshqa bir qator tadbirlarni ham oladi. Jo‘qorg‘i Kenges sessiyalari bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Uning saylovdan keyingi birinchi sessiyasini Markaziy saylov komissiyasi chaqiradi, qolgan sessiyalar Jo‘qorg‘i Kenges Raisi tomonidan chaqiriladi. Sessiyada jami deputatlarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi (7-modda).

Konstitutsiyani qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, qonun va qarorlar qabul qilish faqat Jo‘qorg‘i Kenges majlislarda amalga oshiriladi. Jo‘qorgi Kengesning navbatdan tashqari sessiyasi Jo‘qorg‘i Kenges Raisi tashabbusi bilan yoki Jo‘qorgi Kenges deputatlarining kamida uchdan bir qismi taklifi bilan chaqiriladi (8-modda). Jo‘qorg‘i Kengesning ishini tashkil qilish va uning faoliyatiga yordam berish uchun turli lavozimlar va organlar tuzish nazarda tutilgan. Bu organlarni rahbar va yordamchi organlarga bo‘lish mumkin.

Rahbar organlarga Jo‘qorg‘i Kenges Raisi, uning o‘rinbosari kirsa, Jo‘qorg‘i Kenges qo‘mitalari va komissiyalari, Jo‘qorg‘i Kenges kotibiyati yordamchi organlar hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Jo‘qorg‘i Kenges ishiga rahbarlik qilish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasining

Jo‘qorg‘i Kengesi deputatlarining orasidan 5 yil muddatga, yashirin ovoz berish yo‘li bilan Jo‘qorg‘i Kenges Raisi va uning o‘rribosari saylanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kenges Raisi Qoraqalpogiston Respublikasining eng yuqori lavozimli mansabdir shaxsidir.

Jo‘qorgi Kenges Raisi va uning o‘rribosari faqat Jo‘qorg‘i Kenges oldida hisobot beradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining qo‘mitalari va komissiyalari qonun loyihalarini tayyorlash, Jo‘qorgi Kengesda ko‘riladigan masalalarini dastlab muhokama qilish, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari va Jo‘qorg‘i Kengesning boshqa hujjatlarini amalga oshirishga yordam berish, ularning ijrosini nazorat qilib turish uchun deputatlar tarkibidan tuziladi. Ushbu masala Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida aks ettirilgan. Qo‘mita va komissiyalarning faoliyati haqida 1998-yilda alohida “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi qo‘mitalari va komissiyalari to‘g‘risida” (yangi tahrirda) Qonun qabul qilingan.

Qo‘mita va komissiyalar Jo‘qorg‘i Kengesning vakolat muddatiga tuziladi. Jo‘qorg‘i Kenges deputati qida bo‘yicha faqat bitta qo‘mita yoki komissiyaga a‘zo bo‘ladi. Qo‘mita va komissiyalarning ro‘yxati va a‘zolarining soni Qoraqalpogiston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan tasdiqlanadi. Zarur hollarda Jo‘qorg‘i Kenges qo‘mitalar va komissiyalar tuzishi, ilgari tuzilganlarini tugatishi yoki qayta tashkil qilishi mumkin.

Jo‘qorg‘i Kenges yig‘ilishida qo‘mita va komissiya raislari Jo‘qorgi Kenges Raisi taqdimiga asosan saylangach, ularning tavsiyasi bilan a‘zolari saylanadi. Har bir qo‘mita va komissiya raisi o‘rribosarları va kotiblari Jo‘qorg‘i Kenges Raisi tomonidan tayinlanadi. Ko‘mita va komissiyalarining faoliyati Jo‘qorg‘i Kenges Raisi tomonidan muvofiqlashtirilib turiladi.

Qo‘mita va komissiyalar o‘z faoliyatini majlislar orqali olib boradi va ko‘rilgan masalalar yuzasidan tavsiyalar qabul qiladi.

Jo‘qorg‘i Kengesning deputati faqat bir qo‘mitaning yoki komissiyaning a‘zosi bo‘lib saylanishi mumkin. Ularning tarkibiga Juqorg‘i Kengesning Raisi va uning o‘rribosari saylanishi mumkin emas. Qo‘mita va komissiyaning barcha a‘zolari teng vakolatlardan foydalanadilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga asosan, Jo‘qorg‘i Kenges zarur bo‘lgan taqdirda doimiy hamda muvaqqat ishlovchi deputatlik, taftish va boshqa komissiyalarini

tuzadi<sup>184</sup>. Bu komissiyalar tegishli vazifasini bajarib bo‘lgach, o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Jo‘qorg‘i Kenges o‘z ish faoliyatini mustaqil belgilaydi. Ichki tarkibiy qismini, ya‘ni faoliyatiga yordam beruvchi organlarni mustaqil tashkil etadi.

Jo‘qorg‘i Kenges mustaqil vakolatlari asosida quyidagilarni hal qiladi:

- ish tartibi (reglamenti)ni qabul qilish;

- sessiyalarga to‘planish;

- Jo‘qorg‘i Kengesga saylovning to‘g‘ri o‘tkazilganligini tekshirish va o‘z organlarini tuzish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi reglamentida Jo‘qorg‘i Kengesning ish tartibi belgilab qo‘yiladi. Jo‘qorg‘i Kenges ishini tashkil qilishda uning tarkibida tuziladigan kotibiyat alohida ahamiyatga ega. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kenges faoliyatida deputatlar guruuhlarining ahamiyati muhim hisoblanadi. Turli masalalar yuzasidan fikrlar berish maqsadida hududiy guruuhlar ham tashkil qilinadi. Hududiy guruuhlardan tashqari, Jo‘qorg‘i Kenges deputatlari kasb-kori, tarmoqlar bo‘yicha va boshqalarga ko‘ra ham guruuhlar tuzilishi mumkin. Deputatlar guruhi ro‘yxatga olingandan so‘ng o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Deputatlar guruhi Jo‘qorg‘i Kengesning Raisi, shuningdek, Jo‘qorg‘i Kenges qo‘mita va komissiyalari bilan yaqin aloqada ishlaydi. Deputatlar guruuhlarining tuzilish tartibi va faoliyati Jo‘qorg‘i Kenges reglamentining 38, 39-moddalarida o‘z aksini topgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining vakolatlari, uning oliy davlat vakillik organi ekanligi bilan belgilanadi. Jo‘qorg‘i Kenges eng oliy vakillik organi bo‘lgani uchun uning zimmasiga qonunchilikdan boshqa vazifalar ham yuklanadi. Jo‘qorg‘i Kenges boshqa davlat organlarini o‘ziga bo‘ysundirishni ko‘zlamagan va ularning vakolatini egallashga urinmagan holda, davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatini nazorat qilishda va boshqa masalalarda ishtirok etadi. Jo‘qorg‘i Kengesning vakolatlari Konstitutsiyaning 70-moddasida mustahkamlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasiga binoan Qoraqalpog‘iston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi ish olib borishi mumkin<sup>185</sup>. Jo‘qorg‘i Kengesning

<sup>184</sup>Коракалпог'истон Республикаси Конституцияси. – Нукус: "Коракалпог'истон", 2006. –Б.65.

<sup>185</sup>Коракалпог'истон Республикаси Конституцияси. – Нукус: "Коракалпог'истон", 2006. –Б.52.

Konstitutsiyada belgilangan vakolatlari mazmuni, tavsifi, maqsadi, nimaga qaratilganligiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lish mumkin, bular:

- qonunchilik sohasidagi vakolatlar;
- Jo'qorg'i Kengesni va o'z organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar;
- ma'muriy-hududiy tuzilishni belgilash va boshqa davlat organlarini tuzish (tashkil qilish) sohasidagi vakolatlar;
- Jo'qorg'i Kengesning nazorat vazifasi;
- fuqarolar manfaati bilan bog'liq vakolatlar.

Jo'qorg'i Kengesning asosiy faoliyati qonun chiqarishdir. Jo'qorg'i Kengesning qonunchilik sohasidagi faoliyati deganda, uning konstitutsiyaviy qonunchilik va oddiy qonunchilik faoliyatini farqlash kerak. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish va ularga o'zgartirshlar kiritish uchun alohida, oddiy qonun qabul qilish va unga o'zgartirish kiritishga alohida tartib belgilangan.

Oddiy qonunlar Konstitutsyaning 76-moddasiga asosan oddiy ko'pchilik ovoz bilan, Konstitutsiya esa 118-moddaga asosan deputatlarning uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi va o'zgartiriladi. Konstitutsiyaviy qonunlar ham shu tartibda qabul qilinadi va o'zgartiriladi.

Jo'qorg'i Kengesga qonunchilik tashabbusi huquqiga, Konstitutsyaning 75-moddasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy Sud, Jinoyat ishlari bo'yicha Oliy Sud, Iqtisodiy Sudi, Respublika Prokurori egadir<sup>186</sup>.

Jo'qorg'i Kengesda qarab chiqilishi lozim bo'lган qonun loyihalari yoki qonun chiqarish haqidagi takliflar Jo'qorg'i Kenges Raisiga taqdim etiladi va u Jo'qorg'i Kenges kotibiyatida ro'yxatga olinadi. Qonunlar yig'ilishlarda bir necha o'qish yo'li bilan qabul qilinadi. Qonun loyihalari Jo'qorg'i Kenges qarori bilan umumxalq ovozi (referendum)ga ham qo'yilib, qabul qilinishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qonunchilik faoliyatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarini sharhlashni ham qo'shish mumkin, ular ham majburiy xarakterga ega bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hujjatlari, ular imzolangan kundan keyin kechi bilan bir haftalik muddatda e'lon qilinishi

<sup>186</sup>Уша манба. -Б.64.

kerak. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Reglamentida ham bu vakolatlar qayd etilgan. Agar qonunning o'zida boshqa holat belgilanmagan bo'lsa, u e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Jo'qorg'i Kengesning o'z organlarini tuzish sohasidagi vakolatlari. Jo'qorg'i Kenges Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi deputatlaridan tashkil topadi. Jo'qorgi Kengesning konstitutsiyaviy vakolatlaridan biri bu - Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining saylovini tayinlash va saylov komissiyasining tarkibini tasdiqlashdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga saylov Jo'qorg'i Kenges tomonidan, Jo'qorg'i Kenges vakolati tugashidan kamida 3 oy ilgari tayinlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorgi Kengesi o'z faoliyatini samarali olib borish uchun Jo'qorg'i Kenges deputatlaridan iborat rahbar va yordamchi organlarni tuzadi. Majlislar davrida majlis stenogrammasi va bayonlarini yuritish, so'zga chiqish istagini bildirganlarni yozib borish, deputat so'rovlari, savollar, ma'lumotlar, xabarlar, arizalar, takliflar hamda deputatlarning boshqa materiallarini hujjat sifatida ro'yxatga olish, fuqarolardan Jo'qorg'i Kenges nomiga kelayotgan murojaatlar va boshqa hujjatlar bilan ishlashni tashkil qilish maqsadida Jo'qorg'i Kenges yig'ilishlarining kotibiyyati tuziladi. Bundan tashqari, Jo'qorg'i Kengesning o'z kotibiyyati ham mavjud.

Jo'qorg'i Kengesning Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini belgilash va boshqa davlat organlarini tuzish sohasidagi vakolatlari. 1996-yil 14-dekabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga doir masalalarni hal qilish tartibi to'g'risida"gi Qonuniga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi vakolatiga tumanlar, shaharlar, ovullar, qishloqlar, posyoqlkalar tuzish va ularni tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi davlat hokimiyatining oliv organi bo'lgani uchun, u ijro hokimiysi va sud hokimiysi organlarining ba'zi bo'g'inlarini tuzishda ham ishtirok etadi. Jo'qorg'i Kenges avvalo qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlar tizimi va vakolatlarini belgilaydi. Masalan: sudyalarni saylash, Vazirlar Kengashi tarkibini shakllantirish va boshqalar.

Jo'qorg'i Kengesniig nazorat faoliyati. Amaldagi Konstitutsiyada Jo'qorg'i Kengesning nazorat qilish faoliyati to'g'ridan-to'g'ri belgilanmasada, uning ayrim vakolatlari nazorat qilish funksiyasini keltirib chiqaradi. Xususan, Jo'qorg'i Kenges qonunlar va boshqa hujjatlarning ijrosini nazorat qilib turish uchun qo'mita va komissiyalar tuzadi. Ular esa

Jo‘qorg‘i Kenges oldida hisobot beradilar. Shu orqali Jo‘qorg‘i Kengesning nazorat vazifasi amalga oshiriladi. Jo‘korg‘i Kenges shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining bajarilishini nazorat qiladi. Jo‘qorg‘i Kengesning nazorat faoliyati deputat so‘rovi orqali ham amalga oshiriladi. Deputat so‘rovi davlat organlari idoralari, jamoat tashkilotlari va mansabdar shaxslar faoliyati ustidan nazorat qilish vositasidir.

#### **4-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining konstitutsiyaviy maqomi**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi respublikaning ijro hokimiyati organlari tizimini mustahkamlagan. Unga asosan ijro hokimiyati organlarining bir necha turi mavjud bo‘lib, ular shartli ravishda alohida guruhlarga bo‘llingan:

- **birinchidan**, ijro hokimiyatining oliv (markaziy) va mahalliy (quyi) organlari. Respublika miqyosida ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi oliv organ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashidir. Mahalliy ijro hokimiyati organlari, tuman, shaharlar hokimliklari hisoblanadi;
- **ikkinchidan**, umumiy vakolatli ijro organlariga Vazirlar Kengashi, hokimlar kiradi. Maxsus vakolatli organlar vazirliklar, qo‘mitalar, mahalliy ijro hokimiyati bo‘lim va boshqarmalaridir;
- **uchinchidan**, kollegiallik asosida va yakkaboshchilik asosida ish Yurituvchi organlar. Birinchisiga Qorakalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, ikkinchisiga esa hokimlar, vazirliklar, qo‘mitalar, mahalliy ijro hokimiyati bo‘lim va boshqarmalari rahbarlari kiradi;
- **to‘rtinchidan**, tayinlanadigan organlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, hokimlar, vazirlar, ko‘mitalar, mahalliy ijro hokimiyati bo‘lim va boshqarmalari boshliqlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huquqiy maqomining asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining XX-bob 86-91-moddalarida hamda Vazirlar Kengashi to‘g‘risidagi qonunlarda mustahkamlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Respublikaning Jo‘qorg‘i Kengesi oldida ma‘suldir va unga hisobot berib turadi.

O‘zbekiston bilan Qoraqalpog‘iston Respublikalari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1999-yil 15-yanvardagi qaroriga binoan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy Vakolatxonasi to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilindi. Ushbu Nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy Vakolatxonasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari va boshqa tashkilotlari bilan xo‘jalik hamda madaniy aloqalarni amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yo‘naltirib turadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi-hukumat boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi. Vazirlar Kengashi Raisi Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi Raisining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan qilingan taklifiga binoan Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan bo‘shatiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi vakolatlari, uning ish tartibi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining boshqa davlat organlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining munosabatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Vazirlar Kengashi tarkibiga: Vazirlar Kengashi Raisi, uning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirlari, davlat qo‘mitalarining raislari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda boshqa organlarning rahbarlari kiradi.

Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari, Vazirlar Kengashi a‘zolari Vazirlar Kengashi Raisining taklifiga binoan Jo‘qorg‘i Kenges Raisi tomonidan keyinchalik Jo‘qorg‘i Kengesning tasdiqlashi bilan lavozimga

tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaning 87-moddasiga asosan Vazirlar Kengashini tuzish tayinlash va tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi, ya'ni Jo'qorg'i Kenges Raisi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinnbosarini, vazirlarni, qo'mita raislarini va boshqalarni prezidium qarori bilan lavozimga tayinlaydi. So'ng ular Jo'qorg'i Kengesda tasdiqlanadi. Vazirlar Kengashi - Qoraqalpog'iston Respublikasining hukumati – iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijro etilishga rahbarlikni ta'minlovchi Qoraqalpog'iston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Kengashi vakolatlari. 1993-yil 6-avgustda Vazirlar Kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolatlari doirasini aniqlovchi "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. 1998-yil 29-yanvarda mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun talablariga binoan Vazirlar Kengashi:

- iqtisodiy, ijtimoiy – madaniy jarayonlarni boshqaradi;
- mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, bozor iqtisodiyotining huquqiy qurilishini ruyobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini barpo etishga va mustahkamlashga ko'maklashadi;
- Respublikada pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'radi, Respublika byudjetini, shuningdek, Respublika iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollarini va eng muhim dasturlarni ishlab chiqishni va ularning ijrosini tashkil etadi, boshqaru idoralari tizimini takomillashtiradi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va xo'jalik tuzilmalarini tashkil qilish va tugatish to'g'risida Respublika Jo'qorg'i Kengesiga takliflar beradi;
- fan va texnikani rivojlantirish chora-tadbirlarini, shuningdek, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish bo'yicha dasturlarni amalga oshiradi;

- fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish huquqlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga yordamlashadi;

- Respublika davlat xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining davlat chegaralarini qo'riqlash, davlat manfaatini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish, Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlariga muvofiq hukumatlararo shartnomalar va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora tadbirlarini ko'radi.

Vazirlar Kengashi vazirlarning o'rinnbosarlarini, davlat qo'mitalari raislarining o'rinnbosarlarini, bosh boshqarmalar hamda davlat boshqaruvi boshqa idoralari rahbarlari va ularning o'rinnbosarlarini lavozimiga tayinlaydi, lavozimididan ozod etadi. Xo'jalik boshqaruvi tuzilmalari rahbarlarini va vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hay'atlari a'zolarini tasdiqlaydi. Shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruving boshqa tuzilmalari haqidagi nizomlarni tasdiqlaydi. Yuqorida nomi tilga olingan davlat va xo'jalik boshqaruvi tuzilmalarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi, agarda ular qabul qilgan aktlar amaldaqi qonunlarga zid bo'lgan hollarda, ularni bekor qilish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi o'z faoliyatida hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy – madaniy rivojlantirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalar bilan ham shug'ullanadi. Shu maqsadda u mahalliy ijro etuvchi hokimiyat tuzulmalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi. Hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi, joylardagi ijro etuvchi hokimiyat majmuining soni va namunaviy tuzilmasini belgilaydi.

Tuman va shahar hokimlarining amaldaqi qonunlarga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarini to'xtatib qo'yish va ularni bekor qilish to'g'risida Jo'qorg'i Kengesga takliflar berish huquqiga ega. Vazirlar Kengashi tegishli bo'limlardan iborat. Har bir bo'lim tarkibi, uning vakolatlari Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizomda belgilanadi.

Vazirlar Kengashi ish tartibi. Vazirlar Kengashi o‘z ishini majlislar ko‘rinishida tashkil qiladi. Majlislarni tayyorlash va o‘tkazish tartibi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Vazirlar Kengashi ish tartibi bilan belgilangan. Vazirlar Kengashi Raisi Vazirlar Kengashining ishini tashkil etadi, o‘rnbosarlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va keyinchalik uni Vazirlar Kengashi Rayosatida tasdiqlatadi. Xalqaro munosabatlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining vakili bo‘lib hisoblanadi, hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi. Vazirlar Kengashi va uning rayosati majlislarida qarab chiqilishni talab qilmaydigan davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa barcha masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Vazirlar Kengashi Raisi bo‘limgan hollarda uning vazifalarini uning topshirig‘iga binoan o‘rnbosarlaridan biri bajaradi. Vazirlar Kengashi o‘rnbosarları vazifalar taqsimotiga muvofiq o‘zları rahbarlik qiladigan, turkum tarmoqlari faoliyati uchun javob beradilar. Tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning faoliyati yuzasidan nazoratni amalga oshiradi, ularga topshiriqlar beradi, Vazirlar Kengashiga kiritilgan takliflarni, qarorlar va farmoyishlarning loyihibalarini qarab chiqadi. Vazirlar kengashi a‘zolari o‘zlariga topshirilgan soha faoliyati uchun javob beradi. Vazirlar Kengashining doimiy tuzilmasi sifatida Vazirlar Kengashi Rayosati faoliyat ko‘rsatadi. Vazirlar Kengashi Raisi qaroriga binoan Rayosat tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshqa a‘zolari ham kiritilishi mumkin. Vazirlar Kengashi rayosatining hujjatlari: qarorlar, farmoyishlar, bayon qarorlar shaklida chiqariladi.

Alovida topshiriqlarni bajarish uchun Vazirlar Kengashi muvaqqat komissiyalar va boshqa ishchi guruhlarni tuzishi ham mumkin. Vazirlar Kengashi Qoraqalpog‘iston Respublikasining butun hududida barcha tuzilmalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Kengashining maromiy tusdagisi yoki juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlari Vazirlar Kengashi qarorları shaklida chiqariladi. Shoshilinch va boshqa joriy masalalar bo‘yicha hujjatlar Vazirlar Kengashining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Kengashining qarorlari Vazirlar Kengashi Raisi tomonidan imzolanadi. Vazirlar Kengashi farmoyishlari Vazirlar Kengashi Raisi, u bo‘Imagan hollarda uning topshirig‘iga binoan o‘rinbosarlardan biri tomonidan imzolanadi. Vazirlar Kengashi qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Kengashi o‘zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi tuzilmalari orqali nazoratni amalga oshiradi. Vazirlar Kengashi va uning Rayosati majlislarini hamda tegishli qarorlar loyihamini tayyorlash, Vazirlar Kengashi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun Vazirlar Kengashining bo‘limlari faoliyat ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida Vazirliklar ijroiya hokimiyatining markaziy organlari hisoblanib, ular halq xo‘jaligi tarmoqlari va ijtimoiy madaniy sohalarni boshqarib boradilar. Alovida vazirlik esa markaziy boshqaruvning tarmoq bo‘yicha ijroiya hokimiyati organi hisoblanib, ushbu sohaga oid qonunlar ijrosi bo‘yicha ish yuritadi. Ularning davlat hokimiyati vakolati berilgan o‘z vazifalari, o‘z quyi va tobe organlari, tarmoqni rivojlantirish turli jabhalariga mas‘ul bo‘lgan idoralari bo‘ladi.

Vazirlik – bu boshqaruvning sohaviy shaklidir. Ular jabhani boshqarish tarmog‘ida asosiy bo‘g‘inni tashkil etadi. Shu sababli vazirlik tushunchasi ma‘lum toifadagi soha bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ijtimoiy ta‘minot va mehnat vazirligi to‘g‘risidagi nizomning 1-moddasida: Ijtimoiy ta‘minot va mehnat vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasida nafaqaxo‘rlar, nogironlar va kam ta‘minlangan bolalari bor oilalarni ijtimoiy himoyalashda yagona davlat siyosatini ta‘minlash bo‘yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi, Respublikada ularga nafaqa va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etadi deyilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng boshqaruvning markaziy ijroiya organlari faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Respublikada yuz bergen va berayotgan tub iqtisodiy o‘zgarishlar sohaviy boshqaruvni isloq qilishda o‘z aksini topa bordi.

Xo'sh, Qoraqalpog'iston vazirliklari bilan O'zbekiston vazirliklari munosabatlari qanday?

Bu yerda hal qiluvchi holat – O'zbekiston Respublikasining sohaviy vazirligi Qoraqalpog'istonning shu nomdag'i vazirligi faoliyatini muvofiqlashtirishidir. O'zbekiston Respublikasining Vazirliklari nisbatan kengroq rahbarlik vakolatlariga ega. Bunda ijobjiy taraf shundaki, Qoraqalpog'iston vazirligi yangi tashkilotlar tashkil etishda, shu nomdag'i O'zbekiston vazirligi bilan kelishadi, bu bilan yangi tizimda nafaqat Qoraqalpog'iston vazirligi balki O'zbekiston Respublikasi vazirligi tarkibiga kirganligi ta'kidlanadi va O'zbekiston Respublikasida yaxlit soha – tizim amalda bo'lishi qayd etiladi.

Qoraqalpog'iston vazirliklarining boshqaruv faoliyatida ularning tuman, shahar hokimlari bilan aloqalari muhim o'r'in tutadi. Ular hamkorlikda joylardagi ishlab chiqarish komplekslariga rahbarlik qiladilar. Korxona, muassasa, tashkilotlarning qonunlarga asosan faoliyat ko'rsatishini nazorat qiladilar, boshqa soha va tarmoqlar bilan bog'liq masalarini hal etadilar. Masalan, yerdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, kapital qurilish, mehnat resurslaridan foydalanish, ijtimoiy – madaniy, maishiy va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida hamkorlik qiladilar. Vazirlik bilan mahalliy hokimiyat amalga oshiriladigan ijroiya – boshqaruv faoliyatida vazirlik respublika miqyosida o'z sohasi bo'yicha barcha ishlarga rahbarlik qiladi, mahalliy davlat hokimiyati organlari esa tegishli hududda davlat, xo'jalik hamda ijtimoiy – madaniy qurilishni boshqaradi.

### **5-§. Qoraqalpog'iston Respublikasida sud hokimiyati tizimi**

Qoraqalpog'iston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiyadolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovnii amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega va sudsarning raislari, rais o'rindbosarlari ayni vaqtida sudyalardir.

Sud tizimining bosqichma-bosqich demokratlashtirilishi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiladigan sud hokimiyatining mustaqilligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy tamoyilga qat‘iy rioya etilishi mamlakatda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar orasida markaziy o‘rinni egallaydi.

Jumladan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, ularning odil sudlovga erishish darajasini, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish, nomzodlarni tanlash va sudyalyik lavozimiga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim yo‘nalishlari sifatida mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida<sup>187</sup>”gi Farmonining qabul qilinishi qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishdagi muhim qadam bo‘lib, mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi.

Farmonga ko‘ra sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiغا rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadigan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) tashkil etildi.

Ilk marotaba davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni ta‘minlashga xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari, tuman (shahar) ma‘muriy sudlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagи PF-4966-sonli Farmonining 10<sup>1</sup>-ilovasiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham yangi tashkil etilgan tuman (shahar) ma‘muriy sudlarining yurisdiktsiya hududlari belgilandi.

---

<sup>187</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тұплами, 2017 й., 8-сон, 109-модда, Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.09.2017 й., 06/17/5195/0033-сон, 20.07.2018 й., 06/18/5487/1543-сон

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimida ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining raislari va rais o'rinosarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari va sudyalari O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tayinlanadi<sup>188</sup>.

Sudya birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda tayinlanadi yoki saylanadi.

Sudya o'z vakolati muddati davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining sudyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman (shahar) sudining raisi va sudyasi lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan qayta tayinlanishi mumkin. Bunda bir sudning o'zida sudyalik lavozimida bo'lish muddati ikki yildan kam bo'lmasligi kerak.

Sudyaning qayta tayinlanishi masalasi uning arizasiga asosan Sudyalar oliv malaka hay'atining tavsiyasiga binoan kiritiladi.

Sudyaning vakolat muddati uning sudyalik lavozimida faoliyat yuritgan umumiyl stajidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Sud raislari besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. Ayni bir shaxs tegishli sudda surunkasiga ikki muddatdan ortiq rais etib saylanishi yoki tayinlanishi mumkin emas.

---

<sup>188</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Судлар тўғрисида"ги Конуни Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.10.2018 й., 03/18/496/2043-сон)

Sud raisining rais sifatidagi vakolat muddati tugagach, u o‘zining faoliyatini o‘z roziliqi bilan shu sudda sudyalik lavozimida davom ettiradi yoxud qolgan vakolat muddatiga o‘z roziliqi bilan boshqa sudyalik lavozimiga saylanadi yoki tayinlanadi.

Ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qilganidan keyin o‘z vazifasini bajarishga kirishadi:

– “Zimmamga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovni faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchim va vijdonim buyurganidek beg‘araz, xolis va adolatli bo‘lishga tantanali qasamyod qilaman”.

Sudyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat bayrog‘i oldida tantanali vaziyatda qasamyod qiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasining tegishli sudlari rayosati majlisida qasamiyod qiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi rais, rais o‘rribosari, sudyalar, xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi hamda sud rayosati va sudlov hay’atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi rais, rais o‘rribosari, sudyalardan iborat bo‘ladi hamda sud rayosati va sudlov hay’atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy sudi rais va sudyalardan iborat bo‘ladi hamda sud rayosati va sudlov hay’atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudlari rais va sudyalardan iborat bo‘ladi hamda sud rayosati va sudlov hay’atlari tarkibida ish olib boradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi:

– o‘z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instantsiya sudi sifatida, apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko‘radi;

– tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;

– sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;

– sudlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi;

– qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi rayosati shu sudning sudyalari dan iborat tarkibda ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati majlislari har oyda kamida ikki marta o'tkaziladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi<sup>189</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosatining qarorlari ovoz berishda ishtirok etgan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati:

- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;
- hay'atlar faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalarini, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining sudlov hay'atları:

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiyada ko'radi;
- appellatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra, ishlarni apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'radi. Apellyatsiya tartibida ko'rilmagan ish cassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak;
- sud amaliyotini umumlashtiradi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining raisi:

- sud faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;
- sud rayosatini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;
- sud rayosatining qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;
- sud majlislarida raislik qiladi;
- tegishli quiy sudlarning faoliyatini tashkil etishga ko'maklashadi;
- sudyalar, sudning boshqa xodimlari hamda xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;
- sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;
- fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishini tashkil etadi;

---

<sup>189</sup> Узбекистон Республикасининг "Судлар тўғрисида"ги Қонуни. Қонун хуҷожатлари маълумотлари милий базаси, 12.10.2018 й., 03/18/496/2043-сон)

- sudyalarning malaka hay’ati qarorlari ustidan Sudyalarning oliv malaka hay’atiga taqdimnomalar kiritadi;
  - sudning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini sud yo’li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga bir yilda kamida bir marta axborot taqdim etadi;
  - bir oyda kamida bir marta joylarda sudyalarning aholi bilan uchrashevlarini tashkil etadi, shuningdek, jamoatchilikni sudning faoliyati to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib boradi;
  - sud idorasi ishlariga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
  - qonun hujjalriga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi raisining o‘rnbosari:
- sudlov hay’atlarining ishini tashkil etadi;
  - sudlov hay’ati majlislarida raislik qiladi;
  - sud rayosatiga sudlov hay’atlarining faoliyati to‘g‘risida ma‘ruzalar taqdim etadi;
  - fuqarolarni shaxsan qabul qiladi;
  - sud raisi yo‘qligida uning vakolatlarini amalga oshiradi;
  - qonun hujjalriga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi raisining o‘rnbosari yo‘qligida uning vakolatlari Sudyalarning oliv malaka hay’ati qaroriga ko‘ra sudyalardan birining zimmasiga yuklatilishi mumkin<sup>190</sup>.
- O‘ttiz yoshdan kichik bo‘lмаган, oliv yuridik ma‘lumotga va yuridik ixtisosligi bo‘yicha, avvalambor, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, tumanlara-ro, tuman (shahar) iqtisodiy sudining, tuman (shahar) ma‘muriy sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi bo‘lishi mumkin.
- Oliv yuridik ma‘lumotga va yuridik ixtisosligi bo‘yicha kamida etti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, suda sifatida kamida ikki yillik

---

<sup>190</sup> Узбекистон Республикасининг “Судлар түгрисида”ги Конуни. Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.10.2018 й., 03/18/496/2043-сон)

mehnat stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining sudyasi bo'lishi mumkin.

Shuningdek, sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyni olish, telefonagi so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashylar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoki olishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining ruxsati yoki sudning qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Sudyalarning faoliyatini muddatidan oldin to'xtatish uchun assoslari mayjud bo'lsa Qoraqalpog'iston Respublikasi sudsining vakolatlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasiga asosan kiritiladigan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan muddatidan ilgari tugatiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudsining sudyalarining malaka hay'atlari tegishli sudsining sudyalarining konferensiylarida besh yil muddatga saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudsining sudyalariga guvohnomalar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi tomonidan beriladi.

Sudlarning ish tartibi va ularni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Jinoят protsessual Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual Kodeksi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi. Favqulodda sudlarning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Barcha sudsarda ishlari ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l quyiladi. Sud majlislarini ochiq turda yuritish unga barcha fuqarolarning qatnashishi mumkinligini anglatadi.

Sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir. Odil sudlovni amalga oshirish

qonun bilan faqat sud organlari vakolatiga berilgan. Sud o‘z qarorlarini O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradi.

Qoraqalpog‘istonda davlat tili qoraqalpoq va o‘zbek tili hisoblanadi. Shuning uchun sud ishi shu tillarda olib boriladi. Ayrim chegaradosh joylardagi xalqning ko‘pchiligi boshqa tillarda so‘zlashsa o‘sha tilda sud ishi yuritilishi mumkin. Sud jarayonining tiliga ishga qatnashuvchilar tushunishlari shart. Shuning uchun, agar qatnashuvchilar sudlov tilini tushunmasalar ularga tarjimon beriladi. Shuningdek, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki prosessga qatnashgan boshqa shaxslarga berilishi kerak bo‘lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tilida yoki ular bilgan boshqa tilga o‘girilishi shart.

## **6-§. Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari**

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingandan so‘ng, mahalliy vakillik organlarining yangi tizimi o‘rnatildi va ushbu organlarning tavsifi, mavqeい sifat jihatdan takomillashdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari bo‘lib hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari” deb ataladi va 92-moddada mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro hokimiyatiga bo‘linishi belgilandi. Konstitutsianing 94-moddasida mahalliy davlat organlarining - faoliyatini tashkil qilish, vakolat doirasi, saylash tartibi qonun bilan belgilanadi, deyilgan. Shu bois, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi 1993-yil 24-dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi<sup>191</sup>. Unga asosan Xalq deputatlari Kengashlari tuman va shaharlarda, (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) davlat hokimiyatining vakillik organlari deb belgilandi va natijada avvalgi ikki pog‘onali hokimiyat organlari tizimi o‘rniga bir pog‘onali hokimiyat organi tizimi o‘rnatildi. Kishloq, shahar, ovul, tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda davlat hokimiyatining vakillik organlari tugatildi. Konstitutsiya va Qonunda mahalliy vakillik organlari fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tizimidan ajratilishi katta ahamiyatga ega

---

<sup>191</sup>Қоракалпог‘истон Республикасининг “Махаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Конуни. – Нукус: “Қоракалпог‘истон”, 2011. – 44 б.

bo‘ldi, ya‘ni bu mahalliy vakillik organlarining davlat organlari sifatidagi mavqeini oshirdi, ularning mas‘uliyatini kuchaytirdi.

Mahalliy vakillik organlarining samarali ishlashi, o‘z faoliyatini to‘la amalga oshira olish, mavqeい ko‘p jihatdan ularga saylangan deputatlar tarkibiga bog‘liq. Deputatlarning bilimi, dunyoqarashi, fikrashi, mustaqilligi Kengashlar ishi mazmunini belgilab beradi. Ushbu masalalarni maqsadga muvofiq hal qilishda saylov qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya qabul qilingach, saylov qonunlari ham yangilandi. Ularda demokratik huquqiy davlatga xos xususiyatlar o‘z ifodasini topdi. Bular ichida eng avvalo, sayloving ko‘ppartiyaviylik tamoyili asosida o‘tkazilishi, saylov komissiyasi tarkibiga biror-bir partiyaga mansub shaxslarning kiritilmaslik qoidalarining o‘rnatalishiga alohida e‘tibor berildi. Mahalliy vakillik organlariga saylov, avvalgi vakillik organining vakolati tugashiga kami bilan 3 oy qolganda Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan tayinlanadi. Deputatlar bir mandatli okruglardan sayylanadi. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga siyosiy partiylar va fuqarolarning yig‘inlari (vakillarning yig‘ilishlari) nomzod ko‘rsatish huquqiga ega.

Xalq deputatlari Kengashlari o‘z faoliyatiga ko‘maklashib turishlari uchun deputatlardan iborat, vakolat muddati davomida doimiy ishlovchi komissiyalar tuzadi. Yangi chaqiriq I-sessiyada xalq deputatlari Kengashlari dastlab mandat komissiyasini tuzadi. Qancha va qanday doimiy komissiyalar bo‘lishini ishning hajmi va hududiy xususiyatlar hisobga olingan holda Kengashning o‘zi belgilaydi. Doimiy komissiyalar rais, rais o‘rinbosari, kotib va a‘zolardan iborat bo‘ladi. A‘zolarning sonini ham Kengash o‘zi belgilaydi.

Doimiy komissiyalar sessiyalarda ko‘riladigan masalalarni dastlab ko‘rib chiqib, xulosa tayyorlash, sessiyaga ko‘riladigan masalalarni taqdim qilish, Kengash va yuqori davlat organlari hujjatlarining mazkur hududda bajarilishini nazorat qilish kabi vazifalarni bajaruvchi organ sifatida tuziladi. Xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalarining faoliyati qonun va nizomlar bilan belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashlari zarur paytlarda muayyan masalalar yuzasidan muvaqqat komissiyalar ham tuzishlari mumkin.

Tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlarining ish tartibi tegishli xalq deputatlari Kengashining Reglamenti bilan belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashi sessiyalari bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiya zaruratiga ko‘ra hokim tomonidan, shuningdek, tegishli Kengash

deputatlarining uchdan ikki qismining tashabbusi bilan chaqirilishi ham mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarining asoslari berilgan. O'z navbatida, mazkur moddada mahalliy vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining vazifalari ajratilib ko'rsatilmagan, shuning uchun u vakillik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham taalluqlidir. Ushbu vakolatlarga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

- mahalliy budgetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlarni, yig'imlarni belgilash, budgetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

- atrof muhitni muhofaza qilish;

- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish<sup>192</sup>.

Xalq deputatlari Kengashlari o'z faoliyati davomida, o'zining vakolatlari doirasida kollegial asosda normativ hujjatlar qabul qiladi. Ular qabul qilgan normativ hujjatlar o'z hududida bajarilishi majburiydir. Mahalliy hokimiyat organlari Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining butun faoliyatini davlat hamda fuqarolarning manfaatini ko'zlab olib boradi, natijada davlat manfaati bilan fuqarolarning manfaati o'rtaida mushtaraklik vujudga keladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining mahalliy Kengashlar vakolatlarini belgilaydigan 1993-yil 24-dekabrda qabul qilingan Qonunda vakillik va ijro hokimiyati organlarining vakolatlari alohida berilgan. Qonunning 23-moddasiga binoan Kengash quyidagilarni amalga oshiradi:

- xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hokimning taqdimiga binoan o'z hududi budgeti va uning ijrosi haqidagi hisobotni,

---

<sup>192</sup>Қаранг: Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси. – Нукус: “Қорақалпоғистон”, 2006. – й. 72-73.

hududni rivojlantirish rejasini, tuman va shaharning bosh loyihasi va uni qurish tartibini tasdiqlaydi;

– amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliq, yig‘im va bojlar miqdorini belgilaydi, mahalliy budgetga tushadigan mahalliy soliq, yig‘im va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar belgilaydi;

– hokim va uning o‘rnbosarlarini lavozimiga tasdiqlaydi, lavozimdan ozod etish ishlarini amalga oshiradi, ularning faoliyatiga doir hisobotlarni eshitadi;

– qonunda nazarda tutilgan hollarda hokimlar qarorlarini tasdiqlaydi;

– xalq deputatlari, Kengashlarining ish tartiblari, doimiy komissiyalar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi va zarur bo‘lsa, ularga o‘zgartirishlar kiritadi;

– Kengashning doimiy va muvaqqat komissiyalari hamda boshqa organlarini tuzadi, saylaydi va tugatadi, ularning tarkibini o‘zgartiradi, faoliyati haqida hisobotlarni tinglaydi;

– deputatlarning vakolatlarini tasdiqlaydi, vakolatini muddatidan avval to‘xtatadi yoki ularni javobgarlikka tortish, ishdan bo‘shtishga rozilik beradi;

– ijroiya hokimiyati bo‘limlari, boshqarmalari, boshqa tashkiliy bo‘linmalar hisobotini eshitadi;

– xalq deputatlari so‘rovlarini ko‘rib chiqadi va ular yuzasidan qarorlar qabul kiladi;

– hokimning O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlariga zid qarorlarini bekor qiladi;

– hokimning taqdimiga binoan hokimlik tuzilishini, uning shtatlarini va xodimlarning ish xaqi fondini tasdiqlaydi.

Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlarini ikki turga bo‘lish mumkin. Birinchisi, xalq deputatlari Kengashlarining mutloq vakolatlari bo‘lib, ular faqat Kengashlar tomonidangina amalga oshiriladi. Masalan, budgetni, uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash, yordamchi organlarni tuzish, deputatlar vakolatlarini tasdiqlash, muddatidan avval tugatish, hokimni lavozimga tasdiqlash va boshqalar. Ikkinci turga boshqa vakolatlari kiradi, ya‘ni ularni sessiyalar oraliq‘idagi vaqtida hokimlar bajara oladi, lekin bu masala sessiyada albatta tasdiqlanishi kerak. Masalan, hokimlik tuzilish bo‘linmalar (tarmoq boshqaruv organlari) boshliqlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishni sessiyalar oraliq‘idagi vaqtida hokim amalga oshirishi mumkin. Lekin hokimning qarori albatta sessiyada tasdiqlanishi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasiga muvofiq vakillik va ijro hokimiyati tegishligiga qarab tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Tuman va shahar hokimlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining taqdimiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi (96-modda). Tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar va o'zlarini rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Hokimlar va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi (97-modda). Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi (98-modda)<sup>193</sup>.

### *O'zini-o'zi nazorat qilish savollari*

1. *O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari qanday tartibga solingan?*
2. *Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi qanday huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi?*
3. *Qoraqalpog'iston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat organi qanday nomlanadi?*
4. *Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qanday davlat organi hisoblanadi?*
5. *Qoraqalpog'iston Respublikasida Konstitutsiyaviy nazoratni qaysi organ amalga oshiradi?*
6. *Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimi nimalardan iborat?*

---

<sup>193</sup>Каранг: Коракалпогистон Республикаси Конституцияси. – Нукус: “Коракалпогистон”, 2006. – Б.73-74.

# **OLTINCHI BO‘LIM. DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI**

## **XXI BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**

1-§. O‘zbekistonda parlament institutining shakllanishi va rivojlanishi.

2-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati tizimidagi tutgan o‘rnii hamda konstitutsiyaviy vakolatlari.

3-§. Oliy Majlis palatalari faoliyatining tashkiliy shakkllari.

4-§. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni.

5-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senat a‘zosining huquqiy maqomi.

### **1-§. O‘zbekistonda parlament institutining shakllanishi va rivojlanishi**

O‘zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an‘analar bilan yo‘g‘rilgan o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo‘linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiylar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan yig‘ilishdagi ma‘ruzasida, “Demokratiya qaerdan boshlanadi – parlamentdan boshlanadi. “Parlament – demokratiya maktabi”, deymiz. Shunday ekan, milliy parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi kerak”ligini<sup>1</sup> alohida ta‘kidlab o‘tdi.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliylit vakillik organi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi inglez parlamenti va ispan korteslariga borib taqladidi.

---

<sup>1</sup> Мирзиев Ш.М. Миллий тараккиет йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.552.

«Parlament» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi fransuz tilidan olingen bo‘lib, «gapirmoq» ma‘nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Hozirgi zamon parlamentlari o‘zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o‘z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o‘rni, saylanish tartibi mavqeい bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ularning nomlanishi ham turli nomlar bilan yuritiladi. Masalan: AQSHda Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy Xalq vakillari majlisida, Rossiyada Federal Majlis, Misrda Xalq Assambleyasi, Isroilda Knesset, Islandiyada Alningni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko‘pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Dunyoda 60dan oshiqroq davlatda esa, ikki palatali oliv vakillik organlari mayjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko‘pincha «quyi palata» deb yuritilib, u xalqning yagona irodasini ifodalaydi. (AQSHda - Vakillar palatasi, Fransiyada - Millat Majlisi), boshqasi esa «Yuqori palata» deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokratik an'analar hamda federativ davlat tuzilishiga ega bo‘lgan mamlakatlarga xosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSH, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yuritmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqilligiga erishish davrida davlat hokimiyyati vakillik organi faoliyatiga alohida e‘tibor qaratdi. Ya‘ni, vakillik organi sifatida Oliy Kengash o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshira boshladi. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi oliv vakillik organi sifatida davlat mustaqilligini e‘lon qilish va mustahkamlash jarayonida alohida o‘rin tutdi. Parlament sohasida amalga oshirilgan dastlabki islohotlar 1990-yil fevral-mart oylarida Oliy Kengashga o‘tkazilgan saylovlarda o‘z aksini topdi. “Natijada o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining tarkibi oldingi chaqiriplardagi Oliy Sovetning barcha tarkiblariidan sifat jihatidan farq qildi. 500 nafar xalq deputatidan 418 nafari yoki 83,6 foizi qonun chiqaruvchi oliv organga birinchi marotaba saylandi; 395 nafari yoki 79 foizi oliv ma‘lumotga, 62 nafari yoki 12,4 foizi ilmiy darajaga, unvonga ega edi”<sup>194</sup>.

<sup>194</sup> Узбекистон Республикаси Олий Кенгаши Котибияти Назорат-ахборот бўлумининг жорий архиви 1990. №3-иш. 271-273-бетлар.

Ta'kidlash joizki, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston uchun tarixiy ahamiyat kasb etuvchi bir qator qonunlar va qarorlar qabul qildi. Uning 1990-yil 23-martda ish boshlagan birinchi sessiyasida O'zbekiston Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni)ga o'zgartirish kiritish masalasi qo'yildi. 1990-yil 24-mart kuni "O'zbekiston Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun Oliy Kengash va Oliy Kengash Rayosatining qonun chiqaruvchi organga nisbatan farmoyish beruvchi organga xos bo'lgan bir qator vakolatlarini Prezidentning zimmasiga yuklatishga doir o'zgarishlarni nazarda tutardi. Bu o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

– **birinchidan**, Oliy Kengashning "davlat hokimiyatining oliy organi" degan bir muncha mavhum huquqiy maqomi aniqlashtirildi: Konstitutsiyaning 101-moddasi birinchi qismida O'zbekiston davlat hokimiyatining oliy organi - doimiy ishlaydigan O'zbekiston Oliy Kengashi bo'lib, u o'z faoliyatida qonun chiqarish va nazarat qilish vazifalarini amalga oshirishi qat'iy belgilab qo'yildi;

– **ikkinchidan**, Oliy Kengash fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari amalga oshirilishini, mulkchilik munosabatlarini, xalq xo'jaligi va sosial-madaniy qurilishni boshqarishni tashkil etishni, budjet-moliya tizimini, mehnatga haq to'lash va narx belgilashni, soliq solishni, atrof-muhitni muhofaza qilishni va tabiiy resurslardan foydalanishni, shuningdek, boshqa munosabatlarni O'zbekistonga tegishli huquq doirasida qonun yo'li bilan tartibga solib turishi belgilab qo'yildi;

– **uchinchidan**, Oliy Kengash Rayosati respublika Oliy Kengashining sessiyalarini tayyorlash, Oliy Kengashning doimiy komissiyalari faoliyatini muvofiqlashtirib turish, O'zbekiston qonunlarining loyihalari va davlat hayotining boshqa eng muhim masalalari xalq muhokamasiga qo'yilishini tashkil etish, respublika qonunlari hamda respublika Oliy Kengashi, O'zbekiston Prezidenti qabul qilgan boshqa hujjatlar o'zbek, rus va boshqa tillarda, Qoraqalpog'iston uchun esa, - qoraqalpoq tilida ham e'lon qilinishini ta'minlash bilan shug'ullanishi belgilandi;

– **to'rtinchidan**, agar ilgari O'zbekiston qonunlari Oliy Kengash tomonidan qabul qilinib, Oliy Kengash Raisi va Rayosat kotibi tomonidan imzolangan bo'lsa, endilikda qonunlar Prezident tomonidan imzolanishi, davlat boshlig'i qonunlarni o'z e'tirozlari bilan Oliy Kengashga qaytarishi mumkinligi belgilab qo'yildi va h.k.

Shuningdek, Oliy Kengash 1990-yil 20-iyunda O‘zbekistonning “Mustaqillik deklaratsiyasi”ni qabul qildi. Ushbu hujjat ham Oliy Kengashning davlat mexanizmidagi qonun chiqaruvchi organ sifatidagi ustuvorligini yanada kuchaytirdi. Endilikda Ittifoq Oliy Sovetining qarorlari O‘zbekiston hududida respublika Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangan taqdirdagina yuridik kuchga ega bo‘lishi belgilandi.

Umuman, o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun hayotiy zarur bo‘lgan ko‘plab huquqiy hujjatlarni amalga kiritdi. U o‘zining butun faoliyati davomida 182 ta qonun, 4 ta kodeks va 509 ta qaror qabul qildi<sup>1</sup>. Shuningdek, milliy huquq tizimiga xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Besh yil davomida Oliy Kengash tomonidan 22 ta shartnoma, 21 ta bitim, bitta deklaratсиya, bitta xartiya va 16 ta boshqa hujjat (konvensiyalarga tuzatishlar, MDH Ustavi va boshqalar) ratifikatsiya qilindi, 15 ta konvensiyaga qo‘shilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi<sup>1</sup>.

#### *Bir palatali Oliy Majlis faoliyatidagi demokratik o‘zgarishlar*

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutсиysi davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi asoslangan holda mustaqil O‘zbekistonning sobiq Ittifoq vakillik organlaridan tubdan farq qiluvchi parlamenti – Oliy Majlisning konstitutсиaviy maqomini belgilab berdi.

Agarda Oliy Kengash “davlat hokimiyatining oliy organi bo‘lib, o‘z faoliyatida qonun chiqarish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshirgan” bo‘lsa, yangi qonunchilikda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi talablaridan kelib chiqqan holda, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisи oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi”, deb belgilandi. Bu o‘zgarish Oliy Majlisning oliyligi butun davlat hokimiyatiga nisbatan emas, balki vakillik organlari tizimida ekanligini anglatadi.

Yangi qonunchilikda parlament a‘zolarining soni 500 nafardan 250 nafarga qisqartirildi. Mazkur deputatlar hududiy saylov okruglari

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Кентагши ва Олий Мажлисининг кабул килинган конунлари ва карорлари тўғрисидаги маълумотнома. – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Котибиятининг жорий архиви. 1998.06. -03-сон иш. 65-б.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Котибиятининг жорий архиви. 1998.06. -№23- б. 1.

bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanishi belgilandi<sup>2</sup>.

Yangi parlamentning vakolatlari ham uning, eng avvalo, qonun chiqaruvchi organ ekanligi, shuningdek, oliy vakillik organi sifatida O'zbekiston xalq nomidan ish olib borishga haqli ekanligidan kelib chiqib va albatta, hokimiyatlar bo'linishi prinsipiiga asoslanib belgilandi. Respublika Konstitutsiyasining 78-moddasiga muvofiq, bir palatadan iborat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari mustahkamlab qo'yildi.

O'tish davrida qonun hujjatlarini qabul qilish holatidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 83-moddasida ularni qabul qilishning hozirgiga nisbatan ancha soddaroq tartibi belgilangan edi, ya'ni: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlar qabul qiladi. Qonunni qabul qilish uchun Oliy Majlis deputatlarining ko'pchilik ovozi talab etiladi. Qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir".

Lekin mazkur tartibning o'ziyoq, Oliy Majlisning sobiq Oliy Kengashlarga nisbatan qonun ijodkorligi jarayonidagi o'rnini sezilarli darajada oshirdi. Professional faoliyat ko'rsatuvchi deputatlar, shuningdek, qonun loyihibarini tayyorlash ishlarini olib borish, Oliy Majlisga havola etiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlarning va Oliy Majlis boshqa qarorlarining ijrosini nazorat qilib turish uchun deputatlar orasidan saylanadigan qo'mitalar va komissiyalar faoliyati ancha takomillashtirildi.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi mamlakatimiz qonunchilik tizimining takomillashuviga munosib hissa qo'shdi. U o'zining 1995-2000-yillarda o'tgan o'n beshta sessiyasida 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 460 dan ortiq qaror qabul qildi, amaldagi qonunlarga 216 ta o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi. Qonun ijodkorligi jarayonida bevosita demokratiyaning konsultativ ko'rinishi – umumxalq muhokamasidan samarali foydalanishga harakat qilindi. Agar

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг дастлабки таҳририда депутатлар сони 150 нафар деб белгиланган эди 1993 йил 28 декабря Конституцияга ўзгартириш киритилиб. Олий Мажлис худудий сайлов округлари бўйича кўп партиявиylik асосида беш йил муддатга сайланадиган депутатлардан иборат деб белгиланди. Худди шу куни қабул килинган "Ўзбекистон Республикасининг Олий Мажлисига сайлов тўғрисида"ги Конунда депутатларнинг сони 250 нафар деб катъий кўрсатиб ўтилди

mustaqillikka erishilgan kundan e'tiboran 1999-yilga qadar O'zbekistonda 27 ta qonun umumxalq muhokamasidan keyin qabul qilingan bo'lsa, shundan 20 tasi birinchi chaqiriqdagi Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi. E'lon qilingan har bir qonun loyihasi yuzasidan 500 tadan 2000 ga qadar taklif kelib tushdi va ular o'r ganib chiqildi<sup>1</sup>.

Umuman, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi sobiq Oliy Kengashdan o'zining qator xususiyatlari bilan ajralib turar edi. O'zbekistonda parlamentarizm sohasidagi o'ziga xos tajriba mahsuli bo'lgan bu xususiyatlar, asosan, quyidagilarda namoyon bo'ldi:

– **birinchidan**, Oliy Majlisga saylovlar Oliy Kengashdan farq qilgan holda ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi belgilandi, deputatlikka nomzod ko'rsatuvchi subyektlar sifatida ijtimoiy sinflar emas, siyosiy partiylar asosiy o'r in tutishi belgilandi;

– **ikkinchidan**, hali ko'ppartiyaviylik to'la rivojlanib ulgurmagan sharoitda saylovlarning muqobillik asosida tashkil etilishini ta'minlash maqsadida mahalliy vakillik organlarining ham Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi belgilab qo'yildi;

– **uchinchidan**, parlament faoliyatining hokimiyatlar bo'linishi prinsipiiga amal qilgan holda tashkil etilishini nazarda tutgan holda, hukumat a'zolari, sudyalar, Bosh prokuror va prokuratura organlarining mansabдор shaxslari, vazirliklar, idoralar rahbarlari va ularning o'r inbosarlari, hokimiyat ijroiya organlarining mansabдор shaxslari deputat etib saylangudek bo'lsa, egallab turgan lavozimlaridan bo'shash to'risida ariza bergen taqdirdagina Oliy Majlis deputatligiga nomzod sifatida ro'yxatga olinadilar, degan norma joriy etildi;

– **to'rtinchidan**, demokratik davlatlar tajribasiga asoslangan holda saylov senzleri takomillashtirildi, belgilangan qoida asosda sudlangan shaxslar, harbiylashtirilgan davlat organlari va idoralarining xizmatchilari bilan bir qatorda, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari ham deputat bo'la olmasliklari belgilandi, besh yillik o'troqlik senzi joriy etildi;

**beshinchidan**, deputatlik o'rnini qo'lga kiritish uchungina siyosiy partiylar tashkil etilishining oldini olish, chinakkam partiyaviy raqobat muhitini shakllantirish maqsadida saylovda ishtirot etuvchi partiylar uchun ham senzlar joriy etildi: saylov kuniga qadar kamida olti oy oldin

---

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Котибияти юридик бўлумининг жорий архиви 2000. - №11- иш. Т 1. 25-б.

Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan va saylovda ishtirok etishini kamida ellik ming saylovchi qo'llab-quvvatlagan siyosiy partiyagini deputatlilikka nomzodlar ko'rsatishi mumkinligi belgilandi.

### ***O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentga o'tish yo'llida***

Professional parlamentarizmga o'tish – o'ta muhim, shu bilan birga, g'oyat murakkab vazifa. Zero, rivojlangan demokratik davlatlarda shakllangan va faoliyat ko'rsatayotgan professional parlamentlarning har biri o'zining uzoq va tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Xususan, Buyuk Britaniyada Jamoalar palatasi va Lordlar palatasidan iborat Parlament qariyb 7,5 asrlik tarixga ega. Fransiyaning ilk parlamenti – General Shtatlar birinchi marta 7 asr muqaddam chaqirilgan edi. Zamonaviy parlamentarizmning aksariyat davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilayotgan modeli – AQSH Kongressi ham, salkam 2,5 asrdirki faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu jihatdan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida tarixan qisqa davr – yigirma yil mobaynida parlamentarizm sohasida o'ziga xos tajriba orttirildi, milliy parlamentning yangicha modellaridan biri yaratildi.

Parlament faoliyatini takomillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar tizimida ikki palatali parlamentga o'tish bilan bog'liq islohotlar, shubhasiz, markaziy o'rinnegallaydi.

Ikki palatali parlamentni tashkil etish g'oyasi, taklifi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida "O'zgarish va yangilanish - hayot talabi" nomli ma'rurasida o'rtaga tashlandi: "...biz 2004-yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim. Bunda quyi palata - Oliy Majlis partiyalar vakillari va mustaqil deputatlardan saylanadi. Siyosiy partiyalar va aholi yig'ilishlari unga o'z vakillarini o'tkazadi, ular parlamentda doimiy ravishda ishlaydi... Muhimi shuki, yangi shakldagi parlamentda mutaxassis deputatlar faoliyat ko'rsatadi, ya'ni u professional parlament bo'ladi. Biz o'sib-ulg'ayib, bugun shu darajaga etib keldik!"<sup>1</sup>.

Haqli ravishda bir necha savollar paydo bo'ladi: Xo'sh, O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tish uchun zarurat bormidi? Agar bor bo'lsa, nega ikki palatali parlamentga ayrim MDH mamlakatlari singari mustaqillikning dastlabki yillardayoq o'tilmadi? O'zbekistonda

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. "Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард максадимиз Т 8 – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –Б. 483

ikki palatali parlamentga o'tish bilan bog'liq shart-sharoitlarni tahlil qilish orqali, mazkur savollarga quyidagicha javob berish mumkin:

– **birinchidan**, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilayotgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" har qanday islohot bosqichma-bosqich, ya'ni tadrijiy-evolyutsion yo'l bilan amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatadi. Ikki palatali parlamentga o'tish ham mazkur tamoyilga asoslangan holda asta-sekinlik bilan amalga oshirilishi lozim edi;

– **ikkinchidan**, parlamentarizm nazariyasi va tarixidan ma'lumki, bir palatali parlament, avvalo, uni shakllantirish mexanizmi bilan, qolaversa, qonun hujjatlarini tez qabul qilishi bilan muayyan afzalliklarga ega. Mustaqillikning ilk davrlarida biz uchun eng muhim vazifa – amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarning huquqiy asoslarini imkon qadar tezroq yaratishdan iborat edi. Qariyb o'n yil davomida bu borada zarur qonun hujjjatlari qabul qilindi va kuchga kiritildi. Endilikda qonun chiqaruvchi organ oldida turgan ustuvor vazifa – qonunchilik tizimini yanada takomillashtirishdan iborat bo'lib qoldi. Bu esa, professional parlament tomonidangina amalga oshirilishi mumkin edi;

– **uchinchidan**, XX asrning 90-yillarda O'zbekistonda deyarli hech kim ikki palatali parlamentning mohiyatini to'la anglab yetmas edi. Parlamentarizm sohasida yetarli tajribaning mavjud emasligi, ikki palatali parlamentning ishlash mexanizmini yaxshi tushunmaslik, aytaylik, qo'shni Qиргизистон Respublikasidagi singari palatalararo o'zaro bir-birini tushunmaslikka yoki Rossiya Federatsiyasidagi singari quyi palata va hukumat o'rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin edi.

Qonun ijodkorligi, professional parlament borasida tajribaning yo'qligi, puxta o'ylanmasdan, shoshma-shosharlik bilan tashkil etilgan milliy parlament alal-oqibat qonun chiqaruvchi hokimiyatni inqirozga olib keldi: Rossiya Federatsiyasida parlament tarqatib yuborildi (90-yillar boshlari), Qиргизистон Respublikasida ikki palatali parlamentdan voz kechildi;

– **to'rtinchidan**, sobiq Ittifoq davrida amalda bo'lgan tartibga ko'ra, deputatlarning eng asosiy vazifasi davriy o'tkaziladigan sessiyalarda qonunni ma'qullab ovoz berishdan iborat bo'lib qolgan edi. Qabul qilinayotgan qonunlar Ittifoq Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan "asoslar" bilan deyarli bir xil bo'lib, ularga o'zgartirish deyarli kiritilmasdi. Kamdan-kam hollarda qabul qilinadigan "mahalliy" qonunlarni ishlab chiqish va tahrir qilish bilan esa, ijro etuvchi hokimiyat organlari va parlament devonining yuridik xizmati shug'ullanar edi.

Bunday sharoitda professional parlament yoki palata xususida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham dastlab Oliy Majlisda doimiy ishlovchi deputatlar soni ko‘paytirib borildi, ularga qonun ijodkorligi bilan doimiy shug‘ullanish vazifasi topshirildi.

– **beshinchidan**, 2000-yilga kelib O‘zbekistonda davlat hokimiysi, Konstitutsiyaning 11-moddasiga muvofiq, hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini joriy etishdan iborat bo‘lib qoldi. Bu ham, eng avvalo, parlament faoliyatini qayta tashkil etish, parlament nazoratini kuchaytirish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasida o‘zarolik prinsipini joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin edi.

*Ikki palatali parlamentning tashkil etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad:*

– **birinchidan**, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi quyi palataning tashkil etilishi qonun ijodkorligi jarayonining takomillashuviga xizmat qiladi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta‘kidlab o‘tilganidek, “qonun yaratishda avvalo, hayotni yaxshi biladigan, siyosatni chuqur tushunadigan huquqshunoslar, siyosatchilar, iqtisodchilar va mutaxassis vakillar ishlashi darkor”. Yilda uch marotaba sessiyalar o‘tkazuvchi Oliy Majlisdan farqli o‘laroq, yangi deputatlar quyi palatada doimiy faoliyat ko‘rsatadilar. Endi ularning vazifasi shunchaki qonunlarni qabul qilishdan iborat emas. Ular, eng avvalo, qonun loyihalarini, qonunlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi loyihalarini ishlab chiqadilar. Shundan keyingina uni muhokama qilib, qabul qiladilar va ma‘qullash uchun yuqori palataga jo‘natadilar;

– **ikkinchidan**, quyi palata deputatlari, o‘zlarining asosiy ish joylaridan ajralgan holda, faqat qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etadilar. Endi ular uchun deputatlik maqomi qandaydir oliy unvon yoki darajani emas, balki ularning kundalik mehnat vazifasi – kasb-korini anglatadi. Asosiy ish joyidan ajralgan holda faoliyat ko‘rsatish deputatlarning davlat hokimiysi va boshqaruvining boshqa organlaridan, mansabdor shaxslardan mustaqil bo‘lishlarini ta‘minlaydi;

– **uchinchidan**, quyi palatada deputatlar o‘z qarashlari va nuqtayi nazarlarini birgalikda ifoda etish maqsadida siyosiy partiya fraksiyalari va deputatlik guruhlari tuzishlari mumkin. Bu davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning nufuzini yanada oshirishga, shu orqali turli ijtimoiy guruhga mansub fuqarolarga siyosiy partiyalar orqali parlamentda o‘z manfaatlarini himoya qilishga imkon yaratadi;

– **to‘rtinchidan**, “dunyo tajribasiga ko‘ra, doimiy ishlovchi quyi palataning mavjudligi ijro hokimiyyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish imkonini beradi. Bir yilda uch marta faqat sessiyalarda yig‘iladigan parlament bilan bu vazifani amalga oshirib bo‘lmaydi. Doimiy ishlovchi professional quyi palataning mavjudligi esa, deputatlarga qonun ishlab chiqish va uni qabul qilish bilan bir qatorda, ularning qay darajada ijro etilayotganligini ham nazorat qilish imkonini beradi”<sup>1</sup>;

– **beshinchidan**, “vakillik organi sifatida tuzilayotgan, hududiy subyektiar - mahalliy kengashlar deputatlari vakillarini teng miqdorda birlashtiruvchi yuqori palata - Senatning shakllantirilishi qonunchilikning eng yuqori organi bo‘lmish Oliy Majlisga, ta‘bir joiz bo‘lsa, mamlakatning yurak urishini bilib turish, mintaqalar bilan bevosita aloqalarni amalga oshirish, ularning manfaatlarini aks ettirish va himoya qilish imkonini beradi”<sup>2</sup>;

– **oltinchidan**, Senat a‘zolarining asosiy qismi, odatda, ijro etuvchi hokimiyat tarmog‘ida doimiy faoliyat ko‘rsatadilar. Shu sababdan Senat davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlari faoliyatini tutashtirib turuvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Quyi palata tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma‘qullah yoki rad etish orqali Senat ularning nafaqat hududlar manfaatlarini o‘zida aks ettirganligiga, balki qay darajada amaliy ekanligiga ham baho beradi;

– **ettinchidan**, ikki palatali parlamentga o‘tilishi bilan “O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti vakolatlarining bir qismi, birinchi galda, davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash masalalari yangi tashkil etiladigan yuqori palata - Senatga o‘tkaziladi”<sup>3</sup>. Bu esa, davlat hokimiyyati organlari o‘rtasida hokimiyat vakolatlarining yanada mutanosib taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur omillardan kelib chiqib, navbatdagi ustuvor vazifa sifatida ikki palatali parlamentga o‘tishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish masalasi qo‘yildi. 2001-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalaridan biri sifatida ikki palatali parlamentga o‘tish yuzasidan O‘zbekiston

<sup>1</sup> Азизхужаев А.А. Чин узбек иши. Ташкент.: “Академия” нашриёти, 2003. -77-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараккиёт ва маърифий дунё, хамкорлик йўли. Т.11. – Ташкент.: Ўзбекистон, 2003. - 218-бет.

<sup>3</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараккиёт ва маърифий дунё, хамкорлик йўли. Т.11. – Ташкент.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 220.

Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi<sup>4</sup>. Referendum 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazildi hamda referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 93,65 foizi ikki palatali parlamentni yoqlab ovoz berdi<sup>1</sup>.

Referendum natijalari mamlakatimizning demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tuzumga xos bo'lgan barcha asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi bosqichma-bosqich, izchil harakati hozirgi kunda hech qanday kuch to'xtata olmaydigan muqarrar, qonuniy jarayonga aylandi, deb hisoblashimiz uchun asos bo'ldi.

Shu asosda 2002-yil 4-aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun<sup>2</sup> va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlaringin asosiy yo'naliishlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Dastlabki bosqichda qonunchilik ishlari strategiyasining asosiy yo'naliishlari va ustuvorlikni belgilab olish zaruratidan kelib chiqib qabul qilingan "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun referendum yakunlarini qonunchilik tilida ifodalab - muhrlab berdi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritishga asos bo'ldi, kelgusida qabul qilinishi lozim bo'lgan, o'zgarishlar jarayonini o'zida mujassam etadigan yangi qonunlar oldiga prinsipial talablar qo'ydi.

Keyingi bosqichda yuqoridagi masalalarni huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlarini qabul qilish boshlandi. Dastlab, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida (2002-yil 12-dekabr) va O'zbekiston Respubli-kasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi (2002-yil 12-dekabr)gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Ular asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (2003-yil 24-aprel)gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun ikki palatali parlament va parlament palatalarining yuqorida tilga olingan konstitutsiyaviy qonunlar bilan

---

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари туплами, 2001 - №8 - 22-24

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 -№4-5 - 60-модда

belgilangan huquqiy maqomini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilishini ta‘minladi.

Endilikda parlamentni shakllanrirish jarayoni tubdan o‘zgarganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida (2003-yil 29-avgust) gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritilib, uning yangi tahriri qabul qilindi. Xuddi shu kuni yangi shakllanrilayotgan Oliy Majlis palatalarining ish rejimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida (2003-yil 29-avgust), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida (2003-yil 29-avgust)gi qonunlar qabul qilindi. Eng so‘nggi bosqichda, ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining huquqlarini, majburiyatlarini hamda deputatlik, senatorlik faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida (2004-yil 2-dekabrda)gi qonun va Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatini hamda Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida (2004-yil 2-dekabrda)gi qonun qabul qilindi.

O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarning ilk davrlaridayoq professional parlamentarizmga bosqichma-bosqich, siyosiy ziddiyatlar yoki qarama-qarshiliklardan holi ravishda, barqaror va izchil islohotlar yo‘li bilan erishish maqsad qilib olingan edi. Ikki palatali parlamentga o‘tish jarayonida ham mazkur prinsiplarga qat‘iy amal qilindi.

Parlament islohotlari amalga oshirilgan ayrim mamlakatlarda dastlab mazkur islohot tashabbuskori (davlat yoki hukumat boshlig‘i yoxud boshqa vakolatli organ) tomonidan yangi parlamentning muvaqqat nizomi yoki faoliyatining asosiy prinsiplari qabul qilinadi. Uning huquqiy maqomini belgilovchi hujjatlar esa, yangi parlament shakllantirilganidan so‘ng shu parlamentning o‘zi tomonidan qabul qilinadi. Ba‘zan, faoliyat ko‘rsatib turgan parlament tarqatib yuboriladi. O‘zbekistonda esa, bu kabi salbiy holatlar umuman yuz bermadi.

Xuddi, Oliy Kengash tomonidan Oliy Majlis faoliyatining huquqiy asoslari ishlab chiqilganidek, ikkinchi chaqriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ikki palatali parlamentga o‘tish zaruratidan kelib chiqib, uning palatalari, parlament a‘zolarining huquqiy maqomini, ularning faoliyat olib borish tartibini belgilovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqdi.

Bu esa, ikki palatali parlamentga o'tish o'sha paytga kelib hayotiy zaratutga aylanib ulgurgani, ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'zining besh yillik faoliyati davomida, rivojlangan davlatlarda va o'zimizda to'plangan boy tajribalarga asoslangan holda, zarur huquqiy hujjatlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi, parlament deputatlari hali shakllantirilmagan ikki palatali Oliy Majlisning qanday faoliyat olib borishi lozimligi to'g'risida aniq tasavvurning mavjudligi bilan izohlanadi.

Nihoyat, 2004-yil 26-dekabrdagi saylov natijalariga ko'ra, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan deputatlarning 34,3 foizi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 23,3 foizi, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasidan 18 nafar, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan 11 nafar, Adolat sotsial-demokratik partiyasidan 10 nafar, tashabbuskor guruhlardan 14 nafar deputat saylandi. Saylangan deputatlar orasida quyidagi mutaxassislar vakillarini ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>. Bularga:

| T/r | Soha mutaxassislari nomi                              | foizi     |
|-----|---|-----------|
| 1   | Yuristlar   | 18,3 foiz |
| 2   | iqtisodchilar   | 21,7 foiz |
| 3   | sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi vakillari | 10 foiz   |
| 4   | qishloq xo'jaligi vakillari                           | 7,5 foiz  |
| 5   | tadbikorlar   | 12,5 foiz |
| 6   | ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash xodimlari | 20 foiz   |
| 7   | nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari             | 16 foiz.  |

2005-yil 17-20-yanvar kumlari o'tkazilgan mahalliy davlat hokimiyati organlari qo'shma majlislarining bayonnomalariga asosan, Markaziy saylov komissiyasining qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti nafardan, jami 84 nafar deputat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi sifatida ro'yxatga olindi. 2005-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolarini tayinlash to'g'risida"gi Farmoni bilan fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan 16 nafar Senat a'zosi

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий хукуки. Дарслик/ Муаллифлар жамоаси. Тошкент.: ТДҶОИ, 2005 - 392-393-бетлар.

tayinlandi<sup>1</sup>. Shunday qilib, professional tarzda faoliyat olib boradigan ikki palatali parlament to‘la tarkibda saylovlar asosida shakllantirilib olindi.

## **2-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati tizimidagi tutgan o‘rni hamda konstitutsiyaviy vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi hisoblanib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy Majlis palatalarining davlat mexanizmida tutgan o‘rni, davlat hokimiyatining boshqa organlari bilan munosabatlari, vakolatlari va ularni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, palatalarning reglamentlari orqali tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida, O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin, deyiladi. Mazkur normaning o‘ziyoq, Oliy Majlisning oliy vakillik hokimiyatini amalga oshirishini, uning davlat hokimiyati organlari tizimida alohida o‘rin tutishini nazarda tutadi. Konstitutsiyaning “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nomlangan beshinch bo‘limi esa, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi” haqidagi XVIII bob bilan boshlanadi. 76-88-moddalardan iborat mazkur bob O‘zbekiston Respublikasi parlamentining konstitutsiyaviy maqomini helgilab beradi.

Konstitutsiyaning 76-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatası (quyi palata) va Senatdan (Yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati - besh yil.

Konstitutsiyada nazarda tutilgan oliy davlat vakillik organi deganda, Oliy Majlisning vakillik organlari<sup>1</sup> tizimiga kirishi va mazkur tizimda

<sup>1</sup>“Халқ сўзи” газетаси, 2005 й. 25 январь.

uning eng yuqori pog'onani egallashi; qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, deganda esa, hokimiyatlar bo'linishi prinsipiiga muvofiq, davlat hokimiyatining eng muhim faoliyat yo'nalişlaridan biri – qonun ijodkorligi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan amalga oshirilishi tushuniladi. Aksariyat davlatlarning konstitutsiyaviy amaliyotidan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Konstitutsiyada ham, boshqa qonun hujjatlarida ham parlament deb yuritilmaydi. Lekin Konstitutsiyaning Yuqorida ta'kidlangan 76-moddasi mazmunan Oliy Majlisning O'zbekiston Respublikasining Parlamenti ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzalarida, eng asosiy kamchilik shuki, **Oliy Majlis hali-hanuz haqiqiy bahs-munozaralar maydoniga aylangani yo'qligiga alohida e'tibor qaratdilar**<sup>2</sup>.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata) bir yuz elliq deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining *bir yuz o'ttiz besh* deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiyligida teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining *o'n besh* deputati O'zbekiston Ekologik harakatidan saylanadi. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati esa, hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - *olti kishidan* saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy

<sup>1</sup> Вакиллик органи – ахоли томонидан сайланадиган депутат (вакил)лардан иборат давлат хокимияти ёки маҳаллий ўз-ўзини бошқариш хайъат органларининг умумлаштирилган ва кадимдан қабул қилинган номи. Ушбу орган ахоли манбаатларини кўзлаб (ифодалаб), ўз ваколатларга таалуқли масалаларни хал этади. // Конституциявий хуқук. Энциклопедик лугат. Масъул муҳаррир ва муаллифлар жамоасининг раҳбари Б.Мустафоев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2006. - 78-бет.

<sup>2</sup> Қаранг: Халқ сизи 2018 йил 8 декабрь

Majlisi Senatining *o'n olti nafar a'zosi* fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlarga nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilandi<sup>1</sup>. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emasligi shart qilib qo'yildi.

Ikki palatali Oliy Majlisning bir palatali Oliy Majlisdan farqli xususiyatlaridan biri shundaki, bunda parlamentning kompetensiyasiga kiruvchi masalalar har ikki palata tomonidan o'z vakolatlari doirasida yoki birgalikda amalga oshiriladi. Parlament palatalarining birgalikdagi tasarrufiga kiruvchi masalalarni, shartli ravishda, to'rt guruhga bo'lib o'rghanish mumkin: 1) qonunchilikka oid; 2) vakillikka oid; 3) nazoratga oid; 4) ma'muriy-hududiy tuzilishga oid<sup>2</sup>. Parlament tomonidan hal qilinadigan masalalar, shuningdek, predmeti va hal qilish tartibiga ko'ra ham bir necha turlarga ajratiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlarini hal qilish predmetiga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

### **1) huquq ijodkorligi sohasida:**

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

– O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

---

<sup>1</sup> Узбекистон Республикасининг Олий Мажлисига сайлов тўғрисида "ги Конуннинг 25-моддаси "Депутатликка номзодларга кўйиладиган талаблар", деб номланган булиб, ушбу молдага кура, кўйидагилар: 1) содир этган оғир ёки ута оғир жинояти учун судланганлик ҳолати туталнамаган ехуд судланганлиги олиб ташланмаган фуқаролар; 2) сайлов кунига кадар сўнгги беш йил мобайнида Ўзбекистон Республикаси худудида муким ящамаган фуқаролар; 3) Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучларининг ҳарбий хизматчилари, Миллий ҳавфиззик хизмати, бошка ҳарбийлаштирилган булинмаларнинг ходимлари; 4) диний ташкилотлар ва бирлашмаларнинг профессионал хизматчилари депутатликка номзод этиб рўйхатга олинмайдилар.

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси Конституциявий хукуки. Дарслер/ Муаллифлар жамоаси. Тошкент ТДЮИ, 2005. - 422-бет.

– xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish.

Misol tariqasida, konstitutsiyaviy normalarni yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-426-sonli qonuni.

### **2) jamiyat va davlat hayotining muhim masalalari yuzasidan:**

– O‘zbekiston Respublikasining referendummini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

– mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiyligi yoki qisman safarbarlik e‘lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

– davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish.

Jumladan, ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish maqsadida 2012-yildagi qonun bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati kontsepsiysi, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshtaustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (2017-yil) va boshqa bir qator strategik ahamiyatga ega davlat dasturlari qabul qilingan.

### **3) ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish sohasida:**

– O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

– O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

– tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish.

Ushbu vakolatlarni amalga oshirish tartibi “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”

(1996-y.) hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi (2011-y.) qonunlar bilan belgilangan.

**4) moliya va kredit sohasida:**

– boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish.

Bu masalalarni tartibga solishda “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” (yangi tahrir) (2003-y.), “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” (1996-y.), “Iste‘mol krediti to‘g‘risida” (2006-y.), O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2007-y.) va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

**5) davlat hokimiyati mexanizmini tashkil etish sohasida:**

– O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rnbosarini saylash;

– O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish.

– Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)” gi qonuniga muvofiq tartibga solingan.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiritilgan mazkur masalalarni, hal qilish tartibiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

**1) palatalarning Vazirlar Mahkamasi taqdimiga (taklifiga) ko‘ra amalga oshiradigan birgalikdagi vakolatlari:**

– boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;
- tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish.

**2) palatalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan birgalikda amalga oshiradigan vakolatlari:**

*a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmon va qarorlarini tasdiqlash:*

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruving boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiyligi yoki qisman safarbarlik e‘lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash.

*b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga ko‘ra, palatalarning tegishli qarorlarini qabul qilish:*

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zoligiga nomzodlarni keyinchalik ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimlarga tasdiqlash uchun ko‘rib chiqish va ma‘qullash;
- O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilini saylash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida, parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish

lozimligiga to'xtalib o'tib, hozirgi kunda Konstitutsiyaga muvofiq, parlament Bosh vazirni tasdiqlaydi. Lekin vazirlarni lavozimga qo'yishda qatnashmaydi. Shuning uchun Hukumat a'zolari parlament oldida mas'uliyatni yetarli darajada his etayotgani yo'q. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyotini kiritish taklifi bildirib o'tildi<sup>1</sup>.

### **3) palatalarning birgalikdagи mutlaq vakolatlari:**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
- xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish.

Mazkur guruhdagi masalalarni hal qilishda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi ishtirok etishlari mumkin. Xususan, ular tomonidan Konstitutsiya, konstitutsiyaviy va qonunlarning loyihalari, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar qonunchilik tashabbusi huquqi asosida Qonunchilik palatasiga kiritilishi mumkin. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, Senat tomonidan ma'qullangan qonunlar Prezident tomonidan imzolanishi talab qilinadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi yoxud ular vakolat bergen organ (mansabdar shaxs) tomonidan tuziladi. Lekin bu guruhdagi masalalarning o'ziga xosligi shundaki, Oliy Majlis palatalari ularni Prezident va Vazirlar Mahkamasiga bog'liq bo'limgan holatda, faqat o'z vakolati doirasida hal qiladi.

---

<sup>1</sup>Қаранг: Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь.

Palatalarning birqalikdagi vakolatlari yuzasidan e'tibor berilishi lozim bo'lgan yana bir jihat mavjud. Ayrim davlatlarning ikki palatali parlament amaliyotidan (masalan, GFR Bundestag va Bundesratidan) farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birqalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi. Mazkur qoida parlament ishida izchillik va barqarorlik mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Parlament tomonidan hal qilinadigan masalalarning keyingi guruhi esa, palatalarning mutlaq vakolatiga berilgan masalalardir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qonunchilik palatasining ham, Senatning ham mutlaq vakolatlari belgilab qo'yilgan. Ijro hokimiyati faoliyatini shakllantirishdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolati va ishtirokini yanada takomillashtirish maqsadida, 2019-yil 5-martdagi "Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi natijasida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93,98 - moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur yangi qoidalarga muvofiq, Konstitutsiyaning 79-moddasidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari quyidagi tarzda bayon etildi:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rindbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rindbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zoligiga nomzodlarni keyinchalik ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimlarga tasdiqlash uchun ko'rib chiqish va ma'qullah kiradi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi uning davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlар muvozanati tizimidagi alohida o'rnnini belgilab beruvchi quyidagi funksiyalarga ega:

– **birinchidan**, Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi sohasida professional faoliyat ko'rsatadi, qonun loyihalari qonunchilik tashabbusi subyektlari tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga ko'ra, qonun Senat tomonidan rad etilganda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan, Prezident tomonidan qaytarilganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, imzolash va e'lon qilish uchun Prezidentga yuboriladi;

– **ikkinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'mini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinalarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiylar tomonidan taklif etiladi;

– **uchinchidan**, Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy tayyor sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman tayyorlangan taklif bo'yicha kiritiladi;

– **to'rtinchidan**, Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masallar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan parlament, deputat so'rovi yo'llashga haqli;

– **beshinchidan**, Qonunchilik palatasi, Qonunchilik palatasining Spikeri, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to'rtadan bir qismidan iborat deputatlar guruhi Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga esa**, Konstitutsiyaning 80-moddasiga muvofiq, quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinosbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinosbosarlarini saylash;

- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisini tayinlash;
- 5) ushbu band O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 31-maydag‘i O‘RQ – 430-sonli Qonuniga asosan chiqarib tashlangan;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Hisob palatasi raisi tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;
- 9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;
- 10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnostiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;
- 11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zosini daxsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;
- 12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;
- 13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Senati ham o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimida muhim o‘rin tutgan holda, o‘z vakolatlari doirasida quyidagi xususiyatlarga ega:

**birinchidan**, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlarning soni senatorlar umumiy sonining to‘rtadan birigacha bo‘lgan miqdorda belgilanadi. Senatning boshqa a‘zolari esa, odatda, ijro etuvchi hokimiyat tizimida doimiy faoliyat ko‘rsatadilar. Ular “boshqaruv sohasida band

kishilar bo‘lib, ko‘proq siyosiy tarafga yo‘naltirilgan quiyi palata ishlab chiqqan qonunlarni amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

**ikkinchidan**, mamlakatning amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi;

**uchinchidan**, vakolati tugashi munosabati bilan iste‘foga chiqqan Prezident umrbod Senat a‘zosi lavozimini egallaydi;

**to‘rtinchidan**, Senat va Senat a‘zosi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan parlament, senatorlik so‘rovi yo‘llashga haqlid;

**beshinchidan**, Senat, Senatning Raisi, Senat a‘zolari umumiy sonining kamida to‘rtdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega.

Hozirgi kunda parlament nazorati mexanizmidan samarali foydalanish maqsadida davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, tegishli idora rahbarlarining faoliyati yuzasidan parlament eshituvlari, parlament so‘rovi institutlaridan tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida, 2017-yilda Qonunchilik palatasida **21** ta parlament eshitivi o‘tkazilgan. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslariga **3** ta parlament so‘rovi yuborilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma‘ruzalarida, joriy yilda davlat organlari va mansabдор shaxslarga Senat bor-yo‘g‘i 2 ta, Qonunchilik palatasi esa 3 ta parlament so‘rovi yuborgan, xolos<sup>1</sup>. Albatta, parlament ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazorati shakllarini qo‘llashda undan samarali foydlanishi lozim. Shundagina, parlamentning demokratiya maktabi ekanligi hayotda o‘z isbotini topadi.

### **3-§. Oliy Majlis palatalari faoliyatining tashkiliy shakllari**

Jahon mamlakatlarining parlamentarizm sohasidagi uzoq yillik tajribalari shuni ko‘rsatadiki, parlament vakolatlarining realligi, uning

<sup>1</sup> Азизхужаев А.А. Чин ўзбек иши. Тошкент: “Академия” нашириёти, 2003. 77-78-бетлар.

<sup>1</sup> Каранг: Халқ сўзи. 2018 йил 8 декабрь.

barqaror va samarali ishlashi ko'p jihatdan parlament faoliyatining qay darajada to'g'ri tashkil etilganligiga bevosita bog'liqidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida Oliy Majlis palatalari faoliyatining zarur tashkiliy huquqiy mexanizmi o'z ifodasini topgan.

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda Oliy Majlisga saylovlari kuni va uning vakolat muddati qat'iy belgilab qo'yilgan: Qonunchilik palatasiga saylovlari uning vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Xuddi shu kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga ham saylovlari o'tkaziladi. Saylovlari o'tganidan keyin bir oydan kechiktirmay Senatga saylov o'tkaziladi. Bu orada vakolat muddati tugagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasiga asosan, tegishinchaligi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Shu tariqa, shakllantirilgan Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyatiga asoslanadi. Palata faoliyatining tashkiliy shakli uning sessiyalar davrida, qoida tariqasida, haftasiga uch marta o'tkaziladigan majlislaridir. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisi Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Mazkur majlisni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisida uning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi, shu jumladan, qoida tariqasida:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari to'g'risidagi axboroti;
- elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat guruhini saylash;
- siyosiy partiyalar vakillari kengashining tarkibini shakllantirish;
- Qonunchilik palatasi Spikerini saylash;
- Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinnbosarlarini saylash;
- siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar guruqlarini ro'yxatga olish;

- Qonunchilik palatasining qo‘mitalarini tuzish.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisida Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq boshqa masalalar ham ko‘rib chiqilishi mumkin, bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasining navbatdan tashqari majlislari uning sessiyalari oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, Qonunchilik palatasi Spikeri taklifiga yoki Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ishi esa, masalaarni birlgilikda va erkin muhokama qilish, oshkoraliq, jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplariga muvofiq holda, vaqtı-vaqtı bilan yalpi majlislarga va Senat qo‘mitalarining (komissiyalarining) majlislariiga chaqiriladigan senatorlarning faoliyatiga asoslanadi.

Senatning birinchi majlisi Senat shakllantirilganidan keyin bir oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Mazkur majlisni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Senat Raisi saylangunga qadar unda raislik qiladi. Senatning birinchi majlisi ishini tashkil etish uchun majlisning muvaqqat kotibiyati va sanoq komissiyasi saylanadi.

Senatning birinchi majlisida uning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi, shu jumladan, qoida tariqasida:

- elektron tizimdan foydalanish ustidan muvaqqat nazorat guruhi saylanadi;
- Senat Raisi va uning o‘rnbosarlari saylanadi;
- Senatning qo‘mitalari tuziladi.

Senatning navbatdan tashqari majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senatning Raisi taklifiga yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismining taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rnbosarlarini saylab olish yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning<sup>1</sup> 4-moddasi yangicha qoida bilan to‘ldirildi. Ya‘ni, Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o‘rnbosarlarini saylash uchun deputatlar orasidan Qonunchilik palatasiga saylovida ishtirok etgan har bir siyosiy partiyadan kamida uch nafar deputatdan iborat Siyosiy partiyalar vakillari kengashi tuziladi. Siyosiy partiyalar vakillari kengashining tarkibi to‘g‘risidagi qaror

---

<sup>1</sup>Узбекистон Республикаси қонун хуҷожатлари тўплами. 2015 й., 52-сон, 645-модда.

Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Siyosiy partiyalar vakillari kengashi o‘z majlisida Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni deputatlar orasidan ko‘rsatish masalasini ko‘rib chiqadi. Siyosiy partiyalar vakillari kengashi majlisida Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiyaning vakili raislik qiladi. Bu qoida ham siyosiy partiyalarning tegishli rahbarlarni shakllantirishdagi rolini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga ko‘ra, Senatning birinchi majlisi Senat Raisini saylashdan boshlanadi. Senat Raisligiga va uning o‘rinbosarligiga nomzodlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan senatorlar orasidan taqdim etiladi. Nomzod, agar u yashirin ovoz berish natijasida senatorlar umumiy sonining yarmidan ko‘p ovozini olgan bo‘lsa, Senat Raisi yoki uning o‘rinbosari etib saylangan hisoblanadi. Senatorlar orasidan saylanadigan Senat Raisining o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘ladi. Senat Raisi va uning o‘rinbosarları saylanganligi to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi, qarorlarni Senat majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi hamda ularning o‘rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali tegishincha deputatlar, senatorlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan palataning vakolati muddatiga saylanadi. Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi tegishincha deputatlar, senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan qabul qilingan tegishli palata qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin. Ularning o‘rinbosarları esa, yashirin ovoz berish orqali tegishincha deputatlar, senatorlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan tegishli palata qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a‘zolari;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi raislari;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining *qo‘shma majlislari*:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda;
- chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda;
- palatalarning kelishuviga binoan boshqa masalalar yuzasidan o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va Senati Raisi:

- 1) tegishli palataning majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;
- 2) palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;
- 3) palata qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- 5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq tegishli palata guruqlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa palatasi, davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o‘zga tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda tegishli palata nomidan ish ko‘radi;
- 7) palata qarorlarini imzolaydi;
- 8) Konstitutsiya va qonun hujjalardan nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Xususan, mamlakatning amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda Senat Raisi uning vazifa va vakolatlarini vaqtincha o‘z zimmasiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, qo‘mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish maqsadida Kengash tuziladi. Kengash tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o‘rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari, qo‘mitalarining raislari kiradi. Kengashga Qonunchilik palatasi Spikeri rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Shuningdek, Senat faoliyatini samarali tashkil etish, qo‘mitalar ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o‘rinbosarlari va Senat qo‘mitalarining raislari kiradi. Senat Kengashiga Senat Raisi rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasiga ko‘ra, qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarolarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o‘rinbosari va a‘zolardan iborat tarkibda qo‘mitalar saylanadi.

2015-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq<sup>1</sup>, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi, qonunga tegishili o‘zgartirish kiritilib, Qonunchilik palatasida qoida tariqasida o‘n bitta qo‘mita tuzilishi belgilab qo‘yildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasiga ko‘ra, Senat muhokamasiga kiritiladigan

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари туплами. 2015 йил, 645 - мадда

masalalarini dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Senat shakllanganidan keyin uning vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan rais, uning o'rinnbosari va a'zolardan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Senat qo'mitalarining umumiy soni, qoida tariqasida, sakkiztadan oshmasligi kerakligi to'g'risidagi qoida esa, Oliy Majlis Senati Reglamenti to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan(7-modda).

Milliy qonunchilikimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo'mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya) bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining qo'mita raisi, uning o'rinnbosari va qo'mita a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozini olganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"<sup>gi</sup> qonuni 7-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasida budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi, qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi, mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tuzilishi shartligi; "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Reglamenti to'g'risida"<sup>gi</sup> qonuni 7-moddasiga ko'ra esa, Senatda budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi, qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi, fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi, yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tuzilishi shartligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida, Qonunchilik palatasida sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha alohida qo'mita tashkil etib, uning

---

<sup>1</sup> Конституции зарубежных государств Учебное пособие. Москва: "Бек", стр.50-55, 60-61

a‘zolari asosan hududlarda faoliyat ko‘rsatsa, nur ustiga nur bo‘lardi<sup>2</sup>, degan masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan edilar. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida “Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari” bo‘yicha alohida qo‘mita tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida esa, Parlament nazoratining ta‘sirchan shakllaridan biri bo‘lgan Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini ko‘rib chiqishga alohida ahamiyat berishimiz zarur. Bu ishni yuqori professional darajada yo‘lga qo‘yish uchun Oliy Majlis qoshida Davlat budgeti boshqarmasini tashkil etish taklifi bildirib o‘tildi<sup>3</sup>.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 2018-yil yakunlariga ko‘ra, parlament nazorati shakllaridan unumli foydalanish yuzasidan, o‘tgan davrda Qonunchilik palatasida 16 ta parlament eshituvni o‘tkazilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma‘ruzalarida, Oliy Majlis palatalarining parlament so‘rovrlari va parlament eshituvlari qonun va qarorlar ijrosini hamda islohotlarimiz samaradorligini ta‘minlovchi ta‘sirchan vositaga aylanishi kerakligini alohida ta‘kidladilar<sup>5</sup>. Bu albatta, parlament nazorati shakllarining mamlakat hayotida samarali ta‘sir ko‘rsatayotganligidan dalolat berishiga imkon tug‘diradi.

Parlamentlardagi qo‘mitalar soni, nomi va vakolatlarini belgilashda ularning faoliyati davlat siyosatining barcha jabhalarini qamrab olishidan kelib chiqiladi. Bunday yondashuv natijasida xorijiy davlatlar parlamentlari qo‘mita va komissiyalarining soni aytarli darajada salmoqli bo‘ladi. Misol uchun, Yaponiya “Parlamenti to‘g‘risida”gi qonunning 42-moddasiga ko‘ra Maslahatchilar palatasida adliya, tashqi siyosat, moliya, maorif, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy ma‘muriyat, ijtimoiy muammolar, mehnat, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va suv xo‘jaligi,

---

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 24 - 25 бетлар.

<sup>3</sup> Каранг: Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь.

<sup>4</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

<sup>5</sup> Каранг: Халқ сўзи. 2018 йил 8декабрь

savdo va sanoat, aloqa, transport, qurilish, shuningdek, budjet, taftish, intizomiy va parlamentda ishni tashkil etish masalalari bo'yicha komissiyalar tuziladi. AQSH Kongressida palatalarning (soliqqa tortish, iqtisod, Kongress kutubxonasi, nashrlar bo'yicha) 4 ta umumiy va har birining tarkibida (Senatda – 16 ta, Vakillar Palatasida – 22 ta) ko'plab qo'mitalar tuzilgan.

Italiya, Fransiya va boshqa davlatlarning parlamentlarida ham turli komissiyalar tuziladi. Biroq, komissiyalarning soni qanchalik ko'p bo'lmasin, ular davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab ololmaydilar. Shuning uchun komissiyalarning nomi ularning faoliyat sohalaridan kengroq bo'lishi mumkin. Misol uchun, qurilish bo'yicha komissiyalar nafaqat qurilish, balki yerdan foydalanishni rejalashtirish, kartografiya, topografiya masalalari bilan ham shug'ullanadilar<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo'lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi. Komissiyalar Oliy Majlis palatlari majlisida deputatlar va senatorlar orasidan komissiya raisi va a'zolari, zarurat bo'lganda esa komissiya raisining o'rinosidan iborat tarkibda tuziladi. Komissiya tuzilgani to'g'risida palatalar tegishli qaror qabul qiladi.

Komissiya o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan so'ng, qaysi muddatga tuzilgan bo'lsa, shu muddat o'tganidan keyin yoki palatalar qaroriga binoan muddatidan ilgari o'z faoliyatini tugatadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining komissiyalari (parlament komissiyalari) tashkil etilishi mumkin. Zarur bo'lgan hollarda esa, komissiyalar ishiga davlat organlarining va boshqa organlarning vakillari, shuningdek, fuqarolik jamiyatni institutlarining vakillari jalb etilishi mumkin.

---

<sup>2</sup> Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т. Москва " Бек". 1 – 2.- М., 1996. С. 456.

2018-yilda Qonunchilik palatasida **6** ta komissiya faoliyat ko'rsatdi, bular Qonunchilik palatasining Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiyasi, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi, Odob komissiyasi, Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi, Qonunchilik palatasi huzuridagi tibbiyot komissiyasi, Qonunchilik palatasi deputatlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bo'yicha komissiyadir<sup>1</sup>.

Oliy Majlis Senatida esa, Reglament va odob komissiyasi, Senatning mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyalari faoliyat olib bormoqda<sup>2</sup>.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari siyosi, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlari shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin. Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli fraksiyalar va deputatlar guruhlari faoliyat olib boradi.

Fraksiya siyosi partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosi partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan yig'ilishdagi ma'rurasida, "Siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari faoliyatini kuchaytirmasak, qonun ijodkorligi va qabul qilingan qonunlar ijrosi kutilgan natijani bermasligi<sup>3</sup>ga alohida to'xtalib o'tildi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг расмий веб-сайти [www.senat.uz](http://www.senat.uz).

<sup>3</sup>Мирзиев Ш.М. Милий тараккиет йўлимизни катъяят билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018. – Б.553

tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin.

Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi tarkibiga kiradi. Fraksiya va deputatlar guruhi o'z tashabbusi bilan, Qonunchilik palatasining vakolat muddati tugaganda, ular tarkibiga kiruvchi deputatlar soni ularni tuzish uchun zarur bo'lgan miqdor chegarasidan kamayib ketganda tugatilishi mumkin.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga binoan, 2014-yil Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tgan saylov natijalariga ko‘ra, Qonunchilik palatasida to‘rtta siyosiy partiya fraksiyalari tuzildi. Bular O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi – 52 ta a‘zodan iborat, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi – 36 ta a‘zodan iborat, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi – 27 ta a‘zodan iborat, O'zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasi – 20 ta a‘zodan iborat fraksiyalaridir<sup>1</sup>.

**Ikki palatali parlament shakllanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyaiari va deputatlar guruhlari tarkibidagi deputatlar soni**

| Siyosiy partiyalar nomi                           | 2004-yildagi tarkib | 2009-yildagi tarkib | 2014-yildagi tarkib |
|---|---------------------|---------------------|---------------------|
| O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi          | 40 nafar            | 53 nafar            | 52 nafar            |
| O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi             | 27 nafar            | 32 nafar            | 27 nafar            |
| Fidokorlar milliy demokratik partiyasi            | 18 nafar            | –                   | –                   |
| O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi | 11 nafar            | 31 nafar            | 36 nafar            |

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

|   |          |          |          |
|---|----------|----------|----------|
| O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi | 10 nafar | 19 nafar | 20 nafar |
| Tashabbuskor guruhlar                           | 14 nafar | —        | —        |
| O'zbekiston Ekologik harakati                   | —        | 15 nafar | 15 nafar |

Qonunchiligidan e'tiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhlarining vakolatlari doirasini siyosiy partiyalar farksyailari vakolatlari doirasiga tenglashtirildi. Ayni chog'da, ularning fraksiyalar bilan bir qatorda va ular bilan teng ravishda ish yurita olishining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Bular, xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 25-moddasida mufassal ifodasini topdi.

Xususan, Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi; Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi; Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi va boshqa bir qancha vakolatlarni amalga oshiradi.

2018-yilda deputatlar birlashmalari tomonidan **362** ta yig'ilish o'tkazilgan. Ularda jami **1 615** ta masala ko'rib chiqilgan<sup>2</sup>. Bularga:

| T/r | Ko'rib chiqilgan masalalar nomi   | Soni    |
|-----|---|---------|
| 1   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining muhim ijtimiy-siyosiy, iqtisodiy va tashqi siyosat sohalaridagi dolzarb masalalar bo'yicha ma'ruzalari, farmonlari va qarorlaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarga | 102 ta  |
| 2   | qonun ijodkorligi faoliyatiga   | 1192 ta |
| 3   | nazorat-tahlil faoliyatiga  | 39 ta   |
| 4   | fraksiyalarning faoliyatiga oid   | 41 ta   |

<sup>2</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг расмий веб-сайти [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

Hozirgi kunda, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi - Budget va iqtisodiy islohotlar, Sud-huquq va qonunchilik, Sanoat, qurilish va savdo, Agrar va suv xo'jaligi masalalari; O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi – Mudofaa va xavfsizlik, Mehnat va ijtimoiy masalalar; O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi – Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, Axborot va kommunikatsion texnologiyalar, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Fuqarolarning sog'ligini saqlash masalalari; O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi – Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari; O'zbekiston Ekologik harakati deputatlilik guruh - Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitalari raislari lavozimi taqsimlangan<sup>1</sup>.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, qo'mita raisi, uning o'rribosari va qo'mita a'zolari lavozimlariga nomzodlar ko'rsatish yuzasidan takliflarni deputatlar birlashmalarining rahbarlari o'zaro kelishgan holda kiritadilar.

Parlament ishchi organlarini shakllantirish va tarkibini belgilashda partiyalar ishtirokini ta'minlash ularning faoliyatini tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Misol uchun, Fransiya quyi palatasi reglamenti bilan doimiy komissiyalar a'zolarining soni turlicha belgilangan. Madaniyat, oila va ijtimoiy muammolar hamda ishlab chiqarish va ayirboshlash bo'yicha komissiyalarda Milliy Majlis tarkibining to'rtadan biri, ya'ni 145 ta deputat, qolgan to'rttasida esa uning sakkizdan bir qismi faoliyat yuritishi mumkin. Odatda, ularning tarkibini siyosiy partiyalar belgilab, parlamentdagi a'zolarining to'rtadan birini ikkita komissiyaga, qolganlarini boshqa komissiyalarga teng taqsimlashadi. Ya'ni, parlament siyosiy partiyalar guruhlarining rahbarlari quyi palata raisiga o'z nomzodlarini taqdim qilishadi. Deputatlarning ismi-shariflari «Journal Officiel»da nashr qilinishi bilan ular tayinlangan deb hisoblanadi. Ushbu qoida har bir siyosiy partiya, ya'ni turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday yo'l bilan shakllangan komissiyalarda ish jadal olib boriladi.

---

<sup>1</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчиллик палатасининг расмий веб-сайти.  
[www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 2-moddasi demokratik kuchlar blokini tashkil etish uchun huquqiy asos bo‘lib, unda bir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari o‘z dasturiy maqsad-vazifalarining yaqinligidan yoki o‘xshashligidan kelib chiqqan holda parlament ko‘philigini tuzishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Ushbu normaga asoslanib, 2015-yil 14-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalarining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda parlamentning quyi palatasida “Demokratik kuchlar bloki”ni tuzish masalasi muhokama etildi hamda tegishli qaror qabul qilindi.

Oliy Majlis palatalari faoliyatini tashkil etishda, palatalar devoni faoliyatni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, Oliy Majlis palatalari, uning organlari va ular faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta‘minotini devon amalga oshiradi. Oliy Majlis palatalari devoni o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis palatalari, uning Kengashi qarorlariga, Qonunchilik palatasi Spikeri, Senat Raisining farmoyishlariga hamda Nizom talablariga amal qiladi. Oliy Majlis palatalari devoni axborot - tahlil, tashkiliy - nazorat, yuridik, xalqaro aloqalar, moddiy - texnika va ta‘minot, moliya, hisob va hisobot kabi bo‘limlardan iborat bo‘lib, ular qo‘mitalar bilan ishslash, yuridik xulosa berish, nazorat-axborot, xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish va boshqa shu kabi muhim tashkiliy va axborot vazifalarini amalga oshiradi.

Oliy Majlis palatlari devoni yuridik shaxs hisoblanadi. Devonning tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Spikeri hamda Senat Raisi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi.

Parlament ishini tashkil etishning O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasidan ma‘lumki, parlament devoni ishini to‘g‘ri tashkil etish uning vazifalarini samarali amalga oshirishning kafolatidir.

### **3-§.O‘zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan yig‘ilishdagi ma‘ruzasida, “Qonunlarni qabul qilishda jamoatchiligimiz, saylovchilarning keng ishtiroti sezilmayayotganligi,

qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim – aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozimligi, muhim qonun loyihalarni birinchi o‘qishda qabul qilgandan keyin ularni joylarda fuqarolar bilan keng muhokama qilish, ularning taklif va mulohazalarini e‘tiborga olib, loyihalarni takomillashtirgan holda ikkinchi o‘qishga kiritish tartibini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lishligi<sup>1</sup> ga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Darhaqiqat, mamlakatimizda qonunchilik jarayoninini tartibga soladigan, tegishli normalarni domiy tarzda takomillashtirib boradigan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” (yangi tahrir), “Qonunlar loyihalarni tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qonunlar hamda parlament palatalarining reglamentlarini misol tariqasida sanab o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining eng muhim funksiyasi – qonunchilik faoliyatidir. Qonunchilik faoliyati deganda, qonun loyihalarni tayyorlash, ularni Qonunchilik palatasiga taqdim etish, muhokama qilish, qabul qilish, ma‘qullah, sanksiyalash va promulgatsiya qilishdan iborat bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon tushuniladi.

Ikki palatali parlament sharoitida qonun ijodkorligi jarayoni quyidagi besh qismdan iborat bo‘ladi:

- 1) qonunchilik tashabbusi;
- 2) qonun loyihasini muhokama qilish;
- 3) qonunning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinishi;
- 4) qonunning Senat tomonidan ma‘qullanishi;
- 5) qonunni imzolash va e‘lon qilish<sup>2</sup>.

Qonunchilik faoliyatining dastlabki bosqichida qonun loyihasi tayyorlanadi va Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi. Bu bosqich

<sup>1</sup>Мирзиев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги боскичга кутармасиз – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.572.

<sup>2</sup>Давлат ва хукук назарияси: Дарслик. Профессор Х.Т.Одилкориев таҳрири остида – Тошкент: “Шарқ”, 2009- Б.240.

qonunchilik tashabbusi deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliv vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2017-yilda qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – **12 ta (8,9%)**;
- Qonunchilik palatasi deputatlari – **27 ta (20,0%)**;
- Vazirlar Mahkamasi – **60 ta (44,4%)**;
- Oliy sud – **19 ta (14,1%)**;
- Oliy xo'jalik sudi – **2 ta (1,5%)**;
- Bosh prokuror – **15 ta (11,1%)** qonun loyihasini kiritgan<sup>2</sup>.

2018-yilda esa, qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – **19 ta (13,1%)**;
- Qonunchilik palatasi deputatlari – **23 ta (15,9%)**;
- Vazirlar Mahkamasi – **81 ta (55,6%)**;
- Oliy sud – **10 ta (6,8%)**;
- Konstitutsiyaviy sud – **2 ta (1,3%)**;
- Bosh prokuror – **10 ta (6,8%)** qonun loyihasini kiritgan<sup>3</sup>.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilayotganda qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

1) qonun loyihasining kontsepsiysi bayon qilingan tushuntirish xati, ushbu kontsepsiya huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy g'oyasi, maqsadi va predmeti; tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning mazkur sohada amalda bo'lgan qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ilova qilingan holdagi

---

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

<sup>3</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

umumiyligi tavsifi va holatiga berilgan baho; qonun loyihasini ishlab chiqish zaruriyati asoslari; qonun loyihasining asosiy qoidalari; bo‘lg‘usi qonunning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa oqibatlari prognozi belgilab berilgan bo‘lishi kerak;

2) o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risidagi, shuningdek, qonun loyihasi kiritilishi bilan bog‘liq qonunlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi qonun loyihasi;

3) o‘zgartirilishi, qo‘sishimchalar kiritilishi, o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi kerak bo‘lgan qonunosti hujjatlarining ro‘yxati;

4) xalqaro hujjatlar va chet el mamlakatlari qonun hujjatlarining, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining tegishli qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida tegishli xalqaro tajriba qo‘llanilishining maqbulligi to‘g‘risidagi asosli takliflar ketma-ket tartibda ko‘rsatilgan tahliliy qiyosiy jadval;

5) moddiy xarajatlar talab qilinadigan qonunlar loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar;

6) davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko‘paytirishni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti moddalarini bo‘yicha o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 8<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining Kengashi huzurida Qonunchilik palatasi devoni xodimlari orasidan uch kishidan iborat tarkibda kiritiladigan qonun loyihalarini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqishni tashkil etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi guruh tuzilishi belgilab qo‘yildi. Bunda kelib tushgan qonun loyihalarini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, Qonunchilik palatasi Kengashi a‘zolarini ular haqida xabardor qilish va ushbu loyihalarni bundan keyin kuzatib borish Muvofiqlashtiruvchi guruh zimmasiga yuklatildi.

Shuningdek, fraksiyalarning (deputatlar guruhlarining) qonun loyihasi bo‘yicha fikrlari va takliflari hisobga olinishi shartligi qonunda mustahkamlab qo‘yildi. Bu esa siyosiy partiya fraksiyalari hamda deputatlik guruhlarning har bir qonun loyihasi yuzasidan o‘zining mustaqil pozitsiyasini bildirish imkoniyatini kafolatlab beradi.

Qonunchilik palatasi Kengashi Muvofiqlashtiruvchi guruhning axborotini eshitib, mas‘ul qo‘mitani belgilaydi, qonun loyihasi hamda

unga ilova qilingan materiallarni masu'l qo'mitaga va, bir vaqtning o'zida, fraksiyalarga (deputatlar guruhlariga) topshiradi.

Qonun loyihasi ko'rib chiqish uchun qabul qilinganda Kengash qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqishga tayyorlash muddatini belgilaydi. Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan qonun loyihasi tegishli materiallar bilan qo'mitalarga yuboriladi. Qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qilish va uni Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda ko'rib chiqishga tayyorlash mas'ul qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Fraksiyalar (deputatlar guruhlari) qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qilish yakunlariga ko'ra mas'ul qo'mitaga o'z fikrlari va takliflarini taqdim etadi.

Mas'ul qo'mita fraksiyalar (deputatlar guruhlari), manfaatdor tashkilotlar hamda ekspertlar guruhlarining fikrlari va takliflarini hisobga olgan holda qonun loyihasining dastlabki tarzdagi muhokamasini o'tkazadi va, agar Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, qonun loyihasi olingan kundan e'tiboran ikki oy ichida unga:

- Qonunchilik palatasi Kengashining qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi qarori loyihasini;
- mas'ul qo'mitaning mazkur qonun loyihasini qabul qilish yoki rad etish zarurligi asoslangan xulosasini;
- fraksiyalarining (deputatlar guruhlarining) qonun loyihasi bo'yicha fikrlari va takliflarini ilova qilgan holda, Qonunchilik palatasi Kengashi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi majlislarida birinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida mazkur qonun loyihasini qabul qilish zarurati, qonun loyihasining kontsepsiysi, uning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi, shuningdek, qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari to'g'risidagi masala muhokama qilinadi. Fraksiyalarining (deputatlar guruhlarining) qonun loyihasi bo'yicha fikrlari va takliflari majburiy ravishda va har tomonlama muhokama qilinishi lozim.

Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini majburiy tartibda belgilagan holda uni birinchi

o'qishda qabul qilish haqida yoxud qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasi muhokamasiga qonun loyihasining muqobil tahrirlari kiritilgan taqdirda ular bir vaqtida ko'rib chiqilishi kerak. Qonunchilik palatasi deputatlarining qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan eng ko'p miqdordagi ovozini to'plagan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingan hisoblanadi. Birinchi o'qishda qabul qilingan qonun loyihasining matni, qoida tariqasida, Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi, zarur bo'lган hollarda esa, Qonunchilik palatasining qaroriga ko'ra ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi tomonidan ikkinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida loyiha bo'yicha moddama-modda ovoz berish o'tkaziladi. Muhokama natijalari bo'yicha Qonunchilik palatasi qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini belgilagan holda uni ikkinchi o'qishda qabul qilish haqida yoxud qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Uchinchi o'qishda qonun loyihasi muhokama qilinmasdan to'laligicha ovozga qo'yiladi.

Qonun loyihasi birinchi yoki ikkinchi o'qishda qabul qilingan taqdirda, mas'ul qo'mitaning taklifiga binoan qonunni keyingi o'qishlar tartib-taomilini istisno etgan holda qabul qilish to'g'risidagi masala ovozga qo'yilishi mumkin. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiylar sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Deputatlar umumiylar sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qonun Qonunchilik palatasining tegishli qarori va boshqa zarur materiallar bilan birgalikda mas'ul qo'mita tomonidan rasmiylashtiriladi hamda Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan Senatga ko'rib chiqish uchun o'n kun ichida yuboriladi.

Senatga kelib tushgan qonun ro'yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni ko'rib chiqadigan hamda uning yuzasidan xulosa tayyorlaydigan mas'ul qo'mitaga topshiriladi.

Mas'ul qo'mitaning xulosasida qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risidagi tavsiya ifodalangan baho bo'lishi kerak. Qonunni rad etish zarurligi to'g'risidagi xulosada mas'ul qo'mitaning qonunni rad etish zarur deb hisoblashining vajlari bayon etilishi lozim. Mas'ul qo'mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etiladi, Kengash qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiyl sonining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasi tomonidan bir oylik muddatda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiyl sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdag'i tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunni o'z e'tirozlar bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiyl sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonun loyihamalarini ishlab chiqishga va muhokama qilishga, nazorat-tahlil tadbiralarini tayyorlashga va o'tkazishga ko'maklashish maqsadida Qonunchilik palatasi hamda Senat qo'mitalari huzurida ekspert guruhlari tashkil etiladi. Ushbu ekspert guruhlari davlat organlarining, ilmiy va ta'lim muassasalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining tegishli sohalarda ilmiy ish tajribasiga, qonun loyihamalarini tayyorlash va

(yoki) amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislari orasidan tuziladi. Qonunchilik palatasining qo‘mitalari huzurida ekspert guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi hamda Senat Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizom bilan belgilanadi.

Misol tariqasida, ushbu yo‘nalishdagi amaliy faoliyatni yanada takomillashtirish, ekspert guruhlari faoliyatining samaradorligini ta‘minlash maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashining 2015-yil 15-sentabrdagi 219–III-sonli Qarori bilan Qonunchilik palatasi qo‘mitalari huzuridagi ekspert guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyati tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi.

Nizomda ekspert guruhi Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining faoliyatini ilmiy-huquqiy, ekspert va axborot-maslahat jihatidan ta‘minlash, qonun loyihamarini ishlab chiqish va muhokama qilishga, Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining nazorat-tahlil tadbirlarini tayyorlash va o‘tkazishga ko‘maklashish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga tuzilgan maslahat organi ekanligi belgilab qo‘yildi.

2016-yil yanvar holatiga ko‘ra Qonunchilik palatasi qo‘mitalari huzurida tuzilgan ekspert guruhlarining tuzilmaviy tarkibiga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak<sup>1</sup>. Bularga:

| T/r | Soha xodimlari                                  | foizi   |
|-----|---|---------|
| 1   | davlat organlari vakillari                      | 34 foiz |
| 2   | professor-o‘qituvchilar                         | 27 foiz |
| 3   | nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari       | 15 foiz |
| 4   | ilmiy-tadqiqot muassasalari vakillari (olimlar) | 13 foiz |
| 5   | boshqalar                                       | 11 foiz |

Ushbu statistik ma‘lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, ekspert guruhlarining tarkibi turli jamoatchilik vakillaridan shakllantirilgan. Bu esa albatta qonun loyihamarining keng hamda samarali tarzda muhokama qilinishiga yordam beradi.

Qonun ijodkorligi faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida, 2018-yil 8-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning asosiy maqsadi sifatida, tizimlashtirilgan qonunchilik bazasini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy jihatdan ta‘minlanishini

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти.  
[www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

takomillashtirish, shuningdek, Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil ro'yobga chiqarishdan iborat.

#### **4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosining huquqiy maqomi**

Parlament a'zolari xalqning hokimiyat vakillik organlarida faoliyat ko'rsatuvchi vakillaridir. Respublikamizning mustaqilligini mustahkamlashda, huquqiy davlat qurishda, chin ma'nodagi demokratiyaga erishishda ularning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli parlamentarizmni shakllantirish va rivojlantirishda parlament a'zolarining huquqiy maqomini takomillashtirish, ularning aholi oldidagi ma'suliyatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan yig'ilishdagi ma'rurasida, "Ayni paytda bugun zamonning o'zi barchamizdan, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarning vakillari, deputat va senatorlardan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskor va asosiy ijrochisi bo'lishni, boshqalarga namuna ko'rsatishni talab etmoqda"ligi<sup>1</sup> alohida ta'kidlanib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosining huquqiy maqomi, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasidan va o'zbek xalqining milliy urf-odat me'yorlaridan kelib chiqib, har jihatdan puxta ishlab chiqilgan huquqiy asoslariga ega bo'la boshladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan bo'lib, Konstitutsianing o'n sakkizinch bobida Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a'zosining faoliyati haqida so'z boradi. Qolaversa, eng muhim huquqiy asos sifatida 2004-yil 2-dekabrda qabul

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.541.

qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonundir<sup>2</sup>.

Rivojlangan davlatlar parlament a‘zolarining huquqiy maqomi konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, joriy qonunlar, palatalarning reglamentlari va xalqning umumiy urf-odatlari bilan belgilanadi. Deputatlik faoliyati turli davlatlar parlament a‘zolarining maqomi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular tarixiy va milliy xususiyatlarga, davlat qonunchiligining o‘ziga xosligiga, davlatning unitar yoki federativ shakliga va boshqa xususiyatlarga asoslangan.

Parlament a‘zosining huquqiy maqomini belgilab beruvchi normalar ko‘plab xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Xususan, Polsha Respublikasining Konstitutsiyasida “Deputatlar va senatorlar” deb ataladigan alohida bob mavjud bo‘lib, mazkur bob yettita moddani (102-108-moddalar) o‘z ichiga oladi<sup>1</sup>. Mazkur moddalarda parlament a‘zolarining maqomini belgilovchi asosiy qoidalar yoritib berilgan. Parlament a‘zolarining huquqiy maqomi Germaniya Federativ Respublikasida “Germaniya Bundestagi a‘zolarining huquqiy munosabatlari to‘g‘risida”gi 1977-yil qonunda ham o‘z ifodasini topgan.

Parlament a‘zosining huquqiy maqomi xususida huquqshunos olim R.Qayumov “deputatning huquqiy maqomi - bu deputatlarning huquqiy normalarda belgilangan huquqlari, majburiyatlari va burchlari, ular faoliyatining shakllari va vakolatlarining yig‘indisi demakdir”<sup>2</sup> deb ta‘kidlaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga e‘tibor qaratilsa, Qonunchilik palatasi deputatining va Senat a‘zosining maqomi deganda, Qonunchilik palatasi deputati va Senat a‘zosining huquqlari, majburiyatlari hamda deputatlik, senatorlik faoliyatining asosiy kafolatlari tushuniladi.

Professor O.T.Husanov “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunning mazmunini tahlil etib, quyidagi fikrlarni bildirgan: “Ushbu qonunda deputat maqomiga tegishli bo‘lgan barcha masalalarni –

<sup>2</sup>Каранг: “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг мақоми тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисисининг ахборотномаси – 2005.– №1 – 8-мода

<sup>1</sup>Каранг: Конституции Центральной и Восточной Европы. – М.: Норма, 1997. – С. 221–223.

<sup>3</sup>Қаюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳукуки. Т.: Адолат. 1998. – 300 - бет.

kimlar deputat bo‘lishi; ularning vakolat muddatlari; deputatlikni tasdiqlovchi vositalar; deputatning Oliy Majlisdagi ishi kabi masalalarning qonuniy asosda mustahkamlanganligini; deputatning huquq va majburiyatlarini; deputatlarning saylovchilar, siyosiy partiyalar bilan olib boradigan ishlarini; deputatning parlament so‘rovini; deputat odobini o‘z ichiga qamrab olgan”<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentning shakllanishi, ular a‘zolarining huquqiy holatiga ta‘sir o‘tkazmay qolmadi. Qabul qilingan huquqiy hujjatlar parlament a‘zolarining faol harakat qilishlari, ularning qonunchilik jarayonida, qolaversa, xalq vakili sifatida faoliyat olib borishlariga huquqiy zamin yaratib berdi.

Mazkur qoida mazmunidan anglashiladiki, O‘zbekiston Respublikasida parlamentning ikki palataliligiga muvofiq ravishda, parlament a‘zolarining ham ikki toifasi mayjud: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati (deputat) va Senati a‘zosi (senator).

Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **deputat** hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylangan va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Senatga tayinlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi esa **senator** hisoblanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi Oliy Majlisning vakolat muddatiga, ya‘ni besh yil muddatga sayланади (tayinланади).

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, qonunchilikka muvofiq, deputat va senatorning vakolatlari muddatidan oldin ham tugatilishi mumkin. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi deputati va Senat a‘zosining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

---

<sup>3</sup>Хусанов О. Ваколат ва масъулият // Ҳаёт ва қонун. 2005 – №1 – Б.3.

- u o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish haqida yozma ariza bergen taqdirda;

- u, qonunga ko‘ra, deputatlik, senatorlik vakolatlarini amalga oshirishiga nomuvofiq bo‘lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;

- unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda;

- u chaqirib olingen taqdirda;

- sud uni muomalaga layoqatsiz deb topgan taqdirda;

- u sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoxud vafot etgan deb e‘lon qilingan taqdirda;

- u O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotgan taqdirda;

- u vafot etgan taqdirda;

- palata tarqatib yuborilgan taqdirda.

Alohibda hollarda deputatning, senatorning vakolatlari tegishinchha Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat, senator degan yuksak nomga dog‘ tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Ta‘kidlash joizki, jahon mamlakatlari konstitutsiyaviy amaliyotida parlament a‘zosining maqomiga uning bu lavozimni qay usulda egallashiga muvofiq ravishda turlicha yondashish holatlari ham mavjud. Masalan, Buyuk Britaniyada Parlamentning yuqori – “Lordlar palatasi tarixiy an'anaga muvofiq, saylov asosida shakllantirilmaydi. Palataga a‘zolik tegishli dvoryan unvonini olish bilan bog‘liq. Lordlar palatasi a‘zolari orasida 1195 gersog, markiz, graf, vikont, baronlar bor. Parlament a‘zolari – perlar diniy, dunyoviy, merosxo‘rlar va butun umrga saylanganlar toifalaridir. Diniy toifaga 26 arxiyepiskop va yepiskoplar mansub. Ular o‘z lavozimiga ko‘ra palata a‘zolaridir. Palataning qolgan barcha a‘zolari dunyoviy toifaga mansub. Asosiy guruhlardagi a‘zolar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan merosxo‘rlardan iborat (ular 789 a‘zoni tashkil qiladi). Palatada 359 ta ijtimoiy va siyosiy faoliyatda alohiba nufuzga ega umrbod tayinlangan a‘zolar bor. Palataning 11 a‘zosi apellyatsiya bo‘yicha lord-ordinarlar hisoblanadi. Ular yuqori sud lavozimlarida ishlab, sud ishlarini ko‘rib chiqishda yordam berishadi”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Шарифхужаев М.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати. Тошкент: “Шарк” нашириёт-матбаа акциядорлик компанияси. 2005 -38-бет.

O‘z navbatida lavozimga ega bo‘lish usulidagi ushbu farqlar tegishli toifalarning huquqiy maqomi ham o‘zaro farqlanishiga sabab bo‘lgan.

Qonunga muvofiq, deputat va senatorning huquqiy maqomi ikki guruhdagi normalar yig‘indisidan iborat: 1) deputatning, senatorning huquqlari va majburiyatlar; 2) deputat va senator faoliyatining asosiy kafolatlari.

#### *Deputatning, senatorning huquqlari va majburiyatlar*

Deputat, senator tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning majlisida ko‘rib chiqilayotgan barcha masalalar bo‘yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan deputat, senator: palataning organlariga saylash va saylanishga; palata majlisida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga; palata tomonidan tuziladigan organlarning shaxsiy tarkibi hamda saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo‘yicha fikr bildirishga; so‘rov bilan murojaat etishga; O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek, palata qarorlarining bajarilishini tekshirish haqida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga va boshqa bir qator huquqlarga ega.

Qonunchilikda deputat, senatorning huquqlari bilan bir qatorda, ularning majburiyatlar ham belgilangan. Deputat va senator tegishincha Qonunchilik palatasining, Senat majlislarida, shuningdek, palataning qaysi qo‘mitasi, komissiyasi tarkibiga, kelishuv komissiyasi tarkibiga saylangan bo‘lsa, shu qo‘mita, komissiyaning majlislarida qatnashishi, ovoz berishda Qonunchilik palatasining, Senatning reglamentlarida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etishi shart.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senatning qo‘mita, komissiya, kelishuv komissiyasi majlisida ishtirok etish imkoniyati bo‘limgan taqdirda deputat, senator bu haqda tegishincha Qonunchilik palatasining Spikeriga, Senat Raisiga, qo‘mita, komissiya raisiga, kelishuv komissiyasining tegishli palatadan saylangan hamraisiga oldindan xabar qilishi shart.

Shuni ham alohida ta‘kidlash joizki, Qonunchilik palatasi deputatining maqomida Senat a‘zosining maqomidan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar, asosan, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

**birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasi deputati qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Senatorda esa, bunday huquq mavjud emas;

**ikkinchidan**, Qonunchilik palatasining siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan kamida to'qqiz nafar deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda, o'z partiyalari manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida, fraksiyalar shaklida; O'zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhlari shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishlari mumkin. Senatorlar tomonidan esa, hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi;

**uchinchidan**, deputat o'z okrugi saylovchilar bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog'lab turadi, Qonunchilik palatasida ularning manfaatlarini ifoda etadi. O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar ham mazkur harakat bilan aloqa bog'lab turadi va Qonunchilik palatasida uning manfaatlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham, deputat o'ziga saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqishi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko'rishi, fuqarolarni qabul qilishi, vaqtiga vaqt bilan, ammo yiliga kamida bir marta, saylovchilarga o'z faoliyati haqida axborot berishi lozim. Agar deputat saylovchilarning ishonchini oqlay olmasa, qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin. Senatorning mandati esa, saylovchilarga bog'liq emas. U o'z hududining vakili sifatida joylardagi vakillik organlari bilan aloqa bog'lab turadi.

2015-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"<sup>1</sup>gi qonunga alohida VIII bo'lim<sup>1</sup>, ya'ni Qonunchilik palatasi deputatining saylovchilar, siyosiy partiya bilan ishlarini tashkil etish tartibi deb nomlandi. Ushbu bo'limda Qonunchilik palatasi deputatining saylovchilar, siyosiy partiya bilan ishlari, Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi ishlarini tashkil etish, Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi ishlarini tashkil etishga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko'maklashish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish kabi qoidalar mustahkamlanib qo'yildi.

Misol tariqasida, 2018-yildagi o'rganishlar davomida **28 094** ta xonadonga borildi, **112 839** nafar fuqaro, shu jumladan **5 462** ta tadbirkorlik subyekti vakillari bilan bevosita muloqot qilindi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами. 2015 йил, 645 – модда.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчлилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

Deputat, senatorning huquqlari va majburiyatlari bilan bog‘liq yana bir masala - ijtimoiy axloq normalariga asoslanuvchi deputatlik va senatorlik odobi qoidalardir. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida deputat, senator odob qoidalariiga qat‘iy rioya etishi lozimligi, deputatning, senatorning o‘z maqomidan fuqarolarning, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. Deputatlik, senatorlik odobi buzilgan taqdirda deputatning, senatorning xulq-atvori to‘g‘risidagi masala tegishli palata tomonidan yoki uning topshirig‘iga binoan palataning organi tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkinligi to‘g‘risidagi norma ham mazkur moddada o‘z ifodasini topgan.

*Deputat va senator faoliyatining asosiy kafolatlari*

“Kafolat” so‘zi (fransuzchadan - ta‘minlash) tasdiqlash, ta‘minlash ma‘nolarini anglatadi. Shu tariqa, kafolat – bu muayyan natijaga erishishni ta‘minlovchi hodisa, vakolatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan holat va o‘z vakolatlarini amalga oshirishda xalq vakillarining sun‘iy to‘sizlarsiz va bevosita ishtirok etishini ta‘minlab beruvchi maxsus mexanizm. Aynan ma‘lum bir munosabat, jarayonni ta‘minlash kafolatning eng muhim belgisi hisoblanadi.

Ushbu holat mazkur huquqiy hodisaning subyektiv huquq, yuridik majburiyat, javobgarlik kabi boshqa huquqiy kategoriyalardan farqini aniqlashga yordam beradi, vaholanki, huquqiy hodisa o‘z ichiga olgan maqsadga erishishni ta‘minlamasa, kafolat hisoblanmaydi.

Parlament a‘zolari o‘z vakolatlari doirasida faoliyatlarini hech qanday sun‘iy to‘siksiz amalga oshirishlari uchun O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida<sup>1</sup>, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi<sup>2</sup> qonunida belgilab berilgan bir qator huquqiy va moddiy-moliyaviy kafolatlardan foydalanadilar.

Ko‘pchilik huquqshunoslar parlament a‘zolarining kafolatlarni tashkiliy-siyosiy, huquqiy va moddiy kafolatlarga ajratadilar. Ba‘zi huquqshunos olimlar esa, kafolatlarni bir nechta belgilar bo‘yicha

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008 – Б.22.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчilik палатаси депутатининг ва Сенати аъзосининг макоми тўғрисидаги қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2005 –№ 1. – 8–модда.

tasniflashga harakat qiladilar.

Kafolatlar mexanizmining amal qilishi nafaqat deputatlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlashga, balki parlament a'zolari faoliyatini samarali amalga oshirishga qaratilgandir. Parlament a'zosi faoliyatining kafolatlari keng qamrovli bo'lganligi uchun ularni maxsus o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir. Parlament a'zolari faoliyatining kafolatlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganish lozim: parlament a'zosining daxlsizligi (immuniteti); mehnat huquqlari kafolatlari; moddiy kafolatlar (indemnitet); tashkiliy - ijtimoiy kafolatlar.

Parlament a'zosining daxlsizligi ommaviy-huquqiy xususiyatga ega. Immunitet (daxlsizlik) aksariyat davlatlarda o'rnatilgan bo'lib, unga amal qilinadi. U parlament a'zosining parlamentda hech qanday to'siqlarsiz va samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar va vositalarni ta'minlab berishga qaratilgan.

Immunitet xususida ko'plab ilmiy adabiyotlarda turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, "immunitet - ayrim mansabdagi shaxslarga va parlament a'zolariga qonun doirasida beriladigan imtiyoz"<sup>1</sup>.

"Immunitet" (lotin. Immunitas) – belgilangan subyektlarga nisbatan umum e'tirof etgan huquqiy normalar qo'llanilmasligini bildiradi. Davlatdag'i ayrim mansabdar shaxslar daxlsizligi, xususan, deputatlik immuniteti<sup>2</sup>. Shuningdek, immunitet – parlament a'zosining daxlsizligi, ya'ni parlament a'zosi faoliyatining eng muhim kafolatining huquqiy ifodasıdır. Immunitet parlament a'zosining javobgarlikka tortilmasligi va daxlsizligini anglatadi<sup>3</sup>.

Immunitet parlament a'zosiga qonun doirasida faoliyat olib borishini ta'minlash, qolaversa, vakolat muddati davrida olib boradigan ish faoliyatini kafolatlash maqsadida davlat tomonidan himoyalangan immunitet huquqining ta'minlanishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 88 - moddasi, 3-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. Ular Qonunchilik palatasi va Senatning roziligidiz jinoiy

<sup>1</sup> Конституциявий хукук: Изоҳли лугат / А.Азизхўжаев, О.Хусанов, Х.Азизов. – Тошкент: ЎзР ИИВ Академияси, 2001. – Б.47.

<sup>2</sup>Юридик атамалар комусий лугати / Масъул мухаррир X Рахмонкулов. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.162.

<sup>3</sup>Каранг Таджиханов У., Одилкориев Х.Т., Саидов А.Х. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий хукуки. – Тошкент: ЎзР ИИВ Академияси, 2001. – Б.511.

javobgariikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas. Bu qoida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunining 13-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga ko'ra, deputat va senatorning tegishli palatada ishlagan vaqt umumiy ish stajiga va avvalgi ixtisosи bo'yicha ish stajiga qo'shib hisoblanadi. Deputat va senatorga har yili 36 ish kunidan iborat haq to'lanadigan mehnat ta'tili beriladi, qonun hujjatlarida ko'proq muddatli ta'til nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Har yili mehnat ta'tili deputatga, qoida tariqasida, Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig'idagi davrda beriladi. Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan taqdirda deputatga va Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi hamda ishga joylashish davrida qonunda belgilangan tartibda o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

Tashkiliy - huquqiy kafolat nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, deputat, senator o'z vakolatlari amal qilayotgan muddat mobaynida harbiy yig'inlardan ozod qilinadi. Bu qoida ham Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ukraina Respublikalari kabi ko'plab rivojlangan davlatlar qonunchiligidagi o'z ifodasini topgan.

Qolaversa, Qonunchilik palatasi devoni, Senat devoni deputatni, senatorni hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari bilan ta'minlaydi, shuningdek, deputatlik, senatorlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarining maslahatlarini uyshtiradi;

– deputatga, senatorga texnik vositalar, aloqa vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosiga moddiy nuqtayi nazaridan kafolatlar ta'minlash ham "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunda o'z ifodasini topgan. Xususan, ushbu qonunda deputatga, senatorga deputatlik, senatorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar uchun har oyda eng kam ish haqining besh baravari miqdorida jismoni shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydigan mablag' to'lanish; deputat, senator O'zbekiston Respublikasi hududida havo, temir yo'l, avtomobil yo'lovchilar transportida (taksi va shahar yo'lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish huquqidani foydalanishi; deputatga, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga, agar ular Toshkent

shahrida turar joyga ega bo‘lmasa, bergen arizalariga binoan vakolatlari amal qiladigan muddatga oila a‘zolari bilan yashash uchun Toshkent shahrida xizmat turar joyi berilishi kabi muhim kafolatlar mustahkamlab qo‘yilgan.

Deputat va senator faoliyatining kafolatlari deganda, ularning o‘z vakolat hamda vazifalarini erkinlik va qonun asosida, sun’iy to‘siqlarsiz va samarali amalga oshira olishlari uchun zarur bo‘lgan bir qator yuridik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlar, shart-sharoitlar va vositalar tushuniladi. Konstitutsiyaning 88-moddasida bu boradagi eng muhim kafolatlar belgilangan. Ular quyidagilar:

– **birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a‘zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi;

– **ikkinchidan**, Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a‘zolari o‘z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

– **uchinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasiga ko‘ra, Senat a‘zolarining senatorlar umumiy sonining to‘rtadan birigacha bo‘lgan qismi Senatda doimiy asosda ishlashlari mumkin.

Ta‘kidlash kerakki, senatorlik faoliyatining kafolatlari kelganda, Senatda doimiy asosda ishlovchi va doimiy asosda ishlamaydigan senatorlarning maqomidagi ayrim farqli xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu farqlar, xususan, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– **birinchidan**, Senatda doimiy asosda ishlamaydigan senatorlar o‘z vakolatlari davrida ham joylarda o‘zlarining asosiy mehnat faoliyatlarini davom ettiradilar. Doimiy asosda ishlovchi senatorlar esa, senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas;

– **ikkinchidan**, Senat tarqatib yuborilgan taqdirda Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanadi hamda

ishga joylashish davrida qonunda belgilangan tartibda o‘rtacha oylik ish haqi saqlanib qoladi;

– **uchinchidan**, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorga, agar u Toshkent shahrida turar joyga ega bo‘lmasa, bergan arizasiga binoan vakolati amal qiladigan muddatga oila a‘zolari bilan yashashi uchun Toshkent shahrida xizmat turar joyi beriladi.

Umuman, parlament a‘zosi faoliyatining kafolatlari unga o‘z faoliyatini to‘la amalga oshira olishi uchun zarurdir.

*Parlament a‘zolarining davlat hokimiylari organlari bilan o‘zaro munosabatlari*

Qonunlarga rioya qilish, ularni ijro etish va qonun normalari bilan tartibga solishga ehtiyoj tug‘ilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, amaldagi qonun hujjatlarini hayot talablari bilan muntazam uyg‘unlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, parlament nazorati qonun chiqaruvchi organning hozirgi kundagi eng samarali ko‘rinishi hisoblanadi. Parlament nazorati qonun hujjatlarini ta‘sirchanligini oshirishning va ayni chog‘da jamiyatning huquqiy ehtiyojlarini tezkor aniqlashning samarali vositasi hisoblanadi. Parlamentning nazorat vazifalari muhimligini qayd etgan fransuz tadqiqotchisi B. Shantebu hatto tarixiy jihatdan qonunchilik vazifasi ham undan kelib chiqqan, deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

Oliy Majlis palatalari a‘zolari qonunlarning ijrosi ustidan muntazam nazoratni tashkil etish tajribasini to‘plab, o‘z saylovchilarining fikr-mulohazalarini sinchiklab o‘rganmoqdalar, tegishli soha mutaxassislari bilan samarali hamkorlik qilmoqdalar. Bu ko‘p jihatdan fuqarolarning xohish-irodasi, mutaxassislar va ekspertlarning takliflari qonunlarni takomillashtirishda muhim omil bo‘lishiga yordam bermoqda<sup>2</sup>.

“Albatta, qonun chiqaruvchi hokimiyat o‘zining istalgan ko‘rinishida hukumatni nazorat qilar va faoliyatiga qonuniy tus berar ekan, unga hukmini o‘tkaza olmaydi. Bu demokratiyaning a‘moli”<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, parlament nazoratinining muhim ko‘rinishi sifatida, parlament so‘rovi, deputat va senator so‘rovi parlament a‘zolarining davlat

<sup>1</sup>Қаранг: Керимов А.Д. Парламентское право Франции. – М.: Норма, 1998 – С.78.

<sup>2</sup>Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан хакикий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001 – Б.238–239.

<sup>3</sup>Левитин Л., Карлайл Д. Ислом Каримов – янги Ўзбекистон Президенти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б.108 .

boshqaruv organlari bilan munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. **2015-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq<sup>4</sup>**, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga ba‘zi bir o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Xususan, deputat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining yoki O‘zbekiston ekologik harakatining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan, senator esa tegishli hududlarning manfaatlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon etish talabi bilan so‘rov yuborishga haqli.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslari deputat, senator so‘roviga, agar boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, so‘rov olingan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay yozma javob yuboradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlari rahbarlari nomiga yo‘llangan deputat, senator so‘rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo‘lishi mumkin emas. Izoh tariqasida, ushbu yangi qoida kiritulgunga qadar deputat va senator so‘rovi umumiy tarzda parlament so‘rovi deb nomlanar edi.

2016-yil 11-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunda Qonunchilik palatasi deputati, Senat a‘zosining so‘rovi parlament nazorati muhim bir shakli sifatida mustahkamlab qo‘yildi. Qolaversa, ushbu qonunning 15 - moddasida uni amalga oshirish mexanizmi yoritib berildi.

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, Senatining O‘zbekiston Respublikasi hukumati yoki unga bo‘ysunuvchi davlat yoxud xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatiga taalluqli bo‘lgan parlament so‘rovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining, Senati a‘zosining shunday so‘rovi

---

<sup>4</sup> Узбекистон Республикаси қонун хужжатлари туплами. 2015 йил, 645 – модда.

yuborilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki hukumati a‘zosi qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda javob berishi shart<sup>1</sup>.

Deputat va senator so‘rovi parlament a‘zolarining rasmiy talabi hisoblanadi. Deputat va senator so‘rovi parlament nazoratining eng samarali vositasidir. Shu sababli uni amaliyotda keng qo‘llash lozim. U parlament a‘zolariga berilgan kuchli, ta‘sirchan huquqiy imkoniyatdir.

Xususan, 2017-yilning o‘tgan davri mobaynida Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan vazirlik va idoralarga yuborilgan jami 284 ta deputatlik so‘rovidan 100 tasiga qonunda belgilangan muddat buzilgan holda javob berilgan, 24 tasiga esa umuman javob berilmagan<sup>2</sup>.

2018-yilda esa, yuborilgan deputat so‘rovlaridan **29 tasi (14%)** bo‘yicha hisobot davrida javoblar kelmadи. Shuningdek, javoblar kelgan **154 ta** deputat so‘rovidan **74 tasi (48%)** o‘n besh kungacha va **13 tasi (8,4%)** o‘n olti va undan ortiq kunga kechikkan holda ijro etildi. Shu bilan birga **24 ta (12%)** deputat so‘rovining muddatlari 2019-yil yanvar oyi etib belgilangan<sup>3</sup>.

Qonunchilik palatasi deputatlari 2018-yilda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga saylovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan **207 ta** deputat so‘rovi yubordilar. Mazkur deputat so‘rovlarining **169 tasi (81,6%)** vazirlik va idoralar, boshqa markaziy muassasa va tashkilotlarga hamda **38 tasi (18,4%)** mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga yuborilgan. Yuborilgan deputat so‘rovlarining sohalariga e‘tibor qaratsak<sup>4</sup>. Bularga:

| T/r | Deputat so‘rovi Yuborilgan masalalar nomi | soni  | foizi     |
|-----|---|-------|-----------|
| 1   | ta‘lim                                    | 37 ta | 18,1 foiz |
| 2   | uy-joy va kommunal xizmat                 | 35 ta | 17,1 foiz |
| 3   | sog‘ligni saqlash                         | 34 ta | 16,6 foiz |
| 4   | boshqa sohalar                            | 98 ta | 48 foiz   |

<sup>1</sup> Узбекистон Республикасининг 2003 йил 29 августда кабул килинган “Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси түғрисида”ги қонуни (янги таҳрири) // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисining ахборотномаси. – 2003. –№5–6 – 38-модда.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллый тараққиёт йўлини катъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. – Тошкент: “Узбекистон” НМИУ, 2018. – 574 - 575 бетлар.

<sup>3</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

<sup>4</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатасининг расмий веб-сайти. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz).

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan oxirgi o‘zgartish va qo‘srimchalarga muvofiq, bir qancha yangi qoidalar kiritildi. Xususan, deputat o‘z okrugi saylovchilarini, uni deputatlikka nomzod qilib ko‘rsatgan siyosiy partiya bilan aloqa bog‘lab turadi, Qonunchilik palatasida ularning manfaatlarini ifoda etadi. O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar mazkur harakat bilan aloqa bog‘lab turadi va Qonunchilik palatasida uning manfaatlarini ifoda etadi. Siyosiy partiylar fraksiyalari har yili Qonunchilik palatasining Kengashi bilan birgalikda deputatlarning saylovchilar bilan saylov okruglaridagi ishlari uchun mo‘ljallangan vaqtini belgilaydi.

Saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish chog‘ida deputat:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyati, siyosiy partiya fraksiyasining faoliyati, uning mamlakatni sosial-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishning eng muhim masalalariga doir nuqtayi nazari to‘g‘risida saylovchilarga axborot beradi;
- yangi qabul qilingan qonunlarning mohiyatini saylovchilarga yetkazadi;
- qabul qilingan qonunlarning ijro etilishi holatini huquqning qo‘llanilish samaradorligini va qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruratini aniqlash maqsadida o‘rganadi;
- siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanadigan boshqa vazifalarni bajaradi.

Qonunchilik palatasining Kengashi deputatning saylov okrugidagi ishlarini tashkil etish yuzasidan siyosiy partiylar fraksiyalarining fikrlari va takliflarini inobatga olgan holda chora-tadbirlar ko‘radi. Deputat saylov okrugiga chiqishidan oldin siyosiy partiya fraksiyasi hamda Qonunchilik palatasi tomonidan hujjatlar, zarur axborot va ma‘lumot materiallari bilan ta‘minlanadi. Qonunlarning ijrosi, davlat dasturlarini hamda siyosiy partiylarning dasturiy maqsadlarini amalga oshirish yuzasidan aniq masalalarni ishlab chiqish uchun siyosiy partiylar fraksiyalarini zarur bo‘lgan hollarda o‘z deputatlarining saylovchilar bilan saylov okruglaridagi ishlarini tashkil etadi. Siyosiy partiylar fraksiyalarini deputatlarning saylov okruglaridagi ishlari yakunlarini umumlashtiradi zarur bo‘lgan hollarda dolzarb masalalarni Qonunchilik palatasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari deputatni saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta‘minlaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari binolar ajratilishini tashkil etadi, fuqarolarni deputatning saylovchilar bilan uchrashuvlari o'tkaziladigan, deputat tomonidan fuqarolar qabul qilinadigan vaqt va joy haqida xabardor qiladi, qabullarda va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun o'z mas'ul vakillarini deputatning taklifiga ko'ra yuboradi, shuningdek, deputatning joylardagi ishiga ko'maklashish yuzasidan boshqa chora-tadbirlar ko'radi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning Qonunchilik palatasiga kelib tushgan murojaatlarini ko'rib chiqish hamda Qonunchilik palatasida jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining shaxsiy qabulini o'tkazish deputatlar tomonidan qonunga hamda Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

### *O'zini - o'zi nazorat qilish savollari*

1. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qanday shakllantiriladi?*
2. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarini sanab bering?*
3. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qanday shakllanadi?*
4. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?*
5. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qanday qo'mitalari mavjud?*
6. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?*
7. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qanday vakolatlarini bilasiz?*
8. *Oliy Majlis palatalari qanday huquqiy hujjalalar qabul qiladi?*
9. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonun loyihasi qanday ko'rib chiqiladi?*
10. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida fraksiya va bloklar qanday tartibda tuziladi?*
11. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi qanday saylanadi?*
12. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida qanday qo'mitalar mavjud?*
13. *Deputat va senatorning huquq va majburiyatlarini aytинг?*
14. *Deputat va senatorning faoliyat shakllari sanab bering?*
15. *Deputat va senator faoliyatining asosiy kafolatlarini aytинг?*
16. *Deputat va senat so'rovi deganda nimani tushunasiz?*

## **XXII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**

1-§. Prezidentlik institutining tarixan vujudga kelishi va rivojlanishi.

2-§. Xorijiy mamlakatlarda Prezidentlik instituti va uning o'ziga xos jihatlari.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.

### **1-§. Prezidentlik institutining tarixan vujudga kelishi va rivojlanishi**

Jamiyat rivojlanishi va uning taraqqiyotiga nazar tashlansa, davlatchilik va uning funksiyalarini amalga oshiruvchi hokimiyat masalasi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Turli davrlar mobaynida mavjud bo'lgan davlatlar va davlat hokimiyati, uning boshlig'i sifatida yakka shaxslar tomonidan (podsholar, xonlar, sultonlar, monarxlar, qirollar, imperatorlar va boshqalar) amalga oshirilgan.

Ibtidoiy qabilalardan "urug'lar"ning mustaqil ajralib chiqishi bilanoq jamiyatda ijtimoiy hokimiyatning shakllanishiga zarurat tug'ilgan. Yashash uchun kurash jarayonida qo'lga kiritilgan tajribalarni mustahkamlash, takomillashtirish va ularni kelgusi avlodga o'tkazish ehtiyoji paydo bo'lgan. Bunday ehtiyoj haqqoniy obro'-e'tiborga, boy tajribaga ega bo'lgan kishilar tomonidan qondiriladi, ular esa hokimiyat poydevorini yaratish uchun o'z navbatida **Oqsoqollar Kengashini** tuzishgan. Shu tariqa jamiyatda hozirgi parlamentga xos bo'lgan funksiyalarini bajaruvchi yangi "institut" yuzaga kelgan. Keyinchalik qabilalarning tarqoqlashuvi natijasida kishilarning yashashlari uchun nafaqat tabiat bilan, balki qo'shni qabilalar bilan kurashib yashashlariga to'g'ri kelgan. Bu holat esa o'z navbatida odamlarni yagona va kuchli hokimiyat atrofida birlashishiga sabab bo'lgan. Bunday hokimiyat tepasiga, tarixdan ma'lumki, birlamchi bo'lib harbiylar chiqqan. Natijada jamiyatda avtoritar shakldagi boshqaruv tizimi o'rnatilgan. Shunday qilib, **ijro etuvchi hokimiyat** deb ataluvchi "institut"ning shakllanishi uchun asos yaratilgan.

Vaqt o'tishi bilan bu ikkala (qabila boshlig'i va Oqsoqollar Kengashi) "institut", ya'ni hokimiyat tarmoqlari o'rtasida

kelishmovchiliklar vujudga kelgan va bu nizolarning bugungi kungacha ham davom etib kelayotganini kuzatish mumkin.

Tarix demokratik institutlarning rivoji va tanazzulini, ayrim o‘zaro nizolarning murakkab va ayanchli oqibatlarini aniq ko‘rsatib bergan.

Ko‘plab tarixiy va yuridik hujjatlarda ta‘kidlanishicha, demokratiyaning beshigi bo‘lib Yunoniston (Gretsiya) hisoblanadi. Bunga ma‘lum ma‘noda o‘sha davrdagi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohadagi barqaror va tinch taraqqiyoti sabab bo‘lgan. Natijada davlat boshqaruvini haddan tashqari markazlashtirishga zarurat bo‘limgan, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy hayotda saylanib qo‘yiladigan vakillik organlari (institutlar)ning rivojlanishi uchun yo‘l ochib bergan.

Afinada antik demokratiyaning mavjud bo‘lgan klassik ko‘rinishi – boshqaruvning oliy organi bo‘lib *xalq yig‘ini*, uning ishchi organi bo‘lgan *areopag*, ya‘ni urug‘ oqsoqollarining Kengashi, keyinchalik ular oliy nazorat va sud organining vazifasini bajargan. Ijro etuvchi hokimiyat esa *oliy mansabдор shaxs – arxont* tomonidan amalga oshirilgan.

Rim demokratiyasini Yunon demokratiyasidan oliy darajadagi mansabдор shaxslar bo‘lgan *konsullarning* katta vakolatlarga ega bo‘lishlari bilan farq qilgan. Shuning uchun ham Rimda uzoq vaqt davomida vakillik va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida mutanosiblik saqlangan.

Rim respublikasi o‘zi “anglamagan” holda ijro etuvchi tarmoqni kuchaytirish orqali imperiyaga intilgan. Biroq imperiya tashkil etilgach, chegaralarni kengaytirish maqsadida tinimsiz urushlar olib borilib, Rim ichki ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga e‘tiborni susaytirgan va u butun kuchlarini imperiya tuzumini saqlab qolishga safarbar etgan, oqibatda sultanat ichidan zaiflashib, tanazzulga yuz tutgan.

Yunon (Grek) demokratiyasini vakillik hokimiyatiga, Rim demokratiyasini esa ijro hokimiyatiga xos bo‘lgan kamchiliklarni va ularning zaif jihatlarini yaqqol namoyon qilgan. Na u, na bu hokimiyat bir-birini “tiyib” turishga qodir bo‘limgan. Natijada jamiyat rivojini muntazam ta‘minlab bera olmagan. Yunon – Rim tajribalari shuni ko‘rsatdiki, teng vakolatlarga ega bo‘lgan hokimiyatning bu ikki tarmog‘i jamiyatdagi ijtimoiy kuchlarning muvozanatini saqlab tura olmagan.

Buning uchun mustaqil bo‘lgan yangi “institut”ga ehtiyoj tug‘ilgan va bu institut davlatchilikning tarixiy rivojlanishi jarayonida paydo bo‘lgan. Bu institut hokimiyatning uchinchi tarmog‘i bo‘lgan – *sud hokimiyati* edi.

Shu tariqa hokimiyatning uchta tarmog'i vujudga kelgan: vakillik organi – qonunlar chiqaradi; ijro etuvchi organ – qonunlar ijrosini ta'minlaydi va sud organi – qonunlar bajarilishini nazorat qiladi va hokimiyatning qolgan ikki tarmog'i o'rtasidagi nizolarni betaraf, xolisona hal etuvchi organ sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi nazariyalari haqida qadimgi Hindiston va Xitoy, o'rta asr Sharq mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy) ham o'z qarashlarini aytib o'tishgan. Masalan, ular hokimiyatning yakka shaxs qo'lida to'planishi xalq uchun hech qachon foyda keltirmaydi, deyishgan.

**Abu Nasr Forobi**, hukmdorni faqatgina xalq yetakchisi emas, balki jamiyat salomatligiga befarq bo'lmaydigan, uning ruhiyatidan hamisha xabardor bo'lib turadigan malham deb bilgan. Sharq mutafakkirlari orasida **Alisher Navoiy** o'zining mustaqil siyosiy qarashiga ega bo'lgan. U adolatli podshoh deb, jamiyatning har bir a'zosi huquq va erkinligini himoya qila oladigan, uning bajarilishiga kafolat bera oladigan, qonun ustuvorligi asosida ish yurita oladigan, janoat tartibini saqlay oladigan zotni bilgan (1494-95-yillarda yaratilgan "Saddi Iskandariy" dostonida shunday g'oya ilgari surilgan).

Atoqli davlat arbobi **Sohibqiron Amir Temur** davlat tepasiga kelgach, eng ahamiyatli masalalar yuzasidan *qurultoyning* muntazam o'tkazilishini nazorat qilib turgan. Bu qurultoya amirlar (harbiy lashkarboshi) hokimlar, vazirlar, beklar va boshqa oliy mansabdor shaxslar chiqarilgan. Qurultoy mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlagan. Qatnashchilar Qurultoy yig'ilishlarida har qanday dolzarb masalani qizg'in muhokama qilishgan, hukmdor esa so'nggi qarorni chiqargan. Ba'zan, juda kam holatlarda Amir Temur qarori majlis qatnashchilariga ma'qul kelmagan, xolos.

**Amir Temur** "Tuzuklari"da shunday so'zlar bor: "**Bilimli, maslahat berishga qodir, donishmand va shijoatli kishilar, ko'p yillik tajribaga ega keksalar mening ishonchimni qozongan. Men ular bilan xuddi tengdoshdek muloqot qilar edim, fikr almashar edim, ular menga ko'p narsani o'rgatishgan**".

Sharq mutafakkirlari hokimiyat bo'linishi kontsepsiyasining rivojlanishiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shgan.

Bu konsepsiyanı ishlab chiqishda, shuningdek, fransuz faylasufı **Sh.Monteskening** (1689-1785) hissasi ham katta bo'lib, u hokimiyatning uchta bo'g'inini bir odam yoki organ qaramog'ida birlashtirish suiste'mollikka olib keladi, deb tushungan. Monteske sxemasiga asosan, yangi organ tuzilishi va bu organ hokimiyatning uchta bo'g'ini orasida shunday holatni egallasinki, u hokimiyat bo'linishiga tashkiliy-huquqiy jihatdan yondoshib tursin.

**J.J.Russo** (1712-1778 yillar) Monteskeden farqli o'laroq, hokimiyatning bo'linishi kontsepsiyasiga tashkiliy-huquqiy pozitsiyadan emas, balki ijtimoiy nuqtayi nazardan yondoshgan. U qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlarini xalq oliv hokimiyatining ko'rinishi deb tushungan. Russoning fikricha, Qonunchilik hokimiyatini xalq o'z yig'ilishlarida amalga oshiradi. Jamiyatning barcha a'zolari boshqaruv jarayonida ishtirok etishi kerak, lekin buni amalga oshirish mexanizmi uning tomonidan taklif etilmagan. Shuning uchun Russo konsepsiysi faqat nazariyadan iborat bo'lib, amaliy ahamiyatga ega emas edi.

**Birinchi bo'lib hokimiyatning bo'linishi 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida o'zining amaliy ifodasini topgan.** Unda davlat organlari vakolatlari kongress, prezident va unga bo'ysunuvchi ministrlar hamda sudyalar o'rtasida bo'lingan edi. Bu bilan hokimiyatning tashkiliy-huquqiy bo'linishi "tiyilish va qarshi turishlar" tizimi orqali kuzatilib borilgan.

Amerika davlat tashkiliyligi modeli ta'siri ostida xorijiy mamlakatlarning hozirgi Konstitutsiyalarida hokimiyat bo'linishi kontsepsiysi rivojlantirildi. Ularda asosan hokimiyatning qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati tarmoqlari o'z aksini topgan.

**Prezidentlik lavozimi ham (lotinchada "oldinda o'tiruvchi" ma'nosini bildiradi) dunyoda birinchi bo'lib (1787-y.) Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi.** Oradan ikki yil o'tib AQSH Prezidenti etib J.Vashington saylandi. Davlatchilik strukturasiga bunday jiddiy o'zgarishning kiritilishi G'arb davlatlaridagi hokimiyatning uchta tarmog'i o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muvozanatini buzilganligi bilan izohlangan edi.

**Yevropada Prezidentlik instituti 1848-yilda ikkita mamlakatda, ya'ni Fransiya va Shvetsariyada paydo bo'ldi.** Boshqa Yevropa mamlakatlarida esa (Lotin Amerikasi va Osiyo davlatlari haqida gapirmasa

ham bo‘ladi) XIX asrning oxirigacha *monarxiya* yoki *diktatura* ko‘rinishidagi boshqaruv saqlanib qoldi.

XX asrning ikkinchi yarmida bu yo‘nalishda keng miqyosdagi o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xalq revolyutsiyalari hamda milliy-ozodlik harakatlarining kuchli ta‘siri ostida kolonial imperiyalarning (mustamlakachilikka asoslangan) inqirozi yuz berdi. Bu hol o‘z navbatida 150 tadan ortiq yangi davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan Millatlar tashkilotining (BMT) doirasasi yanada kengaydi. Hozirgi kunda BMT uning tarkibida 193 ta mamlakat bo‘lgan bo‘lsa, shulardan 140 tasidan ko‘proq‘ining davlat tizimida Prezidentlik lavozimi joriy etilgan.

Shunday qilib, “Prezident” tushunchasi konstitutsiyaviy huquqiy ma‘noda davlat boshlig‘i degan ma‘noni anglatadi. Prezident davlatni jipslashtirishi, ya‘ni davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta‘minlashi lozim.

## **2-§. Xorijiy mamlakatlarda prezidentlik instituti va uning o‘ziga xos jihatlari**

Turli xorijiy mamlakatlarda prezidentlik institutining davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini har xil bo‘lib, ular bir-birlaridan qator jihatlari bilan ajralib turadi.

Avvalo shuni qayd etib o‘tish lozimki, davlat boshqaruv tizimining asosan ikki turi mavjud bo‘lib, ular *monarxiya* va *respublika* shakllaridir.

**Davlat boshqaruvining *monarxiya* shaklida davlat boshlig‘i monarx** (qirol, qirolichcha, imperator va boshqalar) bo‘ladi. Davlat boshqaruvining bunday shakliga Buyuk Britaniya, Yaponiya, Ispaniya, Niderlandiya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarni kiritish mumkin.

Davlat boshqaruvining respublika shaklida President davlat boshlig‘i hisoblanadi. Ushbu boshqaruv shaklidan kelib chiqib, mamlakat hayotida Prezidentning tutgan o‘rnini va roli turlicha ekanligini ko‘rish mumkin.

**Davlat boshqaruvi respublika shaklining quyidagi ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ularga:**

- Birinchidan, *Prezidentlik respublikasi*;
- Ikkinchidan, *Parlamentar respublika*;
- Uchinchidan, *Aralash respublikalar kiradi*.

*Prezidentlik respublikasida* davlat boshlig‘i prezident bo‘lib, uning mamlakat hayotidagi o‘rni parlamentar va aralash respublika boshqaruva shaklidagiga qaraganda ahamiyatliroq ekani ko‘zga tashlanadi.

**Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan davlat boshqaruva shakli hisoblanadi.**

*Prezidentlik respublikalarida* Prezidentning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlарини, vakolatларини, ya‘ни xalq tomonidan saylanishi, davlat boshlig‘i bo‘lishi, hukumatni shakllantirishi, ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i ekanligi, ichki va tashqi siyosatni mustaqil yuritishi, *veto*<sup>195</sup> huquqiga egaligi, davlatning yuqori organlariga mansabdar shaxslarni tayinlashi, oliy bosh qo‘mondon bo‘lishi va boshqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Hozirda prezidentlik respublikasi mavjud bo‘lgan mamlakatlarga Braziliya, Venesuella, Kolumbiya, Fillipin, Koreya, Amerika Qo‘shma Shtatlarini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

Misol uchun, Amerika Qo‘shma Shtatlarida davlat boshlig‘ining o‘rni va vakolatlarini ko‘rib chiqaylik.

AQSHda Prezident va vitse-prezident birgalikda 4 yil muddatga saylanib, ular bu mansabda ikki muddatdan ortiq o‘tirishlari mumkin emas (faqat istisno tariqasida Ikkinchи jahon urushi davrida F.Ruzvelt to‘rt marta Prezident etib saylangan). Prezident davlat boshlig‘i bo‘lishi bilan bir qatorda ijroiya hokimiyatning boshlig‘i bo‘lib ham hisoblanadi. Prezident Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni (10 kun muddat ichida) imzolashga yoki ularni o‘zining e‘tirozlari bilan rad etish huquqiga ega.

Prezident Parlamentning yuqori palatasi bo‘lgan *Senat* bilan kelishgan holda Yuqori lavozimlarga mansabdar shaxslarni tayinlaydi.

AQSH Prezidentining tashqi siyosatni olib borishdagi vakolatlari keng bo‘lib, u elchilarni, boshqa vakil qilingan shaxslarni, konsullarni tayinlash va chaqirib olish, xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro darajadagi masalalarni hal qilish kabi huquqlarga ega.

---

<sup>195</sup> Вето - давлат хокимиятининг бирор органи томонидан кабул килинган қарорни унинг бошқа бир органи (давлат бошлиғи) томонидан бекор қилиниши ёки қайтарилиши. Вето тартиби дастлаб қадимги Римда жорий этилган.

AQSH Konstitutsiyasiga asosan Prezident hech qanday organga bo'yusunmaydi. U o'z lavozimidan faqat impichment<sup>196</sup> orqali chetlashtirilishi mumkin.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda AQSH Prezidenti ijroiya hokimiyat boshlig'i hisoblanadi. Shuni qayd etish lozimki, AQSHda premyer-ministr (bosh vazir) lavozimi yo'q. Prezident hukumat a'zolarini hamda vazirlarni Senat (Parlamentning yuqori palatasi) bilan kelishgan holda tayinlaydi.

Prezidentlik respublikasi bo'lgan yana bir mamlakat - **Braziliyada** Prezident 4 yil muddatga vitse-prezident bilan birgalikda saylanib, u ijroiya hokimiyat boshlig'i va Oliy bosh qo'mondon hisoblanadi.

Braziliya Prezidenti afv etish va jazo muddatini kamaytirish, Senat tasdig'idan keyin Oliy Federal Sudlarni, yuqori instantsiya sudlarini, hududlarning gubernatorlarini va boshqa yuqori mansabdar shaxslarni lavozimiga tayinlash vakolatlari ega.

Ijroiya hokimiyatning boshlig'i sifatidagi vakolatlari federal vazirlarni tayinlash va ozod qilish, davlat ma'muriyatiga rahbarlikni amalga oshirishdan iborat.

Tashqi siyosatda xorijiy mamlakatlar bilan aloqa o'rmatish hamda ularning diplomatik vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish (tan olish), xalqaro sulh va shartnomalarni imzolash kabi vakolatlarga ega.

Qonunchilik sohasida Prezident qonunchilik tashabbusiga ega bo'lib, u qonun kuchiga teng bo'lgan normativ hujjatlarni qabul qilishi mumkin. Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarga Veto qo'yish huquqiga ham ega.

**Koreya Respublikasida** esa prezident 5 yil muddatga xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan saylanadi. U davlat va ijroiya hokimiyatning boshlig'i hisoblanadi.

Koreya Prezidenti xorijiy mamlakatlarda davlat nomidan ish olib boradi, diplomatik vakillarni tayinlaydi va qabul qiladi, xalqaro shartnoma va bitimlar tuzadi. Shu bilan bir qatorda Prezident Oliy Bosh qo'mondon hisoblanadi.

---

<sup>196</sup>Импичмент- бир катор хорижий давлатларда юкори мансабдор шахсларнинг жавогарлигини жорий килинганинг алоҳида тартиби. Импичмент- баъзи республика бошқаруви шаклидаги давлатларда Импинчмент иссиғаси билан, аввало, давлат бошилклари – президентлар – томонидан давлатта хиёнат килинганинг ёки конституцияга сунказд қилинганинг исботланган тақдирда парламент аъзолари-нинг купчилиги ишончсизлик билдириб, Конституциявий суднинг ҳукмига кура Президентнинг мажбуран лавозимидан четлаштирилиши назарда тутилади.

Shunday qilib, Prezidentlik respublikalarida Prezidentning vakolatlari kengligini ko'rib o'tdik. Umumiy xulosa shundan iboratki, prezident ijro hokimiyatga rahbarlik qiladi va bir qator rasmiy funksiyalarni (masalan, elchilarni qabul qilish, xalqaro maydonda davlat nomidan ish olib borish va mamlakat manfaatlarini himoya qilish) bajaradi.

**Parlamentar respublikalarda** esa Prezidentlik respublikalaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar mavjud, bu xususiyatlarni prezidentlarning saylanishi, davlat hokimiyatini boshqarilishi, hukumatni shakllantirilishi jarayonlarida ko'rishimiz mumkin.

Davlat boshqaruvning Parlamentar respublika shakli joriy qilingan ko'pgina mamlakatlarning aksariyatida Prezident parlament tomonidan saylanadi. Ammo bundan Prezidentlik respublikalaridan asosiy farqi shundan iborat ekan, degan xulosaga kelish noto'g'ridir. Chunki shunday Parlamentar Respublikalar ham borki (masalan, Bolgariya), ularda Prezident xalq tomonidan saylab qo'yiladi.

Parlamentar respublikaning Prezidentlik respublikasidan asosiy farqi: birinchidan, parlament hukumatni shakllantirishda bevosita ishtiroki bo'lsa; ikkinchidan: hukumat asosan parlament oldida javobgarligigi bilan bog'liq.

Parlamentar respublikalarda Prezident Premer-ministrni (bosh vazirni) tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Bundan Parlamentar respublikada Prezidentning o'rni katta ekan degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Chunki Premyer-ministrni tayinlash faqat rasmiyatchilik xolos. Aslida, Prezident parlamentning xohish irodasiga bo'ysunadi.

Prezident, Parlamentar respublikada (Prezidentlik respublikasidan farqli ravishda) vazirlarni mustaqil holda o'z xohishiga ko'ra tayinlay olmaydi, u faqatgina rasmiy jihatdan tasdiqlaydi xolos. Prezident Hukumat boshlig'i sifatida parlamentning ishonchini qozongan shaxsnii tayinlashga majbur. Aks holda bu lavozimga ko'rsatilgan nomzod parlament a'zolarining ko'pchiligi tomonidan rad qilinishi (qaytarilishi) mumkin.

**Parlamentar respublikaning yana bir asosiy jihat - bu Hukumat kimning oldida bevosita javobgar bo'lishidadir.** Parlamentar respublikalarda aksariyat hollarda hukumat parlament oldida javobgar bo'ladi. Uning yana bir jihat, agar parlament hukumatga ishonchiszlik bildirsa, u iste'foga chiqishi lozim. Lekin Prezident bunday vaziyatda boshqacha qaror qabul qilib parlamentni tarqatib yuborishi va navbatdagi saylov muddatini belgilashi ham mumkin. Agar hukumat kengashi

Prezidentdan parlamentni tarqatib yuborishni so‘rasa, bu holda Prezident parlamentni tarqatib yuborishi lozim bo‘ladi. Hukumat tomonidan Prezidentning bu vakolatini suiste‘mol qilish hollari ham kuzatilib turadi.

**Parlamentar respublikaga misol qilib Italiya, Germaniya, Chexiya, Vengriya, Shveytsariyani keltirish mumkin.**

Masalan, *Italiyada* Prezident davlat boshlig‘i hisoblanib, u parlament ikki palatasining (Deputatlar palatasi va Senat) umumiy yig‘ilishida mutlaq ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi. Prezidentning vakolat muddati 7 yil. Italiya Konstitutsiyasiga asosan Prezident parlamentni tarqatib yuborish, unga umumiy saylovlar o‘tkaziladigan kunni belgilash, davlat organlariga mansabdon shaxslarni tayinlash va ozod qilish, jazoni engillashtirish va afv etish, xorijiy mamlakatlarning diplomatlarini qabul qilish hamda mudofaa kuchlariga Oliy Bosh qo‘mondonlik qilish kabi vakolatlarga ega.

Italiyada hukumatni Prezident tomonidan tayinlangan (parlamentda ko‘pchilikni tashkil qilgan partiya-fraksiya rahbarlaridan birini tayinlaydi) rais boshqaradi va uning maslahatiga ko‘ra hukumatning boshqa a‘zolari tayinlanadi. Hukumatga parlament palatalaridan bittasi ishonchsizlik bildirish yuzasidan qaror qabul qilsa (kamida 1/10 qism palata a‘zolari tomonidan tegishli hujjat imzolanib, ko‘rib chiqilganidan so‘ng) u iste‘foga chiqishi lozim bo‘ladi.

Parlamentar respublikalaridan yana biri *Vengriyadir*. Vengriyada prezident 5 yil muddatga Davlat majlisi (Parlament) tomonidan saylanadi. Prezident davlat nomidan xalqaro shartnomalar tuzadi, Davlat majlisiga va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylovni belgilaydi hamda Davlat majlisi yig‘ilishlarida qatnashishi, nutq so‘zlashi, Umummilliy referendum o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishi mumkin.

Bulardan tashqari Prezident Oliy bosh qo‘mondon hisoblanadi. Davlatda maxsus (favqulodda) holat e‘lon qilinganida Davlat majlisi munosib harakat qila olmasa, u holda Respublika Prezidenti qurolli kuchlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish haqida qaror qabul qiladi. Shuningdek, u favqulodda holatlarni e‘lon qiladi va Davlat majlisi raisini bu haqda ogohlantiradi.

Premyer-ministr (vazir-rais) prezident taklifiga ko‘ra Davlat majlisi deputatlarining ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi. Qolgan vazirlarni uning taklifiga ko‘ra Prezident tayinlaydi yoki vazifasidan ozod qiladi. Hukumat shakllanib bo‘lganidan so‘ng Davlat majlisi oldida qasamyod qabul qiladi.

*Aralash respublika*, ya'ni bu turdagи respublikalarnи yarim prezidentlik respublikasi yoki yarim Parlamentар respublika deb ham atashadi. Uning bunday atalishiga sabab Prezidentlik va Parlamentар respublikalarga xos bo'lgan xususiyatlarning jamlanganligidadir.

Aralash respublika shaklida Prezidentlik respublikasidagi kabi davlat hokimiyati aniq tarmoqlarga ajratiladi. Aralash respublikada Prezident Parlamentni tarqatib yuborish vakolatiga ega.

Aralash respublika ko'rinishidagi mamlakatlarda Hukumatning ham Prezident oldida, ham Parlament oldida javobgar bo'lishini kuzatish mumkin.

Aralash Respublikada Prezident vitse-premyerlarni hamda vazirlarni tayinlash huquqiga ega. Ba'zi mamlakatlarda premyer-ministrлarni parlament bilan kelishib yoki kelishmasdan ham lavozimiga tayinlashi mumkinligi ko'zda tutilgan.

**Boshqaruvning aralash respublika shaklida president hamda parlament doimo hamkorlikda bo'ladi.**

Aralash respublikaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, unda ham prezidentlik respublikasiga, ham parlamentar respublikaga xos bo'lgan xususiyatlar yoki bularning ikkalasiga ham xos bo'lmagan jihatlar jamlangan bo'ladi.

Aralash respublikalarga Finlyandiya, Fransiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiyani misol qilib keltirish mumkin.

Boshqaruv tizimi aralash respublika bo'lgan Finlyandiyada Prezident parlament bilan birgalikda Qonunchilik organini shakllantirsa, hukumat bilan hamkorlikda ijroiya hokimiyatni shakllantiradi. U qonunchilik tashabbusiga, veto huquqiga, qaror va ko'rsatmalar qabul qilishga (qarorlar tegishli vazir imzosi bilan tasdiqlanishi zarur), qonunlarni tasdiqlashga, umumiy saylovlар kunini belgilashga va oliv qonunchilik organini tarqatib yuborishga haqli hisoblanadi.

Prezident Hukumat a'zolarini va boshqa mansabdor shaxslarni tayinlash, afv etish va jazoni yengillashtirish, tashqi siyosat borasida urush e'lon qilish yoki tinchlik to'g'risida shartnoma tuzish kabi vakolatlarga ega. U Oliy bosh qo'mondon hisoblanadi. Prezident faoliyati Parlament nazoratida bo'lmaydi. Prezident faqat bir holatda, ya'ni Vatanga, millatga xiyonat qilganidagina jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan.

Parlament hukumatga ishonsizlik bildirganda, u iste'foga chiqishi lozim, biroq siyosiy inqirozdan Prezident Parlamentni tarqatib yuborishi orqali ham qutilishi mumkin.

**Shunday qilib, aralash respublikalarda prezidentlik va parlamentar respublikalarga xos bo'lgan xususiyatlar o'z ifodasini topgan va ulardagi ijobiy jihatlar mujassamlangan.**

Jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqiladigan bo'lsa, prezidentlik institutiga quyidagacha *tavsif* berilishi kuzatiladi.

**Birinchidan,** Prezident muayyan davlatning boshlig'i va xalq birligining ramzi hisoblanadi.

**Ikkinchidan,** Prezident o'z mamlakati xalqi nomidan ish tutadi va uning milliy manfaatlarini himoya qiladi. U partiyaviy, ijtimoiy, mahalliy va boshqa manfaatlardan, ayniqsa, har qanday g'oyaviy kelishmovchiliklardan yuqori turadi, jamiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi, ijtimoiy-siyosiy hayotni mustahkamlaydi.

**Uchinchidan,** Prezident mamlakatning umumiyligi holati uchun mas'ul bo'lib, siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi, huquqiy tartibotni va xavfsizlikni ta'minlash hamda mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatini bajarish borasida qarorlar qabul qiladi, tezkor chora-tadbirlar ko'radi.

**To'rtinchidan,** Prezident davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

**Beshinchidan,** Prezident mamlakat qurolli kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, davlat mudosaasi va fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi uchun rahbarlik qiladi.

**Oltinchidan,** Prezident ijro hokimiyati tizimida yuqori lavozimga tayinlash vakolatini amalga oshiradi, fuqarolik masalalarini hal qiladi, fuqarolarni davlat nishonlari bilan mukofotlaydi va aybidan o'tadi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishining, shuningdek, mamlakatda konstitutsiya va qonunlarning kafolati hisoblanadi.

### **3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi**

1990-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ittifoqdosh respublikalar o'rtasida birinchi bo'lib prezidentlik lavozimini joriy etdi. Bu davlat mustaqilligi yo'lidagi eng muhim amaliy qadamlardan biri bo'ldi. O'zbekistonning oldingi Konstitutsiyalari (1927, 1937 va 1978-yillardagi) davlat boshlig'i institutini nazarda tutmagan edi. Davlat boshlig'i vazifasini Oliy Sovet Prezidiumi amalga oshirar edi.

**Prezidentlik lavozimi nima uchun kerak bo'ldi?**

**O'zbekistonda prezidentlik lavozimi joriy etilishining asosiy sabablari quyidagilardir:**

– **birinchidan**, davlat mustaqilligiga intilish, respublikada boshqaruva jurayonlarini demokratlashtirish aynan prezidentlik instituti joriy etilishini

taqozo etar edi. Chunki parlament uzoq bahs va munozaralarga berilib ketib, kun tartibida turgan dolzarb qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham mamlakatni bir kishi tomonidan boshqarish ehtiyoji paydo bo'ldi.

– **ikkinchidan**, Prezidentlik lavozimini joriy etish sabablaridan yana biri, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini rivojlantirishdan kelib chiqadi. Prezidentlik lavozimi davlat hokimiyati organlarining tizimini tashkil etishda demokratik prinsiplarni amalga oshirishga yordam berishga qaratilgan edi. Qonunchilik, ijro va sud hokimiyati faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

– **uchinchidan**, Prezident o'z zimmasiga hukumatni shakllantirish va uning ishiga rahbarlik qilishdek ulkan mas'uliyatni olishi uchun obyektiv zarurat tug'ildi.

– **to'rtinchidan**, vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlikni ta'minlash va murakkab muammolarni paysalga solmasdan zudlik bilan hal etish ehtiyoji paydo bo'ldi. O'sha paytlarda mavjud bo'lган davlat strukturasi bu masalalarni hal etishga qodir emas edi.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. Uning asosida kiritilgan qoidaga ko'ra, Konstitutsianing 89-moddasida Prezidentning davlat va ijroiya hokimiyati boshlig'i ekanligi ta'kidlangan. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi Raisi lavozimi olib tashlandi hamda hukumat boshiig'i Bosh vazirning hukumat faoliyatiga rahbarlik qilish mas'uliyati oshdi. Ushbu moddadagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi. Hech shubhasiz, aytish mumkinki, Prezident vakolatlari hamda vazifalarining shu tarzda qayta taqsimlanishi davlat qurilishi sohasida boshlangan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish imkonini yanada kengaytirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida” gi konstitutsiyaviy qonun, O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunining

qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2007-yil 11-apreldagi qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasinng 15-bandiga, 102-moddasining 2-qismiga)" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi bo'yicha qator yangiliklar kiritildi.

Ijro hokimiyati faoliyatini shakllantirishdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolati va ishtirokini yanada takomillashtirish maqsadida, 2019-yil 5-martdag'i "Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93,98 - moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Konstitutsyaning 93-moddasi, birinchi qismining 11- bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi". Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga katta ishonch bildirishi, bu orqali esa Qonunchilik palatasi o'ziga yuklatilgan yuksak mas'uliyatni yuqori darajada bajarishi talab etiladi.

Ushbu qonunlar talabi davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga Konstitutsiya bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishdagi roli va mas'uliyatini oshirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash hamda huquqiy me'yorlar doirasida cheklash, shuningdek, Yuqorida ko'rsatib o'tilgan islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirishni taqozo qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89 - moddasiga ko'ra:** «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi», deyilgan.

Demokratik huquqiy davlatda davlat boshlig‘ining maqomi konstitutsiya va u asosida qabul qilinadigan qonunlar tomonidan aniq belgilab qo‘yiladi. Bu davlatdagi eng yuqori lavozimni egallagan shaxs uchun juda zarurdir.

**Prezidentning konstitutsiyaviy maqomi davlat boshlig‘ining funksiyalari va vakolatlarini belgilab qo‘yuvchi konstitutsiya normalarida mustahkamlangan.**

O‘zbekiston Konstitutsiyasining tuzilish mantig‘i hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipiga mos tushadi. Konstitutsiyada hokimiyatlarning o‘zaro hamkorligini ta‘minlash bo‘yicha asosiy vazifa Prezident zimmasiga yuklangan. Prezidentning O‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimidagi alohida o‘rni bat afsil izohlanadi.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda Prezidentning roli nihoyatda o‘sdi. Prezidentlik instituti o‘zbek xalqi ruhiyatiga mos edi. “O‘zbek xalqining an‘analarida hokimiyat vakillariga, davlatning mansabдор shaxslariga to‘la hurmat munosabati va hatto e‘zozlash mavjud. Qoida tariqasida, bu qo‘rquvdan emas, odamlar hokimiyat allaqanday oliv ibtidodan, shu jumladan, ilohiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘zlari to‘g‘risida qayg‘urishiga samimiyo ko‘nikib qolishgan”<sup>1</sup>. Shuning uchun ham prezidentlik instituti O‘zbekistonning siyosiy madaniyatiga oson singib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasiga muvofiq, Prezident - hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mexanizmining eng muhim institutidir.

Davlat boshlig‘i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi rol o‘ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekistonning oliv vakilligini amalga oshiradi.

Davlat boshlig‘i o‘zida u yoki bu hokimiyat tarmog‘ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasida shunday deyilgan: «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lImagen, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bo‘lishi mumkin emas.

---

<sup>1</sup> Левитин Л., Дональд С. Карлайл. Ислом Каримов – янги Ўзбекистон Президенти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б.41.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 12-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "**Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi**" nomli ma'ruzasi<sup>2</sup>da O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalariga o'zgartishlar kiritish yuzasidan bildirilgan takliflarida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, davlat hokimiyatining uchta subyekti: davlat boshlig'i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, shuningdek, sosial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirish masalalari ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kontseptsianing ustivor yo'nalishidan kelib, 2011-yil 12-dekabrdagi O'RQ-305-sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritdi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati yetti yildan besh yilga qisqartirildi.

Ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida Prezident lavozimiga nomzodlar va uni saylash tartibiga qo'yiladigan shartlar ham belgilab qo'yilgan. Umuman, barcha mamlakatlarda Prezident lavozimiga nomzodlarga bir qator talablar qo'yiladi:

- **birinchidan**, yosh senzi: AQSH, Rossiya va O'zbekistonda – 35 yosh, GFRda – 40 yosh, Italiyada – 50 yosh va hokazo;
- **ikkinchidan**, tug'ilishi bilan muayyan mamlakat fuqarosi bo'lishi yoki saylovgacha mamlakatda uzoq muddat yashashi, masalan: Rossiyada - 10 yil, AQSHda - 14 yil, O'zbekistonda - 10 yil va hokazo;
- **uchinchidan**, Prezident lavozimida bo'lish muddati: AQSH - 4 yil, GFR va Fransiyada - 5 yil, Meksika va Rossiyada-6 yil, Italiya - 7 yil va hokazo;

– **to‘rtinchidan**, ko‘p mamlakatlarda Prezident lavozimiga bir martadan ortiq (Meksika), ikki martadan ortiq (Rossiya, AQSH) saylanish mumkin emas. Fransiya va Italiyada Prezidentning qayta saylanish imkoniyati cheklanmagan;

– **beshinchidan**, Prezident lavozimini boshqa davlat yoki tijorat faoliyat bilan qo‘sib olib borilishi man etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasidagi Prezident lavozimiga nomzodlarga qo‘yiladigan talablar jahon standartlariga to‘la mos keladi. Masalan, 35 yoshga kirgan, faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarosigina Prezident etib saylanishi mumkin.

O‘zbekistonda prezident saylovları umumiyligi, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘zbekistondagi 1991, 2000, 2007, 2015 hamda navbatdan tashqari 2016-yillardagi prezident saylovları aynan shu yo‘l bilan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida, «Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi», deyilgan.

Konstitutsiyaga ko‘ra, prezident o‘z lavozimida faoliyat Yuritayotgan vaqtida *quyidagilarni birga olib bormasligi* nazarda tutiladi:

**birinchidan**, boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi;

**ikkinchidan**, vakillik organining (parlament, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) deputati bo‘lishi;

**uchinchidan**, tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanishi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti daxlsizlik huquqiga ega.**

Prezident shaxsining daxlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi, ma‘muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi va shaxsiy ko‘zdan kechirilishi mumkin emas. Shu ma‘noda Prezidentning shaxsi daxlsizdir.

**O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni<sup>197</sup> da O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining**

---

<sup>197</sup>“Ўзбекистон Республикаси Президенти фаолиятининг асосий кафолатлари түгрисида”ги Ўзбекистон Республикаси 25.04.2003 й. 480-ИЙ-сон Конуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси.- 2003 й. 3-4-сон.- 34-модда

faoliyati bilan bog‘liq moddiy ijtimoiy ta‘minoti masalalari huquqiy mustahkamlangan.

Bundan tashqari, Prezident shaxsining daxlsizligi qoidasiga asosan, uning daxlsizlik va immunitetga egaligi ushbu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z vazifasini egallab turgan davrda ham, iste‘foga chiqqanidan so‘ng ham butun hayoti maboynda daxlsizlik va immunitetga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi eks-Prezidentining davlat muhofazasi va xavfsizligini ta‘minlashda huquqiy kafolatlarning mavjudligi, davlat va jamiyat tinchligi va osoyishtaligining ham kafolati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi eks-Prezidenti Prezidentlik lavozimida bo‘lgan davrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini bajarish bilan bog‘liq harakatlari uchun jinoiy va boshqa xil javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Prezidentga tajovuz qilish qanday shaklda amaiga oshirilmasin, buning uchun jinoiy javobgarlikning o‘rnatalishi konstitutsiyaviy qoidalarga rioya qilinishining huquqiy kafolatidir.

Shu sababli ham Prezident hayotiga tajovuz qilish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 158-moddasi bilan alohida muhofaza qilinadi. Zero, davlat boshlig‘ining hayotiga tajovuz qilish O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi, davlat tuzilishi tizimi, davlat hokimiyati organlarining normal faoliyat ko‘rsatishi, Prezidentning shaxsiy huquq va erkinliklari, uning hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni va qadr-qimmati, erkinligiga qarshi jinoyat hisoblanadi. Shu bilan birga, Prezident shaxsi badaniga qasddan shikast etkazish, omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilish ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 158-moddasi bilan taqilanganadi.

Jahon konstitutsiyaviy nazariyasi va amaliyoti Prezidentning qasamyod qabul qilishiga alohida ahamiyat beradi. Bu tadbir faqat rasmiy tantanali inarosim sifatidagina qabul qilinmaydi. Shuningdek, u yuridik ahamiyatga ham ega.

#### **Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati quyidagilardan iborat:**

– **birinchidan**, Prezident qasamyod qabul qilishi bilan o‘z lavozimiga kirishadi va o‘zining konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi. Shu vaqtadan boshlab oldingi prezident o‘z vakolatini zimmasidan soqit qiladi;

– **ikkinchidan**, qasamyodning matni, odatda, Konstitutsiyada beriladi (AQSH, Rossiya, O'zbekiston), xalqqa e'lon qilinadi va parlament oldida Prezident tomonidan tantanali ravishda qabul qilinadi;

– **uchinchidan**, qasamyodning buzilishi Prezidentni javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi, bu uning o'z lavozimidan chetlatilishini taqazo etishi mumkin (bunday marosim ko'p mamlakatlarda «impichment» nomini olgan);

– **to'rtinchidan**, Prezident o'ziga bevosita berilmagan vakolatlarga asoslangan harakatlar sodir etsa, unga qasamyod yuklagan majburiyatlarini dalil qilish imkoniga ega.

#### **4-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari**

Konstitutsianing 93-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, uning davlat hokimiyyati organlari tizimidagi maqomiga mos ravishda keng vakoiatlar berilgan. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi. **Prezidentning asosiy vazifasi - mamlakat ichida va tashqarisida davlatning birligni namoyon qilishdir.**

O'zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqini himoya qilish mexanizmining uzuksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklar amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko'rishga burchlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 26 yillik tantali marosimdag'i ma'ruzasida, jazoni o'tayotgan 3 ming 333 nafar, jumladan, faoliyati man etilgan tashkilotlarga kirib qolgan 646 nafar mahkum avf etilib, oilasi bag'riga qaytarilganligi, qolaversa, ulug' bayram – Konstitutsiya kuni munosabati bilan qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan va ayni paytda ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan 136 nafar shaxs avf etilganligi alohida ta'kidlanib o'tildi<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolar huquq va erkinliliklarini ta'minlashdagi rolining amaliy natijasini ko'rsatib turibdi.

---

<sup>1</sup>Карантин: Ҳајк сузи. 2018 йил 8 декабрь.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir.** Prezident o'z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy majburiyatlarini talab darajada bajarishlarini ta'minlaydi. U xatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali yoki shu sohadagi vakolatli organlar, xususan, sudlar vositasida bunga erishadi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyada belgilangan tartibda davlatning mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi.** Mustaqillikni muhofaza qilish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun Prezident maxsus vakolatlarga ega. Xususan, favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz berganda shaxsan o'zi tezkor qarorlar qabul qiladi.

**Prezident davlat boshlig'i sifatida xalqaro munosabatlar sohasida muhim vakolatlarga ega.** Prezident xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining vakilidir. Bu vakillik funksiyasini u yakka o'zi amalga oshiradi. Prezident o'z vakillarini yuborishi mumkin. Bu vakillar davlat nomidan vakolatlarga ega bo'ladi. Prezident mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, 2018-yil yakunlari bo'yicha 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi<sup>1</sup>.

Bularning barchasi xalqaro huquq amaliyotiga to'la mos keladi. Muayyan davlat boshlig'ining o'z konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish, xususan, muzokaralar olib borish, shartnomalar va bitimlar tuzish huquqiga ega ekanligi tan olinadi. Bunda Prezident o'ziga maxsus vakolatlar berilishiga muhtoj emas, chunki u egallagan mansabidan kelib chiqib, tegishli vakolatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaga va bitimlari qonun qabul qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan **ratifikatsiya**<sup>2</sup> qilinadi (78-moddaning 20-bandii).

---

<sup>1</sup> Каранг: Халқ сўзи 2018 йил 28 декабрь.

<sup>2</sup> Ратификация – тасдиқлаш, бирор мамлакатнинг олий давлат органи томонидан тасдиқланган халқаро шартнома

Prezidentning topshirig‘isiz mansabdor shaxslar tomonidan O‘zbekiston zimmasiga olingen har qanday xalqaro majburiyatlar Prezident tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Prezidentning tashqi siyosat sohasidagi muhim vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- **birinchidan**, uning huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;
- **ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi.

Konstitutsiya 93-moddasining 7-bandida shu narsa belgilab qo‘yilganki, O‘zbekiston Respublikasi **Prezidenti Oliy Majlisga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega**. Bu murojaatlar normativ hujjat hisoblanmasa-da, siyosiy tusga ega bo‘lib, mamlakat taraqqiyotining dasturiy prinsiplari va strategik vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Davlat boshlig‘ining qonun chiqaruvchi organga murojaat qilish amaliyoti deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Murojaatnomaning mazmuni yuridik nuqtayi nazardan majburiy kuchga ega bo‘lmasa-da, dasturulamal sifatida qonun chiqaruvchi organga ham,mamlakatdagi jamoatchilik fikriga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ushbu normaning amaldagi tatbig‘i sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Mazkur Murojaatnomada Prezident tomonidan, “Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g‘oyat uyg‘un va hamohang bo‘lib, bizning ish faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi”<sup>1</sup>, degan fikrga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro etuvchi hokimiyatni tuzish bilan bog‘liq vakolatlari Konstitutsianing 93-moddasining 8, 10, 11, 12, 13, 15, 20, 24-bandlarida bayon qilingan. Bunday vakolatlarning ko‘pligiga ikkita sabab bor:

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018 – Б.3

– **birinchidan**, Prezident bo‘lib saylangan shaxsnинг dasturi umumxalq saylovlari orqali qo‘llab-quvvatlangani uchun u ijroiya hokimiyat organlarini tuzishda muayyan vakolatlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki uning dasturini bajarish, asosan, ijro etuvchi hokimiyat organlari zimmasiga tushadi, ularni tuzishda Prezidentning vakolatlari juda muhim o‘rin tutadi;

– **ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslardan biri bo‘lmish hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipi davlatning biror-bir organini faqat bir hokimiyat tarmog‘i tomonidan tuziliishini istisno qiladi. Shuning uchun davlat hokimiyatining markaziy organlarini tuzishga ham Prezident, ham Oliy Majlis jalb qilingan. Bunga ikki yo‘l bilan erishiladi: yoki Prezident muayyan mansabdor shaxslarni tayinlaydi, Oliy Majlis esa tasdiqlaydi yoxud Oliy Majlis tayinlaydi, nomzodni esa Prezident taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida, hukumat a‘zolari parlament oldida mas‘uliyatni yetarli darajada his etayotgani yo‘q. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyotini kiritish taklif etildi<sup>2</sup>.

Shundan kelib chiqib, 2019-yil 5-martdagi “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas‘uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (79, 93, 98–moddalari)ga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. Xususan, Konstitutsiyaning 93-moddasi, birinchi qismining 11- bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ma‘qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi Raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi. Shuningdek, Prezident Bosh vazirning taqdimiga muvofiq viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik bu masalalarni

---

<sup>2</sup>Каранг: Халқ сўзи 2018 йил 28 декабрь.

tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'iga kiritadi. Prezident o'z qarori bilan Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etishga haqlidir.

Davlat xavfsizlik xizmati borasida Prezident Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi.

Sud hokimiyati organlariga kelganda, shuni aytish mumkinki, Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkiblariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisi nomzodlarini taqdim etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o'rinoslarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining a'zolarini qonunga muvofiq tasdiqlaydi<sup>1</sup>.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil Oliy Majlisga Murojaatnomada, Sudyalar korpusini shakkantirish tizimini sud hokimiyatining mustaqilligi prinsipiiga to'liq moslashtirish, bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarurligi, buning uchun tuman, shahar va viloyat sudi sudyalarini tanlash va tayinlash vazifasini Sudyalar oliv kengashi to'liq o'z zimmasiga olishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlab o'tildi<sup>2</sup>.

Faqat ijroiya hokimiyat organlarini tuzishdagina emas, balki ularning faoliyati bilan bog'liq sohada ham Prezidentga katta vakolatlar berilgan. Agar respublika boshqaruva organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga zid bo'lsa yoki ular inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini poymol qilsa, ushbu masala tegishli sudda hal qilinmaguniga qadar Prezident bu hujjatlarni to'xtatish yoki bekor qilishga haqlidir.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: "Ўзбекистон", 2018. – Б.47.

<sup>2</sup>Каранг: Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь.

**Prezidentning respublika davlat va davlat boshqaruv olyi organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlashdagi vakolatlari keng qamrovlidir.**

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash uchun Prezident konstitutsiyada ko'rsatilgan boshqa vositalardan ham foydalanish imkoniyatiga ega. Chunki u to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda xalq topshirgan siyosiy mandatga ega.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni imzolaydi.** Prezidentning imzosi bo'lmasa, qonun kuchga kirmaydi. Bu davlat boshlig'ining an'anaviy funksiyasi bo'lib, qonunga majburiy kuch beradi va qonun chiqaruvchilik jarayonini yakunlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqlidir.**

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishinchcha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va senati a'zolari umumiyligi sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

**Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat masalasidagi vakolatlari Konstitutsiyaning 93-moddasi 19-bandida aniq ifodalangan. Faqat Prezidentgina butun respublika hududida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritadi.

Lekin Prezident bunday qarorni qabul qilishda erkin emas, chunki favqulodda holat faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibdagina joriy etiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy sohadagi vakolatlari ham salmoqlidir.** U Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi.

Prezidentning Oliy Bosh qo'mondon ekanligi Mudofaa vazirligiga har qanday qonuniy buyruqlar berishiga imkon tug'diradi. Mudofaa vaziri amalda bevosita Prezident rahbarligida ishlaydi. Urush yoki agressiya holatida Prezident har qanday vaqtida qurolli kuchlarga boshchilik qilishni o'z zimmasiga olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tajovuzdan mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilishga haqli, u bu qarorini uch kun mobaynida mamlakat Oliy Majlisiga tasdig‘iga kiritadi.

Davlat boshlig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpvana berish, O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash, avf etish to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish va gunohidan kechishni amalga oshirish kabi masalalarni hal qilish ham kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qariyb ikki yil davrida uzoq yillar mamlakatimizda istiqomat qilib, jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan va biz bilan vatandosh bo‘lishni orzu qilgan 2 ming 528 nafar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda yagona fuqarolik joriy etilgan bo‘lib, unga qanday asoslarda ega bo‘lishidan qat‘iy nazar, barcha uchun tengdir (Konstitutsiyaning 21-moddasi). Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotishning asos va tartiblari «**O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik to‘g‘risida»gi qonuni<sup>198</sup>** bilan belgilanadi. Qonunning 30-moddasida Prezidentning fuqarolik masalalari bo‘yicha vakolatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Prezident quyidagi qarorlarni qabul qildi:

- **birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish;
- **ikkinchidan**, xorijda yashayotgan va tegishli iltimosnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish;
- **uchinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga tiklash to‘g‘risida;
- **to‘rtinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqarish to‘g‘risida;
- **beshinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotganlik to‘g‘risida.

---

<sup>1</sup> Қарант: Халқ сўзи.2018 йил 8 декабрь.

<sup>198</sup> «Узбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Конуни // Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., № 9.

Konstitutsiyaning 93-moddasi 21-bandiga muvofiq, davlat mukofotlari (ordenlar, medallar, yorliqlar) bilan taqdirlash O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. U oliv harbiy unvonlarni (masalan, armiya generali), oliv malakaviy unvonlarni (masalan, diplomatik daraja), oliv maxsus unvonlarni (masalan, amaldagi davlat adliya maslahatchisining toifa darajasini) beradi. Fan va texnika, adabiyot va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bo'yicha komissiyaning qarori Prezident farmonlari bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnomma kiritadi (93-moddaning 23-bandı).

Amnistiya - jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o'tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdar shaxslarga topshirishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib o'z vazifalari va vakolatlarini amalga oshirish maqsadida ko'p qirrali huquq ijodkorligi faoliyatini yuritadi hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

**Qaror** – konstitutsiya va qonun normalarini ijrosini amalga oshirishga qaratilgan normativ huquqiy hujjat

**Farmon** – jismoniy va yuridik shaxslarning irodasiga taalluqli huquqiy hujjat bo'lib, u uzoq muddat amal qiladi. Farmon - normativ hujjat.

**Farmoyish** – individual (muayyan masalaga qaratilgan) tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Misol tariqasida, Farmonlar Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari bo'yicha turkumlanadigan bo'lsa, quyidagi tasnifni ko'rish mumkin:

- fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi farmonlar;
- kadrlarni tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlar;
- vazirlik va boshqa davlat idoralarini tuzish, qayta tuzish va tugatishga doir farmonlar;
- davlat nishonlari va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash, unvonlar, shuningdek, harbiy unvonlar berish to'g'risidagi farmonlar;
- sud tomonidan hukm qilingan fuqarolarni avf etish to'g'risidagi farmonlar;

– favqulodda holat va safarbarlik e'lon qilish haqidagi farmonlar va h.k.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan Oliy Majlis yoki boshqa davlat organini xabardor qilmasdan yoki roziligini olmasdan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi. Prezident chiqargan normativ hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan hal qilinadi (Konstitutsianing 109-moddasi).

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari qonuni osti hujjatlaridir.** Ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bo'lmasligi zarur (Konstitutsianing 16-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aktlari respublika matbuotida rasman e'lon qilinadi.

Misol tariqasida, 2017-yil 17-fevraldag'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni<sup>1</sup> asosida mamlakatimiz taraqqiyotining beshta ustuvor yo'nalishi belgilab olindi.

Konstitutsianing 95-moddasida ta'kidlanganidek, Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkinligi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

---

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси конун хужожатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2011-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96, va 98-moddalariga)”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko‘ra o‘z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida uning yangi tahriri bayon etildi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatilishi, bunda uch oy muddat ichida, «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkazilishi, demokratik talablar, dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingen tamoyillarga to‘la muvofiqdir.

Ushbu belgilangan holat xorijiy mamlakatlarning milliy qonunchiligidagi qanday aks etganligini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, AQSHda davlat boshlig‘ining o‘z vazifasini amalgalashirish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, uning vazifasi AQSH vitse-prezidenti tomonidan, uning vakolat muddati tugaguniga qadar amalgalashiriladi.

Fransiyada Respublika Prezidenti vazifasini vaqtincha bajarish parlamentning yuqori palatasi Senat raisiga yuklatilgan.

Bunday holat, ya‘ni aniq bir mansabdor shaxs yoki organga davlat boshlig‘i vazifasini bajarish imkoniyatining qonunda nazarda tutilishi bunday imkoniyatni ular tarafidan qo‘lga kiritishga harakat bo‘lmasligi kafolatini bermaydi.

Shuning uchun ham milliy qonunchiligimizda davlat boshlig‘i vazifasini vaqtincha bajarish yuzasidan belgilangan qoida konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligini ta‘minlaydi.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste‘foga chiqqan Prezident umrbod Senat a‘zosi lavozimini egallashi Konstitutsiyada o‘zining ilodosasini topgan (97-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan qoida, avvalo, davlat va jamiyat a‘zolarining manfaati nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda mustahkamlangan. Chunki davlat boshlig‘i vazifasini bajarib kelgan shaxs davlat va jamiyat

boshqaruvida katta tajriba to‘playdi. Uning siyosat, iqtisod hamda ijtimoiy hayotning barcha soha yo‘nalishlariga tegishli bilimi, mamlakat taqdiri bo‘yicha o‘ta mas‘uliyatli faoliyat tajribasi iste‘foga chiqqanidan so‘ng ham davlat va xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Bundan tashqari, ushbu qoidaning mohiyatidan, davlat va jamiyat boshqaruvini ma‘lum muddat amalga oshirgan shaxsga hurmat va ehtirom ko‘rsatilayotganligini ham anglash mumkin.

Muayyan vaqt davlat boshlig‘i vakolatiga ega bo‘lgan shaxsda senat a‘zosi bo‘lish va umrbod ushbu lavozimda qolish huquqining mavjudligi, sobiq prezidentning shaxsiy daxlsizligiga kafolat sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Eng asosiysi, iste‘foga chiqqan sobiq davlat boshlig‘ining davlat organlari tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, vakolatining mazmuniga ko‘ra ham asosiy vazifasi davlat boshqaruvi sohasiga tegishli bo‘lgan organ - Senatdan o‘rin olishi jamiyat barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

### ***O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari***

1. “Prezident” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nima anglatadi?
2. O‘zbekistonda Prezidentlik instituti qachondan boshlab joriy qilindi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligi nomzodiga qanday talablar helgilangan?
4. Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati nima?
5. O‘z lavozimida ishlayotgan Prezident boshqa qanday lavozimlarga ishlashi taqiqlanadi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlarini ayting?
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi?

## **XXIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI**

1-§. Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining hukumati.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy funksiyalari.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlari.

### **1-§. Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining hukumati**

O'zbekistonda Konstitutsiyaning 11-moddasi asosida davlat hokimiyati tizimining uchta hokimiyat – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipini ro'yobga chiqarish maqsadida keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi davlat hokimiyati tizimi vakolatlarini oqilona taqsimlash va uning faoliyati samaradorligini oshirishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tutgan o'rni va rolini aniqlash maqsadida quyida ijro etuvchi hokimiyatning umumiyligi tavsifi va uning tub mohiyatini aks ettiruvchi asosiy belgilariga e'tibor qaratamiz.

Davlat hokimiyatining ijro etuvchi tarmog'i hokimiyatlar bo'linishi prinsipiiga ko'ra, davlat mexanizmida hokimiyatning umumiyligi va maxsus vakolatga ega o'ziga xos ijroiya organlar tizimi shaklida namoyon bo'ladigan mustaqil tarmog'i hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyatning o'ziga xos eng muhim xususiyati – bu uning faoliyati qonunlar ijrosini ta'minlash xarakteriga egaligida namoyon bo'ladi. Bu hol davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi qonun ustuvorligi tamoyilining ajralmas belgisidir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari umumiyligi va maxsus vakolatga ega kollegial yoki yakkaboshchilik boshqaruviga asoslangan, markaziyligi va ma-

halliy organlarni birlashtiruvchi ierarxik, ko'ptarmoqli, funksional murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu belgi va xususiyatlar ijro etuvchi hokimiyat tizimining o'zi qabul qilayotgan qarorlar ijrosiga layoqatli mustaqil konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatidagi o'rnni belgilaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat – ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli tashkiliy-huquqiy mexanizmlar va faoliyat shakllariga ega. Ayni paytda, uning shakllanishda hosila organ ekanligi, ya'ni ikkilamchiligi, qonun asosida faoliyat yuritishi, universalligi, unga xos jo'shqinlik (dinamik), o'z vakolat doirasining mavjudligi, ierarxik qurilgan apparat va ko'psonli professional xizmatchilarga ega bo'lishi, tashkilotchilik xususiyatining mavjudligi va nihoyat, farmoyish berish huquqiga ega ekanligi kabilar uning o'ziga xos asosiy belgilari sanaladi.

Davlatning umumiy funksiyasidan kelib chiqib, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining asosiy maqsadi: birinchidan, fuqaro, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash; ikkinchidan, fuqaro hayoti, jamiyat farovonligi, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish; uchinchidan, fuqarolar va jamoat birlashmalarining huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari hamda kishilarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkin yashashlari uchun sharoit yaratib berishga qaratilgan.

Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasidagi 16 ta yo'nalishdagi asosiy vakolatlar doirasi Qonunning 5-moddasida belgilab berilgan<sup>199</sup>.

Professor H.T. Odilqoriyev "ijroiya hokimiyati ham vertikal, ham gorizontal ravishda o'zaro bog'langan davlat organlarining muayyan tizimidan iborat"<sup>200</sup> degan fikrni ilgari surib, yuqorida belgililar bilan bir qatorda, ijro etuvchi hokimiyat tizimining yaxlit ekanligi hamda O'zbekiston davlat tuzilishining unitar xususiyatidan kelib chiqib, ijro

<sup>199</sup> **Каранг:** Узбекистон Республикасининг 1993 йил 6 майда қабул килинган "Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тұғрисида"ги (Янги таҳрири) 818-XII сонли Конуни (2018 йил 23纽даги УРҚ-486-сон Конуни билан киритилган охиригін күшимча ва ўзгартышлар билан) // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 йил, 9-10-сон, 138-модда.

<sup>200</sup> **Каранг:** Узбекистон Республикасининг конституциявий ҳукуки / Ҳ Одилкориев, И.Т. Тултееев, Ү.Х.Мухамедов. – Т. : Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – Б. 328.

etuvchi hokimiyat organlari tizimi ichki vertikal bo'ysunish tamoyiliga asoslanishiga ishora qiladi.

Shunday qilib, ijro etuvchi hokimiyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin. *Ijro etuvchi hokimiyat* – bu davlat hokimiyati tizimining alohida mustaqil bo'g'ini bo'lib, u Konstitutsiya va qonunlar, davlat dasturlari, parlament qarorlari, davlat boshlig'ining normativ-huquqiy hujjatlarining ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy rivojlantirish masalalarini hal qilishda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, tashkillashtiruvchi, farmoyish beruvchi, tezkor-ijrochilik faoliyatni amalga oshirishda omilkorlik ila harakat qilish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash va aholining turmush farovonligini yanada oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida, o'zining vakolatlari doirasida mamlakatning butun hududi yoki muayyan ma'muriy-hududiy birligida bajarilishi umummajburiy, tabiatan qonunosti hisoblangan huquqiy hujjatlar qabul qiladigan davlat boshqaruv organlarining yagona tizimi hisoblanadi.

Amalda qonunchiligidan muvofiq, Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining Hukumati – respublika ijro etuvchi hokimiyati oliy organi hisoblanib, hokimiyatning mustaqil tarmog'i – ijroiya hokimiyatni boshqaradi. U mamlakatning kundalik hayotiga oid masalalarni hal qilish uchun davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi hamda mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilashda ishtirop etuvchi, bu borada keng vakolatlarga ega, kollegial organdir. Uning faoliyati jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga ta'sir qiladi. Boshqa hokimiyat tizimidagi davlat organlarini aslo kamsitmagan holda aytish mumkinki, hukumat faoliyati murakkab, ko'p qirralidir. Ana shu ko'p qirrali, murakkab faoliyatni maqsadli, samarali amalga oshirish usullarini topish maqsadida Vazirlar Mahkamasining faoliyatini takomillashtirish ustida doimiy ish olib boriladi.

Turli mamlakatlarda hukumat har xil nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, Italiyada – Vazirlar Kengashi, Xitoy xalq respublikasida – Davlat Kengashi yoki Markaziy xalq hukumati, Shveysariyada – Federal

Kengash, Fransiya, Litva hamda Chexiyada – hukumat, Rossiyada – hukumat va boshqalar<sup>201</sup>. O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, Konstitutsiyaga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Ularning qanday nomlanishidan qat‘i nazar hukumat o‘ziga xos xususiyat va umumiyligi belgilarga ega: 1) hukumat nisbatan mustaqil davlat hokimiyati tarmog‘ini tashkil etib, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi; 2) hukumat amalda ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimiga rahbarlik qiladi; 3) hukumat – iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlaydigan boshqaruvning barcha tarmoqlari va jabhalariga rahbarlikni amalga oshiruvchi umumiyligi kompetensiyaga ega organ; 4) Hukumat – davlatning barcha hududlarida umummajburiy bo‘lgan hujjatlar qabul qiladigan kollegial organ.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshirib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlovchi ijro etuvchi hokimiyat oliy organi sifatida u “o‘z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplari”ga asoslanadi<sup>202</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mamlakat hukumati hisoblanib, hokimiyatning mustaqil tarmog‘i – ijroiya hokimiyatni boshqaradi. U mamlakatning kundalik hayotiga oid masalalarni hal qilish uchun rahbarlikni amalga oshiruvchi hamda mamlakat taraqqiyoti istiqbolini belgilashda ishtirok etuvchi, bu borada keng vakolatlarga ega, kollegial organ. Uning faoliyati jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga ta‘sir qiladi.

---

<sup>201</sup> Каранг: Конституции мира. Т. 2. – Ташкент Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. – С. 323.

<sup>202</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993 йил 5 сон. 202 модда. (янги таҳтирида «Халқ сўзи» газетаси 2003 йил 29 август)

Mamlakatni totalitar tuzumdan demokratik tuzumga o‘tish davrida hukumatning huquqiy maqomi va faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlari davlat qurilishi va boshqaruviga mos o‘zgarib bordi hamda jamiyatni demokratlashtirish jarayonida hukumatning mas‘ulligi, uning ushbu jarayondagi o‘rni va ahamiyati oshib bordi.

Hukumatning davlat va jamiyat boshqaruviga oid faoliyat shakllari, ularni amalga oshirish usullari, shuningdek, hukumat tarkibi, uning o‘z faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlар ham unga mos ravishda takomillashtirilib borildi. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining huquqiy maqomini tartibga soluvchi manbalar asosida uning bir necha rivojlanish bosqichlarini ajratish mumkin. Mamlakatimizning istiqlol va taraqqiyotga yerishish pallasida ijro hokimiyyati, ayniqsa, hukumatning xalqimiz tarixiy yutug‘ida tutgan o‘rni, O‘zbekiston Ministrlar Sovetidan to O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davrigacha bo‘lgan siyosiy-huquqiy taraqqiyot davri bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Shu tariqa xorijiy mamlakatlardagi singari O‘zbekistonda ham hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi asosida Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi hokimiyat tizimida tutgan o‘rni va uning faoliyatiga doir ijtimoiy-huquqiy munosabatlар tizimi shakllanib, ijro etuvchi hokimiyat oliy organlarining demokratik konstitutsiyaviy-huquqiy modeli vujudga kelgan. Davlat mustaqilligiga erishish tayanchi sifatida hukumatga bo‘lgan e‘tibor va uning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligining e‘tirofi natijasi o‘laroq, ijro hokimiyatining davlat boshlig‘i – Prezident rahbarligi ostida faoliyat yuritishi o‘tish davriga xos xususiyat ekanligini e‘tiborga olish zarur.

Ayni paytda Vazirlar Mahkamasining faoliyatiga tegishli asosiy prinsiplar tahlili hamda uning asosiy funksiyalarini tahlil qilish orqali, fanda unga nisbatan Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq mustahkamlab qo‘ylgan vakolatlar doirasi, ushbu vakolatlarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, bozor munosabatlariiga o‘tish davrida ijro etuvchi hokimiyatning davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi o‘rinni egallaganligi, hukumatning davlat va jamiyat kundalik hayotidagi beqiyos ahamiyati, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni zudlik

bilan bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lgan hokimiyat sohibi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalar shakllangan.

Tabiiyki, yuqorida sanab o‘tilgan qator belgi va xususiyatlardan kelib chiqib, konstitutsiyaviy huquq fanida ijo etuvchi hokimiyat tizimiga o‘zi qabul qilayotgan qarorlarga to‘liq mas‘uliyat bilan javob berishga layoqatlil bo‘lgan mustaqil konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o‘rin va hal qiluvchi rol ajratiladi. Shu bois hokimiyatlar bo‘linishi tamoyiliga muvofiq, ijo etuvchi hokimiyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iboratligi hamda uning markaziy va oliv organi hisoblanadigan hukumatning huquqiy maqomi, o‘ziga xos jihatlarini ilmiy mushohada qilish fanning oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijo etuvchi hokimiyat organlarini tadqiq qilgan huquqshunos olima E.D.Qutiboyevanining fikricha, respublika misolida ijo etuvchi hokimiyatni amalga oshirish uchun yaxlit organlar (apparat) tizimi mavjud bo‘lib, ular umumiy vakolatga ega ijo organlarini (masalan, respublika Vazirlar Kengashi, tuman va shahar hokimlari), shuningdek, davlat-boshqaruv mexanizmining tarmoqlar, tarmoqlararo va boshqa bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi<sup>203</sup>.

Mamlakatdagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni, eng asosiysi – ularda vujudga kelgan vaziyat va hukumat faoliyatining maqbullashtirish shaklini tahlil qilish, boshqaruv shaklidan qat‘i-nazar muayyan hukumatning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan real o‘rni va roli haqida bir muncha tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Davlat organlari tizimida Hukumatning maqomi va funksiyasini, tutgan o‘rni va rolini aniqlashda qonunchilik hamda uning amaliy faoliyatiga doir masalalarni kompleks ravishda umumlashtirib tahlil qilish bir qator savollarga javob olishni talab qiladi.

Ushbu savollarni quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. Hukumatni shakllantirish tartibi va usullari.
2. Hukumat tarkibi va tuzilishi.
3. Hukumat boshlig‘ining tayinlanish tartibi va uning mustaqillik darajasi.
4. Hukumatning siyosiy javobgarlik masalasi.
5. Hukumatning siyosiy

---

<sup>203</sup> **Қаранг:** Кутыбаева Е.Д. Органы исполнительной власти Республики Каракалпакстан: Дис ... д-ра юрид. наук. Ташкент, 1999. – С. 238-248.

javobgarlik shakli va uni amalga oshirish tartib-taomillari. 6. Davlat boshlig'i hamda parlamentning Hukumat bilan o'zaro aloqalariga doir prinsiplar. 7. Davlat hokimiyatining asosiy tarmoqlari tizimida "tiyib turish" va "muvozanatda saqlash" prinsiplarining ishslash mexanizmi va uning hukumat maqbul (optimal) faoliyat yuritishi uchun yetarlilik darajasi. 8. Ijro etuvchi organlar tizimi va Hukumat funksiyalarini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining o'zaro munosabatlari. 9. Hukumat vazifalarining ijtimoiy institutlarga tayangan holda xalq irodasi va manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi. 10. Hukumat tomonidan qabul qilingan hujjatlar, ularning yuridik va real kuchi, davlatning normativ-huquqiy hujjatlari tizimida ularning tutgan o'rni, ularni bekor qilish yoki to'xtatib qo'yish tartiblari. 11. Ijro hokimiyati tizimining ma'muriy-hududlar bo'yicha vertikal tuzilishi hamda vakolatlarining taqsimlanishi. 12. Hukumatning faoliyat tartibi va tashkiliy shakkllari. 13. Hukumatning yordamchi organlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga muvofiq, taraqqiyotimizning zamонавиј bosqichida davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratish hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg'un faoliyatini tashkil etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga kirishildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda PF-5185-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiysi" tasdiqlandi. Unga muvofiq, *birinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; *ikkinchidan*, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funksiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish; *uchinchidan*, iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish; *to'rtinchidan*, vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari

hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish; *beshinchidan*, davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish; *oltinchidan*, professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar kontsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Shuningdek, “Elektron hukumat” tizimini yanada keng joriy etish, davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish hamda ma‘muriy adliya tizimini rivojlantirish, shuningdek, “aqlli tartibga solish” modellarini va qabul qilinayotgan qarorlarning tartibga solish ta‘sirini tahlil qilishning standartlashtirilgan uslubiyotini joriy etish, ayrim davlat funksiyalarini jamoatchilik nazorati subyektlariga o‘tkazish yo‘li bilan tartibga solish vositalarini takomillashtirish, ishni tashkil etishning aniq natijalarga erishishga qaratilgan zamonaviy uslublarini (sifat menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing) joriy etish hamda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish jarayonida jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlikning zamonaviy shakl va mexanizmlaridan keng foydalanish va boshqa ustuvor vazifalar belgilab berildi.

## **2.§ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi**

Ijro etuvchi hokimiyatning konstitutsiyaviy-huquqiy modellari, avvalo ushbu davlatning boshqaruv shaklidan kelib chiqadi va u ko‘p jihatdan hukumatni shakllantirish tartibi va uning tarkibiga bog‘liq bo‘лади. Ijro etuvchi hokimiyatning tizimi, shuningdek, davlat tuzilishi shakliga (unitar, federativ, konfederativ) yoki uning hududiy taqsimlanishiga bog‘liq boshqa xususiyatlarga ham ega. Bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyatning shakllanishi va uning tutgan o‘rniga davlat hokimiyatini amalga oshirishning yo‘llari va usullari yig‘indisidan kelib chiqadigan siyosiy rejim ham katta ta‘sir o‘tkazadi.

O‘zbekiston mustaqilligining murakkab o‘tish davrida qabul qilingan qonunlarning amalda bajarilishini ta‘minlay oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy

islohotlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan ijro hokimiyatining samarali tizimi va tuzilmalarini yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu maqsadda tub ma‘muriy islohotlar amalga oshirilgan, bundan tashqari, ijro etuvchi hokimiyatni mamlakatimizda Prezidentlik institutini joriy etish va uni mustahkamlash sharoitida, davlat boshlig‘i rahbarligida avvaliga Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasi, keyinchalik mustaqil organ – Hukumat sifatida tashkil topishini Prezident va Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga oid huquqiy asoslarni chambarchas bog‘liqliqda o‘rganishni talab qiladi.

Masalan mustaqillik arafasida Prezident lavozimi ta‘sis etilgach, hukumatning vakolat doirasida, tarkibida, faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Avvallari, O‘zbekiston Respublikasining hukumati – Ministrlar Soveti deb atalgan bo‘lsa<sup>204</sup>, O‘zbekistonning 1978-yilgi Konstitutsiyasiga 1990-yil mart oyida kiritilgan o‘zgartishlar natijasida u Vazirlar Mahkamasi deb ataldi<sup>205</sup>. Prezident uning raisi hisoblanadi, ana shu vaqtida amalda bo‘lgan Konstitutsiyaning 120-moddasida Vazirlar Mahkamasi tarkibi Prezident, Vitse-Prezident, Vazirlar Mahkamasi Raisining birinchi o‘rnbosarlari va o‘rnbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari, yirik konsern va birlashmalarning raislaridan iborat bo‘lishi ko‘rsatildi. Qoraqlapog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi O‘zbekiston Respublikasi hukumati tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kirishi belgilab qo‘yildi<sup>206</sup>.

1990-yil 1-noyabr kuni O‘zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruva hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Natijada mavjud prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya – boshqaruv hokimiyati qo‘shib yuborilib, u Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.<sup>207</sup> Prezident ayni bir vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lib qoldi, Prezident va hukumat apparati birlashtirildi.

<sup>204</sup> Карагиг: Ўзбекистон ССРнинг “Ўзбекистон Республикаси Министрлар Совети тўғрисида”ги конуну // Ўзбекистон Республикаси Олий Советининг ведомостлари. – 1978. – № 36. – 527-модда.

<sup>205</sup> Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикаси давлат органлари / Масъул мухаррир А.Азизхужаев/. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 58-59.

<sup>206</sup> Ўзбекистон ССРнинг Конституцияси (Асосий конуну) – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 44 б.

<sup>207</sup> Президентнинг 1990 йил 15 ноубатдаги Фармони билан Вазирлар Маҳкамасининг халқ хўжалиги, ижтимоий соҳа ва маданиятининг асосий комплексларига мос келадиган тузилмалари ташкил этилди ва уларнинг навбатдаги ҳамда истикболдаги вазифалари белгиланди // Совет Ўзбекистони, 1990 йил, 21 ноубат.

Shunday qilib, Prezident respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi va davlat boshlig'i sifatida ham o'z o'rnida qoldi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qaror va farmoyishlar ham qabul qilish huquqiga ega bo'ldi. 1992-yil 4-yanvardagi Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi.<sup>208</sup>

Bulardan tashqari, o'sha paytda Vitse-prezident lavozimi ham ta'sis etilgan bo'lib, u asosan Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etuvchi lavozim hisoblangan. Ta'kidlash kerakki, joriy etilgan Vitse-prezident lavozimi qisqa vaqt ichida davlat boshqaruvi nuqtai-nazaridan o'zini oqlamadi. Shu boisdan ham 1992-yil 4-yanvardagi Qonun<sup>209</sup> bilan bu lavozim tugatilib, O'zbekistonning ijro etuvchi hokimiyati tizimida yangi lavozim, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazirga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini tashkil qilish mas'uliyati yuklatildi. Bosh vazir lavozimining ta'sis etilishi O'zbekiston Hukumati faoliyatining samarali tashkil etilishida muhim voqeа bo'ldi. Bosh vazirga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning faoliyatini tashkil qilish vazifasining yuklatilishi, ushbu institutning rivojlanishi va davlat hokimiyati organlari tizimida uning o'rnini mustahkamlanishida muhim rol o'ynadi. Prezident respublika hukumati tarkibiga rasman kirmagan holda Vazirlar Mahkamasining Raisi lavozimini egalladi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z lavozimiga ko'ra, ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanadigan bo'ldi.

1992-yil 8-dekabrdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida ulkan siyosiy voqeа bo'ldi. Konstitutsiyamiz suveren davlatimizni qonuniy-huquqiy jihatdan shakllantirishning asosi bo'lib qoldi<sup>210</sup>. Konstitutsiyada o'rnatilgan tamoyil – davlat hokimiyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishining mantiqiy davomi sifatida 1993-yil may

<sup>208</sup> Узбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Вице-Президенти лавозимини тутатиш ва Бош вазир лавозимини таъсис килиш ва Ўзбекистон Республикаси Конституциясига (Асосий конунига) ўзгартириш киритиш тұғрисида”ги конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1992. – № 3. – 144-модда.

<sup>209</sup> Узбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Вице-Президенти лавозимини тутатиш ва Бош вазир лавозимини таъсис килиш ва Ўзбекистон Республикаси Конституциясига (Асосий конунига) ўзгартириш киритиш тұғрисида”ги конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1992. – № 3. – 144-модда.

<sup>210</sup> Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлап – давр талаби. Т. 5. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1997. – Б. 107.

oyida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi<sup>211</sup> qonun qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning mustaqil organi maqomini oldi. Eski ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi hamda uning hokimiyat va boshqaruv organlari barham topib, davlat hayotining yangi demokratik, huquqiy asoslari yaratildi. Davlat tushunchasi, uning ma‘no-mohiyati tubdan o‘zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskorii hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi.

2003-yillarda ikki palatali parlamentni tashkil etish, o‘tkazilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, davlat, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati rolini va mustaqilligini kuchaytirish “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilish zaruratinu kun tartibiga qo‘ydi. Unda Vazirlar Mahkamasi, hukumat a‘zolarining javobgarligi masalalari aniqlashtirildi<sup>212</sup>.

Vazirlar Mahkamasi va hukumat a‘zolariga yuklatilgan vazifalarni bajarish mas‘uliyatini oshirish maqsadida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi Raisiga tegishli ayrim vakolatlar – Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish va rahbarlik qilish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni o‘z vaqtida samarali ijro etish vazifalari Bosh vazir zimmasiga yuklatildi. Oqibatda, O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi 470-II sonli “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir” deyilgan qoidaning o‘zi qoldirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi bo‘lib hisoblanishiga doir qoida chiqarib tashlandi va shu asnoda Vazirlar Mahkamasining Raisi lavozimi tugatildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 98-moddasiga va “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining shakllantirilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etishi hamda uni

<sup>211</sup> Узбекистон Республикасининг “Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тұғрисида”ги конуни // Узбекистон Республикаси Олий Конғашининг ахбортономаси. – 1993. – № 5. – 202-модда.

<sup>212</sup> Узбекистон Республикасининг “Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тұғрисида”ги конуни (яш и таҳрири) // Узбекистон Республикасининг конун хужжатлари тұплами. – 2003. – № 19. – 169-модда.

vazifasidan ozod qilishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining a'zolarini Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlashi va vazifasidan ozod qilishi to'g'risidagi normalar kiritildi<sup>213</sup>.

Ma'muriy islohotlardan ko'zlangan maqsad va unga binoan oldindagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rildi. 2003-yilning dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi va "Respublika xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilindi. Unda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tizimi, ularning asosiy vazifa va funksiyalari hamda ro'yxati aniq belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunini<sup>214</sup> amalga kiritilishi davlat boshqaruvini mazmunan yangilash, bunda mavjud demokratik tamoyillarni kengroq joriy etish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishdan iborat bo'lib, mazkur qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli tuzatishlar, shuningdek, amaldagi qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish uchun asos vazifasini o'tadi.

Bu davrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mustaqil davlatchilikning asosiy belgilardan biri bo'lgan davlat boshlig'inining huquqiy maqomi va uning vakolatlariga bag'ishlangan 89-moddasiga birinchi marta quyidagi norma kiritildi: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi"<sup>215</sup>.

Bu yerda, 2000-yillarga xos bo'lgan hukumat faoliyatini yangi darajaga ko'taruvchi to'rt jihatni ajratib ko'rsatish lozim. *Birinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini yangi huquqiy maqomga – ijro etuvchi hokimiyatning oliy organiga aylandi. *Ikkinchidan*, hukumatni shakllantirish jarayoni yanada demokratlashtirildi, xususan, Bosh vazirni

<sup>213</sup> Узбекистон Республикасининг "Узбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси түғрисида"ги қонуни (яни таҳрири) // Узбекистон Республикасининг қонун хужжатлари тўплами. – 2003. – № 19. – 169-модда.

<sup>214</sup> Узбекистон Республикасининг "Давлат босқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш хамда мamlakatni modernizatsiya қилинча сиёсий партияларининг ролини кучайтириши түғрисида"ги конституцияйи қонуни // Узбекистон Республикасининг қонун хужжатлари тўплами. – 2007. – № 15. – 151-модда.

<sup>215</sup> Узбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Узбекистон, 2008. – 40 б.

tayinlashda siyosiy partiyalar bilan maslahatlashuv hamda lavozimidan muddatidan avval ozod qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishni nazarda tutuvchi normalar kiritildi. *Uchinchidan*, Oliy Majlis palatalariga taqdim etilgan Bosh vazir nomzodini uch marta rad etsa, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir vazifasini bajaruvchi tayinlanishi va Oliy Majlis yoki uning palatalaridan birining tarqatib yuborilishi to'g'risidagi qoida mustahkamlandi. *To'rtinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'lishi qonunda<sup>216</sup> belgilab qo'yildi.

Hozirgi kunda, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinnbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasini shakllantirish, dastlab saylovda eng ko'p deputatlilik o'rinnlarini olgan siyosiy partiya yoki bir necha siyosiy partiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan va ilgari surilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan Bosh vazir nomzodini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari tomonidan saylash orqali boshlanadi.

Bu jarayon biroz murakkab ko'rinsada u o'ziga xos mantiqiy ma'noga va tartibga ega. Ushbu qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi Qonunlarda batafsil yoritilgan.

Jumladan, Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlilik o'rinnlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlilik o'rinnlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan

---

<sup>216</sup> Узбекистон Республикасининг "Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мamlакатни модернизация килинча сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тұғрисида"ги конституциявий конуну // Узбекистон Республикасининг конун хужжатлари тутилами. – 2007. – № 15. – 151-модда.

taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bu bosqichda Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan paytda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etishi talab etiladi<sup>217</sup>.

Bosh vazir nomzodi uning uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

Qonunchiligidizda Bosh vazir saylanishi bilan bog'liq masalalarda turli vaziyatlarni hisobga olgan holda yondashilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, agar ovoz berish vaqtida Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalari fraksiyalari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng Bosh vazir lavozimiga nomzodni yana bir marta taqdim etish huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Parlamentga Bosh vazir faoliyatini kuzatib borish va nazorat qilish funksiyasi berilgan. Bosh vazir va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

---

<sup>217</sup> "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси", 2003 йил, 9-10-сон, 138-модда.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste‘foga chiqadi<sup>218</sup>.

Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini zimmasidan soqit qilish yangi shakllantirilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisi o‘tkazilgan kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Bosh vazir tomonidan yozma murojaat berish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o‘zlarining majlislarida Vazirlar Mahkamasining o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi to‘g‘risidagi tegishli qarorlarni qabul qiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, Bosh vazir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimidan ozod etiladi:

- a) Bosh vazirning iste‘foga chiqish to‘g‘risidagi arizasiga binoan;
- b) Bosh vazir o‘z vakolatlarini bajarishi mumkin bo‘lmay qolgan

---

<sup>218</sup> “Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 2003 йил, 9-10-сон, 138-модда

taqdirda;

c) Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

d) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo‘lgan bunday tashabbusni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar yetakchi fraksiyalarini qo‘llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatida ovozga qo‘yilganda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy soni uchdan ikki qismidan ko‘proq‘ining ovozini olsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan qabul qilingan Bosh vazirga nisbatan ishonchszilik votumi bildirilgan taqdirda.

Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining iste‘foga chiqishiga sabab bo‘ladi<sup>219</sup>.

Har bir davlat ijro etuvchi hokimiyat tizimini yaratishda, xususan, Hukumatni tashkil etishda uning optimal modelini ham tashkiliy jihatdan ham huquqiy jihatdan ta‘minlashda qator omillarga tayanishi tabiiy. Bunda asosiy maqsad davlatning yaqin va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan vazifalarni bajarishga qodir va mos tarkibni shakllantirish hamda ular o‘rtasida ustuvor vazifalarni taqsimlash muhim.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining umumiy rahbarlikni amalga oshirish bilan bir qatorda bevosita elektron hukumat, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash hamda madaniyat, san‘at va yoshlar siyosati masalalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri ishining hajmi va ko‘lamidan kelib chiqqan holda sakkiz nafar

---

<sup>219</sup> “Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 2003 йил, 9-10-сон, 138-модда.

o‘rinbosarlari bir qator komplekslarga rahbarlik qilishadi.

Bular quyidagilar:

- birinchisi – Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksi;
- ikkinchisi – Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari kompleksi;
- uchinchisi – Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari kompleksi;
- to‘rtinchisi – Tashqi savdo faoliyatini, eksport salohiyatini, mashinasozlik, avtomobil, elektrotexnika, mudofaa, paxtani qayta ishlash sanoatini va yengil sanoatni rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari kompleksi;
- beshinchisi – Geologiya, yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi;
- oltinchisi – Qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash masalalari kompleksi;
- yettingchisi – Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va turizm masalalari kompleksi;
- sakkizinchisi – O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq, shuningdek, ishlarning samaradorligi va natijadorligini ta‘minlash, ijro intizomini mustahkamlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari va Hukumat apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining shaxsiy mas‘uliyatini kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiruvchi vazirliklar va davlat qo‘mitalari ham mos ravishda isloh etib borilmoqda. Masalan, 2017-yil 29-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-son Farmoni va boshqalar.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat sifatida “Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun” degan tamoyil va “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari

xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ezgu g’oyani hayotga amaliy tatlbiq etilishida ulkan ahamiyat ega. Harakatlar strategiyasining birinchi bosqichida 2017-yiining o’zida Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi keng ko’lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo’lib xizmat qildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalarini, shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha maxsus bo‘limmalar aholi bilan ishslashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirishga xizmat qildi.

Ayniqsa, O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiysi davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish, “Elektron hukumat” va davlat xizmatlari ko’rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma’muriy ta’sirni qisqartirish hamda boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog’lom raqobat muhiti va qulay investitsiya iqlimini yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi davlat hokimiyati tizimi vakolatlarini oqilona taqsimlash va uning faoliyati samaradorligini oshirishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi.

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlis palatalariga taqdim etgan Murojaatnomasi mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tarixida tom ma’noda yangi siyosiy-huquqiy vogelik bo‘ldi.

Birinchidan, Prezidentimizning “parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish”ga oid takliflari ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki, “hozirgi kunda Konstitutsiyaga muvofiq, parlament Bosh vazirni tasdiqlaydi. Lekin vazirlarni lavozimga qo‘yishda qatnashmaydi. Shuning uchun Hukumat a‘zolari parlament oldida mas‘uliyatni yetarli darajada his etayotgani yo‘q. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini Oliy Majlis tomonidan tasdiqlash amaliyotini kiritishni taklif etaman. Bo‘lajak vazir

parlament a'zolari oldida sohani rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini himoya qilsin va unga erishish yo'lllarini asoslab bersin. Bir so'z bilan aytganda, lavozimga munosib ekanini isbotlasin. Ayni vaqtida joylardagi mahalliy kengashlarda ham viloyat va tuman idoralari rahbarlarini tasdiqlash bo'yicha mana shunday amaliyotni joriy etish kerak" degan dasturulamal fikrlari hukumat shakllanishida yangi demokratik tartibni ko'zda tutadi.

Ikkinchidan, ijro hokimiyyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash va joriy etishga oid "barcha davlatlarda Hukumat islohotlar ijrosi uchun javob beradigan yuqori vakolatli organ hisoblanadi. Ilozirgi kunda Hukumat komplekslari tarkibiga 160 dan ortiq idora va tashkilotlar kiradi, Bosh vazirning soha va tarmoqlar bo'yicha 8 nafar o'rinnbosari mavjud. Lekin Vazirlar Mahkamasi va uning tarkibidagi idoralarning islohotlar jarayonidagi o'rni bugungi kun talabiga javob beradimi? Bu savolga, afsuski, ijobiy javob berolmaymiz" degan ko'rsatmalari bu boradagi mavjud huquqiy normalarni qayta ko'rib chiqish orqali Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga yangi mazmun olib kiradi.

Uchinchidan, "davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur. Bugun oddiy bir haqiqatni tan olishimiz kerak. Davlat idoralarida malakali va yetuk kadrlar yetishmayapti. Hanuzgacha davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan, davlat xizmatiga qabul qilishning oshkora mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Bu boradagi muammolarni hal etish uchun, avvalo, davlat xizmatchilarini faoliyatini xolisona baholash bo'yicha samarali tizim joriy etish zarur".

To'rtinchidan, "mahalliy hokimiyyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

Beshinchidan, "xalq bilan uzlusiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish, barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart".

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas‘uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5644-sonli Farmoni mamlakatimizni yanada jadal rivojlantirishda Hukumatning amaldagi yondashuvlari va ish usullarini qayta ko‘rib chiqish, uning faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi va innovatsion usullarini joriy etishni, davlat siyosati amalga oshirilishi va biriktirilgan sohalarda aniq natijalarga erishish uchun idoralar rahbarlarining mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Farmonda Hukumatning tashkiliy-shtat tuzilmasini tubdan qayta ko‘rib chiqish, hujjatlar ekspertizasi tartibotlarini jiddiy ravishda soddalashtirish, qarorlar qabul qilishning tezkorligini ta‘minlash, chet elda keng qo‘llaniladigan aniq ko‘rsatkichlarga erishishga va maqsadli indikatorlarga asoslangan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar rahbarlari faoliyatini baholash tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

1) yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali va natijali ijro etilishida Hukumat a‘zolari, ijro etuvchi hokimiyat boshqa organlari rahbarlari, barcha darajalardagi hokimlarning shaxsiy roli va mas‘uliyatini oshirish;

2) idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning aniq tizimini joriy etish orqali vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning biriktirilgan sohada davlat siyosati samarali va sifatli amalga oshirilishida, shu jumladan moliyaviy resurslarni boshqarish masalalarida mustaqilligini oshirish;

3) aniq ko‘rsatkichlarga va maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan barcha darajalardagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning prinsipial jihatdan yangi tizimini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani strategik rivojlantirishning yaqin, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini amalga oshirish sifati va samaradorligini ta‘minlash;

4) hududlarni, eng avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda orqada qolayotgan qishloq tumanlari va shaharlarni rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini samarali hal etish bo'yicha davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining muvofiqlashtirilgan ishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari va hujjatlari ijrosini tizimli va amaliy nazorat qilishni takomillashtirish;

5) davlatning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki tartibi va darajasini aniq reglamentlash orqali iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, «xufyona iqtisodiyot»ning oldini olish, pasaytirish va tizimli qarshi kurashish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

6) komplekslar, Bosh vazir o'rinnbosarlari va Vazirlar Mahkamasining apparati, eng avvalo, uning asosiy bo'g'ini - axborot-tahlil departamentlari tuzilmasini takomillashtirish va ixchamlashtirish. Normativ-huquqiy hujjatlarning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizasi sifatini yaxshilash, ijro intizomi darajasini oshirish, ko'p sonli yig'ilishlar, ortiqcha yozishmalar va samarasiz xizmat safarlarini amaliyotiga chek qo'yish;

7) ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini mavjud muammolarning sabablari va sharoitlarini bartaraf etishga, ishni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qayta yo'naltirish maqsadida ayrim davlat funksiyalarini xususiy subyektlarga berish orqali ortiqcha ma'muriy tartibga solishni kamaytirish;

8) davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining moliyaviy imkoniyatlari, roli va javobgarligini kengaytirish, markaziy va o'rta bo'g'in boshqaruv xodimlari sonini ixchamlashtirish orqali boshqaruvning vertikal tizimi mexanizmlarini va ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro hamkorligini takomillashtirish va boshqalar.

Shuningdek, 2019-yil 1-apreldan boshlab:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalari raislari lavozimlariga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullanishi;

barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyyat organlari va ular rahbarlari faoliyatini aniq ko'rsatkichlarga erishishga va maqsadli indikatorlarga, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va boshqa sohalarni strategik rivojlantirishning yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan dasturlari amalga oshirilishi sifati va samaradorligiga asoslangan holda baholash;

Aniq sohalar va yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rganish maqsadida mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari, davlat boshqaruvi hududiy organlari rahbarlari, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida hududlarda Hukumatning BOBli sayyor (ochiq) majlislarini tizimli asosda o'tkazish tartibi joriy etiladi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalari raislari lavozimlariga nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida ko'rib chiqish va ma'qullah jarayonida ular Vazirlar Mahkamasining harakatlar dasturi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan istiqbolga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar va vazifalarga erishish borasida huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi harakatlar rejalarini taqdim etadilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish doirasida davlat boshqaruvining 93 ta organi isloh qilinganligi, shu jumladan 77 ta vazirlik va idora qayta tashkil etilganligi, 7 tasi tugatilganligi, 9 tasi yangidan tashkil etilganligi bu yo'nalishda jo'shqin islohotlar va o'zgarishlar kechayotganidan dalolat beradi.

Zero, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiysi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolari va boshqa ijro etuvchi organlar «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan asosiy prinsipni o'z vaqtida, aniq va to'liq hajmda amalga oshirilishiga mas'ulligi qat'iy belgilab qo'yildi.

### **3.§ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy funksiyalari**

Har bir davlat ijro etuvchi hokimiyatining tutgan o‘rnji, uning ijtimoiy vazifasi va faoliyat yo‘nalishi hamda funksiyalari ko‘lami, shuningdek, hukumat tarkibi va tuzilmalariga oid masalalarning barchasi mohiyatan bevosita unga konstitutsiya va qonunlar orqali mustahkamlab qo‘yilgan vakolatlar doirasi bilan izohlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat tizimi umumiy vakolatlar doirasidan kelib chiqqan holda har bir tarkibiy tuzilmasiga tegishli vazifalar yuklanishi bilan samarali faoliyat mexanizmiga ega bo‘ladi. Shu bois, ushbu paragrafda asosan, hukumat vakolatlarining mazmuni, uni amalga oshirish, tegishli organlarning vakolati bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi:

1) samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo‘ladi;

2) fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

3) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta‘minlaydi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlaydi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma‘ruzalar taqdim etadi;

6) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarida tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi<sup>220</sup>.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi

---

<sup>220</sup> Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси”, 1993 йил, 1-сон, 4-модда.

qonun hujjaligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunning 5-moddasida Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasidagi asosiy vakolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

- barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotni isloh etish va tarkibiy o'zgartirish bo'yicha choralar ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari, soliq va budget siyosatining asosiy yo'naliishlari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish prognozlarini hamda eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishini va ijro etilishini tashkil etadi;

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, texnik, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturlarini, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, eng avvalo xususiy mulkni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini strategik va iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdorlargacha qisqartirish, keng ko'lama xususiylashtirish asosida shart-sharoitlar yaratadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar va cheklowlarni bartaraf etish, qulay ishbilarmonlik muhitini va investitsiyalash sharoitlarini yaratish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo'yicha choralar ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash, bank va boshqa moliya institutlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

- agrar sektorda bozor munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, meliorativ va irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, yer resurslarining sifatini saqlash va yaxshilash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

- davlat boshqaruvi usullarini takomillashtiradi, shu jumladan elektron

hukumat prinsiplari asosida takomillashtiradi, bozor prinsiplariga asoslangan xo‘jalik boshqaruvi va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplari va usullari joriy etilishini rag‘batlantiradi;

– davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo‘mitalarini, idoralarini hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;

– ta‘lim tizimini rivojlantirishni, uning sifati va samaradorligini oshirishni ta‘minlaydi, uzlusiz ta‘limdan keng ko‘lamda foydalanish uchun sharoitlar yaratadi, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini bajarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, aholining sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzi prinsiplarini joriy etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– madaniyat, san‘at, jismoniylar tarbiya va sportni rivojlantirishga, madaniy qadriyatlardan keng ko‘lamda foydalanishni ta‘minlashga, fuqarolarning ijtimoiy va madaniy hayotda to‘la huquqli tarzda ishtirot etishiga ko‘maklashadi;

– ish o‘rnlarini tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy va pensiya ta‘minoti tizimlari faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi, oila, onalik va bolalikni himoya qilishga ko‘maklashadi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

– tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish hamda respublika ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, yirik avariya va halokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish yuzasidan choralar ko‘radi;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta‘minlash, davlat chegaralarini qo‘riqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi;

– O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarda vakilligini ta‘minlaydi, hukumatlararo shartnomalar tuzadi, ularni ijro etish choralarini ko‘radi;

– tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi sohasida ham salomoqli vakolatlarga ega. Shu bois unga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo'naltirib borish vazifalari yuklatilgan.

*Birinchidan*, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

*Ikkinchidan*, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan ta'minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy devoni xodimlari sonini va ular ta'minotiga ajratiladigan mablag'lar miqdorini belgilaydi.

*Uchinchidan*, Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi. Bu kabi taqdimnomalarni tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*To'rtinchidan*, vazirlar va davlat qo'mitalari raislarining o'rinnbosarlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Shuningdek, davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o'rinnbosarları, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

*Beshinchidan*, Vazirlar Mahkamasi o'zi tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda tasdiqlaydi.

*Oltinchidan*, davlat boshqaruvi organlari hay'atlarining a'zolari, shuningdek, hukumat tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruvlarining a'zolari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

*Ettinchidan*, Vazirlar Mahkamasi zarurat bo'lganda o'z vakolatiga kiruvchi davlat boshqaruvining ayrim masalalarini hal etishni, agar bu masalalarning hal etilishi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining mutloq vakolatlariga kiritilgan bo'lmasa, vazirliklar, davlat qo'mitalari va o'z bo'ysunuvidagi davlat boshqaruvi boshqa organlariga berishi mumkin.

*Sakkizinchidan*, Qonunning 7-moddasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi vazirlik, davlat qo'mitasi, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha muhim

funksiyani amalga oshiradi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasini vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Konstitutsiya hamda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonun normalariga asosan hukumat faoliyatining asosiyo yo'nalishlari sifatida quyidagi sohalarni ajratish mumkin: iqtisodiyot, ma'muriy-siyosiy, ijtimoiy-imadaniy sohalardagi faoliyat.

Nazariy jihatdan olganda hukumat faoliyatining asosiyo yo'nalishlarini yanada aniqroq ko'rsatish mumkin. Masalan, rus olimi M.V.Baglayning fikricha hukumat faoliyatining asosiyo yo'nalishlari quyidagilardan iborat: siyosiy sohadagi faoliyat; ma'muriy-boshqaruv sohasidagi faoliyat; qonunchilik sohasidagi faoliyat; tashqi siyosat sohasidagi faoliyat; iqtisodiyot sohasidagi faoliyat; ijtimoiy sohadagi faoliyat va hokazo<sup>221</sup>.

Tabiiyki, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari avvalambor, o'zining faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqib belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni namoyon qilar ekan, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatidan farqli ravishda, ijro etuvchi faoliyatini amalga oshiradi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, ijroiya hokimiyati tarkibiga kiruvchi davlat organlari ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari aynan shulardan kelib chiqqan holda belgilangan.

Bosh vazir:

- 1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;
- 2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;
- 3) xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukmatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;

---

<sup>221</sup> **Караш:** Конституционное право зарубежных стран Москва, «Норма», 2001. – С. 278-287.

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

5) davlat va xo‘jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko‘rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi;

7) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Bosh vazir o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo‘qligida uning vazifasini Bosh vazir o‘rinbosarlaridan biri bajaradi.

Bosh vazirning o‘rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq o‘zları rahbarlik qilayotgan tarmoqdagı ishlarning ahvoli uchun javob beradilar, tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni, ularning ishini nazorat qilishni amalga oshiradilar hamda ularga topshiriqlar beradilar, Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga kiritilgan takliflarni hamda qaror va farmoyishlarning loyihamonini dastlabki tarzda ko‘rib chiqadilar.

Vazirlar Mahkamasining a‘zolari:

- o‘zlariga topshirilgan faoliyat sohasi uchun javob beradilar;
- Vazirlar Mahkamasining majlislarida masalalarni ko‘rib chiqishda ishtirok etadilar;
- Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiruvchi masalalarni ko‘rib chiqish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining loyihamonini tayyorlash tashabbusi bilan chiqishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a‘zolari ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislariga tayyorlarlik ko‘rish, tegishli qarorlar loyihamonini, tahliliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun Vazirlar Mahkamasining devoni faoliyat ko‘rsatadi, devon va uning tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining asosiy ko‘rsatkichlarini va unga kiritiladigan o‘zgartirishlarni ishlab chiqadi hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma‘ruzalar taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari zarur bo‘lgan hollarda o‘z majlislarida Bosh vazirning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini qonunga muvofiq parlament so‘rovi tartibida eshitishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a‘zosining o‘zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo‘lganda uni iste‘foga chiqarish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari majlislarida, palatalarning qo‘mitalari majlislarida hozir bo‘lish va axborot berishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a‘zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo‘yilgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalari qo‘mitalarining O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarni ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijalari haqida hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalarining tegishli qo‘mitalariga kelishilgan muddatda ma‘lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalarida ko‘rib chiqiladigan qonun loyihalarini, boshqa hujjatlarni tayyorlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi devoni tarkibiy bo‘linmalarining, davlat

va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro hokimiyati organlarining yaqin hamkorligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari bilan qonun ijodkorligi faoliyatidagi hamkorligini tashkil etish, shuningdek, qonunlarning ijro etilishi ustidan Oliy Majlis palatalari tomonidan parlament nazoratini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ishtirok etishiga ko'maklashish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakilining huquq va majburiyatlar qonun hujjatlarda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, Senatining O'zbekiston Respublikasi hukumati yoki unga bo'ysunuvchi davlat yoxud xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatiga taalluqli bo'lgan parlament so'rovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining, Senati a'zosining shunday so'rovi yuborilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki hukumati a'zosi qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda javob berishi shart.

#### **4-§ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va madaniy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida amaldagi qonunlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusdag'i yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusdagi qarorlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy tusdagi qarorlari "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami", "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami" va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilinadi, zarur bo'lgan taqdirda esa boshqa ommaviy axborot vositalari orqali ham keng omma e'tiboriga etkaziladi.

Har qanday markaziy davlat organi singari Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 14-fevraldagi 62-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti" qabul qilingan, unda bir qator muhim masalalar bilan birga Vazirlar Mahkamasi ishini tashkil etish tartib-qoidalari va taomillari belgilangan<sup>222</sup>.

Jumladan, unga ko'ra Vazirlar Mahkamasi o'z ishini avvalo O'zbekiston Respublikasi qonunlarini amalga oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan hamda uning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislaridagi, boshqa muhim tadbirlardagi nutqlarida, shuningdek,

---

<sup>222</sup> «Узбекистон Республикаси конун ҳужжатлари туплами», 2005 йил, 7-сон, 55-модда

ko'rsatmalar va topshiriqlar sifatida ifodalangan siyosatni amalgalashishga yo'naltiradi.

Shu bilan birga uning ishi Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlaridan, shuningdek, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasini qarorlaridan kelib chiquvchi vazifalar asosida shakllantirilgan yarim yillik rejalgarda muvofiq olib boriladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining yarim yillik uchun ish rejasida Vazirlar Mahkamasini majlislari rejasiga, Rayosat majlislarini o'tkazish rejasiga hamda tarmoqlarda, iqtisodiyot sohalarida va mintaqalarda iqtisodiy islohotlarning borishi masalalarini Bosh vazir o'rinnbosarlari huzurida ko'rib chiqish rejasiga, shuningdek, doimiy, muvaqqat komissiyalar va boshqa ishchi organlar majlislarining kalendar rejasiga aks etgan bo'ladi. Shu bilan birga, axborot-tahlil departamentlari va boshqa tarkibiy bo'linmalarning, shuningdek, ular rahbarlari va mutaxassislarining yarim yillik ish rejali belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Yuqoridaqgi paragraflarda ta'kidlanganidek, Hukumat kollegial organ hisoblangani uchun uning muhokamasiga masalalarni kiritish, shuningdek, ularni Vazirlar Mahkamasida tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Vazirlar Mahkamasining ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini to'g'risida"gi Qonun bilan uning vakolatiga kiritilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan masalalar kiritiladi.

Muhim davlat, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy masalalarni hal etish uchun Vazirlar Mahkamasining kompleks yoki maqsadli dasturlari va tadbirdari ishlab chiqiladi, ular ko'rib chiqish uchun Bosh vazir o'rinnbosarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni tomonidan yuborilgan boshqa hujjatlar ko'rib chiqiladi va ijrosi ta'minlanadi. Vazirlar Mahkamasida ko'rib chiqish uchun masalalar Vazirlar Mahkamasini a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, istisno hollarda esa ularning birinchi o'rinnbosarlari tomonidan kiritilishi mumkin.

Masalalar qoida tariqasida, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari loyihalari shaklida kiritiladi. Hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, kiritish, kelishish va ko'rib chiqishga tayyorlash Hukumat Reglamenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va 2017-yil 28-iyuldagagi PQ-3161-son qarorlarida belgilangan talablar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qarori talablariga hamda Vazirlar Mahkamasining apparatida ish yuritish bo'yicha Yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, 2018-yil 9-iyuldan barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtiriladi.

Loyihalarga muayyan talablar qo'yilgan. Jumladan, loyihalar aniq ifodalаниши, qонун hujjatlariga muvofiq kelishi, ko'rib chiqilayotgan masalaning puxta tahlilini va xolis bahosini o'ziga olgan bo'lishi, ijrochilar oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yishi, ularni bajarishning aniq muddatlarini belgilashi kerak. Agar, tayyorlanayotgan loyiha boshqa hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoxud ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash talab etsa, ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek, ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi takliflar tayyorlanayotgan hujjat loyihasiga kiritiladi yoki u bilan ayni bir vaqtida alohida hujjat loyihasi ko'rinishida kiritiladi. Bu holda una hujjat matnining amaldagi va taklif etilayotgan tahririning tegishli qiyosiy jadvallari tushuntirishlar bilan ilova qilinadi.

Shuni yodda tutish kerakki, Vazirlar Mahkamasiga kiritilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga javob berishi kerak, qонулар loyihalar esa "Qонулар loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga ham javob berishi kerak.

Bundan tashqari, qонун loyihasi Vazirlar Mahkamasiga "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasida, hamda "Qонулар loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasida nazarda tutilgan materiallar ilova qilingan holda taqdim etiladi.

Shu o'rinda mazkur jarayoning muhim jihatiga e'tibor qaratish zarur, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari tegishli kelishuvlar amalga oshirilganidan keyin Vazirlar Mahkamasiga kiritilgunga qadar ularni qabul qilish zarurligi asoslari (ya'ni, qonun loyihasi konsepsiysi, tegishli qiyosiy jadvallar) va kelishmovchiliklar (agar mavjud bo'lsa) bo'yicha yozma mulohazalar ilova qilingan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga xulosa olish uchun yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi hamda qonunlar loyihalarini ularning mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlar maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi, ularda korrupsiyaning yuzaga kelishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida boshqa huquq buzilishlarining sodir etilishi uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklashlarni kirituvchi hamda tadbirkorlik subyektlarining asoslanmagan xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalarni aniqlash yuzasidan tahlil qiladi.

Shu bois, normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari Vazirlar Mahkamasiga, faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritiladi. Aks holda, ya'ni Reglament talablariga rioya qilinmasdan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan hujjatlar loyihalari belgilangan tartibda qaytariladi.

Agar Vazirlar Mahkamasi Apparati tarkibiy bo'linmalarida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining konseptual qoidalari o'zgartirilganida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ular mazkur Reglamentda belgilangan tartibda takroran huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Shu o'rinda muhim taomilga e'tibor qaratishimiz zarur. Chunonchi, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviyat soha samarali faoliyat ko'rsatishining muhim va ustuvor masalalari bo'yicha Hukumat qarorlarining loyihalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining reglamentida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan majburiy ravishda kelishib olinishi kerak, ekanligi belgilab qo'yilgan. Vazirlar Mahkamasi zarur bo'lganda, Boshqa masalalar bo'yicha qaror va farmoyishlar loyihasiini ham Hukumat O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti yoki Prezident Administratsiyasining tarkibiy bo‘lmalari rahbarlari bilan kelishish uchun kiritishi mumkin.

Yana bir muhim masala. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi takliflarni ishlab chiqish Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan yoxud tashabbus tartibida ta‘minlanadi. Buning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasi birinchi qismining 8-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon loyihasida uning qabul qilinishi asoslangan va amalga oshirish oqibatlari baholangan tushuntirish xati, Adliya vazirligining loyiha qabul qilinishi maqsadga muvofiqligi haqidagi huquqiy ekspertiza natijasi bo‘yicha xulosasi, milliy va xorijiy tajriba tahlili, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa hisob-kitoblar, boshqa ma‘lumotnomalar materiallari, yangi tashkil etilayotgan organning asosiy vazifalari, funksiyalari, faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslari (tuzilmasi, xodimlarining, shu jumladan boshqaruv xodimlarining cheklangan soni), tugatilayotgan organning funksiyalarini qayta taqsimlash va boshqa masalalar bo‘yicha tahliliy materiallar va boshqalar taqdim etiladi.

Shundan keyin vazirlik, davlat qo‘mitasi va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi taklif, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida ko‘rib chiqiladi. Taklif ma‘qullangan taqdirda Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tegishli qarori qabul qilinadi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnoma kiritiladi. Ushbu taqdimnoma O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan imzolanadi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi va zarur tahliliy materiallar ilova qilingan holda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari loyihalari vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinnbosarlari topshiriqlariga muvofiq yoxud tashabbus ko‘rsatish tartibida ishlab chiqiladi. Ushbu hujjat loyihalarini tayyorlash manfaatdor idoralar va

tuzilmalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan loyihalar belgilangan tartibda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamda majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishiladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotning alohida sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, respublika budgetidan mablag'lar ajratish bilan bog'liq qarorlar va farmoyishlar loyihalari majburiy tartibda tegishli ravishda – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan, tashqi savdo bilan bog'liq masalalar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi, yagona davlat investitsiya siyosatini muvofiqlashtirish, shakllantirish va amalga oshirish masalalari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi bilan, loyiha boshqaruvi, davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish konsepsiyalari ishlab chiqilishi va tahlil etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga taalluqli, shuningdek, ularning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha esa – O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan majburiy tartibda kelishilishi kerak.

Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan majburiy ravishda kelishib olinishi lozim bo'lgan qarorlar va farmoyishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri yoki uning topshirig'iga binoan Bosh vazir o'rinosarlari yoxud Vazirlar Mahkamasi Apparatining boshqaruvchisi tomonidan kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ayrim loyihalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Reglamentida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi hamda kelishiladi.

Vazirlar Mahkamasi majlislari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasi majlislarida O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raislik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilish huquqiga ega. Ushbu majlislarda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasida

nazarda tutilgan masalalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga va Vazirlar Mahkamasi Rayosati qarorlariga muvofiq boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida ko'rib chiqish uchun masalalarni tayyorlashni Bosh vazir o'rinnbosari – Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirdorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari kompleksi rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi Apparati boshqaruvchisi rahbarligida yig'ma axborot-tahlil departamenti, axborot-tahlil departamentlari, Vazirlar Mahkamasi apparatining boshqa bo'linmalari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa markaziy iqtisodiy idoralar tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda amalga oshiradi. Zarur hollarda masalalarni tayyorlashni Vazirlar Mahkamasi yoki uning Rayosati tomonidan tashkil etiladigan komissiyalar amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa markaziy iqtisodiy idoralar majlisning e'lon qilingan o'tkazilish sanasidan kamida 15 kun oldin Vazirlar Mahkamasiga kun tartibi, uni muhokama qilish tartibi loyihibarini hamda ma'lumotnomalarni, tegishli tahliliy materiallarni, Vazirlar Mahkamasi majlisi protokoli loyihasini kiritadi.

Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan ko'rib chiqilgan materiallar Rayosat a'zolari bildirgan mulohazalarni hisobga olgan holda puxta ishlab chiqiladi va majlis o'tkaziladigan sanadan kamida 10 kun oldin Bosh vazirga axborot berish uchun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga belgilangan tartibda kelishib olish uchun taqdim etiladi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonun loyihibarini kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga ular Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqilishidan kamida 2 hafta oldin taqdim etiladi.

Vazirlar Mahkamasi majlisiga taklif etiladigan mansabdor shaxslar ro'yxatlari Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasining apparati boshqaruvchisi

tomonidan belgilanadi. Majlisiga Konstitutsiyaviy sud raisi, Bosh prokuror, Oliy sud raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha maslahatchisi, Prezident maslahatchisi - Tashkiliy-kadrlar xizmati rahbari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati qo'mitalari raislari doimiy ravishda taklif etiladilar. Boshqa mansabdor shaxslar majlisga faqat ularga daxildor masalalar bo'yicha taklif etiladilar.

Vazirlar Mahkamasi majlisiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari yarim yillik va butun kalender yil yakunlari bo'yicha respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarning natijalarini ko'rib chiqishda, shuningdek, majlisda respublikaning muayyan hududini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirishni ta'minlash bilan bevosita bog'liq masalalar ko'rileyotganda taklif etiladilar.

Vazirlar Mahkamasining kalendar yilning birinchi chorak va to'qqiz oylik yakunlari bo'yicha majlislariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tegishli masalalar bo'yicha o'rindbosarlari taklif etiladilar.

Vazirlar Mahkamasi majlislarida masalalar to'g'risida Bosh vazir o'rindbosarlari, Vazirlar Mahkamasining apparati boshqaruvchisi, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, axborot-tahlil departamentlari va bo'limlar mudirlari axborot beradilar.

Majlislarda qarorlar Vazirlar Mahkamasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasi majlislarida qabul qilingan qarorlar bayon bilan rasmiylashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasi Rayosati tarkibiga O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning o'rindbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining apparati boshqaruvchisi kiradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining apparati Vazirlar Mahkamasi Rayosatining ishchi organi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining doimiy ishlaydigan organi sifatidagi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislari har haftada O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri tomonidan o'tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida qabul qilingan qarorlar bayon shaklida chiqariladi, ularning bajarilishini nazorat qilish Bosh vazir apparatiga, Bosh vazir o'rinnbosarlariga va axborot-tahlil departamentlari mudirlariga yuklanadi. Bayon majlisda raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi. Hukumatning protokol qarorlari loyihalari tasdiqlangunga qadar majburiy tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi va imzolanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida hisobga olinishi shart.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari ular imzolangan sana bo'yicha rasmiylashtiriladi hamda tegishli Axborot-tahlil departamentlari va boshqa tarkibiy bo'linmalar tomonidan tuziladigan jo'natish ro'yxati bo'yicha darhol ijrochilarga yuboriladi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari (zarur bo'lgan taqdirda, axborot-tahliliy materiallari bilan birga) majburiy tartibda belgilangan tartibda rasmiy e'lon qilish hamda ijrochilarga yetkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga qog'oz va elektron shaklda yuboriladi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plamida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plamida va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ushbu hujjatlarda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Normativ xususiyatga ega bo'lgan qarorlar, agar ushbu hujjatlarda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Respublikani keng va tezkorlik bilan tanishtirish zarur bo'lganda qarorlar va farmoyishlar Prezident yoki Bosh vazirning topshirig'iga binoan matbuotda e'lon qilinadi, televidenie va radio orqali eshittiriladi.

### *O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari*

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qanday shakllantiriladi?
3. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlarini ko‘rsatib o‘ting.
4. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplarini ko‘rsating.
5. Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan qanday munosabatlarga kirishadi?
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy hujjatlarni chiqaradi?

## **XXIV BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

- 1-§. Mahalliy davlat organlari tizimi.
- 2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari.
- 3-§. Xalq deputatlari Kengashi – hokimiyatning vakillik organi.
- 4-§. Xalq deputatalari mahalliy kengashlarini tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli.
- 5-§. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi.
- 6-§. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokimning maqomi.
- 7-§. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi.

### **1-§. Mahalliy davlat organlari tizimi**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy miqyosda boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xos tarzda yondashilgan, MDH va boshqa sobiq ittifoqdosh respubliklar konstitutsiyalaridan farq qilib, O‘zbekiston Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi alohida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tizimi alohida belgilandi. O‘zbekistondan boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida mahalliy davlat hokimiyati degan tushuncha ishlatilmagan. Jumladan, Belorus Respublikasi Konstitutsiyasida “Mahalliy boshqaruv va o‘zini o‘zi boshqaruv”, Qozog‘iston Konstitutsiyasida “Davlatning hududiy tuzilishi va o‘zini o‘zi boshqaruv”, Qirg‘iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida “Mahalliy boshqaruv”, Turkmaniston Konstitutsiyasida “Mahalliy ijro hokimiyati” alohida bobda, “Mahalliy boshqaruv” alohida bobda berilgan.

Rossiya Konstitutsiyasida davlat hokimiyati federal miqyosda va federatsiya subyektlari miqyosida tashkil qilinib, boshqa barcha quyi bo‘g‘inlarda tuman, shahar, qishloqlarda mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari tashkil qilinadi va faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy miqyosda boshqaruv viloyat, tuman, shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati organlariga, qishloq, shaharcha, ovullarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklangan.

Konstitutsiyaga asosan mamlakatimizda mahalliy miqyosda ham ikki turdag‘i, ya‘ni vakillik davlat hokimiyati va ijro hokimiyati organlari mavjud.

Konstitutsiyaning 99-moddasiga binoan “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari, hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organi bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar”. Bu bilan konstitutsiyaviy asosda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tizimi belgilandi (viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari) va hokimiyatning vakillik organlariga hokimlar boshchilik qilishi belgilandi va bu organ davlat va fuqarolarning manfaatini ko‘zlab, vakolatlarni amalga oshirishi mustahkamlandi.

Konstitutsiyada hokimlar qaysi ma‘muriy hududlarda faoliyat ko‘rsatishi haqida alohida norma bo‘lmasada, Konstitutsiyaning 99-moddasi mazmunidan ular viloyat, tuman, shaharlarda faoliyat ko‘rsatishini bilib olsa bo‘ladi, ya‘ni hokimliklar viloyatlar, shaharlar va tumanlarda tashkil qilinadi.

Konstitutsiyaning 102-moddasida “Vakillik va ijro hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi”, – degan qoida mahalliy miqyosda vakillik hokimiyati bilan birga ijro hokimiyatining ham o‘rnatilganligini ko‘rsatadi. Mazkur modda qoidalari yana qaysi ma‘muriy hududlarda hokim qanday tartibda tayinlanishi haqida hamda ijro hokimiyatining tizimi haqida xulosa qilish imkoniyatini tug‘diradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimini vakillik hokimiyati organlari – xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar tashkil etadi. Ularning har biri o‘zining tizimiga ega.

Vakillik hokimiyati organlari, viloyatlar (Toshkent shahar), tumanlar va shaharlarning xalq deputatlari Kengashlaridan, ijro hokimiyati organlari viloyatlar (Toshkent shahar), tuman va shahar hokimlaridan iborat. Konstitutsiyaga 2017-yil 29-avgustda kiritilgan o‘zgartirishgacha shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda Kengashlar tashkil qilinmagan. Masalan, Toshkent shahri tarkibidagi birorta tumanda xalq deputatlari Kengashlari, ya‘ni vakillik organlari saylanmagan. Ularda faqat ijro hokimiyati – hokimlar faoliyat ko‘rsatadi. Bu vakillik va ijro hokimiyati organlari tizimidagi o‘ziga xos xususiyatdir.

Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgartirishga asosan: «Poytaxtimiz Toshkent shahrida tumanlar darajasida xalk deputatlari Kengashlari ta’sis etildi. Shu vaqtgacha poytaxt tumanlarining fuqarolari bunday imkoniyatlarga ega emas edi. Biz bu borada adolatni tiklab, Konstitutsiyamizga tegishli o‘zgartirishlar kiritdik. Toshkent shahri aholisi

ham endi o‘z vakillari – deputatlar orqali tumanlarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar» 2017-yil 24-dekabrdan bo‘lib o‘tgan saylovda Toshkent aholisi tuman deputatlarini saylashda ishtirok etdi. Mahalliy xalq deputatlari kengashlari tizimi, Toshkent tumanlarining Kengashlari hisobiga yanada kengaydi.

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilishiga qarab viloyat, tuman va shahar pog‘onalarida faoliyat ko‘rsatadi. Ular davlat hokimiyatining vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari ko‘rinishida mavjuddir.

Mahalliy hokimiyat organlarining tizimi deganda viloyat, tuman, shaharlarda tashkil qilinadigan davlat hokimiyatining vakillik organlari – xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya hokimiyati organlari – hokimliklar yig‘indisi tushuniladi. Bu tizimga kiruvchi vakillik hokimiyati organlari bir-biridan mustaqil, hamkorlik asosida tashkil qilinsa va faoliyat yuritsa, ijro hokimiyati organlari – hokimlar vertikal bo‘ysunish asosida tashkil topadi va faoliyat yuritadi.

## **2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari**

Konstitutsiyaga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari, mustaqil vakillik va ijro hokimiyati organlariga bo‘linsada, ularning vazifalari Konstitutsiyada alohida-alohida ko‘rsatilmagan. Konstitutsiyada (100-modda) mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vazifalar umumiy tarzda bayon qilingan.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga binoan, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta‘minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, mahalliy davlat hokimiyati organlari vazifalariga ijtimoiy va davlat hayotiga taalluqli barcha masalalarni hal

qilish, ularda ishtirok etish kiradi. Faqat mahalliy davlat hokimiyati organlari bu masalalarni o‘z hududida amalga oshiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunda ularning vakolatlari belgilab berilgan.

Vazifalar alohida-alohida ko‘rsatilmasada, vakolatlar aniq belgilangan.

Qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash davlatning eng asosiy vazifasi, bu davlat miqyosida hal qilinadigan masala, bu masalada asosiy yo‘nalish davlat tomonidan ishlab chiqiladi, mahalliy hokimiyat organlari esa, davlat strategiyasini joylarda amalga oshishini ta‘minlaydi.

Qonuniylik, huquqiy-tartibot va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash bir-biri bilan bog‘liq hodisa va ijtimoiy munosabatlardir. Qonuniylik bo‘lmasa, huquqiy tartibot bo‘lmaydi, huquq-tartibot ta‘minlanmasa, fuqarolarning xavfsizligi, manfaati buziladi. Bu masalada mahalliy vakillik organlari umumiy vazifalarni hal qilsa, ijro hokimiyati organlari mahalliy vakillik organlari qarorlarining ijrosini ta‘minlaydi. Mahalliy hokimiyat organlarining birgina faoliyati bilan qonuniylik, huquqiy tartibot va fuqarolarning xavfsizligi ta‘minanishi mumkin. Masalan, mahalliy hokimiyat organlariga fuqarolarning murojaatlarini ko‘rish vakolati berilgan.

Murojaatlarni belgilangan muddatlarda ko‘rib, hal qilish, hududdagi boshqa organ va tashkilotlarda murojaatlarni ko‘rish ahvolini nazorat qilish qonuniylik bilan bog‘liq bo‘lsa, unda ko‘tariladigan masalalar huquq-tartibotga, xavfsizlikka qaratilgan ham bo‘lishining o‘zi ham bu maqsadlarning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu vazifani bajarishda hududdagi shu vazifalar bilan shug‘ullanuvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Masalan: sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, Adliya organlari, soliq, bojxona va boshqalar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga o‘z hududida iqtisodiy, ijtimoiy, xo‘jalik masalalarida keng doiradagi masalalarni hal qilish vazifasi yuklangan bo‘lib, bularga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish vazifasi kiradi. Rivojlantirish vazifasi shu majmuaga kiruvchi tarmoqlarni boshqarishni ham nazarda tutadi. Mahalliy kengashlar hokimlarining taqdimiga binoan hududlarni rivojlantirish istiqbollarining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Hududni rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, qabul qilinadi. O‘tish davridagi davlatning bosh islohotchilik vazifasi, joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Har qanday hududda deyarli barcha masalalarni hal qilishda moliya, mablag' muhim rol o'ynaydi. Bu esa, budgetni shakllantirish va undan to'g'ri foydalanishga bog'liq. Shuning uchun mahalliy davlat hokimiyati organlarining eng muhim vazifalari sifatida Konstitutsiyada ularning mahalliy budgetning mablag'lari hisoblanuvchi mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilash, shuningdek, budgetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilishi belgilangan.

Har bir hududiy tuzilish (viloyat, tuman, shahar) o'z byudjetiga ega va ular mamlakat budgetining bir qismini tashkil etadi. Budget tegishli hududni rivojlantirish, boshqarishning moliyaviy manbasi hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z hududi byudjetini (Respublika budgetidagi ajratmadan tashqari) mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantiradi. 1993-yil 7-maydag'i "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi Qonunga asosan mahalliy soliqlar va yig'imlarga nimalar kirishi belgilab qo'yilgan. Mahalliy Kengashlarning sessiyalarida muntazam ravishda soliq va yig'imlarga tegishli masalalar ko'rib chiqiladi. Ularning ijrosini esa hokimlar amalga oshiradi.

Konstitutsiyada kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari qatorida ko'rsatilgan Kommunal xo'jalik boshqa sohalardan ko'p tarmoqliligi va asosan hududlarga taalluqligi bilan boshqa sohalardan farq qildi. Kommunal xo'jalik bu xizmat ko'rsatish bilan bog'liq sohadir. Kommunal xo'jalikda Respublikadagi fondlarning asosiy qismi jamlangan. Kommunal xo'jalik tarkibiga turar joy fondi va u bilan bog'liq qurilish-ta'mirlash va loyihalash tashkilotlari, yordamchi xo'jaliklar, ishlab chiqarish texnika bazasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, gazlashtirish va uning ta'minoti, isitish, elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimlari, mehmonxonalar va boshqa ko'plab mambalar kiradi.

Kommunal xo'jalikning deyarli barcha tarmoqlari budget bilan hududni rivojlantirish dasturlari bilan bog'liqidir. Xalq deputatlari Kengashlari hududni budgetini uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash bilan, rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash bilan kommunal xo'jalik tarmoqlari faoliyatiga ham ta'sir qildi. Kommunal xo'jalik idoralari, tashkilotlari rahbarlarini lavozimiga tayinlash yoki lavozimididan ozod qilishda mahalliy hokimiyat organlari ishtiroy etadi. Kommunal xo'jalikni boshqarish, kommunal mulkni boshqarishni ham o'z ichiga oladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish vazifasi Konstitutsiyada belgilangan vazifalar qatoriga kiradi. Bu vazifa ona tabiatni asrash, yashab turgan zamin, maklonni saqlashga

qaratilgan bo‘lib, u insonning sog‘lig‘i, hayoti umuman yer yuzasidagi jonli hayotni davom etishini ta‘minlashga qaratilgandir. Hamma mamlakatlarda ham atrof-muhitni saqlashga qaratilgan tadbirlarning salmoqli qismi joylardagi tadbirlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilishga muhim masalalar qatorida qarala boshlandi. Birinchi Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, atrof-muhitga ziyon etkazilishiga va respublikadagi ekologik vaziyatning yomon-lashuviga yo‘l qo‘ymaslik, iqtisodiy sohadagi asosiy vazifalardan biridir<sup>223</sup>.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilishning bir qismi bo‘lib, u inson salomatligi omilidir. Agar atrof-muhit sog‘liqni saqlash yo‘lida olib borilayotgan boshqa tadbirlar samarasiz bo‘lib qoladi.

Respublikamizda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun<sup>224</sup> qabul qilingan bo‘lib, unda mahalliy hokimiyat organlarining vazifasi, vakolatlari ko‘rsatib qo‘yilgan. Bundan tashqari, ularning vakolatlari “Yer to‘g‘risida”gi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, qonunlarda ham ko‘rsatilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z hududida atrof-muhitni muhofaza qilish vazifasini shu sohani boshqarish va shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar, fuqarolar faoliyati ustidan nazorat olib borish orqali amalgalashadi.

Konstitutsianing 100-moddasida, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifasi sifatida “fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta‘minlash” ko‘rsatilgan.

27-avgust 2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Maxkamasining qarori joylardagi adliya organlarini mahalliy davlat hokimiyatida mustaqilligini belgilab qo‘ygach, bu vazifa mahalliy davlat organlarining vazifasi sifatida qaralmay qo‘yildi.

2018-yil 2-fevraldaggi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni bilan fuqarolik holati aktlarini qayd etuvchi organlari tuman, shahar hokimiyatiga bo‘ysindirildi. Bu jamiyatning

<sup>223</sup> Каранг: Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқтол ва тараккиёт йўли. – Т : Ўзбекистон, 1992. – 20-бет.

<sup>224</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1993 йил, 1-сон, 38-модда.

asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini yanada mustahkamlashni nazarda tutadi va konstitutsiya normasini amaliy ifodasi hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yana bir Konstitutsiyaviy vazifasi, o‘z vakolatlari doirasida normativ hujjatlar qabul qilish, qonun va boshqa hujjatlarni amalga oshirishdir. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari normativ xarakterda bo‘ladi. Chunki, ular shu hududda majburiy kuchga ega bo‘ladi.

Konstitutsiyamizning 104-moddasi, hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi o‘rnatib qo‘yilgan. Bu shu hududdagi hokimga bo‘ysunmaydigan yuqoriga bo‘ysunuvchi tashkilotlarga ham taalluqlidir.

Konstitutsiyamizning 101-moddasida mahalliy hokimiyat organlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish belgilab qo‘yilgan ularni respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarning muhokamasida ishtirok etishi ham belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunda<sup>225</sup> bat afsil belgilangan.

### **3-§. Xalq deputatlari Kengashi – hokimiyatning vakillik organi**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning oldida ko‘plab masalalarni hal qilish, avvalgi tuzumda mavjud bo‘lgan qanday tuzilmalardan foydalananish qaysi tuzilmalarni umuman yo‘q qilish masalasi paydo bo‘ldi. Eiig avvalo, demokratik tamoyillarga mos keluvchi, taraqqiyotga to‘sinqinlik qilmaydigan, xalq xohish irodasiga javob beruvchi, davlat hokimiyatini amalga oshira oladigan organlar tashkil qilish zarur edi.

Ayniqsa, mahalliy miqyosda qanday davlat organlari bo‘ladi, umuman, mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari bo‘lishi shartmi, degan savollarga javob topilishi kerak edi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risida”gi Qonun ko‘pgina masalalarni hal qildi va kelajakda mamlakatimizda mahalliy darajada qanday organlar bo‘lishini, ularning xarakterini belgilab berdi. Unda birinchi marta mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari ikki turda: vakillik hokimiyati va ijro

<sup>225</sup> Каранг. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси фаолиятини тартибга солувчи конун хужжатлари тўплами. – Т.: 2007. – 47–54-бетлар.

hokimiyati ko‘rinishida bo‘lishi mustahkamlandi. Bu hokimiyat tarmoqlari bo‘lishi prinsipini mahalliy miqyosda ham qo‘llash oqibati edi. Bu prinsiplar Konstitutsiya qabul qilinishida va mahalliy hokimiyat organlari tizimi faoliyatini belgilanishida e‘tiborga olindi.

Mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari Konstitutsiyada belgilangan bo‘lsa, ularning shu vazifalarini bajarish uchun zarur vakolatlari, Konstitutsiyaning 103-moddasi asosida qabul qilingan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasida Xalq deputatlari Kengashining, 25-moddasida Hokimning vakolatlari alohida-alohida mustahkamlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga “fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta‘minlash” vazifasi ham kirishi belgilangan. Ular bu vazifani (mahalliy hokimiyat organlari) Adliya organlarining hududdagi bo‘limari faoliyatiga rahbarlik qilish bilan amalga oshirar edilar. 2003-yil 1-sentabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish haqidagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda Adliya vazirligining hududiy organlari mahalliy hokimiyatdan holi ish olib borishi belgilandi. Shuning uchun fuqarolik holati aktlarini qayd qilishni ta‘minlash vazifasi mahalliy hokimiyat vazifasiga kiradi degan qoida muammo bo‘lib qoldi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunda Xalq deputatlari Kengashi va hokimni vazifasi sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasida aloqalarni ta‘minlash, aholini hududlarni boshqarishga jalb etishni ta‘minlash vazifasi belgilangan.

Konstitutsiyada mahalliy vakilik hokimiyati organi sifatida xalq deputatlari Kengashlari belgilandi (99-modda). Bu degani avvalgi tuzimdagi organ saqlanib qolindi. Faqat uning vazifasi, tarkibi, tashkil qilish tartibi takomillashtirildi. Mahalliy Kengashlar avvalgi tuzimdagi singari partiya qarorlarini hayotga tatbiq qiluvchi organdan, haqiqiy davlat hokimiyati organlariga aylantirildi.

Mahalliy Kengashlar tom ma‘nodagi vakillik hokimiyati organi bo‘lishi uchun mahalliy miqyosdagi masalalarni hal qilish qobiliyatiga, imkoniyatiga ega bo‘ladigan darajada vakolatlar bilan ta‘minlandi.

Xalq deputatlari Kengashlaring vazillik xarakterini ularning aholi tomonidan saylanishi, ularning tarkibida aholi xohish-irodasini aks ettiradigan, turli tabqa vakillarining bo‘lishi ko‘rsatadi. Mahalliy Kengashlarga saylovlarining ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tishining belgilanishi, saylovlarda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroti etishi

vakillik xarakterini yanada kuchliroq, yaqqolroq aks ettirdi. Siyosiy partiylar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalashi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda, amalga oshirishda ishtirok etishini ko'rsak, ularning ishtiroki xalq deputatlari Kengashlarida vakillik xarakterini yanada yaqqolroq namoyon etadi.

Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir", – degan qoida mavjud bo'lib, bu mahalliy davlat hokimiyatiga ham taalluqlidir. Mahalliy davlat hokimiyatining manbasi xalq bo'lib, ular bu hokimiyatni amalga oshirishda undagi o'z vakillari – deputatlar orqali qatnashadi.

Konstitutsiyaning 32-moddasida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtiroki belgilangan bo'lib, unga asosan mamlakat fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etadi. Shuning uchun ham saylov yo'li bilan tashkil qilinadigan xalq deputatlari Kengashlari vakillik hokimiyatini to'la ifodalay oladi va xalq nomidan harakat qiladi.

Xalq deputatlari Kengashlarida masalalar ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi, qabul qilinadigan qaror loyihalari xususida deputatlar saylovchilarni xabardor qilib turishi, deputatlarning o'z faoliyati bo'yicha saylovchilarga axborot berib turishi, saylovchilarni muntazam ravishda qabul qilishning uyuşhtirilishi haqidagi qoidalar va tajribalar, xalq deputatlari Kengashlarining vakillik xarakterini ko'rsatib, ularni vakillik organlari sifatida namoyon qiladi.

#### **4-§. Xalq deputatalari mahalliy kengashlarini tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli**

Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini tashkil qilish, vakolat doirasi va saylash tartibi qonun bilan belgilanadi, degan xavolaki norma mavjud (103-modda ikkinchi qism). Shu konstitutsiyaviy norma asosida 1993-yil 2-sentabrda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va 1994-yil 5-mayda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi<sup>226</sup>.

Xalq deputatlari Kengashlari bitta yo'l bilan – saylov orqali tashkil etiladi. Xalq deputatlari Kengashlariga saylov ko'ppartiyaviylik asosida,

<sup>226</sup> Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси фаолиятини тартибга солувчи конун хужжатлари тўплами. – Т.: 2007. – 47–54, 56–70-бетлар.

bir mandatli saylov okruglarida, har besh yilda o'tkaziladi. Bu degani saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan barcha siyosiy partiyalar teng imkoniyatlarda qatnashadi. Bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi va ularning vakolati besh yil davom etadi.

Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tadi. Bular saylov huquqining asosiy prinsiplaridir.

Umumiy saylov – 18 yoshga etgan barcha fuqarolarni millati, jinsi, irqi, dini, kelib chiqishi, ijtimoiy ahvoli, mashg'ulot turi, kasbi, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar saylovda ishtirok etadi. Ya'ni, saylash huquqidan foydalanishdir. Faqat, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi. Umumiy saylov huquqi mahalliy Kengash deputatligiga saylanuvchilar oldiga ba'zi bir talablarni qo'yadi va ular umumiy saylov huquqiga zid emas, jahon saylov tajribasida qo'llaniladigan talablardir. Jumladan, mahalliy Kengash deputati bo'lib 21 yoshga to'lgan, kamida 5 yil O'zbekiston Respublikasida muqim yashayotgan fuqarolar saylanishi mumkin.

Deputatlikka nomzodlar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

Sudyalar, prokuratura organlari va hokimiyat ijroiya organlarining mansabдор shaxslari (viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlari bundan mustasno) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'shash to'g'risida ariza berganlari taqdirdagina xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinadilar.

**Teng saylov huquqi.** Har bir fuqaroni saylovda bir ovozga egaligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kimligidan qat'i nazar teng saylov huquqiga ega. Teng saylov huquqi sayloving barcha jarayonlarida barcha ishtirok etuvchilarga teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda

tutadi. Bir saylovchi bitta saylov uchastkasida, ro'yxatga kiritilib, ovoz berishda ishtirok etadi.

**To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi.** Xalq deputatlari Kengashining barcha pog'onalar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita, yashab turgan joyidan saylanadi.

**Yashirin ovoz berish.** Saylovlarni demokratik, erkin amalga oshirish usuli bo'lib, ovoz beruvchiga biron-bir tarzda ta'sir o'tkazishni cheklaydi. Ovoz beruvchi hech kimni ta'siriga berilmay, o'z ixtiyoriga ko'ra ovoz beradi.

Saylovlar oshkora o'tadi, uning barcha jarayonlari ommaviy axborot vositalari orqali yoritib boriladi. Kuzatuvchilar ishtirokida o'tadi.

Xalq deputatalari Kengashlariga saylovda nomzod ko'rsatish huquqi – viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashiga siyosiy partiyalar tomonidan, tuman, shahar Kengashlariga siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Saylovlar saylov komissiyalari tomonidan tashkil qilinib, saylovda viloyatlar, tumanlar va shaharlarga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylov, ularning vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyining uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovcilar ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning kamida 33 foizi ovoz berishda ishtirok etsa, saylov haqiqiy hisoblanadi va ovoz berishda ishtirok etganlarni yarmidan ko'pining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tagacha, tuman va shahar Kengashlariga 30 tagacha deputat saylanadi. Bu masala saylov to'g'risidagi qonunning 7-moddasida ko'rsatib qo'yilgan. Xalq deputatlari Kengashining tarkibi ana shu miqdordagi deputatlardan iborat bo'ladi.

Xalq deputatlari faoliyatining asosiy shakli (ish shakli) sessiya hisoblanadi. Sessiyalar tegishli hokim, hokim yo'qligida esa uning o'rinnbosarlarining biri tomonidan zaruratga qarab, lekan bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Sessiyalar tegishli Kengash deputatlarining kamida uchdan ikki qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin. Kengashlarning sessiya chaqirish to'g'risidagi qaror bilan deputatlar sessiya ochilishidan kamida etti kun oldin xabardor qilinadi. Yangi saylangan xalq deputatlari Kengashlari hokim tomonidan saylovdan keyin ko'pi bilan uch haftalik muddat ichida chaqiriladi. Kengashlarning birinchi

sessiyasini eng keksa deputatlardan biri ochadi. Boshqa sessiyalarni hokim ochadi va olib boradi. Sessiyalarda hokim, u yo'qligida esa Kengashning qaroriga yoki hokim topshirig'iga ko'ra deputatlarning biri raislik qiladi. Har bir sessiyada hujjatlarni yuritish uchun sessiya kotibiyati saylanadi. Kengash sessiyalari, ularda deputatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etsa haqiqiy sanaladi. Sessiyalar ochiq, oshkora o'tkazilib, muhokama qilingan masalalar yuzasidan ochiq ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilinadi.

Sessiya muhokamasiga kiritilgan masalalarni dastlab ko'rib chiqish va tayyorlash, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini, O'zbekiston qonun hujjatlarini amalga oshirishga ko'maklashish, vakolatlari doirasida nazorat o'rnatish maqsadida har bir xalq deputatlari Kengashlari o'z vakolatlari muddatiga deputatlar orasidan doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzadi.

### **5-§. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi**

Deputatning huquqiy maqomini uning vazifalari, huquqlari va burchlari hamda ular faoliyatining kafolatlari tizimi yig'indisi belgilaydi. Deputatning huquqiy maqomi 2004-yil 2-dekabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatinining maqomi to'g'risida"gi Qonun<sup>227</sup> bilan tartibga solinadi.

Deputat -- bu tegishli tartibda saylanib, vakolatli saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir. Mahalliy Kengash deputatlari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida bajaradi. Xalq deputatlari Kengashlari tizimi viloyat, tuman, shahar Kengashlaridan iborat bo'lganligi sababli, deputatlar ham tegishli viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari bo'ladi.

Deputatlar, mahalliy Kengashlarning vakolat muddatiga, ya'ni besh yilga saylanadi. Lekin ularning vakolatlari muddatidan oldin ham, quyidagi hollarda tugatilishi mumkin.

- o'z arizasiga binoan;
- deputatlikka nomuvonfig lavozimga saylangan yoki tayinlangan bo'lsa;
- unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lsa;
- deputat chaqirib olinsa;
- deputatni sud muomalaga layoqatsiz deb topsa;

<sup>227</sup> Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси фаолиятини тартибга солувчи конун хужжатлари туплами. – Т. 2007. – 224–228-бетлар.

- sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilsa;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganda;

- vafot etsa;

- Kengash muddatidan avval tarqatib yuborilsa.

Deputatning deputatlik nomiga dog‘ tushiruvchi xulq-atvori ham, agar masala Kengashda ko‘rilib, xulosaga kelinsa, vakolat muddatidan avval tugatilishi mumkin (3-modda).

Deputatning huquqlari Qonunning 5-moddasida bat afsil bayon qilingan, unga ko‘ra, deputat sessiyada ko‘rib chiqilayotgan barcha masalalar bo‘yicha hal qiluvchi ovozga ega:

- u, Kengashining barcha domiy, muvaqqat komissiyalari tarkibiga saylanishga;

- sessiyada ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif qilishga;

- kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko‘rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;

- Kengash tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdar shaxslar nomzodi yuzasidan fikr bildirishga;

- sessiyalarda munozaralarda ishtirok etishga, raislik qiluvchi va ma‘ruzachiga savollar berishga;

- deputat so‘rovi bilan murojaat qilishga;

- o‘z takliflarini isbotlash yoki ovoz berish sabablarini izohlash uchun so‘zga chiqishga;

- raislik qiluvchiga muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o‘z nutqi matnini, taklifi yoki mulohazasi topshirishga;

- o‘zi a‘zo bo‘lgan Kengash komissiyasining qaroriga qo‘shilmagan taqdirda o‘z nuqtayi nazarini sessiyada bayon qilishga yoki bu haqda yozma xabar qilishga;

- har qanday mansabdar shaxsni sessiyada hisobotini eshitish taklifini kiritishga;

- qonunlar ijro etilishini, Kengash qarorlarining bajarilishini tekshirish to‘g‘risida masalalar taklif qilishga;

- Kengash sessiyasi stenogrammalarini bilan tanishishga;

- saylovchilar bilan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiya tashkilotlari bilan uchrashuvlar o‘tkazishga;

- fuqarolarning huquqlari yoki qonun hujjatlari buzilishi hollari ma‘lum bo‘lib qolgan hollarda, ularga chek qo‘yish talabi bilan tegishli organ va mansabdar shaxslarga murojaat qilishga haqlidir.

Deputat qonunlarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Deputatning ayrim huquqlari, ularni amalga oshirish tartibi, oqibati Qonunda alohida mustahkamlangan. Masalan, Qonunning 8-moddasi "Deputat so'rovi" deb atalgan. Unga asosan deputat so'rovi bu – tegishli hududda joylashgan organ, tashkilot mansabdon shaxslariga asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtayi nazarini bayon qilish talabidir. So'rovga javob so'rov olingan kundan 10 kundan kechiktirmay berilishi shart. So'rov bo'yicha ma'lumot sessiyada muhokama qilinishi mumkin. Deputat so'rovi vakillik organini, deputatni ijro organlari faoliyati ustidan nazoratining ta'sirli, samarali usulidir.

Qonunning 6-moddasida "deputatning majburiyatlar" belgilab qo'yilgan. Unga asosan, deputat, Kengash sessiyalarida, Kengash tomonidan tuzilgan komissiyalar tarkibiga saylangan bo'lsa, shu komissiyaning majlislarida va uning boshqa tadbirlarida ishtirok etishi shart, deputatlar ovoz berishda shaxsan o'zlarini ishtirok etishi shart. Deputatning zimmasida qonunlarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, belgilangan muddatlarda saylovchilarga axborot berish majburiyati.

Deputat maqomi uning faoliyatini alohida kafolatlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kafolatlar deputatga o'z faoliyatini hech qanday moneliksiz, mustaqil amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Deputatning sha'ni, qadr-qimmati alohida muhofaza qilinadi, ularga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. Deputat faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilgan mansabdon shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Deputat daxlsizlik huquqidan foydalanadi. Tegishli xalq deputatlari Kengashlarining roziligesiz deputat mazkur hududda jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputat ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi, o'z nuqtayi nazarini bayon qilgani yoki deputatlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Deputatning daxlsizlik huquqidan mahrum etish tartibi qonunning 12-moddasida bat afsil belgilangan.

Deputatlik maqomini kafolatlovchi yana bir masala, deputatga deputatlik faoliyatini amalga oshirishga davlat organlari va mansabdon shaxslarning ko'maklashuvindir.

Deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvi, saylovchilarni qabul qilishi uchun etarli sharoitlarni ijro organlari yaratib beradilar (7-modda).

Deputat o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan vaqlarda ularning tashkilotlarga hech qanday moneliklarsiz kirishi va rahbarlar tomonidan qabul qilinishi shart (13-modda).

Mahalliy Kengash deputatlari deputatlik faoliyatini ishlab chiqarish yoki xizmat vazifasi bilan qo‘sib olib boradi. Shuning uchun ularning deputatlik faoliyatini bajarayotgan vaqtida o‘rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

### **6-§. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokimning maqomi**

Mahalliy miqyosda hokimiyatning vakillik organlari sifatida xalq deputatlari Kengashlari saqlab qolnib (ular avvalgi tuzumda ham mavjud edi), ularning tashkil bo‘lishi, faoliyati demokratlashtirildi, tarkibi optimal darajaga keltirildi va ular haqiqiy davlat hokimiyati sifatida huquqiy mustahkamlanib qo‘yilgan bo‘lsa, ijro hokimiyati yangidan tashkil qilindi va yangi institut – hokim lavozimi o‘rnatildi. Sobiq tuzum davridagi qonunlarda, umuman, ijro hokimiyati degan (shu jumladan, mahalliy ijroiya hokimiyati) institut, tushuncha yo‘q edi. U davrdagi qonunlarda faqat xalq deputatlari Sovetlari davlat hokimiyati organi hisoblanib, ijro organlarini Sovetning organi, deb mustahkamlangan va ijro organlarini ham kollegialchilik (ijroiya komitetlar) asosida ish olib borishini beliglab qo‘yilib, yakka boshchilik sotsialistik demokratiyaga zid hodisa deb hisoblangan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach ijro hokimiyatini tashkil qilish, uning faoliyatini kuchaytirish yo‘lidan bordi. Toshkent shahrida ijro organining boshlig‘i yakka boshchilik asosida faoliyat ko‘rsatadigan hokim bo‘lishi maqsadga muvofiq, degan fikr asosida, 1991-yil 29-dekabrda eksperiment tariqasida Toshkent shahar hokimi Toshkent xalqi tomonidan saylab qo‘yildi. 1992-yil yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi qonuniga binoan Respublikaning barcha ma‘muriy tuzilmalarida ijro hokimiyatini boshlig‘i sifatida hokim lavozimi tashkil qilinishi belgilandi va joylarda ijro hokimiyati davlat hokimiyati tarmog‘i sifatida e‘tirof etildi. Bu g‘oya keyinchalik O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlanib qo‘yildi.

Konstitutsiyaga asosan barcha ma‘muriy-tuzilish pog‘onalarida hokim lavozimi mavjud bo‘lib ular vakillik hokimiyati organlarini boshqaradi. Shuningdek, ijro hokimiyatini ham hokimlar boshqaradi (100, 102-moddalar).

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga asosan Hokimlar viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdon shaxsi hisoblanadi (1-modda). Hokim joylardagi mansabdon shaxs sifatida o‘zbek davlatchiligidagi azaldan qo‘llanilib kelingan va sotsialistik tuzumda yo‘q qilingan lavozim edi.

Hokim lavozimining o‘rnatalishi, ijro hokimiyatida boshqaruv yakka boshchilik prinsipida amalga oshirilishini belgiladi. Yakka boshchilik prinsipi faqat mansabdorga keng vakolatlar va huquqlar berish emas, ularning mas‘uliyati kuchli bo‘lishini nazarda tutadi. Shuning uchun hokimlar o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish imkoniyatini beruvchi vakolat, huquqlar bilan birga kuchli mas‘uliyatlar ham yuklangan.

Viloyat, Toshkent shahar hokimi Prezident va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida, tuman va shahar hokimlari yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobdorligi qonunning 1-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan davlatchilik sohasidagi islohotlar ijro hokimiyati faoliyati ustidan vakillik hokimiyati nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini kengaytirish nazarda tutilmoxda va holatlar qonunlarda aks ettirilmoqda.

2017-yil aprel oyida Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishda hokimlarning vakillik organlari oldida hisobdorligi yanada kuchaytirildi. Unga asosan «Viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga, viloyat, tuman va shahar ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishni eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi» (Konstitutsiyaning 103-modda ikkinchi qismi).

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi<sup>228</sup> Qonunning 7-moddasida “Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat hamda Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazarat qilish vazifaları” deb nomlanadi va unda Kengashlardagi partiya guruhlariga hokim lavozimida ishlayotgan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to‘g‘risida Prezidentga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqi berildi. Bunday tashabbus yetakchi guruhlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan taqdirda

---

<sup>228</sup> Каранг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси фаолиятини тартибга солувчи конун хужжатлари тўплами – Т.: 2007. – 222–224-бетлар.

Prezident bu tashabbusni Kengash muhokamasiga tayinlaydi va muhokama natijasiga ko'ra qaror qabul qiladi.

2010-yil 12-noyabrdagi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'rzasida Prezident davlat organlari faoliyati ustidan "O'zbekiston Respublikasida jamoat nazorati to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini ochiqligi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilish zarurligini ko'rsatib o'tdi<sup>229</sup>.

Hokimning mas'uliyati kuchli bo'lsa, ish yaxshi yo'lga qo'yiladi va natija yaxshi bo'ladi. Hokim institutining eng muhim xususiyati shundaki, hokim faqat o'zi tomonidan qabul qilingan hujjatlarning to'g'riliqi, harakati va faoliyatining qonuniyligi uchungina javobgar bo'lmay, Konstitutsianing 103-moddasiga asosan o'zi rahbarlik qilayotgan organlarning ham qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar natijasida mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatida ko'plab muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Hokimlar faoliyatida uchrab turgan kamchiliklarni bartaraf etish hozirgi kun tartibidagi muhim masala ekanligi e'tiborga olinib, «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiysi» qabul qilindi.<sup>230</sup>

Bu konsepsiya ho'latlarni amalga oshishi ijro hokimiyati – xokimlarning mavqeini yanada mustahkamlashga, hokim bilan xalq deputatlari Kengashlari munosabatini yangi darajada tashkil qilishga olib keladi.

2017-yil 22-dekabrda O'zbekiston Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Yaqin istiqboldagi dolzarb masalalardan biri – hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga mas'ul bo'lgan rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha vakolatlarni tuman va shahar hokimlariga to'liq o'tkazishdan iborat.

Ayni paytda mahalliy rahbarlarga bunday keng vakolat va mustaqillik berish bilan birga, yakuniy natija uchun ularning javobgarligini tubdan oshirish zarur»<sup>231</sup> – deb ta'kiladi.

<sup>229</sup> Карапг: Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ишлоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: Узбекистон, 2010. – 31, 46-бетлар

<sup>230</sup> Бу хадда карапг: Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8-сентябрдаги ПФ-5185-сонли фармони, Халк сузу, 2017 йил 9 сентябрь

<sup>231</sup> Халк сузу, 2017 йил 23 декабрь

## **7-§. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi**

Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish Konstitutsiyaviy asosga ega. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hokimlarni lavozimiga tayinlash va ozod qilish tartibiga ham o'zgartirishlar kiritdi.

Avvalgi Konstitutsiya va qonun normalariga asosan:

– viloyatlar va Toshkent shahar hokimi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanib va tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanar edi. Davlat boshlig'i tomonidan tayinlangan shaxsning, Kengashda tasdiqlanishi qoidasining o'rnatilganligi bahs-munozaralarga sabab bo'lar edi. Bundan tashqari, Prezident tomonidan tayinlangan hokimni, Kengash tasdiqlamasa, nima bo'lishi ham qonunda ko'rsatilmagan bo'lib, bu qonunning bo'shlig'i edi.

Bu holat "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda mantiqiy to'g'ri hal qilindi va bo'shliq to'ldirildi. Qonunning 6-moddasi "Viloyat, Toshkent shahar hokimini tayinlash va tasdiqlash tartibi" deb nomlangan bo'lib, unga asosan: Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tegishli Kengash deputatlari umumiyligi sonining ko'pchilik ovozini olgan nomzod hokim lavozimiga tasdiqlangan hisoblanadi, Kengash qaroriga muvofiq Prezident nomzod bo'yicha farmon qabul qiladi, ya'ni saylangan nomzodni tasdiqlaydi.

Ovoz berish vaqtida nomzod Kengash deputatlarining tegishli ovozini ololmasa, Prezident lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

Taqdim etilgan nomzod Kengashda uch marta rad etilsa, Prezident Kengashni tarqatib yuborish va hokim vazifasini vaqtincha bajaruvchi tayinlash huquqiga ega. Tarqatib yuborilgan Kengashga uch oy ichida saylov o'tkaziladi.

Konstitutsiyaviy qonunga asosan Konstitutsiyaning 102-moddasiga o'zgartirish kiritildi, unda "Viloyat va Toshkent shahar hokimi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi” – deb, tayinlash va ozod qilish qonunga havola qilindi. Qonunda esa, yuqorida keltirilgan tartib mustahkamlangan. Bunday tartibni o‘rnatilganligi Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandiga ham o‘zgartirish kiritishga sabab bo‘ldi.

Konstitutsiyaning 102-moddasidagi, tuman, shahar hokimlarini tayinlashga taalluqli qoida-normalar o‘zgarishsiz qoldi. Unga asosan: tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Konstitutsiyada alohida hollarda, tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod qilish tartibi ham belgilangan. Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandiga binoan “Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli”. Avvalgi bandda viloyat hokimlarini lavozimidan ozod qilish masalasini Kengashidan siyosiy partiyalarning partiya guruhlari ham ko‘tarish huquqiga egaligi va shunday holat yuzaga kelganda, hokimni vazifasidan ozod qilish tartibini bayon qilgan edik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida viloyat va Toshkent shahar hokimlarini tayinlashda Bosh vazir ishtirokini belgilovchi norma bo‘lishi haqida taklif bildirildi va Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandi “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi”, degan so‘zlar bilan to‘ldirildi.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *Mahalliy davlat hokimiyati organlari nima uchun zarur?*
2. *O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi qanday tashkil qilingan?*
3. *Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy vazifalari nimalar?*
4. *Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari qanday?*
5. *Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qaysi organlar. Nima uchun ular vakillik organlari deyiladi?*
6. *Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari qanday tashkil qilinadi?*
7. *Mahalliy vakillik organlarining tashkiliy faoliyat shakli qanday?*
8. *Mahalliy ijro hokimiyatini kim amalga oshiradi?*
9. *Hokimlarning maqomi qanday?*
10. *Hokimlar lavozimiga qanday tayinlanadi va ozod qilinadi?*

## **XXV BOB. FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI**

1-§. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asosi uni tuzish tartibi va vakolatlari.

2-§. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) ni saylash tartibi.

3-§. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tarkibiy tuzilmalari, ularning vakolatlari.

4-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlari.

### **1-§.Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asosi, uni tuzish tartibi va vakolatlari**

Muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqozo etadi – bu esa o'z navbatida yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llidagi yangi vazifalarni yuzaga keltiradi.

Yurtimizdagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonining ko'lami kengayib, samaradorligi oshib borgani sari jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va demokratlashtirish zarurati tobora ko'proq sezilmoqda. Mazkur talablardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirishda ularning huquqiy asoslarini yaratish yetakchi o'rinni egalladi. Shu munosabat bilan davlatimiz mustaqillikka erishganidan buyon fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bugungi kunda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi quyidagi normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (105-modda);
2. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun;
3. «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida»gi Qonun;
4. “Mahalla institutini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoni (2017-yil 3-fevral);
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori (2013-yil 7-oktabr) va h.k.lar.

1992-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra, tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni

e‘zozlash va izchil targ‘ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an‘analarini keng ommalashtirish, respublikaning mahallalari o‘rtasida madaniy va ma‘rifiy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlash choralarini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tashkil qilindi.

Ulug‘ ajdodlarimizning an‘analarini davom ettirgan holda, ushbu organ faoliyati muhimligiga e‘tiborni jalb qilib, 1993-yil 3-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Toshkent shahri mahallalarining bir guruh oqsoqollari bilan uchrashdi, u yerda eng dolzarb va muhim masalalar muhokama qilindi.

Biz o‘rganiyotgan davrning kun tartibida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari masalalarini tartibga soluvchi huquqiy me‘yorlar ishlab chiqish ham dolzarb vazifa bo‘lib turgan edi.

1990-yilning iyun oyidayoq Oliy Sovetning ikkinchi sessiyasida yangi konstitutsiya loyihasini yaratish bo‘yicha konstitutsiya komissiyasi shakllangan edi. Loyihada, mahalla yuzaga kelgan davrdan boshlab birinchi marta, unga o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatida institutsial yondashuv ishlab chiqildi.

Yangi Konstitutsiya loyihasida “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish” “Davlat hokimiyati tizimi” bo‘limiga kiritilgan edi<sup>232</sup>. Mazkur me‘yorning birinchi ko‘rinishdagi tahririda quyidagilar bor edi: “Qishloq va ovullarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular 2,5 yil muddatga raisni (oqsoqolni) va 10-20 kishi miqdorida uning maslahatchilarini saylaydi. O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”<sup>233</sup>. Mazkur jumla mazmuni jihatidan juda ko‘p marotaba o‘zgartirildi.

1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasi ommaviy axborot vositalarida chop etildi va umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Mahalla instituti masalalari konstitutsiya loyihasining 104-moddasida o‘z aksini topdi: “Qishloq va mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular 2,5 yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O‘zini

<sup>232</sup>ЎзР МДА 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида қабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. М 69. О.1. Т.1. Б.119.

<sup>233</sup>ЎзР МДА 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида қабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. М 69. О.1. Т.3. Б.88

o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”<sup>234</sup>.

Yangi konstitutsiya loyihasi butun respublika bo‘ylab qizg‘in muhokama qilindi: “Qishloq va mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari haqida so‘z borgan 104-modda juda puxta tahlil va jiddiy munosabatni talab etadi. Bugungi kunda hammadan ham ularning huquqi cheklangan. Ularning yarmisi namunaviy binolar, transportga ega emas, texnik jihatdan asbob uskuna bilan ta‘minlanmagan va yomon jihozlangan”<sup>235</sup>.

Konstitutsiya loyihasidagi yangilik shundan iborat ediki, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari endi nafaqat hududiy birlik (mahalla), balki, avval davlat hokimiyati (mahalliy kengashlar) yaratilgan, ma‘muriy-hududiy birlik (qishloq) darajasida ham shakllanishi nazarda tutilgan edi. Mazkur qoida ma‘lum funksional vazifaga ega edi, u, birinchi navbatda, mahalliy kengashlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasida vakolatlar taqsimotini nazarda tutgan edi.

Konstitutsiya loyihasini muhokama qilish davrida ko‘rib chiqilayotgan me‘yor bo‘yicha juda ko‘p takliflar tushdi: “Konstitutsiyada qishloq kengashlari mahalla qo‘mitalari bilan tenglashtirilgan”<sup>236</sup>, “modda mazmunan noaniq: so‘z qishloq kengashlari raislari haqidami yoki mahalla kengashganlari yoki mahalla shaklidagi qishloqlar raislari haqidami, tushunarsiz”<sup>237</sup>, “Konstitutsiya loyihasida fuqarolar yig‘ini hokimiyat organimi yoki jamoat tashkiloti borasidagi masala hal qilinmagan”<sup>238</sup>. “Respublika aholisining aksariyati posyolka, qishloq, ovul va mahallalarda istiqomat qiladi. Negadir bu vaziyat konstitutsiya loyihasining 104-moddasida inobatga olinmagan”<sup>239</sup>, “qishloq va posyolka Kengashlari raislari besh yil muddatga, butun xalq oldida yashirin ovoz

<sup>234</sup>Халқ сузи. 1992 йил 26 сентябрь.

<sup>235</sup>К.Махмудов Решая взвесить и выверить // Народное слово. 1992 йил 27 октябрь.

<sup>236</sup>ЎзР МДА. 1992 йил 8 декабря 12-чакириқ Олий Советининг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари // А. Болбоев М.69 О.1. Т.13. Б.65

<sup>237</sup>ЎзР МДА. 1992 йил 8 декабря 12-чакириқ Олий Советининг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари // Б.Уринбоева, Холматов. М.69. О.1. Т.7. Б.240

<sup>238</sup>ЎзР МДА. 1992 йил 8 декабря 12-чакириқ Олий Советининг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари // О.Амиркулов М.69. О.1. Т.13. Б.248

<sup>239</sup>ЎзР МДА. 1992 йил 8 декабря 12-чакириқ Олий Советининг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари // А.А.Абдирашитов М.69. О.1. Т.13. Б.372

berish yo‘li bilan saylanishi kerak”<sup>240</sup>, “saylovlarga nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan taklif etilishi kerak”<sup>241</sup>. “104-moddada qishloq kengashlarining mustaqil iqtisodiy asosini qayd etish zarur”<sup>242</sup>. 104-modda quyidagi mazmunda bayon etilishi kerak: “Shaharcha, qishloq, ovul, mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular 2,5 yil muddatga Kengash raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylaydi”<sup>243</sup>.

1992-yil 21-noyabrda Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marotaba umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Konstitutsiyaviy komissiyaga mazkur institutni yanada rivojlantirish masalalari bo‘yicha takliflar kelishi to‘xtamasdi.

1992-yil 8-dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi o‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Sovetining o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga ko‘ra, “Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidani mantiqan davom ettirish “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishni taqozo etdi. 1993-yil 27-iyulda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yildi<sup>244</sup>.

“Loyihaga ko‘ra, qishloq yashash punktlaridagi mahallalarda fuqarolar yig‘inlari ikki pog‘onali bo‘ladi: mahalla yig‘ini va qishloq yashash punkti yig‘ini. Ularning vakolatlarini ajratib berish lozim. Axir, qishloq yashash punktlardagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

<sup>240</sup>ЎзР МДА 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. // К.Махмудов. М.69. О.1 Т.6 Б.29

<sup>241</sup>ЎзР МДА 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. // О.Полвонов. М.69. О.1 Т.6 Б.129.

<sup>242</sup>ЎзР МДА 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. // О.Бобоев. М.69. О.1. Т.7. Стр.241.

<sup>243</sup>ЎзР МДА. 1992 йил 8 декабрда 12-чакирик Олий Советнинг XI сессиясида кабул килинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг материаллари. // В.А Омельянов. М.69. О.1. Т.18. Б.88

<sup>244</sup>Халқ сўзи. 1993 йил 27 июль.

organlari – hozirgi posyolka, qishloq, ovul xalq deputatlari kengashlari ijroiya qo'mitalarining davomchilari-ku. Bir qator davlat funksiyalari: fuqarolik holati (tug'ilish, nikoh, o'lim va boshqa) aktlarni ro'yhatdan o'tkazish, notarial xizmatlar (bir qator bitimlarni tasdiqlash), ba'zi soliqlar, yig'imlarni yig'ish va boshqa vazifalar kimning zimmasiga yuklatiladi?”.<sup>245</sup>

Qonun loyihasiga doir turli takliflar bildirildi: “havolaki normalarni qisqartirish maqsadga muvofiq, ular qonunda o'nlab joyda uchraydi”<sup>246</sup>.

“Bizning fikrimizcha, “Yakunlovchi qoidalar” bo'limida noaniqliklar va ziddiyatlar mavjud. Loyihaning 24-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunchilikka zid bo'lgan aktlari xalq deputatlarining rayon, shahar Kengashlari yoki tegishli xokimlar tomonidan bekor qilinadi, deb ta'kidlangan, keyingi 25-moddada esa, o'zini o'zi boshqarish organlari, raisning (oqsoqolning) xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin deyilgan. Bunday vaziyatda o'zini o'zi boshqarish organlarining xatti-harakatlari ustidan qanday asoslarda ma'muriy tartibda, qandaylari sud tartibida shikoyat qilinishi mumkinligi aniq emas. Bu yerda, ma'muriy tartibda ham, sud tartibida ham shikoyat berish uchun huquqiy asoslarni aniq ifodalab berish zarur”,<sup>247</sup>.

1993-yil 2-sentabrda “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni kuchga kirdi. Bu Qonunning ijobiy tomoni shunda ediki: u gorsoveta “ko'makchi organ” degan eski ifodani bartaraf etdi, unda o'zini o'zi boshqarish organlarining iqtisodiy hamda, mulkchilik va mustaqil hisob raqamlari shaklidagi, moliyaviy asoslari o'z aksini topdi.

Lekin, barcha ijobiy jihatlarga qaramay, uning mahalla vakolatlarini kuchaytirish nuqtayi nazaridan real o'rni juda kuchsiz edi. “Mahalla qo'mitalari ko'proq qonuniy vakolatlarga, mahalliy muammolarni yechishda ko'proq ovozlarga ega bo'lishini xohlardik”, degan fikr tez-tez eshitilib turdi<sup>248</sup>. Endi mahallalarda yoshlarni ishga joylashtirish,

<sup>245</sup> Н Киселёв Власть и самоуправление: двуединый процесс (Хокимият ва ўзини ўзи бошқариш: бир бутун жараён). // Народное слово, 1993 йил 11 август

<sup>246</sup> М Файзиев Конституция и развитие законодательства (Конституция ва конунчиликнинг ривоҷланиши). // Народное слово, 1993 йил 21 август.

<sup>247</sup> Н Киселёв Власть и самоуправление: двуединый процесс (Хокимият ва ўзини ўзи бошқариш: бир бутун жараён). // Народное слово, 1993 йил 11 август.

<sup>248</sup> Т.Сиддиков. Надеемся услышат голос махалли (Махалла овозини эшитишади деб умид қиласиз). // Народное слово. 1993 йил 6 февраль.

mehnat bozorida vaziyatni o‘zgartirishga qodir kichik korxonalar yaratish zarurligi haqida fikrlar ko‘proq yangradi<sup>249</sup>.

Barcha salbiy va ijobiy jihatlarga qaramasdan, butun bir tarmoqni tartibga soluvchi, Qonun shaklidagi me‘yoriy aktning qabul qilinishi oldinga qo‘yilgan qadam edi.

Keyinchalik, mahalla vazifalari kengaydi va u o‘ta muhtojlarga nafaqa (budget mablag‘laridan) berish, ko‘chalarni obodonlashtirish, kam ta‘minlanganlarning uylarini ta‘mirlash bilan shug‘ullandi. Ma‘naviy muhit va inson omili shakllanishiga mahallaning ta‘siri katta edi. Asta-sekin mahalla yangi davlat tuzilmasining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib bordi.

Yuz yillik an’analalar, turmushimizning zamonaviy sur’ati va uslubini aks ettiruvchi, yangi asosda qayta tiklandi.

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun zamon bilan hamnafas ravishda yangi tahrirda 1999-yilning aprelida qabul qilindi. Keyinchalik 2013-yilning 22-aprelida mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilinib ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilindi. Shu bilan bir qatorda 2004-yilning 29-aprelida “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, uning yangi tahriri esa 2013-yilning 22-aprelida ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilindi, 2018-yil 15-oktabrda mazkur qonunning nomi “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirildi.

Mahalla institutida tub burilishni 2017-yilda 3-fevral qabul qilingan “Mahalla institutini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bo‘ldi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha:

- respublika kengashi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
- viloyatlar va Toshkent shahar;

– tumanlar va shaharlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlar fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi shaklida tashkil etildi.

<sup>249</sup> Е.Степанович. Семья – начало всех начал (Оила барча бошланишларнинг бошланишидир) // Народное слово. 1997 йил 11 декабрь.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishli Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasini yuklatildi.

Xo‘s, davlat va nodavlat organlarining bunday o‘zaro birikishining ijobjiy jihatlari nimadan iborat?

Oxirgi paytda respublikamizda “hokimiyatlarning o‘zaro bir-biriga singib kirishi” an’anasi kuzatilmogda. Masalan, ko‘pgina mansabdor shaxslarning parlament palatalari tomonidan tasdiqlanishi, Prezident tomonidan sudyalarning lavozimiga nomzodlar bo‘yicha taklif kiritilishi, ularning parlament palatalari tomonidan tasdiqlanishi shular jumlasidandir. Hokimiyatlarning ushbu o‘zaro munosabati Qonun asosida ularning tashkiliy-funksional jihatdan yaqinlashuvida va o‘zaro nazoratning kuchayishida o‘z ifodasini topadi.

Mazkur, an’ana bu yerda, hokimiyat bo‘linishi prinsipidan yiroqlashishni emas, aksincha, “bir-birini muvozanatda saqlash va o‘zaro tiyib turish” prinsipining amalga oshirilishini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Yuqorida Prezident Farmoniga asosan “Mahalla iftixori” ko‘krak nishoni joriy etildi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston hududida 8999 ta mahalla faoliyat yuritmoqda. Mustaqillik davrida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining 413 nafar xodimi davlat mukofotlari – orden va medallar bilan mukofotlangan, ulardan 254 tasi fuqarolar yig‘inlari raisi (oqsqolli), 123 tasi maslahatchi, 7 tasi mas‘ul kotib, 6 tasi turli komissiya a‘zolari.

**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tuzish tartibi.** Shuni yodda tutish kerakki, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mahalla tushunchalari o‘rtasida farq bor, bu tushunchalarni bir ma‘noda ishlatish noto‘g‘ri.

«Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonunning 8-moddasiga binoan «Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig‘inlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir.

**Fuqarolar yig‘ini deganda, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish maqsadida yig‘ilgan aholi yoki uning ma‘lum bir qismini tushunamiz.** Qonunchilikka asosan “fuqarolarning o‘zini

o'zi boshqarish organi” va “fuqarolar yig‘ini” iboralari bir ma‘noni anglatadi.

**Mahallalar shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar hududida tashkil etiladi. Mahallalar ma‘muriy-hududiy birliklar hisoblanmaydi.**

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasiga asosan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini qayta tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish ma‘muriy-hududiy birliklar va mahalla birlashtirilganda, bo‘linganda, tugatilganda, chegaralari o‘zgartirilganda fuqarolar yig‘inining qaroriga ko‘ra qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi”. Demak, fuqarolar yig‘inining faoliyati mahallalarini tashkil qilish va qayta tashkil etish, ularning chegaralarini belgilash kabi omillarga bevosita bog‘liqligini e‘tirof etish lozim.

Ushbu munosabatlar “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari bilan tartibga solinadi.

Xo‘s, mahallalarini tuzish uchun qanday sharoitlar bo‘lishi taqozo etiladi?

Birinchi navbatda, mahallani uzish uchun kamida 500 oila yashaydigan aholi punktlarining geografik joylashishi hisobga olinadi.

Mahallalar, istisno hollarda, 500 nafardan kam aholi, lekin kamida 100 oila yashaydigan borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda tashkil etilishi mumkin.

Mahallalar tuzish mumkin bo‘limgan taqdirda, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning hududlari, mahallalar tuzmasdan, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning tegishli fuqarolar yig‘inlari tomonidan boshqariladi.

Agar posyolka, qishloq va ovulning fuqarolar yig‘ini hududida ko‘pi bilan 1500 oila istiqomat qilsa, ushbu posyolkalar, qishloqlar va ovullarda mahallalar tuzilmaydi.

Mahallalarni tuzish, birlashtirish va bo‘lish bo‘yicha takliflar posyolka, qishloq, ovul va shahar mahallalarining fuqarolar yig‘ini kengashi tomonidan posyolka, qishloq, ovul va shahar mahallalarining fuqarolar yig‘iniga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

Mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish bo‘yicha takliflarda:

– aholi fikrini o‘rganish to‘g‘risidagi;

– muayyan hudud, uning tarixiy va geografik xususiyatlari to‘g‘risidagi;

– yaqin atrofdagi aholi punktlari va mahallalarning joylashishi to‘g‘risidagi;

– ushbu hududda yashaydigan aholi va oilalar soni to‘g‘risidagi;

– ushbu hududda joylashgan eng yirik sanoat, transport tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari to‘g‘risidagi;

tuziladigan, birlashtiriladigan va bo‘linadigan mahallalarning chegaralarini belgilash bo‘yicha takliflar to‘g‘risidagi;

– mahallalarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar to‘g‘risidagi axborotlar aks ettililadi.

Posyolka, qishloq, ovul va shahar mahallalarining fuqarolar yig‘ini mahallani tuzish, birlashtirish va bo‘lish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqib o‘zining qarori bilan ularni ma‘qullaydi yoki asoslangan holda rad etadi, zarurat bo‘lganda, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni tavsiya etadi.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda mahallalarni tuzish, birlashtirish va bo‘lish bo‘yicha takliflar uch kun mobaynida posyolkalar, qishloqlar, ovullar va shaharlar mahallalarining fuqarolar yig‘inlari tomonidan tegishli iltimosnomaga bilan tuman, shahar hokimiga yuboriladi.

Tegishli tuman (shahar) hokimiga yuborilayotgan iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

– tegishli posyolka, qishloq, ovul va shahar mahallalari fuqarolar yig‘inining mahallalarni tuzish, birlashtirish va bo‘lish bo‘yicha takliflarni ma‘qullah to‘g‘risidagi qarori;

– tuzilayotgan, birlashtirilayotgan mahallaga nom berish va faoliyat ko‘rsatayotgan mahallalarning nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar;

– mahalla hududining tuman, shahar hokimi bilan oldindan kelishilgan rejası (mahallalar chegaralarini belgilash va o‘zgartirish) bo‘yicha takliflar.

Tuman, shahar hokimi mahallani tuzish, birlashtirish, bo‘lish to‘g‘risida posyolka, qishloq, ovul yoki shahar mahallalarining fuqarolar yig‘ini tomonidan kiritilgan takliflarni besh kun muddatda ko‘rib chiqadi hamda mahallaning chegaralari rejasini va tavsifini tayyorlashni, shuningdek, unga nom berish, uning nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflarni kelishishni ta‘minlaydi.

Tuman, shahar hokimi mahallaning nomi kelishilgandan hamda uning chegaralari rejası va tavsifi tayyorlangandan keyin o‘n kun muddatda, mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo‘lish bo‘yicha takliflarni,

ularga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, xalq deputatlari tegishli tuman, shahar Kengashiga kiritadi.

Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi navbatdagи sessiyada tuman, shaharlar hokimining taklifini ko'rib chiqadi va mahallani tuzish, mahallalarni birlashtirish, mahallani bo'lish (ularning chegaralarini belgilagan va ularga nom bergan yoki ularning nomini o'zgartirgan holda) to'g'risida yoxud ushbu taklifni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun normalari bilan tartibga solinadi (qarang: "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun).

## **2-§. Fuqarolar yig'inini raisi (oqsoqoli)ni saylash tartibi**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lib o'tadigan saylovlар muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu saylovlarda fuqarolar yig'inining vakillik organlari va mansabdor shaxslari sayylanadi. Mahalla aholisining hayot faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq masalalarini hal qilish vazifasi yuklatiladigan, aholiga eng yaqin bo'lgan ijtimoiy hokimiyat tuzilmasi aynan shu yo'l bilan shakllantiriladi. Shu bilan birga, saylovlар aholi oldida mas'ul bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazorat qilishning muhim shakli hisoblanadi. Har bir saylov kampaniyasi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi, ularning eng dolzarb ehtiyojlari va manfaatlarini namoyon etishi bilan birga, ijroni ta'minlash uchun asos yaratadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovlар mamlakatimizda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish va huquqiy fuqarolik jamiyatini barpo etishda ulkan ahamiyatga molik muhim ijtimoiy-siyosiy tadbir hisoblanadi. Uning muhimligi, avvalo, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining xalq va davlat hayotidagi alohida ahamiyati, o'tkazilayotgan keng miqyosli islohotlarda ularning rolini oshirish zarurligi bilan belgilanadi. Qadim-qadimdan mahalla jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy an'analar va odatlarni asrash, turmushdagi ko'pgina dolzarb masalalarni hal etish markazi bo'lib kelgan. Siyosat va iqtisodiyot, davlat hayoti va

madaniy hayat muammolariga doir umumiy fikr aynan mahallada shakllanadi, odamlarning jamiyatdagi xulq-atvori qoidalari belgilanadi<sup>250</sup>.

Saylanadigan lavozimlarga nomzodlarni saylash jarayonini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui fuqarolar yig'inida bo'lib o'tadigan saylovlarining huquqiy institutini tashkil etadi. Mazkur institutni tartibga solish predmeti quyidagilarda ifodalanadi:

- saylov huquqining asosiy prinsiplari;
- saylanadigan lavozimlarga – saylovchilar va nomzodlarga nisbatan qo'yiladigan talablar;
- saylovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bevosita shug'ullanadigan saylov komissiyalarini shakllantirish va ularning faoliyatini ta'minlash;
- saylov jarayoni subyektlarining maqomi;
- saylov kampaniyasi jarayoni va ovoz berish;
- saylovlarni moliyalashtirish tartibi;
- saylov natijalarini aniqlash tartibi;
- saylov kampaniyasi jarayonida ro'y bergan tartibbuzarlik ustidan shikoyat qilish, ovoz berish va saylov natijalari yuzasidan norozilik bildirish.

Fuqarolar yig'inida saylovlarni huquqiy tartibga solishning ikki jihatini bir-biridan farqlash kerak. Birinchisi, fuqarolar yig'iniga saylov o'tkazish tartibini belgilab olishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi, fuqarolar yig'iniga saylov o'tkazish kafolatlari, shuningdek, fuqarolarning fuqarolar yig'ini organlariga saylash va saylanishining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. So'nggi jihatini quyidagicha izohlash mumkin: fuqarolarning saylov huquqini himoyalash (kafolatlash) masalalari bo'yicha qonunlar qabul qilinadi va mazkur huquqlarning cheklanishi me'yorini belgilovchi chegara faqat qonun yo'li bilangina o'rnatiladi.

Quyidagilar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylov jarayonining asosiy bosqichlari bo'lib hisoblanadi:  
1) saylovlarni tayinlash (vakolatli organ tomonidan saylov sanasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilinishi);

---

<sup>250</sup>Халилов Э. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини шакллантириш ва мамлакат тараккиётининг ҳозирги боскичида уларнинг ролини ошириш // Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига сайловга тайёргарлик кўриш ва сайловни уткизишга доир республика семинар-кенгашининг материаллари. – Тошкент, 2003. – Б 3.

- 2) saylovchilar ro'yxatini tuzish;
- 3) nomzodlarni ko'rsatish va ularni ro'yxatdan o'tkazish;
- 4) ovoz berish va ovozlar yakunini chiqarish, saylov natijasini aniqlash va uni matbuotda e'lon qilish. Bunda fakultativ bosqichlar – qonunda belgilangan tartibda takroriy ovoz berish va takroriy saylovlarni o'tkazish harakatlari bo'lishi mumkin.

**Saylovlarni tayinlash.** Fuqarolar yig'ini organlarida saylov o'tkazish davriyigini ta'minlovchi saylov jarayonining asosiy bosqichi – sayloving vakolati organ tomonidan tayinlanishi hisoblanadi.

Mazkur saylovlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan e'lon qilinadi.

"Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini **tashkil etish** hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tomonidan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish davrida tuziladi.

"Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni saylash ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, viloyatlarning xavfsizligi borasida nisbatan muhim rol o'ynaydi. Senat yuqori vakillik organi sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovlarning tizimli normativ va funksional yordam berish vazifasini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining fuqarolar yig'iniga o'tkaziladigan saylovlarni e'lon qilishga oid bo'lgan qarori «Senat – Jo'qorg'i Kenges – xalq deputatlari Kengashi – Fuqarolar yig'ini» tashkiliy vertikalining rivojlanishiga va saylovlarning samarali o'tkazilishiga, shuningdek, markazning joylar bilan munosabatini takomillashtirishga katta yordam berdi<sup>251</sup>. Mazkur vertikalning vujudga kelishi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida" Qonun hujjalariiga zid emas, bundan tashqari saylovlar jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan savollarga to'g'ri yo'nalish tanlash bilan bevosita bog'liqdir.

<sup>251</sup> Адилходжаева С., Маликова Г. Организация выборов председателей (аксакалов) схода граждан и их советников в Узбекистане //Демократизация и права человека – 2006. № 2. – Б. 102-106.

**Saylovchilar ro'yhatini tuzish.** Fuqarolar yig'ini organlarida saylov harakatlarini tashkil etishda saylovchilarni ro'yxatga olish asosiy muammo hisoblanadi. Saylovchilarning ro'yxati ularning soni va shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tuziladi. Saylovchilar ro'yxatini tuzish murakkab, mas'uliyatlari va ko'p mehnat talab etadigan ish. Saylovchilar ro'yxatini tuzish – saylov kuni keladigan saylovchilar shaxsini aniqlash, ularning saylov huquqini ta'minlash, shuningdek, saylovga ovoz berish uchun kiritilgan saylovchini boshqa fuqarolar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan tajovuzdan himoya etish uchun zarur.

Saylovchilarning zamon talablari darajasida hisobga olinishini tashkil qilishdan maqsad, birinchi navbatda, saylovga tayyorgarlik ko'rayotganda va uni o'tkazishda fuqarolarning saylov huquqini to'la ta'minlash kafolotlananadigan shart-sharoit yaratish, shuningdek, saylovchilar to'g'risida aniq ma'lumotlar tayyorlash bo'yicha ichki tizimli yondashuv hisobiga saylov komissiyasi va guruhining samarali ishlashini ta'minlashdan iborat.

“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida”gi Qonunning 15-moddasiga asosan “ishchi guruhi fuqarolar yig'ini ishtirokchilarini ro'yxatga oladi.

Fuqarolar yig'ini qatnashchilarini ro'yxatga olish saylovni tashkil etishda asosiy vazifa sanaladi. Saylovchilar ro'yxatini tuzish har bir saylovchiga o'zining aktiv saylov huquqini ro'yovga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi hamda tegishli hududda yashamaydigan yoxud saylov huquqidan mahrum etilgan shaxslarning saylovda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi.

“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida”gi Qonunning 8-moddasiga asosan “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini tomonidan, fuqarolar yig'inini chaqirish imkoni bo'lmagan taqdirda esa, fuqarolar vakillarining yig'ilishi tomonidan saylanishi mustahkamlangan. Shuning uchun saylovchilarni ro'yxatga olishning ikki xil ko'rinishlari mavjud.

Birinchisi, saylovchilar ro'yxati ishchi guruhi tomonidan har bir uy a'zolari uchun alohida tuziladi. Ro'yxatga tegishli hududda doimiy istiqomat qiluvchi hamda saylov kuni aktiv saylov huquqiga ega bo'lgan barcha fuqarolar kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportida o'z aksini topgan ma'lumot tegishli hududda yashovchi saylovchilarni ro'yxatga olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchisi, vakillar yig'ilishiда ishtirok etish uchun nomzodi ilgari surilgan va fuqarolar yig'inida ishtirok etish uchun nomzodi tasdiqlangan

shaxslar tomonidan fuqarolar yig‘ini raisi va uning maslahatchilari saylanadi.

«Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunning 8-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining doimiy istiqomat qilib turgan fuqarolari saylovchilar ro‘yxatida turish huquqiga egadirlar. Saylovchilarni ro‘yxatga olishga doir masalalar ichki ishlar organlarining pasport-viza xizmati ma‘lumotlari asosida olib borilishi maqsadga muvofiq.

**Nomzodlarni ko‘rsatish va ro‘yxatga olish.** Qonunga muvofiq muayyan shaxsning passiv saylov huquqini amalga oshirishi nomzodni ilgari surishdan boshlanadi. Saylov jarayonining bu bosqichi aksariyat hollarda keyingi bosqichlar qay darajada o‘tishini belgilab beradi. Bu yerdagi eng muhim omil – nomzodlarni ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar to‘g‘risidagi masaladir.

Nomzodni ko‘rsatish – shaxsning saylovda ishtirok etish maqsadi va unga intilishi to‘g‘risidagi ommaviy murojaatining birinchi ko‘rinishidir. Nomzodni ko‘rsatish nomzodi ilgari surilgan shaxsning roziliqi bilangina amalga oshiriladi. Nomzodning saylovda qatnashishga bergen roziliqi uning masalaning mohiyatini, saylovoldi kampaniyasida ishtirok etish mas‘uliyatini chuqur tushunganligini ma‘lum qiladi.

Ishchi guruh aholi fikrini o‘rganib, umumlashtirib va har tomonlama o‘ylab, fuqarolar yig‘ini raisi vazifasiga nomzodlarni ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ishchi guruh nomzodlarning ushbu lavozimga o‘z nomzodini ko‘rsatishga roziliqi to‘g‘risida arizasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina ularni ro‘yxatdan o‘tkazadi.

Shu tariqa, ko‘rsatilayotgan nomzodlar o‘zlarining ma‘lum ijtimoiy tayanchga ega ekanliklarini namoyon qilishlari kerak. Ushbu qoida hech kim tanimaydigan va o‘zidan boshqa hech kimni tan olmaydigan, o‘zi bilmagan holda nomzod bo‘lib qolganlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarur.

“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida” Qonunning 16-moddasiga asosan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga ko‘rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlar tuman yoki shahar hokimi bilan **kelishish** uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga saylovdan kamida o‘n kun oldin topshiriladi”.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «kelishmoq» so‘zining ma‘nosini quyidagicha izohlanadi: kelishmoq o‘zaro maslahatlashib ma‘lum bir

fikrga (xulosa, bitim yoki qarorga) kelmoqdir<sup>252</sup>. Bundan ayon bo‘ladiki, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raisi (oqsoqol) vazifasiga nomzod muhokamasida tegishli hokimning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb bo‘lmaydi. Rais (oqsoqol) nomzodi yuzasidan kelishuv kollegiallik tarzida o‘tadi. Kollegiallikning mohiyati shundaki, aksariyat hollarda, turli nuqtayi nazar o‘rganilib, murosa chegarasini o‘zida aks ettiruvchi eng to‘g‘ri yechim topiladi.

“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha komissiyalar kelishish deb nom olgan jarayonda bevosita ishtirot etadilar. Ushbu vazifaga ko‘rsatilgan har bir nomzod, barcha komissiya a‘zolarining ishtirokida, hokim suhbatidan o‘tadi. Bundan ko‘rinadiki, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga nomzodlarga doir masala bo‘yicha qabul qilingan hokim qarori kollegiallik xarakteriga ega.

Ishchi guruh tuman yoki shahar hokimining xulosasini o‘lganidan keyin fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga kelishilgan nomzodlar haqidagi axborotni saylovdan kamida besh kun oldin fuqarolar yig‘ini binosiga va guzarlarga osib qo‘yadi.

Nomzodlarni ro‘yxatga olish, bir tomondan, yuridik omil – u saylov kampaniyasining navbatdag‘i bosqichiga yo‘l ochadi, ikkinchi tomondan, tashkiliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Nomzodni ro‘yxatga olishni – saylov kampaniyasida ko‘rsatilgan nomzodning qonun talablariga muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash uchun ajratilgan vaqt sifatida qarash kerak.

Nomzodlarni ro‘yxatga olish jiddiy ravishda hujjatlashtirilishi lozim. Birinchidan, qonun talabiga ko‘ra tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda ishchi guruh tomonidan nomzodlarni ko‘rsatish. Ikkinchidan, o‘z nomzodini ilgari surgan shaxsning yozma arizasi. Uchinchidan, saylanish uchun rozilik bergen nomzodlarning arizalari.

Amaliyot ko‘rsatishicha, fuqarolar yig‘ini organlariga o‘tkaziladigan saylovlar davlat hokimiyati organlariga o‘tkaziladigan saylovlardan farq qiladi. Fuqarolar yig‘ini organlariga o‘tkaziladigan saylovlar borasida nisbatan o‘rnatilgan alohida tartib e‘tiborga molikdir. Bu o‘rinda gap umumiyl, teng va bevosita saylov huquqiga qo‘yilgan taablardan chekinish haqida emas, aksincha, mavjud taablarni amalga oshirishning alohida mexanizmlariga yo‘l berish to‘g‘risida bormoqda. Bu, masalan, ba‘zi

<sup>252</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М : Рус тили, 1981. – Б.377.

saylov harakatlari muddatini qisqartirish, birinchi navbatda, saylovoldi tashviqot davrini o'zgartirishdir, zero, mahallalarda hamma bir-birini yaxshi biladi va shu sababli mazkur qisqartirishlarga yo'l qo'yilishi mumkinligi e'tirof etiladi.

**Ovoz berish tartibi va uni tashkil etish, ovozlarni hisoblash.** **Saylov natijalarini aniqlash.** Ovoz berish, ovozlarni hisoblash, saylov natijalarini aniqlash – saylov jarayonining eng mas'uliyatli bosqichlari hisoblanadi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha barcha ishlarga aynan shu bosqichlarda yakun yasaladi. Saylov jarayonining ushbu bosqichida amalga oshiriladigan tadbirlar muhimligi va juda mas'uliyatli ekanligini hisobga olgan qonun chiqaruvchi ularni muayyan qismiga bo'lib, tartibga soladi, fuqarolar o'z xohish-irodasini yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan erkin ifoda etish uchun huquqiy mexanizm yaratadi. Bunda saylov komissiyasining barcha harakatlarida ishchi guruhni tomonidan ovoz berishni tashkil etishda, ovozlarni hisoblashda ochiqlik va oshkorali kni ta'minlash omili zarur hisoblanadi.

Saylov kampaniyasining ushbu bosqichi uchun xalqaro hujjatlarda quyidagi talablar o'z ifodasini topgan:

– “ovozlarni hisoblash hamda bu haqdagi axborot haqqoniy bo'lishni, uning rasmiy yakunlari esa matbuotda e'lon qilinishini” ta'minlash<sup>253</sup>, «ovoz berishda pora evaziga o'ziga og'dirib olish va qonunga zid boshqa harakatlar man etiladi, ovoz berish jarayonining xavfsizligi va yaxlitligi ta'minlanadi, ovozlarni hisoblash tayyorgarlik ko'rgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi va ovoz berish natijalari qayta tekshirilishi mumkin»<sup>254</sup>.

Qonunchilikda ishchi guruh tegishli hududda yashovchi fuqarolarni ovoz berish kuni, vaqt va joyi haqida kamida besh kun oldin xabardor qilishi lozimligi belgilangan.

“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida” Qonunning 22-moddasiga muvofiq “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Ovoz berish shakli to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini tomonidan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi”.

<sup>253</sup> ЕХХКнинг инсонийлик мезонлари бўйича конференция Копенгаген Кенгашининг хужжати. Инсон ҳукуклари бўйича халқаро шартномалар. – Т.: Адолат 2004. – Б.364.

<sup>254</sup> О критериях свободных и справедливых выборов: (По документам Межпарламентского союза). – М., 1996. – С. 4.

Qonunning 25-moddasida belgilanganidek, fuqarolar yig‘inida hozir bo‘lgan fuqarolarning yarmidan ko‘prog‘ining (ya‘ni 50%+1) ovozini olgan nomzod g‘alaba qozongan sanaladi.

“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida” Qonunning 27-moddasiga muvofiq “agar fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida **fuqarolar yig‘inida ishtirok etuvchilar ro‘yxatiga kiritilgan** fuqarolarning yarmidan kami ishtirok etgan bo‘lsa, saylov o‘tmagan deb topiladi. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi **fuqarolar vakillarining yig‘ilishlarida** o‘tkazilgan taqdirda, agar yig‘ilishda fuqarolar vakillarining uchdan ikki qismidan kami (2/3-1) ishtirok etgan bo‘lsa, saylov o‘tmagan deb topiladi”, degan qoida belgilangan.

Saylov natijalari ishchi guruhlardan olingan hujjatlar asosida saylovni tashkil etish va ko‘maklashish bo‘yicha tuman, shahar komissiyalari tomonidan aniqlanadi. Huddi shu asosda ular saylovning haqiqiyligi, uning natijasi, tegishli holatlarda takroran ovoz berish yoki qayta saylov o‘tkazish lozimligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Saylovlar bo‘yicha oxirgi natija saylovni tashkil etish va ko‘maklashish bo‘yicha respublika, viloyat, shahar komissiyalari tomonidan aniqlanadi.

Saylov kampaniyasi davomida bahsli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Saylov huquqini buzgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, saylov komissiyasi, ishchi guruh qabul qilgan qaror va harakati (harakatsizligi) ustidan sudga yoki tegishli saylov komissiyasiga shikoyat qilish mumkin. Shuningdek, arizachi o‘z arizasida u yoki bii tartib yuzasidan shikoyat qilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, «har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki mansabdar shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari bilan o‘z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega».

### **3-§. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarkibiy tuzilmalari, ularning vakolatlari**

Yuqorida ta‘kidlanganidek, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolar yig‘ini ifodasida o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Fuqarolar

yig'ini tegishli hududda istiqomat qiluvchi aholining manfaatlarini ifodalovchi va uning nomidan mazkur hududda umummajburiy qarolarni chiqarish huquqiga ega bo'lgan organ bo'lib hisoblanadi. Fuqarolar yig'inining qat'iy miqdori belgilanmagan.

“Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonunning fuqarolar yig'ini o'z ishchi organlarini tuzishiga doir masalalar o'z ifodasini topgan. Ular quyidagilardir:

- fuqarolar yig'ini kengashi;
- fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;
- taftish komissiyasi.

Fuqarolar yig'ini kengashi – fuqarolar yig'inining ijro organi bo'lib hisoblanadi, u huquqni tatbiq etuvchi, ijrochi va boshqarib turadigan maxsus organdir. Bu organni tashkil qilishdan asosiy maqsad – iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy hamda tartibga solib turish jarayonida aholi qabul qilgan qaror va umummajburiy qoidalarni hayotga joriy qilishdan iborat.

Fuqarolar yig'ini kengashi tarkibiga fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning o'rinnbosarlari (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlari masalalari bo'yicha maslahatchilari) va maslahatchilari, mas'ul kotib, tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha mutaxassisi, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining rahbari, shuningdek, hududdagi profilaktika inspektorlari, ta'lim muassasalarining, qishloq vrachlik punktlarining va oilaviy poliklinikalarining rahbarlari kiradi.

Fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlari “Fuqarolarning o'zini boshqarish organari to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi bilan tartibga solinadi.

Fuqarolar yig'inlarida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha quyidagi komissiyalar tuziladi:

#### **Yarashtirish komissiyasi**

Maqsadi: fuqarolarning oilada va mahallalarda tinch-osoyishta, hamjihatlikda yashashiga ko'maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda keng targ'ib etish orqali ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

## **Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya**

Maqsadi: fuqarolar yig'ini hududida ma'naviy asoslarni mustahkamlash, tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhini singdirish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasida fuqarolar yig'inlarida o'tkazilayotgan ommaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va tarbiyaviy tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iborat.

## **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya**

Maqsadi: fuqarolar yig'ini hududida aniq yo'naltirilgan asosda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iborat.

## **Xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya**

Maqsadi: fuqarolar yig'ini hududida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi o'rmini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iborat.

## **Voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya.**

Maqsadi: hududdagi voyaga yetmaganlar va yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy yetuk bo'lib voyaga etishlariga, ommaviy ravishda sport bilan shug'ullanishlariga, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ko'maklashishdan, ular o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat;

## **Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya**

Maqsadi: tegishli hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik, chovrachilik, parrandachilik, dehqonchilik, shaxsiy tomorqa xo'jaligini rivojlantirish hamda sohaga aholini keng jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga, shuningdek, ajratilgan yerlardan samarali, oqilona va maqsadli foydalanishga ko'maklashishdan iborat.

## **Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiya.**

Maqsadi: atrof muhitni muhofaza qilish, fuqarolar yig‘ini hududining sanitariya va ekologiya holatini nazorat qilish, uni obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashishdan iborat.

## **Jamoatchilik nazorati va iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiya**

Maqsadi: fuqarolar yig‘ini hududida qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, iste‘molchilar huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash uchun keng jamoatchilikni jalg etish, aholining huquqiy va iste‘mol madaniyatini oshirishga doir ishlarni faollashtirishga ko‘maklashishdan iborat.

Tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig‘ini tomonidan fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha boshqa komissiyalar ham tuzilishi mumkin.

Komissiyalarga rahbarlik, qoida tariqasida, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya a‘zolarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish yo‘li bilan, fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlari ta‘minlangan holda amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga nomzodi ko‘rsatilgan shaxs fuqarolar yig‘inida (fuqarolar vakillarining yig‘ilishida) hozir bo‘lganlarning yarmidan ko‘pi uni yoqlab ovoz bergen taqdirda saylangan hisoblanadi.

**Taftish komissiyasi** fuqarolar yig‘inining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi. Taftish komissiyasi:

- fuqarolar yig‘ini organlari tomonidan fuqarolar yig‘ini mol-mulkini saqlash va undan foydalanish, jumladan pul mablag‘larining maqsadli va manzilli sarflanishi holatini tekshiradi;

- fuqarolar yig‘ini organlari tomonidan hisob-kitob hujjatlarining qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini tekshiradi;

- fuqarolar yig‘ini tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotganligini tekshiradi;

- tekshirish natijalarini tahlil qiladi va fuqarolar yig‘iniga takliflar va xulosalar kiritadi.

Taftish komissiyasi fuqarolar yig'inining moliya-xo'jalik faoliyatida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun fuqarolar yig'iniga kiritadi.

Taftish komissiyasi o'z faoliyatida mustaqildir va faqat fuqarolar yig'iniga hisobot beradi.

Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida fuqarołar yig'ini boshqa organining a'zosi bo'la olmaydi.

Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar va taftish komissiyasi o'z faoliyatini fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida amalga oshiradi.

#### **4-§. FO‘O‘BO ning mahalliy davlat hokimiyati organları bilan o‘zaro munosabatlari**

Davlatchilikni mustahkamlash faqat davlat hokimiyatining vertikalini kuchaytirish va mustahkamlashdan iborat emas. Ishlar boshqaruvini samarali tashkil qilish, mahallalarda amalga oshayotgan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi vositasida fuqarolik jamiyati asoslarini faol qurishga ham tayanadi. Aynan mahalla instituti, avvalombor, aholiga eng yuqori yaqinlashgan darajada, konstitutsiyaviy maqsadlar – huquqiy, ijtimoiy davlat qurishni amalga oshirishning birinchi asosi bo'lish imkoniga ega.

Bugun global muammolarni faqat birgalikda, hamkorlikda, muvofiqlashtirilgan va kelishilgan davlat boshqaruvi asosida yechish mumkinligi ham shubhasiz. Mahalla va mahalliy davlat boshqaruvi esa, yagona ijtimoiy tizim elementlari bo'lib, bir-birlarini o'zaro to'ldiradilar va doimiy o'zaro bog'liqlikda turadilar. Davlat va mahallaning o'zaro bog'liqligi fuqarolar birlashmasining ijtimoiy xususiyatiga ham, jamoa tan olgan davlat dasturlarini amalga oshirishda individual va jamoa bo'lib ishtiroy etishga ham asoslangan.

Mazkur jihatlar doirasida mahalliy davlat boshqaruvi, tizimning alohida tarkibiy qismlari va ijtimoiy muhit o'rtaida yaxshi yo'lga qo'yilgan kommunikatsiyalar bilan birgalikda bir butun tashkiliy tuzilmaga aylanishi, har qachongidan ham dolzarb. Mahallada, bizning mamlakatimiz bosib o'tgan, real tarixiy-huquqiy rivojlanishi asosida vaqt bilan sinalgan qadriyatlar tizimini saqlab qolishga intilish mavjud. Mahalla bugungi kunlarga o'ziga xos xususiyatlari va urf-odatlari bilan etib ketdi, shunchalik chidamli ekanki, biz u bilan hisoblashmaslikka ilojimiz yo'q.

Mahallaning turmushi har doim ham barqarorligi bilan ajralib turgan. Mahalla ijtimoiy qadriyat sifatida barqarorsizlik davrida ham, turli siyosiy

idora usullarida ham, turli davlat tuzumlarida ham talab etilganligi aynan shu fakt bilan izohlanadi.

Aynan mahalla davlat hokimiysi tizimini demokratik shaklga keltirdi va aynan u tenglikning tayanch qoidalarini yaratishga moyassar bo'ldi.

Biz, mahallasiz na markaziy, na hududiy davlat xokimiysi o'z vaqtida turli rejadagi, turli darajadagi, ko'p xollarda juda ziddiyatli va kutilmaganda paydo bo'ladigan muammolardan xabardor bo'lishga va ularni samarali hal etishga qodir emasligini tushunib yetdik.

Mahalla, keng ma'noda, davlat boshqaruvining joylardagi davomidir. Ya'ni, uning faoliyat funksiyalarida davlat ildizlari mavjud. Ularni parchalamoq, ajratmoq, uzib tashlamoq juda mushkuldir. Mazkur jarayon ijtimoiy-boshqaruvning jihatlaridan bo'lib, davlat boshqaruvini uzviy to'ldirib, uni yanada chuqurlashtiradi.

Bugungi kunda mahalliy hokimiyatni takomillashtirish, jamiyatni milliy asoslarda boshqarishning dolzarb masalalaridan biri – fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvi institutining ilmiy asoslangan tushunchasini, mazkur tushuncha mohiyatini uning mahalliy davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi roli bilan bog'liq holda ishlab chiqish hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiysi va o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarining munosabatlari tahlili ularning umumiyligi belgilari mavjudligini namoyon qildi. Jumladan:

- har ikkisi ham ijtimoiy rivojlantirish instituti;
- har biri hududiy tashkilotga ega;
- xalq ifodasidagi hokimiyat manbayiga ega;
- ular ommaviy hokimiyatni amalga oshiradi, biri – butun hududda amalga oshiriladigan davlat hokimiysi, ikkinchisi faqat o'zini o'zi boshqarish organlari hududida amal qiladigan ijtimoiy hokimiyat;
- ular soliq yig'ishga oid vazifani bajaradi;
- jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash funksiyasini amalga oshiradi, biri – (davlat hokimiysi) ichki ishlari va harbiylashgan tuzilma orqali, ikkinchisi (o'zini o'zi boshqarish organlari) – jamoat tartibini saqlovchi mahalla posbonlari ko'rinishida faoliyat yuritadi;
- huquqiy jihatdan tartibni saqlash va boshqaruvga doir ishlarni amalga oshiradi, o'z huquqiy hujjatlariga, shuningdek, o'z boshqaruv mahkamasiga ega.

Mahalliy davlat hokimiysi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tashkil etish va faoliyat ko‘rsatish prinsipining umumiyligini ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bular jumlasiga:

- xalq hokimiysi;
- qonuniylik;
- oshkoraliq;
- vakillik organlarining saylanishi, ularning bir-biridan va ijtimoiy uyushmalardan alohidaligi va mustaqilligi;
- huquq va vakolatlarning chegaralanganligi;
- jamoat fikrini inobatga olish;
- markazlashtirish va nomarkazlashtirishga oid vazifalarni optimal ravishda mutanosiblikda olib borish kiradi.

### ***O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari***

1. *Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari qaysi hududlarda mavjud va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga kim boshchilik qiladi?*
4. *Fuqarolar yig‘ini deganda nimani tushunasiz?*
5. *Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylash tartibi qanday?*
6. *Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlariga to‘xtalib o‘tsangiz?*

## **XXVI BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSUYAVIY ASOSLARI**

- 1-§. Sud hokimiyati va sud tizimi tushunchasi hamda asosiy belgilari.
- 2-§. Odil sudlov va uning konstitutsiyaviy prinsiplari.
- 3-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.
- 4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.
- 5-§. Quyi ixtisoslashtirilgan sudlar.
- 6-§. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi.
- 7-§. Sudyalarning huquqiy maqomi.

### **1-§. Sud hokimiyati va sud tizimi tushunchasi hamda asosiy belgilari**

Davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng O'zbekiston o'z Konstitutsiyasining muqaddimasida belgilanganidek, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'llini tanladi. Ushbu yo'lning pirovad natijasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faoliyatining shioriga aylangan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak"<sup>255</sup>ligini amalda ro'yobga chiqaradigan demokratik davlat barpo etilishi bilan birga, inson huquqlariga riosa etilishi mexanzimlari barqaror ta'minlanadigan fuqarolik jamiyati shakllantiriladi.

Fuqarolik jamiyati qaror topishining asosiy, birinchi darajali shartlaridan biri – inson huquqlarini jamiyat va davlatda oliv ne'mat sifatida e'tirof qilish, ular hamma uchun majburiy bo'lishini ta'minlashdir. Shubhasiz, bu ho'fat huquqiy davlatning eng asosiy belgisi bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlangan holdagina mayjud bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, inson huquqlari hamma uchun majburiy bo'lishini ta'minlashda hokimiyatlar bo'linishi muhim ahamiyatga ega, chunki huquqiy davlatchilikning asosi inson huquqlarining institutsional kafolatlarini yaratadigan hokimiyatlar bo'linishidir.

---

<sup>255</sup> Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараккиёти юнайтед жамоати таъминлашадиган олий закон. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул килинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза 2016 йил 7 декабрь. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 16-бет.

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida o‘z aksini topgan, ushbu moddaga binoan, “**O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi**”. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining mavjud bo‘lishi tufayli davlat hokimiyatining tizimida davlat hokimiyatining organlari bir-birini tiyib turishga va nazorat qilishga yo‘l ochib beradigan va bir shaxs yoki organning qo‘lida hokimiyatning to‘planishiga imkon bermaydigan davlat hokimiyatining organlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar tartibi o‘rnatalidi. Hokimiyatning har bir tarmog‘i (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) mustaqil va o‘z vakolatlarini amalga oshirishda erkin hisoblanadi, hokimiyatning hech qaysi tarmog‘i hokimiyatning boshqa tarmog‘i vazifalarini o‘z zimmasiga yuklatishga haqli emas. Barcha davlat organlari o‘z vakolat doirasida faoliyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, hokimiyatning barcha tarmoqlari bir-biriga bog‘liqdir, ular birgalikda harakat qiladilar va yaxlit davlat mexanizmini vujudga keltiradilar.

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirishda davlat hokimiyatining organlari bir-birini tiyib turishi va muvozanatni saqlash mexanizmining o‘rnatilishini nazarda tutadi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining mustaqil harakat qilishini va mustahkam aloqada ishlashini ta‘minlaydi. Shu sababli, davlatda avtoritar va totalitar intilishlarning rivojlanishiga qarshilik qiladigan, jamiyatda erkinlikni, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta‘minlaydigan qo‘srimcha huquqiy kafolatlar yuzaga keladi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 70 ta asosiy hujjatga qo‘sildi, BMT tomonidan ushbu sohada qabul qilingan 10 ta asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylandi.<sup>256</sup> Yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda huquq va sud

<sup>256</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 майдаги “Инсон хукуклари умумжоҳондекларацияси” қабул килинганининг 70 йиллигига багишлиланган тадбирлар Дастурга тугрисида”ти Фармони // “Халқ сўзи”, 2018 йил 9 май

hokimiyatining birligini ko'zda tutadi. Jumladan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash nazarda tutilgan.

Huquq va sud hokimiyatining o'zaro aloqasi mustaqil sudyalarining faqat qonunga bo'y sunishini sud hokimiyati mustaqilligining asosiy sharti sifatida nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106- va 112-moddalarida o'z aksini topgan. Bu holat, o'z navbatida, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha odil sudlovnning xolisligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sudlarda konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasi paydo bo'lishi – alohida e'tiborga ega. Ta'kidlash joizki, sudning huquqni qo'llaydigan subyekt sifatida asosiy vazifasi (va sud hokimiyati mavjudligi belgisi) odil sudlovnini amalga oshirish orqali Konstitutsiya va qonunning ustunligini ta'minlashdir. Jamiyat ham, davlat ham mustaqil va xolis sud yo'qligida huquqiy bo'la olmaydi. Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasining amalga oshirilishi natijasida davlat sud hokimiyatining boshqa tarmoqlariga ta'sir etish, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarni bekor qilish imkoniga ega bo'ladi.

Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasini Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Ushbu sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rganida va xulosalar bergenida faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga rioya qilganligi uchun umumiyligi va xo'jalik yurisdiksija sudlaridan farq qildi.

**Sud hokimiyatining tushunchasi** quyidagi ikkita qismdan iboratdir:  
**birinchidan**, ushbu hokimiyat maxsus ta'sis qilingan organlar – sudlar tomonidan amalga oshiriladi;

**ikkinchidan**, mazkur organlar faqat ularga xos bo'lgan vakolatlar va ta'sir choralarini qo'llash imkoniyatlarga ega (belgilangan protsessual shakllarga qat'iy rioya qilgan holda hamda protsessual va moddiy qonun

normalarining talablariga muvofiq ular vakolatiga kiritilgan ishlarni hal qilish bo'yicha tegishli vakolatlar).

Ushbu belgilari o'zaro aloqali va o'zaro bog'liqdir, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas.

**O'zbekiston qonunchiligidagi sud hokimiyati amalga oshirilishining quyidagi shakllari** mustahkamlangan:

1. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rish;

2. Sudga qadar ish yuritish ustidan nazorat qilish (qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash haqidagi yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish haqidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi yoxud ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish haqidagi, murdanı eksgumatsiya qilish to'g'risidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash haqidagi, amnostiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomalar va boshqalar);

3. Sud hujjatlarining (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qarolarning) ijro etilishini ta'minlashga, shuningdek, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bo'yicha ijro varaqalari berishga doir ishlarni ko'rish;

4. Qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berish;

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirib, qonun loyihalarini kiritish;

6. Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatidan ta'minlashda, sudyalarни tanlash va lavozimlarga tavsiya etishda ishtiroy etish;

7. Odil sudlovnii amalga oshirish.

Oxirgi ikki yil davomida sud hokimiyatini amalga oshirishda bevosita ta'sir etadigan sud tizimida, sudyalar korpusini shakllantirish tartibi, ularning ijtimoiy moddiy ta'minoti va faoliyatining kafolatlarida qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy nizolarni ko'ruchchi uch pag'onali sudlar tizimi shakllantirilib, ushbu sudlarning sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi belgilandi; O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish uchun O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tuzildi; sudyalarning faoliyatini

kafolatlash va ularning qonuniy hamda adolatli faoliyatini rag‘batlantirish uchun ularni birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o‘n yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda tayinlanashi yoki saylanishi belgilandi va boshqalar.

Sud hokimiyatini amalgga oshirishning asosiy shakli sud ishlarini yuritishdir, ya‘ni boshqa so‘zlar bilan aytganda taraflarning teng huquqliligi va ish yuritishning tortishuvi tamoyillariga asoslangan, protsessual normalarga qat‘iy rioya qilgan holda odil sudlovni amalgga oshirishdir.

Odil sudlov fuqarolik ishlari, xo‘jalik nizolari, jinoyat ishlari va ma‘muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni tegishli sudlar tomonidan protsessual qonunlarda belgilangan tartibda sud majlisida ko‘rib chiqib mazmunan hal qilish orqali amalgga oshiriladi.

**Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar (hal qiluv qarori, hukm, ajrim, qaror) barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiyidir hamda O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi shart** (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasi).

Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar nafaqat davlat organlari, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun, balki sudning o‘zi uchun ham majburiyidir, sud qarorlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish faqat apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida tegishli sud instansiylari tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalgga oshirilishi mumkin.

Sud hokimiyatini amalgga oshirish vazifasi tashkil etilgan maxsus organlarning, ya‘ni sudlarning zimmasiga yuklatilgan. O‘z navbatida, sudlar yagona tizimini tashkil qiladilar. O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni belgilaydi. O‘zbekistonda sud hokimiyati faqat sudlarga, ya‘ni ularning vakillari bo‘lgan sudyalarga va odil sudlovni amalgga oshirish jarayoniga qonunda belgilangan tartibda jalb qilinadigan xalq vakillariga, ya‘ni xalq maslahatchilariga taqdim etiladi. Sud hokimiyat vakolatlari boshqa organlar yoki shaxslar tomonidan o‘zlashtirilishi qonun tomonidan man etiladi. Mukammal sud tizimi nafaqat ayrim sudlar vakolatlarining belgilanishiga imkon beradi, balki sud orqali himoyalanish erkinligi

prinsipining amalga oshirilishini va odil sudlov samaradorligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish va sud hokimiysi mustaqilligini ta'minlash amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi paytidan boshlangan sud-huquq islohotining birinchi navbatdagi vazifasi sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sud tizimining huquqiy asosini belgilaydi. Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma'muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma'muriy sudlaridan iborat.

Shunday qilib, **O'zbekistonda tashkil etilgan va o'z faoliyatini amalga oshiradigan sud tizimi quyidagi ikki kichik tizimni o'z ichiga qamrab oladi:**

**birinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;

**ikkinchidan**, jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarni ko'rvunchi quyidagi sud tuzilmalarini qamrab olgan sud tizimi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- 2) harbiy sudlar;
- 3) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
- 7) fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari;
- 8) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari;
- 9) tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari;

10) tuman (shahar) ma'muriy sndlari.

Konstitutsiyaviy sud tashkil etilishi va faoliyati tartibi “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi Qonunida belgilangan.

**O'zbekiston Respublikasida favqulodda sndlар tuzish Konstitutsiya va “Sndlар to'g'risida”gi Qonuni bilan taqiqlanadi.** Qonunga asosan odil sudlovning samaradorligini va tezkorligini, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sndlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish, sud hokimiyat mustaqilligini ta'minlash maqsadida umumiy yurisdiksiya sndlaring ixtisoslashuvi amalga oshirildi.

## **2-§. Odil sudlov va uning konstitutsiyaviy prinsiplari**

**Sud hokimiyatining eng asosiy vazifasi – odil sudlovni amalga oshirishdir.** “Sndlар to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Bu odil sudlov sud hokimiyatining mutlaq vakolati ekanligini anglatadi.

**Odil sudlov** – bu qonun va u bilan belgilangan tartib-tamoyilga qat'iy riosa qilgan holda sndlар tomonidan jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha huquqni muhofaza qilish faoliyatining turidir.

**Odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplari** – bu sud ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlarini, xarakterini, mazmun-mohiyatini, tashkil etilishi tartibini belgilovchi Konstitutsiyada mustahkamlangan huquqiy qoidalardir.

Quyida odil sudlovning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

**1. Qonuniylik prinsipi.** O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat shakllanishi sharoitida qonuniylik va inson huquqlariga qat'iy riosa etish vazifasi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek: “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”. Sud davlat organi bo‘lib, uning faoliyatiga ham qonuniylikka rioya etish to‘g‘risidagi Konstitutsiya ko‘rsatmalari tabbiq etiladi.

Bu qoidaga ayniqsa sud hokimiyatining odil sudlov bo‘yicha vakolatini amalga oshirishda qat‘iy rioya etish lozim. Masalan, jinoyatni ochish, aybdorni fosh etish, unga adolatli jazo tayinlash va aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligini va hukm qilinmasligini ta‘minlash orqali jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish vazifalari qonunga qat‘iy rioya qilgan holdagina bajarilishi mumkin.

Odil sudlov sud ishlarini yuritish doirasida amalga oshiriladi. Odil sudlov maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy munosabatlar protsessual qonunlar bilan aniq tartibga solinishi lozim, shu tufayli fuqarolik, ma‘muriy, jinoyat va iqtiodiy sud ishlarini yuritish ushbu protsessual qonunlariga asoslanadi. Qonuniylik to‘g‘risidagi normalar JPKning 11-moddasida; FPKning 4- va 7-moddalarida; IPKning 7-, 8- va 13-moddalarida; Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 2- va 3-moddalarida, shuningdek, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 9-, 15 – moddalarida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur prinsip ishdagi barcha holatlar to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqilishini, har bir ish qonunga asosan ko‘rib chiqilishi va hal qilinishini, sud ishlarini yuritish barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini, sud ishlarini yuritishda barcha ishtirokchilarning, jumladan fuqarolarning qonunlarga rioya qilishlarini va ularning talablarini bajarishlari shartligini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi barcha qonunlarning talablariga, shu jumladan, protsessual faoliyatining prinsiplarini belgilovchi normalarga rioya etish bo‘yicha protsessual faoliyatining har bir ishtirokchisi zimmasiga yuklatilgan majburiyat qonuniylik prinsipi mazmunini tashkil qiladi.

Qonunda yo‘l qo‘yiladigan barcha protsessual harakatlar o‘tkazilishi va protsessual qarorlar qabul qilinishi protsessual kodekslari bilan aniq tartibga solingenan. Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida qonuniylik protsessual qonunchilikda belgilangan kafolatlar tizimi orqali ta‘minlanadi.

Qonuniylik protsessual huquqning barcha prinsip va normalarida o‘z ifodasini topgan hamda sud ishlarini yuritishning barcha tomonlarini

ta riflaydigan universal, hamma sohani qamrab oladigan universal prinsip hisoblanadi.

**2.Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y-sunishi.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 112-moddasiga muvofiq sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'y sunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsip bo'lib, demokratik huquqiy davlat barpo etilishini ta'minlash uchun zarur shart sifatida xizmat qiluvchi sudyalarning erkinligi va mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlab qo'ygan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunida, FPKda (7-modda), JPKda (14-modda) va IPKda (8-modda), Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda (10-modda) o'z rivojini topgan.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasida to'laqonli sud hokimiyati o'z faoliyatini amalga oshirishining asosiy shartlaridan va kafolatlaridan biri bo'lib, ko'rib chiqilayotgan prinsipning asosiy mazmunini tashkil etadi.

**O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuning 67-moddasiga muvofiq, sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:**

- ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish;
- ularning daxlsizligi;
- odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy taomil;
- qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi;
- sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik;
- sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.

Bundan tashqari, sudyalar mustaqilligining kafolatlari har bir tarmoq qonunchiligidagi nazarda tutilgan. Masalan, **jinoyat ishlarini yuritishda sudning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:**

- *Uning faoliyatida sudlov bilan boshqa birorta protsessual vazifalar aralashirilishning taqiqlanishi.* Sudya ko‘rayotgan jinoyat ishi bo‘yicha tergovchi, surishtiruvchi, prokuror bo‘lishi mumkin emas, bu ish bo‘yicha suda, odil sudlovni amalga oshirish vazifadan tashqari, boshqa birorta protsessual vazifilarni amalga oshirishga haqli emas, aks holda u rad qilinadi.

- *Sudyalarini rad qilish va sudyalar o‘zini o‘zi rad etish huquqi.* Ushbu institut orqali xolisligiga shubha bo‘lgan sudyalar protsesdan bartaraf qilinadi.

- *Sudga birorta begona shaxslar fikrlarini zo‘rlab o‘tkazilishining taqiqlanishi.* Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalar odil sudlovni amalga oshirishda hech kimga hisobdor emas. Sudya ko‘rilgan yoki ish yuritishidagi ishlar mazmuni bo‘yicha biron-bir tushuntirishlar berishga, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, biron-bir shaxslarga tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishga majbur emas. Mazkur taqiq ham ayblov, ham himoya taraflariga, ham protsess ishtirokchilariga, ham protsesda ishtirok etmagan shaxslarga tatbiq etiladi.

- *Jinoyat protsessida dalillarga baho berish jarayonida formal mezonlardan foydaianishning taqiqlanishi.* Sudya uchun hech qanday dalil oldindan belgilab qo‘yilgan kuchga ega emas va har bir dalilga suda faqat ichki ishonchi bilan baho beradi. Shunday qilib, sudyaning mustaqilligini ta‘minlash uchun sudyaning qonunga bo‘ysunishi ham o‘z chegaralariga ega, ya‘ni qonun jinoyat protsessida dalillarning formal tizimini o‘rnatmasligi kerak.

- *Sudda ish ko‘rinishining oshkoraliqi.* Oshkoraliq o‘zidan-o‘zi sudni mustaqil qilmaydi, lekin sudyalar g‘arazligi va bexolisligi holatlariga jamoatchilik e‘tiborini qaratib, ularni cheklaydi.

- *Sudyalarning xizmat daxlsizligi.* Sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga tatbiq etiladi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Sudya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyni olish, telefondag'i so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek, uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoki olishga faqat Qoraqalpog'ston Respublikasi prokurorining, viloyat, Toshkent shahar prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining ruxsati yoki sudning qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Tumanlararo, tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasiga nisbatan jinoyat ishi yuqori turuvchi sud sudloviga, boshqa sudlarning sudyalariga nisbatan esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir.

**Mustaqillik prinsipi sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga ham tatbiq etiladi.** Xalq maslahatchilarining mustaqilligi odil sudlovni amalga oshirishning qonunda nazarda tutilgan taomili, odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga biron-bir tarzda aralashish uchun aybdor shaxs qonunga muvosiq, javobgarlikka tortilishi, shuningdek, xalq maslahatchisining daxlsizligi orqali ta'minlanadi.

**Sud odil sudloving ifodasi, uning beg'araz va xolis xizmatchisidir.** Sudning faoliyati mustaqillik, faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va unga asosan qabul qilingan qonunlarga bo'y sunish, oshkorlik va taraflarning tortishuvi, aybsizlik prezumpsiysi va sud ishlarni yuritishning boshqa demokratik prinsiplariga asoslanadi. Faqat bu shartlarga rioxalari qilgan holda sud hokimiyati o'zini adolatlil, insonparvar, haqiqatan mustaqil, qonun ustuvorligini hamda huquq va manfaatlarni ta'minlaydigan hokimiyat sifatida namoyon qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi sud tizimining zamonaviy tuzilmasi bevosita sud tizimining doirasida sudyalarning mustaqilligini ta'minlashga imkon yaratadi.** Yuqori turuvchi sudlar quyisi sudlarning faoliyatini boshqarishga, ular tomonidan sud ishlarni ko'rish jarayoniga aralashishga haqli emas, sud ishini ko'rish paytida har bir sudya to'liq darajada erkin va mustaqil bo'ladi. Yuqori turuvchi sud instansiyalari, apellyatsiya, cassatsiya yoki nazorat tartibida ishlarni ko'rib chiqib, quyisi sudlarining faoliyati ustidan nazoratni faqat protsessual jihatdan amalga oshiradi.

Sudyalarning mustaqilligi nafaqat ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, ularning daxlsizligi, qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi (O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 67-moddasi, JPKning 456-moddasi) va boshqa protsessual kafolatlari orqali, balki umuman jamiyatimizning ijtimoiy va davlat tuzilishi orqali ta'minlanadi.

**3. Odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsianing 18-moddasi birinchi qismida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilangan bo'lsa, 46-moddada "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsianing 18-, 46-moddalari, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi, FPKning 6-moddasi, IPKning 7-moddasi, JPKning 16-moddasi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 9-moddasi odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipining huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi. Mazkur prinsip Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasiga ham asoslanadi. Xalqaro huquqning ushbu normasiga binoan, barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida teng bo'lganligi ko'rib chiqilayotgan prinsipning mazmunini tashkil etadi. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdirlar.

**Qonun va sud oldidagi tenglik prinsipi sud ishlarini yuritishning barcha turlarida hamda ijtimoiy va davlat hayotining barcha sohalarida kuchga ega.** Mazkur prinsipning mazmunini quyidagicha belgilash mumkin: sudga murojaat qilgan va protsesda ishtirok etayotgan shaxsga ayrim imtiyozlar taqdim etish yoki uni kamsitish uchun uning mulkiy va mansab mavqeい, jinsi, irqi va millati, ta'limi, tili, dinga nisbatan munosabati, turar joyi, e'tiqodi, jamoat birlashmalarda a'zo bo'lishi yoki birorta boshqa holatlar asos bo'lmaydi va protsesning yuritishiga va yakuniga hech qanday ta'sir etmaydi. Ushbu talablar odil sudlovni amalga oshirishning barcha shakllariga tatbiq etiladi, chunki sud ishlarini

yuritishning birorta sohasida qonun qoidalari fuqaroning huquqiy maqomini yuqorida ko'rsatilgan belgilar bilan bog'lamaydi.

**Fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi – bir-biri bilan aloqador bo'lgan tushbunchalar, biroq ularning har biri alohida mazmunga ega.**

**Fuqarolarning qonun oldidagi tengligi** fuqaroning irqi va millati, ijtimoiy, mulkiy va mansab mavqeい yoxud uning dini asosida ayrim imtiyozlarni yoki cheklovlarni o'rnatmaydigan yagona moddiy va protsessual qonunlar mavjudligini anglatadi.

**Fuqarolarning sud oldidagi tengligi** sud ishlarining, sudlanuvchi va jabrlanuvchi, da'vegar va javobgar, prosesning boshqa ishtirokchilari irqi, millati va dini, ijtimoiy, mansab va mulkiy mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga nisbatan va barcha sudlar tomonidan bir xil protsessual tartibida ko'rib chiqilishini anglatadi. Shuningdek, mazkur qoida yuqorida ko'rsatilgan belgilarga qarab o'z faoliyatini amalga oshiradigan tabaqa, irqiy yoki boshqa maxsus sudlar davlatda tashkil etilishini taqilaydi.

Amaldagi qonunlarga rioya qilish hamma uchun majburiy bo'lishi, shuningdek, qonunlar buzilganda barcha shaxslar uchun teng jaborgarlik belgilanishi fuqarolar qonun va sud oldidagi tengligining ifodasidir. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxslar, egallab turgan lavozimi, shug'ullanayotgan faoliyati va boshqa holatlardan qat'i nazar, jinoi javobgarlikka tortiladi va ularga nisbatan bir xil jinoyat qonuni amal qiladi. Biroq shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga ko'ra, ayrim kasb va kasb egalari yoki muayyan maqomga ega shaxslarning javobgarligi masalasida alohida imtiyozlar nazarda tutilgan. Masalan, "Sudlar to'g'risida"gi qonunda sudyalarining (70-modda), "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda prokuror va tergovchilarning (37-modda), "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi qonunda Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining (37-modda), 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasida Diplomat agentning (31-modda), 1963-yil Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasida konsullik mansabdor shaxslarining (41-modda) va boshqa huquqiy hujjalarda shunga o'xshash kasb egalarini javobgarlikka tortishda, ularga nisbatan boshqa ta'sir choralarini qo'llashda alohida o'ziga xos tartib taomillar belgilangan.

Sud ishlarini yuritishning mazkur differensiatsiyalishi fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipidan ijobiy istisno

hisoblanadi, chunki ushbu differensiatsiyalash ob'ektiv sabablarga asosan yuzaga kelgan va to'liq asoslantirilgan. Har bir alohida tartibning kelib chiqish zarurati imtiyoz va daxlsizlik egalarining normal faoliyat yuritishini ta'minlash kafolati yoki davlatlar o'rtaida munosabatlarning buzilish holatlarining oldini olish va boshqa shu kabi xolis maqsadlarni ko'zlagan bo'ladi.

**4. Barcha sndlarda ishlarning oshkora ko'riliishi.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida va "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida hamma sndlarda ishlar ochiq ko'riliishi, ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yilishi belgilangan.

Sud ishlarning oshkora ya'ni ishdan bevosita manfaatdor bo'limgan jamoatchilik uchun ochiq tarzda amalga oshirilishi sud prosessida biror ishtirokchi huquq yoki qonuniy manfaatining yashirin tarzda buzilishining oldini olish, sud jarayoni ustidan jamoatchilik kuzatuvini ta'minlash uchun joriy qilingan qoidadir.

Huquq ilmida ishi ko'rileyotgan shaxsning ishini sudda ochiq yoki yopiq tarzda yuritilishi eng avvalo, ushbu shaxsning subektiv huquqidir. Xalqaro huquqiy hujjatlarda **sudda ishning oshkora ko'riliishi bo'lgan huquq har bir insonning huquqi ekanligi e'tirof etilgan**. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro huquqning boshqa hujjatlarida aynan ochiq sudovga bo'lgan huquq bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi turli xil ishlarni yuritish tartibini belgilovchi protsessul huquq normalarida ko'rildigan ishlarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, ish yuritishning oshkoraliqi belgilangan.

JPK 19-moddasi mazmuniga ko'ra, davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'rileyotgan hollar yopiq sud majlisida ko'riliishi shart. O'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlar, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kansitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida hamda jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek, ular oila a'zolarining yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etilgan hollarda boshqa ishlar ish holatidan kelib chiqib, yopiq tarzda yuritilishi mumkin.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 13-moddasida ham ma'muriy sud majlisida davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda, ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yilishi belgilangan.

IPKning 11-moddasiga ko'ra, iqtisodiy ishda davlat sirini, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo'lgan taqdirda ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo'l qo'yiladi

FPK 12-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishida davlat siriga, farzandlikka olish siriga taalluqli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishning muhokamasi yopiq sud majlisida o'tkaziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishining oldini olish, yozishmalar sirini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash maqsadida yopiq sud muhokamasi o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Ishlarning yopiq tarzda yuritilishidan ko'zlangan yana bir maqsad, ishi ko'rileyotgan shaxsning ishlarni yopiq tarzda yuritilishi xohlash-xohlamasligidan qat'i nazar sudda keltirilgan ma'lumotlarning oshkor etilishidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarning oldini olish hisoblanadi. Nafaqat yuqorida ko'rilegan normalarda, boshqa huquq normalarida ham ayrim masalalarning yopiq tarzda ko'riliishi qayd etilgan. Masalan, JPKning tegishli normalariga ko'ra, ishni sudga qadar yuritish bosqichda qamoq, o'y qamog'i, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi, murdani eksgumatsiya qilish haqidagi, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomalar yopiq sud majlislarida ko'riliadi. Yoki bo'lmasa, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqburzaliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 30-moddasida voyaga etmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma sudda yopiq tarzda muhokama qilinishi belgilangan.

Sudda ishlarning yopiq yoki ochiq tarzda yuritilishining asosiy farqlari shundan iboratki, ishlar yopiq sud maslislarida ko'rileganida protsess ishtirokchilaridan tashqari boshqa shaxslarning, aytaylik, OAV vakillari, kuzatuvchi jamoatchilik vakillari, ilmiy tadqiqot yoki o'quv, o'rganuv faoliyati bilan shug'ullanadiganlar ishtirok etmaydilar. Yopiq tarzda yuriitlayotgan sud jarayonlari video konferens aloqa vositalarini olib borilmaydi. Davlat sirlariga, shuningdek, harbiy sirlarga taalluqli ma'lumotlar ko'rib chiqiladigan sud ishlari ishni ko'rvuchi sudyadan

ushbu ma'lumot bilan tanishi huquqining mavjudligi va maxfiylik tartibiga rioya qilish talab qilinadi. Dalat sirlariga, shuningdek, harbiy sirlarga ta'luqli ma'lumotlar ko'rib chiqiladigan jinoyat ishlarida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va ularning himoyachilaridan tashqari, ishtirok etuvchi barcha fuqarolardan (jabrlanuvchi, guvoh, tarjimon, ekspert, mutaxasis, xolis va h.k.) ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida majburiyat yuklatilgani haqida tilxat olinadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari jinoyat protsessi ishtirokchilarining roziligi bilan yoki shaxsini ko'rsatmagan tarzda sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi mumkin, bundan yopiq sud majlislarida ko'rildigan ishlar bo'yicha sud qarorlari mustasno.

Sudlov faoliyatida oshkorralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo'lajak protsesslar to'g'risida xabardor qilishi, shuningdek, protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida hamda ta'lim muassasalarida o'tkazishi mumkin.

Oxirgi paytlarda davlat organlari va mansabdor shaxslar qatori sndlarning faoliyatida shaffoflikka erishish va ularning xalq bilan muloqotini rivojlantirishga e'tibor qilinmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida Sudlar faoliyatiga oid ma'lumot bilan fuqarolarni ta'minlashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifsi qo'yilgan edi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 23-iyuldagи O'RQ-486-sonli "Ba'zi davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan quyi sud raislari zimmasiga bir oyda kamida bir marta joylarda sudyalarning aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish, shuningdek, jamoatchilikni sudning faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib borish vazifasi yuklatildi.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'riliishi prinsipining siyosiy va amaliy ahamiyati juda katta. Sudlarda ishlarning oshkora ko'riliishi fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish va qonunbuzarflklarga toqat qilmaslik ruhida tarbiyalash vazifasini ta'sirchan va kengroq bajarishga hamda sud organlarining faoliyati ustidan xalqning doimiy nazoratini o'rnatishga imkon yaratadi.

**5. Sud ishlari yuritiladigan til.** Konstitutsiyaning 115-moddasiga va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasiga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”.

Ko‘rib chiqilayotgan prinsip hayotning barcha sohalarida ta‘minlanadigan fuqarolar millatidan qat‘i nazar teng huquqliligi va insonlarning so‘zlashadigan tilida fikrlarini bildirishiga imkoniyat yaratilishi davlat kafolatlaridan biridir. Uning asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida aks ettirilgan. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Mazkur prinsip JPKning 20-moddasida, FPKning 11-moddasida va IPKning 10-moddasida va Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 12-moddasida o‘z rivojini topgan. Ushbu prosessual qonun hujjalarda sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib borilishini belgilanganligi, tarjimon xizmatidan foydalanish va shaxs o‘zi xohlagan tilda ko‘rsatuvlar bildirish huquqiga ega eganligini e‘tirof etish bilan birga ushbu prinsipda nazarda tutilgan qoidalarni amalga oshirish mexanizmini ko‘rsatib ham bergen. Xususan, tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi:

- 1) protsesning muayyan ishtirokchisi ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa;
- 2) biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo‘lsa;
- 3) protsesning muayyan ishtirokchisi kar yoki soqov bo‘lsa.

Protsess ishtirokchisining ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Sud hujjalari (hukm, ajrim, qaror, hal qiluv qarori va h.k.) manfaatdor ishtirokchilarning talabi bilan ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilgan holda taqdim qilinadi. Jinoyat ishlarini yuritishda sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning (ya‘ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, amnistiya akti qo‘llanayotgan shaxsning) ishi bo‘yicha himoyasining ishtirok etishi shart qilib

belgilangan (JPK 51-modda). Sababi, tilga bo‘lgan huquqning buzilishini og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham himoyachi shunday salbiy holatning oldini olish uchun ishtirok etadi. JPK 487-moddasiga ko‘ra, sudlanuvchining ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi buzilgan bo‘lsa Jinoyat-protsessual qonuni normalarining jiddiy buzilishi deb topilib, hukmning muqarrar bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilayotgan prinsipning amalga oshirilishi ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan protsessda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning huquqlarini va milliy manfaatlarini kafolatlaydi. Ushbu huquqlar mazmuni tushuntirib berilishi va ularni amalga oshirish imkoniyati ta‘minlanishi lozim. Xususan, JPKning 20-moddasiga muvofiq, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo‘lgan tergov va sud hujjalari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi jinoyatga oid sud ishlarini yuritish tartibini fuqarolar uchun ochiq va tushunarli qiladi, protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning, ularning millatidan qat‘i nazar, qonun va sud oldidagi tengligini kafolatlaydi, ish holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolis o‘rganish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, oshkoraliq va prosesning boshqa prinsiplari amalga oshirilishini ta‘minlaydi, manfaatdor shaxslarga o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonun bilan taqdim etilgan vositalardan foydalanishda yordam beradi.

**6. Sud himoyasida bo‘lish huquqini ta‘minlash.** Mazkur prinsip halqaro huquq normalaridan kelib chiqqan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida har bir insonning unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga egaligi mustahkamlangan. Bu huquq esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida “Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabдор shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Dunyo tarixida sndlarning tashkil etilishidan nizolarni hal qilish hamda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash ko‘zlangan. Odatda, sudlar davlat organi hisoblangan. Hakamlik sndlari, arbitrajlar, mediatorlar ishtirokidagi nizolar hal qilish institutlari sndlarning keyingi rivojlanish davrida shakllangan. Deyarli butun dunyo amaliyoti xususan O‘zbekistonda har qanday shaxs, fuqarolik mansubligidan va boshqa

xususiyatlaridan qat'i nazar, shuningdek, har qanday yuridik shaxs, mulkchiligidan qat'iy nazar davlat sudlariga murojaat qilishlari mumkin. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdar shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek, hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir.

Hozirda yurtimizda sud-huquq sohasida islohotlarda ham aynan sudlarning inson huquqlarini himoya qilish vazifasiga alohida e'tibor berilmoqda. 2017-yil 13-iyun kuni bo'lib o'tgan Sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida asosiy maqsadimiz, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo'lgan ishonchini qat'iy mustahkamlash, sudni tom ma'noda "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdan iboratdir<sup>257</sup>. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, barcha sudning himoyasida bo'lishi mumkin ekan.

Sudga shikoyat qilishda shaxs unga nisbatan sodir etiladigan har qanday tajovuzdan himoyalanish maqsadida yoki huquqlarni buzgan deb hisoblagan har qanday vaziyatda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Sudga shikoyat qilishda boshqa birovning xulosasisiz, tushuntirishisiz yoki ko'rsatmasisiz, shaxsning o'z huquqlarini buzilganligi yoki unga tajovuz qilinganligi xususidagi asosli fikri kifoya.

O'zbekiston Respublikasida davlat organlari faoliyati to'g'ri tashkil qilish va fuqarolarning huquqlarini davlat mansabdar shaxslari tomonidan buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida har bir fuqaroning davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki mansabdar shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari

---

<sup>257</sup><http://prezident.uz/uz/lists/view/645>; <http://www.uza.uz/oz/politics/onun-va-adolat-ustuvorligini-taminlash-barcha-ezgu-ma-sadlar-13-06-2017> (2018 йил 18 сентябрь холатида)

(qarorlari) bilan o‘z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga egaligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida ishlar sudsida o‘rtasida taqsimlangan. (Keyingi paragrafimizda bu haqida to‘laroq ma‘lumot beramiz) Shundan kelib chiqib, tegishli buzilgan huquqni tiklash vakolatiga ega sudga murojaat qilishini lozim bo‘ladi.

Ma‘muriy va iqtisodiy sudsida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudsida ularga tegishli masala bo‘yicha (nizo yuzasidan) murojaat qilish mumkinligi tegishli, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 4-moddasida, IPKning 3-moddasida va FPKning 3-moddasida nazarda tutilgan. Faqat umumiylab, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibga rioya qilish lozim.

Faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudsida murojaat qilish bir oz farqli xususiyatlarga ega. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha ayblilik masalasi sud tomonidan hal qilinishiga yordam berish maqsadida sudga qadar ish yuritish bosqichi joriy qilingan bo‘lib, ushbu bosqichda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv va tergov organlari va prokuratorlar faoliyat yuritadilar. Odatta ushbu organlar ish yurituvidagi holatlar yuzasidan mazkur organlar bo‘ysinadigan yuqori turuvchi organlarga yoxud prokuratorga shikoyat qilinishi va e’tirozlar bildirilishi ularning ko‘rib chiqilishiga asos bo‘ladi. Boshqacha tarzda aytadigan bo‘lsak, milliy qonun hujjatlarimizga ko‘ra, jinoiy nizolar bo‘yicha fuqarolarning to‘g‘ridan to‘g‘ri sudga murojaati ish yuritishga asos bo‘lmaydi, surishtiruv va tergov organlaridan sudga oshirilgan jinoyat ishlari bo‘yicha sud himoyasida bo‘lish huquqi ta‘minlanadi.

Oxirgi vaqtarda jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish bosqichlarida ham sudning himoyasida bo‘lish huquqini bosqichma-bosqich kiritish jarayoni kuzatilmoqda. Bu dastavval, huquq fanida mashhur bo‘lgan “habeas corpus” qoidasini joriy qilish va rivojlantirish orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Agar bu holatning qisqasa tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsa, O‘zbekistonda 2008-yil 1-yanvardan boshlab-qamoqqa olishga rozilik berish, 2008-yil 23-dekabrdan boshlab amnostiya aktiga asosan javobgarlikdan ozod qilish, 2012-yil 19-sentabrdan boshlab, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirishga va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishga rozilik berish, 2014-yil 5-sentabrdan boshlab, uy qamog‘ini qo‘llashga rozilik berish, 2017-yil 30-martdan boshlab, murdani eksgumatsiya qilishga va pochta-telegraf

jo‘natnalarini xatlashga rozilik berish amalda sudlarning mutlaq vakolatiga o‘tkazildi.

**7. Aybsizlik prezumpsiysi.** Konstitutsiyaning 26-moddasi birinchi qismida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi”, deb mustahkamlab qoilgan.

**Aybsizlik prezumpsiysi (lotin tildagi “presumption” – “taxmin” so‘zidan kelib chiqqan)** shaxs huquqlari himoyasini ta‘minlab beruvchi, asossiz ayblastish va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining muhim demokratik prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpsiysi prinsipi inson huquqlari sohasida asosiy xalqaro hujjalarning qoidalariga asoslanadi: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (11-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (6-modda 2-qism). Aybsizlik prezumpsiyasining asosida umumiyligini keng e’tirof etilgan axloq normasi yotadi, unga muvofiq, har bir inson aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi lozim.

“Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasiga va JPKning 23-moddasining birinchi qismiga binoan, guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Demak, shaxs aybdor deb hisoblananishi ayblov hukmining kuchga kirishidan keyin yuz berar ekan, u kuchga kirmsidan turib, shaxsga jinoyati uchun hech qanday javobgarlik chorasi qo‘llab bo‘lmaydi: shaxs jazoni ijro etish muassasasiga jo‘natilmaydi, zarar o‘rnini qoplash uchun undiruvni uning mulkiga qaratib bo‘lmaydi va sudning hukmi boshqalar uchun yuridik kuchga kirmsandan turadi.

Jinoyat-protsessual kodeksidagi “aybsizlik prezumpsiysi” prinsipining elementi sifatida kiritilgan qoida **guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligidir**.

JKP 86-moddasiga ko‘ra, isbot qilishni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud amalga oshiradilar, isbot qilishda guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, jamoat ayblovchisi, jamoat

himoyachisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviylar da‘vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari ishtirok etish huquqiga egadirlar. Shuning uchun ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi har qanday holatlar bo‘yicha ko‘rsatuvtalar berish yoxud ko‘rsatuvtalar berishdan bosh tortish huquqiga egadirlar. Bu albatta shaxsning o‘ziga qarshi gapirmaslik va uning ko‘rsatuvtalarini soxtalashtirish hamda ko‘rsatuvtalaridan o‘ziga qarshi ishlatishdan kafolatlovchi qoidadir.

“Aybsizlik prezumpsiysi” prinsipining tarkibidagi qoidalardan keyingisi aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi hamda qonun qo‘llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi keraklidir.

Dalillar nazariyasida “isbotlanmagan ayb isbotlangan aybsizlikka tengdir” degan qoida mavjud. Demakki, isbot qilishdagi shubhalar bormi, qonunni qo‘llashdagi tushunmovchilar bormi, ularni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini oqlovchi yoki uning aybini yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi.

Aybsizlik prezumpsiysi prinsipiiga amal qilish shaxsning asossiz hukm qilinishiga yo‘l qo‘ymaydigan kafolat sifatida xizmat qiladi.

Aybsizlik prezumpsiysi sudya, tergovchi yoki prokurorning shaxsiy fikrini bildirmaydi, aksincha, xolis huquqiy holatni anglatadi. Aybsizlik prezumpsiysi shaxsning jinoyat sodir etishda aybi yetarli, ishonchli va xolis dalillar asosida qonunda belgilangan tartibda aniqlanishini talab qiladi.

Jinoyat ishlarida aybsizlik prezumpsiysi amal qilganligi uchun ham ayblov hukmining taxminlarga asosan chiqarilishi qonun bilan taqiqlanadi; sudlanuvchi aybli ekanligi sud muhokamasi davomida o‘rganilgan ishonchli dalillarning yetarli majmuisi bilan isbot qilingan taqdirdagina ayblov hukmi chiqariladi.

**Aybsizlik prezumpsiysi nafaqat asossiz ayblov va hukm qilishga yo‘l qo‘ymaydigan kafolatdir.** Ayblovning shubhasiz isbotlanishi shartligi hamda bartaraf etib bo‘lmaydigan shubhalarni ayblanuvchi foydasiga hal qilinishi zarurligi to‘g‘risidagi mazkur prezumpsiyaning talablari davlat organlarini ish holatlarini xolis, beg‘araz va adolatli tarzda aniqlashga yo‘naltiradi va shu orqali sud tomonidan ishning adolatli hal qilinishini ta‘minlaydi. Aybsizlik prezumpsiyasidan salgina ham chetga chiqish odil sudlovda qonuniylikning buzilishiga va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari cheklanilishiga olib keladi.

**8. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta'minlash.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida "Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi" deb mustahkamlangan.

**Himoyalanish huquqi jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda shaxs huquqlarining kafolatlari tizimida markaziy o'rinnegallaydi.** Ushbu huquq nafaqat shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini, balki odil sudlov manfaatlarini amalga oshirishning yuridik sharti sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarda himoyalanish huquqining nafaqat mavjudligini e'lon qiladi, balki mazkur huquq ta'minlanganligiga urg'u beradi. Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda himoyalanish instituti guman qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga taqdim etiladigan va ularga ishda taraf sifatida ishtirok etishga, jinoyat sodir etish yuzasidan ularga qo'yilgan ayblov yoki gumenni rad qilishga, jinoyat sodir etishga aloqador emasligini isbotlashga, javobgarlikni engillashtirish uchun harakat qilishga imkon beruvchi huquqlar kompleksi sifatida xizmat qiladi.

JPKnинг 24-moddasiga muvofiq, guman qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalanish huquqi quyidagi qoidalardan iborat: guman qilinuvchi va ayblanuvchi o'z huquqlarini shaxsan hamda o'z vakolatlaridan to'liq foydalanadigan himoyachi yordamida amalga oshirishlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining mansabdar shaxslari har bir ayblanuvchi o'zining himoyalanishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishi uchun tegishli sharoitlar yaratish bo'yicha majburiyatlarini bajarishlar.

Guman qilinuvchiga (ayblanuvchiga) taqdim etiladigan hamda o'zining nimada ayblanayotganligini bilishga, o'z tushuntirishlarini berishga, unga qo'yilgan ayblovga nisbatan e'tiroz bildirishga, o'z qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish bo'yicha barcha huquqlardan foydalanishga imkon beruvchi protsessual vosita va huquqlar majmuisi jinoyat protsessida himoyalanish huquqi institutining asosini tashkil etadi.

**Himoyalanish huquqi va uni amalga oshirishning kafolatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.** Qonun chiqaruvchi jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdar

shaxslarning zimmasiga ayblovdan qonunda nazarda tutilgan barcha usul va vositalar orqali himoyalanish imkoniyatini ayblanuvchiga yaratib berish majburiyatini yuklaydi.

Himoyalanish huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o‘ziga qo‘yilgan ayblovdan himoyalanish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish majburiyati bilan ta‘minlanadi.

Ayblanuvchining (gumon qilinuvchi va sudlanuvchining) himoyalanish huquqi deganda, unga qo‘yilgan ayblovdan shaxsan yoki himoyachining yordamida himoyalanish imkoniyatini beruvchi protsessual huquqlarning butun majmui, butun kompleksi tushunilishi lozim.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalanish huquqi ularning himoyachi olish huquqini nazarda tutadi.

Himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlarda agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan, qaror yohud ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e‘tiboran to‘rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta‘minlashi shart (JPKning 51-moddasi uchinchi qismi).

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi bo‘yicha himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (JPKning 49-moddasi to‘rtinchı qismi). Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan, yo‘l qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta‘minlashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 17-sonli qarorida mustahkamlab qo‘yilganidek: qiyonoqqa solish, zo‘rlik ishlatalish, qo‘rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo‘lish, shuningdek, qonunga xi洛f boshqa choralar qo‘llash, shu jumladan, **gumon qilinuvchining, ayblanuvchining himoya huquqini buzish** natijasida olingen dalillar ayblov asosiga qo‘yilishi mumkin emas.

### **3-§.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi**

Konstitutsiyaviy sudlar mavjud bo‘lgan dalatlar huquq qoidalariga ko‘ra, konstitutsiyaviy sud sud hokimiysi tizimiga kiradigan va konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradigan sud hisoblanadi. Hokimiylar bo‘linishi prinsipiga asosan konstitutsiyaviy sud sud hokimiyatining qonunchilik va ijro hokimiyatlarini tiyib turish hamda muvozanatini ta‘minlaydi.

Konstitutsiyaviy sud boshqa sudlardan asosan, o‘zining tarkibi, bir pog‘onaliligi, yagona tashkiliy birligi va hal qiladigan masalalari bilan farqlanadi.

Konstitutsiyaviy sndlarning tarixi boshqa sndlarga nisbatan uzoq o‘tmishga borib taqalmaydi. Dastlab konstitutsiyaviy sud o‘tgan asrning 20-yillarida Avstriyada va Chexoslovakiyada tuzilgan bo‘lib, uning yaratilishi konsepsiysi mashhur yurist va nazariyotchi Xans Kelzen tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ikkinci jahon urushidan keyin GFRda, 1958-yilda Fransiyada, 1980-yilda Belgiyada, 1986-yilda Polshada va shu tarzda dunyoning ko‘plab davlatlarida konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish uchun alohida sud Konstitutsiyaviy sndlар tashkil etila boshlandi.

O‘zbekiston tarixida konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus organning tashkil etilishi 1990-yil 24-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining I sessiyasida **Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasining ta‘sis etilishi** bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining tashkil etilishi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Dunyo tajriasidan kelib chiqib, konstitutsiyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organning mavqeini oshirish, uning nomlanishini va maqomini faoliyatiga moslashtirish maqsadida **1993-yil 6-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun** qabul qilindi. Bu o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibini belgilaydigan birinchi maxsus qonun edi. Bundan tashqari, mazkur qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudining huquqiy tushunchasi, faoliyatining asosiy qoidalarini, Konstitutsiyaviy sud sudyalarining maqomini, Konstitutsiyaviy sudining faoliyatini tashkil etish va uning faoliyatiga doir boshqa masalalarni belgilab berdi.

Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti doirasida 1995-yil 30-avgustda "**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida**"gi yangi tahrida Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ilgarigisidan farqli ravishda konstitutsiyaviy sud faoliyatining prinsiplari alohida belgilandi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoraliq va sudyalar huquqlarining tengligi); ilgari Konstitutsiyaviy sudda ko'rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega deputatlar guruhi Oliy majlisning 50 nafar deputatidan iborat bo'lsa, ushbu qonun bilan ularning miqdori Oliy Majlis deputatlari umumiyligi tarkibining kamida to'rtadan bir qismidan iborat bo'lishi belgalandi\*; Konstitutsiyaviy sudda tegishli material olingan paytdan boshlab ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilish muddati olti oydan uch oyga qisqartirildi; Konstitutsiyaviy sudning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaviy sud devoni tuzilishi hamda konstitutsiyaviy sud sudyasining moddiy va ijtimoiy ta'minoti aniq tarzda belgilandi.

---

\*Уша пайтда уч боскичда (1994 йил 25 декабрда, 1995 йил 8 ва 22 январда) булиб утган сайлов якунларига биноан 245 нафар депутатдан iborat таркибдаги кўппартиявийлик асосида парламент шакллантирилган эди.

Oxirgi yillarda O'zbekiston davlat boshqaruvi va huquqida yuz berayotgan o'zgarishlar xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirishni taqozo qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 31-maydag'i O'RQ-431-sonli «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni konstitutsiyaviy sud maqomini, uning jamiyat hayotidagi o'rning muhimligini ko'rsatib berdi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tartibga soluvchi uchinchi maxsus qonun hisoblanibgina qolmasdan, ilgari qonunlardan o'zining konstitutsiyaviy qonun degan maqomi bilan farqlanadi.

Mazkur konstitutsiyaviy qonun bilan konstitutsiya sud faoliyatiga oid quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi:

- konstitutsiyaviy sudning vakolatlari kengaytirilib, uni shakllantirish tartibi yanada demokratlashtirildi;
- shuningdek, unda Konstitutsiyaning ustunligi, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi kabi yangi prinsiplar o'z ifodasini topdi;
- Konstitutsiyaviy sud sudyasining sudyalik lavozimida bo'l shiga oid yosh talablar kuchaytirildi, Konstitutsiyaviy sud sudyasining eng yuqori yoshi – etmish yosh qilib belgilandi;
- Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimiga nomzod esa, siyosat va huquq sohasi mutaxassisi bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatlarga va zarur malakaga ega bo'lgan, o'ttiz besh yoshdan kichik bo'l imagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkinligi nazarda tutildi;
- ayni bir shaxs ikki martadan ortiq Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin emasligi belgilandi;
- Konstitutsiyaviy sud avval faqat Prezident farmonining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash vakolatiga ega bo'lgan bo'lsa, endilikda konstitutsiyaviy nazorat ob'ektiga qarorlar va farmoyishlar ham kiritildi.

- O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud avval hujjat kuchga kirganidan keyingi nazoratni amalga oshirib kelayotgan edi. Endilikda konstitutsiyaviy qonunlar, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlar imzolanganiga qadar dastlabki nazoratdan o'tkaziladi.

- Konstitutsiyaviy sudga masala kiritish huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasiga o'zgartirish kiritildi. Endilikda Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ham bunday huquqqa ega bo'ldi;

-Qonunda yuqoridaqilardan tashqari Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari "Sudlar to'g'risida"gi qonundagi umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari bilan birxillashtirildi;

- Konstitutsiyaviy sud devoni, Konstitutsiyaviy sud huzurida tuziladigan ilmiy-maslahat kengashi huquqiy maqomi qonunan mustahkamlandi.

**Konstitutsiyaviy sud doimiy ishlaydigan organ hisoblanadi va besh yil muddatga saylanadi.** "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining 2-moddasiga binoan, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sud hokimiyati organizdir.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tavsiya etgan shaxslar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud rais va uning o'rinnbosarini qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning etti nafar sudyasidan iborat bo'ladi.

Konstitutsiyaviy sud raisi va uning o'rribbosari Konstitutsiyaviy sud majlisida uning sudyalari orasidan saylanadi.

**Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolat muddati – besh yil.**

Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari Konstitutsiyaning ustunligi, mustaqillik, kollegiallik, oshkorallik, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning ustunligi. Konstitutsiyaviy sud o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligini, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga doir konstitutsiyaviy prinsipning va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga da'vat etilgandir.

Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi.

Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi. Konstitutsiyaviy sud hamda uning sudyalari o'z faoliyatida mustaqildir va faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga bo'y sunadi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari hujjat qabul qilar ekan, amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalari, siyosiy moyilligidan va boshqa tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan o'z huquqiy nuqtayi nazarini ifodalaydi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiqlik javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Kollegiallik.** Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko'rib chiqish va hujjat qabul qilish kamida to'rt nafar sudyadan iborat tarkibda kollegial tarzda amalga oshiriladi.

**Oshkorallik.** Konstitutsiyaviy sudning majlislari, qoida tariqasida, ochiq o'tkaziladi.

**Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi.** Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

Taraflar ko'rib chiqilayotgan ish yuzasidan dalillar taqdim etish, iltimosnomalar bayon etish, fikrlar bildirish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish bo'yicha teng huquq va imkoniyatlardan tortishuv asosida foydalanaadi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari boshqa sud hujjatlari va qonun hujjatlari kabi barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy

hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning normativ-huquqiy hujjatlarni, hujjatlar va ularning nuxxalarini taqdim etish to‘g‘risidagi, ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan tushuntirishlar va maslahatlar berish haqidagi talablari ular yuborilgan barcha organlar uchun majburiyidir.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyat yo‘nalishlaridan biri – uning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida **qonunchilik tashabbusi** egaligidir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi unga ega bo‘lgan organ yoki mansabdar shaxs qonun loyihasini rasmiy kiritish huquqini beradi hamda Qonunchilik palatasiga esa, ushbu qonun loyihasini o‘zining yig‘ilishida ko‘rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish majburiyatini yuklaydi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyat tartibi uning Reglamenti bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Reglamenti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan 2015-yil 17-aprelda qabul qilingan, 7 bo‘lim 90 moddadan iborat. Unda Konstitutsiyaviy Sudning asosiy tashqiliy va faoliyatini tashkil etish qoidalari, Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning umumiy masalalari, Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqish uchun masala kiritish, masalani dastlabki o‘rganish va ko‘rib chiqish uchun tayyorlash, ishni Konstitutsiyaviy sud majlisida ko‘rib chiqish, konstitutsiyaviy sudning qarorlari, ayrim turdagи ishlar bo‘yicha ish yuritishning xususiyatlari, konstitutsiyaviy sudning devoni, ilmiy-maslahatlashuv kengashi, Konstitutsiyaviy sudning boshqa tashkilotlar bilan hamkorliginini qamrab olgan boshqa masalalari tartibga solingen.

**Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan bir qator kafolatlar qonunda nazarda tutilgan.** Xususan, Konstitutsiyaviy sudning sudyalarini senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudning sudyalarini siyosiy partiyalarining a‘zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalarini o‘z vakolatlari davrida almashtirmasliklari Qonunda nazarda tutilgan. **Konstitutsiyaviy sud sudyalarini almashtirib bo‘lmasligi prinsipiga asosan** Konstitutsiyaviy sud sudyalarining vakolatlari faqat qonunda belgilangan hollarda Oliy Majlisning Senati qarori bilan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

**Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:**

- u sudyalik qasamyodini buzganida;
- u yozma ariza berganida;
- u sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshiga etganida;
- unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganida;
- suda ogohlantirilganidan yoki uning vakolatlari to‘xtatilganidan keyin ham sudyalik lavozimi bilan bir vaqtida shug‘ullanib bo‘lmaydigan faoliyatni davom ettirganida;
- sog‘lig‘ining holatiga yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra u uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifalarini bajarishga qobiliyatsiz bo‘lganida;
- u O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganida;
- u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganida;
- u vafot etganida yoki sudning qarori bilan vafot etgan deb e‘lon qilinganida.

**Konstitutsiyaviy sud sudyalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasiga muvofiq daxlsizlik huquqidан foydalananadilar.** “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuning 21-moddasiga binoan mazkur sudyalar Konstitutsiyaviy sudning roziligidisiz jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortilishlari, shuningdek, qamoqqa olinishlari mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasiga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy keltirish, ushlab turish, xuddi shuningdek, uning shaxsiy ashyolarini, bagajini, transportini, uy-joyini, xizmat xonasini ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Konstitutsiyaviy sud sudyalarining vakolatlarini to‘xtatish faqat** “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuning 22-moddasida belgilangan hollarda Konstitutsiyaviy sud qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari va joriy faoliyati eng muhim konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri bo‘lgan sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlaridan mustaqilligini o‘zida ifoda etadi. Konstitutsiyaviy sud, boshqa sudlardan farqli ravishda, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning

hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radi va hal qiladi, ishlarni ko‘rishda va xulosa berishda faqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadi.

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi hisoblangan Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasini va “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunining 4-moddasiga binoan:

– **birinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

– **ikkinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

– **uchinchidan**, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

– **to‘rtinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

– **beshinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi;

– **oltinchidan**, konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga

mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi;

– **ettinchidan**, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.

**Konstitutsiyaviy sud mazkur sudda ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarini hal qilish orqali Konstitutsiyaning ustunligini ta‘minlaydi.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari umumiyligi sonining kamida to‘rtadan bir qismidan iborat deputatlar guruhni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a`zolari umumiyligi sonining kamida to‘rtadan bir qismidan iborat senatorlar guruhni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqish uchun masalalar kiritish huquqiga ega. Masala Konstitutsiyaviy sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan ham kiritilishi mumkin.

Muayyan qonuning Konstitutsiyaga zid bo‘lganligi haqida fuqarolar murojaatlарining, shuningdek, Konstitutsiya normalariga sharh berish haqidagi murojaatlarning Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqilishi qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, fuqarolarning murojaatlari ayrim masalaning, mazkur masala Konstitutsiyaviy sudida ko‘rib chiqish uchun ushbu sudning kamida uch sudyasi tashabbusi bilan kiritilgan taqdirda, Konstitutsiyaviy sudida ko‘rib chiqilishiga asos sifatida xizmat qiladi.

Agar olingen materiallar qo‘yilayotgan talablarga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud ular olingen kundan e‘tiboran etti kunlik muddatdan kechiktirmay masalani o‘rganib chiqishga kirishadi.

Konstitutsiyaviy sud tegishli material olingen paytdan boshlab kechi bilan uch oy ichida ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan qaror qabul qiladi.

Konstitutsiyaviy sud majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri, uning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, uning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i

Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va adliya vaziri ishtirok etishi mumkin. Ular ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon etishga haqlidir.

Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaga muvofiqligiga shubha tug'dirgan, ko'rib chiqilayotgan aniq masalalar yuzasidangina hujjat qabul qiladi.

Konstitutsiyaviy sud normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirib, tekshirilgan hujjatga asoslangan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan normativ-huquqiy hujjatlar xususida ham, garchi Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun kiritilgan masalada ular to'g'risida so'z yuritilmagan bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida hujjat qabul qilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sudning sudyasi ovoz berishda betaraf qolishga yoki ishtirok etmaslikka haqli emas.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati, agar majlisda hozir bo'lgan sudyalarning ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Ovozlar teng bo'linib qolgan taqdirda, raislik qiluvching ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjatiga qo'shilmagan Konstitutsiyaviy sud sudyasi o'z fikrini yozma tarzda bayon qilishga va uni Konstitutsiyaviy sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yishga haqlidir.

Fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjatni Konstitutsiyaga zid bo'lgan deb topilishi ushbu hujjatga asoslangan yoxud uning qoidalarini takrorlaydigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning, garchi Konstitutsiyaviy sudning hujjatida ular xususida so'z yuritilmagan bo'lsa-da, bekor qilinishlariga bevosita olib kelishi lozim.

Xalqaro shartnomaning va normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning hujjati qaror deb ataladi. Qarorlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi.

Boshqa hollarda Konstitutsiyaviy sudning hujjati xulosa deb ataladi yoki boshqacha shaklga ega bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, xulosalari va boshqa hujjatlari

ommaviy axborot vositalarida hamda Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

«O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», «Xalq so'zi» va «Narodnoe slovo» gazetalari, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Axborotnomasi», shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

O'tgan yillar mobaynida Konstitutsiyaviy sud tomonidan tadbirkorlarning, bank omonatchilarining, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalar ko'rib chiqilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalangan holda Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlisga ma'muriy, jinoyat, fuqarolik, mehnat, jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar kiritgan.

Konstitutsiyaviy sudga kelib tushadigan ko'p sonli davlat organlarining talab va arizalari, fuqaro va yuridik shaxslarning shikoyatlari bozor iqtisodiyoti, yagona iqtisodiy maydonni tashkil topish jarayonining qiyinchiliklari va qarama-qarshiliklari bilan bog'liq.

**Konstitutsiyaviy sudning devoni.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaviy sudning devoni tuziladi.

«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuning 35-moddasiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini tashkiliy jihatdan, ilmiy-ekspertizaga, axborotma'lumotga oid va boshqacha tarzda ta'minlash Konstitutsiyaviy sud devoni tomonidan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud devoni quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- Konstitutsiyaviy sudda ishlarni yuritishni hamda xizmatga oid kengashlarni va Konstitutsiyaviy sud tomonidan o'tkaziladigan boshqa tadbirlarni tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash;

- sudyalarga sud majlisi va xizmatga oid kengashlarda ishlarni va boshqa masalalarni ko'rib chiqish uchun tayyorlashda ko'maklashish;

- Konstitutsiyaviy sudga yo'llangan murojaatlarni ko'rib chiqilishini tashkiliy ta'minlash, arizachilarning murojaatlari bo'yicha javoblar, xulosalar, tahliliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash;

- Konstitutsiyaviy sudning qonunchilik tashabbusi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qonun loyihalarini va takliflarni tayyorlashda ishtirok etish va buning uchun hujjatlarni tayyorlash;
- Konstitutsiyaviy sud qarorlarining tarqatilishi va matbuotda e‘lon qilinishini ta‘minlash hamda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Axborotnomasi”ni nashrga tayyorlash;
- Konstitutsiyaviy sud qarorlarining tizimli hisobini yuritish va ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;
- Konstitutsiyaviy sud qarorlarining ijrosini ta‘minlash bo‘yicha davlat organlarining faoliyatini o‘rganish va umumlashtirish, ushbu qarorlarning ijrosi bo‘yicha Konstitutsiyaviy sud uchun ma‘lumot tayyorlash;
- qonun hujjatlarining tizimli hisobi va tahlilini olib borish, tahliliy tadqiqotlarni amalga oshirish;
- Konstitutsiyaviy sudning mehnat munosabatlari, kadrlar siyosati va mukofotlash sohasidagi vakolatlarini amalga oshirilishini ta‘minlash, Devon xodimlarining malakasini oshirishni tashkillashtirish;
- hujjatlarni tayyorlash va ular bilan ishlashga ino‘ljallangan zamnaviy axborot texnologiyalari va dasturiy-texnik vositalarni qo‘llagan holda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini hujjatlashtirish tizimini tashkillashtirish, yuritish va takomillashtirish;
- hujjatlar almashinuvi va ish yuritishning o‘rnatilgan tartibiga rioya etilishi yuzasidan uslubiy rahbarlik va nazorat qilish;
- Konstitutsiyaviy sud hujjatlarini arxivlashtirish, Konstitutsiyaviy sud arxiv fondida bo‘lgan hujjatlarning saqlanishi va foydalaniishi hamda ularni qonun bilan belgilangan tartibda davlat arxiviga topshirish uchun tayyorlashni amalga oshirish;
- axborot tizimlarining uzluksiz ravishda ishlashini va yangi axborot texnologiyalarining tafbiq etilishini ta‘minlash;
- Konstitutsiyaviy sudning elektron axborot resurslarini barpo etish, yuritish va takomillashtirishni ta‘minlash;
- Konstitutsiyaviy sudning ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatlarini tashkillashtirish, ommaviy axborot vositalarida Konstitutsiyaviy sud faoliyati to‘g‘risida xolisona ma‘lumotlarning joylashtirilishini ta‘minlash;
- Konstitutsiyaviy sud faoliyatini moliyaviy ta‘minlashni tashkillashtirish;
- Konstitutsiyaviy sudni moddiy-texnik manbalar bilan ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkillashtirish;
- Konstitutsiyaviy sudning xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy

nazorat organlari va xalqaro tashkilotlar, ularning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari bilan o'zaro munosabatlarini tashkillashtirish;

– xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy nazorat organlarni faoliyatini o'rganish va umumlashtirish;

– qonun hujjatlari, Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, Konstitutsiyaviy sud raisining farmoyishlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

Devon faoliyatiga umumiylah rahbarlikni Konstitutsiyaviy sudning raisi, bevosita va joriy rahbarlikni kotibiyat mudiri amalga oshiradi.

Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi O'zR Konstitutsiyaviy sudining 2004-yil 30-yanvardagi 4-ton qarori bilan tasdiqlangangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy-maslahatlashuv kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan maslahat organi hisoblanadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashining faoliyati Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi huquq fani va konstitutsiyaviy nazorat amaliyoti masalalarida, shuningdek, chet el qonun hujjatlari yutuqlaridan mumkin qadar to'liq foydalanishda Konstitutsiyaviy sudga yordam berishga da'vat etilgandir.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi tarkibiga siyosat va huquq sohasidagi malakali mutaxassislar saylanadi. Fan va amaliyot boshqa tarmoqlarining kengashga a'zo bo'limgan mutaxassislari ham Ilmiy-maslahatlashuv kengashi ishiga jalb etilishi mumkin.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisining taqdimiga binoan Konstitutsiyaviy sudning majlisida kengash raisi, rais o'rinosari, ilmiy kotib va kengashning a'zolaridan iborat tarkibda saylanadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari muddatiga saylanadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi majlislarida ko'rib chiqish uchun masalalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisi kiritadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi:

– O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi ko'rib chiqishi uchun kiritiladigan masalalar yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi;

– konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishga tegishli qonun

hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashining majlislari, zaruratga qarab, ijodiy munozara va erkin fikr bildirish vaziyatida o'tkaziladi. Ilmiy-maslahatlashuv kengashining qabul qilingan qarorga qo'shilmagan a'zosi alohida fikr taqdim etishga haqli bo'lib, bu fikr Konstitutsiyaviy sud rahbariyatining e'tiboriga etkaziladi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashining raisi kengash ishini tashkil etadi, majlislar chaqiradi, kengashning tavsiyalarini tayyorlash yuzasidan kengash a'zolariga topshiriqlar beradi, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashining ilmiy kotibi Ilmiy-maslahatlashuv kengashi ishini tashkiliy jihatdan ta'minlaydi, majlislarga materiallar tayyorlaydi, bayonnomalar tuzadi, ish yuritishni olib boradi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi faoliyatini tashkiliy-texnika vositalari bilan ta'minlash Konstitutsiyaviy sud devonining zimmasiga yuklanadi.

Ilmiy-maslahatlashuv kengashi har yili o'z faoliyati to'g'risida Konstitutsiyaviy sud raisiga hisobot berib turadi.

#### **4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Sudlar to'g'risida"gi qonunning 13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apeilyatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi:

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

— sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalgalashiradi;

— sndlarning kadrlari malakasi oshirilishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rais, uning birinchi o'rinnbosari — jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining raisi hamda rais o'rinnbosarlari — fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalaridan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;
- Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati;
- Iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalarini va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, adliya vaziri, sudyalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtiroy etishi mumkin.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi:

— sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi tarkibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taqdimnomalariga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibini, sudlov hay‘atlarining tarkibini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining kotibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining ishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek, sudlov hay‘atlarining faoliyati haqidagi ma‘ruzalarini tinglaydi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sndlari, viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislarining qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlarini bajarish to‘g‘risidagi ma‘ruzalarini tinglaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot organining tahrir hay‘ati tarkibini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosati reglamentini tasdiqlaydi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi muhokamasiga kiritilgan masalalar tegishliligi ularning ma‘ruzalarini yoki ular vakolat bergen shaxslarning ma‘ruzalarini bo‘yicha eshitiladi. Ushbu masalalarning muhokamasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlisiga taklif qilingan shaxslar ishtirot etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori majlisda ishtirot etayotgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi va qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

Qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sndlari, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo‘llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar

uchun majburiydir.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati* eng yuqori sudlov instansiysi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan belgilanadigan miqdorda tuziladi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi*, uning birinchi o'rinnbosari va o'rinnbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibiga lavozim bo'yicha kiradilar.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining majlislari* har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati*:

- ishlarni nazorat tartibida ko'radi;
- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari va apparatining ishini tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari*:

- ishlarni birinchi instansiyada, apellyatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi;
- sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi;
- qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;
- sud statistikasini tahlil qiladi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi*:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;
- sudlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;
- sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;
- sudlar tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda to'xtatib turadi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatining umumiy masalalar bo‘yicha qabul qilgan qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ishini tashkil etadi;
  - isjni bir suddan boshqa sudga olib berish masalasini hal qiladi;
  - Plenum va Rayosat muhokamasiga qonunga binoan ularning vakolati-ga taalluqli bo‘lgan masalalarni kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari qonun hujjatlariga muvofiq emasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;
  - qonunlarni sharhlab berishni talab etuvchi masalalar yuzasidan va normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitut-siyasiga muvofiq emasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-viy sudiga taqdimnomalar kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining tarkibi to‘g‘risida, sudlov hay’atlari hamda Sudyalarning oliv malaka hay’ati tarkiblari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi sndlari sudyalarining intizomiy javobgarligi haqida ish qo‘zg‘atadi;
  - rais o‘rnbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi bilan kelishilgan holda sndlarning tuzilmalariga boshqaruva xodimlarining umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining shtat jadvalini tasdiqlaydi;
  - buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;
  - fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishlarini tashkil etadi;
  - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o‘rnbosari, rais o‘rnbosarlari* — sudlov hay’atlarining raislari.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatidan tashqari barcha in-stansiya sndlarning hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest kiritadi;
  - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tegishli sudlov hay’atlarining tashkiliy ishiga rahbarlik qiladi;
  - sudlov hay’atlarining faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga ma‘ruzalarni taqdim etadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay’atlarining majlislarida raislik qilishi mumkin;
  - sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;
  - sud amaliyotini umumlashtirish, sud statistikasini tahlil qilish bo‘yicha ishni tashkil etadi;
  - sudlar tomonidan chiqarilgan, o‘zlari protest kiritishga haqli bo‘lgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini to‘xtatib turadi;
  - sudyalar va sudning boshqa xodimlari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;
  - vazifalar taqsimotiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibiy bo‘limmalari ishiga rahbarlik qiladi;
  - fuqarolarni shaxsan qabul qiladi;
  - qonun hujjatlariغا muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yo‘qligida uning vakolatlarini raisning birinchi o‘rribosari, birinchi o‘rribosar ham yo‘qligida esa rais o‘rribosarlaridan biri amalga oshiradi.

### **5-§. Quyi ixtisoslashtirilgan sudlar**

**Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar.** Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar asosan jinoyat ishlarini va shu jinoyat ishi doirasida jinoyatdan kelib chiqadigan zarar bo‘yicha fuqaroviy da‘volarni ko‘rib chiqadilar va ular qabul qiladigan hujjatlardan eng ommalashgan turi va boshqa sudlar qabul qila olmaydigan sud hujjati – hukmdir.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarining ishlarni ko‘rishda asosan Jinoyat protsessual kodeksiga binoat ish yuritadilar.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar vakolatlariga: qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog‘liq iltimosnama, shikoyat va protestni ehtiyyot chorasi qo‘llash to‘g‘risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi, murdanı eksgumatsiya qilish haqidagi, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnomasini ko‘rib chiqish; jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash; ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki

boshqa qaror qabul qilish; ishni apellyatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida ko'rib chiqish; hukmni ijro ettirish kiradi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tuman, viloyat, Qoraqaolpig'iston Respublikasi va Toshkent shahri darajasida tashkil etilgan. Jinoyat ishlarning og'ir yoki murakkabliliga ko'ra ham ular sudlar o'rtasida taqsimlanadi.

JPKnning 389-moddasi mazmuniga ko'ra, Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida, 118-moddasining to'rtinchi qismida, 150, 153, 155, 157, 158-moddalarida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161-moddalarida, 210-moddasining uchinchi qismida, 230, 231, 242, 244-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudining, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Jinoyat ishida harbiy xizmatchi ayblanyotgan bo'lsa yoki harbiy muassasa yoxud qismda sodir etilgan bo'lsa, bunday ish harbiy sudlarning sudloviga tegishli bo'ladi. Qolgan jinoyat ishlarning hammasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlariining sudloviga kiradi.

**Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar.** Mazkur sudlar ishlarni ko'rib chiqishda Fuqarolik protsessual kodeksiga asoslanadilar. Ushbu kodeks mazmuniga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha sudga quyidagi ishlar taalluqlidir:

I. Fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech bo'lmaganda bittasi fuqaro bo'lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno.

II. Fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida alohi tartibda yuritiladigan ishlar qatoriga kiruvchi quyidagilar to'g'risidagi ishlar:

1) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi;

2) bolani farzandlikka olish (bundan buyon matnda farzandlikka olish deb yuritiladi) haqidagi;

3) fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi;

4) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi;

5) shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;

6) shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;

7) voyaga etmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi;

8) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish haqidagi;

9) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) to‘g‘risidagi;

10) yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi.

III. Nizosiz talablar bo‘yicha sud muhokamasi o‘tkazmasdan sud buyrug‘i tartibida hal etiladigan ishlar.

IV. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar.

V. Chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ishlar.

**Iqtisodiy sudlar.** Mazkur sudlar ishlarni ko‘rishda asosan Iqtisodiy protsessual kodeksga tayanib ish yuritadilar.

Iqtisodiy sudsiga:

1) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar, shuningdek, korporativ nizolar bo‘yicha ishlar ko‘rilayotganda taraflar bo‘lgan fuqarolar o‘rtasidagi fuqaroviy, ma‘muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar;

2) iqtisodiyot sohasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari yuzaga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash (bundan buyon matnda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash deb yuritiladi) to‘g‘risidagi ishlar;

3) bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar;

4) hakamlik muhokamasi bilan bog‘liq ishlar;

5) korporativ nizolar bo‘yicha ishlar, bundan mehnatga oid nizolar mustasno;

6) chet davlat sudsiga va arbitrajlarining qarorlarini tan olish hamda ijro etishga qaratish to‘g‘risidagi ishlar taalluqlidir.

**Ma‘muriy sudlar.** Mazkur sudsarning ish yuritish faoliyati asosan

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi bilan tartibga solinadi. Ushbu kodeksning 26-moddasiga ko'ra, Ma'muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashi layotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir, bundan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga, iqtisodiy sudlarga va harbiy sudlarga taalluqli ishlar mustasno.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 27-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

2) davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma'muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdon shaxslarning qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdon shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

5) davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni hal qiladi.

Ushbu sndlар MJTKga asosan, o'z vakolatlari doirasida ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radir.

Sud tizimida o'rta bo'g'inni tashkil qiladigan *Qoraqalpog'iston Respublikasi sndlari, viloyat sndlari*, Toshkent shahar sndlari rais, rais o'rinnbosari, sudyalardan iborat bo'ladi hamda sud rayosati va sudlov hay'atlari tarkibida ish olib boradi.

Faqat jinoyat sndlari tarkibida xalq maslahatchilari bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi:

– o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'radi;

- tumanlararo, tuman (shahar) sudsining sud faoliyati ustidan nazorat olib boradi, sud amaliyotini umumlashtiradi;
- sud amaliyoti va sud statistikasining tizimli tahlilini amalga oshiradi;
- sudsarning kadrлari malakasi oshirilishini tashkil qiladi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati* shu sudning sudyalaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati majlislari har oyda kamida ikki marta o'tkaziladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosatining qarorlari ovoz berishda ishtirok etgan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati a'zolarining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sud raisi tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi rayosati:

- sud amaliyotini umumlashtirish natijalarini ko'rib chiqadi;
- hay'atlar faoliyati to'g'risidagi ma'ruzalarni, tumanlararo, tuman (shahar) sudsleri raislarining shu sudsler faoliyati to'g'risidagi va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi ma'ruzalarini tinglaydi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudining sudlov hay'atlari:*

- o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya ko'radi;
- apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra, ishlarni apellyatsiya yoki cassatsiya tartibida ko'radi. Apellyatsiya tartibida ko'rilmagan ish cassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak;
- sud amaliyotini umumlashtiradi;
- qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar sudslerida rais boshchilik qiladi va u:

- sud faoliyatiga tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi;
- sud rayosatini chaqiradi va uning majlislarida raislik qiladi;
- sud rayosatining qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga

oshirish ishini tashkil etadi;

-- sudyalar, sudning boshqa xodimlari hamda xalq maslahatchilari malakasini oshirish ishini tashkil etadi;

– sud amaliyotini umumlashtirish va sud statistikasini yuritish ishini tashkil etadi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi, ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishini tashkil etadi;

– sudyalarning malaka hay’ati qarorlari ustidan sudyalarning oliv malaka hay’atiga taqdimnomalar kiritadi;

– sudning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishni amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashiga bir yilda kamida bir marta axborot taqdim etadi;

– bir oyda kamida bir marta joylarda sudyalarning aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etadi, shuningdek, jamoatchilikni sudning faoliyati to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib boradi;

– sud idorasi ishlariga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Sud tizimining eng quyi bo‘g‘inini tuman (shahar) va tumanlararo sudlar tashkil qiladi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va ma‘muriy sudlar har bir tumanda va ayrim shaharlarda alohida tashkil etiladi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar har bir tuman va ayrim shaharlardan tashqari, hududning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, tumanlararo tashkil etilishi mumkin. Ushbu quyi sudlar rais va sudyalardan iborat bo‘ladi, faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda xalq maslahatchilari ham faoliyat yuritadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudining, tuman (shahar) ma‘muriy sudining raisi:

– sud majlislarida raislik qiladi, sudyalar o‘rtasida ishlarni taqsimlaydi;

– fuqarolarni shaxsan qabul qiladi hamda ularni qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish ishlarini tashkil etadi;

– sudning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishni

amalga oshirishga doir faoliyati to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari Kengashiga bir yilda kamida bir marta axborot taqdim etadi;

– bir oyda kamida bir marta joylarda sudyalarning aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etadi, shuningdek, jamoatchilikni sudning faoliyati to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib boradi;

– sud apparati ishiga rahbarlik qiladi, sud xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudining, tuman (shahar) ma‘muriy sudining raisi yo‘qligida uning vakolatlari sudyalarning tegishli malaka hay’ati qaroriga ko‘ra sudyalardan birining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

**Harbiy sudlar.** O‘zbekiston Respublikasining harbiy sudlari tizimi O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi viloyat sudi huquqida ish olib boradi hamda rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi.

Hududiy harbiy sudlar tuman sudi huquqida ish olib boradi va rais, xalq maslahatchilaridan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

– O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo‘sishinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy xizmatchilari, shuningdek, o‘quv yig‘inlarida bo‘lgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni;

– harbiy qismlar, qo‘silmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruva organlarining qo‘mondoniliga nisbatan harbiy xizmatchilarning da‘volari bo‘yicha fuqarolik ishlarini va harbiy boshqaruva organlari hamda harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

– alohida holatlarga ko‘ra sudlar faoliyat ko‘rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarini;

– davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ko‘radi.

## **6-§. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi**

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi.

Kengash yuridik shaxsdir, u O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi. Kengash faoliyati O'zbekiston Respublikasi "Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, shuningdek, rahbar sudyalik lavozimlariga ko'rsatish uchun tavsija berish asosida sudyalar korpusini shakllantirish;

- sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

- sudyalarni kasbiy tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni tashkil etish, sudyalarning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek, ularni rag'batlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatish;

- ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalariga doir murojaatlari ko'rib chiqish;

- sud-huquq sohasidagi qonun hujjalarni yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash;

- sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi, shuningdek, ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqidagi masalani ko'rib chiqish.

Kengash o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun:

- sudyalik lavozimlariga nomzodlar zaxirasini shakllantiradi;

- sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlashni tashkil etadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, rais o‘rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi;
- viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari hamda rais o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;
- harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalik lavozimlariga tavsiya etiladigan nomzodlar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga qonunga muvofiq xulosalar (taqdimnomalar) kiritadi;
- sudyalarni ularning vakolatlari muddati davrida harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalari, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalari lavozimlariga o‘z arizalariga asosan Sudyalar oliy malaka hay’atining tavsiyasiga ko‘ra qaytadan tayinlaydi;
- sudyalarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlarining sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalari lavozimlariga o‘z arizalariga asosan Sudyalar oliy malaka hay’atining tavsiyasiga ko‘ra qaytadan tayinlash bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga taqdimnomalar kiritadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan saylanadigan sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar (takliflar) kiritadi;
- qonunda nazarda tutilgan hollarda harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sudyalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimididan ozod qiladi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudlari sudyalarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga xulosalar kiritadi;

- sudyalarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimnomalar kiritadi;
- sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini ko‘rib chiqadi va materiallarni sudyalarning tegishli malaka hay’atlari yuboradi;
- sudyalarni jinoiy yoki ma‘muriy javobgarlikka tortish masalalari yuzasidan xulosa beradi;
- sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyatini ta‘minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ko‘rib chiqishi uchun kiritadi;
- sudyalarning malaka hay’atlari faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatini tekshiradi, sudyalarning malaka hay’atlari raislari hisobotlarini eshitadi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalarini buzish masalalariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi;
- sudyalarning faoliyatini ularning kasbiiga munosibligi nuqtayi nazaridan o‘rganadi;
- Sudyalarning odob-axloq kodeksini tasdiqlaydi;
- sudyalarning faoliyatini o‘rganish va baholash mezonlarini tasdiqlaydi;
- sudyalarni kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etishga doir dasturni tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta‘minlash departamenti direktorining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotini har yili eshitadi;
- sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarning, yangi vakolat muddatiga yoki boshqa sudyalik lavozimlariga nomzodlarning shaxsiy va kasbiy sifatlari darajasini o‘rganish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining Reglamentini tasdiqlaydi.

Kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kengash rais, rais o‘rnbosari, uning a‘zolari va kotibidan – jami yigirma bir nafar kishidan iborat tarkibda sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

Kengash raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tayinlanadi.

Kengash raisining o'rribbosari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va u bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov muammolarini o'rganish tadqiqot markazini boshqaradi.

Kengashning o'n bir nafar a'zosi Kengash raisining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sudyalar orasidan tasdiqlanadi. Kengashning ushbu a'zolaridan bir nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sudyalari orasidan tasdiqlanadi.

Kengash kotibi va uning yetti nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institatlari vakillari hamda huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan tasdiqlanadi.

Kengashning raisi, kotibi va sudyalar orasidan tasdiqlangan o'n bir nafar a'zosi o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi, Kengashning qolgan sakkiz nafar a'zosi, shu jumladan Kengash raisining o'rribbosari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Kengashning sudyalar orasidan tasdiqlangan va o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiruvchi o'n bir nafar a'zosi Kengash tomonidan uning raisi taqdimiga binoan Kengashning sho'balari hamda Sud inspektsiyasi tarkibiga, shu jumladan mazkur tuzilmalarning rahbarlari lavozimlariga saylanadi.

## **7-§. Sudyalarning huquqiy maqomi**

Davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha tegishli vakolatlarga ega bo'lgan barcha boshqa ommaviy subyektlarining huqiqiy maqomiga o'xshagan tarzda sudyaning huquqiy maqomi ham ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 60-moddasiga asosan sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. Odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha Konstitutsiya tomonidan berilgan vakolatlarga ega bo'lgan, kasbiy asosida o'z majburiyatlarini bajaradigan va konstitutsiyaviy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish orqali o'z faoliyatini amalga oshiradigan shaxs professional jihatdan suda

hisoblanadi. Bulardan tashqari, sudlarning raislari, rais o'rribosarlari ayni vaqtida sudyalardir.

O'zbekiston Respublikasida sudyalavozimiga tayinlanadigan (saylanadigan) shaxsning hayotiy tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun ularning yoshiga va kasbiy xususiyatlariga talablar qo'yiladi. Bunday talablar har bo'g'in sudlarida turlicha belgilangan. Biz yuqorida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyalariga qo'yilgan talablarni yuqorida ko'rib chiqqan edik, quyida jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarni ko'ruvchi sudlarning sudyalarini va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlariga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqamiz.

O'ttiz yoshdan kichik bo'limgan, oliy yuridik ma'lumotga va yuridik ixtisosligi bo'yicha, avvalambor, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudining, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudining, tuman (shahar) ma'muriy sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga va yuridik ixtisosligi bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudyalavozimiga tayinlanadigan nomzodlar kamida ikki yiliik mehnat stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyat sudining, Toshkent shahar sudining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga va yuridik ixtisosligi bo'yicha kamida o'n yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudyalavozimiga tayinlanadigan nomzodlar kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi bo'lishi mumkin.

Sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlar zaxirasida turgan shaxslar belgilangan tartibda o'qishi va stajirovkani o'tashi shart. O'quv va stajirovkani o'tash davrida ular asosiy ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda o'z mehnat vazifalarini bajarishdan ozod qilinadi.

Xuddi shunga o‘xshagan talaablar jinoyat ishlarini ko‘rishda ishtirok etadigan noprofessional sudyalar – xalq maslahatchilariga nisbatan shakllantirilgan. Jumadan, O‘ttiz yoshdan kichik bo‘Imagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan, saylov kunida o‘ttiz yoshga to‘lgan, harbiy qismlar harbiy xizmatchilarining yig‘ilishlarida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni sudyalarning tegishli malaka hay‘atlari tomonidan belgilanadi.

Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarini bajarish uchun yiliga ko‘pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko‘rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o‘rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi etmis yoshni, boshqa sudsarning sudyalari uchun oltmis besh yoshni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, boshqa sudsarning sudyasi lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi sudyaning roziligi bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tomonidan besh yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Sudya pensiya yoshiba yetganda yoki pensiyaga chiqishning qonun hujjatlarida belgilangan boshqa asoslari mayjud bo‘lgan taqdirda, pensiyaga chiqish huquqini saqlab qoladi.

Sudyalar lavozimiga kirishishda ikki usuldan amalga oshiriladi. Bular:

- 1)saylash;
- 2)tayinlash.

Saylash tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, o‘rinbosarlari va

sudyalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining raislari va rais o'rribosarlari saylanadi. Qolgan sudyalar tayinlanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, rais o'rribosarlari, sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan saylanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining raislari va rais o'rribosarlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimdan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining raislari va rais o'rribosarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari va sudyalari O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudyalari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining raislari va sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimdan ozod etiladi.

Sudyalik lavozimining muddati ham muhim masala hisoblanadi.

Sudya birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda tayinlanadi yoki saylanadi.

Sudya o'z vakolati muddati davomida harbiy sudning, viloyat va Toshkent shahar sudining sudyasi, tumanlararo, tuman (shahar) sudining

raisi va sudyasi lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining sudyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlararo, tuman (shahar) sudining raisi va sudyasi lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan qayta tayinlanishi mumkin. Bunda bir sudning o‘zida sudyalik lavozimida bo‘lish muddati ikki yildan kam bo‘lmasligi kerak.

Sudyaning qayta tayinlanishi masalasi uning arizasiga asosan Sudyalar oliy malaka hay’atining tavsiyasiga binoan kiritiladi.

Sudyaning vakolat muddati uning sudyalik lavozimida faoliyat yuritgan umumiy stajidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Sud raislari besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. Ayni bir shaxs tegishli sudda surunkasiga ikki muddatdan ortiq rais etib saylanishi yoki tayinlanishi mumkin emas.

Sud raisining rais sifatidagi vakolat muddati tugagach, u o‘zining faoliyatini o‘z roziligi bilan shu sudda sudyalik lavozimida davom ettiradi yoxud qolgan vakolat muddatiga o‘z roziligi bilan boshqa sudyalik lavozimiga saylanadi yoki tayinlanadi.

Sudyalar quydagilarga haqli hisoblanadilar:

- mansabdar shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;
- mansabdar va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot olish;
- uyushmalarga birlashish huquqiga ega.

Davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan talab va farmoyishlarini so‘zsiz bajarishlari shart. Odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari sudyalarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Sudyalarning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Sudyalar o‘z vakolatlari doirasida ishlarni ko‘rish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga so‘zsiz rioya etishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha‘ni, qadr-qimmati va mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlashi, beg‘araz va adolatli bo‘lishi shart.

Sudyalar sudyalik sha‘ni odob-axloqi qoidalarini qat‘iy saqlashlari, odil sudlovning obro‘sini, sudyalik qadr-qimmatini tushirishi yoki sudyaning xolisligiga shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari shart.

Sudyalar sudyalarning maslahat sirini hamda yopiq sud majlislari o‘tkazish chog‘ida olingen ma‘lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Sudyalar senator, davlat hokimiyyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a‘zosi bo‘lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa biron-bir turdag‘i faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

### *O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hokimiylar bo‘linishi prinsipi va uning mazmuni.*
2. *O‘zbekiston qonunchiligidagi sud hokimiyyati amalga oshirilishining quyidagi shakllar.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyyati tizimi.*
4. *Qonuniylik prinsipi.*
5. *Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi.*
6. *Odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish.*
7. *Barcha sudlarda ishlarning oshkora ko‘rilishi.*
8. *Sud ishlari yuritiladigan til.*
9. *Sud himoyasida bo‘lish huquqini ta‘minlash.*
10. *Aybsizlik prezumpsiyasi.*
11. *Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanish huquqi bilan ta‘minlash.*
12. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari.*

*13. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari.*

*14. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud hokimiyatida tutgan o'rni.*

## **XXVII BOB. SAYLOV TIZIMINING KONSTITUTSIYAVIY**

### **ASOSLARI**

1-§. Saylov huquqi va saylov tizimi.

2-§. Saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari.

3-§. O'zbekiston Respublikasida saylov o'tkazish prinsiplari.

4-§. Saylovlarda xalqaro standartlar (andozalar) qo'llanilishi hamda Xalqaro hujjat qoidalarini O'zbekiston saylov qonunchiligiga implementatsiya qilish.

5-§. O'zbekiston Respublikasida referendum va uni o'tkazish tartibi.

#### **1-§. Saylov huquqi va saylov tizimi**

Saylov kishilik jamiyatidagi eng qadimiy tadbirdardan hisoblanadi. Albatta, saylovlarни hozirgi darajadagi mazmunga ega bo'lishi uchun ko'p vaqt o'tdi. Saylov har bir ijtimoiy tizimda (davrda) o'ziga xos ko'rinishda, mazmunda namoyon bo'lgan. Masalan, quzdorlik, feodal tuzum davridagi saylovlar kapitalizm, sotsializm davrlaridagi saylovlardan tubdan farq qilgan. Har bir tuzum saylov mazmun mohiyatiga ta'sir qilgan bo'lsa, saylov ham o'z navbatida ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir qilgan.

Saylov biror narsani yaratish, tashkil qilish vositasi bo'lib, u kishilarni, jamiyat a'zolarini xohish-irodasini ro'yobga chiqarish vositasidir. Saylovda xohish-iroda ovoz berish orqali namoyon bo'ladi. Ovoz berishning esa turlari har xil bo'lib, ular orasida eng ahamiyatlisi, ommaviy xarakterga ega bo'lgani – bu hokimiyat organlarini, tuzilmalarni tuzishda qo'llanadigan ovoz berish, ya'ni saylovdir. Bu ovoz berish qonunlarda fuqarolarning saylov huquqi sifatida mustahkamlanib, siyosiy huquq tarzida e'tirof etiladi.

Saylov – saylov huquqi orqali namoyon bo'ladi. Saylovlar XX asrda, ayniqsa, rivojlandi va ahamiyati oshdi. Xalqaro miqyosdag'i munosabatlarga aylandi. Hozirgi paytda har qanday demokratik mamlakatlarda saylov huquqi mavjud ekan, u ma'lum xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi zarur. Bunday standartlar, talablar Ikkinchi jahon urushidan so'ng ishlab chiqilib, xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan.

Fuqarolarning saylov huquqiga egaligi BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" da belgilab

qo'yilgan. Uning 21-moddasi "a"bandida "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatlarini boshqarishda qatnashish huquqiga ega"<sup>258</sup> ekanligi yozib qo'yilgan. Xuddi shu mazmundagi qoida "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktda ham mustahkamlangan<sup>259</sup>.

Hozirgi kunda saylov huquqi fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan saylovlarda qatnashish huquqidir.

Saylov huquqini aniq tushunish uchun "saylov huquqi" atamasini bilish zarur. Chunki bu atama bir necha mazmunda yoki boshqacha qilib aytganda, bir necha tushunchalarga nisbatan ishlataladi.

Ko'pchilik manbalarda saylov huquqiga ta'rif berishda u ikki ma'noda ishlatalishi hisobga olinadi va tushuncha shunga mos ravishda beriladi.

"Saylov huquqi" ikki ma'noda ishlataladi. **Birinchisi** – saylov huquqi saylov yo'li bilan shakllantiriladigan davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimidir. **Ikkinchisi** – saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarni tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylash huquqi) huquqlaridir<sup>260</sup>. Bu ta'rifdagi saylov huquqi normalari saylov yo'li bilan shakllantiriladigan davlat organlari faoliyatini tartibga soladi degan ta'rifga qo'shilish qiyin. Chunki saylov huquqi davlat organlarini tashkil qilish tartibinigina belgilaydi, ularning faoliyatini esa boshqa huquqiy normalar, masalan, "Parlament huquqi" tartibga soladi.

"Saylov huquqi" atamasi shu ikki ma'no bilan tugallanmaydi. U yana boshqa ma'noda ham ishlataladi.

**Birinchidan**, "saylov huquqi" atamasi ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarni (saylov munosabatlarini) tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisiga nisbatan ishlataladi. Bunda saylov huquqining huquqiy institut ekanligi ko'rindi.

**Ikkinchidan**, "saylov huquqi" fuqarolarning siyosiy huquqlariga nisbatan ishlataladi. Fuqarolarning saylov huquqi saylash va saylanish huquqidan iborat. O'zbekiston Respublikasi O'sining 117-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga

<sup>258</sup> Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar -T : Adolat, 2004. B.34.

<sup>259</sup> Shu manba, B.45.

<sup>260</sup> U Tadjihanov, X.Odilqoriev, A.Saidov - O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. -T.: Sharq, 2001. -B.478-479.

saylash va saylanish huquqiga egadirlar, - deb belgilab qo‘yilgan. Demak, fuqarolarning “saylov huquqi” siyosiy huquq va u saylash hamda saylanish huquqining umumlashgan ifodasidir.

**Uchinchidan**, “saylov huquqi” atamasi alohida o‘quv kursiga nisbatan ishlatalidi. Bu o‘quv kursi saylov munosabatlarini, tartibga soluvchi normalarni o‘quvchilarga o‘rgatadi.

Saylov huquqining huquq tizimidagi o‘rniga kelsak, u alohida huquq tarmog‘i bo‘lmasdan, o‘viy huquqning instituti sifatida e‘tirof etiladi.

Darslikning bu bandidagi asosiy masala saylov huquqi nima? u qanday huquq? degan savollarga javob berishdir. Bunday javoblarni ko‘plab manbalarda, darsliklarda uchratamiz.

Saylov huquqi deganda, birinchidan, mamlakatda saylovlarni tashkil etuvchi huquq normalari tushunilsa, ikkinchidan, fuqarolarning saylash va saylanishga bo‘lgan huquqi tushuniladi (aktiv va passiv saylov huquqi)<sup>261</sup>.

Xuddi shunday ta‘rif va tushunchalarni xorijiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin<sup>262</sup>.

Bu ta‘rif, ya‘ni saylov huquqi tushunchasiga boshqa manbalarda berilgan tushunchaga o‘xshash bo‘lib, faqat bir jihat bilan ulardan farq qiladi. Ya‘ni bu yerda saylov huquqini faqat fuqarolarning saylov huquqini o‘rnatishi va ta‘minlashigina nazarda tutilmay, saylov huquqini chekllovchi normalardan ham iboratligi e‘tirof etilgan. O‘ va saylov to‘g‘risidagi qonunlarda kimlar saylovda ishtirok eta olmasligi haqida aniq normalar mavjud bo‘lib, bular zaruriy cheklashlardir. Bunday chekashlar aksariyat mamlakatlar qonunlarida uchraydi va demokratiyaga aslo zid emas.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda ishtirok etmaydilar”. Bunday tashqari saylov qonuni saylanuvchilar oldiga ba‘zi talablarni qo‘yadi, masalan, ma‘lum yoshga yetgan bo‘lishi, shu joyda ma‘lum yil muqim yashagan bo‘lishi va boshqalar.

---

<sup>261</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. -T.: Adolat, 2013. -B.299.

<sup>262</sup> Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. -М.: Норма –Инфра. – С.345.

Demak, saylov huquqi faqat o'rnatuvchi, ta'minlovchi normalardan iborat bo'lmay, huquqlarni cheklovchi normalardan ham iborat. Chunki bu normalalar ham saylov o'tkazishga bevosita tegishlidir.

Saylov huquqini aniqlashda uning mazmunini bilish, anglash muhimdir. Saylov huquqi mazmunini saylov prinsiplarining, saylov tashkil qilinadigan va o'tkaziladigan qoida va holatlarning, saylov ishtirokchilari maqomining davlat tomonidan huquqiy normalar orqali mustahkamlanganligi tashkil etadi. Saylov huquqi mazmunini yana saylov tadbirlari, harakatlarining tartibi, bosqichlari, vakolatli organlarning qarorlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda huquq tizimi, huquqiy institutlar ham rivojlanib bormoqda. Saylov tizimini murakkab mexanizmlardan, tarkibiy qismlardan tarkib topgan qurilmaga o'xshatish mumkin. Uning mexanizmlarining yangilanishi, takomillashuvi, ishlamay qolganlarini almashtirilishi, oxir-oqibatda tizim mazmuniga, sifatiga ta'sir qiladi.

Biror-bir mamlakatning saylov tizimi birdaniga hozirgi holatida vujudga kelmagan. Ularning shu vaqtgagi saylov tizimining vujudga kelishi uchun ko'p vaqtlar o'tgan, mablag'lar sarflangan, ba'zi paytlarda jamiyatda to'qnashuvlar, kurashlar bo'lgan. Saylov tizimidagi umumiylilik, tenglik, ixtiyorilik, xohish-irodani erkin bildirish o'z-o'zidan yoki birdaniga vujudga kelmagan. Saylovlarda yosh chegarasini kamaytirish, ayollarni saylovlarda ishtirok etishiga erishish, saylovlardagi ortiqcha cheklashlarni olib tashlash uchun uzoq vaqt kurashilgan.

Mamlakatda saylov tizimi bo'lishi davlat xarakteriga, u yerdagi rejimga bog'liq, ya'ni davlatning suverenligi, demokratik yoki avtoritar rejim, diktatura ko'rinishida bo'lishligi saylov tizimiga ta'sir qiladi. Lekin har qanday rejim ham o'z saylov huquqini demokratik qilib ko'rsatish uchun turli choralarни ko'radi. Sobiq ittifoq davrida ham saylov eng demokratik deb ko'rsatilar, hatto fashistlarning hokimiyat tepasiga keltirgan Germaniya saylov tizimi ham demokratik hisoblangan.

O'zbekiston ittifoq tarkibida turgan vaqtida uning mustaqil saylov tizimi bo'Imagan. O'zbekiston saylov tizimi SSSR saylov tizimining tarkibiy qismi bo'lib, u qanday bo'lsa, bu ham shunday bo'lgan. XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan SSSR, shuningdek, O'zbekiston saylov tizimiga o'zgartirishlar kiritishga urinishlar bo'lgan. Shu davrda SSSR saylov tizimi va tajribasiga kirib kelgan, muqobil saylov. ko'p mandatli okrug, deputat o'rinbosarlari degan institutlar O'zbekiston saylov tizimiga ham kirib kelgan. O'zbekiston saylov tizimining shu vaqtida

mustaqil emasligini har qanday saylov qonunlari va qonuniy hujjatlar asosan markazda qabul qilinishi, respublikada qabul qilingan qonunlar, hujjatlar aslo ulardan chetga chiqishi mumkin emasligida ko'rshimiz mumkin.

O'zbekiston saylov tizimining mustaqillik yo'lidan borishi 1989-yil 20-oktabrdagi saylov to'g'risida qonun qabul qilinishi va 1990-yil 18-fevralda o'tkazilgan saylovlardan boshlandi. Natijada nomzodlar soni cheklanmay saylovlar muqobililik asosida o'tkazish sharoiti vujudga keldi, takroriy ovoz berish, takroriy saylov degan yangi saylov institutlari vujudga keldi va bu esa saylov munosabatlarining kengayishi, ularni tartibga soluvchi huquqiy normalarning saylov tizimida bo'lishini nazarda tutdi. O'zbekiston saylov tajribasida saylovlarni haqiqiy emas deb topish faktlari paydo bo'ldi.

O'zbekiston saylov tizimining shakllanishi O'zbekistonning mustaqilligi bilan bog'liq bo'lsa, uning rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil, demokratik saylov tizimining shakllanishi, 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", 1993-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to'g'isida", 1994-yil 5-mayda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi bilan bog'liq va bular saylov tizimini yanada takomillashtirish, demokratlashtirishiga olib keldi.

Yuqoridagi qonunlar saylov munosabatlarini keng ravishda tartibga solish bilan yangi munosabatlarni vujudga keltirdi, masalan, saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi, nomzodlarning fuqarolar va vakillik hokimiyyati organlari tomonidan ko'rsatilishi va boshqalar.

Mamlakatimizda olib borilgan demokratik islohotlarga monand ravishda saylov tizimi ham isloh qilib borildi. Yuqorida tilga olingan qonunlarga ko'plab o'zgartirishlar kiritilib, saylov tartiblari o'zgartirildi. Saylov tizimi (tartibi)dagi eng muhim va sezilarli o'zgarishlar:

- vakillik hokimiyyati va fuqarolar nomzod ko'rsatish huquqiga ega subyektlar qatoridan chiqarib tashlandi va nomzod ko'rsatishga faqat siyosiy partiyalar (quyi vakillik organlariga, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari ham) ega bo'ldi;

- saylovlarni bo'lib o'tgan deb hisoblash uchun ro'yxatga olinganlarning yarmidan ko'pi emas, 33 foizi qatnashishi yetarli miqdor deb belgilandi;

- siyosiy partiyalar nomzod ko‘rsatishda nomzodlarning kamida 30 foizi ayollardan iborat bo‘lishi belgilandi;
- Oliy Majlis Senati tashkil etilishi munosabati bilan saylov tizimiga pog‘onali saylov kirib keldi;
- Qonunchilik palatasida deputatlar soni 150 ta qilib belgilanib, ularning 15 tasi Ekoharakatdan ularning anjumanlarida saylanadigan bo‘ldi;
- siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etishi uchun to‘planadigan imzolar miqdori oltmis mingdan qirq mingga tushirildi;
- saylov uchastkalarida ovoz natijalarini aniqlashda nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan vakolatli vakil ishtirok etishi belgilandi;
- Qonunchilik palatasi deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 10 ta qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimining rivojlanishida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” Konsepsiysi muhim rol o‘ynaydi. Uning ko‘rsatmalari asosida saylov qonunchiligiga ancha o‘zgartirishlar kiritildi va bu o‘z-o‘zidan saylov tizimida namoyon bo‘ldi. Konsepsiya asosida:

- Bosh vazir nomzodi saylovlarda eng ko‘p o‘rin olgan siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan bo‘ldi;
- Markaziy saylov komissiyasining tashkil bo‘lish tartibi, vazifasi, faoliyat shakli va prinsiplari Konstitutsiyada belgilab qo‘yildi;
- saylovoldi tashviqotlarining tushunchasi, usullari, shakllari, qachon to‘xtatilishi qonunlarda belgilab qo‘yildi;
- muddatdan oldin ovoz berish tartibi yangicha o‘rnatildi;
- sudgacha qamoq joylarida saqlanayotganlar ovoz berishda ishtirok etishi belgilandi.

Saylov tizimini takomillashuvida mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar, ayniqsa, markaziy saylov komissiyasi tomonidan uyuştirilayotgan xalqaro anjumanlar muhim rol o‘ynamoqda.

Saylov tizimi tor ma‘noda ovoz berish natijasini aniqlashga qarab turlarga bo‘linadi.

Jahon tajribasida bir necha xil tizim mavjudligi yuridik adabiyotlarda uchraydi. Bular asosan majoritar va proprotsional tizimlardir<sup>263</sup>. Ayrim adabiyotlarda ularning boshqa turlari, jumladan, aralash tizimi mavjudligi ko'rsatilgan<sup>264</sup>. Bu ham haqiqat.

Eng ko'p qo'llaniladigan saylov tizimi – majoritar, proprotsional va aralash shakldagi tizimlardir.

Bu tizimiar asosan ovoz berish tartibi, ovozlarni aniqlash, ovozlarning deputat saylashda taqsimlanishi, saylovni necha mandatli saylov ekanligi bilan aniqlanadi va bir-biridan farq qiladi. Ularning birontasini demokratik boshqasini nodemokratik deyishga asos yo'q. Ularning ijobjiy va salbiy tomonlari mavjud.

Majoritar tizim siyosiy partiylar hali uncha kuchli bo'lмаган, aholini o'z taraflariga og'dirish uchun tegishli ishlar amalga oshirmagan davlatlarda foydalidir. Bunday saylovda vakillik organlariga deputat bo'lib partiya a'zolari emas, partiya tomonidan ko'rsatilgan, so'zga chechan, saylovchilarini o'z dasturiga ishontira oladigan kishilar saylanadi. Bu saylovda saylovchilar nomzodlarning qilgan ishlari, xizmatlari, dasturlarini taqqoslaydi va o'ziga ma'qulini tanlaydi. Bu tizimda okruglarda nomzodlar, asosan, partiya nomidan qatnashadi, lekin yakka asosda ovoz oladi, ovoz partiya uchun emas shaxsan nomzodga beriladi.

Majoritar tizimning ham ko'rinishlari har xil. Uning bir ko'rinishida boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan nomzod saylangan bo'ladi. Bunda saylanish uchun qancha ovoz olish kerakligi ko'rsatilmagan. Bu ko'rinish AQSH, Hindiston va Rossiyada qo'llaniladi. Bu mamlakatlarning qonunlarida aksariyat ovoz berishda qancha saylovchi ishtirok etishi shartligi ham ko'rsatilmaydi. Angliya qonuniga asosan okrugdan bir nomzod ko'rsatilgan bo'lsa, saylovsiz saylanish mumkin, uning saylanishi uchun nomzodning o'z ovozi kifoya bo'ladi<sup>265</sup>.

<sup>263</sup> Tajixanov U. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi T.: "Sharq", 2001, 480-481-betlar, Husanov O T. Konstitutsiyaviy huquq. -T.: Adolat, 2013. -C.298

<sup>264</sup> Алебастрова И А. Конституционное право зарубежных стран. -М.: Проспект, 2009 -В 271-279.

<sup>265</sup> Избирательное право и избирательный процесс в РФ. -М.: Норма, 1999 -С.93-94.

**Majoritar saylov tizimi deputatlarning bir okrugdan bitta saylanshi bilan (nomzodlar qancha bo'lishidan qat'i nazar) saylovchi aniq nomzodga yoqlab yoki qarshi ovoz berishi bilan xarakterlanadi. Bu ko'pchilik ovozlarning saylanadigan nomzodlarda bo'lishini nazarda tutadi. Majoritar so'zining o'zi ham fransuzcha "ko'pchilik" so'zidan olingen. Majoritar tizim jahonda eng ko'p tarqalgan tizim deb hisoblanadi.**

Ayrim mamlakatlarda majoritar tizimda saylanish uchun ko'pchilik ovoz talab etiladi. O'zbekiston saylov tizimi ham majoritar tizim bo'lib, unda shu tizimning ko'pchilik ovoz olish tartibi qo'llaniladi. Ovoz berishda kamida 33 foiz saylovchi ishtirok etib, (ro'yxatga olingenlar) ularning yarmidan ko'pini (50 foiz + 1ta ovozni) olgan nomzod deputat, Prezident bo'lib saylanadi. Majoritar tizimning yana boshqa ko'rinishlari ham mavjud<sup>266</sup>. Majoritar tizimning eng muhim ijobiy tomoni (yutug'i) saylovchi aniq bir shaxsga ovoz beradi. Bu keyinchalik saylangan shaxs bilan saylovchi o'rtasida bevosita aloqadorlikni o'rnatadi. Deputatlar o'z faoliyati yuzasidan saylovchilarga axborot berib boradi, vakillik organlarida shu okrug saylovchilarining manfaatini ifodalaydi, ularning nomidan faoliyat ko'rsatadi. Majoritar tizimning salbiy tomoni, unda ko'plab saylovchilar ovozi kuyib ketadi, saylanmagan nomzodlarga berilgan ovozlar bu 49% gacha bo'lishi mumkin.

Saylov tizimining ikkinchi ko'p tarqalgan turi proporsional saylov tizimidir. Proporsional saylov tizimi siyosiy partiylar kuchli mamlakatlarda bo'lishi maqsadiga muvofiqdir.

**Bunda saylovchi aniq nomzod uchun emas, partiylar taqdim etgan ro'yxatga ovoz berish bilan mamlakatdagi siyosiy partiylarning olib borayotgan yo'lini, saylov dasturini ma'qullaydi.**

Saylovda saylovchilarning qancha ovozi to'plaganligiga qarab parlament (vakillik organi)dagi deputatlik o'rnlari taqsimlanadi. Bu prinsipda ko'pchilik ovozlar kuymaydi, ular qanchadir o'rnlarga ega bo'ladi. Bu prinsipda ovoz uchun aniq nomzodlar kurashmay partiya ro'yxatları orqali partiylar kurashadi. Shuning uchun partiya ro'yxatlarida taniqli

<sup>266</sup> O'sha darslik -B.94-96.

kishilar bo‘lishiga harakat qilishadi. Ko‘p hollarda partiyalar ovozga qo‘yiladigan saylov ro‘yxatini tuzishda unga kiritilayotganlarning parlament ishi uchun mutaxassis bo‘lishi, qonunlar qabul qilishdagi bilimi, o‘quvi emas, qanday bo‘lmasin, turli faoliyat orqali aholiga taniqli shaxslarning bo‘lishiga harakat qilinadi.

Agar ayrim mamlakatlarning parlamentlari tarkibini ko‘rsak, jumladan, Rossiyaning parlamentida mutlaqo siyosatdan uzoq, yurisprudensiyaga aloqasi yo‘q sportchilar, artistlar saylanganligini ko‘ramiz. Ular aholi o‘rtasida o‘z yutuqlari natijasida (boshqaruv yoki siyosatda emas) tanilgan va hurmatga sazovor bo‘lgan.

Proportsiyal tizim natijasida tashkil qilingan parlamentlarda ko‘pincha kam sonli deputat bilan kichik partiyalar o‘rniga ega bo‘lishi va bu parlamentda kichik-mayda fraksiyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi va bu hol parlamentda masalalar hal qilinishini qiyinlashtiradi.

Proportsiyal saylov tizimida qonunlarda siyosiy partiyalar, albatta, to‘plashi kerak bo‘lgan ovozlarning zarur miqdori belgilab qo‘yiladi. Bu jamiyatda uncha ahamiyatga ega bo‘laman partiyalarning, parlament va quyi vakillik organlarida o‘rin olishga qo‘yilgan to‘siq hisoblanib, u turli mamlakatlarda turlicha (7%, 5%, 3%) bo‘lishi mumkin. Kam sonli deputat o‘rinlari bilan parlamentni band qilish parlament ko‘pchilikini tashkil qilishda muammolarni vujudga keltiradi. Ayniqsa, bu parlamentar respublikalarda jiddiy muammo bo‘ladi. Bir necha partiya fraksiyalari birlashib ko‘pchilikni tashkil etsa-da, bu birlikning (bloklarni) buzilib ketishi oson bo‘ladi. Ayrim mamlakatlarda to‘siqlardan o‘ta olmagan partiyalarning olgan ovozlar ko‘p o‘rin olib to‘siqdan o‘tgan partiyalar o‘rtasida taqsimlanadi. Ayrim mamlakatlarda esa ovozlar kuyib ketadi.

Proportsiyal saylov tizimida ovozlarni taqsimlashning turlicha usullari mavjud<sup>267</sup>.

Nomzodlar bo‘yicha partiya ro‘yxatlari ayrim mamlakatlarda qattiq, ayrim mamlakatlarda yumshoq bo‘lishi mumkin. Qattiq ro‘yxat bo‘yicha o‘tkazilganda, ro‘yxatdagilarning yuqori o‘rinda turganlari ajratilgan o‘ringa qarab deputatlik mandatini oladi. Saylovchilar ro‘yxatdagilardan qaysi birlarining deputat bo‘lishiga ta‘sir qila olmaydi.

<sup>267</sup> Избирательное право и избирательный процесс в РФ. —М.: Норма, 1999.—С.97–101. Алебастрова И.А. Конституционное право зарубежных стран. —М.: Проспект, 2009.—С.272–277.

Partiya organlari ro'yxatni qanday tuzgan bo'lsa, uning yuqori o'rindagilariga deputatlik mandati tegadi.

"Yumshoq ro'yxatda esa "ro'yxatning yuqori o'rnida turgan nomzodlar emas, saylovchilar o'tasida obro'e'tiborga ko'proq ega nomzodlar deputatlik mandatiga ega bo'ladi. Bunda saylovchilar partiya ro'yxatiga umumiyoq ovoz berish bilan qo'shimcha ravishda kimni deputat bo'lishini xohlab, nomzod ro'parasiga belgi qo'yadi. Bu belgi nomzodlarning o'rmini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Masalan, birinchidan boshlab, yuqori raqamgacha ko'rsatilishi (1, 2, 3, 4, 5 va h.k.) nomzodlarni birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi mavgeyini ko'rsatadi. Bu usul saylovlarda deputatlik o'rmini taqsimlashda partiya organlari emas, hal qiluvchi rolni saylovchi o'ynashini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarda proporsional saylov tizimi deputat saylashda (parlament va mahalliy hokimiyat organlari) qo'llaniladi. Prezident saylovida esa faqat mojaritar tizim amal qildi. Chunki unda nomzod qaysi partiyadan ko'rsatilmasisin (bir partiya faqat bitta nomzod ko'rsata oladi) saylovchi partiyaga emas, aniq nomzodga ovoz beradi.

Xorijiy mamlakatlarning saylov tajribasida bir tartibdan ikkinchisiga o'tish holati uchrab turadi.

Xorijiy mamlakatlarda saylov tizimini yana bir ko'p tarqalgan turi aralash saylov tizimidir.

Dastlabki davrlarda Rossiya Davlat Dumasining (quyi palata) 450 deputatining 225 tasi majoritar tizim bo'yicha, 225 tasi proporsional tizimda saylanar edi. Keyinchalik deputatlarning barcha 450 tasi proporsional tizim asosida saylanadigan bo'ldi. Hozir yana Davlat Dumasini aralash usulda tashkil etishga o'tilmoqda.

Aralash saylov tizimida mamlakatlarda o'tkaziladigan saylovlarda majoritar tizim ham proporsional tizim ham qo'llaniladi. Bu oliy va mahalliy vakillik organlarining bittasi mojaritar tizim orqali, bittasi proporsional tizim orqali tashkil etiladi yoki bitta vakillik organini tashkil etishda ikkala tizimdan ham foydalanish mumkin.

Ukraina parlamenti Oliy Radaga bo'lib o'tgan 2014-yil oktabr saylovlarida sayloving aralash tizimidan foydalanildi. Mamlakatda qaysi saylov tizimidan foydalanishni qonunlarda belgilab qo'yildi. Bu

tizimning ijobjiy tomoni proportsional tizimda partiya ro'yxati bo'yicha deputat bo'la olmagan, lekin ko'zga ko'ringan, ko'pchilikka yoquvchi partiya boshchilari (liderlar) mojaritar tizim orqali parlamentga deputat bo'lib saylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarning saylov o'tkazish tajribalarida yana boshqa saylov tizimlari, ovoz berish, natijalarni aniqlashning boshqacha usullari ham mavjud.

## 2-§. Saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari

Saylov insoniyat o'ylab topgan, hokimiyat vakolatini vujudga keltiruvchi eng qadimiylardan hisoblanib, u demokratiyaning yorqin ifodasi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlashining muhim shakli, davlat boshlig'i, vakillik organlarini (qonunchilik organini) vujudga keltirishning asosiy vositasidir.

Vujudga kelib, qo'llanila boshlagandan hozirgacha saylovlar takomillashib keldi va hamma joyda bir nechta ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelmoqda.

**Birinchidan**, saylovlar mayjud hokimiyatning legitimligini ta'minlaydi, bu aholi saylov natijasidagina vujudga kelgan hokimiyat tuzilmalarinigina tan olib, ularning ko'rsatmalarini ixtiyoriy bajarishini ta'minlaydi.

**Ikkinchidan**, jamiyatdagi turli siyosiy kuchlar nisbatini aniqlash imkonini beradi, bu qaysi siyosiy kuch nimaga qodirligini, aholi nimani ma'qul ko'rishini, kimga ishonishini bildiradi.

**Uchinchidan**, siyosiy hokimiyatni, siyosiy boshchilarni, siyosatchilarni tinch yo'l bilan almashishini ta'minlaydi, bu – hokimiyatga yangi kuchlar kelishi, ishonchni oqlamagan shaxslar, vakillik organlarining a'zolari siyosat maydonidan chiqishi, ularning o'rniga yangilari kelishi demakdir.

**To'rtinchidan**, xalq suverenitetini, demokratik siyosiy rejimni ta'minlab, siyosiy elitani aholi nazoratida bo'lishini ta'minlaydi. Bu degani har bir yangi saylov davrida avval saylangan saylovchilar oldida hisobot berishini ta'minlashni bildiradi.

O'zbekiston o'z taraqqiyotini insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishda ko'rmoqda. Shu maqsadda barcha jabhalarda demokratik islchotlar o'tkazilmoqda, natijada demokratiyaning o'zi ham takomillashmoqda. Demokratiyaning takomillashuvini esa saylovlarning takomillashuvvisiz, demokratlashuvvisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2016-yil 4-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylanganidan boshlab davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli islohotlar yanada jadallik bilan amalga oshirilib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bu islohotlar uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qabul qilinganining yigirma to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasida aytilganidek, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"ligi tamoyilidan kelib chiqqan holda olib borilayotganligi muhim ahamiyatga egadir. Shu munosabat bilan ham mamlakatimizda 2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari" yili deb e'lon qilindi.

Barcha yo'nalishlarda islohotlarni keng qamrovli tarzda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2017-yil 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-ton Farmoni bilan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" tasdiqlandi<sup>268</sup>. Ushbu hujjat orqali fuqarolarning murojaatlari bilan ish-lash tizimini tubdan takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, barcha darajalardagi hokimlarning, prokuratura va ichki ishlar organlarining aholi oldida hisobot berishi tizimini amaliyatga joriy etish, shu asosda xalqning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi belgilandi.

Barcha islohotlarda birinchi navbatda "inson manfaati hamma narsadan ustun" tamoyili asosida ish ko'rish, xususan, mamlakatimizning barcha hududlarida "Xalq qabulxonalarini"ning tashkil etilgani, buning natijasida insonlarning yechimini kutayotgan muammo va masalalarining hal etilishi muhim o'rinn tutmoqda. 2017-yil 15-avgustiga qadar Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasida zamonaviy talablar hamda ustuvor yo'nalishlarni inobatga olgan holda 16 ta vazirlik, idora va boshqa

<sup>268</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. -2017. -№2. 33-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -2017. 13-fevral, -№6. 70-modda.

tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi hamda 20 ta davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tashkil etildi<sup>269</sup>.

Harakatlar strategiyasi doirasida 2017-yil 8-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ham qabul qilindi. Unga ko'ra davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlarining uyg'un faoliyat yuritishlarini tashkil etish mazkur Konsepsianing asosiy maqsadi etib belgilandi.

Shu bilan birga, unda ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; ijro etuvchi hokimiyyat organlari vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish; iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish; vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish; davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakliari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish; professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish kabi muhim yo'nalishlar belgilab olindi.

Kelgusida viloyat, tuman va shaharlar hokimlarini lavozimga tayinlash tartibini takomillashtirish maqsadida "Viloyat, tuman va shaharlar hokimlarini saylash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun loyihasining konsepsiysi ishlab chiqilishi mo'ljallanmoqda. Bu o'z navbatida, bir tomondan milliy saylov qonunchiligini yanada takomillashtirsa, ikkinchi tomondan hududlar rahbarlarini lavozimga qo'yishda oshkorlik, samaradorlik, xolislik va haqqoniylilik ta'minlanadi, mahalliy hokimiyyat organlarining aholi oldida masuliyati va hisobdorligini yanada oshirishga xizmat qiladigan yangi saylov institutini shakllantirishga asos bo'ladi.

2017-yil 22-dekabrda mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga

<sup>269</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatiari to'plami -2017. -21 avgust -№33-son. 847-modda; Xalq so'zi. -2017. -16-avgust.

Murojaatnama yo'lladi. Unda xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim deb ta'kidladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvarda qabul qilingan PF-5308-son Farmoni bilan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid hamda 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoni bilan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturlariga muvofiq Saylov kodeksi loyihasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligi bo'yicha 5 ta qonunlar mavjud bo'lib, bu huquqni qo'llashda bir qator murakkabliklar tug'diradi. Bundan tashqari, saylov jarayoni va uni o'tkazish tartib-tamoyillari va qoidalarining ko'pchiligi qonun darajasida emas, balki Markaziy saylov komissiyasining nizom va yo'rinqnomalari bilan tartibga solinadi.

Saylov qonunchiligining ayrim normalari hozirgi zamон talablariga va saylovlarni demokratik tarzda o'tkazish bo'yicha xalqaro amaliyatga to'la mos kelmaydi.

Xususan, Ekoharakat vakillarining parlament quyi palatasiga kvota asosida kiritilishiuning faol va tashabbuskor bo'lib ishlashini muayyan darajada susaytiradi, qonun saylovchilarining yagona elektron ro'yxatini shakllantirishni nazarda tutmaydi, shuningdek, alohida hollarda saylov byulletenining o'rniga saylov varaqalaridan foydalanimish amaliyoti yashirin ovoz berish tamoyiliga mos kelmaydi, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlab turilgan shaxslarning saylovda ishtirok etishiga oid cheklarlar mavjudligi va boshqa shu kabi holatlar mavjud shu va boshqa bir qator yangiliklarni o'zida qamrab olgan yangi Saylov kodeksi 2019-yil 18-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2019-yil 28-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Senati tomonidan ma'qullandi.

Saylov huquqi orqali amalga oshiriladi. Saylov huquqi esa konstitutsiyaviy huquqning muhim institutidir. Saylov huquqining jamiyat, fuqaro hayotidagi muhim ahamiyati uni alohida maxsus o'quv kursi sifatida o'qtish zaruratin keltirib chiqaradi.

Saylov huquqi fuqarolarning asosiy, siyosiy huquqlaridan hisoblanadi. Bu huquq normalari, avvalo, Konstitutsiyada mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida alohida XXIII bob saylov tizimiga bag'ishlanib, unda saylov huquqining asosiy qoidalari, prinsiplari belgilangan.

Hamma mamlakatlarning Konstitutsiyasida ham saylov masalasi, huquqi (tizimi) uchun alohida bob yoki bo'lim ajratilmagan.

Jumladan, Rossiya Konstitutsiyasingning 32-moddasi 2-, 3-bandlari va 81-moddasida saylov huquqiga tegishli normalar mavjud. Yuqoridagi normalarda fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi saylov huquqi orqali amalga oshishi, kimlar saylovda ishtirok etmasligi, Rossiya Prezidentini saylash prinsiplari, prezident nomzodiga qo'yiladigan talablar belgilab qo'yilib, qolgan masalalar qonunlar bilan tartibga solinishi nazarda tutadi<sup>270</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida saylov uchun alohida bob ajratilgani saylovnинг ahamiyati yuqori ekanligidan kelib chiqadi va bu mazkur huquqiy institutning konstitutsiyaviylik xususiyatini aniq ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning saylov tizimi haqidagi normalari fuqarolarning saylov huquqiga egaligini, har bir saylovchi teng ekanligini, ovoz berishda o'z xohish-irodasini bildirishida erkin ekanligini o'rnatadi va bu huquqlar qonun bilan kafolatlanishini, e'tirof etadi.

Konstitutsiyaning 117-moddasi normalari saylov o'tkazishning aniq kunini o'rnatish bilan birga saylovnинг asosiy prinsiplarini hamda saylash huquqi yoshini belgilab qo'yadi.

Konstitutsiyaviy norma saylovlardagi asosiy cheklashni belgilaydi, unga ko'ra natijada sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi.

Konstitutsiya normasida boshqa har qanday holatda fuqarolarning saylov huquqlarini cheklashga yo'l qo'yilmasligi ham belgilab qo'yilgan.

2014-yil 16-aprelda Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimchaga asosan Markaziy saylov komissiyasining huquqiy holati, vazifasi, ish yuritish prinsiplari, tashkil etish tartibi konstitutsiyaviy asosda belgilandi, natijada saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari yanada kengaydi.

---

<sup>270</sup> Коментарий к Конституции РФ. –М.: БЕК 1994. 101. –С.261

Saylov huquqiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar faqat konstitutsianing XXIII bobidagi (117-modda) normalar bilan cheklanmaydi. Ular konstitutsianing boshqa bob va moddalaridagi normalarda ham uchraydi.

Jumladan, Konstitutsianing 32-moddasida fuqarolarning davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etishda ishtirok etish huquqi (saylov huquqi), Konstitutsianing 90-moddasida O'zbekiston Prezidenti nomzodiga qo'yiladigan talablar haqidagi normalar, prezident saylovi muddati va saylov prinsiplari haqidagi normalar, Konstitutsianing 96-moddasidagi muddatdan tashqari Prezident saylovini o'tkazish haqidagi normalar saylov huquqining konstitutsiyaviy asosidir.

Saylov huquqining konstitutsiyaviy asosini, bevosita konstitutsiyaviy normalardan tashqari, konstitutsiyaviy qonunlardagi saylovga taalluqli normalar ham tashkil etadi.

“Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi<sup>271</sup> Konstitutsiyaviy Qonun va “Davlat boshqaruvin yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning ko‘plab normalari saylov huquqining konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Saylov huquqining huquqiy asoslari faqat konstitutsiyaviy asoslar bilan cheklanmaydi. Huquqiy asos konstitutsiyaviy asosga nisbatan keng bo‘lib, huquqiy asoslar boshqa hujjatlardagi normalardan, ya‘ni qonun, farmon, qaror va boshqa normativ hujjat qoidalardan iboratdir.

Saylov to‘g‘risidagi maxsus qonunlar va saylovga tegishli boshqa hujjatlar hamda ularning normalari, qoidalari haqida keyingi paragraflarda bataysil to‘xtalamiz.

Demokratik jarayonlarning o‘sib borishi natijasida hozirgi davrda saylov huquqi va qonunchiligi mantiqiy jihatdan sekin-asta ommaviy huquqning mustaqil tarmog‘iga aylanib bormoqda<sup>272</sup>.

---

<sup>271</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -2002. -№4-5, 60-modda.

<sup>272</sup> Избирательное право и избирательный процесс в РФ. -М.: НОРМА 1999. -С10-11.

### **3-§. O‘zbekiston Respublikasida saylov o‘tkazish prinsiplari**

Prinsip atamasi o‘zbek tilida ko‘pincha tamoyil deb yuritiladi. Bularning ma‘nosi deyarli bir xil. Lekin shunday atamalar borki, ular barcha tillarda aslicha qo‘llaniladi. Bu atama O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham qo‘llanilgan, masalan, 14-moddada. Prinsip ijtimoiy kategoriya bo‘lib, eng muhim g‘oyalarni qoida sifatida namoyon bo‘lishidir. Davlat va huquqning turli sohalarida prinsip tushunchasi qo‘llaniladi. Masalan, qonuniylik prinsipi, tashqi siyosat prinsipi.

Saylov huquqida ham prinsip atamasi qo‘llanilib, eng avvalo, u, saylovlarning adolatliligini, qonuniyligini ko‘rsatuvchi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Saylovlar eng qadimiy hodisalardan ekanligini aytib o‘tgan edik. Ular kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida qo‘llanilib kelingan bo‘lib, jamiyat rivojiga mos ravishda takomillashib bordi. Uning takomillashuvida ma‘lum qoidalarni vujudga kelishi, ularning bajarilishi, qo‘llanilishi shart etib belgilanishi muhim rol o‘ynaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, saylovlarning demokratlashuvida yangi davr boshlandi. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlar muhim o‘rin tutadi.

Saylov huquqining asosiy prinsiplari muhim ahamiyatga ega “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da xalqaro miqyosda o‘z ifodasini topdi. Uning 21-moddasida “har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. Xalq irodasi davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan, ovoz berish erkinligini ta‘minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi zarur” – deb belgilab qo‘yildi<sup>273</sup>.

Bu yerda bevosita to‘g‘ri saylov, erkin saylov, yalpi-umumiylar saylov, teng saylov, yashirin ovoz berish prinsiplari saylov o‘tkazishda zarur shart sifatida belgilanganligini ko‘ramiz.

BMT qabul qilgan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Paktning 25-moddasida “har bir fuqaro hech qanday cheklashlar-

---

<sup>273</sup> Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (to‘plam). –T.: Adolat, 2004. –B.34.

siz, kamsitilishsiz, bevosita – to‘g‘ridan to‘g‘ri, erkin, yalpi-umumiyl, teng, yashirin ovoz berish huquqiga ega bo‘lishi kerak” degan qoida o‘z ifodasini topdi<sup>274</sup>.

Natijada umumiyl, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi, yashirin ovoz berish, erkin ravishda xohish irodasini bildirish xalqaro miqyosda saylov huquqining asosiy qoidasi – prinsipi sifatida e‘tirof etildi. Buning muhim ahamiyati shunda bo‘ldiki, bu hujjat uni tan olgan, imzolagan davlatlar uchun majburiy kuchga ega bo‘lganligi uchun, uni imzolagan barcha davlatlar o‘z qonunchiligidagi yuqoridagi qoidalarni, umumiyl prinsip sifatida mustahkamlab qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va saylov qonunlarida umumiyl, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi prinsiplari, saylovlarning yashirin o‘tishi, oshkora o‘tishi, xohish-irodani erkin bildirish saylov huquqining asosiy prinsiplari sifatida belgilab qo‘yildi. Bu prinsiplar asosiy prinsiplar bo‘lishi bilan birga umume‘tirof etilgan prinsiplardir.

Ayrim adabiyotlarda saylov huquqining muhim, umume‘tirof etilgan prinsiplari deb faqat umumiyl, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri va yashirin ovoz berish ko‘rsatilgan<sup>275</sup>. Ayrimlarida esa saylovda ishtirok etish erkinligi, oshkoraliq ham saylov huquqining asosiy prinsiplaridan deb baholangan<sup>276</sup>.

Haqiqatda ham, erkinlik va oshkoraliqni asosiy prinsip deb aytish, bu qoidalarning saylovlardagi muhim ahamiyatini e‘tirof etishdir. Bundan tashqari ular O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan va saylov o‘tkazishda asosiy qoida hisoblanadi.

Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlarning konstitutsiyalarida umumiyl, to‘g‘ridan to‘g‘ri, teng, yashirin ovoz berish qoidalari o‘rnatib qo‘yilgan. Agar bu prinsiplar qonunlarda belgilangan bo‘lsa-yu, saylovlar erkin va oshkora o‘tmasa, unday saylovlarni demokratik saylov deb hisoblash mumkin emas.

<sup>274</sup> Shu to‘plam. –B.45.

<sup>275</sup> Конституционное право зарубежных стран. М: Норма, 2010, стр. 229; Баглай М.В. Конституционное право РФ. –М: Норма, 1998, –С.349-350. Таджикханов У. ва бошқалар. Узбекистон Республикаси конституциявий хукуки –Т : Шарқ, –2001. В-484.

<sup>276</sup> Husanov O.T. Konstitutsiyavii huquq. –Т.: Adolat. –2014. –В. 203-204.

Xalqaro kuzatuvchilar saylovlargaga, asosan ularning erkin va oshkora o'tkazilishi yoki aksincha bo'lishiga qarab baho berishadi. Shuning uchun ularni ham saylov huquqining umumetirof etilgan prinsiplari deb hisoblash mumkin. Saylovlar faqat oshkoraliq va erkinlik asosida o'tkazilgan taqdirdagina umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri saylovlar to'la ravishda o'z ifodasini topishi mumkin va shundagina ularning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 117-moddasida "saylovlar umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi" degan qoida kiritilib, umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri, yashirin ovoz berish konstitutsiyaviy prinsip darajasida mustahkamlangan. Fuqarolarning o'z xohish-irodasini bildirishda tengligi va erkinligi ham Konstitutsiyaning shu moddasida mustahkamlab qo'yildi. Saylov to'g'risidagi qonunlarda ham bular saylov huquqining asosiy prinsiplari sifatida qayd qilingan.

Amalga oshirilgan siyosiy islohotlar natijasida saylov huquqining bu prinsiplarini qo'llash, ularning amal qilishi kengayib bordi, fuqarolik jamiyatni qurish jarayonida saylovlar erkinligini ta'minlash dolzARB masala bo'lib qoldi. Shuning uchun Birinchi Prezident tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyada saylov huquqi erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor berildi<sup>277</sup>.

#### **4-§. Saylovlarda xalqaro standartlar (andozalar) qo'llanilishi hamda Xalqaro hujjat qoidalari O'zbekiston saylov qonunchiligiga implementatsiya qilish**

Saylovlar eng qadimgi ijtimoiy munosabatlar bo'lib, insoniyat rivojlanishi, ijtimoiy rivojlanish, demokratiya rivojlanishi bilan birga rivojlanib bormoqda va o'zi ham shu rivojlanishlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Inson huquqlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, xalqaro miqyosda ular himoya qilinar ekan, bu saylov huquqlariga ham tegishlidir. Xalqaro munosabatlar rivojlanishi, saylov huquqining rivojlanishiga ta'sir qilib bordi va barcha davlatlar, suveren davlat bo'lishidan qat'i

---

<sup>277</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohjtlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. –T: O'zbekiston, 2010. –B.35-41.

nazar, ko‘pchilik uchun ma‘qul qoidalarga, talablarga rioya etilishi maqsadga muvofiq ekanligi e‘tirof etdi. Bunday talablar saylovlarga qo‘yiladigan standartlar deb yurilatiladigan bo‘ldi. Bular saylovlarga qo‘yiladigan umumiy talablardir. “Umumiy talablar uzoq vaqt sinovdan o‘tgan, ko‘pchilik e‘tirof etgan qoidalardir. Ular demokratiyaning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, ayniqsa, saylov o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega”<sup>278</sup>

Hozir biror-bir davlat faqat o‘zida mavjud tartib, qoidalalar bilan saylov o‘tkazmaydi. Hozirgi kunda bir nechta xalqaro hujjatlarda saylovga taalluqli umumiy qoidalalar, talablar belgilangan bo‘lib, ularni chetlab o‘tish mumkin emas, aks holda, saylovlar demokratik hisoblanmaydi va jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmaydi.

Xalqaro standartlarning huquqiy asoslari xalqaro hujjatlarda, mintaqaviy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

Saylovlarda qo‘llaniladigan xalqaro standartlar saylovlarga qo‘yiladigan bir xil talablar bo‘lib, ular saylov huquqi prinsiplarini yanada to‘liq namoyon bo‘lishini, qo‘llanilishini ta‘minlaydi.

Saylovlarning xalqaro standartlari quyidagi xalqaro va mintaqaviy hujjatlarda belgilangan:

1. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)
2. “Fuqarolarning siyosiy va fuqarolik huquqlari to‘g‘risida”gi pakt (1966-yil 16-dekabr).
3. “Irqiylarning barcha shakllarni tugatish to‘g‘risida”gi xalqaro deklaratsiya (1966-yil 7-mart).
4. “Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to‘g‘risida”gi deklaratsiya (1967-yil 7-noyabr)
5. “Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya (1952-yil 20-dekabr).
6. Muntazam va haqiqiy saylov prinsiplarini samaradorligini oshirish haqidagi BMT rezolyutsiyasi (1991-yil 17-dekabr).

Bundan tashqari yana BMT tomonidan tashkil qilingan bir necha hujjatlarda saylovlarga taalluqli umumiy talablar, standartlar ko‘rsatib o‘tilgan.

---

<sup>278</sup> Xusanov O. Saylovlarga qo‘yiladigan xalqaro talablar va ularning O‘zbekiston qonunchiligidagi mustahkamlanishi. Demokratik saylovlar o‘tkazishning xalqaro standartlari va O‘zbekiston qonunchiligi. (Xalqaro konferensiya materiillari). –T., 2009. –B.39.

Xalqaro hujjatlardan tashqari, bir necha mintaqaviy hujjatlarda ham saylov standartlari qayd etilgan. Jumladan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarning himoyasi bo'yicha Yevropa konvensiyasi (1952), "Kopengagen anjumani hujjatlari", "Parlementlararo Ittifoqi Kengashining "Erkin va adolatli saylov mezonlari to'g'risida"gi Deklaratsiya" (1994).

Lekin birorta-bir xalqaro hujjat yoki mintaqaviy hujjat xalqaro saylov standartlarini bir tizimga solib bermagan, shuningdek, standartlar faqat shular degan qat'iy tushuncha ham yo'q. Bu tabiiy hol, albatta. Saylovlarning rivojlaniishi, ya'ni saylov texnologiyalari rivojlaniishi, standartlar tizimining ham kengayib borishini ko'rsatadi.

Yuridik adabiyotlarda, manbalarda standartlar haqida bir xil fikr yo'q. Ayrim adabiyotlarda standartlar sifatida erkinlik, adolatlilik, haqiqiylik ko'rsatilsa, ba'zi mualliflar saylovlardagi ochiqlikni xalqaro standartlar qatoriga kiritadi.

**Saylovlarning erkin o'tishi.** Saylovlarning erkin o'tishi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada va saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan. Erkin saylov deb saylovchilarga biror-bir tarzda bosim o'tkazilmaydigan sharoitlarda o'tkazilgan saylovlarni hisoblash mumkin. Saylovlarga biror-bir bir tazyiq o'tkazish, qo'rqtish yo'l qo'yilmaydigan saylovlarni erkin saylov deyiladi. Erkin saylov – sayloving prinsipi – teng saylovni to'la ro'yobga chiqaruvchi shart hamdir. Erkin saylov natijasidagina saylovchilar o'z xohish-irodasini ixtiyoriy amalga oshira oladi. Uning natijasida barcha saylovchilarga teng imkoniyat yaratiladi. Saylovchining erkin saylovda qatnashganligi yoki qatnashmaganligi uchun biron bir tarzda manfaatiga zarar yetishiga yo'l qo'ymaydi. Erkin saylov natijasida fuqaro saylovlarda boshqa qonuniy erkinliklardan ham (so'z erkinligi, fikr erkinligi, axborot olish, tarqatish erkinligidan) foydalanadi. Saylovlarda erkinlik faqat ovoz berishda emas, sayloving barcha tadbirlarida (tashviqot ishlari olib borishda, o'z nomzodini ko'rsatishga rozilik berishda, kuzatuvchilar, vakillar, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etishga roziliği) amal qilgandagina haqiqiy erkinlik hisoblanadi.

O'zbekistonda saylov tadbirlarida, ovoz berishda ishtirok etmaslik uchun ta'qib qilinmaydi, aksincha, fuqarolarning saylov erkinligi boshqa erkinliklari kabi sud tomonidan himoya qilinadi. Saylov erkinligining buzilishlari uchun tegishli jazolar belgilangan.

Saylovlarning xalqaro standarlaridan yana biri – **saylovlarning adolatlilik xarakteriga ega bo'lishidir.** Saylovlarda adolatning namoyon bo'lishi, avvalo, O'zbekiston saylov huquqining demokrativligidan

kelib chiqadi. Adolatlilik saylovlarning umumiy, teng, yashirin ovoz berish orqali o'tishida ta'minlasa, o'z navbatida, adolatlilik shu prinsiplarning to'la namoyon bo'lishiga, ro'yobga chiqishiga, foydali bo'lishiga ijobjiy ta'sir qiluvchi holatdir. Aktiv saylov huquqi voyaga etgan fuqarolarning (qonundagi istisnodan tashqari) ortiqcha cheklashlarsiz saylov huquqiga ega bo'lishi adolat natijasidir. Saylovchilarini, shuningdek, saylov ishtirokchilarini barcha masalalarda tengligi, hech kim imtiyozga ega emasligi, saylov huquqlarining samarali himoya qilish mexanizmi mavjudligi adolatlilikning amaliy ifodasıdir. Saylov tadbirlari turli kuzatuvchilar ishtirokida oshkora o'tishi ham adolatni ro'yobga chiqaruvchi omillardandir.

**Saylovlarning chinakamligi** xalqaro standartlardan bo'lib, uning natijasida saylovlardagi barcha tadbirlar, saylovchilarining huquqlari qonunlarda belgilangan asosda bo'lishi nazarda tutiladi. Chinakam saylovlardagina fuqarolar saylovchining boshqa huquqlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Saylovlar chinakam bo'lgandagina unda mag'lubiyatga uchragan kuchlar mag'lubiyatni tan olishga majbur bo'ladi Aks holda, jamiyatda qarshiliklar kuchayib ketib, turli inqirozlar vujudga keladi. Haqiqiy saylovlar jamiyatni bir siyosiy kuchdan ikkinchisiga talafotsiz, buzg'unchiliksiz, qonuniy topshirishga asos bo'ladi. Chinakam saylovlar saylovchilarga haqiqiy saylovnı ta'minlab, jamiyatda plyuralizmni keltirib chiqaradi va o'zi ham unga tayanadi. Saylovlarning oshkora o'tishi saylovlarni haqiqiy bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar bilan tanishib, saylov tajribalarini o'rganib, ilmiy izlanishlar orqali saylovlardagi xalqaro standartlar qatoriga saylovlarning davriyligi (aniq muddatlarda o'tishi)ni ham qo'shsa bo'ladi. Chunki saylovlarning aniq muddatlarda o'tishi uning muddatlarini hukmon kuchlar, hokimiyat tuzilmalari xohlagancha o'zgartira olmasligi, saylov larga qo'yiladigan xalqaro talablardan biridir.

"Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktning 25-moddasida umumiy saylov prinsiplari qatorida saylovlar davriy o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi ana shu xalqaro hujjat normalari ko'rsatmasiga mos ravishda saylovlar o'tkazishning aniq muddatini Konstitutsiyaning 117-moddasida mustahkamlab qo'yan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida konstitutsiya qabul qilinishidan ko'zlangan maqsadlar qatorida umume'tirof etilgan xalqaro qoidalarning ustunligini tan olish ta'kidlangan.

Umuman, konstitutsiya loyihasi ishlab chiqishda komissiya raisi komissiya oldiga boshqa vazifalar bilan birga, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari bo'yicha, demokratiya va qonunchilik borasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni, xalqaro hujjat qoidalarini hisobga olish vazifasini qo'ygan.

Bu ko'rsatma xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunchiligidagi implementatsiya qilish uchun turtki bo'ldi.

Xalqaro huquq qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro huquq normalarini aynan shundayligicha qonunlarimizga ko'chirish emas, ularning mazmun-mohiyatini qonunchiligidagi singdirish, to'g'ri talqin qilish orqali xalqaro huquq normalarini qonunchilikka, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, milliy manfaatlarga zarar yetkazmagan holda tatbiq etishdir.

Saylov huquqi inson huquqining, fuqarolar huquqining ajralmas qismidir. Shuning uchun milliy qonunchilikka xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilish saylov huquqiga ham to'la taalluqlidir.

Xalqaro huquq normalarining saylov huquqiga ta'sirini biz konstitutsiyadan barcha saylov qonunlarida ko'ramiz. Implementatsiya natijalarida konstitutsiya va saylov qonunchiligidagi saylov huquqini umume'tirof etilgan prinsiplari umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri, yashirin ovoz berish va ularga amal qilish natijasida vujudga kelgan Umumiy prinsiplarning ro'yobga chiqishini ta'minlaydigan sayloving xalqaro standartlariga muvofiq keladigan erkin, ixtiyoriy, oshkora, adolatli, chinakam, davriy saylovlardan mamlakatimizda amal qilmoqda.

Saylov huquqining prinsiplari, saylov o'tkazishning xalqaro standartlari shunchaki qonunlarda yozib qo'yilmasdan, ularning real amal qilishini ta'minlovchi shart-sharoitlar mamlakatimizda shakllangan.

Saylov huquqi prinsiplarining va saylov standartlarining amal qilishini ta'minlovchi sharoitlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1. Saylovlarning ochiq, oshkora, erkin, chinakam va adolatli o'tishi;
2. Saylovlarning mustaqil saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi;
3. Saylovlarning, saylov komissiyasining, nomzodlar va siyosiy partiylar faoliyatining davlat tomonidan moliyalashtirilishi;
4. Axborotlashtirish va tashviqot ishlarning davlat tomonidan ta'minlanishi;
5. Saylovlarda milliy va xalqaro kuzatuvchilarning ishtiroti;

6. Saylov natijalari bo‘yicha shikoyat qilish huquqining mavjudligi, saylov huquqining buzilishi uchun javobgarlikning mavjudligi;

7. Qabul qilinadigan qarorlar hech kimni kamsitmasligi.

O‘zbekistonda saylov qonunchiliga xalqaro saylov standartlarini implementatsiya qilishda, mamlakatimizda muntazam o‘tkazilayotgan ilmiy va amaliy anjumanlardagi ilmiy tahlil va takliflar muhim rol o‘ynamoqda.

Ana shunday anjumanlarda xorij ekspertlari qonunchiligidan xalqaro saylov standartlarini aks etganligi va ularning amaliy ifodasi darajasi haqida xolis fikrlarni bildirishgan.

### **5-§. O‘zbekiston Respublikasida referendum va uni o‘tkazish tartibi**

Referendum insoniyat o‘ylab topgan saylov singari demokratiyaning yaqqol ifodasi, uni amalga oshirishning vositasidir. U baynalmilal atama bo‘lib, umumxalq ovozi ma‘nosida ishlatiladi. Referendumning jamiyat hayotidagi muhim o‘rnii, uni Konstitutsiyamizda alohida moddada belgilanganida ham ko‘rish mumkin. Konstitutsiyaning 9-moddasida “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonun 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan bo‘lib, u keyinchalik o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan yangi tahrirda tasdiqlangan<sup>279</sup>.

Saylov huquqi darsligida nima uchun referendumga bob ajratilgan? degan savol tug‘ilishi mumkin. Bu darslikda referendum to‘g‘risida bob berilganligining sababi referendum va saylov o‘rtasida juda katta umumiylig va o‘xshashlik mavjud. Avvalo, ularning har ikkalasi demokratiya ifodasi, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida ishtirokini ta‘minlovchi usul; ularning har ikkalasida maqsadga ovoz berish orqali erishiladi; tashkil qilish va o‘tkazishda amal qiladigan prinsiplar o‘xshash va hokazo.

Referendumning saylovdan farqi ham mayjud. Saylovlarda mansabdor shaxslar, deputatlar saylansa, saylovchi nomzodlarga ovoz berса, referendumda masalaga ovoz beriladi, biron-bir masala hal qilinadi,

---

<sup>279</sup> O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2001. – №9–10. – 176-modda, – 2005. – №1. – 18-modda.

yana saylov aniq belgilangan muddatlarda o'tkazilsa, referendum zaruriyatga qarab o'tkaziladi.

Qonunda qayd qilinishicha referendum saylovlari bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliv yuridik kuchga ega bo'lib, u faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Referendum saylovlari singari umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri prinsipda yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi, fuqarolar unda o'z xohish-irodasini erkin-ixtiyoriy bildiradilar. Referendumda ishtirok etishga, shuningdek, ishtirok etmaslikka biron bir tarzda ta'sir qilinishi mumkin emas.

Har bir fuqaro referendumda teng asosda ishtirok etadi va bitta ovozga ega. Referendumda fuqarolar bevosita ishtirok etadi, ularning xohish-irodasi bildirishi hech qanday yo'l bilan nazorat qilinmaydi. Referendumga tayorgarlik ko'rish va o'tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

Referendum o'tkaziladigan kunda 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga ega. Respublika hududidan tashqarida yashayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ham referendumda ishtirok etadilar.

Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatiga qarab fuqarolarning referendumda qatnashish huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Xuddi saylovdagi singari, referendumda ham, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan fuqarolar referendumda ishtirok etmaydilar.

Referendumga tayorgarlik ko'rish, o'tkazishning ba'zi tadbirlari oshkora va ochiq o'tkaziladi. Referendumni oshkora, adolatli o'tkazishni ta'minlashda kuzatuvchilar alohida rol o'ynaydi.

Referendumning demokratik xususiyati yana shunda ko'rinaladi, fuqarolar jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari referendum o'tkazilishini yoqlab yoki unga qarshi, referendumga qo'yilayotgan qonun loyihasi, amaldagi qonun yoki boshqa masalani

yoqlab yoki unga qarshi hech qanday moneliksiz tashviqot olib borish huquqiga ega.

Referendum qarorlari jiddiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Shuning uchun undan faqat ezgulik yo‘lida foydalanish maqsadlaridan kelib chiqib ayrim masalalarni referendumga qo‘yish mumkin emasligi ham qonunda belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, referendum predmeti bo‘lmaydigan masalalar quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o‘zgartirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar;
- amnistiya va afv etish;
- jamoat tartibini, aholi sog‘lig‘i va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar o‘tkazish;
- respublikaning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish;
- mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida joriy etilgan harbiy vaqt yoki favqulodda holat sharoitlarida, shuningdek, harbiy vaqt tugagan yoki favqulodda holat bekor qilingandan keyin uch oy davomida referendum o‘tkazilmaydi.

Referendum natijalari rasman e‘lon qilingandan keyin bir yil davomida mazmun yoki ma‘nosiga ko‘ra xuddi shunday savol qo‘yilgan referendum o‘tkazilmaydi.

Referendum O‘zbekiston hayotiga kirib kelgan va bir necha bor eng muhim masalalarni hal qilishda qo‘llanilgan voqealarni bo‘lib qoldi. Oxirgi referendum 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilib uning natijasida ikki palatali parlament joriy etildi va prezidentning vakolat muddati o‘zgartirildi. Shu referendumda ovoz beruvchilar ro‘yxatiga 13 266 602 fuqaro kiritilgan bo‘lsa, ularning 12 113 070 nafari ovoz berishda ishtirok etdi. Ovoz berishda ishtirok etgancharning 92 % ikki palatali parlament va prezidentning vakolat muddati uzaytirilishini yoqlab ovoz berdi<sup>280</sup>. “Referendumning o‘tkazilishi va uning yakunlari davlatchiligimiz rivojida, jamiyatni demokratik yangilash jarayonida muhim bosqich bo‘ldi.

---

<sup>280</sup>Azizxo‘jaevA. Va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O‘zbekiston 2013. – B.54.

Eng asosiysi, referendum natijalari mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning jamoatchiligidir, aholimiz tomonidan qanchalik qo'llab-quvvatlanayotganini amalda yaqol tasdiqladi”<sup>281</sup>.

### **Referendum tayinlash**

Yuqorida qayd qilinganidek saylov o'tkazish muddati konstitutsiyada belgilangan, shu muddatda Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi boshlanganligini e'lon qiladi.

Referendumni oldindan tayinlash mumkin emas. Hal qilinishi lozim bo'lган masalalar har qanday paytda paydo bo'lishi mumkin, shuning uchun qonun shunday masalalar vujudga keldi deb hisoblovchi ayrim subektlarga, referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqini beradi.

Qonunga asosan referendum o'tkazish tashabbusi bilan:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin.

Bular referendum to'g'risidagi tashabbus ko'rsatishda teng huquqga ega.

Fuqarolar referendum tashabbusi bilan chiqishi uchun ba'zi talablarni bajarishi kerak, jumladan ular respublika bo'yicha referendumda ishtirok etish huquqiga ega fuqarolarning besh foizini imzosini to'plashi kerak. Imzolar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar orasida teng miqdorda to'planishi kerak.

Referendumda ishtirok etish huquqiga ega har bir fuqaro yoki fuqarolar guruhi referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi imzolarni to'plash uchun karnida yuz kishidan iborat tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin.

Tashabbuskor guruh tuzilgach uning vakolatli vakili guruhni ro'yxatdan o'tkazishni so'rab Markaziy saylov komissiyasiga murojaat qiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- fuqarolar tashabbuskor guruhi a'zolarining familiyasи, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, turar joy manzili, pasportining seri-yasi va tartib raqami ko'rsatilgan ro'yxati;

---

<sup>281</sup> Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirishning asosiy yo'naliishlari. – T : O'zbekiston. 2009. – B.15.

- tashabbuskor guruhning vakolatli vakilini tayinlash haqidagi rasmiy ishonchnoma;
- guruh yig'ili shining bayonnomasi;
- referendumga qo'yilayotgan masalalarining asosi (ta'rifi).

Markaziy saylov komissiyasi tushgan hujjatlarni ko'rib chiqib besh kun ichida u guruhni ro'yxatga olish yoki olishni rad etish to'g'risida asosli qaror qabul qiladi. Guruh ro'yxatga olinsa, vakolatli vakilga bu haqda guvohnoma beradi. Guvohnoma olingach referendumni qo'llab-quvvatlovchi imzolar to'plash boshlanadi. Guvohnoma uch oy mobaynida haqiqiy sanaladi. Imzo to'plash harajatlari tashabbuskor guruh hisobidan bo'ladi.

Imzo varaqalarining shaklini Markaziy saylov komissiyasi belgilaydi. Varaqada imzo qo'yuvchilar: familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, turar joy manzili, pasportining seriyasi va tartib raqamini ko'rsatadi.

Imzo varaqasi imzo to'plagan shaxs, shuningdek, fuqarolar tashabbuskor guruh vakolatli vakili tomonidan tasdiqlanadi. Unda ularning familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joy manzili, pasportining seriyasi va tartib raqami ko'rsatiladi.

Imzo to'plash qonun bilan tashviqot o'tkazish taqiqlanmagan joylarda o'tkaziladi. Imzo to'plashda fuqarolarni majburlash yoki turli yo'llar bilan og'dirib olishiga yo'l qo'yilmaydi.

Imzolar ma'muriy hududiy birliklar bo'yicha jamlanib Markaziy saylov komissiyasiga topshiriladi.

Hujjatlarni taqdim etgan shaxsga guvohnoma beriladi.

Markaziy saylov komissiyasi hujjatlarni qonuniy to'ldirilganligini tekshirib, o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga o'z xulosasini yuboradi va bu haqida O'zbekiston Prezidentini xabardor qiladi.

Imzo to'plashda qonun buzilishlari aniqlansa, referendum o'tkazish haqidagi tashabbusni haqiqiy emasligi haqida Markaziy saylov komissiyasi qaror qabul qiladi. Qonunga asosan referendum Oliy Majlis tomonidan tayinlanadi. Referendum tayinlash Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolati hisoblanadi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqqanda Oliy Majlisga murojaat etishi yoki referendum o'tkazish to'g'risida o'z qarorini qabul qilishi ko'rsatilgan. Demak, Prezident ham referendum tayinlash huquqiga ega. Referendum tayinlanganda, unga qo'yilayotgan masala matni ham tasdiqlanadi.

Oliy Majlis palatalarida referendum haqidagi tashabbusni ko'rib chiqish hamda referendum tayinlash tartibi qonunda belgilab qo'yilgan. Xuddi qonun qabul qilinishi singari bu masala avval Qonunchilik palatasida ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasi referendum o'tkazish tashabbusi haqidagi materiallarni va mas'ul qo'mitaning xulosasini ikki hafta ichida ko'rib chiqadi va quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- referendumni tayinlash va o'tkazishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida;
- referendum o'tkazish haqidagi tashabbusni rad etish to'g'risida;
- referendum o'tkazish to'g'risidagi tashabbusda taklif etilgan qonun yoki boshqa qarorni referendum o'tkazmasdan turib qabul qilish haqida.

Qonunchilik palatasining referendumga oid qarori uch kun ichida Senatga va tashabbuskorlarga yuboriladi.

Senat referendum o'tkazish haqida tashabbus materiallarini, Qonunchilik palatasi qarorlarini, mas'ul qo'mitaning xulosasini ikki hafta ichida ko'rib chiqib referendum tayinlash va uni o'tkazishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida yoki referendum o'tkazshni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror uch kun ichida Qonunchilik palatasiga va tashabbuskorlarga yuboriladi.

Senat referendumni o'tkazish haqida qaror qabul qilgan taqdirda uch kun ichida Senat va Qonunchilik palatasining qarorlari matbuotda e'lon qiladi.

Palatalar qarorlarida referendum o'tkazish sanasi ham belgilanadi. Referendum sanasi qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran bir yarim oydan uch oygacha bo'lgan davrda istalgan kunga tayinlanishi mumkin.

### **Referendum o'tkazuvchi tuzilmalar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida saylovni va referendumni tashkil etish va o'tkazish uchun Oliy Majlis tomonidan Markaziy saylov komissiyasi tuziladi deb ko'rsatilgan<sup>282</sup>. U butun mamlakat hududida referendumni tashkil qiladi.

Referendum o'tkazishda saylov okruglar va uchastkalar tuziladi. Referendum okruglari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi

---

<sup>282</sup>Markaziy saylov komissiyasini tuzishtartibi, tarkibi, ishfaoliyati shakli va prinsiplari, vakolatlari darslikning 8-mavzusida berilgan.

kabi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegarasida tuziladi, ya'ni har bir ma'muriy hududiy birliklar bitta okrug hisoblanadi.

Referendumda ishtirok etish huquqiga ega fuqarolar soni, referendum o'tkazuvchi okrug komissiyasi joylashgan joy ko'rsatilgan ro'yxatlar, referendum tayinlangan qaror e'lon qilingan kundan keyin kechi bilan besh kun ichida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

Referendum uchastkalari tumanlar, shaharlarning chegaralari asosida fuqarolarga mumkin qadar qulaylik yaratishni ko'zlab, tuman va shahar hokimliklarini taqdimnomasiga asosan okrug komissiyasi tomonidan referendum tayinlash e'lon qilinganidan keyin o'n besh kundan kechiktirmay tuziladi.

Referendum uchastkalari xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida, harbiy qismlar, sanatoriylar, dam olish uylari, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin bo'lgan yerlardi fuqarolar turgan joylarda ham besh kun qolganda tuzilishi mumkin.

Harbiy qismdag'i uchastkalar harbiy qismlar yoki qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan, okrug komissiyasi tomonidan, xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarida tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Uchastkalar qoida tariqasida, kamida yigirma va ko'pi bilan uch ming fuqarodan iborat tuziladi.

Referendumni o'tkazish uchun okrug saylov komissiyalari va uchastka komissiyalari tuziladi. Ular referendum o'tkazish paytidagina faoliyat ko'rsatadi. Agar referendum saylov o'tayotgan vaqtida o'tsa, referendumni o'tkazishni ham okrug, uchastka saylov komissiyalari zimmasiga yuklash mumkin.

Okrug saylov komissiyasi, referendum tayinlash to'g'risidagi qaror e'lon qilinganidan keyin o'n kundan kechiktirilmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan to'qqiz nafar komissiya a'zosidan iborat tarkibda tuzilib, u o'z majlisida rais, o'rribbosari va kotibini saylaydi.

Uchastka saylov komissiyasi referendum tayinlash to'g'risidagi qaror e'lon qilinganidan keyin okrug komissiyasi tomonidan yigirma besh kundan kechikmay o'n to'qqiz nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Uning raisi, rais o'rribbosari va kotibi komissiya majlisida sayylanadi. Komissiya yetti nafargacha a'zodan iborat ham tuzilishi mumkin. Unda

faqat rais va o'rribbosari saylanadi. Uchastka komissiyasi tarkibining soni zarur hollarda ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzuridagi uchastka saylov komissiyasi raisi vazifasini vakolatxona rahbari bajaradi.

Okrug komissiyalarining a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tavsiyasiga ko'ra, uchastka komissiyasining a'zolari mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari taqdimnomasiga ko'ra tasdiqlanadi.

Komissiyaning a'zosi o'z arizasiga ko'ra yoki vakolatidan mahrum qilinganida vazifasini bajarishdan ozod qilinadi.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdar shaxslar referendum komissiyasiga yordam berishlari, ularning ishi uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

Kerakli binolar va jihozlar komissiya ixtiyoriga bepul beriladi.

Komissiyalar referendumga tayyorgarlik ko'rish masalalari bilan har qanday organ, tashkilot va mansabdar shaxslarga murojaat qilishi mumkin, ular masalani ko'rib chiqib ko'pi bilan uch kun ichida javob qaytarishlari shart.

## *O'zini - o'zi nazorat qilish savollari*

1. Saylov huquqi Konstitutsiyaviy huquq tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lib, bu huquq fuqarolarga davlat boshqaruvida, davlat hokimiyatini shakllantirishda hamda davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta minlab beradi.

Saylov huquqi qanday huquqiy institut hisoblanadi? Uning boshqa huquqiy oilalaridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini muhokama qiling.

2. Saylov huquqi manbalarining ichida Konstitutsiyaning hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Nima uchun Konstitutsiya va xalqaro hujjatlar saylov huquqining manbayi hisoblanadi? Uning yuridik ahamiyatini aniqlang hamda muhokama qiling.

3. Dunyoda saylov huquqi prinsiplari orasida yashirin ovoz berish prinsipi o'zining alohida prinsip ekanligi bilan ajralib turadi.

Yashirin ovoz berish prinsipi nima uchun demokratik saylovnинг asosiy sharti hisoblanadi? Ushbu prinsipni boshqa prinsiplar bilan qiyosiy tahlil qilib, muhokama qiling.

4. Saylovlarda "senz" tushunchasi mavjud. Ushbu atamaning dunyoda, har bir mamlakatda turli ko'rinishlari mavjud.

O'zbekistonda o'tkaziladigan saylovlarda qanday "saylov senzlari" qo'llanadi? Unga huquqiy baho bering hamda boshqa mamlakatlardagi "saylov senzlari" bilan qiyosiy tahlil qiling.

5. Dunyoda turli xil saylov tizimlari mavjud. Ularning o'ziga varasha qo'llanish tartib taomillari bor.

Xalqaro saylov tizimlari (majoritar, proporsional, aralash) o'ziga xos xususiyatlari, farqlari va har birining afzal jihatlari bo'yicha mustaqil fikringizni bildiring, har bir saylov tizimi amalda bo'lgan ayrim xorijiy mamlakatlarning saylov tizimlarini ularning saylovga doir qonun hujjatlari bilan tanishgan holda qiyosiy tahlil qiling.

6. O'zini demokratik davlat deb e'lon qilgan har bir mamlakatda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining ustunligi tan olinadi. Jumladan, saylov to'g'risidagi qonunlarda ham bor.

Saylovga doir milliy qonunchiligidan xalqaro huquq normalarining implementatsiya qilinishi darajasi xususida O'zbekiston Respublikasining milliy saylov qonunchiligini va xalqaro saylovga doir hujjatlarni o'rgangan holda qiyosiy tahlil qiling.

7. Saylov-huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy huquqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning vujudga kelishiga turli xil omillar ta'sir ko'rsatib, bir nechta subyektilar o'rjasida paydo bo'ladi.

Saylov-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini kimlar? Ularga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat? Ularning vazifalari qanday? O'zbekiston Respublikasining saylovga doir qonun hujjatlari asosida yuqoridagi savollarga javob bering va mustaqil tahlil qiling?

8. Kuzatuvchilar instituti saylovlarda ochiqlik va oshkoraliyini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Lekin ushbu holatga xorijda salbiy baho berish hollari uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi saylovga doir qonun hujjatlarida saylovlar jarayonida kuzatuvchilar institutining o'rni va ahamiyati qanday? Saylovlar jarayonida kuzatuvchilarning ishtiroki qanday tartibda amalga oshiriladi? Kuzatuvchilar institutining demokratik institut sifatida ahamiyatini mustaqil tahlil qiling hamda huquqiy baho bering.

9. Erkinlashtirish davlat qurilishi va boshqaruvidagi islohotlarning asosini tashkil etib, u boshqa hokimiyat tarmoqlariga taalluqli bo'ldi. Bu borada mamlakatda amalga oshirilgan voqealardan biri 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendum va uning asosida 2003-yil 24-aprelda Qonun qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq referendumni tashkil etish, o'tkazish prinsiplari, referendum o'tkazish tashabbusiga ega subektlar ularning huquqlari va referendumga qo'yiladigan masalalar, referendumda qo'yilmaydigan masalalar qanday belgilangan va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

10. Barcha mamlakatlarda referendumni tashkil etuvchi hamda o'tkazuvchi organlar mavjud. Jumladan, O'zbekistonda ham. Shu bilan birga mamlakat hayotida eng muhim masalalarni yechish maqsadida referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqadigan subyektlar bor.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq referendum o'tkazishga tayyorlarlik ko'rish, uni o'tkazish va ovoz berish natijasini aniqlash tartibi qanday, mazkur jarayonlarning har birini mustaqil tahlil qiling.

## **XXVIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**

1-§. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi.

2-§. Prokuratura organlarining qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat faoliyati.

3-§. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi.

### **1-§. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi**

Prokuratura deganda nazoratni amalgalashuvchi davlat organi yoki bunga vakolat berilgan mansabdar shaxs tushuniladi<sup>283</sup>.

Lotin tilida «Procuratio (Procuro)» so'zi «g'amxo'rlik qilish, boshqarish», «Procurator (Procuro)» so'zi «boshqaruvchi, idora qiluvchi, rais, ishonchli vakil, vakolatli, boshqaruvchi degan ma'nolarni anglatadi. «Procuro» so'zidan esa «g'amxo'rlik qilmoq, parvarishlamoq, asrab-avaylamoq, ta'minlamoq, sodir etmoq, boshqarmoq, boshlab bormoq» degan ma'no tushuniladi<sup>284</sup>.

O'rta asrlardan – XIX asrning II yarmiga, ya'ni Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar sud-huquq tizimiga mansub turli "idora" hamda lavozimlar (qozi, muhtasib, mirshab, qoziaskar va b.) bo'lgan. Ularda hozirda prokuratura organlarida mavjud vakolatlar va vazifalarning ayrim elementlarigina bo'lgan xolos. Vaqt o'tishi bilan ularning funksiyalari kengayib borgan.

Prokuror nazorati instituti ilk bor 1867-yilda ishlab chiqilgan Turkiston o'lkasini boshqarishga oid vaqtinchalik Nizom loyihasida ko'zda tutilgan. Biroq o'sha davrda prokuratura maxsus organ sifatida tuzilmagan edi. Prokuror funksiyasi ma'muriy boshqaruv apparatini boshqarib kelgan general-gubernator tomonidan bajarilgan (Turkiston o'lkasi uchta mustaqil ma'muriy hududlar – Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limidan tashkil topgan edi)<sup>285</sup>.

<sup>1</sup> Современный словарь иностранных слов. -М. . 1993. – С. 493 Большой юридический словарь. – М., 1999. –С. 821 – 822.

<sup>2</sup> Дворецкий И.Х. Латинско – русский словарь 5-С439. – М., 1998. – С. 621.

<sup>285</sup> Рахимов Ф.Х. Прокуратура органлари ва унинг конституциявий-хукукий макоми. – Т.: 2018 й. Б 10

Turkiston o'lkasida 1887-yili Rossiya hukmdorlari tomonidan tuzilgan prokuratura organlari O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, mahalliy xalqni podsho va uning amaldorlariga itoatgo'y qilib berish, ularni xo'rash, tabiiy boyliklarni istaganicha olib ketishlariga shart-sharoit yaratib berish bilan shug'ullanishgan. Prokuratura organlarida asosan uning hududidan kelgan turli millatga mansub kishilar bo'lgan va birinchi prokurorlik lavozimiga faqat rus millatiga mansub kishilar ishlagan. «Oktabr inqilobidan» keyin yana hokimiyat o'zgardi, yana yangi tartib qoidalar o'rnatila boshladi.

Buxoro xalq jumhuriyatida 1924-yilning o'rtalariga kelib qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi maxsus organ prokuratura organi to'la shakllangan bo'lsada, amaldagi qonun normalari RSFSR qonun normalari asosida qabul qilinganligi, rus alifbosida yozilganligi tufayli ming yillab musulmon qonunchiligi bo'yicha yetuk bilimga, mutaxassislarga ega bo'lgan xalq, yangi hokimiyat qonunlari oldida ularni umuman savodsiz qilib qo'ydi va mahalliy xalq vakillariga prokuratura organlarida ishlash imkoniyatini bermadi, natija mahalliy xalq ko'p hollarda qonun himoyasidan tashqarida qolib ketdi. Mustaqillik kunlariga qadar, prokuratura organlarida ishlash uchun tanlanadigan nomzodlar kommunistik partiya va sovet hokimiyati organlari tomonidan tayinlandi. Ularning esa o'z faoliyatları davomida, shu hokimiyat organlari oldida hisobot berib turishlari qonunlarda ifodalandi. Buning oqibatida prokuratura organlari o'z faoliyatlarini olib borishishlarida mazkur tashkilotlarga qaram qilib qo'ydi. Bunday holatlar prokuratura organlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ularning ichki ishlariga bemalol aralashish imkoniyatiga sharoit yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari to'g'risida"gi farmonida "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun loyihasini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi ko'rib chiqishi uchun taqdim etish belgilandi. Qonun jamiyatning barcha jabhalariga tegishli bo'lgan organning huquqiy asosi bo'lganligi tufayli loyiha muhokamasiga e'tibor juda yuqori bo'ldi. O'sha paytda bir palatali bo'lgan Parlament tomonidan loyiha uch o'qishda muhokama qilinib uchinchi o'qishda 1992-yil 9-dekabrdan qabul qilindi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi prokururasi faoliyatining huquqiy asosi yaratildi.

Mazkur Qonun qariyb 10 yil, ya'ni 2001-yil 29-avgustiga qadar prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asosi sifatida mamlakatda

tinchlik, barqarorlik, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash yo'lida xizmat qildi.

2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi va unga prokuror vakolatiga aniqlik kiritadigan bir qancha o'zgartishlar kiritildi. Xususan, qonun bilan belgilangan prokurorlik nazorati ob'ektlari qatoridan fuqarolar chiqarildi. Binobarin, demokratik jamiyatda alohida fuqarolar emas, balki ularning qonuniy huquq va manfaatlari qanday himoya qilinayotgani prokurorlik nazoratining ob'ekti hisoblanishi ta'kidlandi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Qonunga ko'ra, prokurorlarning ijro etish uchun majburiy bo'lgan amrnomalar kiritish vakolatiga barham berildi. Endilikda Qonunning 37-moddasiga ko'ra, protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlari sifatida belgilandi. Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari borasida ham o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot beradilar (Qonunning 5-moddasi). Yangi tahrirdagi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinishi ilk bor mustahkamlab qo'yildi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan chiqariladigan buyruq va boshqa hujjatlarning qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga prokuror vakolatiga aniqlik kiritadigan o'zgartishlar kiritildi. Qonunning 26-moddasiga ko'ra, fuqaroning sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog'lig'iga, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, da'veoni prokuror taqdim etishi va sudda quvvatlashi belgilab qo'yildi. Shu kabi o'zgartish va qo'shimchalar mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqr isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilinganligidan dalolat beradi.

Huquqiy demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, sud-huquq tizimini yanada isloh etish orqali jinoiy jazolarni liberallashtirish siyosati amaliy jarayonlari prokuratura organlarining ham qonunchilik asoslarini islohiy tub takomillashishini taqozo etar edi.

## 2-§. Prokurorning qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat faoliyati

Yuridik adabiyotlarda prokuror nazorati deganda davlat nomidan maxsus vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar – prokurorlar tomonidan qonun buzilish holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf qilish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyat ekanligi ta‘kidlanadi.<sup>286</sup>

Professor Sh.Sh.Shoraxmetovning ta‘kidlashicha, prokuror nazorati hech qanday ma‘muriy hokimiyatga ega bo‘limganligini, har qanday ma‘muriy hokimiyatdan farq qilishini va birorta ma‘muriy masala bo‘yicha hech qanday hal qiluvchi ovozga ega emasligini esda tutish kerak. Prokuror faqat bиргина narsaga haqqi bor va majbur, u ham bo‘lsa hech qanday mahalliy xususiyatlarga va mahalliy ta‘sirlarga qaramasdan butun Respublikada qonunni va boshqa huquqiy me‘yorlarni bir xilda tushunishning tatbiq etilishini kuzatib borishga qaratilgan. Prokurorning birdan-bir huquq va burchi masalani sud hukmiga topshirish lozimligi yuridik adabiyotlardan ma‘lum.<sup>287</sup>

Huquqiy adabiyotlarda prokuror nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra:

- 1) mayjud bo‘lgan barcha qonunlarni fuqarolar va tashkilotlar tomonidan ularning faoliyat doirasidan qat‘i nazar aniq va to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlash;
- 2) prokuror nazorati–prokuratura faoliyatining bir yo‘nalishi;
- 3) prokuror nazorati oliy qonun chiqaruvchi va ijro organlariga, O‘zbekiston Respublikasi oliy mansabdor shaxslariga, umumiy

<sup>286</sup>Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва прокуратура Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. А.Х.Сандов. –Т.: ТДЮИ, 2005. -8 б.

<sup>287</sup> Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳукуки: Дарслик – Т: Адолат 2001. -72 б.

yurisdiksiya sudlariga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy  
sudiga nisbatan tatbiq etilmasligi hisoblanadi.<sup>288</sup>

Prokuratura organlarining tashkiliy faoliyatidagi muhim xususiyati uning har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari, mahalliy organlar va mansabdar shaxslardan mustaqil ekanligidadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga ko'ra, prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'y sunib amalga oshiradilar.

Shuningdek, prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turishi to'g'risida qoida belgilangan. O'zbekiston Respublikasidagi barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, davlat nazorati idoralari, hokimlar, kimga bo'y sinishidan, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, harbiy qismlar, mansabdar shaxslar, shuningdek, fuqarolar tomonidan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh Prokurori va unga bo'y sunuvchi quy! prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunlarni to'g'ri tatbiq qilish borasida prokuratura organlarining faoliyati sudsiga birmuncha o'xshash bo'lsa-da, sudlar o'z faoliyatini odil sudlovni amaiga oshirishga qaratadilar, prokuror esa, odil sudlovni amalga oshirish uchun har tomonlama ko'maklashuvchi organ bo'lib hisoblanadi.

Demak, sud va prokuratura organlarining qonunlarni to'g'ri tadbiq qilish yuzasidan nazorat etish vazifasida o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, biroq ularni amalga oshirishda sud va prokuror o'ziga xos turli usul va shakllardan foydalanadilar.<sup>289</sup>

O'zbekiston prokururasi – faqat qonunga bo'y sunuvchi mustaqil davlat organi. Prokururaga konstitutsiyaviy maqomni berilishi prokuratura organlarining samarali faoliyat yuritishining va ularning mustaqilligining muhim faktori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (118-120 m.m.) va "Prokuratura to'g'risida"gi qonun (1-m.) O'zbekiston Respublikasi

<sup>288</sup> Рустамбоев М.Х. Узбекистон Республикасининг Конституцияси ва прокуратура. Масъул мухаррир ю.ф.д., проф. А.Х.Сандов. –Т.: ТДОИ, 2005, -8 б.

<sup>289</sup> Мамасидиков М.М., Шодмонов Ф.Ю., Алимарданов Х. Фуқаролик процессида про-курор иштироқи. Ўкув-амалий кўлланма. Ю.ф.н. Ш.Б.Мустафоев таҳрири остида. –Г. Узбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий укув курси - 2014. – 100 б.

prokuraturasining davlat-huquqiy statusini qonuniy mustahkamlagan. Qonunga muvofiq, prokuratura O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi yagona markazlashtirilgan organlar tizimi hisoblanadi.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari «Prokuratura to'g'risida» gi qonunining 4-moddasida belgilangan.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

- vazirlıklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirlıklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;
- sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovinu quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirot etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariiga protest keltirish;
- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madanjatni yuksaltirish ishida ishtirot etish.

Demokratik davlatning muhim talabi ham davlat organlari, jamoat birlashmalari va jamoalar, mansobdar shaxslar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishlari, ular tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga

muvofiqligidir. Prokuratura organlari faoliyati va kuchi qonun ustuvorligini mustahkamlash, uning barqarorligi, bir xilda qo'llanilishini ta'minlash hamda mamlakatimiz Konstitutsiyasida oliv qadriyat sifatida e'lon qilingan fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan.

Prokuratura organlari faoliyati har bir prokuror tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlash, ular faoliyati mamlakat hududida barchaning qonun oldidagi tengligi va barchaga qonunning bir xil tatbiq etilishini ta'minlashga qaratilganligida ko'rindi. Bunda Konstitutsiyaning 18-moddasida belgilangan qoida nazarda tutiladi, unga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bil xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

"Prokuratura to'g'risida"gi qonunning amaldagi tahririga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat (Qonunning 2-moddasi).

Prokuror o'zining har xil sohalardagi faoliyatida keng vakolatlarga ega bo'lib, ularning qo'llanilishi unga o'zining faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni – birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlashda. Bu vakolatlarni tatbiq etish prokurorning nafaqat huquqi, balkim majburiyati hamdir. Misol uchun, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasidagi vakolatlar, prokurorga ma'lum bo'lgan fakt, davlat boshqaruvi organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdar shaxs va boshqa shaxslarning fuqarolarning huquqlarini buzuvchi qonunsiz harakatlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish majburiyatini ko'rsatadi.

Ko'pchilik holatlarda prokuror tomonidan yuqorida qayd qilingan faoliyatni amalga oshirish uchun asos, kelib tushgan ariza va shikoyatlardan ma'lum bo'lgan qonun buzilish hisoblanadi. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi prokuratura organlarining fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'rishga oid vakolatlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining ijro etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori zimmasiga yuklanganligini ham qayd etish lozim.

Yangi tahrirdagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda prokuror nazoratining quyidagi tarmoqlari: qonunlar ijrosi ustidan nazorat; fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat; jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat; ushlab turilganlarni, qamoqqa olingenlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy tasirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qayd qilingan. Bulardan tashqari, qonun sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlari va prokuror nazorati belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar, O'zbekiston Respublikasining Qurolli kuchlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Prokuror nazoratni amalga oshirish jarayonida prokuror faoliyati bilan bog'liq asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qonun buzilishining mohiyatiga qarab qo'llaydi. Bu hujjatlар prokuror nazorati hujjatlari deb nomlanadi. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda quyidagi prokuror nazorati hujjatlari belgilangan: protest (38-modda), qaror (39-modda), taqdimnomma (40-modda), ariza (41-modda) va ogohlantiruv (42-modda).

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash maqsadida prokuratura organlari tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradilar, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish holatlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshiradilar.

Mamlakatda qonun ustuvorligi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning barqarorligini ta'minlashda prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish va rolini kuchaytirish maqsadida va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda milliy qonunchilikka prokuratura organlari faoliyatini belgilovchi huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning vakolatlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

2001-yilni 6-iyulidan Bosh prokuratura huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi bo'linmalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Prokuraturaning huquqni himoya qilishga oid profilaktik funksiyasi, uning muhim ijtimoiy vazifalarni, davlatning strategik manfaatlari himoyasi bilan bog'liq bir qator yo'nalishlardagi faoliyati jiddiy kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdag'i "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2833-tonli Qarori asosida - Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi; Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi; Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi faoliyatlarini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkiniliklarining ishonchi himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida"gi 2017-yil 18-apreldagi 5019-tonli Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasasi va uning joylardagi organlari tizimi va strukturasini takomillashtirildi. Bosh prokuratura strukturasida Ijtimoiy qonunchilik ijrosi ustidan nazarat boshqarmasi, Iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan nazarat boshqarmasi, Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish bo'limi tashkil qilindi, hamda boshqa tarkibiy tuzilmalarga o'zgartirishlar kiritildi. Farmon bilan shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-tonli Farmonida belgilangan ustuvor yo'nalishlarning bajarilishini ta'minlash prokuratura organlarining asosiy vazifasi hisoblanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi o'zining vakolatlari doirasida chet el davlatlarining prokuratura va vakolatli organlari hamda ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshiradi, bu O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari va muassasalarining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bosh prokuratura O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarolari manfaatlarini qamrab oluvchi uyushgan, transmilliy, odam savdosi, narkotrafik bilan bog'liq jinoyatchilik, boshqa iqtisodiyot, ekologiya sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurashishda o'zining imkoniyatlarini chet el davlatlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlik va kuchlarni birlashtirishga qaratib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-may kunidagi "Elektor energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etilib, uning vazifasi, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash, elektr, gaz uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj holatlарини aniqlash, bartaraф etish, oldini olish va boshqa bir qator vazifalarni bajarish hisoblanadi.

Prokuratura organlari faoliyatiga oid qonunchilikka kiritilgan o'zgartishlarning tahlili shundan dalolat beradiki, bu o'zgartishlar birinchi navbatda, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni va huquqtartibotni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Yuqorida qayd qilingan vazifalarni muvoffaqayatli bajarilishida prokuratura organlarining roli nixoyatda muhumligi e'tiborga olinib 2016-yil 19-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonunga muvofiq 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni deb belgilandi.

### **3-§.Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi**

Prokuratura organlari inson huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qiluvchi eng muhim konstitutsiyaviy organlardan biri sanaladi. Prokuratura organlariga konstitutsiyaviy maqom berilishi, avvalo, mazkur tuzilmaning inson, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilishdagi, mamlakatda qonuniylik, qonun ustuvorligi va adolatni ta'minlashdagi o'rni bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-yanvarda prokuratura organlari xodimlari kuni oldidan soha xodimlari bilan uch rashuvda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, "Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, adolatsizlikka chiday olmaydi. Jamiyatda adolat barqaror bo'lishida prokuratura organlarining o'rni katta bo'lmog'i kerak", deb ta'kidladir.

O'tgan 26 yil mobaynida prokuratura organlari izchil rivojlanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida"gi 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-sonli Farmonining qabul qilinishi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu hujjatga asosan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining samarali ro'yobga chiqarilishi – mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so'zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining kuch va imkoniyatlарini to'liq safarbar qilish ko'zda tutilgan.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonun **prokuratura organlari yagona markazlashtirilgan tizimdan iborat** ekanligini mustahkamlaydi. Prokuratura organlarining tizimi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda (10-modda) belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari, tumanlar va shaharlar prokuraturalari, viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokururasi, tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzurida Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti Majburiy ijro byurosi hamda Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfisizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiysi, shuningdek, ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

Prokuratura organlari tizimi ularning zimmasiga yuklangan vazifalardan kelib chiqib izchil takomillashib bormoqda. Bosh prokurura

huzurida Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti (2016-yil 23-sentabrdan shunday nomlanmoqda<sup>290</sup>) tashkil etilgan bo'lsa, 2017-yil 29-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5059-sonli Farmoniga asosan, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2016-yil 23-sentabrda «Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti» «Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti» deb nomlana boshlangan bo'lsa, 2017-yil 29-maydagi «Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5059-sonli Farmoniga asosan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, elektr va gaz ta'minoti sohasida boshqaruv tizimini, nazorat va hisobga olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, javobgarlikni kuchaytirish, ijro ishi yuritishning samaradorligini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etildi. Unga ko'ra Byuroga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi va u o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-apreldagi PF-5418-son "Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqarvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etildi.

Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

---

<sup>290</sup> Ўзбекистон Республикасининг айрим конун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг конуни. Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари туплами, 2016 й., 39-сон, 457-модда 2016 йил 23 сентябр.

a) qishloq va suv xo‘jaligi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi holati;

– paxta va don ekinlarining urug‘larini davlat tomonidan buyurtma qilish, tayyorlash, alohida qayta ishlash hamda saqlash bo‘yicha talablarga rioya qilinishi;

– qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini davlat buyurtmasining rejali amalga oshirilishiga muvofiq hajmlarda shakllantirish bo‘yicha talablar bajarilishi;

– don ekinlari, paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari, shuningdek, ulardan qayta ishlangan mahsulotlar davlat resurslarining sifati. ulardan oqilona hamda maqsadli foydalanilishi, ularning sifatli saqlanishi hamda nobudgarchiligi kamaytirilishi ta‘minlanishi;

– qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarining genetik sofligi va urug‘lari sifati sohasidagi davlat siyosatining ijro qilinishi, akkreditatsiya sohasiga muvofiq urug‘larni sertifikatlash, urug‘ hamda ko‘chat materiallarining sifatini aniqlash va nazorat qilish bo‘yicha ishlarning amalga oshirilishi;

– qishloq xo‘jaligi yerlаридан oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish. Inspeksiya zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortish orqali qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya etilishi;

– sun‘iy suv ob‘ektlarida suvdan oqilona va samarali foydalanilishi hamda suvdan foydalanish qoidalariga rioya etilishi;

– idoraviy bo‘ysunuvidan va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar barcha korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarda chorvachilikda naslchilik ishlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi;

– qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarining, ularning ekspluatatsiya qilinishi, sifati samaradorligining, servis va ta‘mirlash xizmatlarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshirish;

b) eksport-import va respublika ichidagi tashishlarda don ekinlari, paxta xom ashyosi, qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar sifatini majburiy davlat tekshiruvidan o‘tkazish;

c) huquqbazarliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish.

Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiysi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan boshliq tomonidan boshqariladi; o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga hisobdordir.

Inspeksiya boshlig'i maqomi, mehnatiga haq to'lash, tibbiy va transport xizmat ko'rsatish shartlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosariga tenglashtirildi<sup>291</sup>.

**Prokuratura organlari tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qilishi** belgilangan.“Prokuratura to'g'risida”gi Qonunda ham O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

Amaldagi qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga zimmasiga yuklangan vazifalar samarali bajarilishini ta'minlashi uchun bir qator muhim vakolatlar yuklangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin bo'lib, bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyati natijasida aniqlangan qonunlardagi kamchiliklar haqida parlamentni o'z vaqtida xabardor etish va qonun ijodkorligi jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura tizimidagi oliy mansabdar shaxs sifatida prokuratura organlarini boshqa davlat hokimiyat organlari bilan munosabatlarda ifodalaydi. Xususan, Bosh prokuror prokuratura organlari faoliyatiga oid bir qator masalalar yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etishi mumkin. Ushbu masalalarga Qonun Bosh prokuratura hayatining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflar kiritish, prokuratura organlari xodimlariga

---

<sup>291</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг “Узбекистон Республикаси Боз прокуратураси хузуридаги Агросаноат мажмую ва озиқ-овқат ҳаффизилиги таъминланиши устидан назорат килиш инспекцияси фаолиятини ташкил этишчора-тадбирлари туғрисида”ги 07 май 2018 йилги НПК-3699-соили Карори

darajali unvonlar berish va oliy darajali unvonlar berish to‘g‘risidagi taqdimnomalar bilan murojaat etishni kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori shuningdek, davlat hokimiyatining boshqa organlari, shu jumladan, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud Plenumi majlislarida ishtirok etish va ko‘rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi hamda qonun hujjatlarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Oliy sud Plenumga tushuntirishlar berish xususida takliflar kiritishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori vakolatiga shuningdek, prokuratura organlari xodimlarini rag‘batlantirish (davlat mukofotlariga taqdim etish, ko‘krak nishonlar bilan taqdirlash), prokuratura organlarida ishni tashkil etish (buyruqlar chiqarish, tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash), o‘z vakolati doirasida chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar tuzish hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar ham kiritilgan.

Qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdor ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokururatasini O‘zbekiston Respublikasi prokururasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun 15-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokururasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi va u O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidandan ozod etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdor hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tegishincha tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga (“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun 16-moddasi) tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadilar hamda lavozimidan ozod

etiladilar. Bu prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'y sunadilar va uning oldida hisobdordirlar.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuratorlari va ularga tenglashtirilgan prokuratorlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o'ziga bo'y sunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Tumanlar, shaharlar prokuratorlari va ularga tenglashtirilgan prokuratorlarga ("Prokuratura to'g'risida"gi Qonun 17-moddasi) tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'y sunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonun 11-moddasi O'zbekiston Respublikasida prokurorlarning vakolat muddatini belgilab beradi. Unga ko'ra, barcha bo'g'indagi prokurorlar – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroridan boshlab, tuman va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlargacha yagona muddatga – besh yilga tayinlanadi.

Mamlakatimizda prokurorlarning vakolat muddati besh yil etib belgilangan bo'lsa-da, ularning qaytadan tayinlanishi soniga nisbatan hech qanday cheklov belgilanmagan. Ayrim davlatlarda, masalan, Xitoy Xalq Respublikasida esa, prokurorlar lavozimiga 2 martadan ortiq qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan (Konstitutsiya 130-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida qanday holatlarda prokuror lavozimiga takroran tayinlashga yo'l qo'yilmasligi ham to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib qo'yilgan. Xususan, Qonunning 45-moddasiga ko'ra, o'z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o'rnatilishini ta'minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko'rsatilishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni damda prokurorlik lavozimiga noloyiq xatti-harakatlar sodir etgan, demak, xizmat vazifasini tegishli darajada bajarmagan prokurorlar, shuningdek, boshqa ishga o'tgan yoki sog'lig'i ishni davom ettirishga imkon bermagan prokurorlar lavozimlaridan muddatidan ilgari ozod etilishlari mumkin.

Xalqaro miqqiyosda ham prokurorlarning turli xil tashkilotlari bo'lib, Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi (XPA) shular jumlasidandir. Mazkur

assotsiatsiyasi u 1995-yil 6-iyunda Venadagi BMT vakołatxonasida tashkil qilingan. Uning tarkibiga turli davlatlarning prokuratura xizmatlari yoki assosatsiyalari a'zolik huquqlari asosida kirishadi.

Nodavlat tashkiloti hisoblangan ushbu assotsiatsiyaning vakolatiga huquqiy islohotlar loyihalarini shakllantirish va qo'llash hamda transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash kiradi.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilinishini kafolatlovchi, o'ziga xos tizimga hamda mamlakatda demokratik-huquqiy davlat qurishda o'z o'miga ega bo'lgan konstitutsiyaviy organ hisoblanadi.

### ***O'zini- o'zi nazorat qilish savollari***

1. *O'zbekiston hududida prokuraturaning tarixiy rivojlanishi haqida gapirib bering?*
2. *Mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to 'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?*
3. *Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?*
4. *Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini aytib bering?*
5. *O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi haqida gapirib bering?*
6. *Prokuror nazorati hujjalari haqida gapirib bering?*
7. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzurida Majburiy ijro byurosining vazifalari?*
8. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzurida Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasining asosiy vazifalari to 'g'risida gapirib bering?*

## **XXIX BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VA XAVFSIZLIGIN TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

1-§. O'zbekiston Respublikasi mudofaa va xavfsizligining ahamiyati.

2-§. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy prinsiplari va normalari.

3-§. Milliy xavfsizlikning subyekti, obyekti hamda uni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati.

4-§. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tuzilishi va boshqarish asoslari.

5-§. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - milliy xavfsizlik konsepsiyasining asosi sifatida.

6-§. Mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy – huquqiy asoslari.

### **1-§. O'zbekiston Respublikasi mudofaa va xavfsizligining ahamiyati**

Milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonini tartibga solish turli tarmoqlar va institutlarga taalluqli bir turkum huquqiy normalar orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan milliy xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarining yaxlit tizimini hamda uning tarkibidagi maxsus tarmoqlar va tegishli institutlarning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq ko'rindi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuining vujudga kelishi jarayonini nazariy jihatdan chuqur idrok etish milliy huquq va qonunchilik tizimini shakllantirishning dolzARB masalasi hisoblanadi. Boshqa tomongan olib qaraganda, mazkur sohaga daxldor qonunchilikning ilmiy tahlili huquq tizimi to'la va aniq namoyon bo'lishida nazariy-metodologik asos vazifasini o'taydi.

Bugungi dunyoda jadal o'zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, ba'zi mintaqalarda etnik va konfessiyalararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to'qnashuvlarning kuchayishi jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalib ketish xavfi, murosasizlik, radikalizm va ekstremizmning o'sishi, yangi keskinlik o'choqlarining paydo bo'lishi jahon mamlakatlariga jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida bunday jarayonlarning barchasi jahondagi yirik davlatlarning manfaatlari o'zaro to'qnashadigan mintaqamizning

xavfsizligi, barqarorligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi kundek ravshan.

Bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat oldida turgan vazifalar orasida ekstremizm va radikalizmning har qanday ko'rinishlariga, xalqaro terrorizmga qarshi izchil kurashish uchun butun kuchlarni safarbar etishdek o'ta muhim vazifa ham borligini alohida atyib o'tish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, «...biz notinch zamonda, notinch bir mintaqada yashamoqdamiz. Shu sababli, Vatanimiz himoyasini ishonchli kafolatlayotgan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlayotgan va davlat chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan tizimli chora-tiadbirlar kompleksini joriy etishni qat'iyat bilan davom ettirishimiz zarur»<sup>292</sup>.

Darhaqiqat, "Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi biri-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir"<sup>293</sup>.

Davlatning milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyati vazifalari hamda yo'nalishlari doirasi anchagina kengdir. Dunyoda narkotrafik muammolar jiddiy tus olmoqda, yadroviy va boshqa ommaviy qirg'in qurollarining tarqalish xavfi bartaraf etilgani yo'q. Ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot tarqatish hamda ekologik sohalarda ham ko'pgina muammolar mavjudki, ular kuchayib, milliy xavfsizlikka tahdidga aylanishi mumkin. Mamlakatning o'z milliy xavfsizligini ta'minlashga tayyorligi mezonlaridan biri yetarli darajada qudratlari siyosiy, iqtisodiy va harbiy salchiyatning mavjudligi bilan bir qatorda, shunga batamom muvofiq keladigan tegishli huquqiy bazaning takomillashib borishi hamdir. U O'zbekiston Respublikasining eng muhim hayotiy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini mujassam

<sup>292</sup> Ш.М. Мирзиев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги боскичга кутармиз. Узбекистон Республикаси Олий Маҷлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма маъжлисидаги нутк. 2016 йил 8 сентябрь. 11 б.

<sup>293</sup> И.А. Каримов. Жаҳон инкорозининг оқибатларини ёнгиз, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тарақкий ўрган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. – Тошкент “Ўзбекистон”, 2010 – Б 130.

etganligi uchun ham xavfsizlikni ta'minlashning eng asosiy yo'nalishlaridandir.

O'zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo'lgan o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlagan holda:

- turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo'lishi haqida;
- o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi haqida va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi haqida;
- ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplarini aniq-ravshan bayon etadi<sup>294</sup>.

Mabodo mintaqaviy yoki global xavfsizlikning huquqiy negizlari, asosan, xalqaro taomil va odatlар, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar, bitimlar hamda shu kabi boshqa hujjatlarning natijalari asosida qaror topadigan bo'lsa, milliy xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini milliy qonun hujjatlari negizida shakllantiriladi (lekin bu qonun hujjatlari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga zid bo'lmasligi, ayrim hollarda esa umuman ularga asoslangan bo'lishi lozim). O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlikni ta'minlashga doir qonun hujjatlari tizimi bugungi kunda murakkab tuzilma sifatida shakllanmoqda va u huquqiy normalarning tarmoqlararo majmuiga aylanmoqda. Bir tomondan, bu o'rinda gap harbiy, ekologik, gumanitar, jinoyat qonunchiligi singari mustaqil tarmoqlarning va har biri o'z sohasida xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar tizimini boshqaradigan boshqa tarmoqlarning rivojlanib borishi ustida bormoqda.

Ikkinci tomondan, terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, giyohvandlik moddalarini tarqatishga qarshi kurash olib boradigan tarmoq va tarmoqlararo tashkilotlar, siyosiy, iqtisodiy, oziq-ovqat, texnologik va axborot xavfsizligini ta'minlaydigan, shuningdek, aholi sog'lig'igagina emas, balki bir vaqtning o'zida iqtisodiyotga, jamiyatning ma'naviy asoslariga o'nglab bo'lmas darajada zarar etkazib, millatning jismoniy sog'-omonligini xatar ostida qoldiradigan bir qator yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bilan shug'ullanadigan sohalar ham nazarda tutilmoqda.

Zotan, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida

---

<sup>294</sup> Халқ сўзи. 2012 йил, 8 декабрь.

ta'kidlaganidek, "O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markazi Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqr o'yab tanlangan yo'ldir. Markazi Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markazi Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir"<sup>295</sup>.

## **2-§. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy prinsiplari va normalari**

Milliy xavfsizlikni, asosan davlat va jamiyat qurilishi sohasida ta'minlashning tayanch prinsiplari hamda normalarini, shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari bu tizimda alohida o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi oliy normativ-huquqiy manba sifatida milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy masalalari bo'yicha muhim milliy manfaatlar hamda ustuvor prinsiplar va normalarni, shuningdek, mafkuraviy qoidalarni belgilab beradi. Mohiyat e'tibori bilan, undagi ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu masalalariga doir har bir modda mazkur munosabatlarning asosiy subyekti – inson, jamiyat, davlat himoyasiga qaratilgandir.

Mintaqamizda murakkab vaziyat vujudga kelayotgan sharoitda, uzoq va yaqin atrofimizda turli qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va farovonligini saqlash, yon-atrofimizdag'i davlatlar va xalqlar bilan o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikda yashash uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ana shunday tashqi siyosatgina xalqimizning asl orzu-umid va intilishlariga mos keladi.

Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida milliy xavfsizlikni muhofaza etishning tashkiliy-huquqiy tizimini shakllantiruvchi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar Konstitutsiya asosida ishlab chiqiladi. Davlat va jamiyat qurilishi sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning tayanch

<sup>295</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутки / Халқ сўзи. 2017 йил 20 сентябрь.

prinsiplari va normalarini, shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta‘minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Bu esa o‘tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimiz, to‘planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun hayotning o‘zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda.

Biz ayni shu asosda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlashni **O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining** ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldik. Strategiyaga binoan 2017-2021-yillarda boshqa sohalar qatorida harbiy qurilish borasida ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddatda dastlabki aniq natijalarga erishdik va yangilanayotgan Qurolli Kuchlarimiz bo‘yicha strategik yondashuvni ishlab chiqdik<sup>296</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari bevosita mudofaa maqsadlarida tashkil qilinib, urushlar va qurolli mojarolarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar hamda qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Avvalambor, Konstitutsiya mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantirishning asosiyligi va mustahkam negizi – xalq hokimiyyati prinsipi va tizimini kafolatlaydi hamda himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir, deyilgan va yana quyidagilar ta‘kidlangan:

Shuningdek, Konstitutsiyada mamlakat va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashga da‘vat etilgan organlar tizimi ham belgilab beriladi.

Mamlakat va fuqarolar xavfsizligini u yoki bu jihatdan ta‘minlashga da‘vat etilgan organlar tizimini, xavfsizlik mezonlarini va boshqa

---

<sup>296</sup> Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик Кенгаши мажлисидаги “Куролли Кучларимиз – мамлакатимиз баркарорлиги ва тараккистининг мустахкам кафолатидир” мавзусидаги нутки. Халқ сўзи. 2018 йил 10 январь.

masalalarni belgilar ekan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy xavfsizlik tushunchasini aniq belgilash uchun zarur bo'lgan asoslarni ham yaratadi.

"O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi". Shunga mos tarzda jamiyatimizning siyosiy tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham ushbu konstitutsiyaviy prinsipdan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Jamoat birlashmalariga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tish tartib-tamoyilini majburiy qilib qo'yuvchi norma ham shundan kelib chiqadi. Davlat faoliyatida siyosiy fikrlar xilma-xilligini, demokratik huquqlar va erkinliklarni, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, ijtimoiy adolat va qonuniylikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va hokazolarni ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar hamda normalarning barchasi siyosiy xavfsizlikni ta'minlash institutini tashkil etadi.

Masalan, Asosiy Qonunning 12-moddasida siyosiy fikrlar xilma-xilligi kafolatlanadi va unda: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayat siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", deb ta'kidlangan. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va siyosiy tizimning izchil rivojlanishini ta'minlash Konstitutsiyaning eng asosiy vazifalaridan biridir. Yo'l qo'yib bo'lmaydigan hodisalarning mohiyatini ifodalar ekan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar amal qilishlari lozim bo'lgan xavfsizlik mezonlarini belgilab beradi.

Masalan, Konstitutsiyaning 57-moddasida: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy

partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi”, deb ko’rsatib o’tilgan.

Ekologik xavfsizlik ham milliy xavfsizlikni tashkil etuvchi eng muhim Respublikaning Konstitutsiyasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majbur ekanliklari (50-modda), yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekanligi (55-modda) belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasida ekologik tanazzul hozirgi davrning o‘ziga xos xususiyati sifatida belgilangan. Orol dengizining muammolari ham qo‘shilib chuqurlashib borayotgan noxush ekologik vaziyat, shuningdek, suv resurslari hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli bo‘lgan yerlarning cheklanganligi O‘zbekistonning jug‘rofiy siyosiy ahvoliga ta’sir ko’rsatuvchi omillar qatorida ko’rsatib o’tilgan.

Darhaqiqat, 2012-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi”da ta‘kidlab o’tilganidek, “Tobora rurakkablashib borayotgan, atrof – muhitga, mintaqaga mamlakatlari aholisining sog‘lig‘i va genofondiga ziyon yetkazayotgan ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi falokati oqibatlari, korxonalarining sanoat oqovalari hududlarni hamda suv resurslarini transchegaraviy ko‘lamda ifloslantirayotganligi Markaziy Osiyo farovonligi va barqaror taraqqiyoti uchun tobora xavfli tus olmoqda”<sup>297</sup>.

Ekologiya shaxs, jamiyat va davlatning eng muhim hayotiy manfaatlarini belgilash mezonidir, inson hayoti va faoliyati uchun oqilona ekologik sharoitlarni ta‘minlash, kishilar salomatligini saqlash hamda barqaror ekologik vaziyatni, shu jumladan mintaqamizda barqaror ekologik vaziyatni yaratish ushbu manfaatlarning mazmunini tashkil etadi.

Milliy xavfsizlik konsepsiysi ekologiya sohasida milliy xavfsizlikka tahidilar mavjudligini alohida ko’rsatib o’tadi. Avvalambor, bu:

---

<sup>297</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2012 йил 9/1 (1437) –сон, 233 – модда.

- Orol ekologik tanazzuli hamda uning atrof muhit va millat genofondi, o'simliklar va hayvonot dunyosi uchun keltirib chiqaradigan oqibatlari;
- ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir qarorlar qabul qilayotganda ekologik omillarni yetarli darajada hisobga olmaslik;
- aholi salomatligi va atrof muhit uchun zararli bo'lgan ishlab chiqarishlarning faoliyat ko'rsatishi va kengaytirilishini qo'llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish chiqindilari, zaharli va radioaktiv materiallarni zarur darajada saqlamaslik va utilizatsiya qilmaslik hamda ularning mintaqamiz havo va suv havzalariga chiqarilishini nazorat qilmaslik;
- suv resurslarining kamayib ketishi va yer resurslarining zavol topishi, tuproq erroziyasi;
- ekologik jihatdan zararli bo'lgan texnologiyalar, moddalar, materiallarning hamda aholi salomatligi uchun xavfli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va farmakologiya preparatlarining olib kirilishini nazorat qilmaslik;
- tabiatdagi va texnogen tusdagi keskin o'zgarishlar (er silkinishlari, suv toshqinlari, yong'inlar, sel va boshqalar)dir.

Konstitutsiya tashqi siyosatning asosiy mezonlarini belgilab beradi, bu mezonlar orasida xavfsizlik manfaatlari alohida o'rinn tutadi. Tashqi siyosiy faoliyat, chunonchi, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etish avvalo xavfsizlik manfaatlardidan kelib chiqqan holda olib borilmog'i zarur. Mohiyatan olganda, Konstitutsiyaning har qanday prinsipial qoidasi, milliy manfaatlarning oliy siyosiy-huquqiy ifodasi bo'lib, bundan "davlatning, xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi" – bu, avvalo, Konstitutsiyaning o'zi, uning qoidalari himoya qilish, uning ustuvorligi va mustahkamligi ekanligi kelib chiqadi.

Tashqi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat faoliyatining sohasi sifatida belgilangan bo'lib, unga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqlik, shuningdek,, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etish nuqtayi nazaridan qaraladi hamda u oliy milliy manfaatlardan kelib chiqib amalgalash oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama hamkorligining asosiy yo'naliishlari asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi ikkinchi qismida belgilab qo'yilgan bo'lib, unda: "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa

davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin” deyiladi.

Xalqaro tashkilotlarga (ittifoqlar, hamdo'stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalarga) a'zolikka nisbatan belgilangan bu norma-prinsip mamlakatimizning integratsiya jarayonida yanada faolroq ishtirok etishini ta'minlashga, boshqa davlatlarning huquqiy tizimlari bilan tegishli shartnomalar munosabatlarni yo'lga qo'yish va o'zaro uyg'un hamkorlik qilish uchun keng istiqbollar yaratishga da'vat etilgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasining ikkinchi qismidagi tushunchadan shu narsa kelib chiqadiki, respublika, agar milliy manfaatlarga zid bo'lsa, xalq farovonligi va xavfsizligiga zarar etkazadigan bo'lsa, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etmaydi.

2012-yil 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi”ga muvofiq, “O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy – siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy – siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini saqlab qoladi. O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik o'choqlariga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora – tadbirlarni ko'radi, shuningdek, o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob'ektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi”<sup>298</sup>.

Shuningdek, Konstitutsiya ikki tomonlama munosabatlarning ham asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Garchi ikki tomonlama davlatlararo munosabatlari masalalari xalqaro huquq doirasida va asosan tegishli shartnomalar negizida hal etilsada, shunga qaramay, xalqaro shartnomalarni tuzish va ularning bajarilishini ta'minlashning davlatimiz ichkarisidagi tartibini Konstitutsiya belgilab beradi. Aynan Konstitutsiya xalqaro shartnomalarning milliy qonun hujjatlari tizimidagi maqomi va o'rnini belgilaydi hamda vakolatlar bermagan holda xalqaro shartnomalarni tuzish va ularni ratifikatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasini belgilaydi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada ikki tomonlama davlatlararo munosabatlarning mazmuni va yo'naliшини belgilashga da'vat etilgan fundamental yo'l-yo'riqlar hamda normativ qoidalar aks etadi.

---

<sup>298</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2012 йил 9/1 (1437) –сон, 233 – модда.

Bundan tashqari, Konstitutsiya muhofaza qiluvchi vazifasini bajaradi, masalan, davlatning tashqi siyosatini yo‘lga qo‘yishga aralashuvga yo‘l qo‘ymagan holda fuqarolar va davlat manfaatlariga zid bo‘lmagan xususiy yoki guruh manfaatlarini ham himoya qiladi; tashqi siyosiy faoliyatning “siyosat – siyosat uchun” degan birdan-bir maqsadga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda Konstitutsiya nisbatan kuchli davlat bilan o‘ta qulay iqtisodiy aloqalarni ham, agar bunday davlat salmoqli moliyaviy iqtisodiy yordam (hatto beg‘araz bo‘lsada) evaziga O‘zbekistonning suverenitetiga xilof bo‘lgan turli xil yon berishlarga erishishga harakat qiladigan bo‘lsa, rivojlantirishga yo‘l qo‘ymaydi va hokazo.

Konstitutsiyaga binoan davlatning tashqi siyosiy harakatlari Asosiy Qonunimizning muqaddimasida belgilab qo‘yilgan O‘zbekiston erishishga intilayotgan insonparvar demokratik huquqiy davlat maqomi talab etadigan darajada oqilona va huquqiy bo‘lmog‘i darkor. Xalqaro huquqning umume‘tirop etilgan prinsiplari va normalariga konstitutsiyaviy maqom berib, Asosiy Qonun shu ma‘noda xalqaro munosabatlarda huquqni muhofaza qilish samarali mexanizmining yo‘qligi o‘rnini to‘ldiradi, chunki u o‘z davlatining tashqi siyosiy harakatlari nisbatan oliy hokimiyat yo‘l-yo‘riqlarini berish xususiyatiga egadir. O‘zbekistornda demokratik huquqiy davlatning qaror topishi va rivojlanishi sharoitlarida Konstitutsiyaning davlat tashqi siyosatining, shu jumladan ikki tomonlama munosabatlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilashdagi roli o‘ta muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil dekabr oyida qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni milliy xavfsizlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga egadir. Mazkur Qonunda tegishli qilmishlarni kriminallashtirish to‘g‘risidagi normalar, terrorchilik harakatlarining oldini olish hamda terrorchilar va ularning sheriklarini jinoiy ta‘qib etish bo‘yicha protsessual choralar nazarda tutilgan. Terrorchilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida ko‘zda tutilgan:

155-modda. Terrorizm; 245-modda. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish; 264-modda. Temir yo‘lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasiini olib qochish yoki egallab olish; 152-modda Xalqaro himoyaga olingan shaxsga yoki muassasaga hujum qilish.

2004-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni

moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi (u 2006-yil 1-yanvardan e‘tiboran amalga kiritildi). Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operatsiyalarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi. Qonunda asosiy normalar qatorida tegishli axborotdan erkin foydalanishni majburiy tarzda nazorat qilish va cheklash choralari belgilab qo‘yilgan. Shunga muvofiq tashkilotlar jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq o‘z faoliyatlarida yuridik va jismoniy shaxslarni ularga nisbatan olib borilayotgan majburiy nazoratdan xabardor qilishga haqli emaslar. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotlarni berish tartibi ushbu Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bundan tashqari, Qonunda maxsus vakolatli organning vakolatlari ochib beriladi, pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning majburiyatları belgilanadi, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalariga doir bir qator blanket normalar, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi nizolar hamda tegishli qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga, shu jumladan fuqarolarning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga qat‘iy tarzda muvofiqliр.

Biroq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida faqat davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining milliy xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi faoliyatigina emas, balki fuqarolarning o‘z mamlakatini himoya qilish majburiyatları ham belgilangan. Chunonchi, 52-moddaga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashlari shart”.

Milliy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida xalqaro tuzilmalarda ishtirok etish prinsipini konstitutsiyaviy mustahkamlash quyidagi qat‘iy (nazariy) nuqtayi nazarlarga asoslanadi. Birinchidan, bu – xavfsizlik yaxlitligi, uzlusiz holatligi va hadsiz-hududsiz ekanligini tushunishdan

iboratdir<sup>299</sup>. Ikkinchidan, har bir mustaqil mamlakatning o‘z milliy manfaatlariiga muvofiq, o‘z mustaqilligi va barqarorligini ta‘minlash maqsadi bo‘lishi lozim. U yoki bu xalqaro tuzilmalarda va kollektiv xavfsizlik shartnomalarida qay darajada qatnashishini ularning o‘zi belgilash huquqi nazarda tutilishi zarur<sup>300</sup>. Uchinchidan, “Hozirgi sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo‘lishi mumkin. U hamfikr davlatlarning birgalikdagi sa‘y-harakatlari bilan, ularning imkoniyatlarini birlashtirish bilan ta‘minlanadi”<sup>301</sup>.

Milliy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida xalqaro tuzilmalarda ishtirot etish konstitutsiyaviy prinsipi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 22-mayda qabul qilingan “Mudofaa to‘g‘risida”gi, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi, 2012-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi”da, 2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi «Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»<sup>302</sup> qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasida yanada rivojlantirildi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunida mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri xalqaro huquq normalariaga muvofiq kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirot etish, shuningdek, mudofaa vazifalarini hal etish uchun tashqi siyosiy xarakterdagi choralarни ko‘rishdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, Qonunda “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalanishdan iborat bo‘lgan huquqni mustahkamlovchi umume‘tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslanib, harbiy qurilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi” deb aytilgan 23-modda ham bor. Shu bilan birga, bu faollik maskuraviy jihatdan fikrini o‘zgartirishlarga asoslanmasligi lozim. Bunday yo‘l bugungi kunda ham kuzatilmoqda.

<sup>299</sup> Караг‘. И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари.– Т. 6. Тошкент “Ўзбекистон”, 1998.– Б.37.

<sup>300</sup> Уша жойда 38-39-бетлар.

<sup>301</sup> Уша жойда. Б.147.

<sup>302</sup> Ўзбекистон Республикаси «Мудофаа доктринаси тугрисида”ги конуни. Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/458/0537-сон

Shu bilan birga, “milliy xavfsizlik”ning qamrov doirasidagi asosiy vazifasi uning ob’ekti va subyekti tushunchasini belgilashdan iboratdir. Binobarin, har bir davlat o’zi duch kelayotgan xavf-xatarni yengib o’tishga mintaqaviy va dunyo miqyosidagi omillar ta’siri doirasida va o’z imkoniyati darajasidagi mavjud barcha resurslarni yo’naltiradi. Darhaqiqat, “Har bir mintaqada xavfsizlikni ta‘minlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Shuningdek, har bir mintaqaning o’z xususiyatlari, o’z tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor”<sup>2</sup>. Bundan tashqari, “milliy xavfsizlik” tushunchasi o’z ichiga tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qilish, texnogen va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotida shaxs kamoloti va jamiyatning barqaror rivoji singari bir qator sohalarni ham qamrab oladi.

Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta‘kidlanganidek, “Oldimizda turgan navbatdagi muhim vazifa – yaratib berilagan imkoniyat va vako‘tlardan to‘liq foydalanib, fuqarolarimiz, jamiyat va davlatimiz xavfsizligini hamda konstitutsiyavni tuzum himoyasini ta‘minlashdan iborat”<sup>3</sup>.

### **3-§. Milliy xavfsizlikning subyekti, ob’ekti hamda uni ta‘minlash sohasidagi davlat siyosati**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq tezkor, puxta tayyorgarlik ko‘rgan va zamonaviy qurollangan armiyani tashkil etish harbiy qurilishning bosh yo‘nalishiga aylandi. Mintaqamizdagи tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va harbiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, armiyani isloh qilish bo‘yicha yangi prinsiplar negizida Qurolli Kuchlarni barpo etish va tashkil qilishga asoslangan, xavfsizlikka tahdid soladigan real xavf-xatarlarni nazarda tutadigan uzoq muddatga mo‘ljallangan dastur shakllantirildi.

Ushbu dasturni amalga oshirish jarayonida milliy armiyamiz tashkilij jihatdan yangicha tarkibiy tuzilishga ega bo‘ldi, qisqa muddatda harbiy okruglar, chegaraviy mintaqalar tashkil etildi, Qurolli Kuchlarni boshqarishning butun tizimi, birlashma va qismlarning tarkibi hamda

<sup>2</sup> И.А.Каримов. Хавфсизлик ва барқарор тараккiet йулида. Т 6 -Тошкент : “Ўзбекистон”, 1998 -Б.37.

<sup>3</sup> Ш.М.Мирзиев Миллий тараккiet йулимизни катъият билан давом этириб, янги боскичга кўтарамиз. “Халқимиз биздан қонун ва адолат усуворлигини амалда таъминлашни кутмокда” – Прокуратура ходимлари ва фахрийлари билан учрашувдаги маъруза. 2017 йил 7 январь 207 б

joylashuvi qayta ko'rib chiqildi, qo'shinlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi<sup>1</sup>.

Milliy xavfsizlik subyekti, ob'ekti va bu boradagi siyosat. Mamlakat xavfsizligini ta'minlash davlatning bosh vazifalaridan biri bo'lib, aynan shu soha uning qonunchilik asoslarini yaratadi, moddiy-moliyaviy va kadrlar resursi safarbarligini, zarur boshqaruv mahkamasini, maxsus xizmatlarni, Qurolli Kuchlarni tashkil qiladi va ta'minlaydi.

Xavfsizlikni ta'minlash mamlakatni rivojlantirishning muhim sharti, xalqaro munosabatlar sohasida, milliy manfaatlar va ustuvor vazifalarini belgilashda davlat siyosatining tarkibiy qismi va mezoni hisoblanadi.

Ushbu sohada davlat siyosati quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi: tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy faoliyatda milliy manfaatlarni himoyalash strategiyasini aniqlash; O'zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlariiga tahdidlarni aniqlash, baholash, tahlil etish va bu tahdidlarga qarshi kurash; milliy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, tezkor tadbirlar va resurslar bilan ta'minlash; shaxs, jamiyat va davlat manfaatlарини himoya qilish kafolatlari tizimini kengaytirish; milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini va tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati mamlakat va butun dunyodagi vaziyatning, Konstitutsiyada belgilangan, hozirgi davrning alohida xususiyatlari, jug'rofiy-siyosiy omillarning, Markaziy Osiyodagi vaziyatning va tashqi siyosatdagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalarning chuqur va har tomonlama tahlilini hisobga olgan holda quriladi.

Hayotiy muhim milliy manfaatlarni turli ko'rinishdagи ichki va tashqi tahdidlardan kafolatli himoya etish milliy xavfsizlikning mazmun-mohiyati hisoblanadi. Milliy xavfsizlikning ob'ekti quyidagilardan iborat: inson - uning huquq va erkinliklari; jamiyat – uning ma'naviy va moddiy boy'liliklari; davlat – uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi.

Inson, milliy xavfsizlik ob'ekti sifatida eng yuksak qadriyatdir. Shu boisdan uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati har doim birinchi

<sup>1</sup>Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустакият тараккиёт йўли. Тошкент :: “Ўзбекистон”, 2007. –Б. 21.

o‘ringa qo‘yiladi. Aslini olganda ham, shaxsning xavfsizligi va manfaatlari shu yo‘nalishdagi davlat siyosatini tushunishda hal qiluvchi mezondir. Jamiyat va davlat tomonidan olib borilayotgan faoliyatning ta‘sirchanligi shaxs hayotining daxlsizligi va xavfsizligi davlat tomonidan qay darajada ta‘minlanishi orqali ayon bo‘ladi.

Jamiyat xavfsizligi yoki “ijtimoiy xavfsizlik”ni milliy xavfsizlikdan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu – uning tarkibiy qismidir. Jamiyat xavfsizligiga tahdid ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy turmush tarziga, ma‘naviy negizlarga va madaniy-moddiy qadriyatlarga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga, boshqaruv tartibiga, jamoat tartibi va boshqalarga iqtisodiy, ekologik, harbiy zarar yetkazadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy, axloqiy, huquqiy, diniy va boshqa turdagи munosabatlar tizimidan iborat jamiyatga tahdid qilish milliy xavfsizlik asoslariga qilingan tahdiddir. Masalan, millatlararo, konfessiyalararo munosabatlarga va fuqarolar totuvligiga raxna solinganda jamiyat taraqqiyotini uzoq muddat orqaga surib yuborishi yoki milliy davlatchilikni barbod qilishi mumkin. Demokratiya, fuqarolik jamiyatasi asoslari, ma‘naviy qadriyatlar, oila, aholining salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, jamiyatning davlat ustidan nazorati samarali usullarini shakllantirish milliy xavfsizlikni ta‘minlashning zarur shartlaridir.

Davlat milliy xavfsizlik ob‘ekti sifatida millatning bir butunligi va barqarorligini ta‘minlashni muqarrar zaruriyat, deb biladi. Chunki davlat insonning huquqlari va erkinligini ta‘minlar va kafolatlar ekan, milliy suverenitet davlat timsolida namoyon bo‘lishi boisidanoq davlatning o‘zi alohida bir qadriyat bo‘lib qoladi.

Shu ma‘noda, milliy xavfsizlikni ta‘minlash siyosati barqaror demokratik rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aslida, uning tarkibiy qismi va ayni paytda, xuddi shu demokratik taraqqiyotni amalga oshirishning muhim shartiga aylanadi. U quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish;
- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi;
- millatning ma‘naviy salohiyatiga tayanish;
- milliy manfaatlarning ustuvorligi;
- millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta‘minlash;
- hududiy yaxlitlikni saqlash;
- xavfsizlikning bo‘linmasligi;
- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
- tashqi siyosatni maskuralashtirishdan voz kechish;
- tashqi va ichki siyosatning birligi;

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro shartnomalar bo'yicha zimmaga olingan majburiyatlarga og'ishmay rioya etish;
- xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik;
- jamiyat turmushining barcha jabhalarida o'zgarishlarning izchilligi va bosqichliligi;
- izchil demokratlashuv, fikrlar xilma-xilligi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini rivojlantirish;
- ijtimoiyadolat va kuchli ijtimoiy siyosat;
- ekologik muammolarni hal etishning ustuvorligi;
- milliy xavfsizlikka tahidlarning xususiyati va ko'lamiga javob choralarining bamavridligi va mutanosibligi.

Milliy xavfsizlik hamisha ham chuqur idrok qilingan emas. "Milliy xavfsizlik" atamasi ilk marta Amerika siyosiy lug'atiga prezident T. Ruzvelt tomonidan 1904-yilda kiritilgan<sup>304</sup>. Keyinchalik mazkur tushunchaning mazmun doirasi asta-sekin ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek, xilma-xil ko'rinishdagi tahdid va tahlikalar bilan uzviy bog'liq ravishda kengayib bordi. Bugungi kunda mamlakat hayoti uchun xatarli bo'lgan har qanday muammo milliy xavfsizlikka tahdidga aylanishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari milliy manfaatlar ustuvorligi, real hamda potensial tahdid va tahlikalar bilan bevosita bog'liq ravishda belgilanadi. Mazkur yo'nalishlar sohalarga bo'linadi va quyidagicha nomlanadi:

- siyosiy xavfsizlik, u ichki va tashqi jihatlarga qarab, ya'ni ichki siyosiy va tashqi siyosiy xavfsizlik tarzida bo'linadi;
- iqtisodiy xavfsizlik, bu ham ichki va tashqi jihatlarga qarab, ya'ni ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy xavfsizlik tarzida bo'linadi;
- ijtimoiy xavfsizlik;
- gumanitar xavfsizlik;
- harbiy xavfsizlik;
- ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik.

<sup>304</sup> Карап: А.И.Васильев, В.П.Сальников, С.В.Степашин. Национальная безопасность России: конституционное обеспечение. – СПб., 1999. С.15

Milliy xavfsizlikni ta'minlashning qonunchilik va nazariy-metodologik asoslari to'g'risida so'z yuritilar ekan, kontseptual va dasturiy hujjatlar xususida ham to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Ular, garchi to'g'ridan-to'g'ri normativ-huquqiy hujjatlar sirasiga kiritilmasa-da, qonunlar yoki Prezident Farmonlari bilan tasdiqlanadi va shu tarzda huquqiy kuchga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi, Mudofaa doktrinasi yoki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 10-yanvardagi Xavfsizlik Kengashi majlisidagi "Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" BOBsidagi nutqida xavfsizlikni ta'minlash sohasida belgilab berilgan asosiy vazifalarni amalga oshirish shular jumlasiga kiradi.

#### **4-§.O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tuzilishi va boshqarish asoslari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlarga ega" deb mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va respublikaning harbiy xavfsizligiga nisbatan tajovuzlarga qarshi harakatlarni tashkil etish uchun mamlakatni mudofaaga tayyorlash borasidagi davlat faoliyatini, O'zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun Qurolli Kuchlarni qo'llashni tartibga soluvchi qonunlarga asoslanar ekan. BMT Ustavidan, Xelsinki imzolangan Yakunlovchi hujjatdan, Stokholm konferensiysi hujjatidan, shuningdek, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar hamda bitimlardan, xalqaro huquqiy hujjatlarning umume'tirof etilgan normalaridan kelib chiquvchi barcha xalqaro majburiyatlarga qat'iy rioya etilishini kafolatlaydi, tashqi harbiy tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yish zarur ekanligini qayd etib o'tadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasida Qurolli Kuchlarning qurilishi va ularni strategik qo'llash prinsiplari bayon etilgan. Harbiy xavf-xatarni, urushning ehtimol tutilgan xarakterini, mudofaa vazifalari ko'lamini anglagan holda va respublikaning iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq Qurolli Kuchlar qurilishi, ularning tarkibini takomillashtirish va tayyorgarlikdan o'tkazish amalga oshiriladi, ularni

---

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Конституциясига шарх. – Т., 2008, 487-бет

jangda qo'llash prinsiplari belgilanadi. Qurolli Kuchlar qurilishi ularning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishni ta'minlay oladigan xillarini, qo'shin turlari va maxsus qo'shirlarni tuzish hamda mutanosib rivojlantirish asosida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shirlar, Harbiy-havo kuchlari, Havo hujumidan mudofaa qo'shirlari, Maxsus va muhandislik-qurilish qo'shirlari hamda Milliy gvardiyadan iborat. Qurolli Kuchlar qurilishini takomillashtirishdan ko'zlangan maqsad ularni davlat tuzilishining xususiyatlariga, mintaqaning fizik-jug'rofiy sharotlariga muvofiqlashtirishdan, Qurolli Kuchlarning xillari va qo'shin turlarini, qurollarning asosiy tizimlarini uyg'un rivojlantirish va qo'shishdan iboratdir.

Qurolli Kuchlar qurilishida islohot tinchlik davri qo'shirlar guruuhlarining jangovar qudrati lokal (mintaqaviy) miqyosdagi tajovuzni daf etishni ta'minlaydigan darajada bo'lishiga alohida ahamiyat bergen holda amalga oshiriladi. Urush chiqqan taqdirda Qurolli Kuchlar o'z vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondonining urush davrida operativ rezervi hisoblanuvchi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo'shirlari hamda Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shirlari bilan birgalikda ado etadilar.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari muntazam, kadrlar armiyasi qoidasi asosida quriladi. Qurolli Kuchlarning tarkibi va tuzilishi, ularning texnika bilan qurollantirilishi va qurolli kurash vositalarini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash, safarbarlik resurslariga va zaxiralariga bo'lgan talab-ehtiyoj, harbiy qurilishni pul bilan ta'minlash ishini O'zbekiston Respublikasi tajovuzni ham mustaqil tarzda, ham Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi Sharhnomalar qatnashchisi bo'lgan davlatlarning qurolli kuchlari bilan birgalikda harakat qilib, bartaraf etish uchun puxta va oqilona ehtiyoj prinsipiiga rioya etish zarurati bilan bog'laydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarni doimiy jangovar shay holatda saqlab turishga, ularni barcha zarur moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga, xalq xo'jaligini, aholini va hududni tajovuzni daf etishga tayyorlashga qaratilgan tadbirlar majmuini amalga oshiradi. Armiyaga chaqirilishdan oldingi tayyorgarlik sifatini oshirish, o'spirin yoshlarni hamma erda sog'lomlashtirish, harbiy mutaxassislar tayyorlash davlat dasturlariga asos qilib olingan. Qo'shirlarni jahon andozalari talablariga javob beradigan zamonaviy texnika, qurol-yarog' bilan ta'minlash, bu sohada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik

ishlanmalarini amalga oshirish harbiy-texnika siyosatiga asos qilib olingen.

O'zbekiston Respublikasi tajovuzga javob tariqasidagi harakatlarni nazarda tutib ish olib borar ekan, ayni vaqtida tajovuzkorni jilovlash tadbirlarini o'tkazishni zarur deb hisoblaydi va Qurolli Kuchlarni qo'qisdan hujum bo'lishini istisno etadigan va tajovuzkorga darhol qarshi zarba berishni ta'minlaydigan darajada shay holda saqlab turadi.

Tajovuz boshlangan vaqtida strategik miqyosdagi harbiy harakatlarning asosiy turi mudofaa bo'ladi. Bunda vaziyatga qarab, muayyan yo'nalishlarda hujum harakatlari olib borish istisno etilmaydi. Shu munosabat bilan tinchlik davrida qo'shinlar har qanday sharoitda, shu jumladan dushman yadro qurolini qo'llagan sharoitda ham jangovar harakat olib borishga tayyorlanadi.

Shtablar va qo'shinlarning operativ va jangovar tayyorgarligi ham mudofaa, ham hujum operatsiyalarini tayyorlash va olib borish usullarini o'zlashtirish hamda takomillashtirishga qaratilgandir. Shaxsiy tarkibga ta'lim va tarbiya berish jarayonida jangovar navbatchilik vazifalarini aniq bajarishga, jangovar shaylik darajasini, qo'shinlarning operativ va jangovar tayyorgarlik sifatini oshirishga, qurol-yarog', harbiy texnikani va ulardan samarali foydalanish usullarini mohirona egallashga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga, o'z xalqiga, Harbiy qasamyodga, harbiy burchga sadoqatni, shuningdek, ona Vatanining tarixi va an'analariga chuqur hurmat-ehtiromni, o'z Vatanining himoyasi uchun yuksak shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi tinchlik vaqtida Qurolli Kuchlarning infrastrukturasini rivojlantirishni ta'minlash va davlatning strategik iqtisodiy dasturlarini bajarish maqsadida muhandislik-qurilish qo'shinlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Urush chiqqan taqdirda muhandislik-qurilish qo'shinlari mudofaa inshootlari, kommunikatsiya moslamalari qurishga va avariya-tiklash ishlarini bajarishga jalb etiladilar.

Qurolli Kuchlardan foydalanish shartlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi, tinch vositalar yordamidagi kuch-g'ayratlar hamisha ham urushlar va qurolli mojarolarning oldini olish imkonini beravermaydi deb hisoblab, quyidagi maqsadlarda o'z Qurolli Kuchlarini qo'llash huquqini o'zida saqlab qoladi:

– O'zbekiston Respublikasiga qarshi hujumni daf etish;

- tajovuzdan o‘zaro mudofaalanish yuzasidan shartnama majburiyatlarini bajarish;
- jangovar harakatlar olib borish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni qaror qabul qiladi va buyruq beradi.

Fuqarolarning, jamiyat va davlatning xavfsizligiga tahdid soladigan tajovuzni, ichki vaziyatni beqarorlashtirishga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining amal qilishini izdan chiqarishga qaratilgan harakatlarning oldini olish va ularga barham berish maqsadida Oliy Bosh qo‘mondon vaziyatni barqarorlashtirish ishida Qurolli Kuchlardan foydalanish huquqiga ega, uning bu xususdagi qarori keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida muhokama etiladi.

Qurolli Kuchlarni Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘sishnlari va Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo‘sishnlari bilan birlashtirishga strategik maqsadda qo‘llashni rejalashtirish ishiga O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi umumiy rahbarlik qiladi.

Mamlakat Konstitutsiyasining 93-moddasi 20-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliv qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliv harbiy unvonlarni beradi. “Mudofaa to‘g‘risida” gi qonunning 8-moddasida mamlakat Prezidentining mudofaa va Qurolli Kuchlarga rahbarlik sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

- O‘zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi; davlat boshqaruvi organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta‘minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;
- Qurolli Kuchlarni qurish, qo‘llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek, mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo‘ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi; harbiy harakatlar olib borish to‘g‘risida, shu jumladan xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish to‘g‘risida, shuningdek, Qurolli Kuchlarni o‘zlariga bevosita taalluqli

bo‘Imagan vazifalarni bajarishga jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda:

O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati, umumi yoki qisman safarbarlik e‘lon qiladi hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

– harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining sonini, ularning harbiy va muqobil xizmatni o‘tash tartibini, harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni harbiy hisobga olish ishining yuritilish tartibini, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyojlari uchun qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalarining normalari hamda hajmini belgilaydi.

Ushbu Qonunning 9-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mudofaa sohasida quyidagi vakolatlarni bajaradi:

– davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta‘minlaydi;

– mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligi, shuningdek, safarbarlik va strategik davlat zaxiralarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish rejalarini ishlab chiqadi, mazkur rejalarining ijrosi ustidan nazorat olib boradi;

– Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy-maishiy ta‘minoti masalalarini hal etadi; Qurolli Kuchlarning tegishli ravishda qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishi va ta‘minlanishini tashkil etadi;

– qurol-yarog‘lar va harbiy texnika, strategik materiallar eksporti hamda importi ustidan nazorat olib boradi;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar mudofaa ehtiyojlariiga doir vazifalarni bajarganligi munosabati bilan ular sarf qilgan moddiy xarajatlarning o‘rnini qoplash tartibini belgilaydi.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o‘z tasarrufidagi qo‘sishnlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘sishnlarining zamонавиј

qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo'mondonlik organi hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi:

- milliy harbiy strategiya, Qurolli Kuchlar qurilishi va rivojlantirilishining konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun mas'ul bo'ladi;
- Qurolli Kuchlarni, harbiy okruglarni, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarini tezkor-strategik boshqarishning bosh organi vazifasini bajaradi;
- qo'shinlarning jangovar harakatlari strategik jihatdan va tezkor rejalashtirilishini hamda ularga rahbarlikni amalga oshiradi;
- qo'shinlarning tezkor va jangovar tayyorgarligiga, ular tashkiliy-shtat tuzilishining qo'shinlarni qo'llash shakl va usullariga ko'nikma hosil qilishiga doir chora-tadbirlar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi; o'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan, Qurolli Kuchlarning shakl va turdag'i qo'shinlarining, birlashmalari, qo'shilmalari va bo'linmalarining qo'mondonlari tomonidan ijro etilishi majburiy bo'lgan direktivalar va buyruqlar chiqaradi.

Harbiy okrug operatsion yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umumqo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir. Harbiy okruglar zimmalariga yuklangan vazifalarni bajaradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qildilar. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonun hujjatlariga muvofiq mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek, jangovar qibiliyatini ta'minlashda qatnashadilar hamda zimmalariga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas'uldirlar.

Harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo'lgan mahsulotlar yetkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas'uldirlar, safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq tarmoqning urush davrida barqaror ishlashini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari: tegishli safarbarlik topshiriqlari bajarilishini ta'minlaydilar; o'z hududlarida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda safarbarlik rejalarini hamda davlat va safarbarlik zaxiralari moddiy boyliklarini jamlash topshiriqlari bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar.

Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari qonunda belgilangan tartibda harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni xabardor etish va mudofaa ishlari bo'limlariga kelishlarini tashkil etishda ko'maklashadilar. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar: safarbarlik rejalarini hamda davlat va safarbarlik zaxiralari moddiy boyliklarini jamlash topshiriqlarida nazarda tutilgan tadbirlarni; fuqaro muhofazasi va hududiy mudofaa tadbirlarini; harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni hisobga olish va ularga bron berish tadbirlarini; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni bajaradilar.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulkarni mudofaa ehtiyojlari uchun qonun hujjatlariga muvofiq berib turgan taqdirda ular qilgan xarajatlarning o'rni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyavii burchidir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga, shuningdek, o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulkarni urush davrida mudofaa ehtiyojlari uchun qonunda belgilangan tartibda berib turishga majburdirlar, qilingan xarajatlarning o'rni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda keyinchalik qoplanadi. Fuqarolar mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ko'maklashuvchi jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalanishdan iborat bo'lgan huquqni mustahkamlovchi umume'tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslanib, harbiy qurilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni amalgalashadi.

Mudofaa ehtiyojlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti qonun hujjatlariga muvofiq davlat budjeti mablag'lari hamda boshqa manbalar hisobidan amalgalashadi. Mudofaaga

ajratiladigan mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanilishi ustidan nazorat qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Shunday qilib, mamlakat mustaqilligi, suvereniteti va xavfsizligini, uning mudofaasini ta'minlashda Qurolli Kuchlar katta rol o'ynaydi. Qurolli Kuchlar maxsus harbiy tashkilot bo'lib, qonunchilikda mustahkamlangan o'z tashkiliy tuzilishiga, ichki harbiy bo'ysunu munosabatlariiga va mas'uliyatlarga ega davlat tuzilmasidir. Taktik, tezkorlik va strategik miqyoslarda harbiy harakatlar olib borishga qodir alohida tashkilotdir. Ularni qo'llab-quvvatlash va muntazam modernizatsiya qilib borish davlat hamda jamiyat manfaatlariga mos ishdir.

### **5-§.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - milliy xavfsizlik konsepsiyasining asosi sifatida**

O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi 1997-yilning 29-avgustida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan amal qilib kelmoqda. U siyosiy yo'nalishdagi masalalarni hamda tegishli qonunlar, qonunosti hujjatlarini tayyorlashda asos bo'ladigan normativ-huquqiy atamalar, prinsiplarni o'z ichiga oladi. Mazkur Konsepsiya yana shu ma'noda siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadiki, unda davlatimizning milliy xavfsizlikni ta'minlash masalasiga doir rasmiy qarashlari o'z ifodasini topgan va shunga binoan bu Konsepsiya xavfsizlik muammosi, uni hal etishning strategiyasi va taktikasiga doir, jumladan, qonunchilik sohasiga taalluqli yaxlit, umum davlat qarashlari tizimini o'zida mujassam etgan hujjaidir. Konsepsiyaning birinchi qismida hozirgi davning xususiyatlari,

O'zbekistonning geopolitik holati, shu jumladan Markaziy Osiyodagi mavqeい bilan bog'liq omillar, xalqaro hamkorlik sohasidagi vazifalar bayon qilinadi. Konsepsiyaning ikkinchi qismida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari mazmuni ochilgan; uchinchi qismida sohalar bo'yicha milliy xavfsizlik ta'riflab o'tilgan. To'rtinchi qismda milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bayon

qilingan. Beshinchi qismda milliy xavfsizlikni ta'minlashning tizimi va prinsiplari haqida so'z boradi.

Konsepsiya o'zida milliy xavfsizlikning maqsadga muvofiq tizimini yaratishning asosiy g'oyasini, amaliy prinsiplarini ochib bergan. Unga tayangan holda tegishli tashkiliy-huquqiy mexanizm shakllantiriladi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o'rtaida hamkorlik tizimiga asos solinadi. Eng muhim, ushbu Konsepsiya, bamisoli Konstitutsiya singari, muammoni tushunish va echimini topishga bir xil yondashishga imkoniyat yaratadi. Masalan, unda "milliy xavfsizlik", "milliy manfaat", "tahdid" singari tushunchalarning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasiga tatbiqan atroflicha talqin etiladi.

Unda davlatchilik manfaatlari millatning o'ziga xos holati hamda millat yashaydigan va o'z manfaatlarini amalga oshiradigan shakl – himoya etilishi va rivojlantirilishi zarur bo'lgan shakl sifatida talqin etiladi.

Xalq manfaati shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro uyg'un va bir-birlarini taqozo etadigan birlashmasidir.

Shunday qilib, "davlat, xalqning oliv manfaatlari, ularning farovonligi va xavfsizligi" yaxlit olganda hayotiy muhim milliy manfaatlardir. Konsepsiyada boshqa darajadagi milliy manfaatlар ko'rsatilmaganligi sababli, ta'kidlashimiz kerakki, milliy manfaatlari, eng avvalo, hayotiy muhim manfaatlardir. AQSHda bunday tabaqalashtirish (hayotiy muhim, shunchaki muhim, torroq doiradagi va boshqa darajadagi manfaatlari) qo'llaniladigan chora-tadbirning mutanosibligini aniqlashga xizmat qiladi: masalan, yadro quroqini qo'llashdan tortib vazirlik yoki shtat miqyosida ma'muriy qarorlar qabul qilishgacha bo'lgan choralar ko'rishga asos bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Konsepsiyada shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ham, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, harbiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot sohalarida tug'iladigan milliy xavfsizlikka tahididlar ham batafsil ta'riflab berilgan. Shu asosda milliy xavfsizlikning asosiy yo'naliishlari ham belgilab berilgan. Davlatning faoliyati xuddi ana shu qoidalar bilan muvofiqlashtirilishi, qonunchilik esa tegishli tarzda rivojlantirilish kerak.

Bu faqat milliy manfaatlari mazmunining tuzilmaviy bayonigina emas, balki xavfsizlik, tahdid ob'ektlarini belgilash va manfaatlarni amalga oshirishning asosiy yo'naliishlari ifodasi hamdir. Xavfsizlikning har bir turi o'z navbatida tarkibiy turlarga ega bo'lib, ular zamonaviy

ijtimoiy munosabatlarning yuksak integratsiyasi sharoitida xavfsizlikning boshqa tur hamda tarkibiy turlari bilan kesishuvi mumkin. Masalan, oziq-ovqat xavfsizligi, bu faqat iqtisodiy masala emas, ayni paytda, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, tibbiy sanitariya va ekologik masala hamdir. Shu sababli xavfsizlikning turlarga bo'linishi shartli ekanligini doimo nazarda tutish zarur.

Biroq, bu masalada qonunchilik uchun va davlat boshqaruvini to'g'ri tashkil etish uchun xavfsizlikning bunday bo'linishi o'zini to'la oqlaydi. Xususan, milliy xavfsizlikka tahdidlarni tabaqalashtirish va milliy xavfsizlikni ta'minlashning sohalar bo'yicha asosiy yo'nalishlari (siyosiy va tashqi siyosiy, iqtisodiy, jamiyat va davlat qurilishi, ijtimoiy, gumanitar, harbiy, ilmiy-texnika, texnologiya, axborot, ekologiya sohalari), ko'p jihatdan, qonunchilikning tegishli tarmoqlarini o'zida ifoda etadi. Boshqa jihatdan, mazkur sohalar tarmoqlararo normalar majmuining torroq doiradagi o'rganish yo'nalishini belgilaydi va maxsus institutlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Masalan, siyosiy sohadagi xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy normalari asosan kafolat, himoya yoki muhofaza xususiyatida bo'lib, mohiyat e'tibori bilan murakkab tarmoqlararo institut hosil qiladi. Jumladan, siyosiy xavfsizlikni ta'minlash sohasida vujudga keladigan munosabatlar quyidagi normalar bilan nazorat qilinadi:

- xalqaro huquq (bular - ikki tomonlama, mintaqaviy hamda universal shartnomalar va bitimlar), normalar, milliy qonun hujjatlarining tashqi siyosat sohasida amal qiluvchi va O'zbekiston Respublikasining ichki ishlariiga aralashishdan, uning suverenitetiga tajovuz qilishdan himoya etadigan va umuman xalqaro munosabatlar tizimida miiliy manfaatlarni himoyalashga qaratilgan normalari;

- terrorizmga qarshi kurashga doir qonun hujjatlari;

- konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish to'g'risidagi, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylar to'g'risidagi, OAV to'g'risidagi, so'z erkinligini himoyalash bo'yicha qonunlar, inson huquqlari va erkinligini himoya etuvchi, demokratik institutlarning takomillashuvini ta'minlovchi va kafolatlovchi gumanitar, saylovga oid va boshqa qonun hujjatlari;

- aggressiv millatchilik va millatlararo nizo kuchayishining oldini oluvchi normalar;

- diniy ekstremizm tarqalishining oldini oluvchi qonunlar;

- davlat hokimiysi va boshqaruvida korrupsiya, to'rachilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchiiik munosabatlari vujudga kelishining oldini olish va ularga qarshi kurashga yo'naltirilgan normalar;

- jinoyatchilikning, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikning o'sishini oldini olishga qaratilgan, qurol-yarog' bilan noqonuniy savdo qilishga va giyohvandlikning tarqalishiga qarshi kurashga oid qonunlar.

Tegishli huquq normalari vositasida oldi olinadigan shunday tahdidlar borki, ular turli mohiyatga va har xil predmetga ega. Biroq, ularning subyektlari siyosiy munosabatlar jabhasida harakat qiladi, o'z siyosiy maqsadlariga ega yoki ushbu tahidlarni amalga oshirish orqali siyosiy tizimga va konstitutsiyaviy tuzumga jiddiy zarar etkazadi. Boshqa tomondan, yuqorida sanab o'tilgan har bir yo'nalish o'ziga xos jihatlarga ega va ta'bir joiz bo'lsa, "sub-institutlar" shaklida (masalan, terrorizmga qarshi kurash instituti, OAVda so'z erkinligini himoyalash va kafolatlash instituti kabilar) namoyon bo'lishi mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashga taalluqli qonunchilik tizimida qator tarmoqlar borki, ularning o'rnini aniqlash ancha murakkab. Chunki ular o'z huquqiy mohiyatiga ko'ra ma'lum bir sohada xavfsizlikni ta'minlashga qaratilganligidan tashqari boshqa masalalarni ham tartibga soladi. Masalan, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari tabiiy muhit sharoitlarini saqlash hamda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgililar ekan, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatli tarzda uyg'un rivojlantirilishini ta'minlashga, ekologik tizimlarni, tabiat majmualarini va ayrim ob'ektlarni muhofaza qilish, fuqaroning qulay tabiiy muhitga bo'lgan huquqini kafolatlash maqsadlariga ham qaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish nafaqat "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun vositasida, ayni paytda, yer, suv, o'rmon xo'jaligi, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonunlar misolida ayon bo'lib turibdiki, bunday qonunlar majmui o'z doirasiga murakkab tarmoqlararo tizimni oladi, ular ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bir qatorda boshqa vazifalarini ham ado etadilar. Ana shu bois, qonunchilik tizimlarini tarmoqlar bo'yicha bo'lib qarashga asoslangan mumtoz usulni bu o'rinda tatbiq qilish mushkul. Harbiy huquq tarmog'i bundan mustasno, negaki, mazkur qonunchilik amalda batamom harbiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan.

**Milliy armiyamizni barpo etish va uni zamon talablariga mos keltirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarni uch bosqichga bo'lish mumkin.**

**Birinchi bosqich** – 1998 - 2000-yillar bo'lib davlatni harbiy-ma'muriy bo'linish tizimini yaratish va Qurolli Kuchlar tuzilishini takomillashtirishdan iborat edi.

Buning natijasida:

- harbiy okruglar tashkil topdi;
- qo'shinlar asosiy strategik yo'naliшlar bo'yicha qayta joylashtirildi;
- chegara qo'shinlari takomillashtirilib, chegara rayonlari tashkil etildi;
- maxsus operatsiyalar kuchlari tashkil etildi;
- harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari birlashtirildi;
- qism va bo'linmalarning yangi tashkiliy-shtat tuzilishi ishlab chiqildi va u taktik o'quvlar jarayonida tekshirilib xayotga tatbiq etildi.

Shu o'rinda harbiy okrug haqida qisqacha ma'lumot berib o'tmoqchiman. Harbiy okrug – bu asosiy harbiy – ma'muriy birlik va hududiy umumqo'shin operativ-strategik birlashma bo'lib, operatsion yo'naliшlarda O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini himoya qilish va hududiy daxlsizligini ta'minlash vazafasini bajaradi.

Hozirgi kunda respublikamizda beshta harbiy okruglar tashkil etilgan. Bular shimoliy-g'arbiy harbiy okrug, boshqaruв shtabi Nukus shahrida, janubiy-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruв shtabi Qarshi shahrida, Markaziy harbiy okrug boshqaruв shtabi Jizzax shahrida, Toshkent harbiy okrug boshqaruв shtabi Toshkent shahrida va Sharqiy harbiy okrug boshqaruв shtabi Farg'onha shahrida.

**Ikkinci bosqich** – 2000-2002-yillar bo'lib bunda Qurolli Kuchlar boshqaruв tizimi isloh etildi.

Buning natijasida:

- Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi tashkil etildi;
- Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi va Mudofaa vazirligi vakolatlari belgilandi;
- qism va bo'linmalarning yangi tashkiliy-shtat tuzilishi tatbiq etildi;
- jangovar harakatlar olib borish va ularni ta'minlash bo'yicha jangovar nizomlar, yo'riqnomalar va qo'llanmalar ishlab chiqildi va tatbiq etildi;
- har bir harbiy okruglarda serjantlar tayyorlash makteblari ochildi.

**Uchinchi bosqich** – 2003 va keyingi yillarni qamrab olgan bo'lib, bunda qo'shinlarning tarkibi, to'ldirilishi va ta'minlanishi sifat jihatidan o'zgartirilishdan iborat bo'ldi. Ushbu jarayonlar hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Buning natijasida:

- jangovar tayyorgarlikning samaradorligi oshirildi;
- Qurolli Kuchlar tuzilishi optimallashtirildi;
- Qurolli Kuchlarda xizmatni shartnoma asosiga bosqichma-bosqich o‘tkazish ishlari olib borildi;
- muddatli xizmatni muddati 12 oygacha qisqartirildi;
- qo‘sishnlarning zamonaviy qurol-aslaha va jangovar texnikalar bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash davom ettilrimoqda;
- harbiy xizmatchilarning pul ta‘minoti oshirildi.

O‘tgan davr mobaynida hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli mamlakatimiz xavfsizligi va barkarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz hamda g‘arazli urinishlarning oldini olishga qodir bo‘lgan, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlangan, jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega milliy armiyamiz shakllantirildi. Qurolli Kuchlarimizni tashkil etish hamda boshqarishning mutlaqo yangi tizimi vujudga keldi.

O‘tkazilgan islohotlar natijasida Qurolli Kuchlarimiz hozirgi kunda quyidagi tuzilishga ega bo‘ldi:

- quruqlikdagi qo‘sishnlar;
- harbiy-havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo‘sishnlari;
- maxsus qo‘sishnlar;
- Milliy gvardiya, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy tuzilma va bo‘linmalari.

Qurolli Kuchlarning asosini quruqlikdagi qo‘sishnlar tashkil etadi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- motoo‘qchi qo‘sishnlar;
- tank qo‘sishnlari;
- xavo-desant qo‘sishnlari;
- xavo xujumidan mudofaa qo‘sishnlari;
- artilleriya;
- maxsus operatsiyalar kuchlari;
- terrorizmga qarshi kurash korpusi.

Hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga, aholimizning tinch va osuda hayotiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz hamda g‘arazli urinishlarning oldini

olishga qodir bo‘lgan, ixcham, tezkor, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlangan, jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega milliy armiyamiz shakllantirildi. Qurolli Kuchlarimizni tashkil etish hamda boshqarishning mutlaqo yangi tizimi vujudga keldi.

Harbiy sohadagi islohotlarimizning samarasini oshirish maqsadida yangidan qabul qilingan **Mudofaa doktrinasi** muhim rol o‘ynaydi. Ushbu doktrina O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik tamoyilini, yaqin qo‘shnilar bilan do‘stona va amaliy munosabatlarni rivojlantirishni ifoda etadi. Unda davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimiz geostratejik joylashuvining o‘ziga xosligi, shuningdek, mintaqada vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy holatni hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlar birlashmalarining vazifa va tuzilmalari qayta ko‘rib chiqildi. **Milliy gvardiya barpo etildi**, armiyani yangi qurol-aslaha va zamonaviy harbiy texnika bilan ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. **Mudofaa sanoati bo‘yicha davlat qo‘mitasi tuzildi**. Harbiy kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan tizimli o‘zgarishlar asosida Qurolli Kuchlar akademiyasining faoliyati tubdan qayta tashkil etildi.

Shu qatorda hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tasarrufida bir nechta oliy harbiy institut, bilim yurtlar va bitta maxsus fakultet faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular: Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muxandislik bilim yurti, Toshkent axborot-texnologiyalari universiteti maxsus fakulteti va shular qatorida **O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti** kabilardir. Ta‘kidlash joizki, 1993-yildan e‘tiboran oliy harbiy o‘quv muassasalarida ofitser kadrlar tayyorlashning ko‘p sohali tizimiga o‘tildi.

Harbiy o‘quv yurtlarimizda ta‘lim tizimi tubdan o‘zgarmoqda, ularda bo‘lg‘usi ofitserlarni tayyorlash va tarbiyalash hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladigan, prinsipial jihatdan mutlaqo yangi bo‘lgan o‘quv texnik va ma‘naviy-ahloqiy asosda yo‘lga qo‘yilgan.

Prezidentimiz rahnomoligida 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini 320 banddan iborat “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturi asosida davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish, O‘zbekistonning

yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish kabi dolzarb ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida 231 banddan iborat "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturida<sup>305</sup> Qurolli Kuchlar tizimi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, mudofaa-sanoat kompleksini shakllantirish va rivojlantirish orqali davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangovar qudrati va salohiyatini oshirish, mudofaa sohasida xorijiy hamkorlar bilan harbiy va harbiy-texnik munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash bilan bog'liq bir qator muhim tadbirlarni amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

#### **6-§.Mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy – huquqiy asoslari**

O'zbekistonning suveren davlat sifatida dunyo xaritasida qaror topishi uning mustaqilligini saqlash zaruriyati bilan bog'liq. Bu esa mantiqan davlatning o'z qurolli kuchlari, armiyasi bo'lishini nazarda tutadi. O'zbekiston Qurolli kuchlari mavjud bo'lishining dastlabki huquqiy asosi – 1991-yil 31-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunda o'z tasdig'ini topdi. Unda davlatimiz o'z milliy gvardiyasi (armiyasi) ga ega bo'lishi ta'kidlandi. Prezidentning 1992-yil 14-yanvardagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasidagi sobiq Ittifoqning harbiy qismlari, qo'shilma, harbiy-o'quv yurtlari, muassasa, tashkilot va boshqa harbiy tuzilmalari mustaqil davlatimiz ixtiyoriga olinib, ular Qurolli kuchlarimiz o'zagini tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrdagi Konstitutsiyasi mamlakat Qurolli Kuchlari tuzilishi va faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos hosil qildi.

Harbiy xavfsizlik sohasi ijtimoiy munosabatlarning bir xildagi turini tashkil etadi, uni huquqiy jihatdan tartibga solish bir xildagi huquqiy normalarning alohida majmuasiga tayangan holda amalga oshiriladi.

---

<sup>305</sup>Узбекистан Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор ўйналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Фаол тадбиркорлик, инновацион гоялар ва технологияларни кўллаш-куватлаш йили" да амалга оширишга оид давлат дастури тўгрисида"ги ПФ-5308-сон Фармони.

Harbiy huquq tarmog'ining o'zi majmuaviy xususiyatga ega bo'lib, bu sohadagi bir qator munosabatlар huquqning boshqa tarmoqlari, masalan, ma'muriy, moliyaviy, yerga oid, jinoyat to'g'risidagi va shu kabi huquqiy normalar vositasida tartibga solinadi.

Mudofaa va davlatning harbiy faoliyatini tashkil etish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi bilan harbiy huquq boshqa tarmoqlardan farqlanadi. Bu munosabatlар qamrov doirasi bo'yicha bo'linadi. Avvalo, ular qurilish, boshqaruв, ta'minot, Qurolli kuchlarni, boshqa qо'shinlarni, harbiy bo'linmalar va organlarni hozirlash hamda mamlakat mudofaasi maqsadlarida qо'llanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiylar harbiy majburiyatni ijro etishi va harbiy xizmatni o'tashi bilan bog'liq munosabatlар alohida guruhni tashkil etadi. Harbiy intizomni saqlash, huquq-tartibotni, harbiy adliya organlari faoliyatini yo'lga qo'yishda yuzaga keluvchi munosabatlар boshqa bir guruhni tashkil etadi. Xalqaro huquqning harbiy hamkorlik masalalari, harbiy harakatlar olib borish bilan, shuningdek, gumanitar huquqning normalarini buzganlik uchun javobgarlik bilan bog'liq normalari yordamida boshqariladigan munosabatlар keyingi guruhga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining harbiy huquq manbalari orasida Konstitutsiya alohida o'rinni tutadi. Unda harbiy sohani tartibga soluvchi yo'naliшlarning normalari aks ettirilgan. Bu faqatgina 125, 126-moddalardagina emas, balki 52, 57, 93-moddalarda ham o'z aksini topgan. Bu normalarning barchasi mudofaani tashkil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasini bevosita qurolli himoya qilishga va qurolli himoya qilishga qaratilgan tadbirdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari mudofaa maqsadlarida tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish O'zbekiston Respublikasining milliy mansaftalarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qо'shilmalar va qismalarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

Konstitutsianing 125 va 126-moddalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti hamda

xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun ("O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qonunchilik faoliyati rejasiga kiritilgan va u ishlab chiqish jarayonida turibdi) bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega. Konstitutsiyaning 93-moddasi 20-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi.

Vatan oldidagi harbiy mas'uliyat va javobgarlik hissini kuchaytirgan holda 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Umumiylarbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunning 9 - moddasiga muvofiq, "Harbiy burchni jiddiy tarzda buzganlik, hokimiyatni suiste'mol qilganlik zimmasiga qonunlar va harbiy ustavlar bilan yuklatilgan talablar va majburiyatlarni favqulodda vaziyatlarda bajarmaganlik uchun katta ofitserlar va generallar tarkibidagi shaxslarning harbiy unvonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondonining qarori bilan pasaytirilishi mumkin".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 2-bandiga muvofiq Prezident O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi.

Qurolli Kuchlarni tashkil etish harbiy tadbirdan biri bo'lib, fuqarolarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini aniqlash prinsipi ham shular jumlasiga kiradi. Konstitutsiyaning 52-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar. "Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'onlari uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech

shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutuqlarmizdir”<sup>306</sup>.

Konstitutsiya mudofaani tashkil etishda harbiy tadbirdlardan tashqari siyosiy tadbirdarni ham nazarda tutadi. Siyosiy tadbirdarga urush holatini e'lon qilish, harbiy holatni joriy etish, xavfsizlikni kafolatlash va boshqalar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 18-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnomaga majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish va qabul qilgan qarorni uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iqa kiritish ham Respublika Prezidenti vakolatiga kirishi belgilab berilgan.

Siyosiy tadbirlar jumlasiga qurollangan guruqlar, uyushmalar, urushni targ'ib etuvchi birlashmaicherni man qilish ham kiradi. Shunday qilib, Konstitutsiya harbiy huquqning eng muhim manbasi hisoblanadi. Harbiy huquqning boshqa manbaalari qatoriga ochiq qabul qilingan “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi, “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar, Umumiylar qo'shin nizomlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi va shu kabi hujjatlar kiradi.

Shuningdek, harbiy huquqning maxsus manbalari ham bo'lib, ular jumlasiga harbiy boshqaruvning normativ-huquqiy hujjatlarini, chunonchi – buyruqlar, qoidalar, yo'riqnomalar va boshqalarni kiritish mumkin. Ular qonunosti va farmoyish tusidagi hujjatlardir. Mamlakatimizda mudofaaning huquqiy asoslarini rivojlantirish uch bosqichda o'tdi. Birinchi bosqichda «Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi (1992-yil 3-iyul) qonunlar qabul qilindi. Ulardan oldinroq «Respublika yoshlarini harbiy xizmatga chaqirish va harbiy xizmatni o'tashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

<sup>306</sup>И.М.Мирзиёев Миллий тараккиётимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. “Куролли Кучлар – Ватанимиз ва халқимизнинг мустаҳкам кўргони” – Ватан ҳимоячилари куни ва Узбекистон Республикаси Куролли Кучлари ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги табрик нутки. 2017 йил 13 январь 221 б.

(04.09.1990 y. №PF-52), «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida» (06.09.1991 y. №PF-243) Prezident farmonlari e'lon qilingan edi. Shuningdek, Prezidentimizning «SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari va o'quv yurtlari to'g'risida» (10.01.1992 y. №PF-318), «Harbiy va maxsus unvonlarni berish tartibi to'g'risida» (19.02.1992 y. №PF-345), «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy-o'quv yurtlari to'g'risida» (20.02.1992 y. №PF-347), «O'zbekiston Respublikasining hududida joylashgan chegara qo'shinlarining bo'linmalari to'g'risida» (24.03.1992 y. №PF-365), «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirilgan havo desanti qo'shinlari, harbiy-transport aviatsiyasi, razvedka qismlari va ta'minot qismlari to'g'risida» (18.05.1992 y. №PF-434), «O'zbekiston Respublikasi hududidagi kimyoiy qo'shinlar harbiy qismlari to'g'risida» (13.11.1992 y. №PF-496), «O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini qo'riqlashni yanada mustahkamlash to'g'risida»gi (26.04.1993 y. №PF-600) farmonlari va boshqa hujjatlar ham shular jumlasidandir.

Bu davrda mamlakatimiz harbiy tizimi murakkab bir holatda edi. Aslini olganda, milliy Qurolli Kuchlarni qayta tashkil etish, milliy harbiy doktrinani shakllantirish va urningan harbiy qurilish zamirida nima yotsa, ularning barchasini qaytadan qurishga to'g'ri kelardi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tezkor, yaxshi tayyorgarlikdan o'tgan va zamonaviy qurollangan armiyani tashkil etish harbiy qurilishning bosh yo'naliishiga aylandi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilarkan, o'zining tinchliksevar davlat ekanligini baralla oshkor etdi hamda o'zining mudofaa siyosati batamom tinch-totuv yashash, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning suvereniteti va mustaqilligini hurmatlash, shuningdek, mavjud davlatlar chegaralarning daxlsizligi va o'zgarmasligi prinsiplariga asoslanishini ma'lum qildi. Davlatimizning asosiya sa'y harakati barcha davlatlar bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga, yalpi tinchlikka, hamma yerda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o'rnatilishiga erishishga va harbiylashtirishga barham berishga qaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz o'z fuqarolarining hayotini va qadr-qimmatini himoya qilishga bo'lgan ajralmas huquq BMTning Ustaviga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga oldi.

Davlatning mudofaa qudrati asosida mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab borish maqsadi yotadi. 90-yillarning o'rtalarida

O‘zbekistonda qo‘sishinlarning ustuvor turlari uchun yuqori malakali ofitserlarni tayyorlash maqsadiga xizmat qiladigan bir qator harbiy o‘quv yurtlari tashkil etildi. To‘rtta harbiy bilim yurti, shu jumladan, uchuvchilar bilim yurtidan tashqari 1993-yilda Toshkent aloqa elektrotexnika instituti (hozirgi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) huzurida aloqa xizmati mutaxassislarini tayyorlaydigan harbiy fakultet ochildi. 1994-yilda Qurolli Kuchlar Akademiyasi tashkil etilib, bu yerda oliy harbiy malakali ofitser kadrlar tayyorlashga kirishildi. Shuningdek, armiyaning texnik jihozlanishini mustahkamlash chora-tadbirlari ko‘rildi.

Harbiy xavfsizlik huquqiy asoslarini rivojlantirishning ikkinchi bosqichi harbiy infratuzilmaning rivojlantirilishi va harbiy qurilish huquqiy bazasining yanada mustahkamlanishi, harbiy sohada xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Milliy xavfsizlik kengashining tuzilganligidan boshlandi. (Bu Kengash O‘zbekiston Reaspublikasi Prezidentining 1995-yilda 1-mayda e‘lon qilingan PF-1149-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kengashi to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan tashkil topdi). Masalan, 1995-yilning 30-avgustida Harbiy doktrina qabul qilinib, unda davlatlararo harbiy mojaro va ziddiyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda faol qatnashish belgilangan bo‘lib, bunda qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi sabablarini diplomatik yo‘l bilan hal etishga urg‘u berildi. Davlat mudofaasi va xavfsizligini ta‘minlashda Harbiy doktrina katta ahamiyatga ega.

U rasmiy qoidalalar majmuasidan iborat bo‘lib, harbiy xavfsizlikning siyosiy, strategik va iqtisodiy asoslarini belgilaydi, umumiyligida qoidalarni, siyosiy va harbiy-tashkiliy jihatlarni qamrab oladi. Uning siyosiy qismida respublikanining urushga munosabati, O‘zbekiston Respublikasining urush chiqishini bartaraf etish sohasidagi xalqaro faoliyatining asosiy vazifalari, yo‘nalishlari va mezonlari tushuntirib beriladi.

Harbiy doktrinaning harbiy-siyosiy qismida Markaziy Osiyo mintaqasining harbiy-strategik xususiyatlari bayon etiladi, harbiy xavf-xatarning potensial manbalari aniqlab beriladi. Hozirgi zamon urushlarining strategik xususiyati va oqibatlariga baho berilishi asosida doktrinada bosh harbiy-strategik vazifalar, Qurolli Kuchlarning qurilishi va ularni strategik qo‘llash prinsiplari, shuningdek, ulardan foydalanish shartlari tilga olinadi, respublika iqtisodiyotini, hududini va aholisini mudofaaga tayyorlash masalalari ham o‘z ifodasini topadi.

Harbiy doktrina O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va respublikaning harbiy xavfsizligiga tajovuzlarga qarshi harakatlarni tashkil etishda, mamlakatni mudofaaga tayyorlash borasidagi davlat faoliyatini, O'zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun Qurolli Kuchlarni qo'llashni tartibga soluvchi qonunlarga asoslanar ekan, BMT Ustavidan, Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi aktdan, Stokholm konferensiysi hujjatidan, shuningdek, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar hamda bitimlardan, xalqaro huquqiy hujjatlarning umume'tirof etilgan normalaridan kelib chiquvchi barcha xalqaro majburiyatlarga qat'iy rioya etilishini kafolatlaydi, tashqi harbiy tahdidning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yish zarur ekanligini qayd etib o'tadi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi tashqi siyosat Qo'shilmaslik harakati prinsiplariga ham tayanadi. Bu prinsiplar milliy qonunchiligidan ham o'z ifodasini topgan (1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi, 2001-yil 11-mayda yangi tahrirda qabul qilingan "Mudofaa to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi). Mazkur prinsip mantiqan kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipidan kelib chiqadi hamda umuman olganda Konstitutsiyaning ruhiga, uning tinchliksevar mohiyatiga va mafkuralashtirishdan xoli yo'nalishiga muvofiq keladi.

Milliy xavfsizlik manfaatlari xalqaro hamkorlikning ittifoqlar, hamdo'stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalar shaklidagi asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Milliy xavfsizlikni ta'minlash manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining NATÖ bilan hamkorligi rivojlanib bormoqda, bu ish 1994-yildan beri "Tinchlik yo'lida sheriklik" dasturida ishtirot etish orqali ta'minlanmoqda. Mazkur dastur NATO a'zolari bo'lмаган mamlakatlar uchun yaratilgan. Ushbu sheriklik nafaqat harbiy vazifalarni (bularga quyidagi vazifalar kiradi: milliy mudofaani rejalashtirishda va harbiy budgetni shakllantirishda ko'proq ochiq-oshkorlikka erishish; Qurolli Kuchlar ustidan demokratik nazoratni mustahkamlash; milliy salohiyatni qo'llab-quvvatlash va tinchlik o'rnatish operatsiyalariga hissa qo'shishga shaylik; Shimoliy Atlantika Ittifoqi bilan birlilikdagi harbiy tayyorgarlik va mashqlarni rejalashtirish hamda o'tkazish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish; sherik-davlatlar armiyalari, shuningdek, NATO

mamlakatlari Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikni rivojlantirish), balki noharbiy ruhdagi favqulodda vaziyatlar sharoitida harakatlarni rejalashtirish sohasida, ilmiy va iqtisodiy dasturlarni amalgalash oshirishda hamkorlikni ta'minlash; sherik davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish vazifalarini ham qamrab oladi.

O'zbekiston 1995-yildan boshlab Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT)ning Vena hujjatini harbiy sohadagi ishonch mezonlari bo'yicha ham amalga oshirishda qatnashib kelmoqda, EXHT Kotibiyatiga o'z harbiy kuchlari va mudofaa sohasidagi rejalarini to'g'risida axborot yo'llab turibdi. Shu asnoda respublikaning chet el mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan samarali harbiy-siyosiy va harbiy-texnikaviy hamkorligi jarayonlari kuchaydi. 2012-yil 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi"<sup>1</sup>da ta'kidlab o'tilganidek, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mudofaa qobiliyatini oshirish, uni zamonaviy qurol-yarog'lar va texnika bilan ta'minlash, qo'shinlarning moddiy – texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek, harbiy qurilishning ilg'or tajribasini o'rghanish, harbiy kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan, rivojlangan xorijiy davlatlarning armiyasi bilan harbiy hamda harbiy – texnikaviy hamkorlikning chuqurlashuviga ko'maklashish".

Harbiy qonunchilikni rivojlantirish siyosati o'zida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlar, harbiy tuzilmalar va organlari tizimining qurilishi jarayonini aks ettiradi. Bu 1996-yil 26-dekabrdan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, mamlakat Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi (04.03.1996 y. №PF-1378), «O'zbekiston Respublikasi umumiqo'shinlar Nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi (09.10.1996 y. №PF-1571), "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining intizom qismi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi (09.10.1996 y. №PF-1572), "O'zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup>Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси налаталарининг Ахборотномаси, 2012 йил 9/1 (1437)-сон, 233 – модда

harbiy qismlarida intizomni mustahkamlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (23.02.1998 y. №PF-1932), “2007-yilning 1-oktabridan muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilaring lavozim maoshlari miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi (02. 10. 2007 y. № PF-3927), “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tash shart – sharoitlarni takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi (20.11.2008 y. № PF-4054) Farmonlari hamda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartib – to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (14. 01. 2006y. № PQ-257), “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini u – joy bilan ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (14.09.2007y. № PQ-694), ”O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi (31. 05. 2012y. № PQ-1765) kabi Qarorlarida o‘z ifodasini topdi.

Harbiy qonunchilik taraqqiyotining uchinchi bosqichi 1999-yilda sodir bo‘lgan voqealar bilan bog‘liq harbiy islohotdan boshlandi. Bu islohotning mohiyati harbiy qurilish muammolarini hal etishga yangicha yondashuvlar va mamlakat Qurolli Kuchlarini sifatli modernizatsiya etishdan iborat. Oxirgi yillarda harbiy sohaga tegishli ba‘zi bir qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Xususan, 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasi, birinchi qismi “Fuqarolarning muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan yiliga bir marta – fevral - mart oylarida o‘tkaziladi”, deb belgilab qo‘yildi. Bu ham o‘ziga xos harbiy sohadagi islohotlarning bir huquqiy ko‘rinishidir.

Harbiy islohotning asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 10-yanvar kunidagi Xavfsizlik kengashining tezkor yig‘ilishidagi ma‘ruzalarida chuqr ochib berildi va milliy armiyaning tuzilishini o‘zgartirishni taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangovar tayyorgarligini ta‘minlashning ustuvor vazifalari orasida qo‘sishlarni tayyorlashda milliy g‘oya, milliy mustaqillik mafkurasiga tayangan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning butun tizimini qayta tuzishga kirishilganligini alohida ta‘kidlash zarur.

Mamlakatning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarning rezervchilari instituti tarkib topganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Rezerv safini to'ldirishning maqsadi, vazifalari, prinsiplari va urush vaqtida rezervdan foydalanishning mexanizmi belgilab qo'yildi.

Mintaqamizdag'i va mamlakatimiz chegaralari yaqinidagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyat, butun jahonda ekstremistik kuchlar kuchayganligi Prezidentning 2000-yil 7-fevraldag'i Farmoni bilan tasdiqlangan yangi Mudofaa doktrinasini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi, unga muvofiq mamlakat Qurolli Kuchlari o'zida Mudofaa vazirligi bo'linmalari, Chegara qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligi hamda Davlat xavfsizlik xizmatining maxsus bo'linmalari va boshqa idoralarning harbiy tuzilmalarini birlashtirdi.

Mudofaa va harbiy qurilish sohasida yagona davlat siyosatini o'tkazish hamda rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini chuqur o'rghanish asosida Qurolli Kuchlar ustidan samarali fuqarolik nazoratini o'rnatish maqsadida Mudofaa vazirligi hamda respublikaning mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi boshqa tuzilmalari oldida turgan vazifalar qayta ko'rib chiqildi. Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi tashkil etildi va u O'zbekiston Respublikasining suvereniteti hamda hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish bo'yicha qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo'mondonlik organiga aylandi.

Kompyuter texnologiyalaridan, modellashtirish, chalg'itish uslublaridan va boshqa zamонавиyy та'lim shakllaridan foydalaniladigan, harbiy xizmatchilarni tayyorlashning mutlaqo yangi shakllari hisoblanadigan serjantlar maktablari va tayyorlov markazlari joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga davlatimiz tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratib kelinmoqda. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 31-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan, harbiy qismlar qo'mondonligining tegishli tavsiyanomalariga ega bo'lgan fuqarolar barcha yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr tayyorlashda respublikaning oliy ta'lim muassasalariga kirishda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ballarning 27 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga ega bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida

muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga harbiy qismlarning qo'mondonligi tomonidan oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun berilgan tavsiyanomalar ular berilgan sanadan boshlab, uch yil mobaynida amal qiladi". Hozirgi kunda muddatli harbiy xizmatni munosib o'tagan oddiy askarlarga ushbu imtiyozni berish yanada takomillashib, oliy ta'lim muassasalariga topshirgan test savollarining to'g'ri natijasini 50 % miqdorida qo'shilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston harbiy xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari ham shularga muvofiq ravishda rivoj topib, endilikda qonun hujjatlarining butun bir majmuini tashkil etadi. 1999-yildan boshlab "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida" (1999-yil 20-avgust), "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" (2000-yil 26-may), "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" (2000 yil 15 dekabr), yangi tahrirdagi «Mudofaa to'g'risida» (2000-yil 11-may), "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" (2002-yil 12-dekabr) va "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida" (2003-yil 25-aprel), "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi (2018-yil 9-yanvar O'RQ-438-son), "O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi (2018-yil 5-aprel) kabi qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasini tashkil etish to'g'risida" (1999-yil 30-mart №PF-2277) va boshqa Farmonlari ham e'lon qilindi.

Qonunchilik – jamiyatning huquq va ehtiyojlariga monand holda tinimsiz rivojlanib boradigan jonli organizmdir. Shunga muvofiq ravishda harbiy huquqni tegishli fan tarmog'i sifatida rivojlantirib borish zarur. Harbiy qonunchilik tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar normativ-huquqiy boshqaruvning mazkur sohadagi tartibotlarini chuqur tadqiq qilish natijalariga asoslanishi kerak. Bundan tashqari, milliy xavfsizlik huquqi tizimini, uning tuzilmalari va tarkibini talqin va bayon etishda yangicha yondoshuvlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifaning talab darajasida hal etilishi qonunchilikdan barchaning foydalanish erkinligini ta'minlash va qonunlardagi takroriylikning oldini olish imkonini beradi, milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni boshqarish tizimiga taalluqli normalarning o'zaro uyg'un bo'lishi va to'g'ri qo'llanishiga olib keladi.

Shubhasiz, milliy xavfsizlikni ta'minlashga doir huquq tizimini rivojlantirish jarayoni hali nihoyasiga etganicha yo'q. Huquqiy jihatdan tartibga solish predmeti o'zgarmoqda, uning mexanizmi takomillashmoqda. Yangi muammolar ham vujudga kelnoqda, ularni

hal etish uchun ilmiy asoslangan yangicha yondashuvlar talab qilinayotir. Tabiiyki, ijtimoiy munosabatlар rivoji yuridik munosabatlар rivojiga nisbatan ildamroq bo‘ladi. Qonunchilik hamisha siyosiy-huquqiy va iqtisodiy madaniyatning yig‘ma mahsuloti, tegishli ijtimoiy munosabatlarga izmini o‘tkazishning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegarasini belgilashga nisbatan jamiyatning anglab yetilgan ehtiyojlarining amalga oshirilishidir.

Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonunchilikning rivoji, shuningdek, qabul qilinayotgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirish, bizning nazarimizda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy omillaridir.

### *O‘zini-o‘zi nazorat qilish savolari*

1. “Milliy xavfsizlik” tushunchasi nimani anglatadi?
2. O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlikni ta‘minlash borasida qanday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatgan?
3. O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlikni ta‘minlash borasida qanday xalqaro huquqiy hujjalarga qo‘shilgan?
4. Milliy xavfsizlikning ob‘ekti bo‘lib nimalar hisoblanadi?
5. Harbiy doktrina deganda nimani tushunasiz?
6. O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy asoslari qanday huquqiy hujjalalar bilan belgilangan?

## **YETTINCHI BO‘LIM. KONSTITUTSIYAGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI**

### **XXX BOB. KONSTITUTSIYAGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI**

**1-§. Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish tushunchasi va tartibi.**

2-§. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar va Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zaruriyati.

#### **1-§. Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish tushunchasi va tartibi**

O‘zbekiston tarixida bir nechta konstitutsiyalar qabul qilingan bo‘lib, ularning mazmun va mohiyati o‘sha davr shart-sharoitlari bilan o‘lchanadi. Shuningdek, dunyo mamlakatlарining hayotiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyalar turli davlatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin:

1. Konstitutsiya davlat hokimiyatining oliv vakillik organi – parlament tomonidan ishlab chiqiladi va ayrim hollarda umumxalq muhokarnasidan o‘tgandan so‘ng qabul qilinadi (O‘zbekistonda Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi).

2. Konstitutsiya maxsus ta‘sis etilgan davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi (Xitoy, Mozambik, Vietnam va Gruziyada Ta‘sis yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi).

3. Referendum yo‘li bilan bevosita xalq tomonidan qabul qilinadi (Fransiya, Rossiya, Belorusiya, Aljir, Shvetsariya va Filippinda).

Jahon konstitutsiyaviy amaliyotida Konstitutsiyalar o‘zgartirish kiritish tartibining murakkabligiga qarab “yumshoq” va “qattiq” konstitutsiyalarga ajratiladi. “Yumshoq” Konstitutsiya deganda nisbatan oson o‘zgartiriladigan, o‘zgartirish kiritish tartibi sodda bo‘lgan konstitutsiyani tushunamiz. “Qattiq” Konstitutsiya esa, o‘zgartirish kiritish tartibi murakkab bo‘lgan, birmuncha muddat davom etadigan konstitutsiyani tushunamiz.

“Yumshoq” konstitutsiyalar oddiy qonunlar uchun belgilangan tartib asosida o‘zgartiriladi yoki to‘ldiriladi. “Qattiq” konstitutsiyalar alohida o‘rnatalgan tartibga muvofiq (qo‘sishimchalar taqdim etilgandan so‘ng ma‘lum vaqt o‘tgach yoki malakali ovoz berish – deputatlarning 2/3 qismi ovozi bilan, federatsiya subyektlarining hammasi ratifikatsiya qilgan taqdirda va hokazo) o‘zgarishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham «qattiq» konstitutsiyalar qatoriga kiradi.

Qayd etish kerakki, Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibining murakkabligi uning barqarorligini ta‘minlash usullaridan biri sanaladi. Bu borada xorij tajribasiga murojaat etadigan bo‘lsak, turlicha yondashuvlar mayjudligini kuzatamiz. Masalan, qator mamlakatlarda oddiy qonun loyihasi parlamentning birgina a‘zosi tomonidan taklif qilinishi mumkin bo‘lsa, Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi loyiha esa faqat Prezident, hukumat yoki deputatlarning muayyan guruhi (masalan, Turkiyada – parlament a‘zolarining 1/3 qismi), federatsiya subyektlari (masalan, Braziliyada – shtatlarning yarmi) tomonidan kiritiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgartirishlar, qoida tariqasida, parlamentning har bir palatasida malakali ko‘pchilik tomonidan ma‘qullanishi lozim. Masalan, Avstriya, Italiya, Niderlandiyada parlament a‘zolarining 2/3 qismi ovozi zarur bo‘lsa, Gretsya, Ispaniyada 3/5 qismini tashkil etishi lozim bo‘ladi. Parlament Konstitutsiyaga o‘zgartirishlarni qabul qilgach, ayrim davlatlarda mazkur o‘zgartirishlar federatsiya subyektlari tomonidan (masalan, AQSHda 3/4 qismi tomonidan ma‘qullanishi), ba‘zi mamlakatlarda esa (masalan, Daniya, Shveytsariya) referendumda ham tasdiqlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning birqalikdagi vakolatlariga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining oldingi tahrirdagi 127-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarning uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi” deb belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazkur moddasiga 2003-yil 24-aprelda kiritilgan tuzatish va qo'shimchalardan so'ng "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi" deb o'z ifodasini topdi.

Demak, Konstitutsiya qabul qilish va unga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish yuqorida ko'rsatilgan konstitutsiyaviy normaga asosan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishining 3/2 qismi ovozi roziligini bildirgan taqdirdagina yoki referendum yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning uchun asoslangan ma'lumotlar, takliflar murojaatlar va xalqning to'liq fikri o'rganilgani to'g'risidagi dalillar bunday qaror qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan konstitutsiyani qabul qilish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, qonun, qaror va boshqa hujjatlarni qabul qilish, o'zgartirishga nisbatan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi bilan bog'liq normalar boshqa qonunlarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"<sup>307</sup>gi Konstitutsiyaviy Qonun<sup>307</sup>ning 29-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"<sup>308</sup>gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, konstitutsiyaviy qonunning, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarning loyihalarini qabul qilish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi. Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi

---

<sup>307</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2002 й. 12-сон, 215-модда.

qonun loyihasini tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy ichida uning keng muhokamasini inobatga olgan holda ko'rib chiqishi mumkin. Agar Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini qabul qilmasa, uni ko'rib chiqish kamida bir yildan keyin qayta boshlanishi mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"<sup>308</sup>gi Konstitutsiyaviy Qonunning 24-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlari hamda ularga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ma'qullah uchun senatorlar umumiyligi sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi. Binobarin, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Reglamenti to'g'risida"<sup>309</sup>gi Qonun<sup>308</sup>ning 14-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunni, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarni ma'qullah uchun senatorlar umumiyligi sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonni tartibga solish qo'shimcha qonunlarga murojaat etishni taqozo etadi. Masalan, Konstitutsiyaga referendum yo'lli bilan o'zgartirish kiritish uchun "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"<sup>309</sup>gi Qonun<sup>309</sup> talablaridan kelib chiqish lozim. Mazkur Qonunning 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining referendumi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Bu Qonunga ko'ra, referendumga qo'yiladigan masala davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalaridan sanalishi bilan bir qatorda ayrim masalalarga daxidor bo'lmasligi lozim. ya'ni qonunning 2-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining hujudiy yaxlitligini o'zgartirish. O'zbekiston Respublikasi Davlat ... yeti va soliqlar, amnistiya va avf etish, jamoat tartibini, aholi sog'lig'i va

<sup>308</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2003 й. 9-10-сон, 137-модда

<sup>309</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами 2001 йил, 21-сон, 147-148-моддалар.

xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar o'tkazish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish masalalari referendum predmeti bo'lishi mumkin emas.

Demak, yuqoridagilar referendum predmeti bo'limgani kabi, Konstitutsiyadagi bunga taalluqli masalalarga referendum yo'li bilan o'zgartirish kiritish ham mumkin bo'lmaydi.

Referendum o'tkazilgach, qabul qilingan qaror Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinib, respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'ladi va davlat hokimiyati organlarining hujjatlari bilan biron-bir tarzda tasdiqlashni talab qilmaydi. Mabodo, referendumda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim normalariga o'zgartirish kiritishni taqozo etuvchi qaror qabul qilinsa, Konstitutsiyaning muayyan normalari referendum qaroriga muvofiqlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga ko'ra, qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tayyorlangan qonun loyihalari ham yuqoridagi subyektlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kirtiladi. 2006-yil 11-oktabrdagi "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik

palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunning<sup>310</sup> 18-moddasiga ko‘ra, tartibga solinadigan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda qonuniar loyihalari quyidagi shaklda ishlab chiqiladi:

*birinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlari loyihalari;

*ikkinchidan*, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlariga hamda qonunlariga o‘zgartish, qo‘srimcha va tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi qonunlar loyihalari;

*uchinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini yoki ularning ayrim normalarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risidagi qonunlar loyihalari.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yuzasidan taklif kiritilgandan keyin uzog‘i bilan olti oy ichida Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qonun qabul qilinishi mumkin. Shuni e‘tiborga olish lozimki, agar Oliy Majlis mazkur taklif asosida qonun qabul qiladigan bo‘lsa, taklif kiritilgan muddat bilan qonun qabul qilinadigan vaqt orasi olti oydan oshmasligi lozim. Bundan tashqari, agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o‘tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin. Mazkur norma mazmunidan Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibining murakkab jarayon ekanini bilishimiz mumkin.

Boshqa biror bir qonunga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha bunday talab qo‘yilmagan, ya‘ni rad etilgan qonun loyihasining bir yil o‘tgandan keyin qayta kiritilishi mumkinligi belgilab qo‘yilmagan. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yuzasidan rad etilgan taklifning faqatgina bir yil o‘tgandan keyin qayta kiritilish qoidasi, birinchidan, konstitutsiyaning barqarorligini ta‘minlash sharti bo‘lsa, ikkinchidan, konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish yuzasidan taklif kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga loyiha ustida keng miqyosda ish olib borish, uni mukamallashtirishga imkon yaratadi; uchinchidan, Asosiy Qonunimiz qattiq konstitutsiya (alohida murakkab tartibda o‘zgartirish kiritiladigan konstitutsiya) ekanidan dalolat beradi.

---

<sup>310</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 й., 10-сон, 537-модда.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish yuzasidan tegishli tartibda qonun qabul qilinadigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasida belgilangan talabga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma‘qullagan qonun imzolanishi va e‘lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kun ichida yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolanadi va e‘lon qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko‘rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiyligi sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qonunni yana ma‘qullasa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e‘lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a‘zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagি tartibda ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonunni o‘z e‘tirozlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqlidir.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a‘zolari umumiyligi sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma‘qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e‘lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e‘lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

## **2-§. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar va Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish zaruriyati**

Har qanday jamiyatda ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borishi natijasida davlat va jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlar qilish zaruriyati vujudga keladi. 1993-yil 28-dekabrda birinchi bor Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilgan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga<sup>311</sup> asosan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi 1-qismi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 150 nafar deputatdan iborat)dagi “150 nafar deputatdan” degan so‘zlar “deputatlardan” degan so‘z bilan almashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti qonunchilik tashabbusi huquqidан foydalaniб, 2000-yil 25-may kuni Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq, ikkinchi sessiyasida doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish va 2004-yilda bo‘ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etish haqida taklif kiritdi. Oliy Majlisning navbatdagi sakkizinchı sessiyasida bu masalani hal etishning dastlabki muhokamasi bo‘lib, 2002-yil 4-aprelda “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun<sup>312</sup> qabul qilingan.

Mazkur Qonun asosida 2003-yil 24-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun<sup>313</sup>ga muvofiq Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

Konstitutsianing O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deb nomlangan XVIII bobi ilgari bir palatali parlamentga bag‘ishlangan bo‘lsa, endilikda mazkur bobda ikki palatali parlament – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senati (yuqori palata)ga bag‘ishlangan. Kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarga muvofiq Konstitutsianing 76-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi

<sup>311</sup> Узбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси, 1994 й №1, 5-модда.

<sup>312</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2002 й 4-5-сон, 60-модда.

<sup>313</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси, 2003 й. 3-4-сон, 27-модда.

bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil” degan qoida mustahkamlandi.

Bunday hujjatning qabul qilinishi mamlakatimizda jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etayotgani bilan izohlanadi. Bunda o'tish davrining muvaffaqiyatli yakunlangani, iqtisodiy islohotlarning barqaror amalga oshirilayotgani, buning barobarida siyosiy munosabatlarni shunga mos ravishda shakllantirib borish, mamlakat siyosiy tizimini takomillashtirish zarurati paydo bo'lganini ta'kidlash lozim. Ko'ppartiyaviylik tizimining mustahkamlanishi, mamlakat ijtimoiy hayotining huquqiy asoslarini rivojlantirish, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy tafakkuri yuksalishi, milliy huquq tizimimizni xalqaro huquq talablari darajasida takomillashtirish hamda mukammal saylov tizimining mavjudligi professional parlamentni shakllantirish, uni ikki palatali tizimga o'tkazish uchun xizmat qiluvchi omillar hisoblandi. Shuning uchun ham qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi parlamentning quyi – Qonunchilik palatasi muntazam faoliyat ko'rsatuvchi professional organga aylantirildi, yuqori palata – Senat esa hududlar manfaatlarini ifodalovchi vakillik organi sifatida shakllantirildi.

Konstitutsiyaning O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga bag'ishlangan XIX bobiga ham o'zgartish kiritildi. Kiritilgan o'zgartishlarga muvofiq Konstitutsiyaning 89-moddasidan “O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi” degan qoida chiqarib tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yuqori palatasi Senatga o'tkazildi. Jumladan, 93-modda 6-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga taqdim etishi, shu moddaning 23-bandiga ko'ra esa, amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritishi belgilandi. Ilgari O'zbekiston Respublikasi chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash va amnistiya to'g'risida hujjatlarni qabul qilish bevosita Prezident vakolatiga kiritilgan edi.

Konstitutsianing Vazirlar Mahkamasiga bag‘ishlangan XX bobiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarga muvofiq, ilgari Konstitutsianing 98-moddasida “Vazirlar Mahkamasi tarkibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, kiritilgan o‘zgartishga ko‘ra, 98-moddaning ikkinchi qismida “Vazirlar Mahkamasi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida belgilandi.

Shuningdek, Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vakolatlari kengaytirilib, 98-modda, 5-qismiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga binoan xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi”, 6-qismiga esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu Konstitutsianing 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli” degan qoidalar kiritildi.

Mazkur kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Vazirlar Mahkamasi a‘zolarini tasdiqlash uchun taqdim qilish” vakolati berildi.

Konstitutsianing saylov tizimi deb nomlanadigan XXIII bobiga ham o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Ilgari 117-modda 2-qismidagi “O‘zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar” degan qoida

o‘rniga “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyiga uchinchida o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. Saylovlar umumiyligi, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar” degan qoida kiritildi.

Shu moddaning 3-qismi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishincha qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar” degan qoida bilan to‘ldirildi.

Shuningdek, 2003-yil 23-aprelda Konstitutsiyaning 6-bo‘limiga ham o‘zgartish kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dastlabki 127-moddasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarning uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi” deb belgilangan edi.

Kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalardan so‘ng mazkur moddada “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiyligi sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi” degan iboralar o‘z ifodasini topdi.

Shuningdek, davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ular zimmasiga Konstitutsiya bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirishdagi roli va mas‘uliyatini oshirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash hamda huquqiy me‘yorlar doirasida cheklash, shuningdek, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta‘sirini

kuchaytirish maqsadida 2007-yil 11-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun<sup>314</sup> qabul qilindi.

Mazkur Qonun 2008-yil 1-yanvardan e‘tiboran kuchga kirdi. Kiritilgan tuzatishlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasasi “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiysi organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi” degan tahrirda, 93-moddasining 15-bandi “viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi” degan tahrirda, 102-moddasining 2-qismi “Viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi” degan tahrirda bayon etildi.

2008-yil 25-dekabrdagi “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish haqida”gi Qonun<sup>315</sup> bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasining birinchi qismi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat)ga o‘zgartish kiritildi. Ushbu Qonun 2009-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan. Unga ko‘ra mazkur moddaning birinchi qismi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat”, degan tahrirda bayon etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi” nomli ma‘ruzalarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalariga o‘zgartishlar kiritish yuzasidan bildirilgan takliflar alohida o‘rin olgan. Mamlakatimiz rahbari tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan

<sup>314</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси падаталарининг Ахборотномаси, 2007 й. 4-сон, 162-модда.

<sup>315</sup> Узбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2008 й. 52-сон, 510-модда.

mazkur takliflar 2011-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96, va 98-moddalariga)”gi Qonun<sup>316</sup>da o‘z ifodasini topgan. Qonunning asosiy maqsadi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, davlat hokimiyatining uchta subyekti: davlat boshlig‘i – Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta‘minlash, shuningdek, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta‘sirini kuchaytirishdan iborat.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi birinchi qismining 15-bandiga qo‘srimcha kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra Oliy Majlis palatalariga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish huquqi berilmoqda. Mazkur yangilik mamlakatimiz parlamentining roli va ta‘sirini kuchaytirish orqali davlat hokimiyati tizimida o‘zaro bir-birini tiyish va muvozanat saqlash prinsipining yanada samarali amalga oshirilishini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

Mazkur o‘zgartish kiritilishi orqali O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini eshitishdan iborat parlament tinglovi institutining milliy qonunchilik negizi yaratilishi ta‘minlanadi. Bu bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotning ba‘zi strategik masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining hisobotlarini tinglash singari muhim parlament nazoratining institutlaridan foydalaniш u yoki bu sohadagi mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga, bu muammolarni hal qilish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilash va qabul qilishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi 6-bandiga kirtilgan normaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston

---

<sup>316</sup> Узбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 й. 4-сон, 100-модда.

Respublikasi Hisob palatasi raisini tayinlash to‘g‘risidagi Farmonini tasdiqlash huquqi berilmoqda. Shunga muvofiq holda, Konstitutsiyamiz 93-moddasining 12-bandidagi “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va” degan so‘zlardan keyin “uning o‘rinbosarlari” degan so‘zlar chiqarilib, ularning o‘rniga “Hisob palatasi raisini” degan so‘zlar bilan to‘ldirildi. Asosiy Qonunimizning ushbu moddalariga kiritilgan o‘zgartishlar mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik islohotlarni yanada rivojlantirishning mustahkam qonunchilik negizini yaratishda o‘ta muhimdir. Bugungi kunda Hisob palatasi raisining o‘z lavozimiga ega bo‘lish tartibining qonunchilikda o‘z ifodasini topmaganligi yuzasidan uning qonunchilik asoslari yaratilyapti. Shuningdek, davlat hokimiyati tizimida xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning muhim vositasi bo‘lgan oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organ – parlament yuqori palatasining rolini kuchaytirish borasida muhim qadam qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari mustahkamlangan Konstitutsiyamizning 93-moddasi 8-bandidan “ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi” degan so‘zlarni chiqarish yuzasidan kiritilgan o‘zgartish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi”. Shu nuqtayi nazardan, Bosh vazirning Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etishi, unga rahbarlik qilishi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob berishi, davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirish asnosida ham Asosiy Qonunimizdan ushbu norma chiqarildi.

Kiritilgan yana bir muhim o‘zgartish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 15-bandini “viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi” degan so‘zlardan oldin “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan” degan so‘zlar bilan to‘ldirish borasidadir. Ushbu normaning kiritilishi, avvalo, davlat boshqaruvini yanada liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan bog‘liq. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining huquq va vakolatlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi

o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismidir. Mazkur o'zgartish orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mahalliy ijro etuvchi organ rahbari, ya'ni hokimni lavozimga tayinlashda markaziy ijro etuvchi hokimiyat rahbari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ishtirok etish huquqi ta'minlanadi. Binobarin, Vazirlar Mahkamasi rahbari sifatida Bosh vazirga hokimlar faoliyati haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lisch, ular bilan mustahkam aloqani yo'lga qo'yish, joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid masalalarni hal qilishdagi faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Qonundan o'rIN olgan normalardan biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 16-bandini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli" degan so'zlar bilan to'ldirishga oid. Kiritilgan mazkur norma davlat boshlig'i sifatida mamlakat Prezidentining davlat va jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy ahamiyatga ega masalalar yuzasidan o'tkaziladigan Vazirlar Mahkamasi majlislarida ishtirok etish huquqini mustahkamlaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislari mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan o'tkaziladi. Shuningdek, davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari ham Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi.

Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtinchha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi. Ta'kidlash joizki, mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlikka, ushbu moddani turlicha talqin etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida mazkur moddaning yangi tahriri berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilgan qo'shimchalarga muvofiq demokratik tartib-qoidalarga javob beradigan yangi konstitutsiyaviy qoida joriy etildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinalarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p

deputatlik o'rirlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. Ushbu qo'shimchalarning kiritilishi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada rivojlantirish, huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni qurishda yangi bosqichning boshlanishi hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mamlakat hukumatini shakllantirishning yangi tartibi kiritilishi siyosiy partiyalarning mas'uliyatini, ularning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi rolini oshiradi hamda mamlakat siyosiy hayotida partiyalararo raqobatning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaga kiritilgan yana bir muhim o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish huquqining berilishi bilan bog'liq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida doimiy ziddiyatlar kelib chiqqan taqdirda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi. Mazkur norma davlat hokimiyyati tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni hal qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytiradi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyyati organlari tizimidagi o'rmini ancha oshiradi.

2011-yil 12-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to'g'risida"<sup>317</sup>gi Qonun<sup>317</sup>

<sup>317</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 й. 12/1-сон, 343-модда.

bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati etti yildan besh yilga qisqartirildi.

2014-yil 16-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi Qonunihokimiyat va boshqaruvi tizimini yanada demokratlashtirish, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" prinsipi bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiysi organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek, hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro'yogga chiqarish borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadini ko'zlaydi.

Ushbu qonun asosida Konstitutsiyaga quyidagi muhim o'zgarishlar kiritildi:

– birinchidan, Konstitutsiyasining 32-moddasining ikkinchi jum'lasiga fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda "ishtiroy etishi o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, *davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish* yo'li bilan amalga oshiriladi" kabi norma kiritildi;

– ikkinchidan, Konstitutsiyasining 78-modda birinchi qismining 21-bandiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birqalikdagi vakolatlari sifatida parlament nazoratini amalga oshirish huquqi belgilandi. Darhaqiqat, parlament demokratik asosda shakllantiriladigan, xalq xohish-irodasini ifoda etuvchi oliy vakillik organidir. Mazkur organning davlat ijro hokimiysi organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi qabul qilinayotgan qonunlarni samarali ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Parlament nazorati – **birinchidan**, qabul qilingan qonunlarning ijro etilishi darajasini o'rganishga; **ikkinchidan**, qonunlarning amaliyotda qo'llanilishiga salbiy ta'sir etuvchi ob'ektiv va subyektiv omillarni o'z vaqtida aniqlashga; **uchinchidan**, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tezkor chora-tadbirlarni belgilashga;

**to'rtinchidan**, tegishli qonunlarga nazorat-tahlil natijalariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishiga; **beshinchidan**, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mansabdar shaxslar hamda fuqarolarning qonun hujjatlari qoida-talablariga so'zsiz amal qilish mas'uliyati va majburiyatini oshirishga xizmat qiladi;

– uchinchidan, 93-moddaning 8, 10, 16, 24-bandlariga ayrim tuzatish va to'ldirishlar kiritildiki, ular Bosh vazir vakolatlarini kengaytirdi, Prezidentning ayrim vakolatlarini amalga oshirish tartibotini yanada takomillashtirdi;

– to'rtinchidan, Konstitutsianing 98-moddasi mazmuni Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotgan paytda Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etishini nazarda tutadigan yangi qoidalar bilan to'ldirildi. Shu bilan birga Konstitutsianing 98-moddasida Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazirning vakolatlari aniq belgilab berildi;

– beshinchidan, Konstitutsiyaga (103-modda) mahalliy ijroiya hokimiyati organlari mustaqilligining kafolatlari va ayni paytda vakillik organlari oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan norma kiritildi. Unga ko'ra viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etishi, ular bo'yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilishi tartibi mustahkamlab qo'yildi. Mazkur norma ham vakillik organlari tomonidan mahalliy ijro hokimiyati ustidan amalga oshiriladigan nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirdi;

– oltinchidan, Konstitutsiyaga (117-modda) demokratik saylov tiziminining tashkiliy va huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan normalar kiritildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatining asosiyligi prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoraliq va adolatlilikdan iborat bo'lishi alohida belgilandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanishi, Markaziy saylov komissiyasining Raisi komissiya a'zolari orasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimi bo‘yicha komissiya majlisida saylanishi kabi konstitutsiyaviy norma mustahkamlandi<sup>1</sup>. Mamlakatimizda 2016-yildan boshlab barcha jabhalarda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, davlatning taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim yo‘nalishlarda bir qancha maqsad va vazifalar belgilab berildi. Albatta, buning negizida inson manfaatlari har narsadan ustun g‘oyasi ustuvorlik ahamiyat kasb etdi. Ko‘plab qonunlar, qonun osti hujjatlar, davlat dasturlari, kontseptsiyalar ishlab chiqish vazifalari yuklatildi. Hammamizga, ma‘lumki, Konstitutsiyamizning 11- moddasida sud hokimiyati alohida hokimiyat tarmog‘i sifatida o‘z faoliyatini mustaqil tarzda amalga oshiradi. Asosiy vazifasi sifatida inson huquq va erkinliklarini himoyalashga qaratadi. Shundan kelib chiqib, 2017-yil 6-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu o‘zgartish va qo‘srimchalar O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini takomillashtirish va uning faoliyati samaradorligini oshirish, sudyalar korpusini yanada mustahkamlash va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida kiritildi. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiغا rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tuzildi hamda ularning asosiy vazifalari sifatida, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, eng malakali va mas‘uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, shuningdek, rahbar sudyalik lavozimlariga ko‘rsatish uchun tavsiya berish asosida sudyalar korpusini shakllantirish va boshqa shu kabi vazifalar belgilandi.

Mazkur o‘zgartish va qo‘srimchalarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddaning 4-bandи quyidagi tahrirda bayon etildi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisini tayinlash masalasi Oliy Majlisи Senati tomonidan amalga oshirilishi belgilab berildi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi sudyalar

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2014 й., 16-сон, 177-модда

hamjamiyatining organi hisoblanishining o‘zi Raisga ulkan mas‘uliyatni yuklaydi.

Mamlakatimizda sud tizimidagi islohotlardan kelib chiqib, Konstitutsiyaning 81-moddaning yettinchi qismidagi “Oliy xo‘jalik sudi” degan so‘zlar “Sudyalar oliv kengashi” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Qonunchilik tashabbuskorlari subyektlarini belgilab beruvchi 83-moddadagi “Oliy xo‘jalik sudi” degan so‘zlar chiqarib tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari mazkur sud tizimidagi konstitutsiyaviy islohotlardan kelib chiqib, tegishli tarzda yangicha tahrir etildi. Xususan, Konstitutsiyaning 93-modda birinchi qismining 13-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkiblariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi.

Mazkur moddaning 14-bandiga muvofiq esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o‘rnbosarlarini, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi; O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining a‘zolarini qonunga muvofiq tasdiqlaydi.

Oxirgi ikki yil davomida sud hokimiyatini amalga oshirishda bevosita ta‘sir etadigan sud tizimida, ularning ijtimoiy moddiy ta‘minoti va faoliyatining kafolatlarida qator o‘zgarishlan amalga oshirildi. Xususan, jinoyat, fuqarolik, ma‘muriy va iqtisodiy nizolarni ko‘rvuch ko‘p pag‘onali sudlar tizimi shakllantirilib, ushbu sudlarning sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi belgilandi.

Mazkur yangilanishlar asnosida, Konstitutsiyaning 107-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etiladigan bo‘ldi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari

bo‘yicha sndlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma‘muriy sndlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sndlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sndlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sndlari va tuman, shahar ma‘muriy sndlardan iborat”.

Qolaversa, 110-moddaning birinchi qismi “jinoiy” degan so‘zdan keyin, “iqtisodiy” degan so‘z bilan to‘ldirildi, uchinchini qismidagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliv sndlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sndlari va harbiy sndlarning” degan so‘zlar “quyi sndlarning” degan so‘zlar bilan almashtirildi.

Sudyalar oliv kengashinining konstitutsiyaviy maqomini mustahkamlash maqsadida, Konstitutsiyaning 111-moddasi yangi tavsifda bayon etildi. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiiga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham “O‘tgan bir yil davomida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Xususan, sndlар tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hech qaysi hokimiyat bo‘g‘iniga bo‘ysunmaydigan organ – Sudyalar oliv kengashi tashkil etildi. Kengash tomonidan sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlashda ta‘sirchan jamoatchilik nazorati o‘rnatildi”<sup>318</sup>, deb bu borada amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib o‘tgan edi. Shubhasiz, ushbu sohada amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynadi.

---

<sup>318</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Узбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизматининг расмий веб-саити – [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sud - huquq sohasini mustahkamlash maqsadida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmogda. Xususan, 2017-yil 1-iyunda e'lon qilingan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsisining ayrim moddalariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida (80, 93,108 va 109-moddalariga)gi qonunida, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi maqomi, faoliyat qayta ko'rib chiqilib takomillashtirildi. Mazkur o'zgartishlarga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80- moddasining 5- bandi chiqarib tashlandi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisini tayinlash).

Shuningdek, mazkur moddaning 12-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining" degan so'zlar chiqarib tashlandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatiga tegishli bo'lgan Konstitutsianing 93-modda birinchi qismining 13-bandidagi "O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi" degan so'zlar chiqarib tashlandi. Bu yerda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Oliy Majlis Senatiga Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi nomzodini taqdim etish vakolati haqida so'z bormoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sud hokimiysi organidir. Konstitutsiyaviy sud huquqiy maqomini takomillashtirish yuzasidan 1995-yil 30-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi" to'g'risidagi qonunning ko'plab normalarini yangitdan ko'rib chiqish hamda takomillashtirish natijasida, 2017-yil 31-mayda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi" to'g'risidagi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining konstitutsiyaviy sud faoliyati bilan bog'liq bo'lgan normalari ham takomillashtirildi.

Xususan, Konstitutsianing 108 hamda 109 moddalarini yangi tahrirda bayon etildi. Konstitutsianing 108-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi

va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakilini qo‘sghan holda saylanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi o‘z tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o‘rinbosarini saylaydi.

Xorijiy mamlakatlardan tajribasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Germaniyada federal konstitutsiyaviy sud mamlakat parlamentining yuqori palatasi – Bundesrat tomonidan shakkantiriladi. Bunda nomzodlar palata jami a‘zolarining uchdan to‘rt qismi ovozini to‘plashi lozim<sup>1</sup>.

Mazkur o‘zgartishlarga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudni saylashda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining ishtiroki, Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o‘rinbosarini saylash tartibi konstitutsiyaviy sud majlisi tomonidan amalga oshirilishi kabi yangi qoidalarni nazarda tutadi.

Konstitutsyaning 109-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

---

<sup>1</sup>Xorijiy mamlakatlardan konstitutsiyaviy huquqi darslik/ A.A.Azizzxo‘jayev: - T.: TDYI nashriyoti, 2010. – 58 -59 betlari.

qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning hujjati rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi".

Mazkur o'zgartishlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqish, konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etish kabi yangi qoidalar bilan takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida Kengashlar faoliyati xususida to'xtlib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: " Keyingi paytda yurtimizda xalq deputatlari

Kengashlarining roli, xalq noiqlarining vakolatlari tubdan oshirildi. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma — bosqich kengaytirildi, deputatlik nazorati esa mustahkamlandi<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, mamlakatimizda davlat hokimiyati vakillik organlarini saylov orqali shakllantirib olish, unda fuqarolarimizning o‘z siyosiy huquqlarini erkin amalga oshirish imkoniyatini yaratish masalasiga jiddiy e‘tibor berib kelinmoqda. 2017-yil 29-avgustdagi “Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonun, davlat hokimiyatining demokratik asoslarini, vakillik organlarining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi roli va ahamiyatini yanada mustahkamlash, shuningdek, mahalliy Kengashlarga saylovni saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, saylovchilarining xohish-irodasiga to‘la muvofiq hamda xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda o‘tkazish maqsadida qabul qilindi.

Mazkur qonun asosida 2017-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 2 ta moddasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

Xususan, 99-moddadagi, “shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan” degan so‘zlar chiqarib tashlandi. Negaki, mazkur qoida shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda xalq deputatlari kengashlarini tuzish imkonini bermas edi.

Qolaversa, 102-moddaning: uchinchi qismidagi “tegishli viloyat hokimi tomonidan” degan so‘zlar “viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan” degan so‘zlar bilan almashtirildi; to‘rtinchi qismi chiqarib tashlandi; beshinchi qismi to‘rtinchi qism deb hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma‘ruzasida, hokimiyatning xalq saylagan vakillik organlari — parlament, xalq deputatlari kengashlarining mamlakatimiz

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.  
— Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. — 33 б.

ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va ahamiyati tubdan o'zgarganligi, Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirilib, parlament va jamoatchilik nazorati institutlari mustahkamlanayotganligiga alohida e'tibor qaratdi.

Qolaversa, Toshkent shahrida tumanlar darajasida xalq deputatlari kengashlari ta'sis etilganligiga, shu vaqtgacha poytaxt tumanlarining fuqarolari bunday imkoniyatga ega bo'lmaganligiga, bu borada adolatni tiklab, Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartirishlar kiritilganligi, Toshkent shahri aholisi ham endi o'z vakillari – deputatlar orqali tumanlarni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'layotganligiga to'xtalib o'tdi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, Respublikamiz viloyatlarida viloyat kengashlaridan tashqari, tuman va shahar kengashlariga ham saylovlar bo'lib o'tadi. Toshkent shahrida esa, 2017-yilga qadar faqat Toshkent shahri xalq deputatlariga saylovlar bo'lib o'tar edi. Ushbu noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida ham Toshkent shahridagi tuman kengashlariga ham ilk bora saylovlar tashkil etildi. Bu albatta, tuman kengashining ijro hokimiyati faoliyati ustidan samarali vakillik nazoratini o'rnatishga imkon tug'diradi.

Mustaqilligimizning ilk yillardanoq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ular faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va rivojlantirish, ushbu institutni jamiyat siyosiy, iqtisodiy va ma'nnaviy hayotining ajralmas qismiga aylantirish masalasiga muhim etibor berib kelinmoqda.

Hozirda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, turli sohalarni erkinlashtirish masalalari, shu jumladan o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirishda davlatimiz tomonidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

2018-yil 15-oktabrdagi “Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida”gi qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 105-moddasining birinchi qismidagi

---

<sup>1</sup> Караг Конституция – эркин ва фаровон хаёгимиз, мамлакатимизни янада тараккий этиришнинг мустахкам пойдеворидир. //Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килингакининг 25 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маъруzasи Халқ сузу, 2017 йил 8 декабрь.

“ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirildi.

“Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) uch yil muddatga saylanashi belgilab qo‘yildi. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ning 2,5 yillik vakolat muddati ularga o‘z bilim va boshqaruv qobiliyatlarini namoyon etishga yetarlicha imkoniyat yaratmaydi. Vakolat muddati masalasida yaxlit raqamning yo‘qligi xalqaro tajribaga mos kelmaydi hamda saylovlarni har doim aniq bir vaqtida o‘tkazish imkonini bermaydi.

Ijro hokimiyati faoliyatini shakllantirishdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolati va ishtirokini yanada takomillashtirish maqsadida, 2019-yil 5-martdagи “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas‘uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga O‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93.98 - moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

Shunday qilib, bugungi kungacha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘ndan ortiq marotaba o‘zgartish va qo‘srimcha kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

***birinchidan***, 1993-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi I-qismi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 150 nafar deputatdan iborat)dagи “150 nafar deputatdan” degan so‘zlar “deputatlardan” degan so‘z bilan almashtirildi;

***ikkinchidan***, 2003-yil 24-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga va Konstitutsiyaning 6-bo‘limi 127-moddasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi;

***uchinchidan***, 2007-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish

to‘g‘risida”gi Qonun bilan Konstitutsianing 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritildi;

**to‘rtinchidan**, 2008-yil 25-dekabrdagi “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan kiritilgan o‘zgartishga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasining birinchi qismi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat” deb bayon etildi;

**beshinchidan**, 2011-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (78, 80, 93, 96, va 98-moddalariga)”gi Qonun bilan Konstitutsianing 78, 80, 93, 96, va 98-moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi;

**oltinchidan**, 2011-yil 12-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritilib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati etti yildan besh yilga qisqartirildi;

**ettinchidan**, 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonumi bilan Konstitutsianing 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi;

**sakkizinchidan**, 2017-yil 6-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan Konstitutsiyasining 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi;

**to‘qqizinchidan**, 2017 yil 31 mayda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan Konstitutsianing 80, 93, 108 va 109-moddalariga

o‘zgartishlar kiritildi. Bunda bevosita sud organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o‘zgartirildi;

***o‘ninchidan***, 2017-yil 29-avgustda “Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonuni bilan Konstitutsiyamizning 99, 102-moddalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Ya’ni, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda xalq deputalari kengashlarini tashkil etish mumkin emasligi to‘g‘risidagi norma chiqarib tashlandi;

***o‘n birinchidan***, 2018-yil 15-oktabrdagi “Fuqarolar yig‘ini raisi(oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 105-moddasining birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Endilikda, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) 3 yil muddatga saylanadigan bo‘ldi;

***o‘n ikkinchidan***, 2019-yil 5-martdagи “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas‘uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93,98 - moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

### ***O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari***

1. Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish tartibi qaysi huquqiy asoslarda keltirib o‘tilgan?
2. Xorijiy mamlakatlarda Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish tartibi to‘xtalib o‘ting?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish qanday amalga oshiriladi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar necha marta o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish asosan qaysi bo‘limga tegishli?

## MUNDARIJA

|   |          |
|---|----------|
| <b>KIRISH.....</b>  | <b>3</b> |
| <b>BIRINCHI BO'LIM. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ<br/>TUSHUNCHASI, PREDMETI, TIZIMI, MUSTAQIL HUQUQ<br/>TARMOG'I VA FAN SIFATIDA .....</b> | <b>6</b> |
| I BOB: KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ PREDMETI, TUSHUNCHASI VA<br>USLUBLARI .....   | 6        |
| 1-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining paydo bo'lishi .....   | 6        |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi .....  | 8        |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi predmetining o'ziga xos<br>xususiyatlari .....                                | 9        |
| 4-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi obyekti .....   | 10       |
| 5-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi subyektlari .....   | 10       |
| 6-§. Konstitutsiyaviy huquq fanining nomi xususida .....  | 11       |
| 7-§. O'zbekistong Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi o'quv kursining<br>metodlari .....   | 12       |
| 8-§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimi .....  | 12       |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....  | 14       |
| II BOB: KONSTITUTSIYA NAZARIYASI .....  | 15       |
| 1-§. Konstitutsiya tushunchasi .....  | 15       |
| 2-§. Konstitutsiyaning mohiyati .....   | 16       |
| 3-§. Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo'lish (klassifikatsiyalash) .....  | 16       |
| 4-§. Formal va moddiy Konstitutsiya. Yuridik va amaliy Konstitutsiya .....  | 18       |
| 5-§. Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlari .....  | 18       |
| 6-§. Konstitutsiyaning yuridik mazmuni .....  | 19       |
| 7-§. Konstitutsiyaning funksiyalari .....   | 19       |
| 8-§. Konstitutsiyaning tuzilishi .....  | 19       |
| 9-§. Konstitutsiya loyihalarini tayyorlash .....  | 20       |
| 10-§. Konstitutsiyani qabul qilish usullari .....   | 20       |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....  | 22       |
| III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY HUQUQI<br>NORMALARI TUSHUNCHASI, MANBALARI VA TIZIMI .....                       | 23       |
| 1-§. Konstitutsiyaviy – huquqiy normalar tushunchasi va ularning o'ziga xos<br>xususiyatlari .....                                  | 23       |
| 2-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tuzilishi va turlari .....   | 27       |
| 3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, ularning subyektlari, obyektlari va<br>turlari .....                                    | 32       |
| 4-§. Konstitutsiyaviy huquqning manbalari .....   | 38       |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....  | 40       |
| IKKINCHI BO'LIM. ASOSIY PRINSIPLAR.....   | 41       |
| IV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENITETI .....  | 41       |
| 1-§. Suverenitet tushunchasi va belgilari .....   | 41       |

|  |            |
|--|------------|
| 2-§. Suverenitet turlari .....   | 44         |
| 3-§. O'zbekiston – suveren demokratik respublika .....   | 47         |
| 4-§. Suverenitetni ta'minlashning halqaro huquqiy asoslari .....   | 56         |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....   | 57         |
| <b>V BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ HOKIMIYATCHILIGI .....</b>   | <b>58</b>  |
| 1-§. Xalq -- davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi .....  | 58         |
| 2-§. Konstitutsiya va O'zbekiston xalqi.....   | 64         |
| 3-§. Referendum – bevosita demokratiya shak'i .....  | 68         |
| 4-§. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linish printsipi .....  | 73         |
| 5-§. Sijosiy va mafkuraviy xilma-xillik – demokratiya sharti .....   | 81         |
| 6-§. Xalq hokimiyatchiligi va umuminsoniy qadriyatlar .....  | 85         |
| 7-§. Ijtimoiy adolat va qonuniylik – demokratiyaning muhim sharti .....  | 90         |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....   | 94         |
| <b>VI BOB.KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI.....</b>  | <b>95</b>  |
| 1-§. O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Barchaning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishi zarurligi ..... | 95         |
| 2-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashmexanizmi .....  | 101        |
| 3-§. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash borasida xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy tajribasi .....                     | 106        |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....   | 107        |
| <b>VII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING</b>   | <b>108</b> |
| <b>KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b>   | <b>108</b> |
| 1-§. O'zbekiston – xalqaro huquq subyekti .....  | 108        |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiylar .....  | 110        |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining huquqiy asoslari.....  | 113        |
| 4-§. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligi .....  | 115        |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....   | 120        |
| <b>UCHINCHI BO'LIM. INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI,ERKINLIKHLARI VA BURCHLARI.....</b>                                      | <b>121</b> |
| <b>VIII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARIGA XOS UMUMIY QOIDALAR .....</b>                              | <b>121</b> |
| 1-§.Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining tushunchasi.....   | 121        |
| 2-§. Fuqarolarning qonun oldida tengligi konstitutsiyaviy tamoyilining mohiyati.....   | 125        |
| 3-§. Fuqaro va davlatning o'zaro mas'ulligi.....   | 128        |
| 4-§. Huquqlar daxlsizligi va sud himoyasi .....  | 132        |
| 5-§. O'zgalarning huquq va manfaatlariga daxi qilmaslik .....  | 135        |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....   | 138        |
| <b>IX BOB O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK VA UNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b>   | <b>139</b> |
| 1-§. Fuqarolik tushunchasi .....   | 139        |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining konstitutsiyaviy-huquqi asoslari .....  | 143        |
| 3-§. Fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish va yo'qotishning umumiy qoidalari .....  | 153        |

|  |            |
|--|------------|
| 4-§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish asoslari.....  | 155        |
| 5-§. O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni to'xtatilishi.....   | 162        |
| 6-§. Fuqarolik masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari .....   | 165        |
| 7-§. Fuqarolikka oid arizalar va taqdimnomalarini ko'rib chiqish tartibi .....   | 168        |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....   | 173        |
| <b>X BOB. SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLER .....</b>   | <b>174</b> |
| 1-§. Shaxsiy huquq va erkinliklarning mohiyati va turlari .....  | 174        |
| 2-§. YAshash huquqi va uning kafolatlanishi.....   | 178        |
| 3-§. Shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi .....   | 184        |
| 4-§. Aybsizlik prezumptsiyasi huquqi .....   | 192        |
| 5-§. Himoyalanish va shaxs qadr-qimmatining hurmat qilinishi huquqi .....  | 196        |
| 6-§. Erkin ko'chib yurish huquqi .....   | 202        |
| 7-§. Fuqaroning so'z va fikrlash erkinligi huquqi .....  | 204        |
| 8-§. Fuqarolarning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi .....   | 207        |
| 9-§. Vijdon erkinligi huquqi.....  | 208        |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....   | 210        |
| <b>XI BOB. SIYOSIY HUQUQLAR .....</b>  | <b>212</b> |
| 1-§. Fuqarolarning siyosiy huquqlari .....   | 212        |
| 2-§. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki .....  | 213        |
| 3-§.Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi.....  | 223        |
| 4-§.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi ..... | 228        |
| 5-§.Fuqarolarning murojaat qilish huquqi .....   | 235        |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....   | 242        |
| <b>XII BOB. INSONNING IJTIMOIY-IQTISODIY HUQUQLARI.....</b>  | <b>243</b> |
| 1-§.Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari .....  | 243        |
| 2-§.Insonning mulkdor bo'lish huquqi .....   | 244        |
| 3-§.Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash, ishsizlikdan himoyalanish huquqi.....   | 246        |
| 4-§.Dam olish huquqi.....  | 252        |
| 5-§.Qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda iqtisodiy ta'minot olish huquqi.....  | 254        |
| 6-§.Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi .....   | 259        |
| 7-§.Bilim olish huquqi .....   | 263        |
| 8-§.Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.....   | 266        |
| O'zini- o'zi nazorat qilish savollari .....  | 271        |
| <b>XIII BOB. O'ZBEKİSTONDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLERINING KONSTITUTSIYAVİY KAFOLATLARI.....</b>   | <b>272</b> |
| 1-§. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi.....  | 272        |

|   |            |
|---|------------|
| 2-§. Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishning kafolatlanganligi.....                  | 275        |
| 3-§. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalar huquqlarining davlat himoyasidaligi.....          | 278        |
| 4-§. Konstitutsiyada xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi.....   | 283        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 287        |
| <b>XIV BOB. O‘ZBEKISTONDA FUQAROLAR BURCHLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b>                                 | <b>288</b> |
| 1-§. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari .....   | 288        |
| 2-§. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi .....   | 290        |
| 3-§. Fuqarolarning tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosni asrash majburiyati..  | 294        |
| 4-§. Fuqarolarning atrof tabiiy muhitga bo‘lgan munosabati .....  | 298        |
| 5-§. Fuqarolarning soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga doir burchlari..  | 301        |
| 6-§. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish.....  | 303        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 308        |
| <b>TO‘RTINCHI BO‘LIM. JAMIYAT VA SHAXS.....</b>   | <b>309</b> |
| <b>XV BOB. JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI .....</b>  | <b>309</b> |
| 1-§. O‘zbekiston iqtisodiyotida mulk shakllari va ularning huquqiy kafolatlari  | 309        |
| 2-§. Xususiy mulkning daxlsizligi .....   | 319        |
| 3-§. Mulk huquqi va uni amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslari .....   | 323        |
| 4-§. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi xususiyatlari .....  | 327        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 336        |
| <b>XVI BOB. O‘ZBEKISTONDA JAMOAT BIRLASHMALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b>                      | <b>337</b> |
| 1-§. Jamoat birlashmalaring jamiyatda tutgan o‘rni .....  | 337        |
| 2-§. Jamoat birlashmalari tizimi .....  | 339        |
| 3-§. Jamoat birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi .....  | 341        |
| 4-§. Jamoat birlashmalaring turlari .....   | 343        |
| 5 §. Siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy maqomi .....   | 345        |
| O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 359        |
| <b>XVII BOB. OILA .....</b>   | <b>360</b> |
| 1-§. Oila jamiyat va davlat muhofazasida.....   | 360        |
| 2-§. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatları .....                                       | 367        |
| 3-§. Ota-onalar va bolalarning shaxsiy huquq va majburiyatları .....  | 373        |
| O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari.....   | 376        |
| <b>XVIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b> | <b>377</b> |
| 1-§. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....                                  | 377        |
| 2-§. Ommaviy axborot vositalarining huquq va majburiyatları .....   | 381        |
| O‘zini-o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 385        |
| <b>XIX BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT VA MA‘MURIY-HUDUDIY TUZILISHI.....</b>                                | <b>386</b> |
| 1-§. Davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishi.....  | 386        |
| 2-§. O‘zbekiston respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi.....   | 389        |

|   |            |
|---|------------|
| 3-§. Ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil etish, o'zgartirish va tugatish tartibi   | 394        |
| O'zini -o'zi nazorat qilish savollari .....   | 396        |
| XX BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI .....   | 397        |
| 1-§. Qoraqalpog'istonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi .....   | 397        |
| 2-§. Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi .....   | 404        |
| 3-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari.....                                 | 411        |
| 4-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining konstitutsiyaviy maqomi.....   | 418        |
| 5-§. Qoraqalpog'iston Respublikasida sud hokimiyati tizimi .....  | 424        |
| 6-§. Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari.....   | 431        |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savollari .....  | 435        |
| <b>OLTINCHI BO'LIM. DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI .....</b>  | <b>436</b> |
| XXI BOB. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY MAJLISINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI .....  | 436        |
| 1-§. O'zbekistonda parlament institutining shakllanishi va rivojlanishi .....   | 436        |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining davlat hokimiyati tizimidagi tutgan o'rni hamda konstitutsiyaviy vakolatlari ..... | 449        |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni .....  | 472        |
| 4-§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosining huquqiy maqomi .....                 | 480        |
| O'zini - o'zi nazorat qilish savollari .....  | 494        |
| XXII BOB. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI .....   | 495        |
| 1-§. Prezidentlik institutining tarixan vujudga kelishi va rivojlanishi.....  | 495        |
| 2-§. Xorijiy mamlakatlarda prezidentlik instituti va uning o'ziga xos jihatlari   | 499        |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi .....  | 505        |
| 4-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari .....  | 512        |
| O'zini- o'zi nazorat qilish savollari .....   | 522        |
| XXIII BOB. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI .....                                  | 523        |
| 1-§. Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining hukumati.....  | 523        |
| 2. § O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi .....   | 530        |
| 3. § O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy funksiyalari .....  | 545        |
| 4-§ O'zbekiston Respublikasi Vaziralar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlari .....                       | 552        |
| O'zini- o'zi nazorat qilish savollari .....   | 562        |
| XXIV BOB. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....  | 563        |
| 1-§. Mahalliy davlat organlari tizimi .....   | 563        |
| 2-§. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari va vakolatlari .....   | 565        |

|  |            |
|--|------------|
| 3-§. Xalq deputatlari Kengashi – hokimiyatning vakillik organi.....  | 569        |
| 4-§. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarini tashkil etish tartibi, tarkibi, faoliyat shakli .....   | 571        |
| 5-§. Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarining huquqiy maqomi.....  | 574        |
| 6-§. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari. Hokimning maqomi .....   | 577        |
| 7-§. Hokimlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibi .....   | 580        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....   | 581        |
| <b>XXV BOB. FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI.....</b>  | <b>583</b> |
| 1-§.Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asosi, uni tuzish tartibi va vakolatlari .....  | 583        |
| 2-§. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylash tartibi .....  | 592        |
| 3-§. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tarkibiy tuzilmalari, ularning vakolatlari .....   | 599        |
| 4-§. FO‘O‘BO ning mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabatlari .....  | 603        |
| O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 605        |
| <b>XXVI BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSUYAVIY ASOSLARI .....</b>   | <b>606</b> |
| 1-§.Sud hokimiyati va sud tizimi tushunchasi hamda asosiy belgilari.....   | 606        |
| 2-§. Odil sudlov va uning konstitutsiyaviy prinsiplari .....   | 612        |
| 3-§.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.....  | 630        |
| 4-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi .....  | 643        |
| 5-§. Quyi ixtisoslashtirilgan sudlar .....   | 648        |
| 6-§. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi .....   | 655        |
| 7-§. Sudyalarning huquqiy maqomi .....   | 658        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....   | 663        |
| <b>XXVII BOB. SAYLOV TIZIMINING KONSTITUTSIYAVIY .....</b>   | <b>664</b> |
| 1-§. Saylov huquqi va saylov tizimi .....  | 664        |
| 2-§. Saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari .....   | 674        |
| 3-§.O‘zbekiston Respublikasida saylov o‘tkazish prinsiplari .....  | 680        |
| 4-§.Saylovlarda xalqaro standartlar (andozalar) qo‘llanilishi hamda Xalqaro hujjat qoidalari O‘zbekiston saylov qonunchiligiga implementatsiya qilish .. | 682        |
| 5-§. O‘zbekiston Respublikasida referendum va uni o‘tkazish tartibi .....  | 687        |
| O‘zini - o‘zi nazorat qilish savollari .....   | 695        |
| <b>XXVIII BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI .....</b>  | <b>697</b> |
| 1-§. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanishi .....   | 697        |
| 2-§. Prokuorning qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat faoliyati .....  | 700        |
| 3-§.Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi .....   | 706        |
| O‘zini- o‘zi nazorat qilish savollari .....  | 713        |
| <b>XXIX BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VA XAVFSIZLIGIN TA‘MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI .....</b>   | <b>714</b> |
| 1-§. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa va xavfsizligining axamiyati .....   | 714        |

|   |            |
|---|------------|
| 2-§. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy prinsiplari va normalari .....   | 717        |
| 3-§. Milliy xavfsizlikning subyekti, ob'ekti hamda uni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati.....   | 726        |
| 4-§. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tuzilishi va boshqarish asoslari .....  | 730        |
| 5-§. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - milliy xavfsizlik kontseptsiyasining asosi sifatida .....   | 737        |
| 6-§. Mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy – huquqiy asoslari .....   | 744        |
| O'zini-o'zi nazorat qilish savolari .....   | 755        |
| <b>YETTINCHI BO'LIM. KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI .....</b>  | <b>756</b> |
| <b>XXX BOB. KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI .....</b>  | <b>756</b> |
| 1-§. Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tushunchasi va tartibi .....  | 756        |
| 2-§. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar va Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zaruriyati .... | 763        |
| O'zini- o'zi nazorat qilish savollari .....   | 784        |

y.f.d., akademik, A.X.SAIDOV; y.f.d., professor, M.X.RUSTAMBAYEV;  
y.f.d., professor, O.XUSANOV; y.f.d., professor, X.B.BOBODEV;  
yu.f.n., döts. SH.G'.ASADOV; y.f.d., professor, D.Q.AHMEDOV;  
mustaqil izlanuvchi J.D.AXMEDOV; y.f.d. M.M.MIRAKULOV;  
y.f.d., professor, M.B.USMONOV; yu.f.n. N.M.QO'SHAYEV;  
y.f.d., professor X.T.MAMATOV ; dotsent M.I.MAXSADOV;  
y.f.d., professor F.X.RAXIMOV; y.f.d. N.I.XAYRIYEV;  
y.f.d. D.M.MIRAZOV; y.f.d. G.R.MALIKOVA;  
yu.f.n., dotsent A.E.RAXMONOV; yu.f.n., dotsent O.K.TURG'UNOV;  
yu.f.n., dotsent G'.T.XAKIMOV; yu.f.n., professor, G.YULDASHEVA;  
yu.f.n., dotsent SH.X.ZULFIQOROV; yu.f.n., dotsent I.R.BEKOV;  
yu.f.n., dotsent A.M.XOSHIMXONOV; yu.f.n. J.ABDULLAYEV;  
yu.f.n. U.SH. XUSAINOV; yu.f.n., dotsent M.M.NURMATOV;  
yu.f.n. M.SH.CHORIYEV; yu.f.n., dotsent A.A.NURJDULLAYEV;  
E.O.XOMIDOV; yu.f.n. A.E.YO'LADOSHEV.

## KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

### DARSLIK

Muharrir: A. Raximov

Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.

Bosishga ruxsat berildi 11.11.2019. Buyurtma № 35. Format 60x84/16  
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.

Hajmi 45,6 sh.b.t., 47,4 n.-h.t. Adadi 100 nusxa.

Nashriyot lisenziyasi Ai №004, 20.07.2018 y.  
«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.  
Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.  
Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.  
Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.  
Tel.: +998 71 244 40 89

